Проведен ретроспективный анализ результатов дооперационного обследования, интраоперационного ультразвукового исследования (УЗИ) и лечения 46 (22,8 %) пациентов с осложненным эхинококкозом – с поражением печени или в сочетании с другими локализациями (у 8 пациентов – сочетанные осложнения). У 36 больных обнаружена одиночная киста печени, у 10 – множественные кисты. Прорыв кисты в соседние органы был у 6 пациентов, из которых у 2 – прорыв в плевральную полость, у 2 киста прорвалась в желчные протоки и у 2 – в большой сальник. Все пациенты прооперированы в нашей клинике. Всем больным проведены комплексные клиничко-лабораторные и инструментальные исследования органов брюшной полости, включающие УЗИ, компьютерную томографию (КТ), мультиспиральную компьютерную томографию (МСКТ), магнитно-резонансную томографию (МРТ), эндоскопическую фиброгастродуоденоскопию (ЭФГДС). Общеклиническое обследование проводили по стандартной методике. Лабораторные исследования включали общий анализ крови и мочи, определение уровня общего билирубина и его фракций, общего белка и его фракций, амилазы, сахара, мочевины, креатинина, АЛТ, АСТ, тимоловую пробу, коагулограмму.

Инструментальная и лабораторная диагностика паразитарного заболевания печени нередко представляет трудную задачу, что связано с его бессимптомным течением, особенно в раннем периоде развития, при расположении кисты в глубине органа.

По данным различных исследований, чувствительность УЗИ в выявлении эхинококкоза составляет 88–98 %, а специфичность – 95–100 %. Эхинококковая киста имеет несколько характерных ультразвуковых признаков. Это гипоэхогенное (анэхогенное) образование, окруженное «хитиновой оболочкой» – гиперэхогенной структурой, на внутренней поверхности которой нередко определяются множественные гиперэхогенные включения, так называемый «гидатидный песок», представленный зародышевыми элементами эхинококка.

Выделено несколько ультразвуковых признаков, патогномичных для эхинококковой кисты: 1) собственно киста – гипоэхогенное (анэхогенное) образование; 2) хитиновая оболочка – гиперэхогенная структура, часто имеющая гипоэхогенную прослойку между кутикулярным и герминативным слоями; 3) «гидатидный песок» на дне кисты (зародышевые элементы эхинококка); 4) фиброзная капсула – гиперэхогенный ободок, отделен от

хитиновой оболочки гипозоногенным слоем, представляющим собой лимфатическую «щель»; 5) отслоившаяся хитиновая оболочка – ленточная гиперзоногенная структура в просвете кисты; дочерние кисты – дополнительные кистозные включения [1].

Первичный эхинококкоз печени с осложнением был у 37 (80,4 %) из 46 пациентов, с рецидивной и резидуальной эхинококковой кистой печени – у 9 (19,6 %). Наиболее частым осложнением было нагноение эхинококковой кисты – в 17 (37 %) наблюдениях, разрушение фиброзной капсулы с открытием в ее просвет желчных свищей – в 16 (34,8 %), обызвествление фиброзной капсулы – в 3 (6,5 %), прорыв в свободную брюшную полость – в 4,3 %, сочетанные осложнения – в 8 (17,4 %), из них прорыв эхинококковой кисты в билиарный тракт – у 2 пациентов и прорыв в плевральную полость – у 2.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Традиционные операции выполнены 46 пациентам. Из них у 26 (56,5 %) произведена закрытая эхинококкэктомия, причем у 12 – с использованием перицистэктомии. В 14 (30,4 %) наблюдениях выполнена полужакрытая эхинококкэктомия, из числа которых в 2 – с применением перицистэктомии. У 6 больных операция была радикальной, в том числе у 1 – полная перицистэктомия, у 4 – краевая резекция печени и у 1 – полное удаление кисты вместе с фиброзной капсулой без ее вскрытия. У 2 больных был прорыв эхинококковой кисты в желчные протоки с развитием механической желтухи, холангита и лихорадки. Им эхинококкэктомия произведена в сочетании с холедохотомией и дренированием общего желчного протока по Керу. У 2 пациентов имелся прорыв кисты в правую плевральную полость, им выполнена нижняя лобэктомия. У 7 больных произведена симультанная холецистэктомия у 1 – эхинококкэктомия из яичника. Размеры осложненных эхинококковых кист по интраоперационной оценке варьировали от 1 до 20 см (в среднем – 7 см). Больных со множественными кистами печени при оперативном вмешательстве использовали интраоперационное УЗИ, сопоставляя его данные с предоперационными результатами МСКТ, особенно при внутрпеченочном расположении эхинококковых кист, которые локализовались в правой доле печени и имели диаметр менее 5 см. Всем больным с целью ликвидации оставшихся протосколексов и ацефалоцист проводили девастиационные мероприятия. Остаточную полость обрабатывали 70 % спиртом и 5 % настойкой йода. У 14 пациентов в остаточную полость вводили полихлорвиниловую дренажную трубку, выведенную через контрапертуру.

Обнаруживаемые желчные свищи размерами от 0,1 до 0,5 см ушивали капроновой нитью. Остаточные полости промывали через дренажные трубки раствором Декасана с экспозицией 3–5 мин. Через 15–20 суток после контрольной УЗС дренажи извлекали. В послеоперационном периоде у 8 больных наблюдали явления интоксикации в виде гипертермии, лейкоцитоза, которые купированы симптоматической терапией. У 3 пациентов был экссудативный плеврит, им проводили плевральную пункцию с введением антибиотиков и дыхательную гимнастику с положительным эффектом. Одному больному в связи с нагноением остаточной полости выполнена релапаротомия, санация остаточной полости с дренированием. В последующем произведена фистулография, дренаж извлечен. , дренаж извлечен.

34 (74,5 %) из 46 пациентов выполнены операции с максимально возможным удалением свободной части фиброзной капсулы. Во время удаления эхинококковой кисты 8 больным выполнены различные варианты краевой резекции печени. У 1 из них типичная резекция печени сочеталась с частичной перицистэктомией из другой доли печени у 1 – полное удаление кисты вместе с фиброзной капсулой без ее вскрытия.

У 2 больных был прорыв эхинококковой кисты в желчные протоки с развитием механической желтухи, холангита и лихорадки. Им эхинококкэктомия произведена в сочетании с холедохотомией и дренированием общего желчного протока по Керу. У 2 пациентов имелся прорыв кисты в правую плевральную полость, им выполнена нижняя лобэктомия. У 7 больных произведена симультанная холецистэктомия, у 1 – эхинококкэктомия из яичника. Размеры осложненных эхинококковых кист по интраоперационной оценке варьировали от 1 до 20 см (в среднем – 7 см).

У больных со множественными кистами печени при оперативном вмешательстве использовали интраоперационное УЗИ, сопоставляя его данные с предоперационными результатами МСКТ, особенно при внутривнутрипеченочном расположении эхинококковых кист, которые локализовались в правой доле печени и имели диаметр менее 5 см.

Всем больным с целью ликвидации оставшихся протосколексов и ацефалоцист проводили девастиационные мероприятия. Остаточную полость обрабатывали 70 % спиртом и 5 % настойкой йода. У 14 пациентов в остаточную полость вводили полихлорвиниловую дренажную трубку, выведенную через контрапертуру. Обнаруживаемые желчные свищи размерами от 0,1 до 0,5 см ушивали капроновой нитью. Остаточные полости промывали

через дренажные трубки раствором Декасана с экспозицией 3–5 мин. Через 15–20 суток после контрольной УЗС дренажи извлекали.

В послеоперационном периоде у 8 больных наблюдали явления интоксикации в виде гипертермии, лейкоцитоза, которые купированы симптоматической терапией. У 3 пациентов был экссудативный плеврит, им проводили плевральную пункцию с введением антибиотиков и дыхательную гимнастику с положительным эффектом.

Одному больному в связи с нагноением остаточной полости выполнена релапаротомия, санация остаточной полости с дренированием. В последующем произведена фистулография, дренаж извлечен.

34 (74,5 %) из 46 пациентов выполнены операции с максимально возможным удалением свободной части фиброзной капсулы. Во время удаления эхинококковой кисты 8 больным выполнены различные варианты краевой резекции печени. У 1 из них типичная резекция печени сочеталась с частичной перицистэктомией из другой доли печени. Признаки инфицирования одной или нескольких кист по характеру содержимого отмечены у 20 (18,2 %) пациентов, нагноение полости кисты – у 15 (13,6 %).

С учетом распространенности экстрапеченочного поражения операция носила сочетанный характер – ликвидация кист в печени и, как правило, эхинококкэктомия кист брюшной полости. Сочетанные хирургические вмешательства выполнены 15 пациентам. В отличие от прорыва с обсеменением брюшной полости и полости малого таза с последующим формированием большого числа эхинококковых кист различного диаметра, все другие рассматриваемые сочетанные поражения имели природу гематогенной инвазии паразита.

Большинство пациентов с сочетанным поражением легких были оперированы с участием торакального хирурга в торакальном отделении в качестве первого или второго этапа лечения. У 2 больных вмешательства на печени и легких выполняли одновременно. Поражение эхинококкозом селезенки потребовало ее удаления у 2 пациентов ввиду больших размеров и интрапаренхиматозного расположения.

Летальных исходов не было. Различные виды специфических и неспецифических послеоперационных осложнений отмечены у 18 (16,4 %) больных. Все пациенты в удовлетворительном состоянии были выписаны на амбулаторное лечение.

ОБСУЖДЕНИЕ

Повторные операции пациентам, которые были ранее оперированы в других учреждениях, по основным принципам хирургических подходов были схожи с первичными, но отличались техническими сложностями, что было связано со спаечным процессом в области печени, брюшной полости и полости малого таза. Хирургическое пособие у большинства из них заключалось в эхинококкэктомии из печени и, по возможности, способом идеальной эхинококкэктомии из брюшной полости. Неосложненное послеоперационное течение было у большинства пациентов.

Наиболее часто встречалось нагноение эхинококковых кист, а прорывы кисты в желчные протоки, брюшную и плевральную полость наблюдали реже. У тех больных, у которых операцию проводили в специализированных областных учреждениях, осложнения встречали редко. В основном больные с осложненным рецидивным эхинококкозом печени были оперированы в районных больницах. Причем большинству этих пациентов практически не проводили полноценную девастиационную терапию. Иногда несколько членов из одной семьи к нам обращались по поводу эхинококкоза, что говорит о необходимости диспансерного обследования всех членов семьи.

ВЫВОДЫ.

1. Среди осложненных форм эхинококкоза печени наиболее часто встречается нагноение кисты. Гораздо реже наблюдается прорыв кисты в желчные протоки, брюшную и плевральную полость.

2. Больные с осложненным эхинококкозом печени должны быть оперированы в специализированном учреждении при наличии современной диагностической и лечебной аппаратуры, высококвалифицированных специалистов. При множественных кистах и малых размерах кист требуется интраоперационная инструментальная диагностика с использованием ультразвуковых датчиков.

3. С целью профилактики рецидивирования заболевания требуется полноценная девастиационная терапия.

4. Целесообразно проводить диспансерное обследование членов семей больных, оперированных по поводу эхинококкоза.

Конфликт интересов / Conflicts of interest

Авторы заявили об отсутствии потенциального конфликта интересов. /
Authors declare no conflict of interest.

REFERENCES

- [1] Шевченко Ю. Л., Назыров Ф. Г. Хирургия эхинококкоза. М. : Династия, 2016. 288 с. [Shevchenko Yu. L., Nazyrrov F. G. Khirurgiya ekhinokokkoza. M.: Dynastia, 2016. 288 p.].
- [2] Шевченко Ю. Л., Стойко Ю. М., Левчук А. Л. и др. Диагностика и лечение осложненных форм эхинококкоза печени // Вестн. Нац. мед.-хирург. Центра им. Н. И. Пирогова. 2012. Т. 7, № 2. С. 22–27. [Shevchenko Yu. L., Stoiko Yu. M., Levchuk A. L. et al. Diagnostika i lechenie oslozhnennykh form ekhinokokkoza pecheni // Vestnik Natsional'nogo mediko-khirurgicheskogo Tsentra im. N. I. Pirogova. 2012. Vol. 7, № 2. P. 22–27].
- [3]. Гайбатов С. П. Клиника и лечение нагноившегося эхинококкоза печени // Хирургия : Журнал им. Н. И. Пирогова. 2006. № 6. С. 16–18. [Gaybatov S. P. Klinika i lecheniye nagnoivshegosya ekhinokokkoza pecheni // Khirurgiya: Zhurnal im. N. I. Pirogova. 2006. № 6. P. 16–18].
- [4] Назыров Ф. Г., Девятков А. В., Махмудов У. М. Спорные вопросы и причины повторных операций при эхинококкозе печени // Анн. хир. гепатол. 2007. Т. 12, № 1. С. 29–35. [Nazyrrov F. G., Devyatov A. V., Makhmudov U. M. Spornye voprosy i prichiny povtornykh operatsii pri ekhinokokkoze pecheni // Annaly khirurgicheskoi gepatologii. 2007. Vol. 12, № 1. P. 29–35].
- [5] Chautems R. Surgical management and long-term outcome of complicated liver hydatid cysts caused by Echinococcus granulos // Surgery. 2005. Vol. 137. P. 312–316.
- [6] Абдуллаев А. Г., Агаев Р. М. Лечебная тактика при послеоперационных осложнениях у больных эхинококкозом печени с поражением желчных протоков // Хирургия : Журнал им. Н. И. Пирогова. 2006. № 7. С. 21–26. [Abdullayev A. G., Agayev R. M. Lechebnaya taktika pri posleoperatsionnykh oslozhneniyakh u bol'nykh ekhinokokkozom pecheni s porazheniyem zhelchnykh protokov // Khirurgiya: Zhurnal im. N. I. Pirogova. 2006. № 7. P. 21–26].
- [7] Джабраилов Д. А., Мусаев Г. Х., Харанас С. С. Эхинококкоз печени, осложненный цистобилиарными свищами : диагностика и тактика лечения // Анн. хир. 2008. № 4. С. 5–9. [Dzhabrailov D. A., Musayev G. Kh., Kharanas S. S. Ekhinokokkoz pecheni, oslozhnennyi tsistobiliarnymi svishchami: diagnostika i taktika lecheniya // Annaly khirurgii. 2008. № 4. P. 5–9].
- [8] Мукантаев Т. Е. Хирургическая тактика при эхинококкозе печени, осложненном прорывом в брюшную полость // Вестн. Дагестан. гос. мед. акад.

2017. № 1 (22). С. 43–47. [Mukantayev T. Ye. Khirurgicheskaya taktika pri ekhinokokkoze pecheni, oslozhnennom proryvom v bryushnuyu polost' // Vestnik Dagestanskoй gosudarstvennoy meditsinskoй akademii. 2017. № 1 (22). P. 43–47].

[9] Ахмедов И. Г. Рецидив эхинококковой болезни : патогенетические аспекты, профилактика, ранняя диагностика и лечение // Хирургия. 2006. № 4. С. 52–57. [Akhmedov I. G. Retsidiv ekhinokokkovoі bolezni: patogeneticheskie aspekty, profilaktika, rannaya diagnostika i lechenie [Recurrence of hydatid disease: pathogenetic aspects, prevention, early diagnosis and treatment] // Khirurgiya. 2006. № 4. P. 52–57].

[10] Альперович Б. И. Хирургия печени. М. : ГЭОТАР-Медиа, 2008. 356 с. [Al'perovich B. I. Khirurgiya pecheni. M.: GEOTAR-Media, 2008. 356 p.].

[11] Мамедов У.С.Сохибова З.Р.Ахмадова М.А. RADIATION DIAGNOSTICS OF LIVER ECHINOCOCCOSIS

[12] Makhmudova G.F. Age-related clinical, anatomical and morphological features of malignant tumors of the cervix// Journal of science and technology//2021.-P.-475-480.

[13] Махмудова Г. Ф., Темирова, Д. В., & Баротова, Ш. Б. (2021). Бачадон бўйни хавфли ўсмаларининг ёшга хос хусусиятлари//Academic research in educational sciences//2(5).-Б.- 186-196. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-202100871>

ME'YOR MUAMMOSINING ILMIIY-PSIXOLOGIK TALQINI

Xudoyqulova Z.A.

Al-Beruniy xalqaro maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada psixologiyada keng yoritilmagan ammo shaxsning barcha soha va faoliyat turlaridagi ishtiroki va ijrosi sifatini belgilab beruvchi, uni mo'tadilligini taminlovchi asoslardan biri me'yor tushunchasiga oid qarashlar yoritiladi. Me'yor tushunchasi turli soha va yo'nalish tarmoqlari doirasida, shuningdek uning tub mohiyatini yoritish, va bu orqali me'yor hissi psixologiya faninig chuqurroq va kengroq yoritilishi zarur bo'lgan jabhalaridan biri ekanligiga doir manbalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *Me'yor tushunchasi, me'yor hissi, muhimlik, shakllantirish, tartib, yetarlilik, qoniqish.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье обсуждается концепция нормы, которая не широко освещается в психологии, но является одной из основ, определяющих качество участия и результативности человека во всех сферах и видах деятельности, а также обеспечивающая ее стабильность. Понятие нормы включает источники в различных областях и направлениях, а также для освещения ее сущности, и, таким образом, смысл нормы является одним из аспектов психологии, который необходимо охватить более глубоко и широко.

Ключевые слова: *понятие нормы, смысл нормы, важность, формирование, порядок, достаточность, удовлетворенность.*

KIRISH

Inson hulq-atvorining tartibga solinishi murakkab psixologik mexanizmlar hisobiga amalga oshadi. Bunda albatta ijtimoiy talablar, milliy-madaniy an'analar, universal ahloqiy qoidalar va boshqa muhim omillarni ko'rsatish mumkin. Ushbu omillarning mexanizmlarini bilish, inson hulq-atvorini boshqarish va unda bolalikdan ma'qullanadigan xulq ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'ta muhim ahamiyatga egadir. Bu borada me'yor hissi shunday dolzarb tadqiqot predmeti sifatida gavdalanadi. Zero, me'yor hissi insonning ichki nazoratchisi sifatida uning atrof-olam bilan bo'lgan ta'sirlashuvi hususiyatlarini belgilab beruvchi psixologik asoslardan biridir.

Me'yor hissi haqida fikr yuritishdan avval, manbalarda me'yor tushunchasiga berilgan ta'riflar bilan tanishsak:

1.Me'yor arabchada "o'lchov, andoza, chegara " ma'nolarini, eski o'zbek-adabiy tilida esa "tartib, daraja" ma'nolarini ifodalashda foydalanilgan.

2.Falsafiy nuqtayi nazardan- dialektikani ifodalovchi kategoriya sanalib, miqdor o'zgarishi obyekt sifatining o'zgarishiga olib keladigan chegara, o'zgarishga olib keluvchi hudud sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Me'yor hissining morfologik ta'rifiga ko'ra, uni o'z orginalligiga ega bo'lgan, his qilinuvchi, ba'zan sezilmas jamiki soha va hissiyotlar markazida turuvchi, nozik chegaralar orqali insonni ma'lum darajalarni egallashini ta'minlovchi psixologik hodisa sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Manbalardan me'yor tushunchasiga antik davr falsafasidan boshlab juda chuqur va muhim e'tibor qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Platon "Har narsada o'lchov bor" deyish orqali go'zallik va chiroyni nazarda tutadi. Demokrit "Barcha narsada me'yorni bilish ulkan fazilatdir" deya u ham san'at va estetika doirasida "oltin o'rtalik" yuksak insoniy fazilat va qadriyat darajasida tahlil qilgan. V.I.Petrushkin me'yor tushunchasi doirasidagi fikrlarini havola qilayotganda tabiiy va uzluksiz jarayon sanab, erta yosh bosqichidan sun'iy singdirish va tabiiy amaliyot orqali mustahkamlash zarur bo'lgan tushuncha ekanligi haqida fikr yuritadi [1].

Me'yor tushunchasi qadimgi Hindiston, Xitoy va Yunonistondagi falsafiy qarashlarida shakllana boshlagan. Markaziy Osiyo mutafakkirlari (Ibn Sino, Beruniy va shu kabilar) ham ushbu atamadan asarlarida foydalanganlar [7].

Antik mifologiyada me'yor hudosi Nemizida hisoblangan. Grek donishmandlari uni alohida ulug'laganlar. Sababi, vaziyat, hodisa va holatlarni tahlil qilishda uning o'rni beqiyos hisoblangan [5].

Shekspir dramaturgiyasida ham renessans davridagi ma'lum bir voqea hodisalar ustidan kinoyali yumor orqali qattiq kulgiga olinadi. "Meyorning me'yori", "Venetsiyalaik haridor" nomli asarlarini me'yorning yetishmasiligi va me'yordan oshish oqibatini jonli ifodalash uchun yaratadi. Undagi bosh urg'u, asosiy diqqat me'yoriy balans va undagi nojoiz va qabullanmas undov, harkat va ruhiy og'riqlar haqida so'z boradi [4]. Guvoh bo'lishimiz mumkinki, me'yor hissi doimo navqiron va e'tibor qaratish muhim bo'lgan hissiy psixologik hodisadir.

Engel Texnologiya Institutida o'quvchilarda haddan ortiq kompyuterga qaramlik kuchayib ketishi oqibatida ijtimoiy-psixologik anonim so'rovnoma o'tkaziladi. Ma'lum bo'lishicha, ulardagi vaqt, fazo, makon, zamon va qoniqish hislarini his qilmasligi oqibatida me'yordan ortiq kompyuter qarshisida muhrlanib

qoladilar. Bu yerda ham me'yor hissining muhimligi, uning me'yordan ortig'i oqibatidagi salbiy fiziologik va psixologik o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin [8].

Qonuniy hujjatlar, boblar, moddalar, cheklovlar; tibbiy talablar, dorivor vositalar, mahsus amaliy tajribaviy jarayonlar; arxitektura sohasi; kulinariya; dizaynerlik; matematik fan va sohalar doirasida ham sohaga olib kiruv va ish sifati bilan ta'minlash, shakllantirishga doir chegaralarda ham albatta me'yor asosiy kategoriya sanaladi. Burxonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida mazkur tushunchaga "Ortig'ini tark qilish, qoidalarni egallash, cheklanish, ichki o'lchov, hakam, odob va axloq ko'rsatgichi" sifatida izoh beriladi. [2]

Darhaqiqat, me'yor tufayli biz o'zimiz va atrofdagilarga yetishi mumkin bo'lgan va to'g'irlash imkonsiz bo'lish ehtimoli mavjud voqea-hodisalardan ongli muhofazalovchi murakkab va muhim jarayondir.

Ushbu mavzuga diniy yo'nalishda ham e'tibor va misollar yorqin aks ettirilgan. Aslida nafaqat diniy yo'nalishdagi manbalardan balki, ilmiy tadqiqotlardan ham barcha hodisa va jarayonlarda me'yor tushunchasi tufayli foydali chegarani qamrab olish imkoniyat vujudga kelishiga e'tibor qaratilgan.

N.E. Mikaladzening Iso payg'ambar hikoyalari, xabarlarini, amallari haqida me'yor doirasida yozilgan "Me'yorning me'yori" pyesasini ilmiy va diniy sharxlab beradi.[6] Bundan ko'rishimiz mumkinki, me'yor hodisasi unversallikka ega bo'lgan har qanday jarayonning sifatli va umum ma'qul holatida davom etishini ta'minlovchi ichki aqliy-hissiy boshqaruvchi ekan.

Ye.G.Sheina va M.V.Sokolova Zamonaviy xorijiy psixologiya va pedagogikada o'yin muhitidagi tavakkal va xavfsizlik muammosi taxlilida haddan ortiq berilish oqibatida, me'yoriy chegaralarning o'rnatilmagani, o'zlashtirilmagani oqibatida jismoniy va ruhiy salbiy oqibatlarining yaqqol namoyon bo'lishi yuzasidan emperik tadqiqot va kuzatuv olib boradilar. Bolalar maydonchalarida xavf bilan bog'liq o'yinlardagi bolalar xatti-harakatlarini o'rganish mobaynida o'yin muhitida xavfni baholash, me'yoriy usullarini ishlab chiqishga doir yondashuvlar muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Buyuk Britaniyaning mahsus ijtimoiy institutidagi kuzatuvlarda ma'lum bo'lishicha, bolalarning o'yin maydonchalarida o'yinlardagi azartdan to'xtolmaslik oqibatida me'yordan ortiq harakatlanadilar va travmali holatlar, oqibatlar bilan yakun topadi. Bundan ko'rinadiki, bolalardagi me'yor shakllanganligi ikki tomonlama o'zaro foydali bo'ladi, ya'ni farzandlardagi me'yor tushunchasi mavjud yoki shakllanganligi ota-onalarda dominant bo'lgan himoya qilish psixologik mehanizmi aktivlashishini kamaytiradi va bolalarda mustaqillik, qoniqish hissi hamda emotsional zo'riqishning oldini olishda yordam beradi[9].

Axloq-odob qoidalari insonning ichki ma'naviy dunyosini shakllantirishga qaratilib bu orqali tashqi muloqotni tartibga solish va umum me'yoriy o'lchovlar orqali jamiyatdagi hotirjamliklar barqaror saqlanadi. Psixologiyadagi "Gedonik yugurish yo'lakchasi" tushunchasidan ma'lumki, agar shaxsda muayyan me'yorlar shakllantirilmasa unda unda to'xtash signali ya'ni normadan oshganlikni idrok qilish, yetarlilik, qoniqish susayadi. Feofilov L.G. "Odamlar o'rtasidagi munosabatlarda xushmuomalalik, kamtarlik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik, yordamga shaylik kabi sifatlarni egallash jamoat va jamiyatda tez qabul qilinish va o'rin topishdagi muhim sifatlardir"-deya e'tirof etadi. Ya'ni jamiyat a'zosi mazkur sifatlarga monand bo'lmagan harakatlarni amalga oshirsa atrof –muhit tomonidan tanqidiy munosabat bildiriladi va me'yoriy sifatlarni talab qilina boshlanadi. Bundan ko'rinadiki nafaqat ichki balki tashqi olam bilan ham sog'lom muhit va munosabatlarni shakllantirishda me'yoriy chegaralar eng katta tayanch va ko'mak sanaladi[10].

XULOSA

Yuqoridagi misol va fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin.

1) me'yor hissi keng qamrovli va dolzarb tadqiqot predmeti bo'lib, antik davr falsafiy ta'limotlaridan to hozirgi kungacha inson haqidagi fan diqqat markazida bo'lib kelmoqda;

2) me'yor hodisasi insonning chuqur ichki kechinmalari bilan bog'liq ravishda fiziologik darajadan tortib ijtimoiy munosabatlarigacha uning xavfsizligini ta'minlovchi muhim omil sanaladi.

REFERENCES

1. Григорьева О.Н. Развитие чувства меры как фактор становления музыкально-эстетического вкуса учащихся// Искусство и образование. – М., 2011. №4. – С.95-101.

2. Бурхонуддин Марғинович. Ҳидоя. Шарҳ бидоятил мубтади. – Т.: "Нил-Нашр", 2020. – 704 б.

3. Державин Г.Р. Сочинения: в 7 т. / Г. Р. Державин; объясн. примеч. и предисл. Я. Сочинения Державина [Текст] : в 7 т. / с объясн. прим. [и предисл.] Я. Грота. - 2-е акад. изд. (без рис.). - Санкт-Петербург : типография Императорской Академии наук. (Вас. Остр., 9 лин., № 12), 1868-1878. - 24 см.

4. Ишук-Фадеева Н.И. Категория меры у Шекспира ("Венецианский купец" и "мера за меру")// Знание. Понимание. Умение. -2013. - № 4. - С.160-165.

5.Новая философская энциклопедия в 4-х томах/ Научно.-ред. совет: В. С. Стёпин, А. А. Гусейнов, Г. Ю. Семигин, А. П. Огурцов. - М.: Мысль, 2000. — Т. 1—4. 2659 с.

6.Микеладзе Н.Э. Притчи Иисуса, деяния и послания апостолов в идейной и образной структуре пьесы «Мера за меру»// Studia Litterarum. – 2020. – Т . 5. - № 1. – С. 94-117.

7.Фалсафа: қомусий луғат (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ. Назаров). — Т.: «Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти— 496 бет.

8.Шиндел С.В., Семенова Т.В. Опыт профилактики компьютерной зависимости молодежи на примере Энгелсского технологического института// Социально-экономическое развитие России: Сб. матер. Всероссийской науч.-практ. конф., 2019. - С. 69-73.

9. Шеина Е.Г., Проблема риска и безопасности игровой среды в зарубежной психологии . Современная зарубежная психология 2016, Том 5. №1.

10.Феофилов Л. Г. Ф42 Умеете ли себя вести?— К.: О-во «Знание» УССР, 1990.— 48 с.— (Сер. 5 «Вдумчивым, любознательным, сообразительным (ВЛС)»;№ 8)

TA'LIM BOZORI VA INTELLEKTUAL SOTSIAL "TOVAR" SIFATI

Ulash Utayevich Mustafayev

falsafa fanlari nomzodi

Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrası katta

o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi

ulashmustafayev1957@gmail.com

tel: 998915850657

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston ta'lim bozorida mavjud muammolar o'rganilgan. Uchinchi renessans davri uchun poydevor qo'yilgan davrda bu muammolarning yechimiga takliflar bayon etilgan. Umumiy o'rta va oliy ta'lim sohasidagi tayyorlanayotgan kadrlar sifatiga salbiy ta'sir qilayotgan omillarning sabablari ko'rsatilgan. Ta'lim sifatini yaxshilashda o'qituvchi maqomi va unga qo'yilgan talablar tarixiy dalillar asosida o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ma'ruzalari va shu sohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlarning monografiyalaridan iqtiboslar keltirilgan holda muallif o'z xulosalarini bergan.

Kalit so'zlar: ta'lim bozori, intellektual sotsial "tovar", o'qituvchi maqomi, renessans, repetitor, o'quv-me'yoriy hujjatlar, davlat talabi, auditoriya va auditoriyadan tashqari talab, dual ta'lim, nepozitizm, proteksionizm, lobbizm.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются существующие проблемы на рынке образования Узбекистана. В период, когда закладывались основы третьего возрождения, выдвигались предложения по решению этих проблем. Указаны причины факторов, негативно влияющих на качество подготовленных кадров в сфере общего среднего и высшего образования. Статус учителя и требования к повышению качества образования изучаются на основе исторических данных. Свои выводы автор даёт, цитируя доклады Президента Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёева и монографии ученых, ведущих исследования в этой области.

Ключевые слова: рынок образования, интеллектуальный социальный "товар", статус учителя, возрождение. репетиторство, учебно-нормативный документы, государственный спрос, аудитория и внеклассный спрос, дуальное образование. Непозитизм, протекционизм, лоббирование.

ABSTRACT

The article examines the existing problems in the education market of Uzbekistan. The solution to these problems in the period of laying the foundation for the third renaissance period. The reasons for the negative impact on the quality of training in general secondary and higher education. The status of the teacher and the requirements for improving the quality of education have been studied on the basis of historical evidence. The author gives his conclusions, citing the reports of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and monographs of scientists conducting research in his field.

Key words: *education market, intellectual social “commodity”, teacher status, renaissance, tutoring, educational and regulatory documents, state demand, audience and extracurricular demand, dual education, nepotism, protectionism, lobbying.*

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim bozori shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ta'lim bozorining moddiy-texnik bazasini shakllantirish va mustahkamlash borasida ibratli ishlar ruyobga chiqarildi. Ta'lim berayotgan va ta'lim olayotgan kadrlar uchun o'quv-me'yoriy hujjatlarni xalqaro andozalarga moslashtirish borasida ham uzluksiz ishlar davom ettirilmoqda. O'zbekiston ta'lim bozorini maktabgacha, umumiy o'rta, professional, oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va malaka oshirish ta'lim bozorlari tashkil etadi. Bu ta'lim bozorlarida inson kapitali uchun juda katta mablag'lar ajratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston- maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”[1] degan g'oyani bejizga ta'kidlamadi. Bu g'oya ta'lim bozorida mehnat qilayotgan o'qituvchilarga juda katta mas'uliyat yuklamoqda. O'qituvchi endi diplomdagi ta'lim sohasidagi ma'lum bir fan bo'yicha o'qituvchilik qilishi emas, balki shu sohaning o'qituvchisi maqomi darajasi uchun tinimsiz o'z ustida ishlashi kerak bo'layapti. Ya'ni o'qituvchilikni maqom darajasiga olib chiqishi lozim. Agar musulmonlar tarixiga murojaat qilsak, musulmon ummatlari doimo ilmni o'qituvchi (mudarris)dan o'rganib kelgan. Kitob yoki qog'ozdan ilm o'rganish makruh sanalgan. Musulmonlarning ilohi kitobi Qur'oni Karimni Muhammad alayhissalom ham Jabroil alayhissalomdan o'rgangan va o'z navbatida Allohning bu kalomini ummatlariga o'qitgan hamda o'rgatgan. O'qituvchilik maqomiga mashaqqatli mehnat evaziga erishilgani uchun ham Alloh taolo o'z kalomida “Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur”. [2] Muhammad alayhissalomdan olim kishining bir kunlik ibodati ilmsiz obidning qirq yillik ibodatiga teng ekani, qiyomatda ilm shafolat qilishi, agar u ta'lim bersa, Yer va Osmonlardagi barcha jonzot Allohdan unga

mag'firat so'rashi va boshqa ko'p bashoratlar sahih hadislar orqali rivoyat qilingan. Tarix shohid islom paydo bo'lgach, undan keyingi ikki yuz yil o'tgach ta'lim tez rivojlanib ketdi. Ta'limning bunday tez rivojlanishi jamiyatda o'qituvchi va unga jamiyatda berilgan maqom muhim ahamiyat kasb etdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilm o'rganib ustozlik maqomiga erishish uchun imom Buxoriy va imom Termiziylar yigirma yillab xorijiy yurtlarda ta'lim oladi va vataniga o'z sohasining yetukt mutaxassisi bo'lib qaytadi. Ilmga va ilm egalariga nisbatan Movarounnahr ahli doimo izzat-ikrom ko'rsatib kelgan. Imom Buxoriy xorijdan vataniga qaytganda Buxoro ahli u kishiing yo'lga sakkiz kilometrlik poyonoz to'shab, katta xursandchilik bilan kutib olgan ekan. Islomdan avvalgi davr haqida ma'lumot beruvchi manba Abul Faraj Isfahoniyning "Kitabul Ag'oniy" asari sanaladi. U kishining asarlari 20 jildan iborat bo'lib "Ag'oniy ul- Kabir (Qo'shiqlar katta kitobi) nomi bilan mashhur. Bu manbada ham islomdan avvalgi davrni johiliyat davri deb atashadi. Ma'lumki, Yevropada ham cherkov davrini uyqudagi davr deb nomlashadi. Qachonki islom paydo bo'lib boshqa o'lkalarga tarqalib, ma'lum davr o'tgach turli hududlarda o'yg'onish davri paydo bo'la boshladi. Ayniqsa bu Sharq mamlakatlarida yaqqol ko'zga tashlandi. Ilm-fandagi yangiliklar g'arb dunyosiga ham ta'sir o'tkazdi. Tarixda buni davrni fransuzcha "Renaissance", ya'ni uyg'onish ma'nosini beradi. Movarounnahrda uyg'onish davri ikki bosqichda o'rganiladi. Birinchi bosqich bu 9-12 asrlarni o'z ichiga olsa, ikkinchi bosqich esa 15-16 asrlarni qamrab oladi. Bu davrdagi ilm-fan taraqqiyoti haqida va Movarounnahrlik mutafakkirlarning unga qo'shgan hissalar tarixiy manbalarda juda ko'p ma'lumotlar keltirilgan. Movarounnahrda uchinchi renessansni XX asr boshlarida jadid-ma'rifatparvarlari boshlab berdi-yu ammo bolsheviklar mafkurasi va uning qatog'on mafkurasi buni amalga oshirishga yo'l qo'ymadi. Bundan bir yuz sakkiz yil avval yozilgan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "Tarbiya zamoni" bobini o'qigan kishi jadid-ma'rifatparvar olimlarimizning tafakkuriga qoyil qolmasdan iloji yo'q. Ushbu bobni Abdulla Avloniy qo'yidagi fikrlar bilan xulosalaydi. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallolohu alayhi vassalam afandimiz: insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindatur, hasabi axloqindatur". [3] Abdulla Avloniyning bunday xulosaga kelishiga nima sabab bo'ldi? Chunki, XX asr boshlarida oilada farzandga ona tarbiyasining g'aribligi, ota tarbiyasining zaifligi, muallim tarbiyasida o'zi muallimning metodikani bilmasligi, mudarrisning esa manfaati osh bo'lgani uchun farzandalarimiz hukumat

maktabidan zarur bilimlarni ololmaganligi uchun kuyunadi. Shunday davrda yana bir jadid-ma'rifatparvar imomimiz Mahmudxo'ja Behbuiy esa yoshlarga qarata bir necha murojaat qilib, arab, fors, turk va rus tilini mukammal o'rganishga da'vat qilgan edi. Bu milliy uyg'onish g'oyalaridan hadiksiragan bolsheviklar ideologiyasi jadid-ma'rifatparvarlarining shaxsiy hayotlariga suiqasdlar tashkil etib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Natijada bunda ilm-ma'rifat zarar ko'rdi. Mahalliy xalqlarning milliy uyg'onishiga tushov bo'lib turdi. Bu jarayonlarni va jadid – ma'rifatparvar olimlarimizning tarixini o'rgangan tadqiqotchilar manbalarida batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fidoyilari o'sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi" deb ta'kidlagan edi.[4] Bugunni yaxshiroq bilish uchun bir oz o'tmishni esladik, xolos. Bugun ilm-ma'rifat ham kelajak avlod tarbiyasi ham o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq. Shuning uchun ham o'qituvchilarning to'rt muchasi sog'lom bo'lishi va ma'naviy jihatdan kamol topishi uchun bu soha inson omili va uning intellektual salohiyati bilan bog'liq bo'lgani uchun katta mablag'lar ajratilmoqda. Xo'sh, ta'lim tizimimizdagi holat yoki manzara qanday? Ma'lumki, mamlakatimizda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan o'qituvchilarga toifalar berib boriladi. Yaqinda shu soha bo'yicha xalq ta'limi vazirligining statistik ma'lumoti tarqatildi. Respublikada o'qituvchilarning toifasi bo'yicha taqsimotining tahlili qo'yidagicha ekan." Oliy toifalilar 3%, birinchi toifalilar 11%, ikkinchi toifalilar 23%, toifasizlar 48%, o'rta maxsus ma'lumotlilar esa 15% ni tashkil etmoqda".[5] Davlat tomonidan o'qituvchilarga yaratilayotgan motivatsiyaga qaramay yuqori toifalarga intilish sust bo'lib qolmoqda yoki bilim darajasi sohasi bo'yicha past bo'lgani uchun maqomini himoya qilolmayapti. Bu esa o'z navbatida maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlari tezkor ma'lumotlar tahlili qo'yidagicha bo'ldi. Respublika bo'yicha 2020 yil bitiruvchilar soni 449861 nafar, shundan oliy ta'lim muassasalariga kirganlar soni esa 70418 nafar, bu 15,7 % tashkil etmoqda. Respublika hududlari kesimida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy (29,8%) 1-o'rin, va Toshkent shahri 2-o'rin 26,6% ga to'g'ri kelmoqda. Eng past natijalarni esa Samarqand (10,0%) 14-o'rin va Qashqadaryo 13-o'rin (10,9%) viloyatlari bermoqda. Surxondaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich bo'yicha 11-o'rinda (12,9%) tashkil qildi.

2019 yilga nisbatan +4,3 % o'sdi. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktablardagi pedagoglar faoliyati qizil va yashil kategoriyalarga ajratildi. Maktablarda malakali o'qituvchilarga talab yuqori, chunki ota-onalar ham farzandlarining shunday o'qituvchilardan saboq olishini talab qilmoqda. Maktablardan tashqarida repetitorlik o'quv kurslarining mavjudligi bu umumiy o'rta ta'lim tizimidagi o'qitishdagi zaif nuqtalarning mevasidir. Agar maktablarda fan o'qituvchilari o'z sohasining yetuk mutaxasisi bo'lib dasturda berilgan bilimlarni o'quvchiga yetkazib berganda edi, ota-onalar qo'shimcha xarajat qilib repetitor izlab yurmas edi. Yuqoridagi statistik tahlillardan bilinib turibdiki, xalq ta'limi tizimidagi o'qituvchilarning 14% intellektual sotsial "tovar" sifatida e'zozga loyiqdir. Qolgan 86% o'qituvchilar bilan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi strukturasi shakllaridan foydalanib yangi metodika (uchinchi renessans poydevori talabiga mos) asosida o'qitishga ehtiyoj sezilmoqda. Buning uchun esa yangi o'quv reja va dastur ishlab chiqish kerak bo'ladi. Ma'lumki, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ sinflarning tashkil topishi o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir qildi. Ya'ni maktab bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirishi yaxshilandi. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda davlat test markazi bergan ma'lumotlarga ko'ra 2021 yil oliy ta'lim muassasalariga grantga o'qishga qabul qilingan abituriyentlarning 75% shu o'quv yilida maktablarni bitirgan o'quvchilar ekan. Bu ko'rsatkich 2020 yil 50%ni, 2019 yil esa 29%ni tashkil qilgan. Demak, maktablar va pedagog o'qituvchilar o'rtasida davlat tomonidan berilayotgan motivatsiya va raqobat muhiti asta sekinlik bilan natija bera boshladi. Ayniqsa, xalq ta'limi vazirligi tomonidan har bir maktab, tuman va viloyat kesimdagi o'quvchilarning bilim darajalari bo'yicha tahlil qilishi maktab o'qituvchilarining o'z ustida ishlashiga majbur qilmoqda. Bu jarayonni uzluksiz yaxshilash uchun endi davlat test markazi, ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi va xalq ta'limi vazirligi vakillari fanlar kesimida yuqori ball to'plagan va past ball to'plagan maktablarni tahlil qilib sabablarini ijtimoiy tarmoqlarga bersa va maktab pedagogika kengashlarida muhokama qilsa hamda chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqib, maktab va o'qituvchilar uchun motivatsiya kuchaytirilsa natijalar bundan yaxshi bo'ladi.

Asosiy jamiyatga intellektual sotsial "tovar" yetkazib berayotgan uchinchi ta'lim bozorida yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarining 33 ta filiallari, 58 ta qo'shma dasturlar asosida 8124 nafar kvotalarning ajratilishi hamda nodavlat oliy ta'lim muassasalari va ularga davlat kvotalarining ajratilishi bu bozorda asta sekinlik bilan raqobatni vujudga keltirishga xizmat qiladi. Respublika oliy ta'lim bozorida bugun 131 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Bu oliy ta'lim muassasalarida klassifikatorga muvofiq 7 ta bilim sohasi bo'yicha 300 ta bakalavriat ta'lim

yoʻnalishlari hamda 570 ta mutaxassisliklarda 500 ming nafar talabalarga 29998 nafar professor - oʻqituvchilar dars berishmoqda. Ilmiy-pedagogik salohiyat 2016 yil 31,9 % boʻlsa, bugun esa 38% tashkil etmoqda, oʻsish +6,1 teng. Oliy oʻquv yurtlaridagi ilmiy pedagogik salohiyat oxirgi uch yilda birmuncha jonlandi. Xususan 2020 yil 1252 nafar professor-oʻqituvchi fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) darajasi uchun dissertatsiyalarini himoya qildi. Bu taʼlim bozorida bitiruvchilarning, yaʼni ishlab chiqarishga va xalq xoʻjaligining turli tarmoqlariga borayotgan bitiruvchi kadrlarning sifati qanday degan savol bugun hech kim javob berolmaydi. Buning monitoringi ham yoʻq. Faqat oliy taʼlim muassasalari rektorlari raqamlar soni bilan faxrlanib yuribdi. Kvotaning oshgani va kunduzgi, kechki, sirtqi hamda qoʻshma dastur boʻyicha oʻquv shaklini ochdim deb maqtanish bu jarayoning shakli, xolos. Vaholanki, oʻquv jarayoning mazmuni yaxshilansa kadrlar sifati yaxshilanishi isbot talab qilmaydigan aksiomadir. Bugun oliy taʼlim bitiruvchilariga nisbatan xalq xoʻjaligi tarmoqlari rahbarlarining eʼtirozi kattadar. Chunki, deyarli oliy taʼlimda dual taʼlim rivojlanmayapti. Oliy taʼlimda dars berayotgan professor-oʻqituvchilarning oʻz sohalarida ish tajribasi kam. Ishlab chiqarishdagi eng yangi texnologiyalarni deyarli bilmaydi. Bilganlari ham ijtimoiy tarmoqlardagi nazariy fikrlar bilan cheklanib qolmoqda. Shuning uchun davlat tomonidan katta sarf-xarajatlar bilan keltirilgan laboratoriyalarni ishga tushirish va talabalar foydalanishi uchun birlashtirishda muammolar paydo boʻlmoqda. Oliy taʼlimda professor-oʻqituvchilarning fan dasturi va unda qoʻyilgan davlat talablarning auditoriyalarda va auditoriyalardan tashqarida talabalarga qanday yetkazilayotganligini qatʼiy monitoring qiladigan vaqt keldi. Chunki, shunday qilmasa kadrlar sifati yaxshilanmaydi. Ikkinchidan esa professor-oʻqituvchilarni moddiy-maʼnaviy ragʻbatlantirish yoki ustama haq belgilashda yoki davlat mukofatlariga tavsiya etishda dars berish metodikasini albatta hisobga olish lozim. Chunki taʼlim tizimida xoh nazariy xoh amaliy yoki seminar, laborotoriya mashgʻuloti boʻlsin metodikadan xabarsiz muallim darsi besamara boʻladi. Bu sohadagi koʻz ilgʻamas korrupsion holatlarga chek qoʻyish lozim. Jamoatchlik korrupsion sxemalarni baribir oʻzaro muloqotlarda bir-biriga aytadi. Bu esa dars berishga nisbatan ishtiyoqni soʻndiradi. Pandemiya va uning sotsial oqibatlarini taʼlim tizimidagi bozorlarga nihoyatda sifatli intellektual salohiyatli “tovar” chiqarishni talab qilmoqda. Taʼlim bozorida mahalliy ishbilarmon tadbirkorlarning ishtiroki va ularga huquqiy vakolatlar berilishi kadrlar tayyorlash sifatiga ijobiy taʼsir qilishi sir boʻlmay qoldi. Aksincha, taʼlim bozorida adolatli, halol raqobat paydo boʻladi. Bugun dunyo taʼlim bozorida ishtirok qilayotgan milliarder tadbirkorlarning kitoblarini va ular haqida yozilgan asarlarni ona tilimizga tarjima qilib mahalliy tadbirkorlarga ham

yetkazish va o'qitish vaqti keldi. Chunki, bugun dunyo xalqlari amerikalik tadbirkor Ilon Mask va u rahbarlik qilayotgan kompaniyalarning onlayn to'lov tizimi, avtomobil va energiya sanoati hamda fazo industriyasida amalga oshirayotgan inqilobini hayrat bilan kuzatib turibdi. Tadbirkorlarning ta'lim bozoriga kirib kelishi va ularga davlat tomonidan huquqiy vakolatlar berilishi sohasi tadbirkor Ilon Mask laboratoriyasi dunyo davlatlari uchun namuna bo'ladi. Mamlakatimizda ta'lim bozoriga tadbirkorlarni jalb qilish yigirma yillar kechikdi. Chunki, mustaqillikning dastlabki yillarida o'ziga to'q kishilar xususiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etila boshlaganda ularning faoliyati darrov to'xtatilgan edi. Bugun tadbirkor Ilon Mask laboratoriyasida dunyoning 4000 yaqin eng sara olimlari IT sohasi bo'yicha ishlayotgan ekan. Bizning oliy ta'lim muassasalarimizda ba'zi holatlarni kuzatib, ustoz muallimlarning shogirdiga qo'yayotgan talabi va tinglovchi talabalarimiz bergan savollarning naqadar zaifligini sezib, bunday holatlarga qachongacha davom etishi mumkin deb o'ylash tolasan. Hijob diniy libosmi yoki yo'qmi, soqol qo'yish, juma namozi, dunyoviy ilm yoki diniy ilm farzmi, o'g'il va qiz bolalarni ajratib o'qitishga oid berilayotgan savollar XX asrning 80-90 yillarida ko'tarilgan edi. Bugun ta'lim muassasalarida bu masala yana takrorlanishi esa dunyoqarashimizda hali zaif nuqtalar ko'pligidan dalolat beradi. Shu o'rinda, ham dunyoviy ham diniy oliy ta'lim muassasalari talabalari mantiq faniga ehtiyoj sezilayotganligi ma'lum bo'lmoqda. Chunki, tuman va viloyat bosh imomlari, noib imomlar, otinoyilar va targ'ibot guruh vakillari hozirgi kunda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi malaka oshirish markazi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyati mintaqaviy filiallarida raddiya berish bo'yicha malaka oshirish kursidan o'tmoqda. Raddiya berish va fikrni argumentlash mantiq fani ob'ekti sanaladi. Shu kurs tinglovchilari uchun tayyorlangan o'quv rejaga mantiq fanining raddiya va argumentlash mavzulari bo'yicha seminar- trening mashg'ulotini kiritish lozim. Bundan tashqari dunyoviy oliy o'quv yurtlarida mantiq fani falsafa fani tarkibiga qo'shib ikki soat ma'ruza ajratilgan. Ikki soat ma'ruza yoki ikki soat seminar darsida raddiya berish bilimi va ko'nikmasini o'rgatish ancha mushkul ishdir. Sharq falsafasida xususan, islom falsafasida ham mantiqni o'rganish qadimdan buyuk mutafakkirlarimiz o'qigan maktablarning o'quv dasturi e'tiborida bo'lgan. Aks holda ular buyuk yunon faylsuflarining asarlariga raddiya berolmas edi. XXI asr boshlariga kelib bu fanga soha vazirligining tegishli boshqarma mutaxassislarining va tayanch oliy o'quv yurtlarining loqaydligi tufayli ertaga tayyorlayotgan mutaxassislarimiz tushuncha, hukm, xulosa chiqarish, taffakkur qonunlari, raddiya, isbotlash kabi mantiq ilmidan bexabar bo'lib chiqadi va ma'lum bir vaqt o'tgan dan so'ng esa o'zi o'qimagan

fan bo'yicha yana malaka oshirish tashkil etaveramiz. Ijtimoiy tarmoqlardagi bizning falsafiy dunyoqarashimizga va islom dini falsafasini noto'g'ri talqin qilayotgan fikr egalari raddiya berayotgan olim va imom domillalarimiz barmoq bilan sanarli holatda ekanligi buni isbotlab turibdi. Aks holda yana buyuk mutafakkir bobolarimiz merosi bilan faxrlanib yurib, o'zimiz shu merosga munosibmizmi, ularning kashfiyotlarini kim davom ettirayapti degan savollarga javob berolmay qolamiz. Dunyoni eng so'ngi axborot texnologiyalari asosida intellektual salohiyatli kadrlar boshqarishi sir bo'lmay qoldi. Mamlakatimizda tashkil etilayotgan Prezident universiteti, nodavlat oliy ta'lim muassasalari va prezident ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bu missiyani bajarishni ta'minlashga ishonch mavjud. Chunki, shu vaqtgacha mavjud oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bakalavr ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklarida o'zaro raqobat shakllanmadi. Respublikada bir yo'nalish yoki mutaxassislik bo'yicha bir nechta oliy ta'lim muassasalari kadr tayyorlasa ham ular o'rtasida raqobat bo'lmadi. Buning sababi esa o'quv reja va fan dasturlarining haddan tashqari markazlashuvi, regionlarni va ulardagi kadrlar salohiyatini inobatga olmaslik, oliy ta'lim kadrlarini tanlash va saralashda nepozitizm, proteksionizm va lobbizm unsurlarining saqlanib qolganligi halaqit berdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Bugun hayot yangicha fikrlash va ishlash, milliy "aql markazlari" mizni shakllantirishni talab etmoqda.

XULOSA

Afsuski, atrofimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur tushunib, ta'sirchan tilda yetkazib beradigan tahlilchi va ekspertlarimiz juda kam. Bunday vaziyatda jamiyatimizni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarur"[6] deb bejizga ta'kidlamadi. Bu g'oya ta'lim bozoriga kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalarining intellektual sotsial "tovar" tayyorlash sifatiga kreativ yondoshuvini talab qiladi. Buning uchun esa ta'lim muassasalaridagi nepozitizm, proteksionizm va lobbizm holatlari bilan halollik bilan kurash olib borish kerak bo'ladi. Aks holda yana hech narsa o'zgarmay qolaveradi. Bu unsurlar bilan hozir ko'pincha ta'lim muassasalari rahbarlari ommaviy axborot vositalarida piar qilish orqali kurash olib bormoqda. Real hayotda yoki ta'lim bozoridagi bugungi holat davlat talablariga javob bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1]qarang. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.

[2]qarang. Shayx Abdulaziz Mansur.Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tavsiri. TIUNMB. Toshkent 2018.543-bet.Mujodala surasi 11- oyati.

[3]qarang. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.,Toshkent”O‘qituvchi” 1992.13-14 betlar.

[4]qarang. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2020 йил 30 сентябрь.

[5]qarang. Халқ сўзи.(online).Ўзбекистонда ўқитувчилар мавжуд ставкалардан 80 мингтага кўп-вазир маълумотга аниқлик киритди. 16 январь 2021 йил.

[6] қаранг.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев:Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса,унинг жони ва руҳи маънавиятдир. 2021 йил 19 январь.

FE'LIY FRAZEMALARNI O'ZBEK TILIDAGI MUQOBIL VARIANTI GURUHLANISHI

(AGATA KRISTI ASARLARI TARJIMALARI MISOLIDA)

Marxabo Raxmonkulovna Abdullayeva

TDSHU G'arb tillari kafedrası o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Fe'liy frazemali tarjimalarning xususiyatlarini o'rganish, shu tariqa mazkur tarjima usuliga munosabat bildirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Fe'liy frazemali vositali tarjimaga munosabat bildirish hozirgacha G'arbiy Yevropa adabiyotlaridan o'zbek tiliga qilingan vositali tarjimalar tarixiga baxo berish hamda bu soxada istiqbolda qilinadigan ishlarning mundarijasini belgilab olish, bu borada tegishli tadbirlar ishlab chiqish bugungi tarjimonlar va tarjimachilik ishini nazorat qilib, muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan tarjimonlar oldida turgan eng dolzarb masalalardandir.

***Kalit so'zlar:** Frazema, tarjima, xususiyat, milliylik, falsafiy mohiyati, yo'nalish, asl nusxa, asar konsepsiyasi, tarjimon maqsadi.*

ABSTRACT

The study of the features of verbal phraseological translations, and thus the reaction to this method of translation, is of great importance today. Today's translators have a great task to evaluate the history of intermediate translations from Western European literature into Uzbek, to determine the content of future work in this area, to develop appropriate measures in this regard. One of the most pressing challenges facing translators who oversee and coordinate the translation process is to interpret the text on a national basis.

***Keywords:** Phrase, translation, feature, nationality, philosophical essence, method of translation, original, concept of work, purpose of the translator.*

KIRISH

Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlarida vatan konsepti masalasi shoir she'rlari asosida tahlilga tortilgan. Shoirning "Vatan", "Vatanim" kabi she'rlaridagi ona-Vatan madhi o'ziga xos tasvir uslubida bayon etilgani misollar asosida aniqlangan.

Kalit so'zlari: *Konsept, Ifoda usuli, shakl va mazmun, fonetik uslub, lisoniy birlik, badiiyat, ritm, metafora, uslubiyat, "Vatan", "Vatanim".*

АННОТАЦИЯ

В статье на основе стихотворений поэта анализируется проблема концепции Родины в стихотворениях Мухаммеда Юсуфа. На примерах установлено, что гимн поэта «Родина» в его стихотворениях «Ватан», «Ватаним» выражен в уникальной стилистике.

Ключевые слова: *понятие, способ выражения, форма и содержание, фонетический стиль, языковое единство, искусство, ритм, метафора, методология, «Ватан», «Ватаним».*

KIRISH

Konsept va tushuncha borasida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ikki lisoniy kategoriyalarni farqlovchi xususiyatlar aniqlangan. Jumladan, tushuncha – predmet va hodisalar to'g'risidagi umumiy va xususiy belgilarni aks ettiradigan fikr, deb qaralsa, konsept – nafaqat mavhumiy bo'lgan, balki aniq-assitsiativ va emotsional-baholovchi belgilarni qamrab olgan g'oya sanaladi. Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi. Albatta, konsept tushunchasi borasida fikr va munozaralar ko'pchilikni tashkil qilib uning ta'rifi borasida aniq to'xtamni topish qiyin.

D. S. Lixachevning keltirishicha konsept – bu individual anglash jarayoni va ma'lum kontekstda so'z ma'nosini almashtirish hisoblanadi. Ma'lum bir konsept har bir lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Konseptlar, o'z

navbatida, soʻz maʼnolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Filologiya ilmida konsept – bu insoniy hayotning aqliy, maʼnaviy yoki moddiy sohasiga tegishli boʻlgan, xalq hayotidagi tarixiy ildizlarga ega boʻlgan, ijtimoiy va subyektiv tushunchaga ega boʻlgan fikrlashlarning bir tomoniga asoslangan soʻz belgining tarkibiy qismi hisoblanadi. U koʻpincha boshqa konseptlarga aloqador yoki koʻp holatlarda unga qarshi boʻlgan tushunchalarni oʻzida mujassam etadi.

Badiiy konsept va bilim konsepti oʻrtasidagi yana bir muhim farq shundaki, tadqiqotchilar "his-tuygʻular, xohish-istaklar, umuman olganda, ilm konseptiga befarq boʻladilar". Badiiy konsept esa odatda, har ikkalasining ham majmuasidir, yaʼni tushunchalar, gʻoyalar, his-tuygʻulardan iboratdir, his-tuygʻular esa baʼzan hatto oliy belgilarini ham ifodalaydi ".

Ushbulardan maʼlum boʻladiki, badiiy konsept maʼlum bir "hissiy va estetik zoʻriqish" ni yaratishga qodir va ayni paytda idrok tushunchalari shakllantirishga qodir boʻlgan tushunchalarni ifodalaydi. Ehtimol, badiiy konsept tuzilishida umumiy va individual maʼnaviy maʼnolarni, yaʼni emotsional-baholovchi narsalar (salbiy va ijobiy yoki boʻyoqdorlik va boshqalar)ni ajratib koʻrsatish orqali oʻziga xoslikni ifodalashi mumkin boʻladi.

Shu bois ham Vatan konsepti keng va tor maʼnoda tushunish mumkin. Tor maʼnoda kishining tugʻilib oʻsgan yurti, muayyan xalqqa tegishli hudud maʼnosini anglatsa, keng maʼnoda esa, muayyan qitʼa vakillari uchun oʻz qitʼalari umumiy vatan, bashariyat uchun Yer sayyorasi yagona makon sanaladi. Shu sababdan uni faqat tor maʼnoda olish yaramaydi.

Qolaversa, koʻplab olimlar oʻz ishlarida ayni shu masalaga ham alohida toʻxtalib oʻtgan. Shuni alohida qayd etish joizki, vatan va vatanparvarlik mavzusi eng katta ehtiyoj singari har doim insoniyatga kerak boʻlgan, uning maʼnaviy kamolotida asosiy omil boʻlib xizmat qiladigan vositadir.

Vatan mavzusi zamonaviy oʻzbek sheʼriyatida alohida yirik koʻlam kasb etadi. Bu esa alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Taʼlimda vatan konsepti haqida tushuncha berish, uni oʻquvchilar ongiga singdirish esa har doim oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydigan va dolzarblik kasb etadigan mavzu boʻlib qolaveradi.

Hozirgi oʻzbek adabiyoti, xususan, sheʼriyati jamiyatimizning maʼnaviy maʼrifiy jihatdan yuksalishiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda, uning jahon adabiyoti silsilasidagi oʻrni ham oʻziga xos va betakroridir. Xalqimiz oʻziga xos boy maʼdaniy va maʼrifiy tarixga ega, xususan oʻzbek adabiyoti. Adabiyotga komil inson tarbiyachisi sifatida

qarab kelingan, chunki adabiyot inson ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy vositadir. Bu jarayon adabiyotimizning yirik namoyandalari yaratgan ijodiy an'analarning bugungi kunda o'ziga xos shakllarda davom etayotganida ko'rinadi.

Har qanday shoir yoki ijodkorning kamolotga erishuvi eng avvalo, uning milliy g'oya va qadriyatlarga qanchalik sadoqat va ularni o'z ijodida qo'llay olishdadir. Ana shunday milliylikni, Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatni o'z ijodida kuylay olgan Muhammad Yusuf "Vatan"¹⁸ she'rida beshikdan boshlangan bu muqaddas tuyg'uning qiyosi yo'qligi haqida shunday deydi:

Ko'hna tol beshikdan boshlangan olam,

Senga iddaolar qilmay sevaman.

Bir kuni singlim deb,

Bir kuni onam –

Vatan,

Kimligingni bilmay sevaman.

Biz bilamizki, endigina dunyoga kelgan chaqaloq ulug' onaxonlarimiz tomonidan birinchi beshikka belanadi. Uning uyi beshik hisoblanadi. Ana shunga qiyosan shoir birinchi olam beshikdan boshlanishini ifodalaydi.

Vatan – uni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki ijodkor uchun o'zi tug'ilib o'sgan maskani – Vatanini kuylashdek zavqli va sharfli baxt bo'lmaydi. Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsada, lekin ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda Muhammad Yusuf ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi bois ulardagi obraz yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin.

Ijodkor Vatan mavzusiga qayta-qayta murojaat etadi. Chunki shoir o'zi tug'ilib o'sgan yurtini, Vatanini hech kimga bermas va hech narsaga alishmas edi.

Vatan deb ko'krak kerish yod narsa, shoir shunchaki og'iz ko'pirtirib qog'oz qoramaydi. U bitgan misralar yuragidan, shoirning ko'ksidan hayotga kelgan. Shuning uchun ham Muhammad Yusufning she'rlari purma'no va serjiloligi bilan ajralib turadi.

Vatanga muhabbat, onaga muhabbat kabi muqaddas va buyuk tuyg'u. Oллоh insonga Vatanni muzliklarda ham, sahrolarda ham, changalzorlarda ham ato etishi mumkin. Lekin yaratgan bizga O'zbekiston deb atalgan tuprog'ida oltin bor, har tongda bulbullar madhini o'qib tugatmaydigan bir yurtni Vatan qilib bergan.

¹⁸ M.Yusuf. Ulug'imsan Vatanim. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 9.

² M.Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275.

Ya'ni shoir lirikasida hech kim tasavvur qilmagan lekin mos keladigan tashbehlarni, o'xshatishlarni ko'ramiz. Bunday o'xshatishlar boshqa hech bir ijodkor she'riyatida uchramasligini shoir asarlarning o'ziga xos badiiy tili deyishimiz mumkin. Masalan, Vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali vatanni onaga, singilga o'xshatgan emas yoki vatanning tol beshikdan boshlanishini faqat shu ijodkorgina o'z asarida ilk bor qo'llagan. Vatanning bog'-rog'larini, so'lim go'shalarini tarannum etganlar ko'pdir. Lekin hech kim vatanni "yuragimning olampanohi" deb uning "bukri bir jiydasining shoxi" ni kuylagan emas. Va yo "tilimning ostida navvot – zarimsan, sen mening yagona payg'ambarimsan" degan tashbehlarni Muhammad Yusuf she'riyatidagina ko'rishimiz mumkin. Yuqorida takidlaganimizdek, shoir Vatan haqidagi she'rlarining ko'pchiligida Vatanni onaga, singilga va opaga mengzadi. Masalan, "Vatanim"² she'rida:

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga,
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamhonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri,
Ilig'imsan Vatanim.

Shoir Vatan timsolini singlisida, onasida ko'radi. Ona – buyuklarning eng buyugi, ulug'larning eng ulug'i, suyuqli zotlarning eng suyuqlisidir. Bazan bu so'zga ta'rif berishga ojiz qolasan kishi. Bu nomga shoir-u yozuvchilarimiz o'z ijod namunalarida munosib baho aytgan allalarchalik, ular bedor o'tkazgan tunlarchalik nazm bitmasligi mumkin, biroq imkon qadar onani vasf etadi. Ana shunday buyuk zot timsolida shoir Vatanni ko'radi. Darhaqiqat, bolaning ilk qadamini ko'rgan ona uchun bundan-da ortiq quvonch bo'lmaydi. Ona kabi Vatan ham bag'rida yashayotgan xalqining yutuqlaridan, shodon kunlaridan sevinadi. Uning yo'llariga gul-u maysalar tutadi. Opa-singil kabi ko'ngli xira vaqtlarda hamdard-u hamroh bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, shoir oddiy hayotiy voqealar asosida ajoyib o'xshatishlar va teran falsafiy mushohadaga ega bo'lgan misralar yaratgan.

Haqiqiy vatanparvar inson o'zi tug'ilib o'sgan joyning xalqini bor-yo'g'i bilan sevadi. Shoir Vatanga shunday muhabbatini ko'rsatadi. Qalbining tub- tubidagi tuyg'ularini o'z misralarida namoyon qiladi. Uni yolg'izim, yagonam deb ulug'laydi.

Shoirning ona yurtida tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq;
yaxshi va yomon kunlarida har doim birga, mehrini esa oftobga qiyoslaydi.

Kinga dasht poshpana, kingadir gulzor,
Har kiming sig‘ingan sajdagohi bor.
Har hovuch tuprog‘i ko‘zga to‘tiyo,
Biz uchun qadrdon shu aziz diyor.

XULOSA

Har bir insonning Vatani o‘ziga qadrli. Shoir uchun uning har hovuch tuprog‘i ko‘zga to‘tiyodir. Shoir Muhammad Yusuf qalami bitgan, Vatanga bag‘ishlagan o‘tli misralari kitobxon nazdida, shoir siymosida chaqmoqdek yonib o‘tgan shoir-u betakror she‘riyat doim xalq ardog‘ida bo‘lajagiga umid bilan boqishga chorlab turaveradi¹⁹. Vatan madhi uchun so‘zni qurol qilgan shoir Muhammad Yusuf xalqi va jonajon vatanining ertasi bilan kun-u tunlarni o‘tkazgan.

REFERENCES

1. Demyankov V. Z. Termin «konsept» kak element terminologicheskoy kulturi. –M.: Nauka,1975.
2. Askoldov S.A. Konsept i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya. – M.: Academia, 1997. – S. 267–280.
3. Dzyuba E. V. Konsept «um» v russkoy lingvokulture: Monografiya. Ural. gos. ped. un-t. – Ekaterinburg, 2011. – 224 s.
4. Boboyorov O‘, Xolsaidov F. Adabiyot. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006. – B.7.
5. I.Haqqul. Mushohada yog‘dusi. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 26.
6. M.Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 273.
7. S.Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – Toshkent, 2000. – B. 67.
8. Sharafiddinov O. Ma‘naviy kamolot yo‘llari. – Toshkent, 2001. – B. 26.
9. Mirvaliyev S., Shokirov R. O‘zbek adiblari. – Toshkent, 2007. – B. 240.
10. M.Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 12.
11. Boltaboyev. So‘z sehri. – Toshkent, 2006. – B. 98.
12. M.Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 9.
13. M.Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 275.

³ Boltaboyev. So‘z sehri. – Toshkent, 2006. – B. 98.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Sobir Parmonov

O‘zMU katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat va jamiyatning yuksak taraqqiyotini ta‘minlashda yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta‘minlash, ularning siyosiy jarayonlardan xabardorligini oshirishning ta‘sirchan mexanizmlari shakl va usullari, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston, taraqqiyot, yoshlar, siyosiy madaniyat, yo‘nalish, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar, yosh oila, yosh mutaxassis, yoshlar tadbirkorligi.*

АННОТАЦИЯ

В этом состоянии анализируется эффективность формирования политической культуры молодежи в обеспечении высокого развития государства и общества, формы и методы эффективных механизмов повышения осведомленности о политических процессах, приоритеты развития кадровой нации политической.

Ключевые слова: *Узбекистан, развитие, молодежь, политическая культура, направление, государственная молодежная политика, молодежь, молодая семья, молодой специалист, молодежное предпринимательство.*

ABSTRACT

This article analyzes the effectiveness of the formation of political culture of young people in ensuring the high development of the state and society, the forms and methods of effective mechanisms to increase their awareness of political processes, priorities for developing youth political culture at a new stage of development.

Keywords: *Uzbekistan, development, youth, political culture, direction, state youth policy, youth, young family, young specialist, youth entrepreneurship.*

KIRISH

Jamiyat hayotining demokratlashuvi hamda mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta ijtimoiy qatlami tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashuviga hamda ularning tarbiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Yoshlar – jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi,

o‘y-fikri, ma‘naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur qilish mumkin.

Mamlakatimizda Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma‘qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni yoshlar hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mazkur qonundan kelib chiqqan holda, yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va asosiy mezonlari belgilandi:

yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi.

yoshlar (yosh fuqarolar) — o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar;

yosh oila — er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

yosh mutaxassis — oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasasini bitirgan, ta‘lim muassasasini bitirganidan so‘ng olgan ixtisosligi bo‘yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma‘lumoti to‘g‘risidagi hujjatda ko‘rsatilgan ixtisosligi bo‘yicha ishlayotganiga uch yildan ko‘p bo‘lmagan o‘ttiz yoshdan oshmagan xodim;

yoshlar tadbirkorligi — yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta‘sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati[1,5].

MATERIAL VA METODLAR

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ochiqlik va shaffoflik, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma‘naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi, yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi kabi asosiy prinsiplar orqali amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari kelib chiqqan holda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, yoshlarning ma‘naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta‘limni ta‘minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va

ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli taʼsirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga boʻlgan qatʼiy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zoʻravonlik va shafqatsizlik gʻoyalaridan himoya qilish, iqtidorli va isteʼdodli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash hamda ragʻbatlantirish, yoshlarda sogʻlom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yosh oilalarni maʼnaviy va moddiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish va yoshlarning huquqlari va erkinliklarini roʻyobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalariga eʼtibor qaratadi.

Davlat va jamiyat boshqaruv tizimini har tomonlama isloh qilish hamda yoshlarning faol ishtirokini taʼminlash orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Oʻzbekiston Respublikasida davlat va jamiyat boshqaruv tizimini isloh qilish va yangi bosqichga koʻtarish maqsadida 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasining qabul qilingani jamiyatda yoshlar bilan ishlash boʻyicha yangi tendensiyalar rivojiga ham taʼsir koʻrsatmoqda. Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari, qonun ustuvorligini taʼminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlari, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yoʻnalishlari, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari va xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglikni taʼminlash hamda chuqur oʻylangan, oʻzaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yoʻnalishlarni oʻz aksini topgan. Harakatlar strategiyasining 4.5 bandi Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga oid sanaladi[2,18].

NATIJA VA TAHLIL

Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadigan boʻldi. Oʻzbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bogʻliq bir qator quyidagi yangi va muhim vazifalar belgilandi:

Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalari sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash.

Demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar safini kengaytirish. Yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish.

Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorism, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g'oyalari keng targ'ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish ishlarida faol ishtirok etish. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining mas'ul lavozimlariga tavsiya etish[3,8].

XULOSA

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi. "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir[4,3]"

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, davlat va jamiyat boshqaruvida yoshlar muammolariga e‘tibor qaratish va hal etish orqali jamiyat rivojida yangi bosqichga ko‘tarilish mumkin.

REFERENCE

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni. 6 (766)-son. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 5 iyulidagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi ma‘ruzasidan.

O'RTA OSIYONING QADIMIY E'TIQOD TARIXIDAN

Qurbonova Go'zal Sayidaxmatovna.

Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'rta Osiyoning qadimiy e'tiqod tarixi haqida ba'zi mulohazalar keltirib o'tilgan. O'rta Osiyo eng qadimgi davrlardan boshlab insonlarni o'ziga jalb qilib kelgan hudud hisoblanadi. Buning o'ziga yarasha sabablari bor albatta. Qayerdagi inson yashashi uchun sharoit bo'lsa, u yer insoniyat beshiklari yaratilishiga asos bo'lgan. Demak, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston ham qadim zamonlardan inson yashashi, turmush kechirishi, xo'jalik yuritishi uchun zarur sharoit, qulay iqlimga ega bo'lgan zamin bo'lgan.

Kalit so'zlar: *E'tiqod, qadimiy maskan, O'rta Osiyo, me'ros, Teshiktosh, Pessedjik, Chaqmoqli, Yassitepa*

АННОТАЦИЯ

Эта статья дает представление об истории древних религий в Центральной Азии. Центральная Азия издревле привлекала людей. Для этого, конечно, есть свои причины. Там, где были условия для проживания людей, была основа для создания человеческих колыбелей. Это означает, что Центральная Азия, включая Узбекистан, издавна была землей с необходимыми условиями для проживания людей, средств к существованию, экономики и благоприятного климата.

Ключевые слова: *Вера, городище, Средняя Азия, наследие, Тешикташ, Песседжик, Чакмаклы, Яситена.*

KIRISH

Ajdodlarmiz qadimdan tabiat hodisalari bilan kurashib kelishga majbur bo'lgan. Ibtidoyi davlarda tabiat hodisalari oldidagi ojizliklari sababli ular o'zlari bilmagan holda yaratganga, ilohlarga iltijo qilib madad so'rganlar. Buning natijasida esa ibtidoiy diniy qarashlar vujudga kelgan. Ular asta sekin mukammallashib borishi, insoniyatning ming yilliklar davomidagi aqliy tafakkurining o'sib borishi diniy qarashlarning tobora musthkamlanib borishiga sabab bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA MRTODOLOGIYA

Diniy qarashlarning paydo bo'lishi to'g'risida hech qanday yozma manbalar yo'q. Negaki, diniy qarashlar yozuv paydo bo'lishdan ancha oldin yuzaga kelgan. Aniq ishonch bilan aytilish mumkinki, O'rta Osiyoda xalqlarning ibtidoiy diniy qarashlari

so'nggi paleolit davridan boshlab paydo bo'la boshlagan. Must'e davriga oid Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bola qabridan qizil rang-oxra izlarining topilishi va qabrning hayvon shoxlari bilan o'ralishi bu fikrning ashyoviy dalili bo'lib xizmat qiladi [1].

Neolit va eneolit davrida, ya'ni qon - qarindoshlikka asoslangan urug'chilik jamoasi davrida jamoaning alohida ajratilgan sajdagoh-sig'inish xonalari paydo bo'ladi. Bu davrda butun jamoa uchun bitta umumiy sig'inish xonasining bo'lishi xarakterlidir. Xuddi shunday xonalar Pessedjik, Chaqmoqli, Yassitepa yodgorliklarida o'rganilgan [2].

Patriarxal oilalarning paydo bo'lishi bilan har bir oilaning o'z sig'inish xonalari bo'lishi V.M. Masson tomonidan Oltintepa yodgorligi misolida kuzatilgan. Ushbu xonalarda joylashgan ilohiy o'choqlar xo'jalik o'choqlaridan tubdan farq qilib, olovxona ikkiga ajratilgan. O'choqlarda olov past yonganligidan o'choq devorlari olovda kuymagan. Patriarxal oilalarning o'z sig'inish xonalarining bo'lishi, bu xonalarda doira shaklidagi altarlarning joylashishi so'nggi bronza davrigacha saqlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Olov bilan bog'liq e'tiqod izlari. Bronza davrida ilk shahar - davlatlarning paydo bo'lishi bilan alohida yoki maxsus jamoa ibodatxonalari shakllana boshlaydi. Ularning xo'jaligi tashkil etilgan, iqtisodiy jihatdan oyoqqa turgan ibodatxona xizmatchilari yirik dindorlarga aylangan. Ular ham davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. O'rta Osiyoda jamoalar taraqqiyotini kuzatish mobaynida diniy qarashlarning rivojlanishini ham kuzatish mumkin. Ularning rivojlanishi bir-biriga o'zaro tadrijiy bog'liq holda kechgan.

Ilk diniy qarashlarning ildizlari zamonaviy odam paydo bo'lgan davrdan ancha avval, shakllana boshlagan. Qadimgi tosh davrlarida insonlar o'zlari uchun zarur bo'lgan buyum, hayvon yoki o'simliklarga sig'inib kelganlar. Ammo, bronza davriga kelib insonlar to'liq rivojlanish bosqichiga o'tdi. Qishloqlar va xattoki shaharlar barpo etdilar. Albatta, bronza davri urug' jamoalarining ibtidoiy diniy tasavvurlari ancha rivoj topib, totemistik tasavvurlardan uzoqlashib, tabiat unsurlari diniy qarashlarning asosiga aylangan.

Bu davrga kelib diniy-mafkuraviy tasavvurlarda quyosh – yer yuzidagi barcha jonzodlarga, shu jumladan, odamzodga ham hayot bag'ishlovchi ilohiy kuch va qudrat timsoli sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Buning tarixiy ildizlari aniq arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Anov-Nomozgoh madaniyatining ilk bosqichlarida, Zarafshon vodiysining Sarazm va Zomonbobo madaniyatlari davrida [3], ya'ni eneolit

davrida nish ura boshlagan. Uning shakllangan yorqin timsolini, unga atab qurilgan yirik ibodatxonalar misolida O'rta Osiyoning Marg'iyona, Baqtriya qadimgi dehqonchilik mintaqalarida, bronza davrida kuzatiladi [4]. O'rta Osiyo o'troq aholisi bronza davrining oxirlarida sug'orma dehqonchilik madaniyatini va hunarmandchilik sirlarini yaxshigina egallagan edilar.

Keyingi yillarda O'rta Osiyoning qator arxeologik yodgorliklarida ibodatxona, diniy markaz va muqaddas sajdagoh deb atalgan monumental xarakterdagi inshootlar ochilgan. Bular, Oltintepada diniy markaz majmuasi [5], Dashli-3 da ibodatxona [6], Sarazmda diniy sajdagoh markazi [7], Murg'ob vohasida To'g'oloq va Gonur ibodatxonalar [8] deb atalgan. Jarqo'ton ibodatxonasi esa ana shular qatoridagi quyosh ibodatxonasi edi.

Olovga topinishda bajariladigan marosimlar cheksiz qurbonliklar bilan bog'lab olib borilgan. Otashparastlarda urug' va qabila xudolariga atab qurbonliklar qilish shunchalar avj oldiki, bu nafaqat cheksiz isrofgarchilikka, balki jamoa a'zolarining iqtisodiy hayotiga ham zarar keltiradi. Otashparastlar diniy sistemasini tartibga solish, diniy e'tiqod normalarini isloh qilishni hayotning o'zi talab eta boshladi. Ahmoniyar imperiyasi arafasida bu zaruriyat kun tartibiga chiqib, tarixiy shaxs Zaratushtra otashparastlik diniy qarashlarining bosh islohotchisi sifatida faoliyat olib bordi [9].

Ilk sinfiy munosabatlar va ilk davlatlarning shakllanishi davrida jamiyatda yakka xudolik shakllanib borishi bilan birga boshqa diniy qarashlar ham saqlanib qolavergan. Qadimgi Sharq tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'p xudoliklar orasidan yagona hukmron xudolik ajralib chiqqan. Ushbu xudolik butun jamoa, qolaversa, butun jamiyat xudoligiga aylanib borgan. Unga xizmat qiluvchi dindorlar va ibodatxonalar vujudga kelgan. Yagona xudolik shakllanib borayotganda eski din ko'rinishlari, jumladan totemlar saqlanib qolavergan. Gohida ushbu tuyg'u rivojlanib, alohida hayvonlarga, totemlarga sig'inishning zoolatriya yoki teroteizmning (hayvonlarga sig'inish) saqlanishiga olib kelgan. Bu holat umumiy tarixiy jarayon bo'lib, Misrda sivilizasiyaning yuksak rivojlanganligiga qaramay, zoolatriya diniy qarashlar sifatida saqlanib qolavergan. Z.P. Sokolova tadqiqotlariga qaraganda, har bir qadimgi misr «nom» tipidagi davlatlar aholisining o'z topinadigan hayvonlari bo'lganligi kuzatilgan, yakka xudolikka intilish bo'lmagan hududlarda zoolatriya odatlari keng va uzoq davom etadi. Jarqo'ton misolida zoolatrik diniy qarashlarni terrakot haykalchalar misolida kuzatishimiz mumkin. Ma'lumki, terrakot haykalchalar o'sha zamon kishilarining ideologik qarashlarini o'zida mujassam etadi [10].

Jarqo'ton yodgorligidan sigir (ho'kiz), tuya kabi hayvonlar shaklida ifodalangan terrakot haykalchalar, muhrlarda tasvirlangan ilonlar, burgutlar kabi hayvonlar borki,

bu topilmalar asosida Jarqo'ton aholisining zoolatrik qarashlarini aniqlashimiz mumkin.

Yana bir zoolatrik hayvonlardan biri «Baqtriyaliklar tuyasi» deb nom olgan ikki o'rkachli tuyadir. O'rta Osiyoda bronza davrida tuya tasvirlari ifodalangan muhrlar va terrakot haykallar keng tarqalgan. Osteologik manbalar asosida Andronovo madaniyatida mil.av. XV-XIII asrlarda tuyaning tarqalganligi isbotlangan. Bu ma'lumotlar bronza davrida ikki o'rkachli tuya asosiy transport vositasi sifatida keng tarqalganligidan darak beradi. V.V. Ivanovning izlanishlariga qaraganda ikki o'rkachli tuya mil.av. III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda xonakilashtirilgan va mil.av. II ming yillikda Mesopotamiyagacha brogan [11].

Ikki o'rkachli tuyaning ilohiy hayvon bo'lganligi, zoolatrik xarakter kashf etganligini qanday bilamiz? Uning terrakot haykal sifatida ifodalanishi birinchi ko'rinishi bo'lsa, «Avesto»da u «kuchli», «badjahl» hayvon sifatida tilga olinadi. Uchinchi va eng asosiy isboti esa zardushtiylik dinining asoschisi ismida tuyaning qo'llanishidir. «Zaraoustra» dagi «ustra» so'zi tuyani anglatishi bu hayvonning ilohiylik belgisidir.

Ilon. Ilonlarga sig'inish insoniyat ma'naviy madaniyatida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, u fanda ofiolatriya deb yuritiladi. Ofiolatriya dunyoning turli xalqlari orasida tarqalgan zoolatriya (hayvonlar kul'ti)da markaziy o'rinni egallaydi va fitolatriya (o'simliklar kul'ti) bilan chambarchas bog'langan [12].

Qadimdan jahon xalqlari diniy tarixida ilonlar doimo ma'lum bir yuqori mavqeni egallab kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari orasida ilon qadimdan tuproq va suv kuchlarining ramzi bo'lgan. U qadim-qadimdan mahalliy aholi diniy marosimlari hamda tasviriy san'atida muhim rol` o'ynagan. Rivoyatlarda XX asrga qadar ilon obrazi hosildorlik ramzi bo'lish bilan birga suv ilohining asosiy vazifalaridan birini bajargan. G'arbda yunon va rimliklardan tortib Sharqda Hindiston va Xitoyga qadar bo'lgan ko'pgina qadimiy xalqlar asotirlarida ilon yoki ajdaho namlik qo'riqchisi bo'lgan [13]. Varaxsha va Panjikentdagi devoriy suratlarda ajdaho og'izidan favvora otilib turgan holda tasvirlangan.

Zardushtiylik dinida esa ilonlar salbiy ko'rinishda tasvirlangan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da yozilishicha, yovuzlik ilohi Axrimanning do'sti Ajdaho uch kalla, olti ko'zlidir. Uning maqsadi jahonni odam zotidan tozalashdan iborat. Yomonlik ilohi Axriman uni shu maqsad yo'lida yaratgan [14]. "Shohnoma"da esa ajdaho afsonaviy Rustamning ajdodi tarzida zikr etilgan. O'z o'rnida ta'kidlash kerakki, XIX asr oxirlarida Farg'ona viloyati So'x tumanidan qora toshdan qilingan bir-biriga chirmashgan mashhur ikkita ilon tasviridagi tumor

topilgan. Bu ilon obrazi zardushtiylikning yorug'lik va zulmat kuchlarining kurashi ramzi bo'lsa kerak. Qolaversa, ilon qora rangdagi tosh bilan tasvirlanganligi ham ushbu obrazning zardushtiylik bilan aloqadorligini tasdiqlaydi. Chunki «Avesto»da aynan qora rang yomonlik, zulmat va o'lim ramzi tarzida talqin qilinadi [15].

Keyingi izlanishlarda zoolatrik diniy qarashlarga e'tibor qaratilib, ularning keng tarqalgan turlari sifatida ilon, sigir, tuyadan tashqari yana qurbaqa, chayon, turli xil qushlarni aytish mumkin.

Chayon. Chayonlarning hayot tarzi asosan qorong'ulikda, soyada o'tganligi uchun qorong'ulikni uning ramziy timsoli sifatida olish mumkin. Sopollitepa topilmalari orasida ham chayon va ilon tasviri tushirilgan tumor va tosh munchoqlar ko'plab uchraydi. Odatda chayonlar kechqurunlari ov qiladi, deyarli o'z tirikchilik faoliyatini tunda o'tkazadilar. Zardushtiylik dinida yovuzlik, yomonlik kuchlari sifatida qora rang ifodalanishi, bu nafaqat zardushtiylikda, balki bugungi kunimizda ham yomonlik, yovuz niyyatli ishlar qora rang timsolida gavdalanib, ularga nisbatan "qora niyyatli" ishlar tarzida qo'llaniladi. Fasllar ichida qish mavsumi qora kunlar sifatida ko'rsatilib, Navro'z bayramini qora kunlarning ketishi va yangi kunning – yorug' kunning boshlanishi, yangi kunning tug'ilishi, deb diniy bayram sifatida nishonlashgan [16].

Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik jamoalarini boshqarish dastlabki davlat uyushmalarini tarkib topishiga olib keldi. Dastlabki davlat uyushmalari esa mahalliy ibodatxona koinlari tomonidan boshqarildi. Shuning uchun ham o'troq aholi jamiyat hayotining moddiy asosi hisoblangan dehqonchilik va sug'orish bilan bog'liq masalalar koin-hukmdorlar qo'liga o'tdi. Bu jarayon Misr va Mesopotamiya moddiy madaniyat yodgorliklarida yaxshi kuzatiladi. Koinlar dehqonchilik marosimlarini boshqaruvchi shaxs sifatida tarix maydoniga chiqdi [17].

Zardushtiylik dinida hayotning iqtisodiy negizi hisoblangan yerni ifloslamaslik g'oyasi otashparastlar bosh g'oyalaridan biri hisoblangan. Baqtriya va Marg'iyona viloyatlari aholisining dafn marosimlari bilan bog'liq odatlarida, Jarqo'ton ibodatxonasining muqaddas sajdagoh qismiga kirishdagi tosh yo'lakchalarning qurilganligida u o'zining moddiy ifodasini topgan. Demak, bronza davrining otashparastlik ibodatxonalarida zardushtiy diniy e'tiqodi bilan bog'liq olov, yer, suv va havoni muqaddaslashtirish aks ettirilgan. Ularning 3 tasi (yer, suv va olov) Jarqo'ton ibodatxonasining muqaddas sajdagoh qismida moddiy ko'rinishda mavjud. Zardushtiylik dinida hayotning iqtisodiy negizi hisoblangan yerni ifloslamaslik g'oyasi otashparastlar bosh g'oyalaridan biri hisoblangan. Baqtriya va Marg'iyona viloyatlari aholisining dafn marosimlari bilan bog'liq odatlarida, Jarqo'ton

ibodatxonasining muqaddas sajdagoh qismiga kirishdagi tosh yo'lakchalarning qurilganligida u o'zining moddiy ifodasini topgan. Demak, bronza davrining otashparastlik ibodatxonalarida zardushtiy diniy e'tiqodi bilan bog'liq olov, yer, suv va havoni muqaddaslashtirish aks ettirilgan. Ularning 3 tasi (yer, suv va olov) Jarqo'ton ibodatxonasining muqaddas sajdagoh qismida moddiy ko'rinishda mavjud. Bu Jarqo'ton ibodatxonasining marosimlar maydonida shakllangan bosh otashkada va 10 ga yaqin otashkada qurilmalari, ibodatxona toshyo'lakchasi bo'ylab qurilgan quduqlar (ular 8 metrgacha qazilib, suvga yetib borgan. Vaqtlar o'tishi bilan ularning ichiga somon to'ldirilib eskilari ko'milgan, yangilari ochilgan. Shuning uchun ibodatxonadagi quduqlar har xil bosqichga tegishlidir), ochiq hovli sahni oralab otashkadaga tomon yo'naltirilgan tosh yo'lakcha (tosh yo'lakcha davrini aniqlash uchun uning qoq o'rta qismida kesma shurf solinganida, bu tosh yo'lakcha 4 qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan) ushbu ibodatxonaning barcha (Jarqo'ton, Ko'zali, Molali va bo'ston) bosqichlarida faoliyat ko'rsatganligidan dalolat beradi. Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmidan boshlab qadimgi dehqonchilik mintaqalari moddiy madaniyatida tub o'zgarishlar yuz bera boshlashi bilan bu zaminga yangi etnos, etnik birlik kirib keldi. Bu yangi etnik birlikning dastlabki kirib kelishi miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridan boshlangan bo'lsa, migratsiyaning jadal kechgan davri miloddan avvalgi II ming yillikning oxirgi choragiga to'g'ri keladi. Xuddi mana shu davrdan boshlab o'zbek etnogenezi boshlanadi, ya'ni O'rta Osiyo ikki daryo oralig'iga cho'l mintaqalari chorvadorlari kirib keladi. Keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda, bu mintaqada kirib kelgan halqlar turkiylar ekanligi ta'kidlanadi [18].

Bugungi kun to'y, maraka, diniy marosimlarimizdagi ayrim jihatlarga e'tibor qaratsak. Diniy marosim va marakada xalqimizda erkaklar albatta bosh kiyim, to'n kiyib, belini belbog' bilan bog'laydilar. Bu odat asosan o'zbek xalqi uchun xosdir. Buning zamini esa aynan zardushtiylik e'tiqodida, uning muqaddas kitobi "Avesto"da ham keltirilgan. Bu udum erkak kishi belining baquvvat bo'lishi va har qanday mushkul holatlarda ham qaddini egilmasligi, azali marosimlarda ham qaddini tik tutib turishi, ayollardan farqli tarzda qat'iyatligiga qilingan ishoradir. Bunday misollarga yana azali uyning qirq kun chirog'i o'chmasligi, yettilik, qirqi kabi bugungi kun diniy marosimlarimiz ham xalqimizning qadim ajdodlaridan meros bo'lib o'tib kelayotgan an'anadir.

XULOSA

To'y marosimlarida hozirgacha saqlanib kelayotgan kelinni kuyov uyiga olib kirishdan oldin olov atrofida aylantirilishi, kelinni yangi xonadonida birinchi ish kuni,

avvalo o'choq oldiga olib borilishi va u bilan bog'liq marosim o'tkazilishi. Bularning barchasi bizga o'zimiz bilmagan holda odatga, an'anaga aylanib qolgan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalqining qadimgi e'tiqodi zaminidagi ezgu g'oyalar, ezgu amallar bugungi kun e'tiqodimiz tarkibiga singib, yanada sayqalashib bormoqda. Xalqimizning bugungi kun e'tiqodida ham birinchi o'rinda inson qadri, ezgu ishlar, haqiqatning doimo barqarorligi asosiy o'rinni egallashi inobatga olinsa, o'zbek xalqining qadimiy va bugungi kun e'tiqodi uzluksiz bo'lib boraveradi.

REFERENCES

- 1 Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш. Южный Узбекистан. Тешик-Таш. Палеолитический человек. - М.: 1949.
- 2 Бердыев О.К. Материальная культура Туркменистана в период неолита и раннего энеолита // Первобытный Туркменистан. - Ашгабад, 1976. – С. 87-91.
- 3 Исаков А. Саразм. (К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины). –Душанбе, 1991
- 4 Каримова Д. Шимолий Бактрия аҳолисининг дафн маросимлари ва диний эътиқодлари (бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида) т.ф.ф.д. диссертацияси. Тошкент, 2017. – Б. 112
- 5 Массон В.М. Алтын-Депе. Ленинград-1981, с. 56-80.
- 6 Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. Москва-1977, с. 34.
- 7 Исаков А. Саразм (К вопросу становления раннеземледельческой культуры Зеравшанской долины. Раскопки 1977-1983 гг.) Душанбе- 1991, с. 72-73.
- 8 Сарияниди В.И. В поисках страны Маргуш. Москва-1993, с. 245-292; Ўша муаллиф. В поисках страны Маргуш...с. 293-356
- 9 Маковельский А.О. Авета. ... – С. 45.
- 10 Эсанов М. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Т.ф.н. дис... –Т., 2007. – Б. 87.
- 11 Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // ...т.ф.д. дис... Автореф. – Самарқанд, 2009. – Б. 20-21.
- 12 Гордеев Н.П. Земля в обрядово-религиозных системах различных народов// ЭО.2002.№6.С.45.
- 13 Сулаймонов Р. Унутилган тамаддун сирлари.Т.:Маънавият, 2004. Б.27.
- 14 Авесто. Тарихий адабий мерос. Б.335.

- 15 Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. Вестник науки, 3(11), 5-8.
- 16 Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқодлари ва диний маросимлари. – Т., 2007. – Б. 25-28.
- 17 Эсанов М. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Т.ф.н. дис... –Т. 2007. – Б. 95.
- 18 История Востока. – М.: Восточная литература, 2000. Т. 1. – С. 29-31.
- 19 Асқаров А. Арийская проблема: новые взгляды и походы // Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. – Т.: Фан, 2005. – С. 45.

NODAVLAT PENSIYA FONDLARIDA INVESTITSIYA PORTFELINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI TAHLILI

F.A. Axmadjonov

Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Andijon viloyati boshqarmasi bo'lim
boshlig'i

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jaxon amaliyotidagi Pensiya fondlari va pensiya ta'minoti tizimlari turlari, Pensiya fondlari aktivlarini boshqarishda ularning investisiya portfelini shakllantirish va uni boshqarish borasidagi strategiyalari o'rganilgan xamda tahlil kilingan.

Kalit so'zlar: *Nodavlat Pensiya fondlari, pensiya ta'minoti, Pensiya fondlari aktivlari, pensiya rejasi (sxemasi), investisiya portfeli, o'zgarmas ta'minotli pensiya rejasi, jamg'arib boriladigan pensiya rejasi, davlat ijtimoiy himoya rejasi*

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются и анализируются виды пенсионных фондов и пенсионных систем в мировой практике, формирование их инвестиционного портфеля и стратегии управления активами пенсионных фондов.

Ключевые слова: *негосударственные пенсионные фонды, пенсионное обеспечение, активы пенсионного фонда, пенсионный план (схема), инвестиционный портфель, фиксированный пенсионный план, накопительный пенсионный план, государственный план социальной защиты.*

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar Pensiya fondlari amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, dunyo mamlakatlari aholisining demografik o'zgarishi, iqtisodiyotning rivojlanishi sari aholining turmush tarzi yaxshilanishi natijasida ularning o'rtacha umr ko'rish yoshining oshib borayotganligi va mexnat faoliyati bilan band bo'lgan aholiga nisbatan pensionerlar ulushining oshib borayotganligi natijasida Pensiya fondlarini moliyaviy ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya tizimidan jamg'arib boriladigan nodavlat pensiya fondlarini tashkil qilish va ularning moliyaviy daromadlarini oshirishda jamg'arma mablag'larini investision faoliyatini shakllantirish va ularni samarali boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqazo qilmoqda.


MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda sobiq ittifoqdosh mamlakatlarida pensiya tizmini islox qilish, uning samaradorligi, adolatligi va barqarorligini oshirish bu mamlakatlar xukumatlari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki sobiq ittifoq tanazzulga yuz tutishi oqibatida bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan iqtisodiy tizimlar uchun bir asosga ega bo'lgan tizimning amal qilishi hozirgi kunda yuzaga chiqayotgan pensiya bilan bog'lik muammolarning asosini tashkil etadi. Ularni bartaraf etish pensiya tizimini isloh qilish orqali amalga oshirilib, bunga albatta, jaxon amaliyotida o'zini oqlagan tajribalarni o'rganish va ularni milliy qadriyatlar asosida joriy qilish orqali erishiladi.

Xalqaro pensiya nazariyasida "pensiya rejasi" (ba'zan pensiya sxemasi deb ham yuritiladi) tushunchasi asosiy o'rinni egallaydi. Pensiya rejalarini, o'z nomiga monand ravishda, ishchilarni mehnat faoliyatini yakunlagandan so'ng doimiy pul ta'minoti bilan ta'minlash uchun ulardan va ularni yollagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan olingan pensiya badallaridan tashkil topgan aktivlarni rejali boshqarishni anglatadi. Pensiya rejalarini dunyodagi eng katta kapitalni o'zida jamlagan moliyaviy tizim hisoblanib, ularni boshqarishda moliyaviy menejerlar o'ziga xos mas'uliyat oladilar.

Xorijiy mamlakatlar amaliyoti tahlilidan ko'rinadiki, Pensiya fondlarining iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, u iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy moliyaviy institutlardan biri sifatida maydonga chiqib, jamg'arma mablag'larini real iqtisodiyotga investitsiyalash orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hususan, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tahlil uchun tanlab olingan rivojlangan mamlakatlardagi Pensiya fondlari aktivlarining qiymati 35,3 trillion AQSh dollaridan ortiq va bu raqam o'rganilgan mamlakatlar YaIMning o'rtacha 80 foizini tashkil qiladi.

Shuningdek, 2015 yilda dunyodagi eng yirik 300 ta pensiya fondining yalpi aktivlari 14,8 trillion dollarga yetgan bo'lib, bu raqam butun dunyodagi pensiya aktivlarining 43,1 foiziga tengdir. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoda pensiya badallari xisobiga shakllangan mablag'lar 33 trillion dollardan ortiqdir. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, bu raqam AQSh yalpi ichki maxsulotidan (18 trillion dollar) 1,8 marta, Xitoy yalpi ichki maxsulotidan (11 trillion) esa 3 marta kattaroqdir va dunyo yalpi maxsulotining (73,9 trillion dollar) 44 foizini tashkil qiladi.



1-rasm. Ayrim davlatlar Pensiya fondlarining YaIM ga nisbatan ulushi, foizda²⁰

Mazkur 1-rasm ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatlar Pensiya fondlarining YaIM ga nisbatan ulushi yuqori bulib, masalan, bu ko'rsatkich AQSh da 38,3%ni tashkil etadi. Bu esa, Pensiya fondlarining sug'urta badallari tushumiga bog'liqliligini kamaytirishga, Pensiya jamg'armalarining investision faoliyatini rivojlantirish natijasida jamg'arma daromadlarini oshirish imkonini beradi. Xorijiy mamlakatlar Pensiya fondlarining bunday natijalarga erishishida avvalo, rivojlangan mamlakatlar pensiya fondlariga investision faoliyat bilan shug'ullanish va pensiya fondlarini yaratishni tashkil etish borasida juda katta erkinliklar berilishiga zamin yaratgan.

Shu nuqtai nazardan, Pensiya fondlari va pensiya rejalarini (sxemalari) ham ish beruvchi, ham ishchi uchun jozibadordir. Chunki, pensiya rejalarini taklif etuvchi kompaniyalar yuqori malakali ishchilarni yollash va ularni o'zida saqlab qolish imkoniyatiga egalar. Buning sababi esa oddiy: har kandy ishchi yuqori darajadagi pensiya o'tkazmalarini taklif etuvchi firmalarni qidiradi. Pensiya rejalarini orqali kelgusida olinishi va'da etilgan daromadlar ishchilar uchun kelajakda o'z nafaqasini ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan shaxsiy jamg'armalarning o'rnini bosa oladi.

Asosiy qism. Xorijiy amaliyotda pensiya rejalarini uzoq muddatli investisiyalar taklifining asosiy sub'ekti hisoblanib, bunda ular yangi ishga kirgan ishchi umrining o'rtacha davomiyligiga asoslanadilar. Ya'ni, aktivlarni joylashtirish karorlari mamlakatda yuritilayotgan demografik statistikadan kelib chiqib kabul kilinadi. Agarda, biror jismoniy shaxs mustakil ravishda nafaka uchun investisiya kiritadigan bo'lsa, u holda mazkur investision aktivlar tabiiy ravishda konservativ xususiyat kasb

²⁰World Development Indicators database, World Bank, 16 December 2016.

etadi. Chunki ishchining umri davomiyligi mavhum va nafaka davomida bu investisiyadan ko‘rilgan zararni qoplash imkoniyati cheklangandir.

Pensiya rejalarining 3 asosiy turi farqlanadi: o‘zgarmas ta‘minotli pensiya rejaları, davlat ijtimoiy himoya rejaları va jamg‘arib boriladigan pensiya rejaları. Ular bir-birlaridan aktivlarni boshqarish riski va mukofoti, investision portfelning ijro etilishidagi riskning ish beruvchi, ishchi yoki solik to‘lovchiga o‘tishiga karab farqlanadi.

O‘zgarmas ta‘minotli pensiya rejaları nafaqaxo‘rlar uchun o‘zgarmas daromadni kafolatlaydi va ayni paytda ish beruvchi uchun risqli bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, nafaqaxo‘rlarga kafolatlangan va o‘zgarmas daromadni taklif etish bilan birga barcha investision riskni o‘z gardaniga oladi.

O‘zgarmas ta‘minotli pensiya rejaları “ko‘chmas” xususiyatga egaki, unga ko‘ra ishchining bir ish beruvchidan ishlab topgan ta‘minoti boshqa ish beruvchi tomonidan tan olinmaydi yoki davom ettirilmaydi. Kup hollarda pensiya yoshiga yetmay vafot etgan ishchilar ishlab topilgan ta‘minotni olmaydilar. Shuningdek, ularning merosxo‘rlari ham yig‘ib borilgan daromadlar va kompensasion to‘lovlardan ma‘lum bo‘ladilar. O‘zgarmas ta‘minotli pensiya rejaları uz mehnat faoliyatini fakatgina bir ish beruvchida utkazuvchi ishchilar uchun kulay hisoblanadi.

Bir ishchining 40 yillik mehnat faoliyatini bitta firmada o‘tkazish va ikki firmada 20 yildan ishlash holatlarini bir-biriga taqqoslasak. Har ikkala firma ishchi mehnat faoliyatining oxirgi besh yilidagi o‘rtacha maoshining 1,5 foizi va uning ishlab bergan yillari soniga ko‘paytmasiga teng miqdorda pensiya ta‘minotini taklif etadi. Deylik, ishchi 1975 yilda yillik 15787 dollarlik maosh bilan o‘z faoliyatini boshlab, uni 2015 yilda 50000 dollarga teng yillik maosh bilan yakunlagan (40 yil davomida maosh 3% dan oshib borgan). Agar ishchi faoliyati davomida faqat bir ish beruvchiga xizmat qilgan bo‘lsa, uning yillik pensiya ta‘minoti 28302 dollarga teng bo‘lar edi ($1,5\% \times 40 \text{ yil} \times 47171$ (oxirgi besh yildagi o‘rtacha maosh)).

Ikkinchi holatda esa ishchi 1975-1995 yillarda birinchi ish beruvchi uchun ishlagan va oxirgi besh yildagi o‘rtacha maoshi 26117 dollarga teng bo‘lgan. Bu ish beruvchidan ishlab topgan ta‘minoti yillik 1995 yilda xisoblangan bulib, u 7835 dollarga teng ($1,5\% \times 20 \text{ yil} \times 26117$ dollar). Ikkinchi ish beruvchi esa yillik 14151 dollar mikdorida pensiya ta‘minoti tulagan ($1,5\% \times 20 \text{ yil} \times 47171$ dollar). Bundan ko‘rinadiki, butun mehnat faoliyatini bir firmaga xizmat kilish yillik 28302 dollar qiymatida pensiya ta‘minoti bilan ta‘minlasa, ish joyini o‘zgartirish xolatida bu raqam 21986 dollar ($7835+14151$) ga teng bo‘lar edi. Ya‘ni, fakatgina bir firma uchun mehnat kilish 6316 dollar kuprok mablag‘ keltirgan bo‘lar edi.


Ishchi o'z mehnat faoliyati davomida ish joyini qancha ko'p o'zgartirsa, u uchun o'zgarimas ta'minotli pensiya rejalarini shunchalik noqulay bo'lib boradi. Chunki firmalarning aksariyati o'z ishchilari uchun 5 yildan 10 yilgacha kvalifikasion davrni (ish beruvchi pensiya ta'minotini olish xuquqi uchun talab etiladigan majburiy ishlab berish davri) joriy qiladilar. Bunda eng yomon vaziyat sifatida quyidagi misolni keltirishimiz mumkin: 45 yillik mehnat faoliyati davomida 5 ish beruvchi uchun 9 yildan ishlab bergan ishchi kvalifikasion davr 10 yil bo'lgan takdirda pensiya ta'minotisiz qoladi, garchi u 45 yil pensiya ta'minotini taklif etuvchi firmalarda ishlagan bo'lsa ham.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti katta o'qituvchisi

Mansurov Saidxo'ja Kamolovich

Mustaqil tadqiqotchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Respublikamizdagi yengil sanoat korxonalarining holati, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligi va eksport holati o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari Respublikamiz qonunchiligida yengil sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab islohotlarning olib borilayotganligi va ko'rilayotgan chora-tadbirlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: korxonona, iqtisod, samaradorlik, to'qimachilik, yigiruv, tikuv, trikotaj, charm-poyabzal, mo'ynachilik mahsulotlari, tayyor mahsulot, xom ashyo, kalava ip, raqobat, diversifikatsiya, eksport, investisiya, texnologiya.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется состояние предприятий легкой промышленности Республики, состояние эффективности производства и экспорта. Кроме того, законодательством Республики указано, что проводится множество реформ и принимаются меры по развитию деятельности предприятий легкой промышленности

Ключевые слова: предприятие, экономика, эффективность, текстиль, прядение, шитье, вязание, кожаная обувь, меховые изделия, готовая продукция, сырье, пряжа, конкуренция, диверсификация, экспорт, инвестиции, технологии.

ABSTRACT

This article examines the state of light industry enterprises in the Republic, in the state of production efficiency and exports. In addition, the legislation of the Republic states that many reforms are being carried out and measures are being taken to develop the activities of light industry enterprises.

Keywords: enterprise, economy, efficiency, textile, spinning, sewing, knitting, leather shoes, fur products, finished products, raw materials, yarn, competition, diversification, export, investment, technology

KIRISH

So'nggi yillarda respublikada yengil sanoatning to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan

tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investisiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Bugungi kunda yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta‘minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlar jalb qilinishi rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Engil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453 sonli Qarorida O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali yarim tayyor charmni olib chiqishda 2021 yilning 1 yanvaridan boshlab eksport qilinadigan mahsulot qiymatining 10 foizi miqdorida yig‘im undirilishi va O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali paxta ip-kalavasi va trikotaj matoni olib chiqishda 2021 yil 1 yanvardan boshlab olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 AQSh dollari, 2022 yil 1 yanvardan olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava va trikotaj mato uchun 0,05 AQSh dollari, 2023 yil 1 yanvardan — 0,1 AQSh dollari, 2025 yil 1 yanvardan — 0,2 AQSh dollari miqdorida yig‘im undirilishi belgilab qo‘yilgan [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda Respublikamizda ishlab chiqarish jarayonida to‘qimachilik korxonalarini muhim o‘rin egallaydi. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini jahon andozalariga mos keladigan paxta tolasini, kalava ip, bo‘yalgan kalava ipni, ip gazlamani, trikotaj matosini, ipak xom-ashyosini me‘yorda ta‘minlash dolzarb muammolardan biridir. Bu muammoni hal etishda keyingi yillarda to‘qimachilik korxonalarida talabga javob beradigan yangidan yangi korxonalar hamda qurilma va dastgohlar joriy etilmoqda. To‘qimachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga doir Respublika miqiyosida hukumat Qarorlari qabul qilindi, jumladan: - «2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishini bo‘yicha Harakatlar strategiyasi». Mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab nihoyatda katta, shu ehtiyojlarni qondirish

maqsadida to‘qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan birgalikda qo‘shma korxonalar shartnoma asosida ochilmoqda (Farmon 2017). - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabridagi PQ-4453- sonli qarorida “Engil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (Qaror, 2019). - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrda “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5285-son Farmoni (Farmon 2017y). To‘qimachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirishda bir qator holatlar mavjud. Ayni paytda ko‘pgina to‘qimachilik korxonalarini samaradorligini oshirishda, moliyaviy, mehnat va moddiy ko‘rsatkichlardan foydalanish ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Moliyaviy holati yomonlashib borayotgan korxonalar asosan joriy ko‘rsatkichlarni saqlab qolib, korxonalarda zamonaviy texnologiyalar asosida, malakali xodimlarni malakasini oshirish orqali iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jaraënida mavzuga oid statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli ëndashuv, statistik hamda qiësiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi hamda “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Zamonaviy bozor talabiga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun korxonalarining iqtisodiy salohiyatini, ya’ni asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash, xodimlar malakasini oshirish, ularning mehnat sharoitini tubdan yaxshilash, ishlab chiqarish jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilish, bozor talablarini muntazam ravishda o‘rganib borish, kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak [3].

Respublikamizda eksport hajmida tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu borada yengil sanoatda ham e’tiborga loyiq ishlar olib borilmoqda. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2015 yilda respublikamizda ishlab chiqarilgan paxta tolasining 336 ming tonnasi, 2016 yilda 400 ming tonnasi, 2017 yilda 468 ming tonnasi qayta ishlangan bo‘lsa, 2018 yilda esa 706 ming tonna atrofida qayta ishlangan va 2019 yilda esa 714 ming tonna paxta tolasini qayta ishlangan bo‘lib, keyingi yillarda ishlab chiqarilgan paxta tolasini 100% qayta ishlashga harakat qilinmoqda [5].

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni jonlantirish qo‘shimcha qiymat hosil qiladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va valyuta tushumlari oshishini, yangi ish o‘rinlari yaratishni ta‘minlaydi.

«O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan va eksport qilingan mahsulotlar hajmi dinamikasini ko‘rib chiqamiz.

1- Jadval.

«O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2018-2020 yillardagi asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari [5]

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillar			2021 yil prognoz
			2018	2019	2020	
1	Kalava ip	Ming tn.	410,0	575,2	629,8	670,0
2	Tayyor ip gazlama	Mln.kv. m	235,5	268,3	406,0	460,0
3	Trikotaj mato	Ming tn	76,1	111,2	119,6	160,0
4	Tikuv-trikotaj mahsulotlari	Mln. dona	312,1	432,0	548,1	630,0
5	Paypoq mahsulotlari	Mln juft	168,9	197,3	257,0	260,0

Jadvaldan qo‘rinib turibdiki ip kalava ishlab chiqarish 2018 yilda 410,0 ming tonnani, 2019 yilda esa 575,2 ming tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib bu ko‘rsatkich 629,8 ming tonnani tashkil qilgan. 2020 yilda ip kalava ishlab chiqarish 2019 yilga nisbatan 109,5 foizga oshgan. Tayyor ip gazlama ishlab chiqarish 2018 yilda 235,5 mln kv. metrni, 2019 yilda esa 268,3 mln kv. metrni, tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib bu ko‘rsatkich 406,0 mln kv. metrni tashkil qilgan. 2020 yilda tayyor ip gazlama ishlab chiqarish hajmi 2019 yilga nisbatan 151,32 foizga, ya‘ni 137,7 mln kv. metrga ko‘p mahsulot ishlab chiqarilgan. Trikotaj matosi ishlab chiqarish 2018 yilda 76,1 ming tonnadan 2019 yilda 111,2 ming tonnaga, 2020 yilda esa 119,6 ming tonnaga oshganini kuramiz. O‘shish sur‘ati 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 107,55 foizni tashkil qilgan.

Tikuv-trikotaj buyumlari bo‘yicha 2018 yilda 312,1 million dona bo‘lib, 2019 yilda 432,0 million donaga, 2020 yilda esa 548,1 million donaga oshgan. 2020 yilda o‘shish sur‘ati tikuv – trikotaj buyumlari bo‘yicha 2019 yilga nisbatan 116,1 million donaga oshganini guvohi bo‘lamiz.

Paypoq mahsulotlari bo‘yicha esa 2018 yilda 168,9 million juftdan 2019 yilda 197,3 million juftga 2020 yilda esa 257,0 million juftga oshganini ko‘ramiz. O‘shish sur‘ati 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 101,16 foizni tashkil qilgan [5].

Bundan tashqari 2021 yilda “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan kalava ip ishlab chiqarish 670,0 ming tanna, tayyor ip gazlama ishlab chiqarish 460,0 millin kv. m., trikotaj matosi ishlab chiqarish 160,0 ming tonna, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish 630,0 million dona, paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish esa 260 million juftga yetkazish rejalashtirilgan.

Yuqorida keltirilgan tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish va ularning samaradorligini oshirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati va tamoyillarini tahlil qilish hamda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlarining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda [6].

Shu o‘rinda, modernizatsiya atamasining mazmuniga to‘xtalib o‘tchak, unga nisbatan turli xil talqinlar berilgan. Xususan, iqtisodiy adabiyotlar va lug‘atlarda unga quyidagi mazmundagi ta‘rif berilgan: «Modernizatsiya – ob‘ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me‘yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko‘rsatkichlariga muvofiqlashtirish, asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»[7].

O‘zbekiston iqtisodiyotiri rivojlanishida yengil sanoat korxonalarining ham xissasi katta hisoblanadi. So‘nggi yillarda respublikada yengil sanoatning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investisiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ya‘ni, yengil sanoat korxonalarida yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60 foizdan kam bo‘lmagan eksport ulushiga ega bo‘lgan korxonalar 2023 yil 1 yanvarga qadar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilishi belgilab qo‘yilgan [10].

Quyidagi jadvaldan «O‘zto‘qimachiliksanoat» uyushmasi tarkibidagi korxonalarining eksport faoliyatining yildan-yilga o‘sib borishini kuzatishimiz mumkin.

2-jadval

«O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining 2018-2020 yillardagi eksport faoliyati ko‘rsatkichlari [9]

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	yillar			2021 yil prognoz
		2018	2019	2020	
Kalava ip	Ming tn.	282,3	381,1	455,4	433,3
Tayyor ip gazlama	Mln.kv. m	184,5	215,5	296,5	349,1
Trikotaj mato	Ming tn	15,2	20,4	33,2	41,5
Tikuv-trikotaj mahsulotlari	Mln. dollar	424,8	486,3	648,0	1428,2
Paypoq mahsulotlari	Mln juft	47,0	74,6	119,8	166,9

Engil sanoat mahsulotlarini eksport hajmini oshirish borasida uyushmada bir qancha ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda, amaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, sohada ISO-9001 doirasida 718 ta korxonada ish yuritilib, sertifikatlar amal qiladi. Sifat menejmenti tizimini joriy etish doirasida uyushma korxonalarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Joriy yilda 70 ta korxonada xalqaro sertifikat olish uchun topshiriq berilgan. Bugungi kunga kelib Sifat menejmenti tizimini joriy qilish bo‘yicha dolzarb ishlar 81 ta korxonada amalga oshirildi yoki 116 foizga bajarildi.

XULOSA

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish uchun zaruriy huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirilgan va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beruvchi qo‘shimcha mablag‘lar jalb etish, ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiya qilishga katta e’tibor qaratilgan.

Yengil sanoat korxonalarida sifatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, xususan, tarmoq korxonalarida «Sifatni boshqarish va monitoring qilish» bo‘yicha Ishchi guruhning tarkibi va vazifalarini takomillashtirish borasida ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Bu tarmoqlarda xususi sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha barcha choralar ko‘rilmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453 sonli Qarori.
2. Uzbekiston Prezidentining 2017 yil 14 dekabr-dagi «Tukimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida» gi PF-5285-son farmoni.
3. Boltaboyev M.R. To‘qimachilik sanoatida marketing strategiyasi. Monografiya. – T.: Fan, 2004. - 224 b.
4. Grigoryev A. Marketing: yoki zarur qadamlar. // Korxonani boshqarish. – T.: 2009. - №3. -21-22-betlar.
5. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi va uning tizimidagi korxonalarining 2018-2020 yillar uchun statistik ma’lumotlari.
Shog‘iyosov T. Komrleks iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.: Fan va texnolo–giya, 2012. – 280b.
6. Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida to‘qimachilik korxonalari rivojlantirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlari: Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 274 b.
7. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. - 2-е изд., испр. -М.: ИНФРА-М. 1999. – С. 479.
8. 2017 Spencer Stuart US Board Index. <https://www.spencertstuart.com>
9. Ўзбекистон Республикаси Давлат стастика кўмитаси маълумотлари. 2017-2020 йиллар
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.09.2019 йилдаги “Енгил sanoatni yanada rivojlan-tirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4453-sonli Qarori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI
MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNI
JORIY ETISH USULLARI**

A.R.Sodiqov

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi

Sodiqov84@list.ru tel:99890-976-84-87

ANNOTATSIYA

Maqolani yoritish jarayonida, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xalqaro standartlarni joriy etish orqali ichki bozorni zarur iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, mahalliy lashtirish darajasini chuqurlashtirish zarurligi masalalariga e‘tibor qaratilgan.

***Kalit so‘zlar:** xalqaro Global G.A.P. standarti, ISO 9000, ISO 14000, ISO 22000, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga oid uyg‘unlashtirilgan standartlar.*

АННОТАЦИЯ

В статье делается акцент на необходимости наполнения внутреннего рынка необходимыми товарами народного потребления за счет внедрения международных стандартов в выращивании сельхозпродукции, углубления уровня локализации.

Ключевые слова: International Global G.A.P. стандарт, ISO 9000, ISO 14000, ISO 22000, гармонизированные стандарты на сельскохозяйственную продукцию.

ABSTRACT

The article focuses on the need to fill the domestic market with the necessary consumer goods through the introduction of international standards in the cultivation of agricultural products, to deepen the level of localization.

***Keywords:** International Global G.A.P. standard, ISO 9000, ISO 14000, ISO 22000, harmonized standards for agricultural products.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi faqat o‘zi yetishtirayotgan paxta tolasi bilan emas, balki butun dunyo xalqlari yaxshi ko‘rib iste‘mol qiladigan mevalari, uzumlari, sabzavot va poliz mahsulotlari bilan mashhur bo‘lib, ularning ko‘pgina turlari va navlari boshqa mamlakatlarda uchraymadigan xammani o‘ziga tortadigan ta‘mi va xushxo‘rligi bilan alohida ajralib turadi.

O‘zbekistonda yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari iqlim sharoitining juda qulayligi tufayli mana shunday noyob bo‘lganligi uchun ham jahon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida yuqori darajada raqobatbardoshdir.

Bugungi kunda O‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarining o‘ta qimmatli navlarini yetishtirish va qayta ishlash, ularni eksport qilish sohasida katta salohiyatga ega. Agrar sektorda eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va uni qayta ishlaydigan sanoatni yetakchi o‘ringa ko‘tarish qishloq xo‘jaligida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi. Ushbu vazifani hal qilish, mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov bir necha bor ta‘kidlagan, qishloq xo‘jaligi mahsulotining sifatini hamda uni qayta ishlaydigan korxonalarining samaradorligini oshirishni, ichki va tashqi sotish bozorlarini yanada kengaytirishni talab qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayni vaqtda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining eksport salohiyatini hamda uni yetishtiruvchi va ishlab chiqaruvchilari faoliyatining samaradorligini oshirish birinchi navbatda qishloq va suv xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda halqaro standartlarni qo‘llanilishini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham agrar sohada faoliyat olib borayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi va ishlab chiqarish korxonalarida xalqaro standartlarni joriy etish usullarini yaratish zarur.

Agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini oshirish ularni xalqaro raqobatbardoshligini ta‘minlashda jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashda sifatni ta‘minlashga yo‘naltirilgan standartlarni o‘rganish va tahlil qilish hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha jahonda yuqori ko‘rsatkichlarga ega xalqaro Global G.A.P. standartini O‘zbekistonda joriy etishning ahamiyati va afzalliklarini o‘rganib chiqish, ushbu standartni O‘zbekistonda joriy etish bo‘yicha usul va chora tadbirlar rejasi loyahasini ishlab chiqish maqolaning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Maqolaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

- Respublikada amaldagi mavjud qishloq xo‘jaligiga oid xalqaro, davlatlararo va milliy standartlarni aniqlash va tahlil qilish;
- Jahonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishda sifat va xavfsizlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan xalqaro sifat standartlarini o‘rganish va tahlil qilish;

- Xalqaro va hududiy standartlarni O‘zbekiston davlat standarti sifatida qabul qilish tartibi va usullarini ifodalash;

- O‘zbekistonda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta‘minlashda xalqaro GLOBAL G.A.P standartini joriy etishning afzalliklari, o‘rni va ahamiyatini o‘rganib chiqish va tahlil qilish;

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda GlobalG.A.P. xalqaro standartini O‘zbekistonda joriy etish usulini yaratish va uni tavsiya qilish. **GLOBALGAP(EUREPGAP)** - butun jaxon bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini standartlash va sertifikatlashtirish bo‘yicha xalqaro xususiy idora.

Mazkur idora (*EUREPGAP*) - *Euro-RetailerProduceWorkingGroup* - oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi masalalari bo‘yicha yevropa ishchi guruhi) tomonidan 1997 yilda Germaniyada tashkil etilgan. GLOBALGAP ning asosiy faoliyat turi butun jaxon bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish jarayonlariga standartlar ishlab chiqish va sertifikatlashtirishga talablarni o‘rnatishdir. Bu idoraning asosiy boshqaruv tarkibi Rais, Kotibiyat, Milliy texnik texnik ishchi guruh, Sertifikatlashtirish va boshqa sohalar bo‘yicha texnik qo‘mitalardan iborat.

Hozirgi kunda GLOBALGAPga jahonning 100 dan ortiq davlat va oziq-ovqat savdosi bilan shug‘ullanuvchi yirik firma, korxonalar va uyushmalar a‘zo hisoblanadi.

GLOBALGAP xalqaro standartlarini joriy etish majburiy emas. Har bir mamlakat bu standartlarni xususiy idoraga a‘zo bo‘lish va kelishuv orqali butunligicha yoki ayrim bo‘limlarini qabul qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida xalqaro standartlarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Global miqiyosda qo‘llanilayotgan GLOBAL GAP (Qishloq xo‘jalik amaliyotini yaxshilash) xalqaro standartini yurtimizda joriy etish bo‘yicha 2011 yilning 4-6 may kunlari GLOBAL GAP standartlashtirish va sertifikatlashtirish talablari bo‘yicha Belgiyalik xalqaro ekspert K.Petrov respublikamizga taklif etildi va seminar treyning o‘tkazildi. Ushbu o‘quv kursida Qishloq va suv xo‘jaligida standartlashtirish markazi, “O‘zstandart” agentligi, Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi, Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qiluvchi Univeg ASIA MChJ va KATRI VOSTOK konsalting kompaniyalardan 17 nafar xodim ishtirok etib, Global GAP xalqaro sertifikatlashtirish idorasining tegishli sertifikatga ega bo‘ldilar.

O‘quv treyning davomida ishtirokchilar Global GAP xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish idorasiga a‘zo bo‘lish, ushbu standart talablarini o‘rganish bilan

birga uni respublikamiz fermer xo'jaliklarida qo'llash imkoniyatlari xaqida tushunchalarga ega bo'ldilar.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan va yetishtirilayotgan mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish korxonalarini hamda agrar sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarni qo'llab quvvatlash, ularning mavqeyini yanada oshirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amaliyotga joriy etilmoqda.

XULOSA

Jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ishlab chiqarish va qayta ishlashda sifatni ta'minlashga yo'naltirilgan xalqaro standartlar o'rganildi va tahlil qilindi. O'rganish va tahlil qilish natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta'minlashda jahonda yuqori ko'rsatkichlarga ega xalqaro Global G.A.P. standartini O'zbekistonda joriy etish bo'yicha takliflar berildi. Ushbu standartni O'zbekistonda samarali joriy etish bo'yicha usul va chora tadbirlar rejasi loyihasi ishlab chiqildi. Bular esa respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash hamda eksportbop mahsulotlarning hajmini oshirishda yetishtiruvchi va ishlab chiqaruvchi korxonalarining halqaro sifat standartlarini o'zida joriy etish va ular asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirishda amaliy yordam beradi.

REFERENCES

6. I.A. Karimov, "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari", O'zbekiston: Toshkent, 2009y., 486 b.
7. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.: 2017 yil 7 fevral, PF-4947-sonli Farmoni.
8. Ismoilov B.X. "O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda xalqaro standartlarni joriy etish usullari" Toshkent, 2012y
9. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. Вестник науки, 3(11), 5-8.
10. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).

FINANCIAL AND ECONOMIC MECHANISM FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF LABOR MARKET INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT

Nodira Ulugmurodova

Dotsent, Samarkand State University

Ulugbek Suyunov

SamSU researcher

ABSTRACT

This article examines the elements of the financial and economic mechanism of labor market infrastructure development, the formation and use of financial resources, the relationship between financial functions and financial methods.

Keywords: *labor market, infrastructure, employment policy, vocational training, financial and economic mechanism, labor force, unemployment, regulation, planning.*

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются элементы финансово-экономического механизма развития инфраструктуры рынка труда, формирование и использование финансовых ресурсов, взаимосвязь финансовых функций и финансовых методов.

Ключевые слова: *рынок труда, инфраструктура, политика занятости, профессиональное обучение, финансово-экономический механизм, рабочая сила, безработица, регулирование, планирование.*

INTRODUCTION

The effectiveness of the state employment policy in the labor market largely depends on the results of the effective use of elements of the financial and economic mechanism of the functions of financing the labor market. One of the most important tools for achieving socio-economic stability and eliminating unemployment is the formation of financial resources in the labor market and the regulation of the labor market.[1]

The financial and economic mechanism of labor market regulation is formed through the interaction between the elements of its components. The essence, composition and procedure of this mechanism are still the subject of debate in both domestic and foreign literature. Thus, the subject of this study has not been studied in detail, taking into account the financial and economic mechanism of labor market

regulation, its transformation. Therefore, in the general context, we do not consider it expedient to consider in this case the debate on the financial mechanism of regulating the supply and demand for labor in the labor market.

LITERATURE REVIEW:

1. Abdurahmonov K.Kh. Labor economics (textbook). -T .: - «Labor» - 2009. - 512 p.

This textbook examines the most important criterion of the quality of the labor market, the level of development of its infrastructure, the socio-economic nature of the labor market infrastructure, the elements of its components, the main tasks and functions. There is also a need to organize and regulate the processes and policies of employment through the financial and economic mechanism of the labor market, various economic instruments and methods, legal norms.

2. Pavlovska E.V. Work market regulation: financial and economic mechanism. Author's abstract of diss. doc. econ. science. - Kiev: NANU. 2002. -S.46.

In this study, the elements of the financial and economic mechanism of labor market regulation, tasks and functions, sources of formation and use of financial resources, as well as the financial functions of the financial system in the system of financial and economic management of the labor market and employment.

3. Kholmuminov Sh.R., Arabov N.U. Labor market infrastructure. Study guide. -T .: “Science and technology”, 2016. pp. 150-155.

The textbook provides a scientific and theoretical analysis of the interdependence of the labor market infrastructure and its components, as well as a comprehensive assessment of the effectiveness of its development and forecasting, as well as employment with state and non-state employment. Also, a strategic concept has been developed to improve the organizational and economic mechanism of labor market regulation and increase the efficiency of labor market infrastructure development.

4. Smirnov S. Methods of assessment of state employment policy // Questions of statistics. - 1998. -N2 4. - C. 29-34.

This article describes the main directions, goals and objectives of the state employment policy, methods and indicators for assessing the state employment policy, the mechanism of employment and incentives for employment, effective measures to increase the population through effective employment.

RESEARCH METHODOLOGY

In the process of research, a dialectical and systematic approach to the study of economic systems and ratios to determine the elements of the financial and economic mechanism of labor market infrastructure development and their interrelationship, complex assessment, comparative and statistical analysis, comparative and comparative analysis, the need to use optimal methods of assessment was justified.

The main elements of the financial and economic mechanism of labor market regulation are the payment of wages for all hired workers, the cost of social protection against unemployment, the creation of new jobs, vocational guidance and retraining of the unemployed.

ANALYSIS AND RESULTS

Elements of the financial and economic mechanism of labor market regulation are interdependent and interrelated. The main criteria for determining the allocations to the unemployment insurance fund are the wages of workers and the cost of payment for the work of economic entities. At the same time, employment policy measures (vocational training, retraining, skills development, vocational guidance, entrepreneurship and involvement of the unemployed in community work, etc.) are implemented at the expense of the unemployment insurance fund. As a result of these measures, the unemployed and other groups of the population who are not engaged in other work will be relocated to independent or additional jobs. Due to this, the cost of paying employees in labor activity increases.

In our opinion, the main task of the financial and economic mechanism of labor market regulation is to ensure the process of formation and use of financial resources in the labor market and to control these processes (Figure 1).

In the financial and economic mechanism of labor market regulation, financial functions are applied as the formation and use and control of financial resources of the labor market. The main methods of this mechanism are the planning, forecasting, organization, regulation, coordination, incentives and others of the financial resources of the labor market.

The system of management of employment and financing of the labor market, that is, the financial mechanism of regulation of the labor market, aimed at the formation of financial relations and the rational management of the movement of financial resources.




Figure 1. Interrelation of financial functions and financial methods in the system of financial and economic management of the labor market and employment *

* Compiled by the author.

In the financial and economic mechanism of labor market regulation, the process of financial and economic management and the formation of the socio-

economic system is quite complex. The management of the labor potential of the country, the financial and economic regulation of the labor market in the state system is carried out on the basis of financial methods and levers. The main role in solving these problems is to use block elements as the organization and motivation, planning and forecasting of effective use of labor resources in the labor market.

The financial and economic mechanism of regulation of the labor market is a system of financial and economic methods, techniques, levers of management of financial support of employment policy measures in the labor market in accordance with the legal, regulatory and information support.




Figure 2. Financial and economic mechanism of labor market regulation *

* Compiled by the author.

The elements and components of the financial and economic mechanism of labor market regulation are illustrated in Figure 1 below.

In order to implement the policy of financial regulation in the labor market, the cost of labor (state, territory, spheres of activity, the total number of employees of economic entities and the individual of each employee), the quality of employers and employees, as well as the number of employees special financial and economic levers should be introduced. The functioning of the financial and economic mechanism of labor market regulation can be carried out in terms of total legal, regulatory and information support.

Legal support of the financial and economic mechanism of labor market regulation is carried out with the support of the Laws of the Republic of Uzbekistan, Presidential Decrees and Resolutions, Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, orders of ministries and departments, legal entities. Guidelines, guidelines, guidelines, guidelines and recommendations, as well as other documents. The information supply consists of various information (periodic reports, operational and other analytical data) on the labor market situation, its regulation and financial support.

It should be noted that the current system of financing the labor market is based on social protection from unemployment by the state and is valid for a year. Therefore, the system needs to be reformed due to the fact that its legal, regulatory and information support is not perfect, in particular, it is not clear from a regulatory and methodological point of view and the information support is insufficient.

The main goal of the step in using the financial and economic mechanism of labor market regulation is to achieve the financial stability of the above simplified system of description and the maximum interdependence of all its elements.

The main task of the financial and economic mechanism of labor market regulation is to ensure the formation of its financial resources in the optimal amount and rational use. In the general financial regime of the basis of financial resources, money, savings and receipts are formed, which are used to meet certain social needs and pay wages.

Funds allocated for the re-establishment of the labor force on the basis of financial resources of the labor market (wages and others) and special funds for social protection against unemployment and employment policy (unemployment insurance).

In our opinion, in order to use the funds of the State Fund for Employment and the implementation of the state policy on employment, to create new enterprises for enterprises that are experiencing temporary financial difficulties, to provide new

loans in various forms of ownership. is an important tool in increasing demand. Also, the financial provision of vocational training for the unemployed at the expense of these funds will create conditions for the formation of a skilled labor market in the country and, as a result, the development of labor market infrastructure.

The State Fund for Employment in the Republic is an extra-budgetary fund, and unemployment insurance is managed by the state. At the same time, the representative bodies of entrepreneurs and employees actively cooperate with government agencies that manage social assistance funds for the unemployed.

The relatively initial part of the financial resources of the labor market for the re-establishment of the labor force is the wage bill. According to the current system of legislation, this fund is formed independently in each of them, taking into account the specifics of the financial and economic activities of economic entities [3].

The issue of expanding the rights of enterprises, especially in the field of wages, has a special place in the regulation and control of government agencies. Our research shows that in most enterprises the formation of the salary fund is carried out according to the old trends, as a result of which the regular amount of the salary fund takes into account the real needs of enterprises. Due to the restructuring of operating costs, the increase in the reserve of the salary fund and structural and technological changes are not taken into account.

The increase in the level of regular expenditures based on the payment of wages should facilitate the development of a normative and methodological aspect of ensuring the planning of the wage fund with the support of state research institutions.

In our opinion, such normative and methodological support is based on comparable normative costs per unit of output, the number of employees and standards of service, the norm of working hours, etc. At the same time, the basic normative indicators of cost planning can include a minimum consumer basket.

It is known that according to the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the minimum wage should not be less than the subsistence minimum. In our opinion, it is expedient to reconsider this standard through legislation, taking into account not only the national level, but also the individual regional characteristics of the main goods and consumer goods. Establishment of such standards will increase the level of justification of regular payments, restore the purchasing power of wages and on this basis to form the optimal size of the unemployment insurance fund.

The second part of the financial resources of the labor market is the state social insurance fund, which is used for unemployment insurance, and other financial sources.

Unemployment protection is an important institution of the state social insurance fund. Unemployment insurance is a financial relationship, which is a relative regulation of various aspects of financial relations.

The financial and economic mechanism of labor market regulation and employment is a relative balance between the re-establishment of the labor force in the labor market, the implementation of active and passive employment policies in accordance with financial resources, and the provision of funds and their use. This is achieved with the help of financial and economic methods and levers in the use of all the components of the financial and economic mechanism of labor market regulation [2].

Financial and economic methods are a means of influencing the process of financial and economic relations in the labor market. Such methods have an impact in two ways: first, by controlling the flow of financial resources; consists of. The financial and economic methods of the labor market, which are implemented through financial levers, provide employment to the population, form the State Fund and use it.

All elements of the financial and economic mechanism of labor market regulation are aimed at performing the main functions of financial support of the labor market as measures such as planning, forecasting, organization, regulation, coordination, incentives, control. Financial and economic planning is a complex of measures related to the future implementation of social and economic functions of the labor market, ie employment. includes supervision.

Prospects in the financial and economic mechanism of labor market regulation - is the development of long-term prospects for the volume and measures to finance active and passive employment policy. At the same time, it is necessary to take into account timely and complete changes in the financial condition of the labor market. It is necessary to anticipate the subtleties of the labor market, to apply it in the process of anticipation and perception of new scientific methods, to accelerate the development of events in relation to employment, to accelerate the development of the market.

Despite the importance for the development of market relations in the field of labor market reform, the conceptual framework for such reform has not yet been developed. Theoretical, methodological and scientific-practical mechanisms for reforming the financial security of the labor market have not been identified. At the same time, the issues of social protection and financing from unemployment remain controversial.

Therefore, it is necessary to develop and improve the conceptual framework for reforming the financial security of the labor market.

CONCLUSION

In our opinion, in the future, it is necessary to purposefully implement the following conceptual foundations of labor market reform:

- Ensuring social and economic feasibility of the size of contributions to the State Employment Fund of employees of enterprises and organizations;

- Expansion of contributions to the State Employment Fund not only for work, but also for other types of income (income from entrepreneurial activity, income from participation in profits, other labor income);

- scientifically grounded increase in the share of labor contributions to the State Employment Fund;

- It is known from the practice of developed countries that the promotion of voluntary insurance along with national compulsory insurance against unemployment;

- Improvement of planning and forecasting of financial resources of the labor market from top to bottom on a unified theoretical and methodological basis. Implementation of process modeling in the labor market;

- Eliminating the loss of financial resources due to the mismatch of supply and demand in ensuring the maximum suitability of the workforce in terms of qualifications;

- the use of modern methods of vocational guidance and quality control of graduates of higher educational institutions to eliminate the excessive loss of financial resources during the search for work by specialists with non-competitive professions in the labor market;

- improving the theoretical and methodological base for the formation and use of financial resources as an integral system of financial support for the labor market;

- a systematic increase in wages and operating expenses at enterprises due to the modernization of modern sectors of the economy;

- expansion of non-traditional sources of financing for the implementation of state employment policy;

- Optimization of wage costs as the basis for the formation of the State Employment Fund and the main source of restructuring of labor resources and a systematic increase in all types of incomes of citizens.

REFERENCES

1. Dudnikov S.V. The effectiveness of an active policy of action for the employment of the population of the metropolis. // Diss. ... d-ra econ. the science. - M.: RSL, 2006. -S. 256.
2. Pavlovskaya E.V. Labor market regulation: financial and economic mechanism. Abstract dis. doc. econom. the science. - Kiev: NASU. 2002.-p. 46.
3. Kholmuminov Sh.R., Arabov N.U. Labor market infrastructure. Tutorial. –T.: "Science and Technology", 2016. -332 p.

CHINIQTIRISH OSTIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY ISSIQLIK ALMASHINUVINI O'ZGARISHLARI

Shoyusupova Hadichaxon Bobirxon qizi

Sanitariya, gigiena va kasb kasalliklar instituti Kichik ilmiy xodimi.

Maxammatqulov Xusanboy Erkin o'g'li

Sanitariya, gigiena va kasb kasalliklar instituti Kichik ilmiy xodimi.

Pyasova Aygul Jusipbayevna

O'rta chirchiq tumani SEO va JSX gigiena vrachi

Atamuratova Oybarchin Saparbay qizi

Sanitariya, gigiena va kasb kasalliklar instituti Kichik ilmiy xodimi.

Bobodjonov Begzod Ro'zmatovich

Sanitariya, gigiena va kasb kasalliklar instituti Kichik ilmiy xodimi.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy odamlarning hayot sharoiti ularning salomatligiga yuqori talablarni qo'yadi. Hozirgi vaqtda atrof muhitning noxush omillari ta'siriga organizmning chidamliligini oshirisha olib keluvchi vositalarni izlash va shamollash kasalliklarini oldini olish ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa bu masalaga maktabgacha yoshdagi bolalarda katta ahamiyat qaratilmoqda, chunki aynan shu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi, uning salomatlik xolati shakllanadi. Organizmni bir qator tizimlariga ta'sir ko'rsatuvchi, shuningdek shamollash kasalliklarini oldini oluvchi asosiy vositalardan biri bo'lib, katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan chiniqtirish hisoblanadi.

***Kalit so'zlar:** mikroiqlim, komfort sharoit, shamollash, chiniqtirish, mashq, salomatlik, suvli vannalar.*

АННОТАЦИЯ

Условия жизни современного человека предъявляет повышенные требования к его здоровью. В настоящее время особенно актуальным становится поиск средств, способствующих повышению устойчивости организма к воздействию неблагоприятных факторов окружающей среды и профилактики простудных заболеваний. Особое внимание этому вопросу додано уделяться в дошкольном возрасте, так как в этот период интенсивно идут процессы формирования организма ребенка, закладывается его здоровье. Одним из основных средств, оказывающих влияние на ряд систем организма, а также профилактику простудных заболеваний является закаливание, имеющие большое социально-экономическое значение

***Ключевые слова:** микроклимат, комфортное условие, воспаление, закаливание, упражнение, здоровье, водяные ванны.*

KIRISH

Noxush meteorologik omillar ta'siriga nisbatan organizmning chidamliligini oshirgan holda, chiniqish uning hayotiy muhim bo'lgan funksiyalarini ijobiy rivojlanishiga olib keladi va bolalardagi o'tkir kasalliklarga qarshi kurashishning eng samarali vositasi bo'lib hisoblanadi.

Chiniqish haqida ko'p sonli ilmiy ishlar nao'r etilgan bo'lib, ularning aksariyat qismida organizmning chiniqishini sovuqqa nisbatan tezkor moslashuv sifatida tushunilgan. Bunda chiniqishni mavjudligini ob'ektiv ko'rsatkichi deb sovuq ta'sirlantiruvchilariga teri-qon tomir reaksiyasini kamayishi deb hisoblanadi (Yu.N.Chusov, N.I.Bobrov). Chiniqish jarayonida teri-qon tomir reaksiyasini pasayishi bilan bir qatorda kislorod iste'moli ortadi. Bundan kelib chiqadiki, organizm yoki uning alohida qismlarini yaqqol namoyon bo'lgan sovuq ta'siriga moslashishi natijasida qon tomirining himoya reaksiyasi qisman energetik almashinuvining ortishi bilan qoplanadi.

Amaliyotda olingan natijalarni ko'rsatishicha issiq iqlimli mintaqalarda keskin sovuq ta'siriga sezgir bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ozchilikni tashkil etadi. Shu bilan bog'liq xolda yilning sovuq davrida olib borilgan tekshirishlarni ko'rsatishicha, bolalar organizmini issiqlik holatini shakllantiruvchi gigienik omillarni norasional ta'sir etilganligi hisobiga sovuq ta'sirlantiruvchilarga nisbatan hatto dezadaptatsiya yuzaga kelishi mumkin (G.T.Terentev v boshqalar, 2017).

Kundalik hayotda bolada ko'pincha haroratni o'zgarishlar kuzatiladi, ular organizmni sovishini ham, haddan tashqari isib ketishini ham keltirib chiqarishi mumkin. Organizmni qizib ketishi bolani faol harakatlanishi bilan og'irlashishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, ham atrof muhitning termal ta'siri, ham organizmning o'zini energetik rejimidagi o'zgarishlarga jismoniy issiqlikni boshqarishni (birinchi navbatda qon tomir komponentiga) tez va mos javobni rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Modomiki, bolalar, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar kasallanishi haligacha yuqori ko'rsatkichlarga ega ekan, bolalar organizmini chiniqtirish muammosini oxirigacha hal etilgan deb hisoblab bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan sog'lomlashtirish chora tadbirlarini optimallashtirish, birinchi navbatda maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Bizlar tomonimizdan bolalar organizmini jismoniy issiqlikni boshqarishni funkcionl imkoniyatini eng qulay va optimal xollarda oshirishga sabab bo'luvchi, o'rnatilgan tarbiyalash dasturlarini buzmaganda xolda maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari kun tartibida qanday chiniqtiruvchi chora tadbirlar olib borish mumkinligini aniqlash vazifasi qo'yildi. Buning uchun Toshkent shahridagi qator

maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida chiniqtirishni turli shakllarini jismoniy issiqlikni boshqarish funksiyasiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajriba tadqiqotlari tashkil etildi. Kuzatuv ostida 5-6 yoshdagi 4 guruh (jami 114 nafar) bolalar bo'ldi.

Barcha guruhlar uchun chiniqishning ilgari ishlab chiqilgan prinsiplariga va chiniqish chora tadbirlarini o'tkazish uchun uslubiy yondoshuvlarga rioya qilindi. Chiniqtiruvchi chora tadbirlarni tashkil etishda bizlar adabiyot ma'lumotlaridan kelib chiqdik, chiniqtirishda bayon etilganui, chiniqish turli kuch va vaqtdagi ta'sir etuvchi omillarga nisbatan shug'ullanish, tanani turli sohasiga yo'naltirish, organizmni bir xilda bo'lmagan issiqlik Imashiruviga yo'naltirilgan holatida o'tkazilishiga qratilgan ishlr ko'da tutilishi kerak, bu esa mushak yuklamlarining turli quvvati bilan bog'liqdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Natijada 2-guruhda har kuni "Bolalar bog'chsidagi tarbiyalash dasturi" ga mos xolda suvli chiniqtiruvchi muolajalar amalga oshirildi (birinchi guruh bemorlarini oyoqlari suvli vannga solindi, ikkinchi guruhni esa kurak suyaklari orasiga suv quyildi v sochiq bilan tan yaxshilab artildi). Uchinchi guruh bolalari suvli muolajadan tashqariyil davomida uzluksiz ravishda toza havoda sport kiyimida jismoniy mashqlar bilan shug'ullandi. To'rtinchi guruh bolalari yuqorida aytib o'tilgan chiniqtirish mashqlaridan (suvli muolajalar va ochiq havoda mashq qilish) dan tashqri, bolalarni guruh xonalarida bo'lish vaqtida organizmning issiqlik komfort sharoiti ta'minlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz ko'rsatdiki, issiqlik Imashinuv funksiyasining optiml holati issiqlik komforti sharoitida kuzatiladi. Bu bilan komfort mikroiklim sharoitlarida o'tkaziladigan chiniqtiruvchi muolajalarning eng yuqori samarasi bog'liq. Biroq, bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari guruh xonalaridagi havo harorati, yilda sovuq davri uchun 50% kunlariga yaqin muddatda juda ham pasayadi (20⁰Sdan yuqori). Bundan kelib chiqadiki, aniq sharoitlarda maktabgacha yoshdagi bolalar juda ko'p xollarda issiqlik almashinuvini boshqarish apparatida zo'riqishga uchraydi.

Bizning tadqiqotlarimizda bolalar organizmining issiqlik holatini optimallashtirishga kiyimlarni issiqlikni himoya qilish xususiyatlarini o'zgartirish yordamida erishildi. Kiyimlarni issiqlikni himoya qilish xususiyati xonadagi havo harorati 23⁰S bo'lganda-0,7klo; 19⁰S bo'lganda-1,2 klo; 18⁰S da -1,5 klo ni tashkil etadi. Jismoniy issiqlikni boshqarishning funksional imkoniyatlarini baholash uchun standart sovuq ta'sirlantiruvchiga teri -qon tomir reaksiyasining ko'rsatkichlaridan foydalandik. Bunda bizlar o'zgaruvchanlik ko'rsatkichi (O'K)- teri haroratini kamaytirish kattaligini umumiy tiklanish vaqtiga nisbatan sovuq ta'sirlantiruvchilarning javobini qisman taqsimlanishidan foydalandik. Shunday qilib, ushbu ko'rsatkich ham reaksiya kuchi, ham tiklanish vaqtini aks ettiruvchi integr

ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Bunda O'K ni ortishi bola organizmining issiqlikni boshqarish tizimi funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi sifatida ko'riladi. Teri – qon tomir reaksiyasini tahlilida tiklanish davrining tavsifi katta ahamiyatga ega. Sovuq ta'sirlantiruvchidan so'ng terining harorati notekis tiklanadi, tiklanishni 2ta tez va sekin fazalari farqlanadi. Tez tiklanish deganda 30 sekundlik teri haroratini $0,5^{\circ}\text{S}$ ga ortishi tushuniladi, tiklanish tezligi sekinlashganda sekin tiklanish fazasi boshlanadi. Tez tiklanishni umumiy tiklanish davriga nisbatan reaksiyasi "sifat ko'rsatkichi" ni tashkil etadi. Har ikki ko'rsatkich birgalikda termoregulyatsiya reaksiyasi holatini aks ettiradi. Issiqlikni boshqarish apparatini asosiy reaksiyasini o'rganishga intilib, bizlar yelka sohasida ya'ni chiniqtirish ishlari bevosita yo'naltirilmagan tananing bir qismiga standart sovuq ta'sirlantiruvchilarni yo'naltirib, termoregulyatsion javob reaksiyasini o'rgandik.

Barcha sanab o'tilgan chiniqtirish tadbirlari barcha 4 guruhda yil davomida o'tkazildi. Kuz va bahor mavsumida guruh xonalarida tonggi vaqtda bir xildagi mikroiklim sharoitida jismoniy termoregulyatsiyaning nazoratli tekshirishlari bajarildi. Barcha guruhdagi bolalarda kuzgi ko'rsatkichlar statistik ishogchsiz bo'lib, deyarli bir xildagi natijalarni ko'rsatdi v yosh me'yorlari yaqinida o'zgarib turdi (O'K=3,2; O'K=0,4). Bahorgi ko'rsatkichlar esa ancha farqlarga ega bo'ldi (Jadvalda ko'rsatilgan).

Guruh xonalarida bahor mavsumidagi issiqlik komfort sharoitida 4 guruh bolalarida teri –qon tomir reaksiyasini ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	1-guruh bolalari	T	2-guruh bolalari	t	3-guruh bolalari	t	4-guruh bolalari
Me'yor	29		59		63		67
O'K	$2,3 \pm 0,113$	0,7	$2,5 \pm 0,06$	5,5	$3,2 \pm 0,1$	1,0	$3,4 \pm 0,13$
SK	$0,32 \pm 0,02$	1,1	$0,29 \pm 0,014$	4,2	$0,39 \pm 0,02$	3,5	$0,48 \pm 0,017$

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, teri –qon tomir reaksiyasi 3- va 4-guruhlarga nisbatan 2-guruh bolalarida salbiy natijalarni ko'rsatdi. O'rtacha O'K birinchi v ikkinchi guruh bolalarida mos xolda 2,3 v 2,5, SK esa 0,32 v 0,29, bunda ular o'rtasidagi farq statistik ishonchsiz ($r < 0,05$). Modomiki teri-qon tomir reaksiyasining mazkur ko'rsatkichlari issiqlik boshqarish tizimini funksional imkoniyatlarini aks ettirar ekan, hisoblash mumkinki, yuqorida turuvchi 2 guruh bolalarida qish davomida issiqlik boshqarish funksiyasi holatini yomonlashishi kuzatiladi va bundan kelib chiqadiki, aloxidalashgan chiniqtiruvchi muolajalarissiqlikni boshqarishning barch tizimlariga bir xilda ta'sir etadi.

2- va 3-guruhlarda bir xildagi chiniqtiruvchi chora tadbirlar o'tkazildi, ammo 3-guruhda ularga qo'shimcha ravishda ochiq havoda jismoniy mashqlar ham tashkil etildi. Ushbu 2 guruh bolalaridagi yilning sovuq davridagi teri-qon tomir reaksiyasining o'rtacha ko'rsatkichlari solishtirilganda ko'rinadiki, 3-guruh bolalarida O'K ko'rsatkichlari ham, SK ko'rsatkichlari ham ishonchli ravishda yuqori bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, suvli muolajalarga ochiq havoda, sport kiyimida jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishni ham qo'shilishi issiqlik almashinuv apparatining funksional imkoniyatlarini yanada yuqori darajada saqlanishini ta'minlaydi.

4-guruh bolalarida O'Kning teri qon tomir reaksiyasining harakatchanlik ko'rsatkichlari 3-guruhda aniqlangan ko'rsatkichlardan juda kam farq qildi. Biroq 4-guruh bolalarida sezilarli darajada yaxshi natijalarga erishdi, bundan 3 v 4-guruhdgi O'K ko'rsatkichlari guvohlik beradi.

XULOSA

Shunday qilib, jismoniy issiqlik almashinuvining juda yuqori darajadagi funksional imkoniyatlari 4-guruh bolalarida kuzatiladi. Aynan ularda organizmning umumiy qarshiligini ortishi qayd etiladi, bu esa o'tkir kasalliklar davomiyligi va sonini pasayishi bilan namoyon bo'ldi. ayniqsa shuni ta'kidlash lozimki, bu gurua tez tez kasal bo'luvchi bolalar soni 23% dan 3,8% gacha pasayadi, ya'ni bu umumiy kasallanish ko'rsatkichlarida 5 marta kamayishni ko'rsatadi. 3-guruhda esa tez tez kasal bo'luvchi bolalar soni faqat 3,3%ga kamaygan bo'lsa, kuzatuvlarning butun davri moboynda 1- va 2- guruh bolalarida tez tez kasal bo'luvchi bolalar soni bir xil darajani (2,0%) ni tashkil etdi.

REFERENCES

1. Бобров Н.И.-Физиолого-гигиенические аспекты климатации человека. Л., 2012
2. Громбах С.М. Гигиеническое обоснование норм температуры воздуха в учреждениях для детей раннего возраста. М., 2014.
3. Кондаков Л.П. Закаливание детей в системе физического воспитания в детских садах. М., 2016.

XALQ TABOBATIDA TABIBLARNING O'RNII. XALQ TABIBLARI ICHIDA O'ZIGA XOS IXTISOSLASHTIRISH

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna-

Xorazm Ma'mun akademiyasi

stajor tadqiqodchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorazm o'zbeklarining turmush tarzida tabiblarning o'рни va ularning ish faoliyatida o'ziga xos ixtisoslashtirish xolatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tabib, Bayoniy, "Shajarayi Xorazmshohiy", toleychi, bog'lovchi, siniqchi, cho'p'chi, enaga, tepguvchi, isbandchi, giyohlar.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется информация о роли врачей в образе жизни хорезмских узбеков и специфика их специализации в работе.

Ключевые слова: врач, Байоний, «Шаджарай Хорезмшахы», гадалка, папка, ломик, палочка для еды, медсестра, кикер, ткачиха, травы.

ABSTRACT

This article analyzes the information about the role of doctors in the lifestyle of Khorezm Uzbeks and the specifics of their specialization in their work.

Keywords: doctor, Bayoniy, "Shajarayi Khorezmshahiy", fortune teller, binder, breaker, chopstick, nurse, kicker, weaver, herbs.

KIRISH

Manbalardan bizga ma'lumki qadimgi davrdan to hozirgi kungacha xalq tabobatida tabiblar alohida o'rin tutgan. Tabiblar turli xil dorivor giyohlar yordamida kasallar dardiga davo izlashgan. Aynan, XVII asr oxirlaridan to XX asr boshlarigacha tibbiyotga oid maxsus asarlar bo'lmasada, "Devoni Bayoniy", "Shajarayi Xorazmshohiy" ("Xorazmshohlar shajarasi"), "Xorazm tarixi" [1] nomli she'riy va nasriy asarlarida xalq tabobatiga oid ayrim fikrlarni uchratamiz.

MUHOKAMA NATIJALAR

Bayoniy o'zining asarlarida shirin so'z bemorlarni davolashi haqida aytib o'tgan. U "Shajarayi Xorazmshohiy" asarining boshida "...Bu jahoni napoydorda yodgor qo'ymoq yaxshidur va so'zdan baqoliroq va yaxshiroq yodgor yo'qdur". Bundan shuni anglash joizki, so'z bemorga yarim shifo deganidir.

Bu fikrni Bayoniy Munisning quyidagi she'ri bilan tasdiqlaydi:

Amorat ila xotiring qilma shod,
Tanosul bahosiga ham e'timod.
Bori oqibat mun'adamdur bori,
Agar so'ngra bo'lsin, vagar ilgari.
Erur so'z oningdek mushayid bino
Ki, yiqmas asosini seli fano.

Bayoniydan tashqari Komil Xorazmiyning asarlarida ham bemorni yaxshi so'z, muomala va musiqa orqali davolash haqida bir qancha ma'lumot va dalillar keltirilgan.

Bayoniy bir qancha asarlarni tarjima qilar ekan (Mavlono Darvesh Ahmadning "Hoyiful axbor" (1901), Abu Ja'far Muhammad bin Jarir at-Tabariyning "Tarixi Tabariy" (1902–03), Ali Muhammad al-Xiraviyning "Shayboniynoma" (1915), Abdulhaq Dehlaviyning "Maorijun Nubuvva", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro") ular asosida Xiva shoirlari she'rlari ham kiritilgan "Haft shuaro" devonini tuzadi.

Bayoniyning asarlarida faktik materiallarining ko'pligi va voqealarni izchil bayon qilinishi bilan qimmatliroqdir" [2].

Bayoniydan tashqari o'z davrida tibbiyot bilan yana bir qancha shoir va mutaffakkirlar qiziqgan. Ular orasida Axmad Donish va Komil Xorazmiyni alohida ta'kidlash zarur. Ularning asarlarida xalq tabobatining turli xil shakllari o'z ifodasini topgan. Ular yozgan ma'lumotlardan axoli balki xonlik shifoxonalarida qo'llanma sifatida ishlatilgan.

O'zbekistonda XIX asrning oxirida kasalxonalar, dorixonalar va sog'liqni saqlash tizimining boshqa ob'yektlari kamaya boshlagan, tabiblar soni kamayib ketgan. Har bir shaharda madrasada ta'lim olgan uch-to'rtadan ortiq tabiblar ishlardi. Davolash usullari ham eskirib qolgan usullar edi. Bu usullar zamonaviy Yevropada foydalanilib kelingan davolash usullaridan ancha orqada qolgan edi. Shunday bo'lsa-da, bu tabiblar soni yetarli darajada emasdi. Shahar va qishloq xalqi faqatgina xalq tabobatidan foydalanishgan. Xalq tabobati – bu shunday davo yo'liki, bunda xalqning o'zi kasallikni davolash maqsadida o'zi bilgan usulni qo'llaydi. Bu usul ancha oddiy, lekin har doim ham foydali bo'lmagan. Xalq tabobatida qo'llaniladigan asosiy vositalari quyidagilar: shifobaxsh o'tlar, minerallar, hayvonlarning ba'zi bir a'zolari. Bunday vositalardan tabiblar maz, poroshok, damlamalar tayyorlanganlar. O'sha paytlarda bunday tayyorlangan dorilar «turkana dori» ya'ni «uy dorisi» deb atalgan.

Xalq tabobati kasallikni yo'qotishga qaratilgan. Bu davrda tabiblar nazariy bilimga ega bo'lmagan va kasallikni sababi hamda uning kechishi jarayoni bilan qiziqishmagan. Ular ba'zi kasalliklarning belgilarini aniqlashgan (yara, qorinda og'rik, tomoqda og'riq, va b.) va ularni mumkin bo'lgan yo'llar bilan davolashgan.

Kasallik belgilari orqali tabiblar quyidagi kasalliklarni aniqlashgan: qizamiq, bosqi, tepki, angina (miyakak), noma (el) difteriya (bo'g'ma), stomatit (og'iz og'rig'i), dispepsiya (chillashir), malyariya (bezgak), flegmona (xo'ppoz), furunkul (chipqon), lishay (temiratki), ekzema (go'sht yara), drakunkulez (rishta), pendinskaya yazva (yomon jaroxat) va boshqalar [3].

Belgilariga qarab ba'zi ichki kasalliklar va jarrohlik kasalliklarini ham aniqlashgan: gastrit (me'da kasalligi), o'pka yallig'lanishi (zotiljam), grija (churra), gemorroy (bovosil) va boshqalar. Bunday kasalliklarni davolashda quyidagi usullardan foydalanishgan. Ulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz: qorin og'rig'I uchun opiy, reven, anor po'stining damlamasi, achchiq choy, yengil ovqat davo sifatida ishlatilgan. Nafas yo'li kasalliklari uchun esa lavlagi sharbati, dushitsa damlamasi va asaldan foydalanishgan; bezgak xastaligini davolashda esa anor po'stining damlamasi ishlatilgan.

Yana bir qancha kasalliklarning davosi xaqida gapirib o'tamiz. Masalan: chipqon chiqqan joyga qo'y yog'i so'rkab yara pishib yorilgunga qadar bog'lab qo'yishgan. Odamlarda toza va iflos yaralar haqida tushuncha bo'lgan. Yangi kesilgan va teshilgan yaralarga kul sepishgan. Kul birinchidan qonni to'xtatgan, ikkinchidan steril bo'lganligi sababli yarani yiringlamasdan bitishida yordam bergan.

Xonlik davrida xalq tabiblari ichida o'ziga xos ixtisoslashtirish bo'lgan. Masalan: uqalovchilar, teri bilan shug'ullanuvchilar, qon oluvchilar, rishtani davolovchilar, tish doktorlari va boshqalar. Shuni aytib o'tish kerakki, xalq tabiblari bir necha asrlik orttirilgan tajribaga asoslanib, sog'liqni asrash va kasalliklarni oldini olish maqsadida bir qator gigiyenik qoidalarni ishlab chiqishgan.

Ular orasida asosiy rol hammomga qaratilgan. Hammomda cho'milish sog'liqni saqlash va kuchaytirishda kerakli yo'l deb hisoblangan[4]. Gigenik qoidalardan yana biri ovqatlanishdan oldin va ovqatlangandan keyin, badanni sochli qismlarini tozalash, tishlarni tozalash va qo'l yuvishdir. Bu ba'zibir kasalliklarni oldini olgan. Bu kasalliklar zamonaviy tibbiyotda femoz va parafemoz deb nomlanadi.

Shaharlarda yaroqsiz oziq-ovqatlar natijasida kelib chiqadigan kasalliklar tarqalmasligiga katta e'tibor berilgan. Buning uchun shahar idorasi tarkibidagi

xodimlar bozorlardagi sotiladigan oziq-ovqatlarni, ayniqsa go'sht va nonni yaroqliligini tekrganlar.

Albatta gigenik qoidalarni bajarish qassoblardan ham talab qilingan. Ulardan quyidagi qoidalarni bajarish qat'iy talab qilingan: so'yishga faqat sog'lom va tetik mollarni olish, so'yilgan molni obdon tozalash, limfa bezlarini topib olib tashlash, qon va boshqa olib tashlangan joylarni chuqur qazib, u yerga tashlash. Professional qassoblarni asosiy qoidasi, molni so'yishdan oldin, bo'yniga chuqur pichok tortib, hamma qonini chiqarib tashlash bo'lgan. Agar mol shu tarzda so'yilmagan bo'lsa, u yeyishga yaroqsiz sanalgan, molni so'ygan qassob esa gunohkor (harom) deb hisoblangan.

Bunday gigenik qoidalar nonvoylardan ham talab qilinib, ularga nonni kunjut bilan yopish talabi qo'yilgan. Ovqatlanadigan joylarning egalari ovqatlarni o'ta sifatli mahsulotlardan tayyorlashlari shart edi. Shirinliklar sotuvchilari esa mahsulotlarini chivinlardan asrashlari kerak bo'lgan.

Xorazm o'zbeklariga eski vaqtlardan mahsulotlarni konservalash ma'lum bo'lgan. Ular mevalardan: uzum, o'rik, olma, nok, shaftoli, anjir, gilos, qovun va boshqalarni qurita olishgan. Deyarli hamma mevalardan murabbo qilishgan. Axoli qovurilgan go'shtni, qazini juda yaxshi saqlashgan. Uzoq yo'lga sayohatchilar va jangchilar o'zlari bilan yuqori koloriyali talqon, qovurilgan guruch va shakar olishgan, bu holatda u issiq va sovuq havoda uzoq vaqt saqlangan. Ifloslangan suv kasallik o'chog'i bo'lishi mumkinligi sababli ariq va boshqa suvlarni ifloslash, axlat tashlash taqiqlangan va gunoh sanalgan.

Xonlik davrida yuqumli kasalliklarni profilaktikasiga katta ahamiyat berilgan. Mohovlar uchun alohida qishloqlar tashkil etilgan. Asrlar davomida ishlab chiqilgan o'liklarni ko'mish qoidalari, ular bilan keyinchalik aloqa bo'lmasligi uchun ishlab chiqilgan.

O'likni yuvish uchun maxsus guruh –yuvgichlar bo'lgan va bu jarayon tugamaguncha, xonaga hech kimni kirishi mumkin bo'lmagan. O'lik oq mato bilan to'liq o'rab chiqilgan, tanasining hech qanday ochiq joyi qolmagan. O'likni yuvilgan suv chuqur qazib, o'sha yerga ko'milgan. O'likni kiyimlari yuviqchilarga berib yuborilgan, kiyim tekkan buyumlar esa yuvib tozalangan. Agar kimdir o'likni tashish yoki boshqa shunga o'xshash ishda yordam bergan bo'lsa, biron buyumga tegishdan oldin qo'llarini yaxshilab yuvishi kerak bo'lgan. O'lim bo'lgan oila uyida uch kungacha ovqat pishirilmagan, oila a'zolariga qo'shnilar ovqat pishirib olib chiqishgan. Shahar yoki qishloqqa uning tashqarisida o'lgan odamning jasadini olib

kirish taqiqlangan. Xalq orasidagi bu qat'iy gigiyenik qoidalar, o'rta asrlarda Yevropada sodir bo'lgani kabi epidemiyalarni oldini olishda qo'l kelgan.

Bemorlarni davolashda tabiblardan tashqari diniy kishilar – eshonlar, mullalar, otinlar (“Qur'on”ni o'qiydigan ayollar) ham shug'ullanishgan. Diniy kishilar bemorlarni “Qur'on”ning suralarini, ba'zi duolarni o'qish orqali davolashgan. Duolarni o'qish paytida bemor qurbonlik uchun so'yilgan molni terisiga o'ralgan holda bo'lgan. Molni qoni bemorni tanasiga surkalgan. Qurbonlikning ma'nosi bemor o'limini hayvon o'limi bilan almashtirish bo'lgan.

Eshonlar, mullalar davolashda “Ezib ichki” (xatni ichish) nomli usuldan ham foydalanishgan. Mulla duoni idish ichiga tush bilan yozgan, bemor esa bu idishga suv solib, duoni chayib ichishi kerak bo'lgan. Teri kasalliklarida esa bu duolar terini zararlangan joyiga yozilgan. Bundan boshqa ham bar qancha davolash usullari bo'lgan. Otin oyilar bu usullarni ayollarda qo'llagan. Masalan, ayollar va bolalar yomon ko'z ta'sirida kasal bo'ladi deb hisoblanganda.

Diniy ilm ahllarida “Kinna solish” va “suflash” kabi metodlar ham bo'lgan. Birinchisi qorin og'rishida, bosh og'rishida ishlatilgan, bunda kinnachi idish olib, uni mato bilan yopgan va zararlangan a'zo ustida ushlab turgan va duo o'qigan. “Suflash” bo'lsa bu yengil kasalliklarda ishlatilgan bo'lib, unda non bo'lagi ishlatilgan.

“Parixonlar” ham alohida guruhni tashkil etgan bo'lib, ular qirq kunlik ro'za tutish orqali ruhlari bilan gaplasha olishi va bemorlar uchun rahm so'rashi kuchlarga ishonganligi sababli tumorlar, ko'zmunchoqlardan foydalanishgan.

Xonlik davrida xivada Gadoyniyoz ismli sartaosh bo'lib, u Muhammad Rahimxon Soniyning xizmatida bo'lgan[5]. Soch-soqol olayotgan vaqtda dildan suhbat orasida uqalash, boshni sipalash, siqish, bo'yinni tovlash. quloqlarni shaqillatish kabi usullar bilan bir qatorda ayrim o'smalar, sizlaq (frunkul), bod, toshmalarni ham tekislab ketgan. Ammo shaddod o'g'li Avaz O'tarning hurriyatparvar ijodi oqibatida, Asfandiyor davrida saroydan chetlatilgan. Bugungi kunda O'tar boboning Kalta minor yaqinidagi uy-muzeyida ayrim tibbiy asbob-uskunalar ham qo'yilgan.

Xiva xoni Muhammad Rahimning saroy tabibi Ahmad Tabibiy ham tibbiyotga oid bir necha asar yozib qoldirdi.

XX asrning boshlarigacha Xivadagi kichik ambulatoriya[6]dan tashqari boshqa davolash muassasalari bo'lmaganligidan bemorlar besavod va johil sohta tabiblarga, folbinlarga, mulla yoki eshonlarga va boshqalarga umid bilan murojaat qilganlar. Ular esa bemorlarning qo'lga qarab turar, natijada kambag'al bemor ham

pulidan, ham sogʻligidan ayrilgan. Bemor chorasiz hollarda yuqoridagi savodsiz “tabib” va aldamchilarga murojaat qilishardi.

Xalq tabiblari ichida quyidagicha ixtisoslashtirish mavjud boʻlgan. Masalan: Tabiblar – ichki kasalliklarni bemordan faqat soʻrash bilan aniqlab, oʻzi giyohlardan tayyorlagan dorilar va parhez bilan davo topganlar.

“Siniqchi” – qoʻl yoki oyoq suyaklari singanda, boʻgʻimlardan chiqqanda tovuq tuxumini xom holda surtib, qamish yoki tayoq bilan suyak va boʻgʻimini oʻz joyiga solib, tortib bogʻlab qoʻygan[7].

“Choʻpchi” – koʻz, quloq, tomoq boʻshligʻidan (koʻpchilik hollarda bolalarda) tushib, kirib yoki tiqilib qolgan narsalarni olgan.

Enaga momoning homilador xotinlarni tugʻish paytida koʻmaklashib turishi tugʻdiruvchi doya sifatida koʻp hollarda nafi teggan.

Tepguvchi – quloq oldi, jagʻ osti bezlari kasallanib shishgan vaqtda oyogʻi bilan shu joyini sekingina tepib, koʻngil beradigan egizak bolalar tuqqan ayollardan chiqqan.

Isbandchi – qumloq va qir joylarda oʻsadigan isiriq nomli oʻsimlik shohchalariga tuz, garmdori, koʻngilga gumonli narsalardan, kiyimlardan zarralar, boʻlakchalar qoʻshib, oʻtni tutatish beruvchi yoʻl bilan uydan, bemor tanasidan yomon ruhni, kasallikni jinni quvadigan boʻlgan.

Bogʻlovchi – qora yigiruv ipini bogʻlam qilib bemorning boʻyniga, oyogʻiga qoʻliga taʻqib, yaʼni bogʻlab kasallikni paydo qilguvchi qoʻrinmas “kuchni” bemor tanasidan quvguvchi edi. Bogʻlovchining bu usulini koʻpincha bezgak bilan ogʻrigan bemorlarga ishlatilgan.

Toleychi – baxtni, kasalliklarni kitobga qarab topishga harakat qilgan.

Baqachi – odam qornida qurbaqa paydo boʻlib, oshqozon ishini buzadi degan maqsadda bemorga goʻsht parchasini yuttirib, baqani tortib oladi. Gipnoz sharoitida alahsab yotgan bemor buni rostmi deb oʻylagan.

“Sartarosh” – bemor tanasini ozgina kesib qon chiqarish yoʻli bilan bemorning kasalligini xaydagan.

Folbin – asab kasalliklarida “jin quvish”, “kinna chiqarish” kabi usullar hamda qoʻliga qarab kasalliklarning sababini aytadigan, baʼzida esa koʻza, tos va suv ishlatib, nogʻora oʻyini bilan bemorga psixologik taʼsir koʻrsatadigan kishi boʻlgan.

Mulla duoxonlar – bemorlarni “alvasti bosti”, “jin urdi”, “jin qoqdi” deb, ilohiy kuch bilan taʼsir qilish usulida duo yozib berish bilan kasallikni quvmoqchi boʻladiganlar yoki yomonlikdan saqlashga jazm qilguvchilar edi[8].

Eshon – “Qurʻon”dan suralar oʻqib taʼsir oʻtkazishga uringan.

Yuqorida qayd qilingan soxta davolovchilar aksariyat holatlarda bemorlarning dardlarini og'irlashtirib, tashvish orttirganlar. Bulardan tashqari shu davrlarda bemorlar kasalliklardan qutulish, davolanish maqsadida avliyo — go'ristonlarda yotganlar, quduqlardan "oliy suv" ichganlar. Masjid va xonaqohlarda turganlar. Havoning jazirama issiq kunlarida qum etaklarida, o'zining ahvoliga to'g'ri kelsa ham, kelmasa ham issiq qumga va tuz konlarida tuzga ko'milganlar. Nafi tegish tegmasligini bilmasdan ko'p muolajalarni "tabiblar" ko'rsatmasi bilan bajarganlar. Soxta tabiblar xalqning savodsizligi, malakali shifokorlar va tibbiy muassasalar bo'lmaganligi sababli zuluk kabi kun ko'rganlar.

Shu vaqtda yirik shaharlardagi madrasa va bozorlarda qobiliyatli tabiblar bemorlarni o'z kulbasida qabul qilganlar, o'zlari tayyorlagan va sinalgan dori vositalari bilan shifo berishga harakat qilganlar. Ularning ayrimlari tibbiy qo'lyozmalarning qadrini bilgan va ulardan foydalanganlar ham. O'ta qobiliyatli va nomi chiqqan tabiblar Xivaga xon saroyiga chaqirilgan yoki xizmatidan badavlat odamlar foydalangan. Asksariyat fuqarolar deyarli tibbiy xizmatni olishga imkon topmaganlar. Nochorlikda odamlar umrini yolg'iz yaratgandan iltijo qilib, salomatlik va kasallik orasida o'tkazganlar. Mazkur holat XIX-asrning ikkinchi yarmigacha saqlanib turgan.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Har bir davda har bir xalqning tabiblari bo'lib, ular kasalni davolash usuliga qarab: siniqchi, cho'pchi, tepguvchi, isbandchi va shu kabi turli nomlar bilan atalishgan. Bunday tabiblar kasallikni belgilariga qarab aniqlashgan va turli xil dorivor giyohlar yordamida surtiladigan, ichiladigan dorilarni tayyorlashgan. Bunday davolash usullari qadimgi davrdan to hozirgi kungacha etib kelgan.

REFERENCES

1. Абдуллаев О.Б. Хоразмлик тарихчи олимлар. — Урганч: УрДУ, 2007. — Б 49.
2. Ёўлдошев М. Хива давлат ҳужжатлари. 2 жилд. — Тошкент: Ўздавнашр, 1960; Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. — Тошкент. 1960;
3. Путевые заметки майора Бланкеннагелья о Хиве. Поездка сего из Оренбурга в Хиву 1793–1794 гг. Комментар. проф. В.В. Григорьева // ВИРГО. — Ч. 22. Под ред. В.П. Безбородова. — СПб., 1858

-
4. Умид Бекмуҳаммад. Хоразм тарихидан саҳифалар. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
 5. Махмудов М., Шерипов У. Хива хонлиги тарихи. — Урганч: УрДУ, 2013.
 6. М. Ғойибов, Ш. Жуманиёзов “Хива тиббиёти” – Тошкент: Истиқлол нури, 2013.
 7. Dala ma’lumotlari: Urganch tumanidan Yaqubova Hajibibi. 2021 yil 15 iyul.
 8. Dala ma’lumotlari: Yangiariq tumanidan Sa’dullaeva Natasha. 2021 yil 18 iyul.

LINGVOMADANIY KODLAR VA ULARNING TURLARI HAQIDA

Bo‘riyev Islom

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada lingvomadaniy kodlarning tilshunoslikda shakllanishi, ularga berilgan ta’riflar, o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik haqida mulohazalar berilgan. Shuningdek, lingvomadaniy kod turlari va ularga berilgan ta’riflar haqida ham qisqacha fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniy kodlar, somatik kod, biomorf kod, predmetli kod, madaniyat kodi, makoniy kod.*

ABSTRACT

The article provides comments on the formation of linguocultural codes in linguistics, their definitions, linguistics in Uzbek linguistics. It also gives a brief overview of the types of linguomodic codes and their definitions.

Keywords: *linguocultural codes, somatic code, biomorph code, subject code, culture code, spatial code.*

АННОТАЦИЯ

В статье даны комментарии по формированию лингвокультурных кодов в лингвистике, их определениям, лингвистике в узбекском языкознании. Также дается краткий обзор типов лингвомодических кодов и их определений.

Ключевые слова: *лингвокультурные коды, соматический код, биоморфный код, предметный код, культурный код, пространственный код.*

KIRISH

Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. “Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat,

lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega²².

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, kod va belgi tushunchalari belgilarini o'rganuvchi fan — semiotikaning markaziy tushunchalari hisoblanadi. "Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi"²³ Dastlab matematika va informatika fanlari doirasida keng qo'llanishda bo'lgan kod tushunchasi gumanitar sohalarida ham qo'llanila boshlandi. Bunda belgilik xarakteriga ega til hamda madaniyat alohida ahamiyatga ega. Ular belgilar vositasida xalqning tajribasi va me'yorlarini kelgusi avlodga yetkazadi.

Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi²⁴. V.N. Teliyaning fikricha, madaniyat kodlari muayyan madaniy mazmuni kodlashtirish maqsadida qo'llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir²⁵. "Madaniyat kodlari turli moddiy qobiqda — turmush realiyalari, flora va fauna vakillari va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Inson ongida ular umuman bilimlar, tasavvurlar, assotsiatsiyalar ko'rinishida aks etadi"²⁶.

Amerikalik psixolog va biznes-maslahatchi K. Rapay o'zining kitobida ta'kidlashicha, kodlar ongimizda biror bir tushunchaga bog'liq bo'lgan obrazlarni belgilab beradi, ma'lum bir madaniyatda o'rinishgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo'ladi²⁷

Madaniyat kodlarining yana bir keng tarqalgan obrazli ta'rifi V.V. Krasnixga tegishli. U madaniyat kodlarini borliqqa tashlangan to'r sifatida tasavvur etadi. "Tafakkurimizga xos bu "to'r" bizni o'rab turgan olamni qismlarga ajratadi, tartiblashtiradi, shaklga solidi hamda baholaydi". O.A. Svirepo madaniy kodni madaniyat matnlarini o'qish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar, qadriyat va me'yorlar, ko'rsatmalar yig'indisi sifatida tushunadi²⁸. D. Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxtipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta'riflaydi.

²² Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O`zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 2019. — №3. — B. 15.

²³ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Toshkent: Akademnashr 2012. — B.57

²⁴ Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79.

²⁵ Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006. – С. 12

²⁶ Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Издю 2-е. — М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. — С 174

²⁷ Қаранг: Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. –М.: Юнайтед Пресс, 2010. – 168 с.

²⁸ Свирепю О.А. Метафора как код культуры: Дис. ...канд. филос. наук. – Ростов н/Д, 2002. – 162 с.

Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko'ra madaniyat kodlari madaniyatni tushunish kalitidir, u biror-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi²⁹.

Demak, yuqoridagi madaniy kod haqidagi ilmiy xulosa va talqinlardan kelib chiqib aytilish mumkinki madaniy kod o'zida milliy-madaniy urf-odat, qadriyat va me'yorlarni o'zida shartli ravishda aks ettiruvchi, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy belgilar tizimidir.

Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma'naviy kod³⁰, antromorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me'moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi³¹, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etilgan.

Krasnix madaniyat kodlarining asosiy turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, bimorf kod hamda ma'naviy kodlarni ta'kidlab o'tgan. Madaniyat kodlari haqida fikr yuritganda ularni lingvomadaniy kodlar bilan aralash qo'llash holatlari uchraydi. Lingvomadaniy kod madaniyat kodining verballashgan ko'rinishidir. Ma'lumki, verbal tilde har qanday narsani ifodalash mumkin. Verbal til o'ziga madaniyatning obrazli kodlarini singdiradi. Bunda kodning ifoda planida o'zgarish sodir bo'ladi va madaniy kodlar verballashib, lingvomadaniy kodga aylanadi³². Shuning uchun uni lingvomadaniy kod deyishimiz to'g'ridir

Rus tilshunosligida shakllangan madaniyat kodlari o'zbek tilshunosligida ham o'rganila boshlandi, jumladan, madaniyat kodlari haqida D.Xudoyberganovanning "Lingvomadaniyatshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da madaniyat kodlari, somatik kod, vaqtga doir kod, makoniy kod, predmetli kod, ma'naviy kod, biomorf kod terminlari izohlab berilgan³³.

Lingvomadaniyatshunoslikning eng keng tarqalgan kod turlaridan biri bu: somatik koddir. Somatik kod — bevosita inson tanasi a'zolari bilan bog'liq bo'lib, tananing umuman uning qismlari ularga xos bo'lgan sifatlar, miqdoriy belgilar, jismoniy belgilar, aqliy-hissiy belgilar, imo-ishoralar barchasi qamrab olinadi, bunda inson tanasi a'zolari ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Masalan: "qo'l" so'zi, qo'li uzun, qo'li shirin, qo'li kalta, qo'lidan kelmoq, qo'lga tushmoq, qo'ldan boy bermoq, qo'lga olmoq; "bosh" so'zi tog'ning boshi, yo'lning boshi, ishning boshi, boshiga

²⁹ Кононенко Б.И. Большой толковый словарь по культурологии. – М.: Вече, 2003. – С.512.

³⁰ Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С.6.

³¹ Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79.

³² Савицкий В.М. Лингвокультурные коды: к обоснованию понятия // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. №2. – С. 57.

³³ Xudoyberganova D. Lingvoturkologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. — 46 b

ko'tarmoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshiga urmoq, boshidan kechirmoq, boshi yostiqqa tekkanda, boshi ko'kka yetganda, boshi ko'kka yetmoq, boshini aylantirmoq, boshini achitmoq; "oyoq" so'zi oyoq osti bo'lmoq, oyoq osti qilmoq, oyoq tiramoq, oyog'iga bolta urmoq, oyog'iga bosh urmoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq; "yuz" so'zi yuzi chidamadi, yuziga oyoq qo'ymoq, yuziga soldi, yuz ugirdi, yuzi yorug', yuzi yerga qaradi, yuzi shuvut bo'ldi, yuz ko'rmas bo'lmoq, tilga olmoq, tili kalimaga kelmadi, til bormaydi, tilga kirmoq, tilga olmoq kabi birikmalarda inson tana a'zolari turli semalarda qo'llanmoqda lekin barchasi uchun ummumiy ma'no har biri inson tanasi a'zosi ekanligi, biroq ko'chma ma'noda qo'llanilib turli xil ma'nolarni anglatmoqda.

Predmetli kod atrofdagi predmetlar (narsa-buyumlar) bilan bog'liq kodlar bo'lib, ular birinchi navbatda millat turmushida keng o'rinlashgan, hayotning ajralmas qismiga aylangan predmetlar bilan ifodalanadi. Bunda predmetlarning hajmi (kata-kichikligi), miqdori (kam yoki ko'pligi), nima maqsadda ishlatilishi kabi ma'nolar ramziy ma'noda qo'llanilib kodlashtiriladi. Masalan: to'nini teskari kiymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, g'alvirni suvdan ko'tarmoq, belida belbog'i bor, yostig'ini quritmoq, xamirdan qil sug'urganday, tomndan tarasha tushganday, qoqqan qoziqdek, qozonda bori cho'michga chiqadi, quruq qoshiq og'iz yirtadi, kosasi oqarmadi, ketmoni uchmoq, ignadek sanchilmoq, boshi xumday, no'xatdek kichkina, chuchvarani xom sanamoq, childirmasiga o'ynamoq, xamir uchidan patir, tosh ko'ngil, tosh yurak, tegirmondan butun chiqmoq, tayoqni alif deguncha, qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirmoq, pichoq suyakka yetdi, kalavaning uchini topmoq, ipidan ignasigacha, yoqasini ushlamoq, yog' tushsa yalaguday, do'ppisi tor keldi, do'ppisini osmonga otmoq, anqoning urug'i kabi birliklardagi belbog', yostiq, tarvuz, qoziq, qozon, xamir, qil, to'n, do'ppi, igna, yoqa, tayoq kabi so'zlar o'zbek lingvomadaniyatiga mansub kishilarning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda vosita vazifasini bajaradi.

Madaniyat kodlaridan biri bo'lgan ma'naviy kod yaxshi-yomon, chiroyli xunuk, baland-past kabi madaniy oppozitsiyalarni, xalqning axloqiy yoki diniy qadriyatlarini aks ettiruvchi kod hisoblanadi. Ko'pincha predmetli kodlar ma'naviy kodlar bilan uyg'unlashadi. Masalan: Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas; Ona yurtning — oltin beshiging; Ona bilan bola — gul bilan lola; Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'yra; Qolgan ishga qor yog'ar; Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz — hunar; Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin; Qalovini topsang, qor yog'ar; Non ham non, uvog'i ham non; Asal aynimas, sariyog' sasimas; Jahl dushman, aql esa do'stdir; Nimani qilsang xor, shunga bo'lasan zor; Er yigitni nomus o'ldiradi; Ko'ngli ochiqning qo'li ochiq, Qo'li ochiqning yo'li ochiq; O'ylamay qilingan ish,

Boshga keltirar tashvish; Kattaga hurmatda bo‘l, Kichikka izzatda bo‘l; Do‘sting ming bo‘lsa ham oz,

Dushmaning bir bo‘lsa ham ko‘p.

Hayvonlar yoki o‘simliklar bilan bog‘liq kodlar ham mavjud bo‘lib ular biomorf kod deb nomlanadi. Bunda hayvonlar, hasharotlar, qushlar va o‘simliklar nomi aks etgan bo‘ladi. D. Tosheva o‘z izlanishlarida o‘zbek tilidagi frazemalarda eng faol qo‘llanuvchi zoonimlar sirasiga *it, ilon, ot, eshak, qush, quyon, tuya* kabi kiritish mumkinligini bayon etadi³⁴. Ularning turli xususiyatlari va insonga xos bo‘lgan xususiyatlar, harakatlar bilan o‘rtasida o‘xshashlik kuzatiladi. O‘xshatishlarda biomorf kod orqali insonning deyarli barcha xususiyatlarini aks ettirish mumkin³⁵.

Masalan:

— baquvvatlilik — arslondek yigit, ayiqday kuchli;

— ayyorlik — tulkiday ayyor, ilondek ichiga kirib olmoq, o‘rgimchakdek to‘riga — ilintirmoq;

— mehnatkashlik — eshakdek ishlamoq, chumoliday mehnatkash, itday ishlamoq;

jasurlik, mag‘rurlik — burgutdek, qarchig‘aydek;

— qo‘rqoqlik — quyondek

— uzoq umr ko‘rish ma’nosida — chinordek umr ko‘rmoq;

— noziklik — gulday, niholdek;

— yuzning qizarishi — olmaday, anordek;

— ochko‘zlik — bo‘riday va shu kabilar. Bundan tashqari insonning g‘ayriodatiy harakatlarni (irg‘ishlash) o‘xshatishda ot, toychoq, echki, maymun kabilardan etalon sifatida foydalaniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, lingvomadaniy kodlar shu tilda so‘zlashuvchi ma’lum bir millat xalqqa tegishli hisoblanadi, ya’ni har bir xalq o‘zining milliy mentaliteti, urf-odatlarini bo‘yicha so‘zlarni kodlaydi.

REFERENCES

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini//O‘zbek tili va adabiyoti. — Toshkent, 2019. — №3. — B. 15.
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Toshkent: Akademnashr 2012. — B.57
3. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79.

³⁴ Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvoturkologik xususiyatlari: Filol, fan. bo‘yicha falsafa dok. diss. — Toshkent, 2017. — 152 b

³⁵ Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi / Filol.fan. bo‘yicha falsafa dok. diss. Andijon — 2019

4. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006. – С. 12
5. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Издю 2-е. — М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. — С 174
6. Қаранг: Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. – М.: Юнайтед Пресс, 2010. – 168 с.
7. Свирепо О.А. Метафора как код культуры: Дис. ...канд. филос. наук. – Ростов н/Д, 2002. – 162 с.

BOBUR G‘AZALLARIDA GUL TIMSOLINING BADIY TALQINLARI

Umida Kamolova,

mustaqil tadqiqotchi,

Buxoro shahar 8 umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Zahriddin Muhammad Bobur lirikasida gul va bulbul timsollarining qo‘llanishi va ular orqali hosil qilingan tasviriy vositalar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Gul, bulbul, oshiq, ma‘shuq, badiiy san‘at, tashbeh*

ABSTRACT

The article discusses the use of the symbols of flowers and nightingales in the lyrics of Zahriddin Muhammad Babur and the visual aids created by them.

Keywords: *Flower, nightingale, lover, lover, art, metaphor*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается использование символов цветов и соловьев в лирике Захриддина Мухаммада Бабура и созданных ими наглядных пособий.

Ключевые слова: *Цветок, соловей, любовник, любовник, искусство, метафора*

KIRISH

Sharq mumtoz she‘riyatida har qanday timsol va ramzlar ijodkorning maqsadini badiiy ifodalash uchun xizmat qilgan. Jumladan, mumtoz she‘riyatda oshiqni bulbulga, ma‘shuqani gulga, qomatini sarvga, shuningdek, ko‘zini ohuga, raqibni esa tikanga qiyoslash orqali tashbeh, tashxis, tanosib singari she‘riy san‘atlar hosil qilingan. Ayni mazkur jihatni hassos shoir Zahriddin Muhammad Bobur ijodida ham uchratish mumkin. Bu haqida adabiyotshunos olim “Ibrohim Haqqulov mana bunday fikrlarni bayon etgan: “Boburda o‘ziga xos bir gulparastlik zavqi bor. Shoir ba‘zan gul timsolini shunday tashxislantiradiki, xayolingizda gulday nozik, gulday sehrli bir sanam jonlanib ketishini sezmay qolasiz. Bobur she‘rda gulning muattar bo‘yi, rangin bo‘yoqlari va betakror jozibasini mujassamlantirgan shoir. Chunki qalamni u qachon fikr, qachon ruh va tuyg‘u yoki hol va ehtiros “qo‘liga” tutqazishni juda yaxshi farqlaydi” [Bekmirzayeva, 2014: 32].

G‘ofil o‘lma, ey soqiy, gul chog‘in g‘animat tut,

Vaqt aysh emas boqiy, ol chog‘ir, ketur, bot tut [Bobur, 2019:6] –

satrlarida shoir soqiyga murojaat qilib, unga aysh vaqtining boqiy emasligini uqtiradi, takror-takror chog‘ir tutmoqqa undaydi, shuning barobarida g‘aflatda qolmay, gul chog‘ini g‘animat bilmoqlikni ham ta‘kidlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mazkur misrada “gul chog‘i” birikmasi orqali yoshlik, inson umrining eng g‘animat onlariga ishora qilingan. Bunda yoshlikni, umrning gul chog‘ini g‘animat bilib, behudaga sarflamay, qalbni ezgulikka to‘ldirish, xush –xursandlik o‘tkinchi ekani, umr mazmunini mehnat, ilm bilan bezamoqqa undovchi jihatlar gavdalantirilgan. Demak, baytda gul so‘zi shoirning falsafiy mushohadasining badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan

Yana bir g‘azalida

Sen gul kibi to g‘amzadasen husnunga mag‘rur,

Bulbul kibi g‘amzadamen husanunga hayron [Bobur, 2019:37],

misralari keltirilgan. Bunda g‘amzadasen, g‘amzadamen singari bir-biriga ohangdosh so‘zlarni ko‘rish mumkin. Ammo bu ikki so‘z baytda ikki ma‘noni ifodalaydi. Mohiyatan “g‘amzadasen” – noz-ishva qilyapsan, “g‘amzadamen” – g‘amnokman ma‘nosida. Ya‘niki, sen gul kabi husningga mag‘rur, noz-ishva bilan mashg‘ulsan, men esa bulbul singari chiroying g‘amnokiman, husningni ko‘rmoq qayg‘usidaman.

Aytish kerakki, ushbu satrlarda ijodkor tashbeh san‘ati imkoniyatlaridan unumli foydalanib, o‘z holatini bulbulga, yorni esa gulga o‘xshatadi. Bundan tashqari, “gul kibi g‘amzadasen” hamda “bulbul kibi g‘amzadamen” birikmalarini mazmunan qarshilantirilgan. “She‘r misralarida bir-biriga zid mohiyatga ega narsa-hodisa, belgi, tushunchalarni o‘zaro qarama-qarshi qo‘yish orqali vujudga keltiriladigan san‘at tazoddir” [Sulaymonov Sh, To‘xsanov Q, 2009:111]. Muxtasar aytganda, baytda tazod san‘atining go‘zal namunasi hosil qilingan.

Boburo, hargiz quloq she‘ringg‘a ul gul solmadi,

Gulga ne parvoe, yuz faryod qilsa andalib [Bobur, 2019:5].

Baytda o‘xshatish vositalari qo‘llanmagan bo‘lsa-da, mazkur satrlarda yor – ma‘shuqa gulga, oshiq –bulbul (andalib)ga qiyoslanganini anglash qiyin emas. Shuni inobatga olgan holda aytish mumkinki, tashbehi sareh she‘riy san‘ati yuzaga kelgan.

Bulbulning yuz faryod qilishi bilan gulning hech parvosi yo‘q. Ma‘shuqaning oshiq shoir she‘riga quloq tutmagani andalib nolasiga beparvo gul holati bilan dalillanadi. Bu she‘riyatda husni ta‘lil san‘ati deyiladi.

“Sendek menga bir yori jafokor topilmas...” deb boshlanuvchi g‘azalining bir satrida ijodkor ma‘shuqaga nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri “Ey gul” deya murojaat qiladi:

Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,

Ko 'zni yumub-ochquncha bu gulzor topilmas [Bobur, 2019:22].

Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy mahorati shundaki, g'azallarida tasvir va jumlar o'quvchi qalbiga yaqin, qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalari ham o'zaro muvofiq. Yuqorida keltirilgan birgina baytda nido (Ey gul), ishtiyoq (gul va gulzor), tanosib (gul-chaman-gulzor) san'atlarining qatorlashirib keltirilishi, bir tomondan, shoirning badiiy mahoratidan darak bersa, ikkinchi tomondan she'rxon qalbida estetik zavq uyg'otish uchun xizmat qilgan.

Gar siym bargi gulni qilsa libos o'ziga,

Bo 'lg'aymu, ey gulandom, ko 'nglak bila taningdek? [Bobur, 2019:28].

Mazkur misrada gul o'z ma'nosida qo'llanilgan. Shoir fikriga ko'ra, mabodo oltin gulning bargini o'ziga libos qilsa, yor (gulandom)ning tanasidagi ko'ylak kabi bo'larmikan?

Kiyimning gul bargidan bo'lishi, ustiga ustak oltinning uning ichida tovlanishi mubolag'ali holat. Aynan mana shunday mubolag'ali tasvir ko'ylagi tanasini bezagan yor go'zalligini ifodalash uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Bobur, ul gul javr etar, ag'yordin ne yaxshilig'?

Gulning ozori bu bo'lsa, vah, ne bo'lg'ay xorning [Bobur, 2019:52].

Ushbu satrlarda gulning ikki ma'nosi uchraydi. Dastlabki misrada shoir o'ziga murojaat qilib, Bobur, gul javr etar bo'lsa, ag'yordan nima yaxshilik kutish mumkin? qabilidagi ta'kidi orqali gul deb yorni nazarda tutgan. Keyingi satrda esa gulni o'simlik ma'nosida keltirib, agar gulning ozori shunchalik bo'lsa, xor, ya'ni tikanning ozori qanday bo'larkin? deya yor va ag'yor jafosini gul hamda tikan ozori vositasida izohlaydi.

Visolinkim tilarsen, nozini xush tortg'il, Bobur –

Ki, olam bog'ida topmoq guli bexor mushkuldur [Bobur, 2019:59] -

misralari tahlilga tortilgan yuqoridagi baytni inkor qilgan holda ijodkor o'ziga taskin beradi. Bunda ham oshiq shoir o'z-o'ziga murojaat etib, agar visol tilar bo'lsang, (yorning) nozini ham xush qabul qil, chunki olam bog'ida tikansiz gulni topish mushkuldur, - deydi.

“Yor go'zalligi, sevguvchi qalbga boy tuyg'ular bag'ishlovchi mahbubaning go'zal xatti-harakati, nozu jilvalari, uning oshiq ko'ngliga yetkazgan shodlik va ozorlari, nimaiki go'zallik va sevgi bilan bog'liq bo'lsa, shularning hammasi Bobur she'rlarida o'zining latif tasvirini topgan. Bu she'rlarning lirik qahramoni fidokor oshiq. U o'z sevgisida hamisha barqaror. Bu sevgida qanday og'ir dardlarga muhtalo

bo‘lmasin, u toqat qiladi, chidaydi...Sadoqatli oshiq sevgilisidan xafa bo‘lmaydi, unga shodu xurramlik tilaydi[Qayumov A, 2008:30]:

Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol,

Men archi dahr bog‘idin xazon yafrog‘idek bordim[Bobur, 2019:69] -

Tahlilga tortilgan aksariyat baytlarda yor yuzi gulga qiyoslangan, ayrimlarida esa ma’shuqaning o‘ziga “ey gul” deya murojaat qilingan. Ushbu misralarda oshiq ma’shuqasining latofat gulshani, ya’ni yoshlik chamanida gul singari sabzu xurramlikda bo‘lishini xohlaydi... Shuning barobarida o‘z holatini xazon yafrog‘iga qiyoslaydi. Ayon bo‘ladiki, shoir tazod san’atini qo‘llagan.

Boshqa bir g‘azalda quyidagi bayt keltirilgan:

Gahi guldek yuzini ul shakar so‘zlu kni islasam,

Gahi shakkar kibi ul yuzi gulning la’lidan totsam[Bobur, 2019:71] -

Avvalgi misrada “guldek yuz” birligi mavjud. Bunda *gul* –mushabbih, *yuz* – mushabbihunbih, *-dek* – vositai tashbeh, *chiroylilik*, *go‘zallik sifati* – sababi tashbehni hosil qilmoqda. Demak, tashbeh san’ati qo‘llangan. Keyingi satrga e’tibor qaratilsa, “yuzi gul” ifodasi uchraydi. Bunda “guldek yuz” va “yuzi gul” tardi aks san’atini yuzaga keltirgan. Binobarin, “tardi aks – arabcha teskari qilib takrorlash. Bu san’at takrirning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, uning talabiga ko‘ra, she’r misrasidagi so‘z birikmasi yoki misraning o‘zi keyingi misrada teskari qilib takrorlanadi”[Sulaymonov Sh, To‘xsanov Q, 2009:114].

XULOSA

Umuman, Bobur g‘azallarida gul timsoli orqali yor go‘zalli, husnu chiroyi, nozikligi, gulning tikani vositasida uning oshiq ko‘ngliga solgan jafosi tasvirlangan. Shuning barobarida o‘quvchi qalbiga yaqin ifodalar, beqiyos tasvirlarda tazod, tanosib, ishtiyoq, mubolag‘a, tamsil, tardi aks kabi badiiy tasvir vositalari imkoniyatlaridan foydalanilgan.

REFERENCES

1. Bekmirzayeva Xosiyat. Gul va bulbul //Yoshlik. 2014. 2 - son.
2. Bobur. Har kimki vafo qilsa. –Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019. 160 b.
3. Sulaymonov Sh., To‘xsanov Q. Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. – Buxoro. 2009
4. Qayumov A.Zahiriddin Muhammad Bobur. —Toshkent: Fan. 2008.52b.

UMUMJAHON E'TIROF ETGAN MASHHUR XATTOTLAR

Asrorov Kozimxon Olimxon o'g'li

Toshkent islom instituti o'qituvchisi

(97) 704-73-77

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sharq xalqlari madaniyati tarixi, kitobat san'ati va xat turlari taraqqiyoti jarayonida muhim o'rin egallagan xattotlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, xattotlik maktablarida yangi xat turlarini kashf etgan umujahon e'tirof etgan mashhur xattotlar xususida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Kalomi sharif, xattot, xattotlar, madrasa, madaniy yodgorliklar, kitobat san'ati, qo'lyozma, xattotlik maktablari.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена истории культуры народов Востока, каллиграфии и каллиграфии, сыгравшим важную роль в развитии каллиграфии. Есть также информация о всемирно известных каллиграфгах, открывших новые типы письма в школах каллиграфии.

Ключевые слова: *каломи шариф, каллиграфия, каллиграфия, медресе, памятники культуры, книжное искусство, рукопись, школы каллиграфии.*

ABSTRACT

This article deals with the history of the culture of the peoples of the East, calligraphy and calligraphy, which played an important role in the development of calligraphy. There is also information about the world-renowned calligraphers who discovered new types of writing in calligraphy schools.

Keywords: *kalomi sharif, calligraphy, calligraphy, madrasa, cultural monuments, book art, manuscript, calligraphy schools.*

KIRISH

Sharq xalqlari, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining madaniyat tarixi va eng qadimiy va ko'p sohalarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishganligi bu kunda butun dunyo ilm-fan ahli tomonidan e'tirof etilgan haqiqatdir. O'rta Osiyo xalqlari o'z o'tmishida bir necha daf'a iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot davrini boshidan kechirgan.

Arab yozuvi Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan. Shu sababli, arab mamlakatlaridagi va shuningdek, Markaziy Osiyodagi bir guruh xattotlar Qur'oni karim hamda boshqa ko'plab diniy manbalarni ko'chirish bilan shug'ullanganlar. O'z zamonasida muqaddas Kalomi sharif, din-u shariat haqidagi kitoblarni ko'chirish

vazifasi har kimning qo‘lidan kelavermagan. Hukmron sinf ideologiya sohasidagi bunday mas’uliyatli vazifa o‘z davrining eng fozil va qobil kishilaridan hisoblanmish ziyoli xattotlarga yuklagan. Bu narsa ham kotibning o‘rta asr jamiyatida qanchalik mas’uliyatli shaxs ekanini yaqqol ko‘rsatadi³⁶.

Bulardan tashqari tarixdan yana shu narsa ma’lumki, o‘rta asrlarda yashagan bir qancha olim, shoir va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san’atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kitob tayyorlash texnikasi o‘rta asr jamiyatidagi mehnat taqsimotida alohida o‘rin tutgan, xattotlik esa professional kasb bo‘lib qolgan³⁷.

Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirishda bir necha muttaxislar ishtirok etganlar. Ulardan birinchi darajadagilari *qog‘ozrez* (qog‘oz tayyorlovchi), *xattot* (ko‘chiruvchi), *muzahhib* (oltin hal beruvchi), *lavvoh* (sarlavha va jadvallarni ziynatlovchi), *rassom* (qo‘lyozmaga miniatyuralar ishlovchi) va *sahhof* (muqovasoz)³⁸. Qo‘yida dunyoda eng mashhur bo‘lgan xattotlar hayoti, ular qoldirgan meros va faoliyati xaqida ma’lumotlar keltiriladi.

Ibn Muqilla. Abu Ali Muhammad ibn al-Husayn ibn Muqilla Sheroziy 886 yilda Bag‘dodda tavallud topgan. Kotib, shoir, xattot va vazir amallari bilan mashg‘ul bo‘lgan. Ibn Muqilla o‘ta chiroyli xat sohibi bo‘lib, arab xatlarining rivojlanishiga, bu boradagi muhim qoidalarni tizimlab chiqish borasida olim katta hissasini qo‘shgan. Olim “Nash va suls qoidalarini eng birinchi asoschisi”³⁹, deb e’tibor qilinadi. Ibn Muqilladan so‘nggi xattotlar uning yo‘lidan borib uning ishlarini davom ettiradi⁴⁰. Ibn Muqilla abbosiyalar davlatida mansabdor shahs bo‘lgan. Halifaning huzuridagi Fors o‘lkalari ishlarini boshqarib turgan. So‘ng esa, abbosiyalar halifasi uni 928 yilda vazir etib tayinlagan. Vazirlik ishi davrida uning ishidan bo‘lgan e’tirozlar va ayblar sababidan, 930 yilda hibsga olinadi. So‘ng, ikkinchi bor ham uni vazirlik mas’uliyat yuklatiladi. Ikkinchi bor vazirlik ishidan bo‘shatilib, Ibn Muqillaga qo‘l kesish jazosi tayinlanadi va o‘ng qo‘li kesiladi. Ibn Muqilla qo‘li kesilgan paytda juda ko‘p yig‘lab, qo‘li xaqida: “Bu qo‘lim bilan Halifaga xizmat qildim. Bu qo‘lim bilan ikki marta Qur’oni karim ko‘chirdim. Qo‘lim o‘g‘rining ikki qo‘li kesilgani singari kesildi”⁴¹, -

³⁶Ножий Зайниддин Мусарриф. Мусаввир ал-хот ал-аробий. – Бағдод: Сурур, 1968. – Б. 42.

³⁷Иброҳим Анийс. Муъжам васит. – Қоҳира: Дарул маориф, 1972. – Б. 216.

³⁸Ножий Зайниддин Мусарриф. Ажайбу ал-хотти ал-аробий. – Бағдод, 1968. – Б. 42.

³⁹Комил Салмон Жабурий. Мавсуа ал-хотти ал-аробий – ал-хотг ан-насах. – Ливан: Дар ва мактаба ал-хилал, 1999. – Б.5.

⁴⁰Ножий Зайниддин Мусарриф. Ажайбу ал-хотти ал-аробий. – Бағдод, 1968. – Б. 42.

⁴¹Комил Салмон Жабурий. Мавсуа ал-хотти ал-аробий – ал-хотг ан-насах. – Ливан: Дар ва мактаба ал-хилал, 1999. – Б.15.

deydi. Soʻng xattot chap qoʻli bilan yoza boshlagan. Ibn Muqilla 939 yil xibsdavafot etgan⁴².

Ibn Bavvab. Abu Hasan Ali ibn Hilol ibn Abdulaziz. Nash xatining eng koʻzga koʻringan va hozirgacha asarlari mavjud boʻlgan mashhur xattot Ibn Bavvab hisoblanadi⁴³. Arab xattotlarining eng peshqadamlaridan va arab xatlarini dunyo sahnasiga olib chiqqan mashhur xattotlardan. Ibn Bavvab Bagʻdod shahrida 961 yilda tugʻilgan.

Ibn Bavvab kunyasining unga berilish sababi, uning otasining kasbi eshik ogʻasi boʻlganligidir⁴⁴.

Ibn Bavvob ixtiro etgan xat namunalari haqida XVI asrgacha, deyarli, hech qanday aniq maʼlumot yoʻq. Faqat XVI asrning II yarmida yashab, 1503 yilda vafot etgan xattotlardan Muhammad ibn Hasan Tibiy oʻzining risolasida Ibn Bavvob tomonidan 17 xil xatni Ibn Bavvob yozgan moʻʼtabar nusxalardan koʻchirib, ularning nomlarini birma-bir koʻrsatadi⁴⁵. Muhammad ibn Hasan Tibiy risolasini arab olimlaridan doktor Salohiddin Munajjid 1503 yilda koʻchirilgan nusxasini 1962 yili faksimal shaklida nashr qildirgan va unga katta soʻz boshi yozgan⁴⁶. Mazkur risola orqali biz Ibn Bavvobga nisbat berilgan xat namunalari bilan tanishish imkoniga egamiz.

Ibn Bavvob yaratgan taʼlimotning nazariy ahamiyati shundaki, Muhammad ibn Hasan Tibiy risolasidan maʼlum boʻlishicha, Ibn Bavvob birinchi boʻlib suls xati harflarining shaklini nuqta oʻlchovlariga asoslagan va suls xatining grafik asoslarini ixtiro etgan. Ibn Bavvob ixtiro etgan arab harfini nuqta bilan oʻlchash qoidalari soʻnggi asrlardagi xat nazariyotchilari Mir Ali Tabriziy, Darvesh Muhammad, Doʻst Muhammad Buxoriy, Munis Xorazmiy va boshqalar tomonidan keng qoʻllanadi⁴⁷.

Tarixchi Zahabiy Ibn Bavvab toʻgʻrisida: “Albatta u yozuv farishtasidir”, - deb taʼrif bergan.

Tarixchi Ibn Futiy esa: “Allohning yerdagi qalamidir”, deb keltiradi. Ibn Bavvab 1022 yilning 9-avgust payshanba kuni vafot etgan.

Mir Ali Tabriziy. Nastaʼliq xatining ixtirochisi – “Qiblatual-kuttob” (kotiblarning oldingisi) degan laqab bilan shuxrat qozongan. U nastaʼliq xatiga xos bir ravish bilan olti turli xat asosida alohida xat ixtiro qilishga kirishgan nodir xattot

⁴² Иброҳим Анийс. Муъжам васит. – Қоҳира, Дарул маориф, 1972. – Б. 216.

⁴³ Комил Салмон Жабурий. Мавсуа ал-хотти ал-аробий – ал-хотт ан-насих. – Ливан: Дар ва мактаба ал-хилал, 1999. – Б. 25.

⁴⁴ <https://uz.wikipedia.org/w/index>.

⁴⁵ Маҳдий Саййид Маҳмуд. Ал-Хутут ал-аробий. – Миср: Мактаба Ибн Сино, 2005. – Б. 59.

⁴⁶ Муҳаммад Ҳасан Тибий. Жомеъи муҳосини китобат ул-куттоб. – Байрут: Нашр аълам, 1962. – Б. 15.

⁴⁷ Ўша манба. – Б. 7-8.

hisoblanadi. Sulton Ali Mashhadiy u haqida quyidagi soʻzni aytadi: “Qalami mayda, yirik boʻlgan nastaʼliq xatini ixtiro qiluvchi Xoja Mir Ali boʻlib, dunyo va inson vujudga kelgandan beri bu xat boʻlmagan edi. U nastaʼliqni nasx va taʼliq xatidan olib, oʻtkir zehni va talanti bilan ixtiro etdi. Uning qamish qalamidan shakar tomardi, chunki xattotning tub joyi Tabrizning toza tuprogʻidandir”⁴⁸.

Mir Ali zamonigacha taʼliq xati toʻliq qoʻllanib kelingan. Devon, risolalar va maktublar taʼliq xati bilan koʻchiralayotgan bir vaqtda Mirali nastaʼliq xatini ixtiro qiladi hamda taʼliq xatiga nash qalamini uradi. Shuning uchun xam xatiga “nash-taʼliq” nomi berilib, yengillik uchun “nastaʼliq” deb atalgan⁴⁹.

Mir Ali Tabriziy Amir Temur davrida (1369-1405) yashagan. Uning shogirdlaridan ikki kishi – biri mavlono Jaʼfar Shohrux Mirzo zamonida xushxatlikda nom chiqargan. Ikkinchisi, Mirabulxay kitobat sanʼatida, insho va tahrirda tengi yoʻq kotib boʻlib, sulton Abu Saʼid zamonida inshonavislik shu kishiga topshirilgan edi⁵⁰.

Mir Ali Tabriziy hayoti haqida deyarli hech qanday maʼlumotlarga ega emasmiz. Mir Ali Tabriziy birinchi boʻlib nasx va taʼliq uslublari asosida nastaʼliq xatini ixtiro etgan⁵¹.

1911 yilda toshkentlik mashhur xattot Shomurod kotib nastaʼliq xati mufradotni (harflar namunasini) litografiya usulida nashr qildirgan⁵². 12 varaqdan iborat boʻlgan mazkur kitobchadagi Shomurod kotib yozgan yirik harflar orasiga Mir Ali Tabriziyning sheʼriy risolasi mayda harflar bilan joylashtirilgan. Mir Ali Hirotiy nomi bilan hozirgacha shuhrat qozonib kelgan ulugʻ xattot Tabriziyning shogirdi hisoblanadi.

Oʻzini Mir Ali Tabriziyning shogirdi deb hisoblagan va nastaʼliq xati uslubini klassik darajaga koʻtargan yirik sanʼatkor xattotlardan eng mashhuri Sulton Ali Mashhadiy boʻlgan (1432 yilda tugʻilib 1520 yilda vafot etgan). Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarga zamondosh boʻlgan va XV asr Hirot madaniyatining yirik arboblardan hisoblangan Sulton Ali Mashhadiy Hirot husnixat maktabini yaratgan oʻz zamondoshlarining taʼbiricha «xattotlar sultoni» edi. Sulton Aliga Navoiy shunday baho bergan: Mir Ali Tabriziydan soʻng temuriylar davrida oʻtgan Sulton Ali Mashhadiy oʻzining uzoq yillik hayoti va gʻoyatda sermahsul faoliyati bilan faqat

⁴⁸ Нассор Мухаммад Мансур. Хотту ан-настаълик. – Иордания: Салт, 2013. – Б. 54.

⁴⁹ Муродова. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971. – Б. 54.

⁵⁰ Шарифжон Махдум, Рисолаи хаттотон. ЎзФА Шарқшунослик институти, қўлёзма, ИНВ. № 2184. – Б. 249.

⁵¹ <http://tashkent.uz/uz/article>.

⁵² Шомурод Котиб. Муфрадот, Дозволено цензур. Санкт-Петербург, 5 июля 1983 года, типография братьев Каменских в Ташкенте.

Xurosonda emas, balki arab yozuviga ega bo'lgan barcha Sharq mamlakatlarida ulug' san'atkor xattot va ustoz sifatidashuhurat qozonadi⁵³.

Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, Sulton Alining «xattotlar qiblagohi» risolasi musulmon Sharqida keng tarqalgandir. Bu risolaning beshta qo'lyozma nusxasi hozirgi paytda ajnabiy mamlakat kutubxonalarida mavjud ekanini Galina Ivanovna Kostigova o'z asarida ko'rsatib o'tgan⁵⁴.

Eronlik xattot Abbos Iqbol o'zining Sulton Ali haqidagi maqolasida Eronda Sulton Ali risolasining bir qanchasi mavjudligini aytib, risolaning mashhur xattot MirImod ko'chirgan nusxasidan bir betini nashr qildirgan⁵⁵.

Xattot Ibrohim Shajariy. Mashhur xattot Ibrohim Shajariy Umaviy Abbosiylar davridagi xattotlarning eng peshqadamlaridan. Ibrohim Shajariyning ustози qalami o'tkir xattot Ishoq ibn Humada hisoblanadi. Xattot Ishoq ibn Humada suls va sulusiyn xatlari asoschisi hisoblanadi. Tug'ilib vafot etgan yillari noma'lum.

Mustofa G'azlonbek. Misr Respublikasining Bajur shahrida tavallud topib. Misr podshohi bo'lmish Fu'odning xos xattoti bo'lgan. Podshohning devoniy hati bo'yicha asosiy bosh xattoti hisoblanib, xattot nafaqat devoniy balki boshqa xat turlarini ham mukammal darajada o'zlashtirgan. Mustofa G'azlonbek devoniy xatiga o'zgartirishlar kiritib, xatni yanada boyitgan. Natijada esa, devoniy xatining o'zgartirilgan va boyitilgan shakli uning ismi bilan nomlana boshlagan. «Devoni G'azloniy» xati yozuv uslubida katta va kichik hajmlar bilan yozilgan. Uzunligi jihatidan esa, kengroq qilib bitilgan. Xattot devoniy xatni Mahmud Bosh Shukriy⁵⁶ dan ta'lim olgan. Mustofa G'azlonbek «Xatlarni tahsinlash» madrasasida mudarris bo'lib ham faoliyat yuritgan. Xattot 1938 yilda vafot etgan. Uning oxirgi mashhur ishlaridan Obidin qasrlaridagi taxt va stol ustunlaridagi bitiklar va 1937 yilgi Ka'bapo'sht (Ka'ba kiyimi) ma'tosidagi yozuvlar bo'lgan⁵⁷.

Shayx Muhammad Abdulaziz Rifoiy Misriy. O'zi yashagan davr xattotlarining peshqadamlaridan biri bo'lgan. Xattot 1871 yil Turkiyaning Trabzon shahrida tavallud topgan. So'ng esa, Istanbulga kelgan. Xattot Rifoiy o'z faoliyatida ko'proq naqsh va chizmaga e'tibor qilgan. Xattotning eng mashhur ishi Misr podshohi Ahmad Fu'odning Mushafi yozuvi bo'lgan. Uning ustida xattot olti oy ishlagan. Sakkiz oy davomida esa, oltin bilan zarhallagan. Bu ish vaqti 1920-1921 yillarga to'g'ri keladi.

⁵³Ножий Зайниддин Мусарриф. Мусаввир ал-хотти ал-аробий. – Бағдод, 1968. – Б. 42.

⁵⁴ Султон Али рисоласи асосида ленинградлик олима Галина Ивановна Костигова 1953 йил «Султонали Машхеди как художник – каллиграф Герата 15 века» деган мавзуда кандидатлик диссертациясини химоя қилган.

⁵⁵ Аббос Иқбол. Қиблатул китаб Султон Али Машхадий. Ёдгор, 1324.

⁵⁶ Султон Ҳусайн замонида ва Малик Фуъод раҳбарлигининг бошларида девон раиси бўлган.

⁵⁷ Фавзий Солим Афибий. Иълам хот аробий ва дурусуху. – Боғдод: Сурур, 1895. – Б. 82.

Bu esa, “Arab xatini tahsinlash” madrasasini ochishiga sabab bo‘ladi. Bu madrasada dastlab ta’lim bergan ustoz sifatida nom qoldirdi. Xattot 1934 yilda 50 yoshlar atrofida vafot etgan.

Sayyid Ibrohim (1897-1994). Misrdagi arab xatlari borasida o‘ta iqtidorli mashhur xattotlardan biri, Arab mamlakatlarining san‘at borasida eng dastlabki tabaqa vakillaridan. Xattotlik ilmini turkiy Husayn Husniydan ta’lim olgan. Xattotga berilgan unvon: “Arab xati ustuni”. Qohira universitetida “Dor al-ulum” fakulteti va arab xatlarni tahsinlash madrasasida xattot vazifasida talabalarga dars bergan. Xattot ko‘pgina xattotlik borasida tashkil etilgan majmualar a‘zosi bo‘lgan va ko‘pgina asarlarni ko‘chirgan. Ilmiy xatlar va yozuvlar majmuasi hamda “Kurros xos⁵⁸” (arab xati fani) kitobi muallifi hamdir⁵⁹.

Muhammad Sobriy ibn Mahdiy ibn Ali Hiloliy. Xattot 1900 yilda tavallud topgan. Xattotlik ilmini Mulla Orif Shayxliy Bag‘dodiyning amakisining o‘g‘li Mulla Muhammad va Shayx Ahmad Hairiy Kozimiylardan ta’lim olgan. Mulla Ali Fazliyning nazoratida bo‘lgan. Najiyb Havoviyniy, Eron xattotlari singari ko‘plab xattolar bilan aloqador bo‘lgan. Xattot 1953 yil 13 fevralda vafot etgan. “Xat borasida risola va uni o‘rganish yo‘llari” asari muallifi.

Nojiy Din Musarrif. Nojiy Zayniddin Musarrif Oli Shaqqoqiy. Iroqlik muhandis va mashhur xattot. Iroq davlatining Bag‘dod shahrida 1901 yilda tavallud topgan. Xattot Bag‘dodda 1986 yilda vafot etgan⁶⁰.

Xoji Muhammad Abdulqodir. Muhammad Abdulqodir Abdulloh Misrning Qohira shahrida 1917 yilda to‘g‘ilgan.

Dastlabki ta’limni “Halil Og‘o” madrasasida arab xatlari san‘ati asosida Muhammad Rizvon qo‘lida ta’lim oladi. Muhammad Rizvon o‘ta ta’niqli mashhur va ma’lum hozirda ham xatlari e‘zozlanadigan xattotlar sirasiga kiradi. 1935 yilda dastlabki markaz diplomga ega bo‘ldi. 1937 yilda esa, Misr Respublikasi maxsus diplomiga sazovor bo‘lgan. Giza (Jiza)dagi “Arab xatlarini tahsinlash” madrasasida hamda tadbqiqot fanlari fakultetida ustoz vazifasida faoliya yuritgan. Jamol Abdunosir rahbarligi ostida xattotga “Ilmlar va fanlar” nomli birinchi darajali orden berilgan. Muhammad Abdulqodir 1 may 1997 yilda Misrda vafot etgan. Mulk Fuod va Mulk Foruq (grand) mukofotlari sovrindori. Mulk Fuod mukofoti xattot 80 yoshligida taqdim etilgan⁶¹.

⁵⁸ Тар.: Махсус рисола.

⁵⁹ Фавзий Солим Афибий. Иълам хот аробий ва дурусуху. – Боғдод: Сурур, 1895. – Б. 21.

⁶⁰ <https://uz.wikipedia.org/w/index.php>.

⁶¹ Махдий Саййид Махмуд. Ал-Хутут ал-аробий. – Миср: Мактаба Ибн Сино, 2005. – Б.89.

Abdurahmon Sodiq Abush (Ubush). 1921 yilda Misrning tog‘li o‘lkalarida tavallud topgan xattot arab xatlari va uning yozilishiga bo‘lgan muhabbati oshganidan so‘ng, Qohiradagi “Malikiy xatlarni tahsinlash” madrasasiga kiradi. Bu madrasada eng mashhur xattotlardan ta‘lim oladi. 1952 yilda madrasadan beriladigan guvohnoma (diplom)gaega bo‘ladi. Xattot uzoq rasmiy vazifalardan so‘ng, arab xatlarni tahsinlash madrasasida o‘qituvchi vazifasida faoliyat yuritib, o‘z ishlari uchun rasmiy unvonlar sohibi bo‘ladi. Xattotning mashhur asari: “Diyvoniy xatidan tuzilgan va yozilgan na‘munalar”.

Yusuf Zunun Abdulloh. Iroqning “Yangi eshik” mahallasida 1932 yilda tavallud topgan. Xozirgi kunda “Arab madaniy me‘rosi”, “Iroqlik xattotlar” va “Misr arab xatlarini go‘zallashtirish” tashqi robita jamiyatlariga a‘zo⁶². Vafot etgan yili noma‘lum.

Mus‘ad Xozir Bursaidiy. Misrlik olim, mashhur xattot. Misrning Bur Sa‘id shahrida 1942 yilda tavallud topgan. Xattotlik ilmini katta akasi Muhammaddan ta‘lim oldi. So‘ngra, Misrning Tanta shahridagi “Xatlarni tahsinlash” madrasasida ta‘lim olib, Bur Sa‘idga qaytib, fanning boshlanish va rivojlanish ilmi bilan shug‘ullangan. Xattotga: “Misrlik xattotlar shayhi” oliy unvoni berilgan. Vafot etgan yili noma‘lum.

Xoji Zoyid. Sayyid Abdulqodir Abdulloh. Xoji Zoyid xattot Muhammad Abdulqodir Abdullohning kichik ukasi. “Xatlarni tahsinlash” madrasasiga kirib, barcha marhallarni birinchi bo‘lib tartiblagan. Uning bu tartiblab chiqishi unga Zoyid ismi munosib ekanligini ko‘rsatgan. Xoji Zoyid devoniy va ta‘liq xatlari bo‘yicha yetuklik pog‘onasiga ko‘tarildi. So‘ng esa, o‘zi ta‘lim olgan “Xatlarni tahsinlash” madrasasida mudarris bo‘lib o‘z faoliyatini boshlaydi. Xattotning asarlari: Mushafi Sharifning 8 lavhasidagi bitik unga tegishli, chizma fanga asos solgan va Misrdagi Shimirliy mushaf ham xattot qalamiga tegishlik⁶³. Tug‘ilib vafot etgan yillari noma‘lum.

Hoshim Muhammad Darbos Qoysiy Bag‘dodiy. “Zamonining eng yetuk nomoyondasi va yozuv ustasi” hamda, “Bag‘dod toji va porlab turgan nuri” nomlari bilan shuxrat qozongan. 1917 yil Bag‘dodning Xon Lovand dahasida tavallud topgan. Yoshligidanoq Qur‘oni karimni yod olgan. Yoshligida xat ilmini marhum Mulla Orif Shayxoliydan, so‘ng Hoji Ali Sobirdan, so‘ng esa Ali Shayh Mulla Ali Fazliydan ta‘lim oladi. 1943yilda arab xati borasida ijozaga sazovor bo‘ladi. 1944 yil Misrga safar qilib, Qohiradagi “Xatlarni tahsinlash” madrasasiga yetib keladi. Madrasa

⁶² Ўша манба. – Б. 90.

⁶³ Махдий Саййид Махмуд. Ал-Хутут ал-аробий. – Миср: Мактаба Ибн Сино, 2005. – Б. 19.

olimlariga o'ziga tegishlik bo'lgan xatlarni ko'rsatadi va ulardan ham imtiyozli diplom guvohnomalari olishga sazovor bo'ladi⁶⁴.

Mashhur xattot 1983 yil 30-aprelda vafot etgan. O'zidan keyin qoldirgan asarlari: "Arab xatlari qoidalari" kitobi, Bag'dodning masjidlari va me'moriy yodgorliklari majmu'alari yozuv bitiklarni yozgan. Hamda yana bir kitob ta'lif etadi biroq uning nomi kitoblarda qayd qilinmaydi. Bu kitobda ham arab xatlari va uni o'rganish sir-sino'atlari bitilgan.

Abdurazzoq Ud. Bir necha madrasalarda xattotlik fanidan ta'lim bergan. Xattot Muhammad Munisning shogirlaridan hisoblanadi vamaashhur asarlaridan biri: "Riq'a ilmidagi oliy daraja". Tug'ilib vafot etgan yillari noma'lum.

Ali Ibrohim. Misrdagi xattotlardan tuzilgan ustunlardan biri kunyasiga sazovor bo'lgan xattot Muhammad Munis va Muhammad Ja'farlardan ta'lim olgan. Xattot nash, suls va riq'a xatlari borasida ko'pgina namunalar qoldirgan. "Masofani to'g'irlashlik uchun xarita kitoblari" asarining muallifi hisoblanadi. 1926 yilda esa, istefoga chiqadi. Ustoz Xattot Abdurazzoq Solim: "Ali Ibrohimning bitigi 1936 yilda ham insonlarni ta'jublantirishdan to'xtamadi"⁶⁵, deb maqtaydi. Uning asari: "Sulton Hasan" masjidi bitiklari hisoblanadi. Xattotning manbalarda tug'ilgan va vafot etgan yillari qayd qilinmagan.

Muhammad Sa'd Haddod. Muhammad Sa'd Ibrohim Haddod. Xattot 1919 yil Misrning Fayyum shahrida tavallud topgan. Xozirgi davrdagi Misrning ko'zga ko'ringan xattotlaridan biri. Bakalavrlik diplomini 1940 yilda qo'lga kiritadi. 1943 yilda "Xatlarni tahsinlash" universiteti diplomiga ega bo'lgan, so'ng 1945 yilda "Jamiyla" fanlari shahodatnomasiga sazovor bo'lgan. Misrdagi mashhur "6 mushafklar" yozuvi xattotga tegishli. Dastlab xattot Qohira va Ismoiliiya universitetlarida tarbiyalovchi mudarris vazifasida faoliyat yuritadi. Juda ko'rlab masjid va madrasalar, qohiradagi ko'pgina imoratlar bitiklari xattot qalamiga mansub. Xattotni 1984 yilda davlat mukofoti sovriniga hamda birinchi darajali "Fan va ilmlar" medaliga munosib ko'rilgan. "Harflar ustidagi nuqta" va "Nuqtalarsiz harflar" kitoblar muallifi⁶⁶. Xattot Muhammad Sa'd Ibrohim Haddod 2011 yilning 14 yanvarida vafot etgan.

Muhammad Hasan Abul Xoyr. Marhum mashhur xattot Muhammad Hasan Abul Xoyr 1921 yil 25 mayda Misrda tavallud topgan. Xattot bobosiga o'hshab juda

⁶⁴Комил Салмон Жабурий. Мавсуа ал-хотти ал-аробий – ал-хутут ал-аробий. – Ливан: Дар ва мактаба ал-хилал, 1999. – Б.42.

⁶⁵Махдий Саййид Махмуд. Ал-Хутут ал-аробий. – Миср: Мактаба Ибн Сино, 2005. – Б47.

⁶⁶Комил Салмон Жабурий.Мавсуа ал-хотти ал-аробий – ал-хоттас-сулс. – Ливан: Дар ва мактаба ал-хилал, 2000. – Б. 15.

go'zal, nafis va chiroyli xat sohibi bo'lgan. 1936 yilda Azhar institutida Shayh Abdug'ani Ajurdan nash, suls va riq'a xatlarini o'rgangan. Xattot eng birinchilardan bo'lib, 1941 yilda arab xatlari yo'nalishi diplomiga sazovor bo'ladi. So'ng esa, 1962 – 1976 yil davomida arab tili darsligi bo'yicha faoliyat yuritdi. 1977 yillar davomida Makkai Mukarromadagi “Ummul Quro” universitetiga Xoji Muhammad Abdulqodirning sog'ligi yomonlashganidan so'ng, uning o'rniga arab xatlari mudarrisi bo'lib faoliyat yuritdi. Muallimlar davrasidagi “Arab xatlari risolalari” ilmiy qo'mita hamda Istanbuldagi arab xatlari bo'yicha davlat musobaqalari xakamlik qo'mita a'zosi bo'lgan. Xattot Ummul Quro universitetida 20 yildan ko'p faoliyat yuritgan arab xati mudarrisi⁶⁷. Xattot ko'pgina darslik va kitoblar muallifi. Xususan, 4 bosqich talabalari uchun suls xati risolasi muallifi. Aytish lozimki, Makkai mukorromadagi ko'pgina xattotlarning qo'lida ham o'z ilmini mustahkamlagan. Xattotning vafoti to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Ko'pgina tarixchi olimlar xattot yaqin yillarda vafot etganini ta'kidlashadi.

Abu Xolid Valid A'zomiy. Abu Xolid Valid ibn Abdukarim Ubaydiy A'zomiy. 1930 yilda Iroqning Bag'dod shahrida tavallud topgan. Unga nisbatan “Yoshlar shoiri”, “Islom shoiri” nomlari berilgan. Valid A'zomiy mashhur shoir, tarixchi va xattotdir. Dastlab Bag'dod muftiysi Shayh Qosim Qoysiy va Amjad Zahoviylardan ta'lim olgan⁶⁸.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarixdan ayonki, hukmdorlar ilm-fan va madaniyatga homiylik qilgan yurtda hamisha ma'naviyat yuksalgan, rivoj topgan. Tarixsiz kelajak yo'q deganlaridek, o'tmishini chuqur bilgan xalqning istiqboli kafolatlidir. Tarixni anglash orqali insonda hayotni, o'zligini anglash qobiliyati shakllanadi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarning vorislari bo'lgan, bashariyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan millatga daxldor inson qalbida o'tmishini o'rganishga ehtiyoj kuchayadi. Uning milliy g'ururi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan yurt farovonligi uchun kamarbasta bo'lishga chorlaydi. Shu bois, ertangi kun vorislari — yoshlarning yurtimiz va xalqimiz tarixini bilishi ularning yetuk inson sifatida ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Nojij Zayniddin Musarrif. Musavvir al-xot al-arobiy. – Bag'dod: Surur, 1968.

⁶⁷Хамуд Жалвий Муғрий, Нойиф мушарраф Хамд Ҳизоъ. Ат-Тажариб ал-муасиро фи ал-хотти ал-аробий. – Қувайт: Аш-Шувайх, 1997. – Б. 42.

⁶⁸Иёд Холид Тибоъ. Ал-Махтут ал-аробий дирасату фи абади аз-заман ва ал-макан. – Дамашк: Ҳайъа ал-аъмма ас-Сурияти лил-китаб, 2010. – Б. 41.

2. Ibrohim Aniyos. Mu'jam vasit. – Qohira: Darul maorif, 1972.
3. Nojiy Zayniddin Musarrif. Ajaibu al-xotti al-arobiy. – Bag‘dod, 1968.
4. Komil Salmon Jaburiy. Mavsua al-xotti al-arobiy – al-xott an-nasx. – Livan: Dar va maktaba al-hilal, 1999.
5. Махдий Саййид Махмуд. Ал-Хутут ал-аробий. – Миср: Мактаба Ибн Сино, 2005.
6. Муҳаммад Ҳасан Тибий. Жомеъи муҳосини китобат ул-куттоб. – Байрут: Нашр аълам, 1962.
7. Нассор Муҳаммад Мансур. Хотту ан-настаълиқ. – Иордания: Салт, 2013.
8. Муродова. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971.
9. Шарифжон Махдум, Рисолаи хаттотон. ЎзФА Шарқшунослик институти, кўлёзма, ИНВ.№ 2184.
10. Шомурод Котиб. Муфрадот, Дозволено цензур. Санкт-Петербург, 5 июля 1983 года, типография братьев Каменских в Ташкенте.
11. Аббос Иқбол. Қиблатул китаб Султон Али Машҳадий. Ёдгор, 1324.
12. Фавзий Солим Афибий. Иълам хот аробий ва дурусуху. – Боғдод: Сурур, 1895.
13. Фавзий Солим Афибий. Иълам хот аробий ва дурусуху. – Боғдод: Сурур, 1895.
14. Ҳамуд Жалвий Муғрий, Нойиф мушарраф Ҳамд Ҳизоъ. Ат-Тажариб ал-муасиро фи ал-хотти ал-аробий. – Қувайт: Аш-Шувайх, 1997.
15. Иёд Холид Тибоъ. Ал-Махтут ал-аробий дирасату фи абади аз-заман ва ал-макан. – Дамашк: Ҳайъа ал-аъмма ас-Сурияти лил-китаб, 2010.

XVIII-XIX ASR XORIJIY (RUS VA VENGER) MANBALARIDA XORZAM SHAHARLARINING TARIXIY-ETNOGRAFIK TAVSIFI

Baxtiyorova Oltinoy

Urganch Davlat universiteti Tarix yo'nalishi tadqiqotchisi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xorazm vohasi xususidan, Xiva xonligi XVIII-XIX asrlardagi shaharlar hayoti, aholi yashash tarzi, turmushi haqida xorij sayyohlarining, olimlarining asarlaridagi tarixiy-etnografik ma'lumotlar kengroq yoritildi.

Kalit so'zlar: Gladishevva Muravin, YuNESKO, Xiva, Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Qipchoq, Gurlan, Ambar, Chag'atoy, Shovot, Uyg'ur, Kat, Hazrati pahlavon Mahmud, topograf G.N.Zelenin, Vamberi

ABSTRACT

This article covers the historical and ethnographic information in the works of foreign tourists and scientists about the life of the cities of the Khorezm oasis, in particular, the Khiva khanate in the XVIII-XIX centuries, the way of life of the population.

Keywords: Gladishevva Muravin, UNESCO, Khiva, Kungrad, Khojayli, Kipchak, Gurlan, Ambar, Chagatai, Shavat, Uyghur, Kat, Hazrati Pahlavon Mahmud, topographer GN Zelenin, Vamberi

АННОТАЦИЯ

В статье представлены историко-этнографические сведения в трудах иностранных туристов и ученых о жизни городов Хорезмского оазиса, в частности, Хивинского ханства в XVIII-XIX веках, образе жизни населения.

Ключевые слова: Гладышевва Муравин, ЮНЕСКО, Хива, Кунград, Ходжайли, Кипчак, Гурлан, Амбар, Чагатай, Шават, Уйгурский, Кат, Хазрати Пахлавон Махмуд, топограф Г.Н. Зеленин, Вамбери

KIRISH

Xorazm nihoyatda qadimiy o'lka va bu yerda yuzlab qal'a-shaharlarning xarobalari joylashgan. Ularning ko'pchiligi yer ostida, ba'zilari cheksiz qum barxanlari tagida qolib ketgan. Qisman saqlanib qolganlari esa uzoq tarixdan guvohlik berib himoyasiz holatda, tabiatning jamiki sinovlariga bardosh berib turibdi. Xiva, Xazarasp, Ko'hna Urganch qal'alari esa bugun ham g'oyatda go'zal va Xorazmning iftixoriga aylangan. Nafaqat Xorazmning, yoki respublikamizning, balki dunyoning e'tirofiga sazovor bo'lgan. Albatta, YuNESKO ro'yxatidan ham joy olgan.

Xorazmning betakror shaharlari mahalliy, yunon-rim, xitoy, eron, arab, ingliz va rus sayyohlari, xarbiylari, lashkarboshilari, vrachlari, rassomlari tomonidan tilgan olingan, ta'riflangan. Vohaning qal'a shaharlariga eng so'nggi to'liqroq ta'riflarni XVIII-XIX asrlarda bu hududga tashrif buyurgan rus mualliflarining asarlaridan topamiz. Zero, davlat topshiriqlari bilan Xorazm yerlariga tashrif buyurgan bu mualliflar o'zlariga berilgan vazifalarni mukammal ado etish uchun borgan hududlarini sinchkovlik bilan o'rganganlar va eng kichik narsalarni ham e'tibordan chetda qoldirmaganlar. Ayniqsa, Xorazm shaharlari va aholisining etnografiyasi, etnik tarixi masalalari, ularning asarlarida asosiy o'rinni egallagan. Albatta, mualliflar o'z zamonasi, o'z sivilizatsiyasi, o'zining diniy-ma'naviy dunyoqarashi nuqtai-nazaridan tahlil va talqin qilganlar. Biz ushbu maqolada qator rus mualliflarining Xorazm shaharlari va aholisining etnografiyasi haqidagi fikrlarini keltiramiz va siz bilan bo'lishamiz, tahlil qilamiz, xulosalar chiqaramiz, nimalar o'zgardi-yu, nimalar o'zgarishsiz qolganligini guvohi bo'lamiz. Blankennagel, Muravev, Vamberi, Notkin, Zelenin, Nazimov kabi xorijiy mualliflarning ishlaridan parchalar keltiramiz va bu orqali XVIII-XIX asrlardagi Xiva xonligida mavjud shaharlarning etnografiyasini ko'z oldimizda namoyon qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1740-41 yillarda Xivada bo'lgan rus xarbiylari Gladishev va Muravinlar Xiva tasarrufidagi 8 ta shaharni eslatib o'tishadi. "Bu shaharlarning xar biri 5-6sajen balandlikdagi paxsa devorlar bilan o'ralgan, ularning atrofi to'la qazilgan kanallar, yana loydan qurilgan kulbalar va o'tovlar joylashgan"- deya yozadi mualliflar. Axolining tarkibi haqida gapirganda ular uzbeklarni- zadogon va davlat xizmatchilari, sartlarni-savdogar va donishmand kishilar ekanligini, ular har doim o'zi bilan xanjar olib yurishlarini ta'kidlab o'tadi. Bosh kiyimlarida ipaksimon parlar bo'lib fors uslubida tikilgan va rangdor bo'lgan. Turli xil toshlar bilan bezatilgan.

1793-94 yillarda Xiva xonligida bo'lgan yana bir rus mayori Blankennagel o'zining xotiralarida Xorazm shaharlari haqida quyidagicha ma'lumot beradi. "Amudryoning quyilish joyidan yuqoriga qarab shaharlar birin-ketin quyidagi tartibda joylashgan: Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Qipchoq, Gurlan, Ambar, Chag'atoy, Shovot, Uyg'ur, Kat, Urganch, Xiva, Xonqa, Xozarasp, Pitnak". U shaharlarning katta qismi paxsa devor bilan o'ralganligini aytar ekan, bu paxsa devorlar juda zaif qurilganligi va uning mudofaa uchun xech qanday ahamiyati yo'qligini aytadi. Bunday qal'alarni atigi 12 funtlik 3-4ta pushka bilan bir kunda vayron qilish mumkin, aholi esa o'zida bor qurollar bilan bir kungina himoyalana oladi, ammo ish bungacha yetib bormaydi, zero, atrofda ular bilan qiziqadigan kuchli davlatning o'zi

yo‘q, deydi. Albatta, o‘sha davrlarda Xivada xech qanday artileriya bo‘lmagan. O‘rta Osiyo shahar-qal‘alarining hammasi ham loydan qilingan paxsa devorlar bilan o‘ralgan. Bu holat barcha hududlarda normal hisoblanardi. Blankennagel Xiva devorlaridan ko‘ra qum barxanlari xonlikka yaxshi himoya qalqoni bo‘la olishligini ta‘kidlaydi. Ammo, bu davrning xar qanday masalalarida rivojlangan imperiyalar va rivojlanmagan feodal davlatlarni taqqoslab bo‘lmaydi. Muallif qo‘shin tarkibiga e‘tibor qaratar ekan, ularning turkmanlar, qoraqalpoqlar, o‘zbeklar va sartlardan iborat ekanligini aytadi. Bu yerda eng mohir jangchilar yovmutlar, ulardan keyin qoraqalpoqlar, so‘ngra o‘zbeklar va eng kuchsizi sartlar, deyiladi.

Sartlar bu yerning eng qadimiy egalar bo‘lishiga qaramasdan ko‘p miqdorda soliq to‘laydilar, Irtish bo‘ylaridan kelgan o‘zbeklar esa bu yerning egalariga aylangan, deb yozadi Blankennagel.

Xiva xonligida bo‘lgan N.N. Muravev Xivani etnografik jihatdan ta‘riflar ekan shunday yozadi “Xonlikning yerlari ajoyib manzarani tashkil qiladi. Hamma yoqda ko‘m-ko‘k dalalar, serhosil g‘allazorlar, ariqlarning bo‘ylarida tokzor va mevali bog‘lar yashnab turgan, bu yerlarning egalari mo‘lchilikda yashaydi. Undiriladigan don-dunning miqdori xonlikning ehtiyojidan ancha ortadi. G‘allani qo‘shni bo‘lgan ko‘chmanchi qabilalar, bolqon, mang‘ishloq xalqlari, qozoq va turkmanlarning bir qism ulgurji sotib oladi. Xivaliklar yerlarida g‘alla hosili juda yaxshi bo‘ladi va ko‘p qismi bozorga chiqarib sotiladi”. Muallif Xonlikdagi shaharlarni sanab o‘tar ekan, ularni o‘zbeklar va sartlar yashaydigan punktlarga ajratib ko‘rsatadi.

Aynan Xiva shahri poytaxt sifatida ko‘pgina rus sayyohlarini qiziqtirgan. Ularning ko‘pchiligi shaharning xaritasini tuzish uchun uni qadamma-qadam aylanib chiqqan va shaharga ta‘rif berganlar. Ulardan biri injener Nazimov bo‘lib 1740 yilda Xiva shahrini tasvirlash bilan shug‘ullanadi va xaritasini chizadi. Uning xaritasidan biz shaharning kirish darvozasi Toshhovli saroyining janubiy-g‘arbiy atrofida bo‘lganligi bilamiz.

Eng batafsil va qiziqarli ma‘lumotlarni 1863 yilda Xivaga tashrif buyurgan Vamberining asaridan olamiz. Vamberi Xivani juda qadimiy fors uslubidagi shahar ekanligini ta‘kidlaydi. Muallif shaharning etnografik qiyofasini tasvirlar ekan, bu yerdagi eng qadimiy bino –bu Xazrati pahlavon Mahmud maqbarasi ekanligini (400 yillik tarixga ega) ta‘kidlaydi. Aholi bu yerga xar kuni qur‘on suralarini eshitish uchun talpinadilar, deb yozadi muallif. Ikkinchi asosiy ob‘ekt bu Juma masjidi bo‘lib, xon u yerda xar juma kuni namoz o‘qigan va xutba o‘qiladigan joy bo‘lgan. Shuningdek, Xan masjidi, Shalika, Otamurod qushbegi va Qorayog‘iz masjidlari shaharning asosiy ob‘ektlari bo‘lgan. Muallif xonlikda bo‘lar ekan bu yerda

Buxoroga nisbatan ta'lim dargohlari ya'ni madrasalar kamligini ko'rsatib o'tadi. Madaminxon madrasasi fors uslubida qurilganligi va unda 136ta hujra borligi uni qiziqtiradi. Vamberi butun shaharni ta'riflar ekan, ko'chalar, xon mulozimlarining uylari, kambag'allarning yashash tarzi, talabalarning dars mashg'ulotlari, sarbozlarning, soqchilarning vazifalari, sug'orish shahobchalari va inshootlari ham nazardan qolmagan. Sayohatchi Xiva, Urganch va Ko'hna Urganch xonlikning ishlab chiqarish markazi ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Muallif 32 ta aholi yashaydigan punktlarni sanaydi va ularni shahar va qishloqlarga ajratadi. Vamberining nazaridan dehqonchilik ishlari ham chetda qolmaydi. U shahar va qishloqlarni ta'riflar ekan, Gurlanning sholisi, Xazaraspning olmasi, Xivaning anori nihoyatda mashhur ekanligini va ularni jahon bozorida o'z bahosi borligini aytib o'tadi. O'sha paytlarda Xiva shahrida tikilgan choponlar Eron, Hirot va Astrobodda juda qimmat baholangan. Asarda Urganch choponi alohida ta'riflanadi, unga ko'ra ikki xil rangli yo'l-yo'l Urganch choponi sherst va ipakdan, ba'zan ikkalasining aralashmasidan tikilgan. Shaharlar haqida gapirar ekan Vamberi xonlikning katta shaharlarida xaftada 1-2 marta bozor bo'lishligini, aholi bozorlarga juda chiroyli kiyimlarda borishligini, oddiy narsalar uchun ham bozorga borilishini aytadi. Xiva xonligini aholisining etnik tarkibi ham muallifning nazaridan chetda qolmagan. U xonlikda yashaydigan 32 qabilani sanab o'tadi. Garchi ularning tashqi ko'rinishi, fizik tuzilishi turlicha bo'lsada, o'zlari turli xil nomlar bilan aytilsada, hammasi o'zini bitta xalqqa yoki qabilaga, aynan bir urug'ga tegishlimiz va o'zbekimiz deya faxrlanadilar –deydi Vamberi. Muallif Xiva shahri aholisining antropologik qiyofasini ham tasvirlaydi. Uning ta'kidlashicha Xiva uzbeklarida eroniy aralashma qiyofasi ko'proq va ular agar soqoli bo'lmasa tatarlarga juda o'xshaganlar. Xiva o'zbeklarining xarakterini ta'riflar ekan: "Ular toza qalb soddadilligi bilan maqtovg'a loyiqdirlar, ammo, atrofdagi ko'chmanchilar singari yovvoyi tabiatli.

Shunday bo'lishiga qaramasdan bu aholida boshqa sharq xalqlarinikiga o'xshagan noziklik va ziyraklik mavjud. Ular usmonli turklar kabi yana nimadir qila oladigan xalqdir"-deydi.

Xorazm shaharlari Vamberida quydagicha beriladi; Xazarasp-Polvon ota kanali bo'yidagi mustahkam qal'a-shahar, bir qancha savdo rastalari bor. Aholisi o'zbek va sartlardan iborat. Xonka- kichik joy bir necha o'nta savdo rastasi bor. Urganch-Xivadan 31 km uzoqlikda . Xonlikning eng asosiy shaharlaridan biri. U qachonlardagi to'rtburchakli loy devor bilan o'ralgan. Devorning uzunligi 225 sajen kengligi 200 bo'lgan va Vamberi davrida uning qoldiqlarigina saqlanib qolgan xalos. Shaharda 300ga yaqin loy uylar bo'lib tartibsiz xolatda joylashgan. Shaharda jami 15

machit va 300 ta savdo rastasi mavjud bo'lib, jami aholisi 2 ming kishi. Bu yerda Xivaning badavlat savdogarlari yashagan va ular faqat savdo-sotiq va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Boshqa hududdagilar bu yerga faqat biron narsa sotib olish uchun kelishgan. Kitay- bu yerda faqat xonning chordoqi bir nechta xususiy uylar joylashgan. Xo'jayli- mustahkamlanmagan shahar, 180ta uy 150ta savdo rastasi tartibsiz va tarqoq holda joylashgan. Qo'ngirot- atrofi bog' bilan o'ralgan xonning uyi, shaxar xokimi va 2 ta yordamchisining uyi, 7ta machit 315 ta savdo rastasi, devorlar bilan o'ralgan bir nechta xususiy uylar joylashgan. Hamma shaxarlar, uylar va rastalar bir xil uslubda, loydan qurilgan. Faqat badavlat kishilarning uylari yer maydonining kattaligi va ba'zi bir naqshlari bilan ajralib turadi. Toshidan qurilgan uylar deyarli yo'q. Qurilish materiallari faqat somon loy, terakdan ishlangan o'ralar, qamish, shoh-shabbalardan iborat bo'lgan.

1842 yilda Xivaga yana bir rus sayyohi topograf G.N.Zelenin rus diplomatlari bilan birga tashrif buyuradi va shaharning xaritasini chizadi. Uning chizgan xaritasi bo'yicha shaxarning ko'rinishi noxsimon bo'lgan va unda 17 ta masjid 22 ta mahalla, 260 ta savdo rastasi joylashgan. 1873 yilda Lyusilin, 1905 yilda Rodionov va 1910 yillarda V.Lobachevskiylar ham Xiva shahri ko'rinishini tasvirlaganlar.

1922 yilda Matkarim naqqosh Xiva shahrining XX asrdagi ko'rinishini tasvirlaydi. U Ichon qal'adagi 4 ta darvoza, Deshon qal'adagi 10 ta darvoza nomlarini, 52 ta madrasa va 79 ta masjid, madaniy va diniy vaqflarga ajratilgan yerlar, ko'chalar, ma'muriy binolar, bozorlar, karvonsaroylar, ariq va hovuzlar ko'rsatib o'tgan. Uning ktasviricha shaharda hovuzlar ko'p bo'lgan. Shuning uchun u eng katta 10 tasini sanab o'tgan. Xovuzlar shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlagan. Uning atrofida muzxonalar qurilgan (Polvon, Bozor, Biy-to'ra, Bol, Chilla avliyo va boshqalar). Shahar ichida ko'l ham mavjud bo'lgan. Hatto xonadonlar soni ham uning nazaridan chetda qolmagan. O'sha paytlarda Deshon qal'ada 4044 ta, Ichon qal'ada 908 ta xonadon bo'lgan.

Rus mualliflari Xiva xonligi shaharlarining hayotini ta'riflar ekanlar, ularda umumiy xulosalar mavjud bo'lgan. O'sha paytlarda Xivada islom dini Buxoroga qaraganda kamroq rivojlangan. Bu holatni rus mualliflari Xivada forsiy tildagi adabiyotlarning ko'pligi, tildagi eroniy xususiyatlar, urf-odatlardagi islomdan oldingi marosimlar jiddiy bajarilishi, musiqa, qo'shiq va raqsga bo'lgan ishtiyoqning balandligi bilan ifodalaydilar. Biroq ta'limda islom dini o'rganishdan boshqasi yengiltaklik hisoblangan. Hatto, Mirab Mirxondning asarini 20 yildan beri sabr-toqat bilan tarjima qilayotgani va uni aytishga ham istihola qilishini ko'rsatib o'tadilar. Xivaliklar otchopar yoki ko'pkari musobaqalarini tashkil qilganliklari (bayramlarda

va nikoh to'yida) haqida ham rus mualliflari yozib qoldirganlar. Masalan, Vamberining yozishicha xar bir to'y 9,19,29siz o'tmagan. Ya'ni ko'pkari musobaqasida erishilgan g'alaba uchun 9 ta qo'y, 19 ta echki yoki 29 ta boshqa hayvon mukofotga olingan.

Garchi sayohatchilar turli davrlarda kelgan bo'lsalarda ularning asarlarida Xonlik aholisining tasviri yaxshi berilgan. Aytaylik, oila va nikoh munosabatlari, qalim masalalari, ijtimoiy tabaqalar, to'y va aza marosimlari tahlil qilingan. Dehqonchilikda ekiladigan ekinlar, chorva turlari, hunarmandchilik masalalari xam keng yoritilgan.

Biz ularning asarlari orqali xonlikda otlarning 3ta nasli : qirg'iz, qorabayir va arg'umoqlar bo'lganligini bilib olamiz. Qirg'iz oti kuchsiz, tarbiyalanmagan va faqat dala ishlarida foydalanilgan. Qorabayir esa qirg'iz oti va arg'umoqning chatishuvidan tug'ilgan. U kalta oyoqli, keng yag'rinli, kuchli va tez chopar ot. Arg'umoqlar esa toza turkman otlaridir va ular aslzodalikning qandaydir belgisi bo'lib, Xiva zadogonlarida bo'ladi xalos va juda qimmat turadi. Qiziqarlisi xonlikda otlarni ko'paytirishga e'tibor qaratilmagan va faqat turkmanlardan sotib olingan. Ammo, eshak va tuyalar juda ko'p bo'lgan va otga ehtiyoj kamroq bo'lmagan. Mualliflar Xiva aholisining katta qismi o'troq bo'lishiga qaramasdan transport vositasi sifatida faqat aravadan foydalanishlarini aytib o'tadilar.

Qiziqarli ma'lumot Xiva tibbiyoti haqida yozilgan. 1872 yilda Turkiston bo'ylab vabo tarqaladi ammo, o'sha davrda Xivada bo'lgan rus mualliflarining yozishicha bu xonlikda boshqa joylarga qaraganda vabo kam tarqalgan. Rus soldatlari deyarli kasallanmagan. Buni mualliflar Xivaning iqlimi bilan bog'laydilar. Ularning ma'lumotlariga qaraganida bu joyning xavosi toza, odamlari deyarli kasallanmaydi, shunday bo'lsada kamroq umr ko'radilar. Sababini esa turmush tarzini noto'g'ri tashkil etilganligi deb ko'rsatadilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Xiva xonligi shahar-qal'alarining va aholisining etnografiyasi rus mualliflarining asarlarida ko'proq o'rganish mumkin. Zero, xar qanday chet el mualliflari biz uchun odatiy holatga aylangan va biz ilg'amaydigan narsalarga e'tibor qaratidalar. Zero, biz uchun kundalik hisoblangan ayrim masalalar ular uchun g'ayritabiiydir. Eng muhimi biz ularning asarlari orqali o'zimizni tahlil qila olamiz.

REFERENCES

1. Поездка из Орска в Хиву и обратно совершенная в 1740-1741 годах Гладышевым и Муравьиным.СПб.Типография Министерство внутренних дел.1851.стр21
2. Замечание майора Бланкеннагеля в последствие поездки его из Оренбурга в Хиву в 1793-94 годах.Изданы с объяснением В.В.Григорьевым. СанктПетербург. В типографии Морского министерство. 1858.(из №3 Вестника Императорского Русского Географического общества в 1858) –стр.5
3. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву.Москва.1822.стр 86
4. Ноткин И.И. Динамика городостраительного развития Хивы// «Архитектура и строительство Узбекистана». 1983. №10. стр.1 0-11
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии.Москва. Восточная литература.2003.стр155
6. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии.Москва. Восточная литература.2003.стр161
7. Наши соседы в Средней Азии.Хива и Туркмения. С-Петербург.Типография “Общественная польза”.1873.стр125-127

TURLI ALMASHINISH DARAJASIGA EGA BO‘LGAN SULFAT SELLYULOZANING TERMODINAMIK XOSSALARINI O‘RGANISH

Dadajonova Gulnoza Abdulvoxidjon qizi,

¹Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti,

e-mail: dadajonova2015@mail.ru

Turayev Abbasxon Sobirxonovich,

O‘zRFA Bioorganik kimyo instituti

Akbarov Xamdani Ikromovich.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

ANNOTATSIYA

Tadqiqot uchun sulfat sellyulozaning natriyli tuzi namunalari olingan bo‘lib, ushbu namunalar izotermalari Mak-Ben-Bakra asbobi yordamida o‘rganildi. Olingan natijalar asosida aralashishning erkin energiyasi va Gibbs energiyalari hisoblandi.

***Kalit so‘zlar:** Natriy sulfat sellyuloza, adsorbsion izotermalar, aralashishning erkin energiyasi, Gibbs energiyasi.*

АННОТАЦИЯ

Для исследования были взяты образцы натриевой соли сульфатной целлюлозы, изотермы которых были изучены с помощью прибора МакБен-Бакра. На основании полученных результатов были рассчитаны свободная энергия смеси и энергии Гиббса.

***Ключевые слова:** сульфат натрия целлюлоза, изотермы адсорбции, свободная энергия смешения, энергия Гиббса.*

ABSTRACT

For the study, samples of the sodium salt of sulfate cellulose were taken, and the isotherms of these samples were studied using a McBen-Bakra instrument. Based on the results obtained, the free energy of the mixture and the Gibbs energies were calculated.

***Keywords:** Sodium sulfate cellulose, adsorption isotherms, free mixing energy, Gibbs energy.*

KIRISH

Bugungi kunda atrof-muhit muammolari butun dunyoda dolzarbdir. Ushbu masalalardan biri mahalliy ishlab chiqarish chiqindilari bilan ifloslangan chiqindi suvlarni tozalashdir. Ayniqsa ifloslangan qoldiqlar organik chiqindilar, yani neft


mahsulotlari. Hozirgi bosqichda keng qoʻllaniladigan tozalash usuli adsorbsion tozalashdir [1-2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turli almashinnish darajasiga ega boʻlgan sulfat sellyulozaning adsorbsion faolligini oshirish maqsadida turli hil usullardan foydalaniladi. Ular ichida keng koʻlamda foydalaniladigan usullardan biri turli vaqt orligʻida faollab optimal sharoitni aniqlash. Shu maqsadda NaSS namunalarida suv bugʻi adsorbsiyasi izotermalari olindi (1-rasm).

NaSS 4 namunasida benzol adsorbsiyasi qolgan namunalarga (NaSS 3, NaSS 12 va NaSS 8) ga nisbatan, boshlangʻich holatlarida yuqoriligi aniqlandi. Bu namuna tarkibidagi qavatlar orasidagi yoriqlar va gʻovaklarning miqdori va suv molekularining elektron tabiati hamda oʻzaro taʼsirlanishlari bilan bogʻliqdir [3-5].

1-rasm. NaSS namunalarida suv bugʻi adsorbsiyasi izotermalari.



Natijalar muhokamasi. Olingan sorbsion izotermalar asosida erituvchini termodinamik barqarorligini sifat jihatdan miqdoriy baxolash uchun erituvchi $\Delta\mu_1$ va polimer $\Delta\mu_2$ kimyoviy potensiallarni hisoblash asosida polimer erituvchi aralashishning oʻrtacha erkin energiyasi hisoblandi. 1, 2, 3 va 4-jadvallarda koʻrsatilgan barcha oʻrganilgan namunalar uchun Δg^m ning konsentrasyon bogʻliqligi boʻyicha Gibbs energiyasi aniqlandi [6].

1-jadval. NaCS-3 namunasining suv bug‘lari izotermasi bo‘yicha aralashishning o‘rtacha erkin energiyasini hisoblash.

P/P_0	$\ln P/P_0$	$\Delta\mu_1$	x/m	w_1	w_2	S	$\Delta\mu_2$	g_m
0,1	-2,30259	-820,743	0,10584	0,09571	0,90429	-11,06	-11,06	-88,5548
0,2	-1,60944	-573,674	0,12096	0,107908	0,892092	-28,0175	-39,0775	-96,7645
0,3	-1,20397	-429,149	0,19656	0,164271	0,835729	-22,9449	-50,9624	-113,087
0,4	-0,91629	-326,606	0,24948	0,199667	0,800333	-22,869	-55	-109,231
0,6	-0,51083	-182,081	0,3402	0,253843	0,746157	-42,6119	-65,481	-95,079
0,8	-0,22314	-79,5382	0,378	0,274311	0,725689	-36,823	-63	-67,5366
0,99	-0,01005	-3,58238	0,47628	0,322622	0,677378	-32,4438	-60	-41,7985

2-jadval. NaCS-4 namunasining suv bug‘lari izotermasi bo‘yicha aralashishning o‘rtacha erkin energiyasini hisoblash.

P/P_0	$\ln P/P_0$	$\Delta\mu_1$	x/m	w_1	w_2	S	$\Delta\mu_2$	g_m
0,125	-2,07944	-741,204	0,04662	0,044543	0,955457	-11,06	-11,06	-43,5831
0,25	-1,38629	-494,136	0,07848	0,072769	0,927231	-15,4541	-26,5141	-60,5425
0,375	-0,98083	-349,611	0,12888	0,114166	0,885834	-14,9844	-30,4385	-66,8772
0,5	-0,69315	-247,068	0,2412	0,194328	0,805672	-18,9745	-33,9589	-75,372
0,625	-0,47	-167,53	0,35046	0,259512	0,740488	-23,5298	-42,5042	-74,9499
0,75	-0,28768	-102,543	0,38448	0,277707	0,722293	-23,8809	-47,4107	-62,7212
0,875	-0,13353	-47,5965	0,522	0,34297	0,65703	-24,9038	-48,7847	-48,3772
0,99	-0,01005	-3,58238	0,62388	0,384191	0,615809	-25,2174	-50,1212	-32,2414


3-jadval. NaCS-8 namunasining suv bug‘lari izotermasi bo‘yicha aralashishning o‘rtacha erkin energiyasini hisoblash.

P/P_0	$\ln P/P_0$	$\Delta\mu_1$	x/m	w_1	w_2	S	$\Delta\mu_2$	g_m
					1			0
0,125	-2,07944	-741,204	0,02808	0,027313	0,972687	-3,2	-3,2	-23,3571
0,25	-1,38629	-494,136	0,03924	0,037758	0,962242	-8,31631	-11,5163	-29,7393
0,375	-0,98083	-349,611	0,08298	0,076622	0,923378	-8,83196	-17,1483	-42,6222
0,5	-0,69315	-247,068	0,1053	0,095268	0,904732	-9,65335	-18,4853	-40,262
0,625	-0,47	-167,53	0,23526	0,190454	0,809546	-13,5438	-23,1971	-50,6859
0,75	-0,28768	-102,543	0,2601	0,206412	0,793588	-16,0961	-29,6398	-44,6878
0,875	-0,13353	-47,5965	0,31572	0,23996	0,76004	-15,8195	-31,9156	-35,6784
0,99	-0,01005	-3,58238	0,31572	0,23996	0,76004	-13,8961	-29,7156	-23,4447

4-jadval. NaCS-12 namunasining suv bug‘lari izotermasi bo‘yicha aralashishning o‘rtacha erkin energiyasini hisoblash.

P_i/P_i^o	$\ln P_i/P_i^o$	$\Delta\mu_1$	x/m	w_1	w_2	S	$\Delta\mu_2$	g^m
					1			0
0,1	-2,30259	-820,743	0,04464	0,042732	0,957268	-11,06	-11,06	-45,6597
0,2	-1,60944	-573,674	0,1044	0,094531	0,905469	-18,4115	-29,4715	-75,675
0,3	-1,20397	-429,149	0,12744	0,113035	0,886965	-16,7534	-35,1649	-79,6988
0,4	-0,91629	-326,606	0,2745	0,215379	0,784621	-20,608	-37,3614	-99,6585
0,6	-0,51083	-182,081	0,29088	0,225335	0,774665	-40,8559	-61,4639	-88,6431
0,8	-0,22314	-79,5382	0,3366	0,251833	0,748167	-32,1717	-59	-64,1722
0,99	-0,01005	-3,58238	0,3366	0,251833	0,748167	-25,5667	-57,7384	-44,1001

2-rasm. O‘rganilgan namunalarni polimer-erituvchi tasirlashish bo‘yicha o‘rtacha erkin energiyasining konsentratsiyaga bog‘liqlik grafigi



5-jadval. Namunalarning suv bug‘lari adsorbsiyasi bo‘yicha termodinamik funksiyasi qiymatlari.

Намуналар	Говаклар-нинг ўртача радиуси $r_{\text{ср}}$, Å	Солиштирма юзаси, $S \cdot 10^{-3}$, м ² /кг	$-\Delta G$ Djouл/mol	$-\Delta g^m_{\text{max}}$ Djouл/mol
NaCl 3	39,2	20,94	103	113
NaCl 4	47,9	26,07	138	75,4
NaCl 8	43	14,57	62,0	50,6
NaCl 12	38,2	17,64	129	99,6


XULOSA

Olingan namunalarning yuqoridagi malumotlardan bilish mumkinki, NaSS 4 namunaning barcha termodinamik ko'rsatgichlari qolgan namunalarga nisbatan yuqori.

REFERENCES

1. И.А. Никифоров «Адсорбционные методы в экологии» //Саратовский государственный университет им Н. Г. Чернышевского. - 2011. - 48 с.
2. Н.А. Макаревич, Н.И. Богданович «Теоретические основы адсорбции». - Архангельск: САФУ, 2015. -362с.
3. Н.А. Макаревич, Н.И. Богданович «Теоретические основы адсорбции» // Архангельск: САФУ. - 2015. С. 362.
4. Пайгамов Р.А., Эшметов И.Д., Жумаева Д.Ж., Агзамова Ф.Н. Очистка сточных вод от нефтепродуктов на основе древесных углей // VII Республиканская научно-практическая конференция "Рациональное использование природных ресурсов южного приаралья". -Нукус. -2018. - С.155-157.
5. Грег С., Синг К. Адсорбция, удельная поверхность, пористость: Пер. с англ. // 2-е изд. – М.:Мир, 1984. – 306 с.
6. Акбаров Х.И., Рахманбердиев Г.Р. Термодинамические свойства водоростворимых ацетатов целлюлозы и их композиций // Целлюлоза ва унинг ҳосилаларини кимёси ва технологиясини долзарб муаммолари номли илмий-техникавий анжуман. Тошкент. -2018. 126-б.

THE AFFECTIVE FACTORS OF COMPETITIVENESS OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES

 10.24412/2181-1784-2021-8-366-375

Abdumuminov Akhrorjon Axatjonovich

Andijan machine-building institute, doktorant
phone number: +998 90 958 23 89

ABSTRACT

This paper discusses the features of the formation of the role and strategy of food industry enterprises in the national economy of Uzbekistan. On this case, status quo competitiveness condition in the countries and the enterprises based on the consideration of competitive advantages and the level of competitiveness of enterprises in the current socio-economic situation. The goal of the research is to stress the significance of the agro industry for economic development and the directions of its future development, as well as the significance of the agricultural and industrial policy for its development. The problem of increasing the competitiveness of domestic food industry enterprises becomes particularly relevant in connection with the expansion of the domestic market. Improving the competitiveness of the food industry is directly related to the formation and maintenance of a certain level of competitive potential. As this process involves the formation of long-term competitive advantages, it is possible to trace a clear relationship between competitiveness and strategy formation.

Keywords: *food industry, factors, competitiveness, Uzbekistan, research, strategy, industry enterprises*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности формирования роли и стратегии предприятий пищевой промышленности в национальной экономике Узбекистана. В данном случае состояние конкурентоспособности status quo в странах и предприятиях основано на учете конкурентных преимуществ и уровня конкурентоспособности предприятий в текущей социально-экономической ситуации. Цель исследования - подчеркнуть значение агропромышленного комплекса для экономического развития и направления его будущего развития, а также значение сельскохозяйственной и промышленной политики для его развития. Проблема повышения конкурентоспособности отечественных предприятий пищевой промышленности становится особенно

актуальной в связи с расширением внутреннего рынка. Повышение конкурентоспособности пищевой промышленности напрямую связано с формированием и поддержанием определенного уровня конкурентного потенциала. Поскольку этот процесс включает формирование долгосрочных конкурентных преимуществ, можно проследить четкую взаимосвязь между конкурентоспособностью и формированием стратегии.

***Ключевые слова:** пищевая промышленность, факторы, конкурентоспособность, Узбекистан, исследования, стратегия, предприятия отрасли.*

INTRODUCTION

The competitiveness of the country's food industry is the ability to produce and sell food products that meet customer requirements in terms of price, quality and quantity, as well as to provide sufficient funds for the development of enterprises in this field. Currently, the concept of competitiveness is applied not only to a particular product, but also to the enterprise, industry, sector and national economy.

The solution of the food supply global problem requires local approaches, taking into account the territorial features of economic development. The need to develop the scientific foundations for the formation and management of business processes in the food industry in the context of economic transformations, taking into account global conceptual approaches to food safety, is gaining importance. Given the experience of the world developed countries, this is possible only if the institutional support for the formation of innovative strategic structures of the food sector is developed. Particular attention is required to highlight regional characteristics for economic levers and incentives for the agri-food sector development.

Competitiveness of a particular branch of industry means the ability of other countries to operate more efficiently than the same branch and to continue to operate in conditions of free competition. In the economic literature, competitiveness is characterized by a complex index that includes many specific indicators as a quantitative measure. Simply put, competitiveness is a multidimensional complex indicator. For example, in determining the global competitiveness index of countries, the World Economic Forum (WEF) first identifies 63 specific indicators of countries, and then summarizes these indicators into a single index.

LITERATURE REVIEW

Issues of the food industry functioning and development today is extremely relevant and is considered in terms of ensuring food safety in any country (Tran et al.,

a) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra: leksik perifraza, frazeologik perifraza, sintaktik perifraza, logik perifraza, sof va kontekstual perifraza;

b) semantikasiga ko‘ra: mualliflik ma‘nosini ataydigan perifraza, kasb-kordagi mahoratni anglatadigan **perifraza, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnini anglatadigan perifraza**, ijodkor asaridagi biror g‘oya va mavzuni bildiradigan perifraza, san‘at namoyandalari yaratgan o‘lmas obrazlarni bildiradigan perifraza, **muassasa va muayyan joylarni anglatadigan perifraza, suyuqlik va texnika**

predmetlarini anglatadigan perifraza, tabiat hodisalari va o‘simliklarni anglatadigan perifraza, jonivor nomlarini anglatadigan perifraza, shaharlarni ifodalaydigan perifraza.

Olim o‘zi ajratgan turlarning tabiati, mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, perifrazalarning kasb-hunar leksikasi, evfemizm, frazeologizm, sinonim, epitet, metafora (badiiy metafora), metonimiya, sinekdoxa, funksional ko‘chish kabi lisoniy hodisalarga munosabati ham I.Umirovning mazkur tadqiqotida batafsil yoritilgan.

S.Shodiev «Parafrazalar va ularning derivasion xususiyatlari» nomli maqolasida ayrim jo‘yali mulohazalarni bildirib o‘tadi [31]. Tadqiqotchi talqinida perifrazalar qismlarining sintaktik aloqasi statik xarakterli bo‘lgani uchun ular turg‘un so‘z birikmalari qolipida o‘rganilishi lozim. Bunday birikmalarning sintaktik shakllanishi muayyan tushunchalarning nutqdagi ta‘sirchanligini oshirish maqsadi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ma‘lum bir lug‘aviy birlik shu maqsadda boshqacha nomlanadi. Masalan, *dala malikasi*, *aql gimnastikasi* perifrazalari makkajo‘xori, shaxmat yoki matematika tarzida tilimizning lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarning nutqda boshqacha nomlar bilan aytilib, mazmuniy salmog‘iga ko‘ra ta‘sirchanligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Olima F.Xolmurodova «Qutadg‘u bilig» leksikasi» mavzuidagi dissertasion ishida ham perifrazalar xususida ba‘zi mulohazalarni bildirib o‘tgan [29, B. 24]. Jumladan, «Qutadg‘u bilig»da qo‘llanilgan perifrazalarning asar qiymatini oshirishga, ma‘noni yanada yorqinroq ifodalashga, mazmunni teran yoritishga xizmat qilishi *türkün qutı* – «Bug‘ro Qoraxon», *köz yülü* – «ko‘z yoshi», *uluş kün* – «qiyomat», *qara yüz* – «xizmatkor», *ölüm tutyaqi* – «kasallik», *teriglik eşik* – «qabr» kabi misollarda tahlilga tortilgan. Yusuf Xos Hojib farzandni *köz yaruqi*, ya‘ni «nuri diyda», «ko‘z nuri» perifrazasi orqali tasvirlaydi: *Sen erdiñmeña köz yaruqi tügäl, barir-men seniñdin esän eđgü qal – Sen mening yolğ‘iz nuri diydam eding, (endi) men sendan ketayotirman, eson, yaxshi qol* [32, B. 95]. Inson o‘z farzandini ko‘z qarog‘iga, ko‘z nuriga qiyos qiladi. Insonning eng nozik va ehtiyotlaydigan a‘zosi uning ko‘zlari bo‘lgani uchun farzandni ham ko‘zi kabi aziz va mo‘‘tabar tutadi. Asarda qo‘llanilgan perifrazalar Yusuf Xos Hojibning so‘z qo‘llash mahoratidan darak beruvchi obrazli ifodalar hisoblanadi.

Professor S.Karimovning «Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari» nomli risolasida badiiy tasvir vositalarining tilimizdagi funksional chegaralanishi, ya‘ni uslubiy xoslanishi masalalari tahlil qilingan. Tilshunos perifrazalarni qo‘llanishiga ko‘ra ikki turga ajratadi: «Perifrazalarda ham ikki a‘zo – sub‘ekt va ob‘ekt mavjud.

Lekin o'ziga xoslik va noziklik shundaki, stilistik qiymatiga ko'ra bu ikki jihat bir-biriga teng emas, ekspressivlik ham, emotsionallik ham ikkinchi komponentda. Birinchi komponent grammatik jihatdan gapda shakllanishi ham, shakllanmasligi ham mumkin. Lekin shakllanishi nutqiy ifodaning aniqligiga xizmat qiladi. Chunki ...*qalam ahli, kishi ruhining injenerlari, salomatlik posbonlari* deyilganda kim haqida gap ketayotganini matsiz ham bemalol anglash mumkin bo'lgan holda *erk kuychisi, millatimiz faxpi* kabi perifrazalarda gap kim haqida ketayotganini matsiz aniqlab bo'lmaydi» [16, B. 31]. S.Mamajonovning «Uslub, obraz, tasviriy vositalar» [21], T.Rasulovning «Badiiy obraz va obrazli tasviriy vositalar» [25], E.Ibragimovning «Badiiy tasvir vositalarining nomlanishi xususida ba'zi mulohazalar» [14], B.O'rinboyevning «Funksional uslubiyat va uning mohiyati» [33], R.Normurodovning «Perifrazaning evfemik yo'l bilan hosil bo'lishi» [24] nomli maqolalarida ham perifrazalar tasviriy vositalar sifatida tahlilga tortilib, ularga badiiylik nuqtai nazaridan yondashilgan va ayrim umumiy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

D.Aytboyevning «O'rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv», «Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv», «Sarlavhada perifrazalar» kabi maqolalarida shaxs nomlarini, o'rin-joy nomlarini ifodalovchi perifrazalarning mavjudligi va ularning sarlavhaga chiqarilishi bilan bog'liq tomonlariga e'tibor qaratilgan, biroq sotsial jihatdan tahlillari amalga oshirilgan emas [1, 2, 3].

XULOSA

Umuman olganda, jahon lingvistikasida, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham birmuncha asosli, faktik qarashlar ilmiy asoslangan va daliliy ashyolar asosida o'rganilgan perifrazalar nutqimizning ko'rkam, jozibador, ohangdor bo'lishini ta'minlaydiki, ularsiz fikrimizni ta'sirchan, tasviriy ifoda etish qiyin. Zero, olamning lisoniy manzarasini nomlashdagi o'rni beqiyos bo'lgan perifrazalar muloqotni obrazli ifodalar bilan amalga oshirilishini ta'min etuvchi asosiy tasvir vositalaridandir.

Tilshunoslikda perifrazalar, ko'pincha, metafora, metonimiya, sinekdoxa, frazeologizm, evfemizm va epitet kabi yondosh hodisalar bilan qorishtiriladi, o'zaro farqlanmaydi. Perifraza ma'lum jihatlari bilan o'xshatish, metafora, metaforik epitet kabi badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda tursa ham, ularni aynan takrorlamaydigan alohida hodisadir. U so'zlar singari muayyan shaxs yoki narsa, hodisani alohidalikda (o'ziga xos tarzda) atab kelib, tasviriy ifodani yuzaga keltiradi.

REFERENCES

1. Aytboyev D. O`rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta`limi. 2006. № 4. – B. 19-22. (Aytboyev D. O`rin-joy bildirgan perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta`limi. 2006. № 4. – B. 19-22.)
2. Aytboyev D. Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta`limi. 2007, № 4. – B. 34-39. (Aytboyev D. Konkret shaxslarni anglatuvchi perifrazalarda motivlashuv // Til va adabiyot ta`limi. 2007, № 4. – B. 34-39.)
3. Aytboyev D. Sarlavhada perifrazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 2007, № 4. – B. 65-68. (Aytboyev D. Sarlavhada perifrazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 2007, № 4. – B. 65-68.)
4. Антуана де Сент-Экзюпери. Планета людей (Нора Галь таржимаси). 1963. – Б. 37. (Antuan de Sent-Ekzyuperi. Planeta lyudey (Nora Gal tarjimasi). 1963. – B. 37.)
5. Апресян Ю.Д. Синонимические средства языка и правила перифразирования. // Русский язык в национальной школе, 1972, № 3, 19-27. (Apresyan Yu.D. Sinonimicheskiye sredstva yazika i pravila perifrazirovaniya // russkiy yazik v natsionalnoy shkole, 1972, № 3, 19-27.)
6. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. – Москва: Флинта, 2005. – 384 с. (Arnold I.V. Stilistika. Sovremenniy angliyskiy yazik. – Moskva: Flinta, 2005. – 384 s.)
7. Базарская Н.И. Вторичная номинация в системе языковых знаков: (На материале перифраз английского и русского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Саратов, 1988. – 16 с. (Bazarskaya N.I. Vtorichnaya nominatsiya v sisteme yazikovix znakov: (Na materiale perifraz angliyskogo i russkogo yazikov): Avtoref. diss... kand. filol. nauk. – Saratov, 1988. – 16 s.)
8. Балли Ш. Французская стилистика: Пер. с фр. – Москва, 1961. – С. 126. (Balli Sh. Franzuskaya stilistika: Per. s fr. – Moskva, 1961. – S. 126.)
9. Galperin I.R. Stylistics / I.R. Galperin. – Moscow: Higher School Publishing House, 1971. – 343 p.
10. Гаспаров М.Л. Античная риторика как система // Гаспаров М.Л. Избранные труды. Т.1. О поэтах. Москва: Языки славянских культур, 1997. – С.143. (Gasparov M.L. Antichnaya ritorika kak sistema // Gasparov M.L. Izbranniye trudi. T.I. O poetax. Moskva: Yaziki slavyanskix kultur, 1997. – S.143.)
11. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сб. докл. и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С.158. (Grigoryev V.P. K

problem perifrazi // Sb. dokl. i soobsheniy lingvisticheskogo obshestva. – Kalinin, 1974. – S. 158.)

12. Даль. В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. 3-том. – Москва: Издание книгопродавца-типографа М.О. Вольфа, 1882. – 576 с. (Dal V.I. Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika. 3-tom, M., 1882. – 576 s; Shu manba. – 14 s.)

13. Жўраев Н. Агар огоҳсен... – Тошкент: Шарқ, 1998. – 253 б. (Jo`rayev N. Agar ogohsen... – Toshkent: Sharq, 1998. – 253 b.)

14. Ибрагимова Э. Бадиий тасвир воситаларининг номланиши хусусида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, № 2. – Б. 88-89. (Ibragimova E. Badiiy tasvir vositalarining nomlanishi xususida ba'zi mulohazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 2009, № 2. – B. 88-89.)

15. Ильина И.З. Перифраз и его стилистические функции в произведениях английской художественной литературы: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1954. – 24 с. (Ilna I.Z. Perifraz i yego stilisticheskiye funktsii v proizvedeniyakh angliyskoy xudojestvennoy literaturi: Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. – Moskva, 1954. – 24 s.)

16. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – Б. 31. (Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994. – B. 31.)

17. Кожин А.Н. Перифрастические построения в языке советской эпохи // Рус. яз. в shk. 1977. – № 4. – С. 89-94. (Kojin A.N. Perifrasticheskiye postroyeniya v yazike sovetской эпохи // Rus. yaz. v shk. 1977. – № 4. – S. 89-94.)

18. Кожин А.Н. Термины-слова и термины – «фразеологизмы» // Труды Самаркандского гос. университета. Вопросы фразеологии. – Самарканд, 1970, № 178. – С. 69-80. (Kojin A.N. Termini-slova I termini – «frazеologizmi» // Trudi Samarkandskogo gos. universiteta. Voprosi frazeologii. – Samarqand, 1970, № 178. – S. 69-80.)

19. Лингвистический энциклопедический словарь /под ред. О.С.Ахмановой. –2-е изд., стер. – Москва: УРСС, 2004. – С. 312. (Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovari / pod red. O.S.Akhmanovoy. – 2-ye izd., ster. – Moskva: URSS, 2004. – S. 312.)

20. Макарова С.Я. Перифраза в современном русском литературном языке (на материале газет) // Содержание и методика преподавания русского языка в средней и высшей школе: Материалы XV науч.-метод. конф. Поволжья. – Волгоград, 1972. – С. 55-58. (Makarova S.Ya. Perifraza v sovremennom russkom

literaturnom yazike (na material gazet) // Soderjaniye i metodika prepodavaniya russkogo yazika v sredney i visshey shkole: Materiali XV nauch.-metod. konf. Povoljya. – Volgograd, 1972. – S. 55-58.)

21. Мамажонов С. Услуб, образ, тасвирий воситалар// Шарқ юлдузи. 1969, № 6. – Б. 8-10. (Mamajonov S. Uslub, obraz, tasviriy vositalar // Sharq yulduzi. 1969, № 6. – B. 8-10.)

22. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 42. (Mirtojiev M.M. O`zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 2000. – B. 42.)

23. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2007. – Б. 185. (Mirtojiev M.M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2007. – B. 185.)

24. Нормуродов Р. Перифразанинг эвфемик йўл билан ҳосил бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010, № 2. – Б. 76-78. (Normurodov R. Perifrazaning evfemik yo`l bilan hosil bo`lishi // O`zbek tili va adabiyoti. 2010, № 2. – B. 76-78.)

25. Расулов Т. Бадиий образ ва образли тасвирий воситалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1965, № 5. – Б. 5-13. (Rasulov T. Badiiy obraz va obrazli tasviriy vositalar // O`zbek tili va adabiyoti. 1965, № 5. – B. 5-13.)

26. Умиров И. Ўзбек тили перифразалари. Филол.фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 23 б. (Umirov I. O`zbek tili perifrazalari. Filol.fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1996. – 23 b.)

27. Уткина В.П. Перифрастический оборот в русской художественной литературе // Известия Крымского педагогического института им. М.В. Фрунзе. – Т. 33, Вып. 1. – Симферополь. 1959. – С. 87-109. (Utkina V.P. Perifrasticheskiy oborot v russkoy xudojestvennoy literature // Izvestiya Krimiskogo pedagogicheskogo instituta im. M.V. Frunze. – T. 33, Vip. 1. – Simferopol. 1959. – S. 87-109.)

28. Fuchs C. A parafrase lingustica: Equivalencia, sinonimia ou reformulacao? // Cadernos de estudos ling. Campinas, 1985. - N 8. - P. 129-134.

29. Холмуродова М.Ф. «Қутадғу билиг» лексикаси. Филол. фан. PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 24 б. (Xolmurodova M.F. «Qutadg`u bilig» leksikasi. Filol.fan. PhD diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 24 b.)

30. Шамсиддинов Ҳ. Перифраза хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993, № 4. – Б. 29-35. (Shamsiddinov H. Perifraza xususida ayrim mulohazalar // O`zbek tili va adabiyoti. 1993, № 4. – B. 29-35.)

31. Шодиев С.Э. Парафразалар ва уларнинг деривацион хусусиятлари// Хорижий филология. 2017. № 2. – Б. 246-250. (Shodiyev S.E. Parafrazalar va ularning derivatsion xususiyatlari // Xorijiy filologiya. 2017. № 2. – B. 246-250.)

32. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов). – Тошкент: Фан, 1972. – 971 б. (Yusuf Hos Hojib. Qutadg`u bilig (Transkripsiya va hozirgi o`zbek tiliga tavsiv qiluvchi Q.Karimov). – Toshkent: Fan, 1972. – 971 b.)

33. Ўринбоев Б. Функционал услубият ва унинг моҳияти. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 32-33. (O`rinboyev B. Funktsional uslubiyat va uning mohiyati. – Toshkent: Fan, 1992. – B. 32-33.)

34. Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 148. (Qo`ng`urov R. O`zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1983. – B. 148.)

35. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 267. (Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati. – Toshkent: O`qituvchi, 1985. – 267 b.)

KUSHON PODSHOLIGI DAVRIDA DINIY BAG'RIKENGLIK

Bozorova Sevaraxon Qobiljonovna

mustaqil tadqiqotchi.

Telefon: 998.97.995 03 20

E-mail: bozorovasevaraxon@gmail.com.

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada yurtimizda hukm surgan Kushon podsholigi davrida diniy bag'rikenglik g'oyalarini yoyilishi, podsholikning diniy hayotidagi turfa xillik, bag'rikenglik g'oyalarini davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi hamda buddaviylik ta'limotini O'rta Osiyo madaniy hayotiga ta'siri, buddaviylik manzilgohlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: manixeylik, baktريا tili, Kanishka, Xuvishka, Vima Kadfiz, Vasudeva, Zeves, Gelios, Siyovush, Ayritom, Fayoztepa, buddaviylik, missioner, Hindiston, Varaxsha.

АНОТАЦИЯ

В статье рассматривается распространение идей религиозной толерантности в Кушанский период, подъём идей толерантности на политический уровень и влияние буддизма на культурную жизнь Центральной Азии, упоминаются буддийские поселения.

Ключевые слова: манихейство, бактрийский язык, Канишка, Хувишка, Вима Кадфиз, Васудева, Зевес, Гелиос, Слявуш, Айритом, Файозтепа, буддизм, миссионерство, Индия, Варахша.

ABSTRACT

This article focuses on the spread of the ideas of religious tolerance in the Kushan kingdom, the diversity of the kingdom, the rise of the ideas of tolerance to the level of state policy and the introduction of Buddhist in Central Asian cultural life, Buddhist settlements are mentioned.

Keywords: manichaeism, Bactrian language, Kanishka, Khuvishka, Vima Kadfiz, Vasudeva, Zeves, Gelios, Siyavush, Ayritam, Fayaztepa, Buddhism, missionary, India, Varaksha.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston azaldan o'z urf-odati, madaniyati, tili va turmush tarziga ega bo'lgan, turli e'tiqod vakillari va bir-biriga ma'naviy jihatdan yaqin bo'lmagan xalqlar yashagan zamindir.

Millati va diniy qarashlaridan qat'iy nazar insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, o'zga din vakillarini hurmat qilish O'zbek xalqining yuksak sifatlaridir. (1, 8)

Aynan ushbu omillar xalqimizning ruhiyatida diniy bag'rikenglik xususiyatini shakllanishiga asos bo'ldi.

Bag'rikenglik g'oyalarini hayotga tadbiiq etish uzoq moziyga borib taqaladi. Ajdodlarimiz amal qilgan diniy bag'rikenglik g'oyalari tarixning har bir davrida ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotni ajralmas qismiga aylangan bo'lsada, tarixning ma'lum davrlarida o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan. Kushon podsholigi hukm surgan tarixiy davr fikrimizga yorqin misoldir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kushon podsholigi asoschilari bo'lgan yuyechi (Xitoy manbalarida) qabilasi Sirdaryo ortidan Baktriyaga yerlariga kelib, sak qabilalarini yengan hamda Yunon-Baktriya yerlarini egalladilar. Natijada bir asr mobaynida Yunon-Baktriya yerlarida yashagan qabilalar 5 qabilaga bo'linib, istiqomat qilishgan. Milodiy I-asrda esa kushon qabilasidan bo'lgan Kudzula Kadfiz "Kushon" podsholigiga asos soldi.

Kushon podsholigi davrida bir hududda turli dinlar amalda bo'lgan. Saltanatda dinlar o'rtasida o'zaro tenglik siyosati olib borib, shahar aholisi podsholikning bag'rikenglik an'analariga muofiq, zardushtiylik, buddaviylik, manixeylik va boshqa dinlarga sig'inganlar.(2, 152)

Shuningdek, Kushon hukmdorlari hind e'tiqodlaridan buddaviylik, vishnuizm, jaynizm kabi oqimlarni yoyilishiga homiylik qilganlar.

Xorazm va Sug'dda esa mahalliy ta'limotlardan Siyovush e'tiqodi ham keng yoyilgan. (3, 122)

Podsholikda siyosiy hokimiyat ruhoniylar qo'lida bo'lib, dunyoviy davlat rahbari bosh qohin ham hisoblangan . (4, [https://: qobus.info](https://qobus.info))Barcha diniy sohadagi islohotlar asoschisi ham davlat rahbari hisoblangan. Podsholikdagi bir qancha islohotlar asoschisi sifatida Kanishka e'tirof etilib, u hukmron bo'lgan davrda Kushon davlati ravnaq topdi. Davlat tarkibiga Hindistonni qo'shib olinishi, Hisor tog' tizmalari bo'ylab mustahkam chegara devorlarini barpo etilishi, baktriya tili bilan birgalikda hind tili ham muloqot tili sifatida iste'molda bo'lishi kabi islohotlar hukmdor Kanishka nomi bilan bog'liq.

Davlatda buddizm ta'limotini keng yoyilishi davlat tarkibiga Shimoliy Hindistonni qo'shib olinishi bilan tasniflanadi. Hukmdor Kanishka buddizm tarixida birinchi marta diniy yig'inlar chaqirishni joriy etib, dastlabki diniy yig'inda

buddaviylikning mahayana oqimini rasmiy oqim sifatida e'tirof etdi. (5, <https://qobus.info>)

Aynan shu tarixiy jarayondan so'ng ushbu ta'limot podsholikda juda tez sur'atlarda yoyila boshladi.

Shuningdek, Kanishka barcha dinlarga erkinlik bergan holda, buddaviylik ibodatxonalarini qurishga ular uchun katta miqdorda mablag ajratishga homiylik qilgan.

Kanishka nafaqat adolatli hukmdor, shuning barobarida adabiyot va san'at homiysi ham hisoblangan. Manbalarda Kanishka Kashmirda Kanishkapur shahriya asos solganligi, Pareva, Vasumitra kabi buddaviy olimlar hamda Ashvagxosha, Vagarjuva, Matricheta kabi faylasuf va shoirlar hukmdor saroyida yashaganligi qayd etiladi.

Boshqa bir tarixiy manbalarda milloddan avvalgi I asrdayoq Baktriya aholisi buddaviylik g'oyalari bilan tanish bo'lganligi va Kushon davlati tashkil topgan bir davrda bu hududda Hindistondan kelgan budda missionerlaridan iborat yirik buddaviylik koloniyalari mavjud bo'lganligi borasida fikrlar mavjud. Ular esa ommaviy xalq orasida buddaviylik ta'limotini keng targ'ib qilgan. (6, 152)

Arxeologik topilmalar natijasida shu aniqlandiki, kushon hukmdorlari Kanishka va Xuvishka davrida zarb etilgan tangalarda Avesto ilohlari, Hind va Xorazm xalqi e'tiqod qiluvchi xudolar tasvirlangan bo'lsa, Vima Kadfiz va Vasudeva davridagi tangalarda hind ilohi Shiva tasviri tushirilganligi o'z tasqig'ini topdi. (7, 122) Arxeologik izlanishlar podsholik davrida zarb etilgan ba'zi tangalarning orqa tomonida zartushtiylik ilohi Mitra, otashparastlik ilohi Otash (olov ma'budi) ham tasvirlanganligini ko'rsatadi.

Kushon podsholigi tarixiga oid yana bir manbalarda bu podsholik hukm surgan davr tangalarining oldi tarafida o'z dinlarining ilohlari, ikkinchi bir tarafida boshqa e'tiqodlarning ilohlari tushirilib, zarb etilganligi qayd etiladi. (8, 227)

Ushbu topilmalar podsholikda diniy bag'rikenglik g'oyalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini, davlatdagi e'tiqodiy hayot kayfiyatini ifodalab beradi. Chunki, zarb etilgan tangalar davlatning milliy ramzi hisoblanib, unda davlatning orzu-istaklarri, maqsadlari tasvirlanadi.

Xatto, davlat tangalarida yunon ilohlaridan Zevs va Gelios kabi ilohlar tasviri tushirilgan tangalar ham topilgan. Xorazm va Sug'dda mahalliy ta'limotlardan Siyovush e'tiqodi ham keng yoyilgan. (9,122)

Buddaviylik ta'limoti O'rta Osiyo xalqi ma'naviyati va san'atiga ham munosib ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ta'limotning eng noyob yodgorliklari O'zbekistonning

janubidan topilgan. Bu hudud esa milodning I-III asrlarida eng qudratli saltanatga aylangan Kushon podsholigi tasarrufida bo'lgan. Bu ta'limotning qadimiy manzilgohlariga (xususan Surhandaryoda) Qadimiy Termiz yorqin misol bo'la oladi. Shuningdek, Qoratepa, Fayoztepadagi yer osti va yer ustidagi ibodatxonalari, Zurmala stupasi, Ayritom, Dalvarzintepa, Zar tepadagi buddaviylik ibodatxonalari ham buddaviylik ta'limotini madaniy hayotga ta'sirini namoyon etadi.

Buddaviylik nafaqat diniy ishonch sifatida, balki, madaniyat va san'atning yorqin ko'rinishi sifatida ham namoyon bo'ldi. Qoratepadan topilgan o'nta yer osti va yer ustiga qurilgan ibodatxona majmualari va mahobatli monastir binolari ham bu ta'limotni xalqning madaniyati, san'ati bilan uyg'unlashganini ko'rsatadi. Ushbu yangi ta'limot O'rta Osiyo xalqlari hayotidan muhim o'rin oldi. Marosimlar va madaniyatda eng nozik, murakkab san'at asarlarini vujudga keltirishga xizmat qildi. Kushon san'ati shunisi bilan harakterliki, u hind, yunon, rim, shuningdek, baktriya madaniyatlarining qorishmasi mahsulidir. Mahalliy hukmdorlar o'z saroylarini haykallar bilan bezaganlar. Bu ta'limot haykaltaroshlik sohasini rivojiga o'zining munosib xissasini qo'shdi. (10, 58)

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kushon podsholigi davrida tolerantlik barcha jabhalarda o'zini namoyon etdi va o'zining davlat, jamiyat oldidagi mavqeini mustahkamladi. Markaziy Osiyo hududida istiqbolda tarqalishi mumkin bo'lgan dinlar va ta'limotlar uchun bag'rikenglik, kelishuvchanlik hususiyatlarini yanada mustahkamladi. Davlat aholisini birdamlikda yashashga o'rgatdi.

REFERENCES

1. Amonov. A. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. X. to'plam. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, T.: 2018. – B.152
2. Ata-Mirzayev. O, Gentshke. V, Murtazayeva. R. "Международная толерантность в Узбекистане: история и современность" T.: Университет, 2004.-B.58
3. Botirov. B. "Dinshunoslik fanining metodologiyasi, yondaashuvi va uslubiyatini takomillashtirishning dolzarb masaklari". VII son. T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. - B. 227
4. Husniddinov. Z. "O'zbekistonda diniy bag'rikenglik". Monografiya. T.: "Toshkent islom universiteti nashriyot- matbaa birlashmasi, 2006. –B.8

-
5. Majitov.M. “Dinshunoslik fanining metodologiyasi, yondaashuvi va uslubiyatini takomillashtirishning dolzarb masaklari”.T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015.-B.122
 6. <https://qobus.info> "Kushon podsholigi".

ABDURAHMON JOMIY GUMANISTIK QARASHLARINING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

Lola Muzaffarovna Karimova

Buxoro muhandislik texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi globallashuv jarayonida ma'naviy tarbiyaning dolzarbligi, shuningdek yoshlar tarbiyasida Abdurahmon Jomiy qarashlarining o'rni tahlil qilingan. Tasavvuf ta'limotining muhim jihatlariga e'tibor qaratilib, mutafakkir asarlaridagi insonparvarlik g'oyasi tarixiy-falsafiy tadqiq etilgan. Muallif madaniy va tarixiy meros xususida to'xtalib, hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini, shuningdek ta'limning umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan bo'lishini ta'kidlaydi. Mutafakkir ijodiy merosidagi insonparvarlik g'oyasining yangi O'zbekiston sharoitida barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

***Kalit so'zlar.** Insonparvarlik, tasavvuf, tarbiya, altruizm, komil inson.*

РОЛЬ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

Каримова Лола Музаффаровна

Независимый исследователь

Бухарского инженерно технологического института

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется актуальность духовного воспитания в современном процессе глобализации, а также роль взглядов Абдурахмана Джамии в воспитании молодежи. Уделяется особое внимание на важных аспектах суфизма, раскрывается философская трактовка идеи гуманизма в произведениях мыслителя. Автор учитывает, что одной из актуальнейших проблем современности становится возрождение культурно-исторического наследия прошлого, воспитание должно основываться на общечеловеческих ценностях и одновременно строиться в соответствии с ценностями и нормами национальной культуры и региональными традициями. Анализируется значение гуманизма в творческом наследии мыслителя в воспитании гармонично развитого поколения в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова. Гуманизм, суфизм, воспитания, альтруизм, совершенный человек.

THE ROLE OF HUMANISTIC VIEWS OF ABDURAHMAN JAMI IN THE RAISING OF YOUNG GENERATION

Karimova Lola Muzafarovna

Independent researcher

Bukhara Engineering Technological Institute

ANNOTATION

The article analyzes the relevance of spiritual education in the modern process of globalization, as well as the role of the views of Abdurahman Jami in the education of young people. Special attention is paid to the important aspects of Sufism, the philosophical interpretation of the idea of humanism in the works of the thinker is revealed. The author takes into account that one of the most pressing problems of our time is the revival of the cultural and historical heritage of the past, education should be based on universal values and at the same time be built in accordance with the values and norms of national culture and regional traditions. The importance of humanism in the creative heritage of the thinker in the upbringing of a harmoniously developed generation in the conditions of New Uzbekistan is analyzed.

Keywords. *Humanism, Sufism, education, altruism, perfect man.*

KIRISH

Mustaqillikni qo‘lga kiritgan ilk kunlardan boshlab mamlakatimizda bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elat vakillari bir butun oiladek ahil va farovon yashab kelmoqda. Ana shunday ko‘p sonli millat va elat vakillarining birgalikda hamkor va hamjihat bo‘lib umr kechirishi natijasida ularning har biri ma‘naviy va madaniy jihatdan boyib, o‘zaro munosabatlar ta‘sirida ko‘p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda. Bu yurtimizda o‘ziga xos tarzda e‘tibor berilayotgan insonparvarlik siyosatining yuksak namunasidir. Ayni paytda turli millat va elat vakillariga nisbatan g‘amxo‘rlik qilish, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish, o‘zgalarning milliy an‘ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, ularni yanada rivojlantirish, boyitish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tadqiqot manbalarini ajdodlarimizning boy madaniy merosi, Sharq mutafakkirlari asarlari, tazkira va maqomatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: tadqiqot muammosiga doir Sharq mutafakkirlari asarlarini oʻrganish va tahlil qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan BMTning 72-sessiyasi qatnashchilariga “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish toʻgʻrisidagi taklifi uning jahon miqyosida “jaholatga barham berish, bagʻrikenglik va oʻzaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinliklarni taʼminlash, eʼtiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslikka koʻmaklashishga qaratilgan” [1] boʻlib, tasavvuf taʼlimotining eng muhim tamoyillaridan birini hayotga tatbiq etishga yoʻnaltirilgan.

Insonparvarlik tushunchasi lugʻatlarda insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida gʻamxoʻrlik qilishni ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon boʻladi. Unga koʻra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida gʻamxoʻrlik insonparvarlikning asosiy masalasidir. Insonparvarlik gʻoyalari oʻzining uzoq tarixiga ega boʻlib, odamlarning baxt-saodat va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq ogʻzaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy taʼlimotlarda oʻz aksini topib kelgan. Umuman olganda, islom dinidagi insonparvarlik insonni axloqiy jihatdan kamol toptirish lozimligini taʼkidlab, unga aniq koʻrsatmalar beradi. Koʻpgina adabiyotlarda insonparvarlik tushunchasi va uning asosiy gʻoyalari altruizm atamasi orqali ifodalanadi.

Altruizm (frans. altruisme, lot. alter - boshqadan) - axloqiy tushuncha, uning negizida boshqa kishilarga xolis xizmat qilish, ularning baxt-saodati uchun oʻz shaxsiy manfaatlarini qurbon qilish yotadi. Altruizm tushunchasi falsafaga egoizm tushunchasining ziddi sifatida fransuz faylasufi va sotsiologi O. Kont tomonidan kiritilgan.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari gʻoyalarida ham futuvvat, javonmardlik, insonparvarlik, jamiyatni insonparvarlashtirish masalasi asosiy yoʻnalish sifatida qayd etilgan. Qadimiy Xuroson va Movarounnahr shaharlarida X asrdan boshlab javonmardlik harakati va futuvvat gʻoyalari ancha keng yoyilgan. Javonmardlar muayyan qoida-talablarga rioya etar, maʼnaviy va

jismoniy yetuklikka intilib, qaerda bo‘lmasinlar va qanday amal bilan mashg‘ul bo‘lmasinlar, o‘zlarida mardlik va oliyjanoblik namunasini ko‘rsatar, zulm va haqsizlikka qarshi kurashar, xo‘rlanganlar va tahqir etilganlarni himoya qilardilar. Ular nazdida dunyo boyligi emas, balki inson qadri ustun turgan, javonmardlar oltin-kumushni nazar-pisand qilmaganlar, balki uni ma’naviy taraqqiyot uchun bir vosita deb qarashgan. Islom dinida Haqqa xizmat qilishning asosiy yo‘li sifatida amaliy, faol insonparvarlikka e’tibor qaratilgan.

Tasavvuf ta’limotida ma’naviy-axloqiy fikrlar, umuminsoniy qadriyatlar va insonparvarlik g‘oyalari keng o‘rin olgan. Tasavvuf ta’limoti insonparvarlik g‘oyalarini asosiy o‘ringa qo‘yuvchi va targ‘ib etuvchi falsafiy ta’limotlar bilan aloqadorlikda rivojlangan. Insonparvarlik tushunchasi tasavvufga oid birlamchi manbalar va asarlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchramasa-da, futuvvat, javonmardlik, saxiylik kabi turli ma’nolarda qo‘llanilgan. Futuvvat, javonmardlik g‘oyasi bugungi kun kontekstida ishlatiladigan insonparvarlik tushunchasining mazmunini to‘liq qamrab olmasa-da, o‘z davrida tasavvuf tariqatlarida mardlik, javonmardlik, saxovat, barcha insoniy fazilatlarni o‘zida mujassam etgan xos ahli (so‘fiylar)ning axloqi bo‘lgan.

Abdurahmon Jomiyning insonparvarlikka oid qarashlari mutafakkirning qator asarlarida o‘z ifodasini topgan. Allomaning “Bahoriston” asari uning boshqa asarlaridan farqli ravishda umuminsoniy aqidalar va insonparvarlik g‘oyalarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. “Bahoriston”ni Abdurahmon Jomiy Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asariga o‘xshatib juda go‘zal tarzda tartibga keltirgan. Jomiy o‘zining insonparvarlik g‘oyalarini obrazlar orqali ham, (zarur bo‘lganda) asosiy syujet chizig‘idan tashqarida qoladigan chetga chiqishlar va muayyan boblarda ham ifodalab bergan. Aniqrog‘i, shoir o‘z fikrlarini ham she’riy, ham mavhum shaklda ifodalab berishga erishgan.

Yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashda ma’naviy merosimizdagi bunyodkor g‘oyalarning o‘rni kattadir. Ayniqsa Sharq adabiyotining zabardast vakillari mavlono Abdurahmon Jomiy va hazrat Alisher Navoiyning ma’naviy merosi, undagi komil inson g‘oyasi bugungi kun tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy manbalardan biridir.

Abdurahmon Jomiyning qimmatli ma’naviy xazina bo‘lgan hikmatli fikrlari to‘plangan “Bahoriston” asaridagi g‘oyalarining ham sog‘lom avlodni tarbiyalashda o‘rni katta bo‘lib, mutafakkir tomonidan o‘z o‘g‘lining ta’lim-tarbiyasi maqsadida yozilgan bu asar butun insoniyat uchun juda keraklidir [9-10].

“Bahoriston” asarini ezgu g‘oyalari to‘plangan, hikoyat, naql, go‘zal baytlar jamlangan sakkiz jannat ravzasi bilan qiyoslash mumkin. Bu asaridagi bunyodkor g‘oyalardan biri do‘stlik, kechirimlilik, murosa va adolatdir. “Bahoriston” asarida Iskandar obrazi orqali adolatli shoh tasvirlangan. Jomiy asarda yozadiki, Iskandardan so‘rabdilar: “Nima sababdan bu davlatu saltanatni egallading va undan nima topding?” U javob berdi: “Dushmanlikni yo‘qotish, dushmanlarni do‘stga aylantirish va do‘stlikni mustahkamlash”.

Boyadat mulki Sikandar, chun vay az husni siyar,

Dushmanonro do‘st gardon, do‘stonro do‘sttar [2].

Mazmuni:

Iskandarning mulkida shunday go‘zal raftor bo‘lishi kerakki,

Unda dushmanlar bir-biriga do‘st bo‘lsinlar va do‘stlarning do‘stligi yanada mustahkamroq bo‘lsin.

Mutafakkir o‘z rashhalarining birida “Aytib edilarkim, javonmardlik ul tururkim, kishi doimo mahzun va anduhlig‘ bo‘lsa, korxonayi ilohiyda forig‘ o‘lturmoq yaxshi ermasdur. Kishikim, onda huzn va anduh bo‘lsa, ondin huzuri jam‘iyatning isi kelur. Xojagon q.s.ning nisbatlari huznu andug‘ suvratida zohir bo‘lur” [3]. Bu rashhada Abduxoliq G‘ijduvoni tomonidan asoslangan Xojagon yo‘lining namoyondalari uchun javonmardlik, ya‘ni futuvsat ahlining xususiyatlari xos bo‘lib, ular mudom xalqning og‘irini yengil qilish g‘amida, qayg‘usida bo‘lganlar. Jomiy “korxonayi ilohiy” tushunchasi bilan borliq olamini tushunib inson bu olamda yashar ekan “forig‘ o‘lturmoq” – g‘aflatda bo‘lmoq “yaxshi ermasdur” deb, “Dil ba yorlik”ni “Dast ba korlik” bilan birga uyg‘un, mutanosib, mustahkam aloqada bo‘lishi lozimligi va bu yo‘ldagi insonlar birovni og‘irini yengil qilish g‘amida yurishi kerakligini ta‘kidlagan. Bu rashha orqali ham Abdurahmon Jomiy insonlarni butun olamni keng va chuqur tafakkur etib, o‘z hayotlarining mazmun mohiyatini anglashga chaqiradi. U har bir insonni g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, hushyor va ogoh bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rnini topib butun insoniyatning baxt saodati va farovon yashashi uchun o‘z vazifasini halol bajarish bilan mashg‘ul bo‘lishiga chaqiradi.

“Bir kishi ulardan so‘radikim: “Nisbat ne tururkim, siz Hazrat tasavvufni kam aytursiz?” Aytidilar: “Bu ishkim bir – birovga bir zamon bozi erduk” [4]. “Boz” forscha so‘z bo‘lib, tasavvufda o‘z borlig‘ini mahv etuvchi, hamma narsadan kechuvchi ma‘nosini anglatadi [5]. Bu rashha orqali Abdurahmon Jomiy to‘ o‘zini to‘la mahv etib, hamma narsadan kechish darajasiga yetguncha holati boshqa bo‘lgan va tasavvuf haqida ko‘p gapira olgan. Tasavvufiy holatga kirgan Jomiy endi o‘z

holatini soʻz bilan oshkora etolmas edi. Bu koʻrsatadiki On chiz, ki ayon ast hojati bayon nes –“Ul narsakim ayondir, uni bayon etishga hojat yoʻqdur.

“Bahoriston” asaridagi bunyodkor gʻoyalardan yana biri saxiylik, ochiqkoʻngilli boʻlish va oʻzaro yordamdir. Asarning toʻrtinchi ravzasida himmat va saxovat egasi boʻlgan Hotam haqida hikoyat keltiriladi. Hotamdan soʻraydilar: “Oʻzingdan ham karamliroq, yaʼni kerakli paytda yordamga tayyor boʻlgan biron kishini uchratdingmi?” U javob berdi: “Ha koʻrdim bu yetim gʻulom edi. Uning beshta qoʻyi bor edi. Men uning mehmoni boʻlganimda men uchun barcha qoʻylarini ham soʻyib mehmon qildi”. Hotamdan bu voqeaga guvoh boʻlganidan keyin nima qilganligini soʻradilar. U uch yuz qizil tuya va besh yuz qoʻy berganini aytdi. Unda sen undan koʻra karamliroq ekansan deganlariga javoban, Hotam shunday dedi: “Hayhot, u nimasi boʻlsa hammasini berdi, men boʻlsam mendagi bor narsalardan ozgina qismini berdim xolos”. Hikoyat oxirida Abdurahmon Jomiy quyidagi qitʼani yozadi:

Chun gadoe, ki nimi non dorad,
Va tamomi dihad zi xonai xesh.
Behtar z-on buvad, ki shohi jahon,
Bidihad nime az xazonai xesh [6].

Mazmuni:

Gadoykim, uyida yarimta noni boʻlsa,
Uyidagi bor narsani gar bersa u.
Xazinasidagi yarmini bergan boʻlsa-da,
Jahon shohidan koʻra afzalroqdir u.

Abdurahmon Jomiy bu hikoyat orqali yoshlarni, va butun insoniyatni saxovatpesha, muruvvatli boʻlishga undaydi va oʻzida boʻlgan bor narsalarni oʻzgalarning baxt-saodati uchun ehson qilish karamlilik fazilati ekanligini aytadi. U ehson va saxovatning qay miqdorda ekanligi emas, balki iqtisodi ogʻir boʻlsa ham, oʻzidagi bor narsasini berishga tayyor boʻlish ezgu fazilat ekanligini uqtirmoqda.

Abdurahmon Jomiy asarlarining gʻoyaviy mazmunini tashkil etgan Naqshbandiya taʼlimotining asoschisi Bahouddin Naqshband hayotiga oid manbalarning guvohlik berishicha, bu ulugʻ zot hayotida nimagaki erishgan boʻlsalar kuchli himmat asosida erishganliklarini taʼkidlagan va bu mazmunda shunday baytni keltirgan:

Mardoni rahash rasidaan az himmat,
Z-on dar rahi oʻ nishoni bepaydo nest [7].

Mazmuni:

Himmat bilan yetdilar bu yo‘lga mardlar,

Himmat bilan topursan uning nishoni.

Ma’lum bo‘ladiki, kuchli himmat va mukammal harakat Bahouddin Naqshbanddek tabarruk insonni kamolotga erishish mezoni bo‘lgan ekan yoshlarimizni bu tabarruk zotlar kabi mehnatsevar, doimo harakatda bo‘lish ruhida tarbiyalash Jomiy hikoyatining asl g‘oyasidir [11-13].

“Bahoriston” asarini barhayot bahorga qiyoslab, A’loxon Afsahzod uni yoshlar tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan [8].

XULOSA

Jomiyning “Bahoriston” asarida bayon etilgan insonparvarlik g‘oyalari boshqa asarlarda ham aks etgan va ular o‘zaro bog‘langan.

Umumiy xulosa qilib aytganimizda “Bahoriston” asaridagi insonparvarlik, do‘stlik, ahillik, adolat, tinchliksevarlik, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, kuchli himmat, rostlik va halollik kabi bunyodkor g‘oyalar yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda juda katta ahamiyatga egadir.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. / Xalq so‘zi, -Toshkent: 2017. 20 sentabr.
2. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - Dushanbe: “Adib”, 1987. B.160.
3. Faxruddin Ali Safiy.Rashahot: (Obi hayot tomchilari): Tarixiy-ma’rifiy asar (Tabdil va so‘ngso‘z muallifi: M.Hasaniy, lug‘at, so‘ngso‘z muallifi va mas’ul muharrir: B.Umrzoq; O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2003. - B. 205.
4. Faxruddin Ali Safiy.Rashahot: (Obi hayot tomchilari): Tarixiy-ma’rifiy asar (Tabdil va so‘ngso‘z muallifi: M.Hasaniy, lug‘at, so‘ngso‘z muallifi va mas’ul muharrir: B.Umrzoq; O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. - T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2003. 206 bet
5. Navoiy asarlar lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. 124-bet.
6. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. -Dushanbe: “Adib”, 1987y. B.67.
7. Abulmuhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjima, so‘zboshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. B.49.

8. А'лохон Afsahzod. Bahoristoni bexazon /Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. - Dushanbe: "Adib", 1987y.B. 34.
9. Кенжаева, Х. П., & Каримова, Л. М. (2019). ТАРИХИЙ ХОТИРА–ХАЛҚ МАЪНАВИЯТИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, 1(3).
10. Кенжаева, Х. (2021). Миллий маънавий меросимизда таълим-тарбия масалалари. *Общество и инновации*, 2(6/S), 18-24.
11. Хусейнова, А. А. (2017). ФИЛОСОФСКОЕ МИРОПОНИМАНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ. *Ученый XXI века*, 88.
12. Хусейнова, А. А. (2016). СРЕДНЕАЗИАТСКИЙ РЕНЕССАНС И АБДУРАХМАН ДЖАМИ. *ББК 65.34. 13 (2Рос–4Кем)*, 355.
13. Хусейнова, А. А. (2017). О СУЩНОСТИ ФИЛОСОФСКОГО МИРОПОНИМАНИЯ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ. In *Инновации в технологиях и образовании* (pp. 74-78).

THE STATE OF SAHIBQIRAN AMIR TEMUR PHILOSOPHICAL AND ETHICAL ISSUES IN MANAGEMENT

Mamasaliyev Mirzoulug' Mirsaidovich

Karshi engineering - economics institute (Uzbekistan)

Senior Lecturer, Department of Social Sciences

ABSTRACT

This scientific article is dedicated to revealing the philosophical and moral foundations of the great state created by our great-grandfather Amir Temur. It focuses on identifying and analyzing the multifaceted functional mechanisms, methods and tools of public administration established by Amir Temur, and generalizing the lessons and experiences to be learned from it. The main purpose is to reveal the essence of the ethical criteria in the management of society at that time and their political aspects, content, procedures for implementation, and the intended purpose and results.

Key words: *Sahibqiran, State, Administration, Morality, Politics, Ruler, Sultanate, Adolatpesha, Adolat, Pir, Ma'rifatparvar*

АННОТАЦИЯ

Эта научная статья посвящена раскрытию философских и нравственных основ великого государства, созданного нашим прадедом Амиром Темуром. Он фокусируется на выявлении и анализе многогранных функциональных механизмов, методов и инструментов государственного управления, созданных Амиром Темуром, и обобщении уроков и опыта, которые можно извлечь из этого. Основная цель - раскрыть сущность этических критериев в управлении обществом в то время и их политические аспекты, содержание, процедуры реализации, а также предполагаемую цель и результаты.

Ключевые слова: *Сахибкиран, государство, администрация, нравственность, политика, правитель, султанат, Адолатпеша, Адолат, Пир, Марифатпарвар.*

INTRODUCTION

The morality of the ruler has played an important role in the history of states and its prospects. The prosperity and well-being of the nation is ensured by how wise, prudent and just he is. Thus almost all the thinkers who lived and worked in Movarounnahr left a great legacy on the moral qualities of the ruler in public administration.

It is well known that any ruler who has a kingdom, in order to preserve his kingdom, first of all develops various measures of state policy at the level of his spiritual potential. Thus, the ruler tried to pursue the same policy as he had been brought up, and at the same time to establish a government inclined to this morality. An important aspect of the issue for us is that, despite the existence of theoretical and practical foundations of public administration ethics, in history it has been a much more difficult task to achieve.

LITERATURE REVIEW

The political essence of such processes is that if the morality of the ruler is weak, then no action has been taken to promote such a policy or to make a decision in practice. Because immoral politics takes root quickly in the kingdom and has many interested, benevolent and enterprising people. And such nobles have provided the "prospect" of the kingdom. If the ruler is a supporter of justice and goodness, it is necessary to take great will and political measures to raise such morality at the level of public policy and to integrate it into the way of life of society. The nobles of the kingdom were also chosen with these qualities.

The essence of this law is explained in detail in the work of our ancestor Alisher Navoi "Mahbub ul-qulub". Including, A. Navoi describes the philosophical laws of existing relationships as follows: "Whoever is a servant and dependent on the king, his deeds and attitude will be similar to those of the king. If the king is just, his people will have works of justice. If the king's custom is to oppress the people, his people also live with the idea of oppression. If the king is a believer, the motto of his people will be Islam and religion"⁸⁴ It can be concluded that the heart of a person who is a servant and dependent on the king is also dependent and mute. A king who loves addiction and muteness will subject the whole society to this slavery. The entrenched nature of such relations will disrupt the development of any state.

The activities of Amir Temur and the political principles he established in public administration testify to the fact that they are based on high moral principles. Ibn Arabshah's views on this subject are noteworthy as an important source. He says: "The pattern of Timur's seal is "true", which means" if you are truthful, you will be saved. " The mark on his horses, the mark on his tangayu-tillo, also consisted of three such rings. Often in his meeting there would be no obscene words, no bloodshed, no captivity, no nahbu-robbery, and no haram insults. Timur was fearless, courageous, obedient to brave people, and liked brave people, brave and courageous. With their

⁸⁴ Navoi Alisher. "Mahbub Ul-Qulub". T. : "Literature and art named after Ghafur Ghulam" nash.1983. Page 22

help, they conquered the locks of terrible places, preyed on the lions of the people, and with their blows destroyed the peaks of the high mountains. He was a man of sound judgment, a man of great intelligence, a man of unparalleled happiness, a man of greatness, a man of firm conviction, and a man of truth in the face of adversity.⁸⁵ If we systematize what Ibn Arabshah says, we can see that Sahibkiran has all the moral qualities that are characteristic of a ruler.

DISCUSSION

Sahibkiran develops his moral knowledge in matters of public administration as a person who is fit to create a number of theoretical foundations for practical decision-making. In this regard, he says: "... I have ascended the throne with complete independence because I have taken twelve things as my motto. I have learned from my own experience that if a king does not have these twelve things, he will be deprived of the kingdom"⁸⁶

So, what was the essence of the moral principles that Sahibkiran followed? What were the characteristics of the moral actions aimed at governing the kingdom and the means to achieve it ?! Or how did he combine the forces influencing the development of the state ?!

In this regard, Amir Temur creates the Nizami order of the existing moral values in public administration. In particular, in order to keep the kingdom at his disposal, the king must have his own word, know his own business, be just in everything, have fair and just ministers, so that if the king seems to be oppressive, a just minister will sort it out. He sees moral relations as a deterrent to discord, strife, lies, slander, and gossip in the kingdom. That is, just as the human psyche is purified in the pursuit of truth, so moral morality is taken into account in keeping the integrity of the state as healthy and vigorous.

In his view, as long as the ruler ignores these teachings, the number of those acting on his behalf in the administration of the kingdom will increase. Therefore, it is important that each official clearly defines his / her competence and constantly monitors that their activities do not exceed this scope. In this regard, there is a lot of historical information that Sahibkiran was a role model in his policy. In particular, if Amir Temur made a decision, even those closest to him were well aware that his attempts to influence or dissuade him were inappropriate. Such an attitude led to the firm introduction of a single order throughout the kingdom, while at the same time the confident submission of citizens and nobles to the existing morality. If the

⁸⁵ Ibn Arabshoh. History of Amir Temur. T.: "Labor", 1992, 65 pages.

⁸⁶ Rules of Amir Temur. T. Ghafur Ghulam, 1996, pages 85-86

decisions made in the state change frequently without being implemented, then discipline and order will be violated, governance will be out of order.

It is obvious that the moral principle followed by Sahibkiran is based on the laws of real social relations. He was well aware of the socio-psychological laws between people, as well as the relationships that could result from them, and developed the right measures accordingly. Such conclusions have led to the organization and effective management of power and its management, the coordination of the overt and covert aspirations of officials to power in the interests of the state, and the orientation of their morals towards public policy.

The justice of the ruler in the person of Amir Timur led to the gathering around him honest, religious, just, strong-willed, brave, courageous officials, and as a result, the strengthening of the state. In particular, it can be observed that the participation of enlightened people in the government led to the formation of systemic features directly to the lower levels of public policy, the transformation of public policy and social processes into the will of society as a whole, and then into practice. In fact, the organization of governance on the basis of ethical rules is a natural need and serves to ensure the development of human society. The problem is that these laws are understood at the level of public policy and the political-organizational bolts are formed in accordance with it.

The fairness of the ruler and the election of the nobles in this moral upbringing led to the fact that the orders and prohibitions introduced in the country were based on the interests of the citizen. At the same time, justice strengthens the power of the king's judgment and limits the possibility of the interference of hostile forces in it. If judgment is based solely on will, not morality, the possibility of the influence of the opposing categories increases. Thus, morality was a factor that ensured the balance of power, forcing people of different interests to unite around a political government based on Sharia.

RESULTS

Such a social ratio was well understood by Sahibkiran and he was firm in his decisions to maintain the balance of his policy. He personally supervised its implementation, linking its implementation with the requirements of religion. He was unequivocal and firm in his decision, and was ruthless towards those who hindered him. In fact, such cruelty was not hindered either because it was based on justice in execution. For we know from history that only cruelty itself, no matter how powerful the ruler, leads to protest in the kingdom, and then to rebellion. Weber, for example, described the situation as follows: "Timur was terrified by his wrath, yet he was

1. Matveev LP, Generalizing characteristics of the content, means and methods of training an athlete: Textbook. - M.: RIO RGAFK, 1995. - 49 p.
2. Polishkis M.S., Petko S.N., Belyakov A.K. Methodological aspects of selection and classification of training exercises in mini-football: Methodical developments for coaches. - M., 1997. -- 47 p.
3. Saenko I., Tyulenkov S. Analysis of methodological approaches to planning physical activity of various orientations / Theory and practice of football. -2002, -No. 1 -C, 8-11,
4. Klimenko A.P. Research of competitive loads in mini-football based on heart rate dynamics // Physical culture, sport and health of the population of the Far East: Materials of the 5th interregional, scientific. conf. - Khabarovsk, 1997.-P.46-47.
5. Sports Terminology: Explanatory Dictionary of Sports Terms/ Comp. F.P. Suslov, D.A. Tyshler. - M. : SportAkademPress, 2001.-480 s,
6. Zemzemi Shokri B. Zh. Methods of control and improvement of the tactical preparedness of football players: Author's abstract. Dissertation Candidacy of pedagogical sciences. - M., 996, -23 p.

7. Ben Shadley A.A. The relationship of the effectiveness of protective actions the gandballists and the level of development of physical qualities: Author's abstract. Dissertation Candidacy of pedagogical sciences. -M, 1988.-20 s
8. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 204-206).
9. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In *ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 106-109).

FARG‘ONA VODIYSIDA JOYLASHGAN AXSIKENT VA MINGTEPA YODGORLIKLARINING ARXEOLOGIK O‘RGANILISHI

Turdixo‘jayeva Mahliyoxon Muqimxo‘ja qizi

TDSHU o‘qituvchi-stajyori

Tel: +998905630828

ANNOTATSIYA

Maqolada Farg‘ona vodiysida mashhur bo‘lgan Axsikent va Mingtepa arxeologik yodgorliklariining o‘rganilishi keltirilgan. Mingtepaning arxeologik jihatdan o‘rganganilishi hamda Farg‘ona vodiysi arxeologik muammolari yechimiga oid turli arxeolog va tarixchilarning qo‘shgan xissasi ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada ushbu ikki yodgorlikning arxeologik tadqiqotlar tarixshunosligida alohida o‘ringa ega ekanligi xususida fikrlar bildirilib, tahlil etilgan. Ushbu yodgorliklarni o‘rgangan farg‘onashunos arxeologlarning tadqiqotlaridagi ma‘lumotlar o‘zaro qiyosiy-tahlil qilingan hamda tarixshunoslik xulosalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, arxeologiya, lokalizatsiya, Mingtepa, Axsikent, Axsikat, Farg‘ona vodiysi Afrosiyobi, Qadimgi Ershi, xitoy manbalari, Anorboyev, Yahyo G‘ulomov, Matboboyev.*

ABSTRACT

The article explores the famous Akhsikent and Mingtepa archeological monuments in the Fergana Valley. The scientific analysis of the archeological study of Mingtepa and the contribution of various archaeologists and historians to the solution of the archeological problems of the Fergana Valley will be analyzed. The article also discusses the importance of these two monuments in the history of archeological research. The data from the research of Fergana archaeologists who studied these monuments were compared and historical conclusions were made.

Keywords: *Fergana Valley, archeology, localization, Mingtepa, Akhsikent, Akhsikat, Fergana Valley Afrosiyobi, Ancient Ershi, Chinese sources, Anorbaev, Yahyo Gulyamov, Matboboyev.*

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются известные археологические памятники Ахсикент и Мингтепа в Ферганской долине. Будет проанализирован научный анализ археологического изучения Мингтепа и вклад различных археологов и историков в решение археологических проблем Ферганской долины. В статье также обсуждается значение этих двух памятников в истории

археологических исследований. Были сопоставлены данные исследований ферганских археологов, изучавших эти памятники, и сделаны исторические выводы.

Ключевые слова: Ферганская долина, археология, локализация, Мингтепа, Ахсикент, Ахсикат, Ферганская долина Афросиоби, Древний Эрши, китайские источники, Анорбаев, Яхё Гулямов, Матбобоев.

KIRISH

Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida Sirdaryo bo‘yida joylashgan Axsikent Farg‘ona vodiysida joylashgan eng mashhur yodgorliklardan biri hisoblanadi. “Axsikat Movarounnahrda Farg‘ona viloyatida bir shaharning nomidir. Shosh daryosining labida tekis yerda va daryoning shimol tarafida voqe bo‘lib, shahar ila tog‘ning miyonasi bir toshliq yo‘ldur. Mazkur shaharning atrofida qo‘rg‘on va bog‘otlar bo‘lib, kattaligi uch tosh masofasida ekan. Ark qo‘rg‘onidin boshqa imorat va bog‘otlar atrofini ham qo‘rg‘on devor ila ihota qilingan ekan. Ichkari qo‘rg‘onida to‘rt darvoza bor ekan”⁹⁸ Axsikent lokalizatsiyasi haqida Turkiston viloyatining gazetasi 1913-yil N52 7-iyuldagi sonidagi maqolalarning birida shunday deyiladi. Ushbu shahar mil.avv. III – II asrlarda vujudga kelgan bo‘lib, milodiy IX – X asrlarda Farg‘ona vodiysining markazi bo‘lganligi haqida ma’lumotlar mavjud⁹⁹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Farg‘onashunos arxeolog A.Anorboyevning Ershi shahri Axsikent bo‘lishi kerak deb chiqargan taxmini diqqatga sazovor. Uning aytishicha, Axsikentdan topilgan yodgorliklar xitoy manbasidagi Ershi shahri ta’rifiga to‘la mos keladi¹⁰⁰.

Axsikent shahrini arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlanadi. Yodgorlikda arxeologik qidiruv ishlarini rus arxeologlari 1885-yil N.I.Veselovskiy, 1914-yilda I.A.Kastanyelar olib borganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asr 30-40-yillarida E.A.Masson va A.N.Bernshtamlar ham Axsikentda qazilma ishlarini olib bordilar. Rus sharqshunos va arxeolog olimlaridan, akademiklar A.Midendorf va V.Bartold, tadqiqotchi-sharqshunoslar I.V.Nalivkin, N.P.Ostroumov, N.Pavlov va boshqalar ham arxeologik va manbaviy asoslar asosida o‘rganganlar. Shundan keyin 1939-yilda Katta Farg‘ona kanali qurilishi davrida professor M. Ye.

⁹⁸ Т. Қозоқов А.Воҳидов .Ибрат нигоҳидаги Ахсикент.Тошкент-2018. Б.20-21

⁹⁹ А. Н. Бернштам. Историко-археологические очерки центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Москва 1952 С.200

¹⁰⁰ Қўлдашев Ш. Қадимги Фарғона (Дайюан) давлатининг пойтахти ҳақида // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. Самарқанд, 2010. Б.99

Masson bu yerda arxeologik razvedka ishlari bilan shug'ullanib, 2 ming yil muqaddam bu yerda ulkan shahar bo'lganligi haqidagi xulosani berdi. Axsikentning tarixiy arxeologik obyekt ekanligi xususida qiziqarli ma'lumotlar 1946–1948 yillarda A.N.Bernshtam rahbarligida Pomir-Oloy arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan qazuv ishlari asosida erishilgan. A.N.Bernshtam tadqiqot natijalariga asoslanib shaharda ilk hayot Kushon saltanati davrida boshlangan, biroq, Axsikentning gullab-yashnashi Turk xoqonligi davriga to'g'ri kelgan va keyingi davrlarda (IX–X asrlar) Farg'onaning yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan degan fikrni bildirgan edi va Axsikent yodgorligining loyihasini chizgan, ayrim joylarda qazilma ishlarini o'tkazgan¹⁰¹. Axsikentda stasionar (bir manzilgohda turgan holda) ravishda arxeologik tadqiqotlar o'tkazish asosan 1960-yil 14-maydan 20-iyunigacha O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi Yahyo G'ulomov boshchiligidagi maxsus otryad mutaxassislari I. Ahrorov, S. Rahimov, Y. Qosimov, A. Anorboyev, Papa Xristo, G'ulom Mirzayev, Qahramon Asqarov, Farxod Maqsudov, Alijon Vohidov va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan esa 1967-1969, 1971-1977, 1980-1990 va undan keyingi yillarda ham bu yerda ilmiy izlanishlar o'tkazilib, muhim ma'lumotlar, ashyoviy dalillar to'planganligi tarixdan ma'lum.

2019-yil sentabr oyida A.Anarbayev rahbarligidagi "Axsikent kompleks ekspeditsiyasi" arxeologlarining u yerda olib borayotgan arxeologik qazuv tadqiqotlari davomida Qoraxoniylar davri (XI asr -XIII asr boshlari) ga oid qatlamlardan devoriy surat qoldiqlari va ganchdan tayyorlangan o'yma naqsh qismlari topildi. Mazkur kashfiyot Farg'ona vodiysi tarixidagi uzoq yillardan buyon baxslarga sabab bo'lib kelayotgan bir qancha savollarga javob berdi. Zero, shu bugungi kungacha Farg'ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar davomida devoriy surat qoldiqlari qayd etilmaganligini tadqiqotchilar aytib o'tadilar. Ushbu topilma Farg'ona vodiysida devoriy san'at an'anasining rivojlanganligini ko'rsatadi Bugungi kunda Qoraxoniylar davriga oid devoriy suratlar Afrosiyob yodgorligi arkida joylashgan saroy qoldiqlarini o'rganish jarayonida topilgan bo'lib, ulardan shu davr kishilarining turmush tarzi, dunyo qarashlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Farg'ona vodiysi Afrosiyobi"deya ta'riflangan mazkur arxeologik yodgorlik XIX asr oxirilaridan boshlab tadqiq etila boshlagan va uning o'rganilishida rus farg'onashunoslarining hissasi sezilari darajada baholanishi mumkin.

¹⁰¹ А.Н.Бернштам. Историко-археологические очерки центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Москва 1952 С.244-245

1939-yildan buyon arxeolog tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan Mingtepa arxeologik yodgorligi Andijon viloyatining sharqiy qismida, hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashganligi barchamizga ma'lum. Shu vaqtgacha bir qancha tarixchilar, arxeologlar tomonidan ushbu yodgorlik o'rganilib kelinmoqda.

Uning aynan arxeologik o'rganilishida avval Masson¹⁰² so'ngra A.N.Bernshtam¹⁰³, Yu.A.Zadneprovs¹⁰⁴, qisman V.I.Kozenkova¹⁰⁵, B.X.Matboboyev¹⁰⁶, B.M.Abdullayevlarni alohida e'tirof etish mumkin¹⁰⁷. Bundan tashqari ushbu yodgorlikning arxeologik o'rganilishida o'zbek-xitoy ekspeditsiyasining xizmati beqiyos. "Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi "Mingtepa" arxeologik merosi obyektini muxofaza qilish, tadqiq etish va undan oqilona foydalanish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori (29 dekabr 2018 yil, №1059) Mingtepani o'rganish muhim ekanligini anglatadi.

Yodgorlikga ilk bor 1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishi munosabati bilan professor M. E. Masson rahbarligida tuzilgan arxeologik ekspeditsiya jalb qilgan edi. 1946-yilda Leningradlik professor A.N Bernshtam Mingtepa bilan jiddiy shug'ullanishga kirishdi. 1946-1947- yillarda Farg'ona shahrini sinchkovlik bilan o'rganish paytida A. N. Bernshtam tomonidan Farg'onadagi qadimgi Davan davlatining poytaxti - Ershi shahri aniqlangan. Natanovich boshliq bir guruh olimlar Ershi shahrining o'rnini Andijon viloyatiga qarashli Marhamat shahri yonida joylashgan Mingtepa o'rnini degan xulosaga kelganlar¹⁰⁸.

Tarix fanlari doktori Y. A. Zadneprovskiy ham Mingtepa arxeologiyasi bo'yicha o'z xulosalarini bayon qilgan tadqiqotchidir. Uning ta'kidlashicha, bu yodgorlik Bernshtam ekspeditsiya qatnashchilarida butun vodiy bo'yicha maydon jihatidan eng katta qadimiy inshoot sifatida katta taassurot qoldirgan edi. 1973-yilda Yuriy

¹⁰² 1939-yilda hamda 1946-yilda mukammalroq o'rgangan.

¹⁰³ Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. М.; Л., 1952

¹⁰⁴ Заднепровский Ю. А., Матбабаев Б. Х. Городище Мархамат (некоторые итоги изучения) // История материальной культуры Узбекистана. Таш., 1991. Вып. 25.

¹⁰⁵ Козенкова В. И. Археологические работы в Андижанской области в 1956 г. // Краткие сообщения Института истории материальной культуры. 1959. Вып. 76. С.60

¹⁰⁶ Матбобоев Б. Мингтепа: археологик казишмалар ва уларнинг тахлили. Водийнома А 2019 №3(14) Б.57.; Матбабаев Б.Х. и др. Отчет Узбекско-Китайской совместной археологической экспедиции о проделанных работах на городище Мингтепа в 2012 году. - Самарканд, 2013; Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андижан (историко-археологическое исследование). Т-2011; Матбобоев Б.Х., Умматов А. Мингтепадан топилган қадимий ноёб тасвирий санъат асари // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. Илмий мақолалар тўплами. Т-2019.

¹⁰⁷ Торгоев А.И. Мархамат // Большая российская энциклопедия. М-2004.

¹⁰⁸ Аюбов.А.Р. Вопросы топонимики и локализации столичных городов Ферганы в китайских источниках и в современной историографии// Вестник тгупбп. Хужанд-2019.№1.С.8

Zadneprovskiy Mingtepada katta bo‘lmagan nazorat qazish ishlarini olib borgan¹⁰⁹. Ular stratigrafiya va sopol majmuasi tarkibi masalalarini aniqlashtirishga qaratilgan edi va muhim materiallar to‘planganligi bilan ahamiyatli. Ushbu qazish ishi ikki nuqtada olib borildi. Qazish maydoni 40 kv.m shaharning sharqiy qismida o‘tkazildi. Zadneprovskiyning Matboboyev bilan birgalikda 1991-yil IMKO‘ jurnalida “Городище Мархамат”¹¹⁰ nomli chop etilgan ilmiy maqolasi Mingtepa arxeologiyasining o‘rganishda muhim manba bo‘lib hizmat qiladi. Unda Mingtepa hududida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar hamda qazish ishlari tahlili keltirilgan bo‘lib, 1950, 1987-yillar arxeologik o‘rganilishlar va ularning natijalari ushbu maqoladan o‘rin olgan. Stratigrafik kuzatishlar va kulolchilik tahlillari natijalari maqolada yoritilgan.

B.Matboboyev Vodiynoma jurnalining 2019-yil 3-sonida “Mingtepa: arxeologik qazishmalar va ularning tahlili”ga bag‘ishlangan maqolasida Mingtepadagi arxeologik qazish ishlari va arxeologik tekshirishlarning tahlili hamda natijalariga alohida to‘xtalib o‘tadi.¹¹¹ Muallif Mingtepadagi paxsa devor Farg‘ona vodiysidagi ilk antik davrda qurilgan devor ekanligini keltiradi.

Muallifning “Mingtepa – qadimgi Farg‘ona poytaxti” nomli maqolasida Xitoy manbalari xabar bergan Ershi “o‘rta shahri” qoldiqlari faqat Mingtepada saqlanganligi (maydoni 40 gektardan ziyod) va “o‘rta shahar” ikki qator kuchli mudofaa devorlari bilan o‘ralganligi, ular arxeologik jihatdan qayd etilganligini yozadi. 2011-yili O‘zbek va Xitoy fanlar akademiyalari qadimiy Mingtepani o‘rganish bo‘yicha besh yillik arxeologik ekspeditsiya tashkil etish uchun hamkorlik bitimini imzoladilar. 2012-yildan buyon ikki mamlakat olimlarining hamkorligi davom etib kelmoqda. Mingtepa miloddan avval VI-V asrlarda Farg‘ona vodiysi xududidagi Dovon (Davan) mamlakatining poytaxti Ershining keyinchalik nomlanishi ekanligini ushbu ekspeditsiya keng e‘tirof etganligini bilamiz. Ular 2000 yildan ziyod vaqt avval Mingtepa Farg‘ona vodiysidagi eng yirik to‘laqonli qasr-shahar bo‘lganligini isbotladilar.

Ushbu muammo masalasida qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasida ham tadqiqotlar olib borilgan. Ular aynan Mingtepagaga bag‘ishlanmagan bo‘lsada, Qadimgi Dovon poytaxti masalalarini yoritishda Qadimgi Ershi masalasida bunga to‘xtalganlar. Masalan Kadicha Toshboyeva 2013-yil chop etilgan

¹⁰⁹ Заднепровский Ю. А. Дружинина Е. В. Работы Ферганской экспедиции //Археологические открытия 1973 г. М.-1974.С.480.

¹¹⁰ Заднепровский Ю.А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат (некоторые итоги изучения) // ИМКУ. Вып. 25.Т-1991

¹¹¹ Матбобоев Б. Мингтепа: археологик қазिशмалар ва уларнинг таҳлили. Водийнома А-2019.№3 Б.57.

“О столице Давани – первого государственного объединения на территории южного Кыргызстана”¹¹² nomli katta bir maqolasida N.G. Gorbunova, Yu.A.Zadneprovskiy, A.N.Bernshtam, L.A. Borovkova, B. Matbabaev, A.Anorboyev, A.Xo‘jayevlarning Ershi hozirgi qaysi shaharga to‘g‘ri kelishi masalasidagi fikrlarini keltiradi va unga o‘z munosabatini bildiradi. Toshboyeva Xo‘jayevning Ershi Dovonning 70 shaharlaridan biri, oddiy shahar ekanligi poytaxt bo‘lishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi fikrini tanqid qiladi. Muallif aytishicha Ershi poytaxt maqomidagi shahar bo‘lmaganida xitoy yilnomalarida bu qadar ko‘p tilga olinmagan va bu yerga yurish qilish istagi Xitoyda ham bo‘lmas edi. Bizningcha ham Ershi oddiy shahar bo‘lmagan. Chunki xitoy manbalarida Ershida oqsoqollar kengashi bo‘lganligi aniq aytiladi. Oqsoqollar kengashi esa albatta shaharda bo‘lgan. Tadqiqotchi Zadneprovskiy, Bernshtam, Matboboyevlar Qadimgi Ershu bu hozirgi Marhamat ya‘ni Mingtepa ekanligini bildirishganini ham o‘z maqolasida keltirib o‘tadi. Ushbu masalada tojikistonlik tadqiqotchilarni ham aytib o‘tishimiz mumkin. Masalan, Ayubov Abdusalom Raufovichning “Вопросы топонимики и локализации столичных городов Ферганы в китайских источниках и в современной историографии”¹¹³ nomli ilmiy maqolasida aynan Qadimgi Ershi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada asosan Farg‘onaning qadimgi poytaxt shaharlari lokalizatsiyasi va toponimikasi tahlil etilgan bo‘lib, unga ko‘ra Ershi poytaxt shahri Kosonda joylashgan degan farazlar bor ammo muallif ham xitoy manbalaridagi ma‘lumotlarga tayanib Ershi bu Marhamatga to‘g‘ri kelishini xulosa qilgan. Ayubov tadqiqotida Barovkovaning Ershi hozirgi Qo‘qon hududiga to‘g‘ri kelishi haqidagi farazlarini Bichurin xatolari bilan bog‘laydi. Ushbu masalani tahlil etishda Ayubov Zadneprovskiy, Bernshtam, Matboboyev, Anorboyev, Xo‘jayev kabilarning ishlaridan asosiy manba sifatida foydalangan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Mingtepaning arxeologik o‘rganilishida asosan rus farg‘onashunoslarining o‘rni asosiy ekanligini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek-xitoy ekspeditsiyasining hamkorlikdagi natijalari esa butun dunyoga e‘lon qilinmoqda. Aynan arxeologik mavzudagi ishlarni jamlovchi “O‘zbekiston arxeologiyasi” jurnalidagi ilmiy maqolalarga yuzlanganimizda nafaqat Mingtepa balki Farg‘ona arxeologiyasi bo‘yicha nashr etilgan tadqiqotlarni kam ekanligini

¹¹² Ташбаева К. К проблеме локализации городов государства Давань // Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии. - Самарканд-Бишкек, 2005. – С.97; Ташбаева К. О столице Давани – первого государственного объединения на территории южного Кыргызстана//

¹¹³ Аюбов.А.Р. Вопросы топонимики и локализации столичных городов Ферганы в китайских источниках и в современной историографии// ВЕСТНИК ТГУПБП. Хужанд-2019.№1.С.8

ko'rishimiz mumkin. Tarixshunoslik xulosasini berar ekanmiz, Mingtepa yodgorligi arxeologik tadqiqotlar tarixshunosligi mavzusida bugungi kunda arxeologiya tarixshunosligi yo'nalishida muhim bo'lib turgan mavzular qatorida hisoblanadi. Davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalar miqdori kamligicha qolmoqda. Mingtepamimg o'rganilishi mavzusida esa umumiy ishlardan boshqa alohida tadqiqotni uchratmadik. Ushbu mavzuning o'rganilishi esa nafaqat tarix balki arxeologiya rivoji uchun ham hizmat qiladi.

REFERENCES

1. Заднепровский Ю. А., Матбабаев Б. Х. Городище Мархамат (некоторые итоги изучения) // История материальной культуры Узбекистана. Таш., 1991. Вып. 25.
2. Козенкова В. И. Археологические работы в Андижанской области в 1956 г. // Краткие сообщения Института истории материальной культуры. 1959. Вып. 76.С.60
3. Матбобоев Б. Мингтепа: археологик қазишмалар ва уларнинг таҳлили. Водийнома А 2019 №3(14) Б.57.; Матбабаев Б.Х. и др. Отчет Узбекско-Китайской совместной археологической экспедиции о проделанных работах на городище Мингтепа в 2012 году. - Самарканд, 2013;
4. Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андижан (историко-археологическое исследование). Т-2011;
5. Матбобоев Б.Х., Умматов А. Мингтепадан топилган қадимий ноёб тасвирий санъат асари // Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар. Илмий мақолалар тўплами. Т-2019.
6. Торгоев А.И. Мархамат // Большая российская энциклопедия. М-2004.
7. Аюбов.А.Р. Вопросы топонимики и локализации столичных городов Ферганы в китайских источниках и в современной историографии// ВЕСТНИК ТГУПБП. Хужанд-2019.№1.С.8

MULLO AHMAD VA UNING “TAHRIRU SANBAT” ASARI TOSHBOSMA NUSXALARI

Atoyev Muhiddin Muxtorovich,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistri,

muhiddin.atoyev@mail.ru

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqola o'rta asrlarda yashab ijod qilgan, bizgacha ko'plab ilmiy asarlari yetib kelgan O'rta Osiyolik ensiklopedik olimlardan biri Shahiru-l-avhad Mulla Ahmad va u tomondan yaratilgan arab tili grammatikasiga oid eng mashhur asarlardan biri “Kofiya” asariga sharhlardan biri bo'lgan “Tahriru sanbat” asarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Mullo Ahmadning tug'ilgan joyi, nasabi va asarlari haqida, shuningdek, uning “Tahriru sanbat” asari toshbosma nusxalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: “Kofiya”, “Tahriru sanbat”, hoshiya, sharh, inventar raqam, grammatika, toshbosma nusxa, fihrist.

МУЛЛО АХМАД И ЛИТОГРАФИЧЕСКИЕ КОПИИ ЕГО ПРОИЗВЕДИЯ «ТАХРИРУ САНБАТ»

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящается изучению личности одного из средневековых ученых энциклопедистов Средней Азии который упоминается именем Шахиру-л-авхад Мулло Ахмад и изучению одному из самых знаменитых его произведений посвященному изучению грамматики арабского языка «Тахриру санбат». На статье рассматривается место рождения, род и произведения Мулло Ахмада, а также литографические копии его произведения «Тахриру санбат».

Ключевые слова: «Кофия», «Тахриру санбат», хашия (рамка), шарх (комментария), номер инвентаря, грамматика, литографическая копия, фихрист (содержание).

MULLO AHMAD AND LITHOGRAPHIC COPIES OF HIS WORK “TAHRIRU SANBAT”

ABSTRACT

This article is dedicated to research of personality and works of scholar and scientist who was well known by name Shahiru-l-avhad Mullo Ahmad and one of his

books “Tahriru sanbat” as comments to famous “Kofiya” which is dedicated to grammar of Arabic language. The article examines the place of birth, family and works of Mullo Ahmad, as well as lithographic copies of his work “Tahriru sanbat”.

Key words: “Kofiya”, “Tahriru sanbat”, hashiya (frame), sharh (comment), inventory number, grammar, lithographic copy, fihrist (content).

KIRISH

O‘tmish ma’naviy merosi yodgorliklariga qiziqish ortib borayotgan hozirgi davrda yurtimizda yashab ijod etgan olimlarning qalamiga mansub manbalarni topish, tarjima qilish, ularga oid tadqiqotlar yaratib, ularning mazmuni bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz ma’naviy-madaniy boyliklarini har tomonlama o‘rganish, ularni kelgusi avlodlarga to‘liq yetkazish va hozirgi avlodni ulardagi ijobiy an‘analar asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida IX-XII asrlarda yetishib chiqqan Sharq uyg‘onish davri olimlarining ilmiy faoliyati jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Sharq Renessansi davrida yashab ijod qilgan olimlardan biri Mullo Ahmad nomi bilan shuhrat qozongan mashhur olim Shahiru-l-avhad Mavlono Abu Nasr Ahmad ibn al-Fadl ibn Muso al-Muzakkar al-Jandiydir.

Manbalarda zikr etilishiga ko‘ra, X asrda yashagan Mullo Ahmad o‘z zamonasining zabardast olimi sifatida siyosat, fiqh, tarix, arab tili grammatikasi va boshqa sohalarga oid bir necha asarlar yaratgan. Olimning asarlari o‘rta asr mamlakatlari, shaharlari, ularning xalqlari madaniyati, turmush tarziga oid g‘oyat qimmatli, ko‘p o‘rinlarda yagona ma’lumotlari bilan boshqa shu turkum asarlardan ajralib turadi.

Mamlakatimiz kutubxonalarida saqlanayotgan va hanuzgacha to‘laligicha o‘rganilmagan boshqa ko‘plab bebaho yozma yodgorliklar qatorida Mullo Ahmadning arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Tahriru sanbat” asarini alohida zikr etish joiz. Arab tili grammatikasi rivojlanishi tarixida yaratilgan 29 ta “Kofiya”lardan birining muallifi Mullo Ahmad asar tilining murakkabligini hisobga olib, o‘z asariga sharh yozgan va uni “Tahriru sanbat” deb nomlagan. Ushbu asar arab tili grammatikasining morfologiya va sintaksisini chuqurroq o‘rganishda g‘oyat qimmatli manba bo‘lib xizmat qilgan. O‘tmish qa’rida unitilayozgan, tarix soyasida qolib ketgan ushbu durdona asarni o‘rganish va uni asliyatga mos ravishda tarjima qilish hamda o‘z o‘quvchisiga yetkazish ilm-fan oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mullo Ahmadning “Tahriru sanbat” asari oʻrta asrlarda mashhur boʻlgan boʻlsada, keyingi davrlarda ushbu asar ilmiy jamotchilik nazaridan chetda qoldi. Mazkur kitob alohida tadqiqot mavzusi sifatida oʻrganilmagan. Ammo arab tilidagi grammatik qonun qoidalar boshqa mashhur asarlar asosida oʻzbek va jahon arabshunoslari tomonidan ancha keng tadqiq etilgan. Tadqiqotga asos boʻlgan “Tahriru sanbat” asarining muallifi Mullo Ahmad Jandiy nomi ilk marotaba toʻliq holda Abdulkarim as-Samʼoniyning (1113-1167) XII asrning oʻrtalarida yaratilgan va bizgacha yetib kelgan asarlarida uchraydi. Muallifning “al-Ansob” asarida Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkar al-Jandiy nomi tilga olinadi. Muallif Ahmad al-Jandiy haqidagi dastlabki maʼlumotlar al-Busayriyning bizgacha yetib kelmagan “Nisb”¹¹⁴ (“Nasabnoma”) deb atalgan bibliografik lugʻatida kelishiga ishora qiladi. Ahmad ibn Mahmudning “Kitobi Mullazoda” asarining “Xoja Jandi maqbarasi va qabristoni haqida” deb nomlangan bobida ham, Mullo Ahmad va uning maqbarasi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Nosiriddin Hanafi al-Buxoriyning 1904-yilda yozilgan “Ziyoratchilarga tuhfa” kitobida va Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy”¹¹⁵ (1927) asarlarida ham Mullo Ahmad Jandiy toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar mavjud.

Mullo Ahmadning hayoti, ijodiy faoliyati va maqbarasi haqida Robert Almeevning tadqiqotini alohida taʼkidlash joiz¹¹⁶. Maqolada olim X asrda yashab ijod qilgani haqida maʼlumot keltiriladi.

Sadriddin Salim Buxoriy oʻzining “Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari” nomli tarixiy maʼrifiy risolasida¹¹⁷ alloma Mullo Ahmadni Hazrat Turki Jandiy nomi bilan beradi va olimning ijodiy faoliyatiga doir maʼlumotlarni berib oʻtadi.

S.Mustafoev va M.Ablayevning “Turonzamin aziz avliyolari va ulamolari tazkirasi”da¹¹⁸ ham Mullo Ahmad hayoti va ijodiy faoliyati, shuningdek, allomaning Buxorodagi ziyoratgohiga doir qisqacha maʼlumotlar berib oʻtilgan.

Maqolada sharqshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, tarjimashunoslik, tarjimalarni tadqiq etish boʻyicha ishlab chiqilgan

¹¹⁴ As-Samani. Kita-bal-Ansab (kita-ba genealogiy) / Per. na rus. yz. Sh.S. Kamaliddinova // Materialy po etnicheskoy istorii tyurkskikh narodov Tsentralnoy Azii. Tashkent: Izd. «FAN» AN Ruz, 2003. S. 69.

¹¹⁵ Ahmad ibn Mahmud. Kitobi mulla-zade / Per. na rus. yz. R.L. Gafurovoy. Tashkent: Izd. «FAN» Ruz, 1992. S. 70

¹¹⁶ Almeev R. Svyatye mesta Buxary: Tyurk-i Dzhandi (Tyurk iz Dzhanda) // <http://www.islamsng.com/uzb/culture/5345>

¹¹⁷ Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. -T.: “Navroʻz”, 2015. – 360 b.

¹¹⁸ Mustafoev S., Ablayev M. Turonzamin aziz avliyolari va ulamolari tazkirasi. -T.: “Sano-standart”, 2015. – 672 b.

va yigʻilgan boy ilmiy-nazariy tahlil, shuningdek, qiyosiy-tarixiy, chogʻishtirma metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

Bugungi kungacha etib kelgan asarlarda mashhur muhaddis, mufassir, arab tili bilimdoni va valiy Mullo Ahmad nomi Shahir ul-Avhad Mullo Ahmad, Shayx ul-Imom, Mullo Ahmad Jandiy, Xoja Jandiy, Ahmad Mullo, Turki Jandiy, Mavlono Mullo Ahmad kabi koʻrinishlarda uchraydi. Tadqiqotga asos boʻlgan “Tahriru sanbat” asarining muallifi Mullo Ahmad Jandiy nomi ilk marotaba toʻliq holda Abdulkarim as-Samʻoniyning (1113-1167) XII asrning oʻrtalarida yaratilgan va bizgacha yetib kelgan ishlarida uchraydi. Muallifning “al-Ansob” asarida Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkar al-Jandiy nomi tilga olinadi. Muallif Ahmad al-Jandiy haqidagi dastlabki maʼlumotlar al-Busayriyning bizgacha yetib kelmagan “Nisb”¹¹⁹ (“Nasabnoma”) deb atalgan bibliografik lugʻatida kelishiga ishora qiladi. Mazkur kitobda Ahmad al-Jandiy valiy zot boʻlganligi va mashhur buxorolik shayx Abu Bakr Gulobodiy¹²⁰ taʼlimini olganligi haqida maʼlumot bor. Ushbu aziz zotning nasabi haqida soʻz ketganda u Sirdaryo qirgʻoqlaridagi Buxoroning janubiy himoya devorlari yaqinida joylashgan Jand shahrida yashovchi turkiylardan ekanligi aytiladi. Ahmad Jandiy mashhur muhaddislardan boʻlib, Qurʼon mufassirlaridan tahsil olgan va oʻz zamonasining zabardast ulamolaridan biri boʻlgan. Olim arab va fors tillarida ilmiy asarlar yaratgan.

Hazratning qabrlari Buxoro shahri janubida joylashgan boʻlib, azaldan ulugʻ ziyoratgoh hisoblanadi. Mullo Ahmad ilmu holdagi yetuklik darajasi, karomat martabasi bilan ulugʻ inoyatga erishganlar. Shuning uchun ham soʻfiylikda yuqori oʻrinda boʻlib, ibrati, nafasi, holi bilan el muhabbatini topgan. Bular haqida “Nasabnoma”, “Nazmi kitobi Mullazoda”, ayniqsa, “Tuhfat uz-zoirin” kitobida yana boshqa maʼlumotlar ham berilgan¹²¹.

1420-yilda yozilgan Ahmad ibn Mahmudning “Kitobi Mullazoda” asarining “Xoja Jandi maqbarasi va qabristoni haqida” deb nomlangan bobida ham, Mullo Ahmad va uning maqbarasi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

¹¹⁹ Ас-Самани. Китабал-Ансаб (книга генеалогий) / Пер. на рус.яз. Ш.С. Камалиддинова // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. Ташкент: Изд. «ФАН» АН РУз, 2003. С. 69.

¹²⁰ Абу Бакр Гулободий тахминан 990-995 йилда вафот этган ва вафотидан сўнг Бухоронинг шаркий дарвозаларидан бири унинг шарафига Мозори Шариф деб аталган.

¹²¹ Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси/ муаллифлар: С.Мустафоев.,М. Аблаев. Т.: “Sano-standart”, 2015. – Б. 83.

Nosiriddin Hanafi al-Buxoriyning 1904-yilda yozilgan “Ziyoratchilarga tuhfa” kitobida va Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy”¹²² (1927) asarlarida ham Mullo Ahmad Jandiy to‘g‘isida qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Mullo Ahmadning hayoti ijodiy faoliyati va maqbarasi haqida Robert Almeev maqola e‘lon qilgan¹²³. Maqolada olim X asrda yashab ijod qilgani haqida ma‘lumot keltiriladi.

Hozirgacha ilmiy jamoatchilikning aksariyatiga noma‘lum bo‘lgan Mullo Ahmad ham o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan mashhur tilshunos olimlardan biri hisoblanadi.

O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo‘lyozmalari fondida olimning bir necha asarlari qo‘lyozma va toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Ulardan qo‘lyozma asarlar:

10532 inventar raqamli, Muhammad ibn Nazr bin Mullo Muhammad 1741-yilda ko‘chirgan “بر حاشيه قطع”¹²⁴ asari;

3294 inventar raqamli arab tilida yozilgan va 1571-yilda ko‘chirilgan “شرح اداب العضية”¹²⁵ asari;

10396 inventar raqamli “بر حاشيه قطبي” asari va boshqalar.

Olim arab tili grammatikasiga oid asarlar ham yaratgan. Shulardan biri Mavlono Shahiru-l-Avhad Mullo Ahmadning arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan “Tahriru sanbat” asaridir. Ma‘lumki, arab tili grammatikasi rivojlanishi tarixida 29 ta “Kofiya” asari yaratilgan bo‘lib, ushbu asarlar arab tilini o‘rganishda birlamchi manbalardan hisoblangan. Sharqshunos olim Robert Almeyevning ta‘kidlashicha, Mullo Ahmad ham birinchilar qatorida arab tili grammatikasiga oid eng mukammal “Kofiya” asariga tartib bergan. Keyinchalik olim asar tilining ancha murakkabligi sababli o‘z asariga sharh yozib, uni “Tahriru sanbat” deb atagan¹²⁶.

“Tahriru sanbat” asari arab tilida yozilgan bo‘lib, O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo‘lyozmalari fondida asarning bir nechta toshbosma nusxalari saqlanadi va ular quyidagilardir:

1. 3626 inventar raqamli toshbosma nusxa¹²⁷. Bu toshbosma 1911-yilda Lohurda nashr etilgan bo‘lib, noshiri shayx Hamr Bashrdir. Mazkur manba 2 qismdan iborat bo‘lib, 1-qism1- 214 sahifalarni, 2-qism esa 215- 319 sahifalarni o‘z ichiga olgan.

¹²² Ахмад ибн Махмуд. Китоби мулла-заде / Пер. на рус.яз. Р.Л. Гафуровой. Ташкент: Изд. «ФАН» РУз, 1992. С. 70

¹²³ <http://www.islamsng.com/uzb/culture/5345>

¹²⁴ 1741: ملا احمد, بر حاشيه قطع, 10532

¹²⁵ 3294: ملا احمد, شرح اداب العضية, 1571

¹²⁶ Альмеев Р. Святые места Бухары: Турк-иДжанди (Тюрк из Джанда) //www.islamsng.com/uzb/culture/5345

¹²⁷ 3626: ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, لاهور 1911, ناشر شيخ الهمر بشر, 320 ص

Kitobning matn qismida Mullo Ahmadning “Tahriru sanbat” asari, hoshiyada esa Muhammad Shu’aybning “Tuhfatu-l- xodimiya” asari berilgan.

Toshbosmada har bir mavzu alohida sarlavha bilan ajratilgan va asosiy matn ramkasi tashqarisida har bir mavzu nomi yozilgan. Asar an’anaga ko‘ra basmala, hamd va na’t bilan boshlanib, oxiri 320-sahifada yana hamd bilan yakunlangan. Asarning harflar bo‘limi 294-320-sahifalarni o‘z ichiga oladi.

Asarning hamd qismi shunday berilgan:

"الحمد لله الذى شرح صدورنا بوسيلة نبي الرشاد و زين اعمالنا بامثال الاوامر و النواهر"

Kitob so‘ngida quyidagi yozuv bor:

الفا تقول في اضربن اضربا كما تقول في ضربا ضربا (ط) تمت

Mazkur toshbosmada mavzular fihristi ham keltiriladi.

2. 6649 inventar raqami ostida saqlanayotgan toshbosmada¹²⁸ fihrist mavjud emas. Asarning 336 sahifasi saqlangan, oxirgi qismlari tushgan. 1-sahifadan 286-sahifagacha “Tahriru sanbat” matni berilgan bo‘lib, u jadvalga olingan. “Tuhfatu-l xodimiya” matni esa jadval atrofida qiya qilib yozilgan. Ayrim joylarda asosiy matn ramkasi ikkiga bo‘lingan va “Tuhfatu-l xodimiya” matni teskari tartibda kiritilgan. Kitob 2 qismga bo‘lingan: 1-qism 286-sahifagacha bo‘lib, “Atfu-l- bayon” mavzusi bilan tugaydi. 2-qism 287-sahifadan “Mabniyot” mavzusi bilan boshlanib, 336-sahifada “Ta’kid nuni” mavzusi bilan tugaydi. Asosiy matnda muhim o‘rinlar, e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan joylar va kerakli ma’lumotlar ustiga chiziq tortib ajratilgan.

Asar basmala, hamd va na’t bilan boshlangan hamda “Ta’kid nuni” mavzusi sharhi bilan yakunlangan. Ushbu toshbosma nusxa 1886-yilda Dehlida chop etilgan bo‘lib, noshiri Muhammad Husayn. Asar so‘ngida tarix, noshirning ismi va matbuot nomlari keltirilgan.

3. 6614, 8421, va 21389 inventar raqamli toshbosma nusxalarlarning¹²⁹ matni bir xil bo‘lib, mazkur uch toshbosma nusxaning har biri 880 sahifadan iborat. Mazkur nusxalar 1912-yilda Qozon shahridagi “Umid” bosmaxonasida chop etilgan. Noshiri – Abdulkarim bin Husayn. Mazkur manbalar basmala bilan boshlanib quyidagi hamd berilgan:

"الحمد لله الذى شرح صدورنا بوسيلة نبي الرشاد و زين اعمالنا بامثال الاوامر و النواهر"

Kitob so‘ngida quyidagi yozuv bilan asar yakunlanadi:

الفا تقول في اضربن اضربا كما تقول في ضربا ضربا (ط) تمت

¹²⁸ 6649: ملا احمد، تحرير سنبت مع تحفة الخادمية، دهلى، 1886، ص 256

¹²⁹ 21389, 8421, ملا احمد، تحرير سنبت و غابة التحقيق و بهامشه التحفة الخادمية، قازان، 1912، ناشر عبد الكريم بن حسين، ص 880

4. 7038 va 15597 inventar raqamli toshbosma nusxalar¹³⁰ ham deyarli bir xil. Ushbu nusxalar 1909-yilda Dehlida chop etilgan. 7038 raqamli toshbosma 222 sahifadan iborat bo‘lib, to‘liq emas. 15597 raqamli toshbosma esa 332 sahifadan iborat va deyarli to‘liq saqlangan. Ularda fihris yo‘q. Har ikkala nusxa an’anaviy basmala, hamd va na’t bilan boshlanadi. So‘nggi sahifalari tushgan. 7038 raqamli asarning saqlanib qolgan oxirgi sahifasi quyidagi yozuv bilan tugaydi :

"من اقام الكلمة المعتبر فيها الوضع تغليبا باعتبار باقى الاقسام و يحذف"

5. 15639 inventar raqamli toshbosma¹³¹ 1889-yilda Dehlida chop etilgan. Noshiri Muhammad Akbar. Manba 2 qismdan iborat: 1-qism 208-sahifagacha, 2-qism esa 209-sahifadan “Mabniyot” mavzusidan boshlanib 336-sahifada “Ta’kid nuni” mavzusi bilan yakunlangan. Asar an’anaviy basmala, hamd va na’t bilan boshlangan. Lekin fihris berilmagan.

O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo‘lyozmalari Hamid Sulaymon fondida ham “Tahriru sanbat” asarining 2 toshbosma nusxasi mavjud:

1. 6022 raqamli toshbosma¹³² 1906-yilda Dehlida chop etilgan. Matn ikkiga ajratilgan jadvalga olingan bo‘lib, bir chiziqli jadvalning yuqori qismida “Tahriru sanbat”, pastki qismida esa “Tuhfatu-l xodimiya” kiritilgan. Asar matni basmala, hamd va na’t bilan boshlangan. Asar matni deyarli to‘liq, hatto fihris ham mavjud.

2. 6035 raqamli toshbosma¹³³ 1912-yilda Dehlida, Muxtaboiy nashriyotida chop etilgan. Bir chiziqli jadvalning ichki yuqori qismida “Tahriru sanbat”, pastki qismida esa “Tuhfatu-l xodimiya” kiritilgan. Matn an’anaviy basmala, hamd va na’t bilan boshlangan. Toshbosma yaxshi saqlangan bo‘lib, asar matni to‘liq, hatto fihris ham mavjud.

Mazkur toshbosmalar matni shaklan va mazmunan deyarli bir xil bo‘lib, sahifalar sonidagi farq sahifa o‘lchami turlicha bo‘lganligi sabablidir. Yuqoridagi barcha toshbosmalarda mavzular ketma-ketligi ham bir xil.

Ammo qayd etish joizki, tadqiqot jarayonida “Tahriru sanbat” asarining qo‘lyozma nusxasini topishga muvaffaq bo‘lmadik. Har qanday toshbosma matnining qo‘lyozmaga asoslanishi nuqtai nazaridan, mazkur toshbosmalarning matn xususiyatlariga ham to‘xtalmoqchimiz. 3626, 7038, 15597, 15639 raqamli toshbosmalar gajakli nasxda bosilgan, 6614, 8421, 21389 raqamli toshbosmalar esa

¹³⁰ 7038: ملا احمد، تحرير سنبت مع تحفة الخادمية، دهلى 1909، ص 222

¹³¹ 15597: ملا احمد، تحرير سنبت مع تحفة الخادمية، دهلى 1909، ص 332

¹³² 6022: ملا احمد، تحرير سنبت مع تحفة الخادمية، دهلى 1906، ص 330

¹³³ 6035: ملا احمد، تحرير سنبت مع تحفة الخادمية، دهلى 1912، ص 331

hozirgi zamon bosma nasx xatida nashr etilgan. 6649 raqamli toshbosma esa nasta'liq xatida bosilgan.

Tarixan arab tili grammatikasi rivojlanish jarayonida mukammal asarlar ko'plab yaratilgan. Shular orasida bir necha "Kofiya" asarlari majud. Eng to'liq "Kofiya" asarlari Mullo Ahmad va Ibn Hojibga tegishli. Ammo ushbu asarlarning tili murakkabligi sababli ularga ko'plab sharhlar bitilgan. Ibn Hojibning "Kofiya" siga Mavloni Abdurahmon Jomiy "Favoid uz-ziyoiiyya" deb atalgan sharh yozganlar va ushbu sharh asarning o'zidan ham mashhur bo'lib ketgan. Shahir al-Avhad Mullo Ahmad esa o'zlarining "Kofiya" asarlariga sharh yozib, "Tahriru sanbat" deb nomlaganlar.

Tadqiqot ob'ekti bo'lgan, Mullo Ahmad tomonidan yaratilgan "Tahriru sanbat" asari "Kofiya" asariga yozilgan sharh va hoshiyadan iborat. Hoshiya Mavloni Fozil Muhammad Shuaybga tegishli bo'lib, asar Abdulkarim bin Husayn Andijoniy homiyligida Qozon shahridagi "Umid" bosmaxonasida 1912-yilda chop etilgan. Hajmi jihatdan katta va qalin ushbu kitob 880 sahifadan iborat. Asar O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo'lyozmalari asosiy fondida 8421 inventar raqami ostida saqlanmoqda¹³⁴. Kitob juda yaxshi saqlangan bo'lib, muqovasi qattiq, alohida bezaklarsiz ishlangan va ustiga charm qoplangan. Birinchi sahifada asarning nomi, muallifi, sharh va hoshiya mualliflari, bosmaxona, chop etilgan sana va joy hamda homiy haqidagi ma'lumotlar sharqona bezak berib ishlangan jadval ichida keltirilgan. Ikkinchi sahifadan asar matni boshlanadi, bu yerda bitta qalin chiziqli tashqi jadval ichida ingichka chiziqli ichki jadval chizilgan va jadval ikkiga bo'lingan. Jadvalning yuqori qismida jimjimador bezakli arnament ostida kitob matni basmala bilan boshlangan va hamd keltirilgan. Jadvalning pastki qismida ham hamd va na't ko'rish mumkin. Har bir sahifadagi jadval usti yuqori qismining o'rtasida bejirim bezak ichida sahifa raqami yozilgan bo'lib, har bir sahifa yakunida, jadval ostida poygir mavjud.

Kitobning titul qismida quyidagi yozuv bor:

هذه الرسالة الوافية في حل مقامات الكافية للمولى الشهير الاوحد ملا احمد المسمى بتحرير سنبت(ط) و
يليه مفصولا عنه بجدول غاية التحقيق شرح كافية و بهامشه التحقيق الخدمية حاشية تحرير سنبت للمولى
الفاضل الحافظ محمد شعيب

Ya'ni "al-Avhad" (yagona) nomi bilan mashhur Mavloni Mullo Ahmadning "Kofiya" asari maqomotlarini (darajalarini) hal qilishdagi ushbu mufassal risola "Tahriru sanbat" deb nomlanadi. Unga "Kofiya"ning sharhi bo'lgan "G'oyatu-t

tahqiq” asari ajratilgan holda ilova qilingan. Hoshiyasida “Tuhfatu xodimiya”. “Tahriru sanbat”ning hoshiyasi Mavlono Fozil Hofiz Muhammad Shu’aybga tegishli.

Birinchi sahifa an’anaviy tarzda basmala, hamd va na’t bilan boshlangan. Asarda arab tili grammatikasining morfologiyasi (sarf) va sintaksisi (nahv) qoidalari, ularni o’rganish usullari hamda ushbu qoidalar haqidagi Sibavayhiy, Ibn Nozim va boshqa mumtoz tilshunos olimlarning fikrlari bayon etilgan.

XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlab o’tish joizki, Mullo Ahmad Jandiyning “Tahriru sanbat” asari arab tili grammatikasi rivojlanishi va mukammal qolipga kelishida muhim o’rin egallagan.

Mullo Ahmad birinchilar qatorida arab tili grammatikasiga oid eng mukammal “Kofiya” asariga tartib bergan. Ushbu asar arab tili grammatikasi rivojlanishi tarixida yaratilgan 29 ta “Kofiya”lardan biridir. Keyinchalik olim asar tilining ancha murakkabligi sababli o’z asariga sharh yozib, uni “Tahriru sanbat” deb atagan. Mazkur asar arab tili grammatikasini o’rganish va o’rgatishda, arab tili grammatikasining rivojlanish tarixini o’rganishda muhim o’ringa ega bo’lib, asrlar davomida arab tiliga doir asarlar va qo’llanmalarning qay tarzda shakllanganini tadqiq etishda qimmatli manba hisoblanadi.

REFERENCES

1. Ас-Самани. Китабал-Ансаб (книга генеалогий) / Пер. на рус.яз. Ш.С. Камалиддинова // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. Ташкент: Изд. «ФАН» АН РУз, 2003. С. 69.
2. Ахмад ибн Махмуд. Китоби мулла-заде / Пер. на рус.яз. Р.Л. Гафуровой. Ташкент: Изд. «ФАН» РУз, 1992. С. 70
3. Алмеев Р. Святые места Бухары: Турк-и Джанди (Тюрк из Джанда) // <http://www.islamsng.com/uzb/culture/5345>
4. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгохлари. -Т.: “Navro‘z”, 2015. – 360 б.
5. Мустафоев С., Аблаев М. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси. –Т.: “Sano-standart”, 2015. – 672 б.
6. Ас-Самани. Китабал-Ансаб (книга генеалогий) / Пер. на рус.яз. Ш.С. Камалиддинова // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. Ташкент: Изд. «ФАН» АН РУз, 2003. С. 69.
7. 1741 : ملا احمد, بر حاشيه قطع, 10532
8. 1571 : ملا احمد, شرح اداب العذضية, 3294

9. 3626: ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, لاهور 1911, ناشر شيخ الهمر بشر, 320 ص
10. ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, دهلى 1886, 256 ص
11. 21389, 8421: ملا احمد, تحرير سنبت و غابة التحقيق و بهامشه التحفة الخادمية, قازان 1912, ناشر عبد الكريم بن حسين, 880 ص
12. 7038: ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, دهلى 1909, 222 ص
13. 15597: ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, دهلى 1909, 332 ص
14. 6022: ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, دهلى 1906, 330 ص
15. 6035: ملا احمد, تحرير سنبت مع تحفة الخادمية, دهلى 1912, 331 ص

**XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA
AKSIOLOGIK ONGNI SHAKILLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY
ASOSLARI**



10.24412/2181-1784-2021-8-498-508

Xolov Olimjon Chorshamiyevich

Termiz davlat universiteti

“Pedagogika va ishtimoiy ish” kafedrası o‘qituvchisi

olim.xolov.86@bk.ru

ANNOTATSIYA

Har bir davlat taraqqiyotning yuksak cho‘qqilariga erishish uchun ta‘lim-tarbiya sohasiga va bu jarayonda milliy mentaletiga alohida etibor qaratib, o‘z xalqini zamonaviy ilm-fan texnologiyalari va yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib boradi. Haqiqatdan taraqqiyot taqdirini ma‘naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, imoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatli, mustaqil fikrga ega bo‘lgan milliy qadriyatlariga sodiq bo‘lgan fuqorolari hal etadi. Bu borada milliy tiklanishdan - milliy yukasalish sari olg‘a qadam qo‘yayaotgan, tez fursatlarda rivojlanayotgan davlatimizning negizida qabul qilinayotgan qaror va farmonlarida hamda ta‘lim-tarbiya sohasida xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarimizga qaratilayotgan yuksak etibori asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Aynan shu jihatlarni inobatga olib maqolamizda xalq og‘zaki ijodi vositasida o‘quvchilarda aksiologik ongni shakillantirishning ilmiy nazariy asoslari haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘z va tushunchalar: Qadriyat, millat, milliy g‘urur, milliy g‘oya, urf-odat, an‘ana, marosim, mustaqil fikr, ong, ta‘lim, tarbiya.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ
АКСИОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ
УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВО**

Холов Олимжон Чоршамиевич

Термизский Государственный Университет

Преподаватель кафедры педагогики и социальной работы

olim.xolov.86@bk.ru

АННОТАЦИЯ

Каждая страна уделяет особое внимание сфере образования и, в процессе, национальному менталитету, чтобы достичь высочайшего уровня развития, и регулярно знакомит свой народ с современными научными технологиями и достижениями. По сути, судьбу развития решают духовно зрелые граждане, обладающие современными знаниями и передовыми технологиями, обладающие полной верой, сильной волей, глубоким мышлением, высоким потенциалом, независимым мышлением и верностью национальным ценностям. В этой связи решения и указы, принятые на основе нашего стремительно развивающегося государства, которое движется от национального возрождения к национальному подъему, а также большое внимание, уделяемое фольклору и национальным ценностям в области образования. Имея это в виду, в нашей статье речь идёт о сущности и формирования у учащихся понятий об устном народном творчестве, национальных ценностей обычаях и традициях.

Ключевые слова и понятия: *Ценности, нация, национальная гордость, национальная идея, обычаи, традиции, обряды, самостоятельная мысль, сознание, образование, воспитание.*

THE SCIENTIFIC THEORETICAL FUNDAMENTALS OF FORMATION OF AXIOLOGICAL CONSCINS IN PUPILS IN THE MEANS OF FOLKLORE

Kholov Olimjon Chorshamievich

Termiz State University

The teacher of the department of pedagogy and social work

olim.xolov.86@bk.ru

ABSTRACT

Each country pays special attention to the field of education and, in the process, to the national mentality in order to achieve the highest levels of development, and regularly introduces its people to modern scientific technologies and achievements. Indeed, the fate of development is decided by citizens who are spiritually mature, possess modern knowledge and sophisticated technology, have a strong faith, strong will, deep thinking, high potential, independent thinking and commitment to national values. In this regard, the decisions and decrees adopted on the basis of our rapidly developing state, which is moving forward from the national revival to the national uplift, as well as the high attention paid to the folklore and national values in the field

of education. . With this in mind, our article discusses the scientific and theoretical basis for the formation of axiological consciousness in students through folklore.

Keywords and concepts: *Values, nation, national pride, national idea, customs, traditions, ceremonies, independent thought, consciousness, education, upbringing.*

KIRISH

Agar insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bir necha million yillik davrni o'zida aks ettiradi. Insoniyat rivojining dastlabki ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq tarbiya jamiyat rivojining asosi sifatida qabul qilingan. Hamma davrlarda har bir xalq yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakatini, urf-odati, an'anasi, marosimi, o'zligini anglashiga alohida e'tibor qaratganlar. Shu o'rinda aytish kerakki bizning xalqimiz o'z tarixida bir necha bosqinlarni boshidan o'tkazdi va xalqimizga xos bo'lgan milliy qadriyatlarimizga bir muncha ta'sir o'tkazildi. Ammo shunday davrda ham mard va jasur xalqimiz o'zligini, milliy qadriyatlarini, milliy tarbiyasini yo'qotmagan bo'lsada ularni amalda erkin bajara olishmadi. Aynan mana shunday davrlarda xalqimiz tabiiy qadriyatlarini, iqtisodiy qadriyatlarini, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini, badiiy qadriyatlarini, diniy qadriyatlarini, xalq og'zaki ijodini yoshlar ongiga singdirishda cheklov va to'siqlarga duch keldi. Bu jarayon esa mustaqillik davrigacha shu tarzda qolaverdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab milliy qadriyatlarimizga alohida etibor qaratilib barcha qadriyatlarimizni tiklashga keng imkoniyalar ochib berildi. O'quvchi yoshlarni xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda davlatimiz tamonidan keng e'tibor qaratilib yoshlarga uning mohiyatini yorqin ochib berish, chuqur bilim berish orqali asl milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalashda ko'plab islohatlar olib borildi.

Darhaqiqat davlatimiz mustaqillikka erishgan kundanoq barcha sohalarida tub islohatlar amalga oshirildi. Ushbu islohatlar yurtimizning kelajagi uning dunyodagi barqaror o'rnini belgilashda zamin yaratib berdi. Shu o'rinda aytish lozimki mustaqillik yillarida ta'lim sohasida keng miqiyosda ishlar olib borildi. Ta'limni isloh qilish va unda ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, milliy mentalitetga mos talim tizmini yaratish va o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'ururni shakllantirish kabi ishlar amalga oshiriladi. Ayni shu damda xalqimizning milliy o'zligini, o'z tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an'ana va urf-odatlarini, umumbashariy madaniyatni, o'zida mujassam etgan xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimizni keng ochishga alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqillik tufayli milliy-ma'naviy tiklanishga imkoniyat yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki yillaridan, ya'ni 1992 yilda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik, O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning ma'naviy-ahloqiy negizlari sifatida aytib o'tgan edilar¹³⁵.

Shuningdek, 1994 yil 23 aprelda esa Vatan - eng oliy makon, u menikidir, - eng oliy qadriyat - inson, - mulkning eng oliy shakli - intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi intellektual mehnat, - vaqt eng oliy boyluk, - umuminsoniy qadriyatlar, - moddiy qadriyatlar, - milliy qadriyatlar, - tabiiy qadriyatlar, - iqtisodiy qadriyatlar, - ijtimoiy - siyosiy qadriyatlar, - ma'naviy qadriyatlar, axloqiy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, oilaviy qadriyatlar, demokratik qadriyatlar haqida to'xtalgan¹³⁶.

Ayni damda barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz tomonidan xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarga yanada e'tibor qaratilmoqda.

Hurmatli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining 2017 yil 22 dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasida milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan olamshumul harakatlar haqida yig'ilish qatnashchilariga quyidagilarni bayon qilgan edi: *"Ma'naviy hayotimizda muhim voqea bo'lgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlanganini alohida qayd etish zarur. Shular qatorida buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishlarni o'rganish bo'yicha maxsus maktablar tashkil etildi. Albatta, bizning bu ishlarimiz chuqur ilmiy va amaliy asoslarga ega. Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib*

¹³⁵ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T. "O'zbekiston", 1992. - 12 b.

¹³⁶ Karimov I.A. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi nutqidan. 1994.

turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rtaga qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo'lida birlashishga da'vat etadigan teran ma'noli fikr va g'oyalar bugun ham o'z qimmatini va ahamiyatini yo'qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo'laturib, ularni har tomonlama o'qish-o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha, yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak. Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Bu to'g'ri, albatta. Lekin ma'rifat, ma'rifiy bilimlar qaerda-avvalo otabobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo'tabar kitoblarda emasmi?¹³⁷ degan edilar. Shuningdek Prezidentimiz tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va uni rivojlantirish bo'yicha ko'plab qaror va farmonlari qabul qilindi. Bular quyidagilar:

- "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 may, PQ-4320-sonli qarori;

- "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari" hamda "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 3 oktyabrdagi PF-5841-son Farmoni.

Prezidentimizning shunday muhim qarorlaridan yana biri sifatida "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son Qarori hamda "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevral, PQ-4584-son Qarorini keltirishimiz mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 yanvardagi "Surxondaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori hamda 27 apreldagi Bayoniga muvofiq, "Boysun bahori" ochiq folklor festivali qayta tiklanganligini alohida e'tirof etish lozim..

«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalini yanada uyushqoqlik bilan o'tkazish to'g'risidagi qarorlari shular jumlasidan bo'lib, bularning barchasi yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborini yanada oshirmoqda.

¹³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan. 22.12.2017.

Yuqorida qayd etilgan fikr hamda Prezidentimizning qaror va farmonlari qabul qilinganligi bejiz emas. Chunki bugungi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalarini rivojlanganligi, xalqimizga yod bo'lgan boshqa millat ya'ni "ommaviy madaniyat"ni kirib kelayotganligi tufayli xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish ayni dolzarb masalalardan biri ekanligini anglashimiz qiyin emas.

Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongni shakllantirishda oila va jamiyatda, ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarimizga alohida e'tibor qaratishimiz, yoshlarimizni xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash vatan oldidagi burchimiz sifatida qaramog'imiz lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shu o'rinda xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarga qisman to'xtalib o'tamiz. Inson qadimdan atrof muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlar, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg'ularni so'zlar, raqslar ifodalagan va undanda keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiydilar. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan insonlar o'rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni "xalq og'zaki ijodi" deb atashga odatlanganmiz.

Xalq og'zaki ijodi fanda "folklor" deb yuritiladi. Bu atamani 1846 yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari barchasi folklor deb tushunish qabul qilingan.

Xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, afsona, rivoyat, asotir, yertak, latifa, lof, lapar, termalar, doston, askiya, tez aytish, alla, yor-yorlar, kelin salom kabilarni aytishimiz mumkin.

Hozirgu kunda pedagogik adabiyotlarda qadriyatga taa'luqli keng manolarni beruvchi aksiologiya so'zi keng ishlatilmoqda. Aksiologiya tushunchasi nima? Aksiologiya falsafaning mustaqil sohalaridan biridir. Mazkur tushuncha adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. "Aksiologiya" yunoncha so'z bo'lib, *axio* -

qadriyat, *logos* - ta'limot, so'z, ya'ni qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi.

I.T.Frolova tahriri ostidagi falsafiy lug'at(1986)da aksiologiyaga qadriyatlar tabiatini falsafiy jihatdan tadqiq etish, deb ta'rif beriladi¹³⁸.

Aksiologiya G'arb falsafasida XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida umumiy «qadriyatlar muammosi»ning ba'zi murakkab masalalarini hal etishga urinish sifatida yuzaga keldi. Qiyomiddin Nazarov umumiy tahriri ostidagi «Falsafa: qomusiy lugat»(2004)da «aksiologiya»ga aksiologik ong, qadrlash tuyg'usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan qadriyatlar to'grisidagi bilimlar sistemasi sifatida ta'rif berilgan. V.Ye.Kemerov umumiy tahriri ostidagi zamonaviy falsafiy lugat(1998)da «aksiologiya» tushunchasi insonda kelajakka bo'lgan o'zining hayotiy intilishlari, mavjud hayot uchun mo'ljalni ola bilish, o'tmish, «boshqa», umum ahamiyatlilikni oqlash yoki ayblashni qadriyatli loyihalash shakl va usullari haqidagi ta'limot sifatida ta'rif beriladi. Aksiologiya tushunchasi qadriyat va qadriyatlar haqidagi ta'limotga qaraganda, keyinroq paydo bo'lgan.

Mazkur tushuncha XIX asrning 2-yarmida nemis qadriyatshunosi Eduard Gartman va fransuz olimi P.Lapilar tomonidan fanga kiritilgan. Qadriyat tushunchasi maxsus falsafiy lug'atda XIX asrning 60-yillarida paydo bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan. Falsafiy lug'atning 5-jildida qadriyatga quyidagicha ta'rif berilgan: «Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U birinchidan, bir ob'ektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini)ni ifoda etadi».

“Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot” nomli ilmiy ishlar to'plamida: “Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim”, deb ta'kidlab o'tilgan.

“Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at”da: “Qadriyatlar - jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi”, degan ta'rif berilgan.

Qomusiy lug'atda “Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning, umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun

¹³⁸ Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. - T.: “Fan va texnologiya”, 2011. - 3 b.

qo'llaniladigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha», deb ta'rif berilgan. O.Tohirov, B.Ochilovalarning ta'kidlashicha, «Qadriyat - bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli tabiiy, individual va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy va siyosiy omillar yig'indisidir».

«Qadriyatlar, - deb yozadi O.Musurmonova, - inson tomonidan qadrlanadigan narsalardan iborat bo'lib, kishilarning talabi, xohishi, qiziqishi va maqsadi asosida o'zaro munosabat, o'zaro ta'sir (atrof-muhit bilan, insonlar bilan) natijasida dunyoga keladigan holatdir».

Siyosatshunos olim N.Jo'rayevning ta'kidlashicha, «Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat xodisalari majmui tushunilishi lozim»¹³⁹.

Qadriyat tushunchasining kelib chiqishi shuni ko'rastadiki, unda uch asosiy belgi birlashadi:

- narsa va hodisalarni baholashga doir insonning amaliy va emotsional munosabatini ta'riflash;
- insonning psixologik tavsifini aniqlovchi axloqiy kategoriyalarni tavsif etish;
- odamlar orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ijtimoiy hodisalarni ta'riflash.

«Qadriyat» tushunchasining rivoji shartli ravishda qadriyatlarining turli ko'rinish (iqtisodiy, psixologik, axloqiy, estetik, bilishga oid, ijtimoiy)larini ajratib ko'rsatish, inson tabiati, uning bilishga intilish mexanizmlarini anglab yetish, bilish faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlashga imkon beradi.

O'quvchilar faoliyatida o'qitish odatda shubhasiz didaktik printsiplarda qaraladi. Shu jumladan bir vaqtning o'zida bunday kombinatsiyalarda: "ong va faoliyat", "Ong, faollik va mustaqillik", "ongli faoliyat va mustaqillik" kabilarga ham e'tibor berilish kerak¹⁴⁰. Ya'ni qadriyatlarni singdirishda o'quvchilar ongi tafakkuri xohish istagidan kelib chiqib dars va darsdan tashqari ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

¹³⁹ Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. O'quv qo'llanma. T.: «Fan va texnologiya», 2011. – 4 b.

¹⁴⁰ Холов, О. Ч. (2018). АКТИВНОСТЬ В СТИМУЛИРОВАНИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Вопросы педагогики*, (2), 112 с.

MAQOLANING ILMIY MOHIYATI

Yuqoridagi fikrlarga tayanib o'qituvchilarimizga belgilangan tartibda maktab darsliklari hamda rejasiga ta'sir etmay, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongini shakllantirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongini shakllantirishda nazariy (ma'naviy-ma'rifiy meroslarimiz) ma'lumotlar berish;

- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongini shakllantirishda amaliy (tarixiy qadamjolar, muzeylar) ishlarni olib borish;

- xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongini shakllantirishda oilalar bilan hamkorlik ishlaridan to'liq foydalanish.

Maktab ko'p funktsiyalarni birlashtiradi. Ba'zida "maktab va hayot" o'rtasidagi o'zaro bog'lanish muammosiga ham duch kelinadi. Ammo o'qituvchilar ta'limni turli ko'rinishlarda olib borishi o'quvchilarni har tomondan shakllantiradi¹⁴¹.

Shu o'rinda aytish kerakki xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarda aksiologik ongini shakllantirishda o'qituvchilarimizning o'rni beqiyosdir. Chunki o'qituvchilarimiz o'quvchilarini har tamonlama barkamol shaxs qilib, milliy ruhda tarbiyalashda munosib o'rin tutadi.

Shu o'rinda aytish kerakki yoshlarimizning milliy madaniyat va qadriyatlarining mazmunini bilish, ularga e'tiqod qilishi, yoshlarimizda insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Vatan baxt-saodati va milliy istiqbolimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga, komil inson bo'lib voyaga yetishga undaydi.

Milliy qadriyatlar bir millat a'zolari ming yillar davomida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, milliy til, milliy adabiyot, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, ahloqiy jihatlari, urf-odatlarini, an'analari kabilardir.

Umuminsoniy qadriyatlar esa jamiyat taraqqiyoti davomida takomillashib borib, kishilarga hayotning mazmunini chuqurroq tushinish, o'zlarining xatti-harakatlarini ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Umuminsoniy qadriyat jamiyat va odamzod nasli uchun eng qadrlil va umum ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar, hodisalar, sifat, faoliyat va boshqalarning ismi yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrlini ifodalash uchun ishlatiladigan aksiologik tushunchadir. Yoshlarimiz ongiga singdirilayotgan milliy istiqbol g'oyasi ma'naviy meros asosidagi umuminsoniy qadriyatga tayanadi. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning, millatlarninggina emas, balki bashariyatning mulkidir. Zero, millat o'z qadriyatini

¹⁴¹ Холов, О. Ч. (2018). ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ШКОЛА В СИСТЕМЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ. *Вопросы педагогики*, (2), 114 с.

boshqa millat qadriyatlaridan ayri holda yarata olmaydi. Milliy o'zlikni anglashda milliy g'oya, mafkura va millatga xos bo'lgan yangilanish jarayonlari jadal rivojlanmog'i lozim.

XULOSA

“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” tamoyili asosida rivojlanish yo'lini tanlagan Yangi O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish katta ahamiyatga ega. Bu taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, imoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar hal etadi. Yurtimizning kelajagi mamlakatimizning intellektual salohiyatiga, aql-zakovotiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirishga, uning milliy zaminini mustahkamlashga, kadrlar tayyorlashga bevosita bog'liq. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya, bilim berish, uni ijtimoiy hayot va faoliyatga tayyorlash jamiyatning asosiy mezonlaridan biridir. Ta'lim-tarbiya orqali yoshlarning milliy qadriyatlar sirasiga kiruvchi axloqiy fazilatlarni shakllantirish, jamiyatdagi g'oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga nisbatan munosabatini o'zgartirib va barkamol shaxs bo'lib yetishishida xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlardan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz yosh avlodga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning muhim jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz o'sib kelayotgan yosh avlodga quyidagi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi, do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat;
- yaxshilik va yomonlikning oqibati;
- halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi;
- adolat, insof va insofsizlik, do'stlik, mehr-oqibat va insonparvarlik;
- botirlik va qo'rqqoqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati; - qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, me'yoriy va me'yorsizlik, ma'suliyat va

ma'sulyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari:


- kattaga hurmat, yoshga mehr shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, kiyinish, so'zlash, turmush tarzi, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati, rasm-rusmlar, odatlar, marosimlar va an'analardir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz ta'limiy-tarbiyaviy jihatidan juda serqirradir. Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarimiz yoshlarni milliy ruhda qolaversa har qanday insonga ma'naviy ozuqa berishi bilan ahamiyatlidir. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlardan unumli foydalanib o'quvchi yoshlarning aksiologik ongini shakllantirish yosh avlodni har tamonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T. "O'zbekiston", 1992. - 123 bet.
2. Karimov I.A. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi nutqidan. 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan. 22.12.2017.
4. Xodjayev B.X. "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma. T. "Fan va texnologiya", 2011. - 156 bet.
5. Холов, О. Ч. (2018). АКТИВНОСТЬ В СТИМУЛИРОВАНИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Вопросы педагогики*, (2), 112-113.
6. Холов, О. Ч. (2018). ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ШКОЛА В СИСТЕМЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ. *Вопросы педагогики*, (2), 113-11z5.

TALABALARDA SANOGEN TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI VA UNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

 10.24412/2181-1784-2021-8-509-522

Ismailov Murodulla Kaxramonovich

O'zbekiston Respublikasi, Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Tel: 90 956 93 23. murodullaismailov89@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sanogen tafakkur muammosining dolzarbligi hamda nazariy asoslari tahlil qilinib, bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonining kognitiv, tayyorlov, yakuniy fazalariga ustuvorlik berish asosida sog'lom fikr yuritish va sanogen xulq-atvorga oid tarkibiy komponentlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek, maqolada tajriba ishlarining dastlabki nazorat natijalari hamda sanogen tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog'lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor, bo'lajak o'qituvchi.

АНАЛИЗ КОМПОНЕНТОВ РАЗВИТИЯ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ И ЕГО ПЕДАГОГИКО- ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется актуальность проблемы саногенного мышления и теоретические основы, а также описывается содержание компонентов здравого смысла и саногенного поведения исходя из приоритетов когнитивного, готовности, завершающих этапов процесса развития саногенного мышления у будущих учителей. В статье также представлена информация о предварительных результатах экспериментальной работы и особенностях саногенного мышления.

Ключевые слова и понятия: саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здравый смысл, саногенное поведение, будущий учитель.

ANALYSIS OF COMPONENTS FOR THE DEVELOPMENT OF SANOGEN THINKING IN STUDENTS AND ITS PEDAGOGICAL- PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS

ABSTRACT

This article analyzes the relevance and theoretical foundations of the problem of sanogen thinking, the content of the components of common sense and sanogen behavior based on the priorities of the cognitive, preparatory, final phases of the process of developing sanogen thinking in future teachers. The article also provides information on the preliminary results of experimental work and the peculiarities of sanogenic thinking.

Key words and concepts: *sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflection, common sense approach, sanogenic behavior, future teacher.*

KIRISH

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida yuqori saviyaga ega mutaxassislarni, mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta'lim muxitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir pedagogik kadrlarni tarbiyalash muammosini yanada dolzarblashtirmoqda.

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanish yo'lini tanlagan Yangi O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan [1]. Bunda oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash xalqaro dasturida talabalar faoliyatini rivojlantirishning "fikriy aks ettirish amaliyoti"ga (reflective practitioner) [2] yo'naltirilgan taktikasini rivojlantirish, ijodiy va ratsional yondashuv uyg'unligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Tadqiqot maqsadi. Respublikamizda malakali o'qituvchi xodimlarni tayyorlashga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar hamda bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlash xalqaro dasturi talablaridan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish, mazkur jarayonda fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali reflektiv va integrativ yondashuvlarni joriy

etish, sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish hamda zamonaviy voqelik nuqtai-nazaridan, uning pedagogik hodisa sifatida mohiyatini ochib berish, tarkibiy qism-komponentlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilandi.

Tadqiqot usullari. Kuzatish, adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ish natijalarini pedagogik-psixologik tahlil qilish, taqqoslash, anketa, so'rovnoma, test.

Adabiyotlar tahlili. Sanogen tafakkur muammosi Vatanimiz va qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. [4,5,6,8,9,12,15,18]. Ular asosan sanogen tafakkurning mohiyati, tabiati va uni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida asosan muammoning nazariy-falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari keng miqyosda o'rganilgan. Mualliflar o'z asarlarida sanogen tafakkurning individual shakllariga, uning elementlarini shakllantirishning o'ziga xos usullariga e'tibor berishadi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida o'z xatti-harakatlarini, his-tuyg'ularini, kayfiyatini nazorat qilishi kerak. Buning uchun u o'zini chuqurroq anglashi lozim. Har bir inson nafaqat o'zining his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini nazorat qilishi, balki muayyan qoidalarga muvofiq fikrlash tarzini ham nazorat qila olishi kerak. Mazkur holat bilan bog'liqlikda pedagog-psixolog olimlar fikrlashning ikkita turini ajratib ko'rsatishadi: sanogen va patogen fikrlash.

Sanogen tafakkur (lotincha: "*sanus*" – sog'lom va yunon tilida – "*genezis*" - rivojlanish) his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog'lomlashtiruvchi tafakkur.

Patogen fikrlash bu insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig'indisi bo'lib, u shaxsning o'z-o'zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional beqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi.

Sanogen tafakkurning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan professor Yu.M.Orlov insonning ruhiy salomatligi masalasiga to'xtalib, quyidagi fikrni bildirib o'tadi: "Sanogen tafakkur yuritish hayot falsafasining, ong va tana salomatligining eng ishonchli yo'llaridan biridir. Ushbu metodika yangi hissiy-aqliy odatlarni yuqori darajada o'zlashtirishga imkon beradi, o'tmishdagi patogen fikrlash tajribasini to'playdi. Sanogen tafakkur inson ongini sog'lomlashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ya'ni, insonning hayotiy faoliyati davomida yuzaga kelgan inqirozli holatlarini ruhiy qo'llab-quvvatlash yordamida, hissiy-emotsional o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish orqali bartaraf etish usuli" [3, 19 b.].

O'z mulohazalarini davom ettirib, olim quyidagi fikrlarni qat'iy ta'kidlab o'tadi: sanogen tafakkurning asosiy ahamiyati o'z-o'zini kamolga yetkazish maqsadlariga

erishish uchun sharoit yaratish, ya'ni fe'l-atvor hamohangligi, o'z-o'zi va atrofdagilar bilan kelishish, shuningdek yomon odatlarni bartaraf etish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, o'z ehtiyojlarini nazorat qilish deb hisoblaydi.

S.Ataxanova sog'lom tafakkur muammosini o'rganib quyidagi fikrni bildiradi: "Sog'lom tafakkur insonning aqliy va hissiy faoliyatlari bilan bog'liq bo'lib, u sog'lom fikrga yo'naltirilsa sog'lom tafakkur shakllanadi. Aqliy faoliyat mavjud bilim va malakalarni egallash vazifasi bo'lib, hissiy faoliyat esa sog'lom turmushga bo'lgan hissiy munosabatni anglatadi [4, 5 b.]. Muallif sog'lom tafakkur tushunchasining psixologik, pedagogik va falsafiy mazmunini ochib bergan bo'lsada, lekin uning tarkibiy komponentlarini aniq ajratib ko'rsatmagan.

O'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik muammolarini tadqiq etgan Z.A.Abdiraxmonovanning fikricha, sanogen tafakkurni rivojlantirish fikrlashdagi refleksivlik va o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyojning yuqoriligi bilan belgilanib, o'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish, shaxs xususiyatlari va xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar ta'lim jarayoni, shaxslararo munosabatlar, kasbiy kamolot kabi ijtimoiy omillar bilan bog'liq [5, 8 b.].

S.N.Morozyuk oliy ta'lim muassasalari talabalarining shaxsiy va xarakter xususiyatlarini psixodiagnostik jihatdan tahlil qilib, "sanogen refleksiya"ni sog'lom tafakkurning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Sanogen refleksiya – bu turli xil vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor usullarini tanlashga imkon beruvchi, insonning o'z-o'zini, hissiy kechinmalarini, fikrlari va muammolarini ob'ektiv ko'rish va baholash qobiliyati [6, 21 b.].

T.N.Vasileva o'qituvchining sanogen fikrlashiga bolani sanogen tarbiyalash vositasi sifatida jiddiy e'tibor beradi hamda o'quvchilarda sanogen fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi o'yinlar va mashqlar to'plamini ishlab chiqadi [7, 46 b.].

A.B.Rossoxin sanogen fikrlash usulining quyidagi ijobiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi: sog'lom fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirish shaxsda ko'plab ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi; sanogen fikrlash aqliy faoliyatning xilma-xilligi va mustaqilligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi [8, 10-13 b.].

Yu.N.Kraynova emotsional kompetentlik va sanogen refleksiya muammosini tadqiq etar ekan, sanogen refleksiyani sanogen fikr yuritishning muhim tarkibiy komponenti sifatida belgilab, talabalarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ichki omili sifatida baholash mumkin", degan xulosaga keladi [9, 8 b.].

Sanogen refleksiya muammosini tadqiq etgan olim L.A.Kananchuk quyidagicha xulosaga keladi: o'zaro ijtimoiy munosabatlar jarayonida insonlarning ma'lum bir tarzda to'g'ri harakat qila olmasliklari, sub'ektlarning kutilgan va haqiqiy xatti-harakatlari o'rtasida hamda bir-birini tushunishdagi nomuvofiqliklar jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bizning fikrimizcha, bu kabi qiyinchiliklarni sanogen refleksiya orqali bartaraf etish mumkin [10, 4 b.].

Sanogen tafakkur muammosini shaxs refleksiv qobiliyati bilan bog'liqlikda o'rgangan tadqiqotchilardan biri bu N.V.Pavlyuchenkova hisoblanadi. Sanogen refleksiya shaxsiy rivojlanish, moslashuvchanlik va salbiy hissiy holatlarni nazorat qilishga ta'sir etuvchi omil bo'lib, u shaxsning hayotiy qiyin vaziyatlarga nisbatan qarshi kurashish qobiliyatidir [11, 22 b.].

N.V.Pil pozitiv (ijobiy) tafakkurni omadsizlikni yengish, ishonchga, muvaffaqiyatga va baxtga erishish usuli sifatida foydalanishni taklif etadi. U o'zining mashhur optimizm (nekbinlik) formulasini taklif etadi, uni o'z hayotining oddiy va samarali falsafasi qilib olgan ko'plab odamlar qo'llashgan [12, 89 b.].

Anna Hilman sanogen fikrlash muammosini o'rganib, mazkur fikr yuritish tarzini talabalarning o'z ruhiy holatini, o'zini o'zi tartibga solish va kelajakdagi kasbiy pedagogik faoliyati uchun to'g'ri ko'rsatmalarni ishlab chiqishga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholaydi [13, 12 b.]. O.Yu.Osadko va I.F.Arshavalar shaxsning jismoniy, psixologik salomatligi hamda samarali ijtimoiy moslashuvi uning sanogen fikr yuritish potentsialiga bog'liqligini e'tirof etishsa [14, 45 b., 15, 18 b.], S.Madding fikricha, sanogen tafakkur aqliy va ruhiy sog'lomlikka erishishni ta'minlaydi [16].

Sanogen tafakkur tushunchasi pedagogik jihatdan tahlil qilinganda, ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq holda yuzaga keladigan pedagogik muammolar va hissiy kechinmalarga nisbatan kognitiv baholash ustuvorligi tezisiga asoslanadi, bu talaba o'z fikrlarini his-tuyg'ularga ta'sir qilish uchun ishlatishi va kognitiv baholarni o'zgartirish orqali pedagogik faoliyat bilan bog'liq muammolarni hal qilishning konstruktiv usullariga oid ko'nikmalarni egallash jarayoni hisoblanadi.

Mualliflik yondashuvi asosida aytishimiz mumkinki, "sanogen tafakkur" bu talabaning sodir bo'layotgan voqea-hodisalar mazmunini anglashi va hissiy-emotsional tajribalarni aks ettirish jarayoni bo'lib, ularni yuqori darajada kuzatish va individual shaklda monitoring qilib borishdir. Shuningdek, sanogen tafakkur talabalarning ijobiy (pozitiv) fikr yuritishi hamda ijodkorlik qobiliyati bilan bog'liq aqliy faoliyat ko'nikmalari majmuini o'zida aks ettiradi [17, 75 b.].

Insonning atrof-muhitni idrok etish jarayonini kuzatish asosida uning sanogen yoki patogen (nosog'lom) fikr yuritish ko'nikmalarini tadqiq etish mumkin. Fikrlashning sanogen tabiatga egaligini quyidagi sifatlar bilan izohlash mumkin: 1) Tafakkurning dinamikligi, moslashuvchanligi, refleksivligi; 2) Introspektsiya: tahlilga asoslangan, insonning o'z-o'zini ichki kuzatuvi fonida amalga oshiriladigan fikrlar; 3) Ijtimoiy stereotiplar, madaniy xulq-atvor dasturlari haqida individual bilimning mavjudligi; 4) Fikrlashdagi rangbaranglik, diqqatning barqarorligi va irodaviylik: bu esa o'z-o'zini tahlil qilish imkonini beradi; 5) Lokus (o'z-o'zini kuzatish) nazoratning yuqoriligi; 6) Shaxsga hayotiy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilaridan esa saqlanish imkonini beradi. [18, 27 b.].


Maqolaning ilmiy mohiyati. Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayoni murakkab, ko'p qirrali ko'rinishga ega bo'lib, bunda avvalombor, sanogen tafakkurning tarkibiy komponentlari, ustuvor jihatlari va uni rivojlantirishning integrativ-tuzilmasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sanogen tafakkurning tarkibiy tuzilishini tadqiq etgan G.G.Bashanayeva uning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatadi: motivatsion, refleksiv, emotsional, operatsion [19, 224 b.]. Muallif mazkur komponentlarni ajratishda sanogen tafakkurga oid bilim va ko'nikmalarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi va uning fikrlash tarzida namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Bu, faqatgina sog'lom fikrlashga oid ko'nikmalarni shaxsda shakllantirish bilangina bog'liq bo'lib, sanogen tafakkur komponentlarini aniqlashtirish bo'yicha birtomonlama yondashuvni keltirib chiqaradi.

Ta'lim jarayoniga ontologik yondashuvdan kelib chiqib sanogen tafakkur muammosini tadqiq etgan I.M.Spivak aynan sog'lom fikr yuritishni yangicha xulq-atvor shakli sifatida baholaydi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi sanogen xulq-atvorning quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatadi: refleksivlik, yo'naltiruvchi, boshqaruvchi hamda mazmunli [20, 478 b.]. Ontologik yondashuv yosh omili va yoshga doir xususiyatlarni inobatga olishni talab etadi. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini aniqlashtirishda ontologik yondashuv xususiyatlariga asoslanib faoliyat bosqichlarini belgilab olish lozim.

Sanogen tafakkur mazmunini o'rganishga doir olib borilgan tadqiqot ishi natijalarini e'tirof etgan holda, sanogen tafakkurning takibiy komponentlarini quyidagicha belgilash lozim degan xulosaga kelindi

(1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning takibiy komponentlari¹⁴²

Quyida sanogen tafakkurning tarkibiy komponentlari mazmuniga to'xtalamiz. Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurning rivojlanish jarayoni uch bosqichda, ya'ni kognitiv, tayyorlov va yakuniy fazalarda kechadi. Mazkur bosqichlar asosida talaba-yoshlarda sog'lom tafakkur yuritish bilan bog'liq bilim va muayyan xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish yakuniy kutiladigan natija sifatida belgilanadi.

Kognitiv faza motivatsion va yo'naltiruvchi komponentlarni o'z ichiga olib, ushbu faza talabalarning oliy ta'limda o'qishdan maqsadi, o'zining qiziqishlarini, imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi bilan izohlanadi va ular yo'naltiruvchi xususiyat kasb etadi.

Sanogen fikrlashning *motivatsion komponenti* – qiziqishlar, qadriyatlar va motivlarni yangilash, hayotiy yo'nalish va kognitiv faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi individual baholash tizimini uyg'unlashtirish, shuningdek shaxs resurslarini yangilash va hissiy holatni barqarorlashtirish orqali belgilangan maqsadlarga erishish strategiyasini tanlash hamda shaxs yo'nalganligini belgilash vazifalarini bajaradi.

¹⁴² Ushbu rasm muallif tomonidan olib borilgan tadqiqot ishi natijalari asosida ishlab chiqilgan..

Sanogen fikrlashning *refleksiv komponenti* - sodir bo'layotgan voqealar haqida xabardorlik, uni tahlil qilish, o'z kelajagi haqidagi qarashlarni aniqlashtirish, "Men" obrazi tasvirini yaratish, o'z faoliyati va fikrlarini qayta aks ettirish orqali real hayotiy talablarga muvofiqligini aniqlash kabi xususiyatlar bilan izohlanadi. Ushbu komponent talabalarga o'z fikrlarini, ruhiy holatini, hatti-harakatlarini to'g'ri ifodalash va kuzatib borish imkonini beradi. Chunki, refleksiv ko'nikmalar bo'lajak o'qituvchilarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi [21, 48 b.].

Sanogen fikr yuritishning *operatsion komponenti* o'zida motivatsion va refleksiv komponent xususiyatlarini aks ettiradi. Mazkur komponent o'z navbatida talabaning sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni to'g'ri aks ettirishi va mazmunini anglashi, unda o'zi va olam haqidagi ijobiy fikr va tasavvurlarning namoyon bo'lishi, pedagogik faoliyat bilan bog'liq samarali ish usullarini o'zlashtirishga nisbatan shaxsiy ehtiyojning mavjudligi hamda maqsadlarning anglanganligi bilan izohlanadi.

Sanogen xulq-atvorning *yo'naltiruvchi komponenti* talabalarning shaxsiy dunyoqarashini o'zida aks ettirib, shu jumladan uning fikriy yo'nalganligi, o'zi va dunyo xaqidagi tasavvurlari, shuningdek o'zlashtirgan tajribasi, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalari bilan izohlanadi. Sanogen xulq-atvorning mazkur komponentiga muvofiq talaba o'z-o'zini, fikrlarini nazorat qilish va boshqarish, faoliyat yo'nalishlarini loyihalash va amalga oshirish, yangi tajribalarni o'zlashtirishga doir ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Sanogen xulq-atvorning *emotsional barqarorlik komponenti* mazmunini quyidagicha izohlash mumkin: salbiy hissiy-kechinmalardan xabardorlik, ularning ta'sirini kamaytirish yoki yo'qotish, hissiyotlar tabiatidagi tabiiylik, hissiy nazoratning olib borilishi. Sog'lom fikrlash jarayonining asosiy sharti hissiy-emotsional barqarorlik bo'lib, u sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ob'ektiv yondashish hamda ijobiy shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yishni ta'minlaydi.

Sanogen xulq-atvorning *mazmunli komponenti* yuqorida izohi keltirilgan barcha komponentlarning o'ziga xos xususiyatlarini umumlashtirgan holatda o'zida ifodalaydi. Mazmunli komponentni shaxsda quyidagi jihatlarning namoyon bo'lishi bilan bog'liqlikda tushuntirish mumkin: sog'lom fikr yuritishga oid bilimlar va faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilganligi; refleksiv ko'nikmalarining namoyon bo'lishi va emotsional barqarorlikning rivojlanganligi; o'z-o'zini nazorat qilish orqali emotsional va aqliy hatti-harakatlarning uyg'unligiga erishish, fikrlarning tashqi (eksteriorizatsiya) va ichki (interiorizatsiya) ifodalanishining yorqinligi hamda

shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi. Mazmunli komponent yakuniy natijalarni o'zida aks ettirib, bunga talabaning individual rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat olib borish shartlari, shaxslararo munosabatlardagi ishtiroki va sog'lom fikr yuritish jarayoni bilan bog'liq barcha ko'nikmalar kiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom fikrlash va sanogen xulq-atvorni belgilovchi omillar sifatida bu kabi tarkibiy komponentlarni ajratish bo'lajak o'qituvchi o'z shaxsining rivojlanishini ta'minlaydigan zarur ijtimoiy muhitni, ta'lim jarayoni bilan o'zaro bog'liqlikda o'quv-tarbiyaviy, ilmiy tadqiqotchilik va amaliy faoliyatni samarali olib borishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi (tashkil qilishi) hamda o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ongli munosabatning qaror topishi bilan bog'liq hisoblanadi.

Sanogen tafakkur bo'yicha keltirilgan mulohazalar va berilgan ta'riflardan kelib chiqqan holda uning quyidagi o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratildi:

- O'z fikrlarini tashqi ifodalay olish, ya'ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo'lishi;
- Fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo'lishi;
- Fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- Fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- Fikrlashda shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi;
- Fikriy harakatlarning uyg'un amalga oshirilishi (eshitish, nutq va harakat);
- Fikrlashdagi moslashuvchanlik;
- Fikrlash jarayonida o'z-o'zini ishontirish va nazoratning yuqoriligi;
- Fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg'unligi

Tadqiqot natijalari. Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida Farg'ona davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti va Termiz davlat universitetlarida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida tajriba-sinov ishlari (2019-2021) olib borildi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan har bir talabada sanogen va patogen fikrlash ko'nikmalari tabiiy ravishda turli xil omillar ta'sirida kichik maktab yoshi davridan shakllana boshlagan. Tajriba-sinov ishining birinchi asoslovchi bosqichida bizning asosiy vazifamiz, bu jarayon har bir talabada individual shaklda qanday kechayotganini hamda bo'lajak o'qituvchilarda sanogen va patogen tafakkur rivojlanganligining mavjud holatini aniqlashdan iboratdir.

Bizga ma'lumki, sanogen tafakkur o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar har xil topshiriqlar yechimini izlash bosqichlarida namoyon bo'ladi. Ushbu bog'lanishlar va munosabatlar tufayli talabalarda sanogen va patogen tafakkurga oid bilimlarning mavjudligini aniqlashga xizmat qiluvchi jami 15 ta savoldan iborat anketa hamda sog'lom fikrlashning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun taqqoslash qoidasi bo'yicha tuzilgan savolnomadan foydalanildi.

Savolnoma talabalarda sanogen va patogen tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan jami 48 ta tasdiq (16 bandda) va respondentlarni yolg'onchilik darajasini (tekshiruv amaliyotiga munosabatini) aniqlashga xizmat qiladigan 3 ta savoldan iborat. Savolnomada quyidagi kabi ta'kidlar o'z aksini topdi:

1. a) agar biror vazifani bajara olmasam, o'zimdanda xafa bo'laman yoki o'zimdanda ko'nglim to'lmaydi;

b) agar biror vazifani eplay olmasam o'z o'zimni kuchli tanqid qilaman;

c) odatda bunday vaziyatlar uchun ko'p qayg'urmayman, o'zimga bo'lgan ishonch pasayadi.

2. a) shu kungacha o'zlashtirilgan hayotiy faoliyat tajribasini erishilgan muvaffaqiyatlar omili sifatida baholayman;

b) o'zlashtirilgan faoliyat tajribasi yangi muvaffaqiyatlarga erishishni ta'minlamaydi, deb o'ylayman.

c) yangi muvaffaqiyatlar faqatgina qulay shart-sharoit va imkoniyatlarga bog'liq, bunda faoliyat tajribasi ham talab etiladi.

3. a) kursdoshlarim tomonidan bildirilgan fikrlar men uchun ahamiyatli va ularni doim tushunishga harakat qilaman.

b) har kim o'z fikriga ega bo'lishi kerak, bunda bir-birini tushunish shart emas.

c) boshqalar fikrini eshitish va tushunish bilan bog'liq holda menda doim qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

4. a) men uchun eng asosiysi jismoniy salomatlik, uni asosiy muvaffaqiyatlar omili sifatida baholayman.

b) menimcha, jismoniy salomatlikning o'zini shaxsiy muvaffaqiyatlar omili sifatida baholab bo'lmaydi.

c) mening o'ylashimcha, _____

5. a) kursdoshlarim men tomonimdan bildirilgan tashabbuslarni doim qo'llab-quvvatlashadi.

b) kursdoshlarim mening tashabbuslarimni qo'llab-quvvatlashi shart emas.

c) mening tashabbuslarim qo'llab-quvvatlanmasa, odatda men ulardan xafa bo'laman.

Talabalar o'rtasida o'tkazilgan anketa ularning sanogen tafakkurni qanday tushunishi, unga oid mavjud bilimlar hajmi hamda sog'lom fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqish darajasini belgilashga xizmat qilgan bo'lsa, savolnoma esa aynan ularda sanogen yoki patogen tafakkurning rivojlanganligini aniqlashga xizmat qildi. Shu bilan birgalikda talabalar ishtirokida suhbat va kuzatish ishlari ham olib borildi.

Talabalarning sanogen tafakkur haqida ma'lumotga egaligi hamda uning rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan anketa va so'rovnoma jami 455 nafar respondent ishtirok etdi. Shundan 226 nafari nazorat guruhiga, 229 nafari esa tajriba guruhiga biriktirildi.

O'tkazilgan anketa va so'rovnoma bo'yicha olingan dastlabki nazorat kesimi natijalari miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar quyidagi jadvalda aks ettirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen va patogen tafakkurning rivojlanganlik darajasi (dastlabki nazorat kesimi natijalari)

Tajriba sinov guruhleri	Sanogen fikrlash ustuvor		Patogen fikrlash ustuvor		Sanogen va patogen fikrlash mavjud	
Nazorat guruhi (226 nafar respondent)	11,9 %	27 nafar	42.1 %	95 nafar	46,0 %	104 nafar
Tajriba guruhi (229 nafar respondent)	11,4 %	26 nafar	44.1 %	101 nafar	44,5 %	102 nafar
O'rtacha ko'rsatkich	11,6 %	53 nafar	43 %	196 nafar	45,2 %	206 nafar

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra quyidagilar aniqlandi: - nazorat guruhida 226 nafar respondent so'rovnoma ishtirok etishgan bo'lsa, shundan 11,9 % ishtirokchilarda (27 nafar) sanogen fikrlash tarzi ustuvor, 42,1% ishtirokchilarda (95 nafar) patogen fikrlash tarzi ustuvor bo'lsa, 46,0% ishtirokchilarda esa (104 nafar) ham sanogen, ham patogen fikrlash ko'nikmalari mavjud.

- tajriba guruhida 229 nafar respondent so'rovnoma ishtirok etishgan bo'lsa, shundan 11,4 % respondentda (26 nafar) sanogen fikrlash tarzi ustuvor, 44,1 %

ishtirokchilarda (101 nafar) patogen fikrlash tarzi ustuvor, 44,5 % respondentlarda esa (102 nafar) ham sanogen, ham patogen fikrlash ko'nikmalari mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi.

- o'rtacha ko'rsatkich bo'yicha 11,6 % sinaluvchilarda sanogen fikrlash, 43,0 % sinaluvchilarda esa patogen fikrlash tarzi ustunlik kasb etgan bo'lsa, 45,2 % sinaluvchilarda bir vaqtda ham sanogen, ham patogen fikrlash ko'nikmalari mavjudligi aniqlandi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish muammosining nazariy jihatdan anglanishi bugungi kunda jadal amalga oshmoqda. An'anaviy nuqtai-nazardan sanogen tafakkur mazmuni sog'lom fikr yuritish, inson tafakkur tarzining ijobiy yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy sharoitda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda sanogen tafakkur insondagi salbiy hissiy kechinmalarni nazorat qilish, uning salomatligini ta'minlash, o'quv faoliyati samaradorligini oshirish hamda shaxs refleksiv ko'nikmalari bilan bog'liqlikda ko'rib chiqilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonining kognitiv, tayyorlov, yakuniy fazalariga ustuvorlik berish asosida sog'lom fikr yuritishning motivatsion, refleksivlik, operatsion ko'nikmalari hamda yo'naltiruvchi, emotsional barqarorlik, mazmunli kabi sanogen xulq-atvorga oid tarkibiy komponentlari izohlandi.

Bo'lajak o'qituvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish bilan bog'liqlikda fikrlarni tashqi ifodalay olish, fikrlash jarayonida interiorizatsiya, shaxsiy refleksiya va mustaqillikning namoyon bo'lishi, fikrlashdagi moslashuvchanlik, o'z-o'zini ishonitirish, nazoratning yuqorililigi, emotsionallik va aqliy yondashuvlarning uyg'unligini kabi pedagogik-psixologik xususiyatlari ajratib ko'rsatildi.

Sanogen (sog'lom) tafakkur inson salomatligini muhofaza qilishning noan'anaviy usullaridan biri bo'lib, yangicha fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi. Shuningdek, sanogen fikrlash ko'nikmasi fikr yuritishning xilma-xil usullarini o'zlashtirish, unga erkinlik berish, emotsiyalarning keragidan ortiqcha namoyon bo'lishini kamaytirishga imkon beradi. Sanogen fikrlash ko'nikmalarini o'zlashtirish uchun avvalo shaxs o'zida kechadigan aniq hissiy-emotsional holatlar (masalan, nafrat, uyat, muvaffaqiyatsizlik, ishonchsizlik, noadekvat baholash va salbiy fikrlar) haqida yangicha tafakkur yuritishni tarbiyalashi lozim. Ana shunda, inson o'zida mavjud bo'lgan muayyan stereotip fikrlar va xulq-atvor ko'nikmalaridan xalos bo'ladi. Shu jihatdan, talabalarning sanogen tafakkurini rivojlantirishda uning

pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olish va mazkur jarayonda reflektiv texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. Valerie Lesniak. An Integrative Model of Spiritual Formation: A Work Always in Process. // Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry ISSN 2325-2855 © Copyright 2013 Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry All rights reserved.
3. Ю. М. Орлов. Оздоровляющее (саногенное) мышление / составитель А. В. Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1. — Издание 2-е изд., исправленное. - М.: Слайдинг, 2006. - 96 с.
4. S. Ataxanova. Innovatsion ta'lim jarayonida tafakkur // Ilmiy maqola. "Sog'lom avlod uchun" ilmiy-ommabop jurnal materiallari. 2014 yul. 5/4- 5 b.
5. Z.A. Abdiraxmonova. O'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Diss. avtoref. 2020. - 48 b.
6. С.Н. Морозюк. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуаций характера и повышения эффективности учебной деятельности. Док.псих.наук ... дисс. М. 2001. – 382 с.
7. Т.Н. Васильева. Саногенное мышление учащегося, учителя. Калининград : ГИПП «Янтарный сказ», 2000. - 152 с.
8. А.В. Россохин. Личностная саногенная рефлексия в измененных состояниях сознания. Автореф.докт.дисс. М., 2009. – 41 с.
9. Ю.Н. Крайнова. Саногенная рефлексия в структуре эмоциональной компетентности будущих педагогов. Автореф. канд. дисс. М., 2010. – 28 с.
10. Л.А. Кананчук. Саногенная рефлексия как фактор адаптации студентов в полиэтнической среде вуза. Автореф. канд. дисс. М., 2010. – 22 с.
11. Н.В. Павлюченкова. Саногенная рефлексия как фактор развития эмоциональной компетентности. Автореф. канд. дисс. М., 2008. – 27 с.
12. Н.В. Пил. Сила позитивного мышления / Пер. с англ. Л. А. Бабук. 2-е изд. Мн. : ООО «Попурри», 2003. - 336 с.
13. A. Yu. Hilman. (2017) Psychological conditions for the formation of the sanogenic thinking of student youth: author's abstract. dis. ... Candid. psychological Sciences: 19.00.07, National University of Ostroh Academy, Ostroh, 20 p.

14. О.Ю. Осадько. Саногенний потенціал особистості як психологічна основа біо-психо-соціального здоров'я людини / О.Ю.Осадько // «Особистість у сучасному світі» - К. ДП «Інформаційно-аналітичне агентство», 2014 с.64-68
15. І.Ф. Аршава. Саногенічна парадигма у дослідженні особистості / Аршава І.Ф., Рєпіна О.Г. // Медична психологія, 2010 №2. – с. 16-21.
16. Maddi, S. Hardiness and Mental Health / S. Maddi, D. Khoshaba // Journal of Personality Assessment. 1994. - Oct. - №2. - Vol. 63. - P. 265-274.
17. Исмаилов, М. К. (2019). Теоретические вопросы развития творчества студентов в процессе их включенности в научно-исследовательскую деятельность. *Вопросы педагогики*, (5-1), 74-76.
18. Исмаилов, М. К. (2021). БЎЛАЖАК ЎЎҚИТУВЧИЛАРДА САНОГЕН ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ. *Современное образование (Узбекистан)*, (4 (101)), 23-31.
19. Г.Г. Башанаева. Структурные компоненты саногенного мышления // Вестник Университета: Педагогика, психология, социология, филология. Раздел V. - №23, 2013. – 223-228 с.
20. И.М. Спивак. Сущность и структура саногенного поведения с позиции онтологического подхода к обучению // International Journal of Developmental and Educational Psychology INFAD Revista de Psicología, №1-Vol.2, 2013. ISSN: 0214-9877. pp:469-482
21. Исмаилов, М. К. (2021). РЕФЛЕКСИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРДА САНОГЕН ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. *Современное образование (Узбекистан)*, (3 (100)), 46-52.

TA'LIM SIFATI: ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLARI HAQIDA FIKR VA MULOHAZALAR

Mavlyanov Aminjon

fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Achilov Ganijon Bobojonovich

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ubaydullaev Eldor Ixtiyor o'g'li

“ Ekologiya va tabiatdan foydalanish” yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyati filiali

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv dasturlarni takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, ilmiy tadqiqot ishlarini davr talablari asosida tashkil etish, bu borada xorij tajribalaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlari hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalarni rivojlantirish kabilar haqida so'z yuritiladi.

***Kalit so'zlar:** fan va texnika, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, mantiqiy fikrlash, metod, texnologiya va b.q.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются проблемы повышения качества образования, их решения и перспективы, в том числе совершенствование учебных программ, проектирование обучения, организация исследований в соответствии с требованиями времени, использование зарубежного опыта, профессиональные качества и развитие операций логического мышления и др.

***Ключевые слова:** наука, образование, воспитание, учебная программа, государственный образовательный стандарт, знания, умения, навыки, компетентность, профессиональное качество, логическое мышление, метод, технология и др.*

ABSTRACT

This article discusses the problems of improving the quality of education today, their solutions and perspectives, including the improvement of curricula, training design, organization of research in accordance with the requirements of the time, the use of foreign experience in this area, professional qualities and the development of logical thinking operations.

***Keywords:** science, education, upbringing, curriculum, state educational standard, knowledge, skills, qualifications, competence, professional quality, logical thinking, method, technology, etc.*

KIRISH

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari [1-5] da o'z aksini topgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo'lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay

bilish mahoratiga ega bo'lishi muhim. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda zaruriy bilim, muhim qonuniyat va ko'plab fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy sifatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda.

Lekin, tahlil va o'rganish natijalari hozirgacha ta'lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko'rsatmoqda. **Jumladan:**

- ta'lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan o'quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to'liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;
- ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etilishida tizimli va innovatsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi;
- pedagoglar tomonidan innovasion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyotga keng joriy etilmasligi;
- ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;
- o'quv mashg'ulotida ta'lim oluvchilarga bahslashish, o'zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi; ayrim mashg'ulotlarda pedagoglar eski ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida

tayyorgarlik ko‘rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda, kompetentliklari esa yetarli darajada emasligi sezilmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish pedagoglarning malakasini muntazam oshirishni, bunda alternativ usullarni qo‘llash hamda tinimsiz izlanishlarini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida pedagoga katta mas‘uliyat yuklaydi.

Hozirda o‘quv dasturi mazmuni va strukturasi qayta ko‘rib chiqish juda muhim. U pedagog uchun “ko‘zgu” vazifasini bajarishi lozim. Chunki, inson ko‘zgu (oyna)ga qarab o‘zining butun bir vujudini ko‘radi. Shuning uchun ham pedagog o‘z fani bo‘yicha o‘quv dasturiga qarab, butun bir faoliyatini, o‘quv mashg‘ulotida ta‘lim oluvchilarga yetkazishi lozim bo‘lgan jarayon borishini, unda amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalarni eslaydi. Lekin, amaldagi fan dasturlarida o‘ziga yarasha kamchiliklar mavjud: **jumladan:**

- kirish qismida fanning dolzarbligi va ahamiyati to‘liq ochib berilmasligi;
- fanni o‘qitishda maqsad va vazifalarning chuqur, aniq yoritib berilmasligi yoki haddan tashqari ko‘pligi;
- ta‘lim oluvchilarga qo‘yilayotgan malaka talablarining bugungi kun talablari asosida shakllantirilmaganligi, bu borada ishlab chiqaruvchilar bilan o‘zaro hamkorlikning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- kursdan kursga o‘tishda yoki bitiruvchilarda malaka talablarini egallaganlik darajasini aniqlovchi mezonlar va ko‘rsatkichlarning ishlab chiqilmaganligi;
- malaka talablarini ishlab chiqishda ta‘lim oluvchilarning kasbiy sifatlari (mustaqillik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik) hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalari (tahlil qila olish, klassifikatsiyalash, solishtirish, taqqoslash, umumllashtirish, xulosa chiqarish, amaliyotga joriy etish kabi) kabi omillarga deyarli e‘tibor berilmasligi;
- o‘quv dasturlari strukturasi yangilash va o‘zgartirish zaruriyati;
- o‘quv jarayonini loyihalash mexanizmlarini kiritish zaruriyati;
- pedagogik va axborot texnologiyalarining hamda mustaqil ta‘limning to‘g‘ri talqin etilmaganligi;
- foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatiga yillar bo‘yicha chegara qo‘yilganligi va boshqalar.

Yuqoridagi kabi kamchiliklarni barataraf etish bilan biz zamonaviy o‘quv dasturlarning yaratilishiga erishamiz. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim deb **hisoblayman:**

- **birinchidan**, fan dasturining kirish qismida o‘qitiladigan fanning dolzarbligi va ahamiyati, uning maqsad va vazifalari, uning kelajakda nima kerakligini ochib berishga alohida e‘tiborni qaratish lozim. Buni fanga tegishli hayotiy misollar, fan va texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarda erishilayotgan yutuqlarni inobatga olib yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu albatta ta‘lim oluvchilarda fanga bo‘lgan boshlang‘ich motivatsiyani uyg‘otishga, kelajakka bo‘lgan ishonch kurtaklarining yuzaga kelishiga yordam beradi;

- **ikkinchidan**, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Respublikamizga xorijdan ko‘plab yangi texnika va texnologiyalar, investisiyalar kirib kelmoqda, qolaversa o‘zimizda ham ishlab chiqarilmoqda, yangi-yangi korxonalar hamda ishlab chiqarish tashkilotlari barpo etilmoqda. Albatta ertaga ularda mustaqil ishlay oladigan, ularni boshqara oladigan mutaxassislar zarur. Shuning uchun bugungi kunda biz kelajak uchun tayyorlayapgan mutaxassislarimizga ular tomonidan qo‘yilayotgan zamonaviy malaka talablarini aniq, to‘g‘ri, pala-partish qilmasdan, “bizdan ketdi - egasiga yetdi” tarzida ish qilmasdan o‘rganib, kerak bo‘lsa ushbu korxonalar va tashkilotlarga borib, ko‘z bilan ko‘rib, ularning yetakchi, tajribali mutaxassislari bilan hamkorlikda shakllantirish lozim. So‘ngra ushbu tayyor malaka talablari o‘quv dasturida o‘z aksini topishi lozim;

- **uchinchidan**, amaldagi o‘quv dasturlarida soatlar taqsimotini jadval shaklida berish. O‘quv rejadagi fan mavzusi soatlari taqsimoti o‘quv dasturida o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq. Chunki, pedagog dasturni ochganda soatlarni izlab yurmaydi, o‘quv rejasiga murojaat qilmaydi. Bu ishni osonlashtiradi va vaqtni tejaydi;

- **to‘rtinchidan**, o‘quv dasturida fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish deb: aqliy hujum, bumerang, sinkveyn, konseptual jadval kabi interfaol usullar yozilganini kuzatamiz. Axir ular pedagogik texnologiyalar emas-ku, ular pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol usullardir. Axborot texnologiyalari bo‘yicha esa biron bir texnologiya nomi yozilmagan. Demak, bu noto‘g‘ri yondashuv va talqin. Shuning uchun bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilarga e‘tiborni qaratish **lozim**:

fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar deb:

- ta‘lim oluvchining ijtimoiy va bilish faolligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan - shaxsiy-insonparvarlik;

- o‘quv jarayonining texnologik darajasini to‘liq ifodalash, amalda joriy etishga yo‘naltirilgan – loyihalash;

- mustaqillik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, hamkorlik, ijodkorlik kompetentligini shakllantirishga yo‘naltirilgan - muammoli o‘qitish;

- ta'lim oluvchida ijodkorlik, yangilik yaratish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan - evristik o'qitishni e'tiborga olish.

Pedagogik texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol usullar deb, **bunda ta'lim oluvchining:**

- mustaqil va ijodiy ishiga yo'naltirilgan - kichik guruhlarda ijodiy izlanish;

- bilim doirasini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy maqola, risola va kitoblar bilan tanishtirish orqali, bilim olish va fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakasini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashiga yo'naltirilgan - erkin fikrlash;

- tinglash va muloqot qilish ko'nikmasini, turli nuqtai nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlashga yo'naltirilgan - tanqidiy tafakkur;

- faoliyat, muloqot, hamkorlik, turli hayotiy hodisalarni boshdan kechirishga yo'naltirilgan – diskussiya;

- fikrini hamda mavzuga bo'lgan munosabatini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishiga va to'g'ri xulosa chiqarishiga yordam berish, erkin holda bahslashishga yo'naltirilgan – muloqot;

- shaxsiy funksiyasini dolzarblashtirishga, uning muhim tanlashni amalga oshirish tajribasini to'plashga, tanqidiy qabul qilishga, hayojonli muammolarni ijodiy yechishga refleksiya maxsus yo'naltirilgan – dialog;

- mustaqil ishlash ko'nikmasi, ijodiy fikrlash qobiliyati va jamoani boshqarish, yechim qabul qilish hamda uni bajarishni tashkil etish malakasini rivojlantirishga yo'naltirilgan – o'yinni e'tiborga olish.

Axborot texnologiyalari deb: dasturlashtirilgan, avtomatlashtirilgan, chiziqli texnologiyalarga e'tiborni qaratish;

- **beshinchidan**, loyihalashni o'quv dasturlariga kiritish. Bu juda muhim. Ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalardan biri bu, faoliyatni, jarayonni loyihalash hisoblanadi. Shuning uchun ham bu fan dasturida o'z aksini topishi kerak. Jarayonni loyihalashda:

- mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish hamda o'quv maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi)ni aniqlashtirishni;

- o'qitishning texnologik usullari variantlarini tuzishni;

- har bir variantni baholash va optimalini tanlash ya'ni, loyihalananayotgan jarayonning umumiy modelini yaratish va modellashtirishni;

- tanlangan texnologik usulni amalga oshirish yo'llarini, ya'ni pedagogning ta'lim oluvchilar o'quv-bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha didaktik faoliyati tizimlarini ishlab chiqishni;

- jarayonni moddiy-texnik ta'minlashni tanlash kabilarga alohida e'tibor qaratish lozim;

- **oltinchidan**, mustaqil ta'lim, mustaqil ishni to'g'ri talqin etish. Ko'pchilik o'quv dasturida laboratoriya ishlari, mustaqil ishlar, seminar mashg'ulotlari alohida-alohida yoritilgan. Axir, bularning barchasi mustaqil ta'lim shakllariga kiradi-ku. Shuning uchun ham ularni fan dasturida "mustaqil ta'lim" nomi bilan alohida paragraf qilib yoritish lozim.

Shu bilan bir qatorda, ayrim fan dasturlarida barcha mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish shakli sifatida faqat "referat yozish" berilganligini kuzatish mumkin. Bu hozir modadan qoldi-ku. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarga referat yozish kerak desangiz, ular ARMdagi yoki Internetdagi tayyor ma'lumotlarni ko'chirib yozib kelishadi. Shuning chun ham hozirda ularga kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni yaratishga oid, shuningdek, muammoli savol va topshiriqlarga javob topishga qaratilgan vazifalarni ko'proq berishimiz maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida ularning o'z ustlarida mustaqil ishlashlariga, ARM va Internet tarmoqlarida izlanishlariga, tajribali pedagoglar bilan hamkorlik qilishlariga, ularning u yoki bu manbalardan ma'lumotlarning ko'chirib olishlari oldini olishga yordam beradi;

- **yettinchidan**, oxirgi 10-15 yil ichida foydalangan adabiyotlar bo'lishi kerak deyilgan. Bu ayniqsa, pedagogika yo'nalishida mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Chunki, bugungi kunda ajdodlarimiz, avlodlarimiz, bobolarimiz tuzuklaridan foydalanmaslikning iloji yo'q. Shuning uchun foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatiga yillar bo'yicha chegara qo'ymaslik kerak.

Ta'lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash muhim. Har bir mashg'uloti ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mashg'ulot sifati o'qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas'uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta'lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo'lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog'langanligini tushuntira olsa, ma'lum maqsadga

erishgan bo‘ladi. Buning uchun zamonaviy o‘qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur [6].

Jumladan, mashg‘ulotda muammoli, modulli, loyihalash, evristik hamda hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim oluvchilarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, mustaqilligini oshirish, ularda o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, mas‘uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Bu texnologiyalar ularning berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o‘quv materiallarini puxta o‘zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Bugungi kunda o‘quv mashg‘ulotlari sifatini oshirish masalasiga yangicha yondashish, bajarilgan ishlar bilan cheklanmasdan, uni muntazam ravishda takomillashtirish, yangi uslub va shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Har bir ta‘lim yo‘nalishi **bo‘yicha**:

- o‘quv mashg‘ulotining mantiqiy-tuzilish shaklini (o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda ketma-ketlik) aniqlash, ularni bevosita hayot talablariga moslashtirish;

- muammoli topshiriqlarni tuzish, ular asosida uslubiy tavsiyalar va ko‘rsatmalarni tayyorlash;

- pedagogik texnologiyalarning zamonaviy turlarini qo‘llash, tajribadan o‘tkazish, natijalariga qarab, o‘quv jarayoniga joriy etish;

- shu tariqa ta‘lim oluvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish;

- pedagoglar faoliyatini rag‘batlantirishda barchaga bir xil yondashish tamoyillaridan voz kechish, uning o‘rniga faolligiga hamda mashg‘ulotlar sifatini oshirishga taalluqli bo‘lgan muayyan ishining sifati, hajmiga qarab rag‘batlantirish lozim.

O‘quv mashg‘ulotining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishda - asosiy e‘tiborni maqsad va vazifalarni aniqlashga qaratish, pedagog va ta‘lim oluvchilarning samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ilg‘or pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanish, natijalarini baholash tizimini takomillashtirish, uning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda tashkil etish va amalga oshirish, ta‘lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini zamon talablari darajasida shakllantirish, o‘quv mashg‘ulotini noan‘anaviy o‘qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzluksiz aloqasini yaratish, kasbiy, iqtisodiy qiziqishlarni uyg‘otish, mustaqil tarzda kerakli ma‘lumotlarni yig‘ish, muammoni aniqlash, yechimlarini topish, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tanqidiy tahlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo‘llashga tizimli va ijodiy yondashishga qaratish lozim [7].

Ushbu muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga ko‘proq e‘tiborni qaratish **lozim:**

- o‘quv dasturlarini ilg‘or xalqaro tajribalar asosida tajribali pedagog hamda mutaxassislar bilan kelishgan holda tubdan takomillashtirish, kerak bo‘lsa ularning variativ variantlarini ishlab chiqish;

- ta‘lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ fikrlashni, yangicha yondashuv uslublarida qobiliyatlarini shakllantirish;

- nazariy va amaliy bilimlarni yaxlitligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan ilg‘or tajribalarni tatbiq etgan holda yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish;

- o‘quv mashg‘ulotida ta‘lim oluvchilar faolligini oshirishni nazarda tutuvchi muammoli savol va topshiriqlarni ishlab chiqish hamda debatlarini yo‘lga qo‘yish;

- o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida ta‘lim oluvchilar uchun tajribalar o‘tkazish, modellar yasash, loyihalash, modellashtirish, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni bartaraf etish, o‘z g‘oyalarini hayotga joriy qilishga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimini yaratish;

- respublika va xorijdagi yetakchi mutaxassis-olimlar ma‘ruzalarini hamda vebinar mashg‘ulotlarini onlayn audio-, videotranslyatsiyalar ko‘rinishida tashkil qilish;

- o‘quv qo‘llanmalarini sohalardan kelib chiqib yaratish. Masalan, fizika darsligi bo‘yicha: tibbiyot-fizikasi, transport fizikasi, yengil sanoat-fizikasi va b.q.;

- har bir fan bo‘yicha o‘quv yili uchun “Fan yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish;

- pedagoglarning “Tahlil – muammo – yechim - natija” klasteri asosida o‘quv mashg‘ulotini tashkil etishini yo‘lga qo‘yish. Ma‘ruzalarning ushbu klaster asosida o‘tkazilishiga erishish;

- ta‘lim oluvchilarning referat yozishlaridan voz kechib, “Tahlil – muammo – yechim - natija” klasteri yo‘nalishidagi bitiruv malakaviy ishlarini yo‘lga qo‘yish;

- ta‘lim oluvchilarning bilimlarini baholashda barcha baholash tizimlaridan voz kechib “yaxshi o‘zlashtirgan, o‘rtacha o‘zlashtirgan, past o‘zlashtirgan” tizimni kiritish (Izoh: a‘lo bu ideal tushuncha. O‘zlashtirmadi deb hisoblash noto‘g‘ri, chunki biz maktabgacha ta‘limda, umumiy o‘rta ta‘limda, profita‘limda, qolaversa oliy ta‘limda bolani shuncha yillar nimaga o‘qitdik);

- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda quyidagi punktlarga e‘tiborni qaratish: tadqiqot ishining tahlili, tahlil asosida aniqlangan muammolar, muammoni yechishga qaratilgan maqsad va vazifalar, ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan metod, texnologiya va vositalar, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, olingan natijalar va ularning amaliyotga tadbig‘i, xulosar va takliflar.

Shu bilan bir qatorda:

- pedagoglar o'z kasbiy faoliyati bo'shliqlarni to'ldirish ustida izlansin, o'z ustida muntazam ishlasin;

- ta'lim oluvchilar bilan Internet tarmoqlari yoki telegramm orqali bog'lanib tursin, o'z fani yuzasidan ularga muammoli vazifalarni taklif etib borsin hamda ularning bajarilishini nazorat qilsin;

- hayotiy, turmush, fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarni hal etishga bag'ishlangan ma'lumotlardan ularni ko'proq xabardor qilsin;

- bugungi kunda televidenie orqali efirga uzatilayotgan darslarni kuzatib borsin, ulardan tajriba olsin, ularni ko'rishni ta'lim oluvchilariga ham taklif etsin;

- ma'ruzalar slaydini yaratsin, ularda loyihalash va modellashtirishga e'tiborni qaratsin, bu o'z navbatida ta'lim oluvchilarning bilimlarni puxta egallashlariga, yaxshi tushunishlariga, kelajakda kerakli ekanligini tasavvur etishlariga xizmat qiladi;

- bugungi kunda o'qitish shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini qanday takomillashtirish kerakligi haqida o'ylasin, bu o'z navbatida ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirada, pedagogga bo'lgan hurmat kuchayadi, o'zaro ijobiy munosabat va hamkorlik vujudga keladi;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ular asosida yaratilgan interfaol usullarni yaxshilab o'rgansing, chunki ayrim pedagoglarimiz pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalarini, uning tamoyillarini, qonuniyatlarini, darsga kiritish mexanizmlarini hanuzgacha bilishmaydi yoki ulardan pala-partish foydalanishadi, bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchilar bilimining susayishiga olib keladi;

- bugungi kunda ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan – muammoli o'qitish, loyihalash, evristik, modellashtirish, modulli o'qitish texnologiyalaridan ko'proq foydalanishga hamda o'z faoliyatiga joriy etishga harakat qilsin, ularni yaxshilab tushunib olsin;

- ta'lim oluvchilarga kelajakda yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishlarida mavjud tajriba va mahoratini ayamasin, xo'ja ko'rsinga dars o'tishdan voz kechsin, chunki yoshlarimizni kelajak kutyapti, Prezidentimiz ularga katta ishonch bildiryapti, qolaversa bu pedagogning obro'si;

- men zo'rman deyishdan o'zini asrasin, tajriba almashsin, bilmaganlarini boshqalardan so'rasin, bilganlarini boshqalarga o'rgatsin, aytishadi-ku so'rab o'rgangan olim, so'ramagan o'ziga zolim deb.

Demak, ilg'or xorij tajribalaridan foydalangan holda o'zimizning tizimlashtirilgan ta'lim sifati borasidagi amalga oshiriladigan ishlarni

umumlashtirish va hayotda qo'llash bugungi kunda juda dolzarb Shu maqsadda, keyingi paytlarda o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv-metodik materiallarni keng joriy etish muhim vazifalar etib belgilandi. Bu o'z navbatida ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlardan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va ular asosida ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy talablarga, pedagogik va axborot texnologiyalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi hamda ta'lim oluvchilarning hayotiy tajribasi, ehtiyoji, qiziqishi hamda imkoniyatlariga tayaniladi.

XULOSA

Bu vazifalarni amalga oshirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlashda xorij tajribalaridan samarali foydalanish, uning asosida o'quv mashg'ulotini tashkil etishga ta'lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Chunki, o'quv mashg'uloti jarayoni pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni bo'lib, uni tashkil qilish va boshqarishga to'g'ri, innovasion yondashuv ta'lim oluvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ishlashga, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish orqali ta'lim sifatiga e'tibor berishga jalb qiladi [7-9].

Ta'lim sifatini oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni aniq belgilash, buning uchun jahonda tan olingan tajribalardan foydalanish, axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda qo'llash bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilashga xizmat qiladi, bu jarayon samaradorligini oshiradi. Ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish, o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish, mazmunga e'tiborni qaratish ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-

3151-son Qarori. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son).

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 06/20/6108/1483-son).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son).

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги Қонун”. ЎРҚ-637-сон. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон).

7. Мавлянов А., ва б.қ.лар. “Илғор педагогик технология бўйича ўқув машғулоти лойиҳалаш”. Замонавий таълим. 2016. №2. Б.25-29.

8. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Ўқув машғулотларини ташкил этишда таълим технологиялари. Ўқув қўлланма. Тафаккур бўстони нашриёти. Тошкент, 2013. 142 б.

9. Мавлянов А., ва б.қ.лар. Педагогик технология тамойиллари асосида машғулот машғулотларини олиб бориш технологияси. Ўқув-услубий қўлланма. - Тошкент: Ворис, 2010. - 117 б.

**YAPON MUMTOZ ADABIY MANBALARIDA DINIY-FALSAFIY
MA'NO IFODALAGAN METAFORALARNING LISONIY XUSUSIYATLARI**

U.X.Haydarova

O'qituvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada yapon mumtoz adabiy manbalarida diniy-falsafiy ma'no ifodalovchi metaforalarning lisoniy xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Ularning grammatik, semantic va lingvistik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yapon klassik adabiyoti, Xojoki, Tsureduregusa, metafora, lingvistik tahlil

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОР,
ВЫРАЖАЮЩИХ РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В
ЯПОНСКИХ КЛАССИЧЕСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКАХ**

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются лингвистические особенности метафор, выражающих религиозно-философское значение в японских классических литературных источниках. Выявлены их грамматические, семантические и лингвистические особенности.

Ключевые слова: японская классическая литература, ходзёки, цуредурегуса, метафора, лингвистический анализ.

**LINGUISTIC FEATURES OF METAPHORS THAT EXPRESS
RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL MEANINGS IN CLASSICAL
JAPANESE LITERATURE**

U.X.Haydarova, teacher, master

ABSTRACT

This article discusses the linguistic features of metaphors that express religious and philosophical meanings in classical Japanese literature. The grammatical, semantic, and linguistic features of metaphor are revealed.

Keywords: Japanese classical literature, Hojoki, Tsureduregusa, metaphor, linguistic analyze

KIRISH

1. Metaforalarning lingvistik xususiyatlari

Lakoff va Johnson tomonidan rivojlantirilgan metafora nazariyasi metafora soʻzning gavhari” emas, balki insonning ongi, tasavvur dunyosi bilan bogʻliq boʻlgan hodisa ekanligini, shu bois ham endi metafora nafaqat tilning, balki tafakkurning ham muammosiga aylantirilgani taʼkidlandi. Shu maʼnoda “metafora” atamasining oʻzi bu tushunchani bagʻriga sigʻdirolmaydi va yangi “konseptual metafora” atamasi paydo boʻldi .

Lakoff va Johnson metaforalarni maʼnosiga koʻra quyidagi turlarga ajratdi:

- a) Struktur metaforalar (Structural metaphor)
- b) Yoʻnaltirilgan metaforalar(orientational metaphor)
- c) Ontologik metaforalar (ontological metaphor)

a) Struktur metaforalar

Struktur metaforalar umumiy xususiyat, aloqa yoki strukturaga ega boʻlgan metaforalardir .

Yoki bir tushuncha boshqa bir terminlar strukturasi majozni tartibga solishi struktur metaforani ifodalaydi . Misol sifatida “Argumentatsiyani keltirib oʻtsak, aslida bu ikki tushuncha umuman boshqa maʼnoni ifodalaydi, lekin ularning strukturasi umumiy xususiyatlar bor. Har ikki hodisada ham qarshi tomonlar bor, jarayon hujum qilish, himoyalani shaklida kechadi va maqsad gʻolib boʻlishdir. “Urush” tushunchasi orqali “bahsga struktura, shakl berilmoqda.

Biroq, tahlilga koʻra “Hojoki” asarida struktur metaforalar qoʻllanmagani, “Tsureduregusa” asarida esa birgina “chabudaino ashi, yaʼni “stolning oyogʻi” majozini uchratishimiz mumkin. Stolning oyogʻi tushunchasiga inson oyogʻi tushunchasi orqali shakl berilmoqda yoki struktura jihatdan bu ikki tushuncha umumiy xususiyatlarga egadir.

b) Yoʻnaltirilgan metaforalar

Yoʻnaltirilgan metaforalar hissiyot, sigʻimga ega boʻlmagan “tepa-past, “oldi orqa” kabi tushunchalarni ifodalashda qoʻllaniladi. A. Qurʼonbekov uni “butun bir sistema boshqa bir sistema namunasida tashkil topadi va koʻpchiligi boʻshliqdagi holatlarga yoʻnaltirilgan” deb taʼriflaydi. Masalan, inson hissiyotlari doirasida ifodalasak, “yaxshilik” –yuqori, yomonlik”past”hisoblanadi. Inson yaxshi hodisalarni “kayfiyatim yuqori” –tepa”, noxushlikni “kayfiyatim tushib ketdi”past” bilan baholaydi. Shuningdek, sigʻim metaforalar (qoʻshni dala, uyning yoni kabi) ham ayni yoʻnaltirilgan metaforalar doirasida oʻrganiladi. Ammo, tadqiqotimiz manbasida yoʻnaltirilgan metaforalar qoʻllanmaganligi aniqlandi.

c) Ontologik metaforalar

Ontologik metaforalar mavhum hodisalarni moddiy obyektlar orqali tushuntiradi (Time is money). Shu sababli moddiy obyektlar haddan ortiq voqealar, harakatlar, hissiyotlar, g'oyalar kabi ontologik majozlarga asos bo'la oladi. "Hojoki" va Tsuredugusa" asarlarida bu kabi majozlarni ko'plab uchratish mumkin, xususan, Hojokida "dunyo, "inson, "o'tkinchilik" kabi mavhum tushunchalar, daryo, suv, shabnam, "gul, yashash joy" kabi moddiy obyektlar orqali ifodalangan. Tsuredugusada esa bu kabi tushunchalar tarozi, "ayol, "chumoli, olmos, "tutun, bir kunlik boshpana" singari moddiy obyektlarda o'z aksini topgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2. Metaforalarning grammatik tahlili

M. Taniguchi metaforalarning, asosan, ot, fe'l, sifat so'z turkumi doirasida ko'plab qo'llanishini aytib o'tadi. Demak, avvalo, □Hojokida qo'llangan metaforalarni so'z turkumlari doirasida ko'rib chiqamiz.

□Hojokida metaforalarning grammatik tahlili(jadval 3)

N: 名詞 (Ot) 動詞 (Fe'l) 形容詞(Sifat)

1. ゆく川- daryo 住まひの争へる- binolarning urushishi
2. 水- suv 眼を嬉ばしむる- ko'zningquvonishi
3. うたかた-suv yuzasidagi pufakcha 花が亡くなる-

Gulning vafot etishi

4. 玉敷の都- olmos shahar 世を捨てる- dunyoni tashlash
5. 朝、夕べ- tong va shom
6. 飯の宿り- qarzga olingan boshpana
7. 主と住か- uy va uning sohibi

計 22 4 0

Tahlilga ko'ra 22 ta ot metafora, 4 ta fe'l metafora qo'llangani, ammo sifat metaforalar umuman uchramasligi aniqlandi. Ot metaforalar majoziy ma'nosi yuqori, insonga hissiyot bera olish kabi xususiyatlarga ega bo'lsa, fe'l metaforalar, asosan, kundalik hayotda ko'p foydalaniladigan neytral(dead metaphor) (batafsil 2.3)majozlardir degan xulosaga kelindi.

"Tsuredugusa"da qo'llangan metaforalarning grammatik tahlili(jadval 4)

N: 名詞 (Ot) 動詞(Fe'l) 形容詞(Sifat)

1. 竹の末葉- bambukning so'ngi yaprog'i 文書きを散らす -so'zlarni sochib yubormoq 世捨て人-dunyodan voz kechgan odam

2. 木-daraxt 筆に任せつつ-qalamga mas'uliyat yuklamoq 見ぬ世の
人-ko'rinmas dunyo
 3. 鏡-oyna 葉が降りる-barg to'kilmoq 苦し-zahmat
 4. 露-shudring 紅葉が散りる-kuzgi yaproqlar to'kiladi 口重い og'zi
mahkam, og'ir
 5. 定めないこと
- Rejasiz ish
7. 飯の宿り - qarzga olingan boshpana 捨てる dunyoni tashlamoq
 8. 世ははかり dunyo tarozi
 9. 煙-tutun
 10. 季節 -fasllar

Hammasi: 39 6 5

Asarda 50 ga yaqin metaforalar qo'llangan bo'lib, ular dunyo va uning o'tkinchiligini tasvir etadi. Umrining so'ngi yillarida dunyodan voz kechib, budda ibodatiga tutingan, dunyo va o'tkinchilik g'oyasi asosida o'z hayot yo'lini qayta tahlil qilgan Kenko hayotiy aqidasi metaforalar asosida chiroyli bayon etadi. "Tsureduregusa" asari aynan "o'tkinchilik (mujo)" g'oyasini targ'ib etish maqsadida yozilgan .

3. Metaforalarning semantik tahlili

Metaforalar, asosan, harakat o'xshashligi doirasida "maqsad asosdan "kelib chiqish asosga ko'chiriladi degan fikr ilgari suriladi, ammo Sh. Safarov buni rad etadi va metaforani vujudga keltirishda holat, umumiylik, shakl kabi xususiyatlar ham muhim ekanligini ta'kidlaydi . Semantik jihatdan metaforalar uch xil shaklda tahlil qilinadi ("Hojoki" va "Tsureduregusa" metaforalari asosida ko'rib chiqiladi):

I. Jonsiz predmet, hodisalarning xususiyatlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi: olmos shahar, shahar dunyo so'zini ifodalab, dunyo olmos yanglig' chiroyli ko'rinsa-da, asl ma'nosi mashaqqatdan iboratdir (Hojoki). Yoki "qarzga olingan boshpana, "bargning to'kilishi, "fasllar, inson hayoti" majozlaridir (Tsureduregusa).

II. Jonli predmetlarning xususiyatlari jonli hodisalarga ko'chirilishi orqali: Inson -chumoli (Tsureduregusa)" metaforasida, chumoling xususiyatlari insonga ko'chirilmoqda.

III. Jonli hodisalarning xususiyatlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi orqali: "uylarning kurashi (Hojoki), "qalamga mas'uliyat yuklamoqda (Tsureduregusa).

IV. Jonsiz predmet xususiyatlari bilan jonli hodisalarning ifodalanishi: “daraxt , “tosh, “shudring” kabilar “inson ning moddiy obyektlaridir.

Semantik tahlil natijasiga ko’ra asarlarda jonsiz predmet xususiyatlari jonli hodisalarga va jonsiz predmetlarning xususiyatlari bilan jonsiz predmetlarni majozlashtirish holatlari ko’p uchraydi. Asarda “dunyo” va uning o’tkinchiligiga (mujo) oid metaforalar ko’lamining kengligi buni isbotlaydi desak o’rinli bo’ladi.

XULOSA

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, metaforalarning leksik tahliliga ko’ra metaforalar uch asosda ko’rib chiqildi: struktur metaforalar “Hojokida qo’llanmagani, “Tsureduregusada birgina mavjudligi aniqlandi. Yo’naltirilgan metaforalar har ikki asarda uchramasligi, manbalarda, asosan, ontologik metaforalardan foydalangani ma’lum bo’ldi.

Grammatik tahlil natijasida “Hojokida 22 ta ot metafora, 4 ta fe’l metafora qo’llangani va sifat metaforaning uchramasligi aniqlandi. Ot metaforalar majoziy ma’nosi yuqori, insonga hissiyot bera olish kabi xususiyatlarga ega bo’lsa, fe’l metaforalar, asosan, kundalik hayotda ko’p foydalaniladigan neytral(dead metaphor) majozlardir. “Tsureduregusa” asarida esa 39ta ot metafora, 6 ta fe’l metafora, 5ta sifat metafora qo’llangani aniqlandi va sifat hamda fe’l metaforalar “tushukunlikka tushmoq, “stolning oyogi” metaforalari kabi yuqori majoziy tasvirga ega emas deb baholandi.

Semantik tahlil natijasiga ko’ra asarlarda jonsiz predmet xususiyatlari jonli hodisalarga va jonsiz predmetlarning xususiyatlari bilan jonsiz predmetlarni majozlashtirish holatlari ko’p uchraydi. Asarda “dunyo” va uning o’tkinchiligiga (mujo) oid metaforalar ko’lamining kengligi o’rganildi.

REFERENCES

1. Taniguchi M. Ninchiimironno shintenkai.-J.:Kenkyusha,2003.-B.11.
2. Nabeshima K. Metafato imino kouzousai.-J.:Hitsujisho,2002.-B.179.
3. Qur’onbekov A. Tilshunoslikning zamonaviy yo’nalishlari.-TDSHI,2012.-B.18.
4. Takeda T. Tsureduregusa. – J.:Kakugawashoten,2002.-B.225.
5. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik.- J.: Sangzor nashriyoti,2006. –B.25.
6. Конрад Н.И. Японская литература. – Москва: Наука, 1991. – 305 с.
7. Avis P. God and the creative imagination: metaphor, symbol, and myth in religion. – L.: Routledge, 1999. – 256 p.

PROSPECTS FOR DIGITAL DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA: THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Azam Hidaykulov

Management Development Institute of Singapore in Tashkent
Assistant Manager at the Social and Civic Development Department.

Tel: [+998901388560](tel:+998901388560) e-mail: vigilioaz@gmail.com

ABSTRACT

Today, it is important to study the current state, problems and prospects of "digital diplomacy" in the Central Asian region. The use of digital and information technologies in the diplomacy of these countries is considered a new phenomenon. We should emphasize the unique benefits of digital diplomacy in most developed countries. This thesis analyzes the role and prospects of digital diplomacy in Central Asia for 2016-2020 years, as well as the experience of Uzbekistan in this area.

Keywords: *Digital diplomacy, Central Asia, foreign policy, soft power, public diplomacy, political analysis, social networks, international rankings.*

АННОТАЦИЯ

Сегодня важно изучить текущее состояние, проблемы и перспективы «цифровой дипломатии» в Центральноазиатском регионе. Использование цифровых и информационных технологий в дипломатии этих стран считается новым явлением. Мы должны подчеркнуть уникальные преимущества цифровой дипломатии в большинстве развитых стран. В данной диссертации анализируются роль и перспективы цифровой дипломатии в Центральной Азии на 2016-2020 годы, а также опыт Узбекистана в этой сфере.

Ключевые слова: *цифровая дипломатия, Центральная Азия, внешняя политика, мягкая сила, публичная дипломатия, политический анализ, социальные сети, международные рейтинги.*

INTRODUCTION

Today's globalization processes require the effective use of information and communication technologies, Internet services and the "concept of communication" approach in the future development of the country. In the system of international relations, new methods and mechanisms are being used in the conduct of relations and foreign policy of states. New forms of using "soft power" in the foreign policy of states have emerged. That is why today the terms "Digital Diplomacy", "Digital Government", "Digital Economy" are often used in scientific circles. These terms have appeared in the last 20 years. In his book "Digital Diplomacy: Theory and

Practice", C. BJola describes digital diplomacy as a strategy for managing changes in society through digital means and virtual collaboration. At the same time, digital diplomacy is considered as a means of conveying the public diplomacy, ideology and ideas of one country to the people of another, as well as shaping its image. The term **digital diplomacy** is used interchangeably with names such as **Twiplomacy**, **Web Diplomacy 2.0**, and **Social Network Diplomacy**. The use of digital and information technologies is taking diplomatic relations to a new level. When Lord Henry Palmerston of Great Britain first received the document from a telegram in 1860, he was astonished and said, "God, this is the end of diplomacy". **4.6 billion** people (**59.5%**) of the world use the Internet. The use of social networks is **53.6%** of the world's population. These figures show an annual growth rate of **9-10%**. From the above data, we can see how the digital space is evolving, which in turn requires new approaches to international relations and political processes.

DISCUSSION AND RESULTS

Today, the official pages of various heads of state, ministries and organizations, politicians around the world keep public opinion on social networks under the influence of their own interests and political views. The term "twiplomacy" is used to describe the widespread use of "digital diplomacy" on Twitter. Today, the United States, Canada, Turkey, India, Russia, Japan, the United Kingdom, the Islamic Republic of Iran, the Islamic Republic of Pakistan, France, and currently Venezuela are leading the way of activism in posts on Twitter and other social networks. In today's age of information and globalization, the victory is on the side of which country can show itself in the most positive and "white" image.

The Central Asian region is no exception. In the context of the Covid-19 pandemic in the world, the use of digital diplomacy has reached a new level. In particular, the **SCO Summit** in 2020 and its two more high-level meetings, the **C5 + 1 cooperation** meeting and the meeting of the **CIS Council** Heads of States were held in online format.

The efforts of Uzbekistan and Kazakhstan, especially in the use of digital means in diplomacy, can be positively assessed. Both countries see the use and effective use of digital diplomacy as a state policy. In Tajikistan and Turkmenistan, this process is developing very slowly. In particular, only one third of the population of Turkmenistan uses the Internet, and only **2.5%** of the population uses the social network. In Tajikistan, 1/3 of the population uses the Internet, while the share of social networks is **10%**. However, the annual number of users is improving. In particular, the President of Turkmenistan Gurbanguly Berdimuhamedov instructed to

open new directions in two universities in Turkmenistan. These areas of study include Internet journalism and political communications at the Institute of International Relations of the Ministry of Foreign Affairs of Turkmenistan and the International University for the Humanities and Development. The head of state also instructed to analyze the possibility of opening new specialties in these universities, including Oriental studies, American and European countries, digital diplomacy, cybersecurity, analytics and strategic planning.

In 2012, the President of Kazakhstan Nursultan Nazarbayev opened his official pages on Facebook and Twitter, and in 2014 on Instagram. Today, all federal ministries, agencies and other state authorities have their own websites. The Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Kazakhstan is creating all the conditions for those who want to follow all foreign policy events on social networks, in particular, using Facebook and Twitter. The Kyrgyz Republic is also working on this issue. In **2016**, the Embassy of the Kyrgyz Republic in the Russian Federation launched an initiative to inform social network users on a weekly basis about the activities of the consular section. The embassy also has accounts on Facebook. As for the country's main diplomatic body, the Kyrgyz Foreign Ministry, it has accounts on social networks such as Facebook, Twitter, VKontakte and even YouTube, which undoubtedly indicates the active use of digital diplomacy. At the same time, in addition to major infrastructure projects of China's "One Belt One Road", the Chinese company Huawei continues to implement its new 5G technology in Central Asia and invest in this area. All three state-controlled mobile operators in Uzbekistan are strengthening 5G ties with Huawei, and the government itself is cooperating with China's Huawei in its Digital Government and Safe City projects.

Uzbekistan is the largest user of Internet resources in Central Asia (18.5 million - 55%). Between 2019 and 2020, the number of Internet users increased by **1.2** million or **7%** in one year. The use of social networks is growing rapidly, accounting for **44%** of the total number of existing social network users (about **3.4** million) each year. On April 5, 2018, President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev adopted Presidential Decree No 3654 "On organizational measures to further improve the activities of the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan" on the development of digital diplomacy and there was an expansion of the use of "digital diplomacy," which provided for the wider use of the Internet, including social platforms. Paragraph 274 of the State Program on the implementation of the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 in the "Year of Active Investment and Social Development" provides for

the development of digital diplomacy in foreign relations and implementation of complex measures are planned. Currently, 114 government agencies in the country have their own electronic portal. The fact that 79% of them also have a mobile version creates additional convenience for the population. In addition, an electronic subscription system has been introduced on the official websites of ministries and agencies to keep up to date with their activities. Virtual receptions of government agencies have become a trend in online communication with the public. The Virtual Reception of President Shavkat Mirziyoyev (pm.gov.uz), launched in September 2016, has opened the way for new forms of dialogue between government agencies and the public. It is evident in the activity of government agencies in social networks. Digital diplomacy can and should be used as a tool of "soft power". The first stages of digital diplomacy in Uzbekistan began in 2016. At the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, 2017 was declared the Year of Dialogue with the People and Human Interests. For three years, various innovations in both foreign and domestic policy have been addressed, effective methods previously unknown to government agencies and our society. Some ministers and lawmakers have started opening their pages on Facebook, Twitter and even Instagram. Hoping for this, Uzbeks using the social network began to actively post their questions and opinions and join the discussion and debate.

According to Twiplomacy.com, the most active and important Twitter pages in Uzbekistan are the press service of President Shavkat Mirziyoyev, Prime Minister Abdulla Aripov, the gov.uz portal and the Ministry of Foreign Affairs Among the world's leading leaders and organizations, President Shavkat Mirziyoyev's press service shows that the President's press service is followed by more than 39,000 followers on Twitter and more than three million followers on Instagram. In the list of fifty active leaders on Instagram, the pages maintained by the press service of the President of the Republic of Uzbekistan are in different categories:

1. **“The 50 most followed world leaders”** -3 million users, 16th place.
2. **“The 50 world leaders with the most interactions”**- 9 million users, 22nd place.
3. **“The 50 most effective world leaders”** – 39th place.

Mathematical methods make them better without negating the traditional methods and help to objectively analyze the variable outcome indicators through other indicators. One of the advantages of mathematical methods and electronic technologies in the management of the national economy is that they can show the effect of factors on the modeled object, the relationship between the result and the resource. It provides scientific forecasting and management of production results and priorities of the national economy in dozens of industries and thousands of enterprises.

METHODS

The theoretical and practical significance of mathematical methods and models can be seen in the following:

1. Mathematical methods and models serve as a leading tool in the development of economics and natural sciences.

2. It will be possible to make some corrections during the implementation of predictions made using mathematical methods and models.

3. With the help of economic-mathematical models it is possible not only to analyze economic processes in depth, but also to discover their new unexplored laws. They can also be used to predict the future development of the economy.

4. Economic-mathematical methods and models, along with the simplification of computerization and automation of computational work, facilitate mental labor, help to organize and manage the work of management and economic personnel on a scientific basis.

Economic-mathematical methods is the name of a complex of economic and mathematical sciences. These sciences are used to analyze the whole economy using comprehensive mathematics. Economic-mathematical methods and models include concepts and rules consisting of a system of special sciences, which include:

a) study the impact of objective and subjective factors on economic processes, their relationship;

b) scientific substantiation of business plans and objective assessment of their implementation;

c) identification of positive and negative factors affecting the economy and quantitative assessment of their impact;

g) identification and disclosure of trends and ratios in the development of production, untapped potential resources;

d) generalization of best practices, making optimal management decisions.

In the analysis of economics using mathematical methods and models, production processes are studied in a complementary manner, interconnected [1-4]. In doing so, any factors, causes, grounds, events, processes that connect them to each other are studied and evaluated. To do this, they are divided into deep, comprehensive, primary and secondary, significant and insignificant, definite and indefinite. It then examines, first of all, the influence of important, fundamental, and determining factors that affect production processes. The study of the impact of all factors on economic processes is a very complex issue, and in practice it is not always necessary to take them into account.

The need to identify the factors that effectively affect the implementation of the business plan of the enterprise, the study of their impact, as well as the need for

quantitative assessment and economic analysis of these effects - requires the use of mathematical models [5-9].

The subject of economic-mathematical methods and models is the expression of production processes in consumers, manufacturers, associations, associations, socio-economic efficiency and financial results of their activities under the influence of objective and subjective factors on the basis of a system of economic-mathematical models. The subject of economic-mathematical methods and models is understood as the process of production under internal and external factors, the formation of the final results and their evaluation on the basis of mathematical methods.

Different factors have a regular effect on production processes, and they represent different economic laws. For example, in the modeling process, the effect of the price (valuation) factor is studied. If the prices (prices) of raw materials, semi-finished products and finished products change in the economy, the market, it will affect all financial indicators of industry, agriculture, trade and other enterprises.

The tasks of the science of economic-mathematical methods and models in economic analysis are:

- 1) scientific and economic substantiation of business plans and standards of the enterprise;
- 2) objective and comprehensive study of the implementation of business plans and compliance with standards;
- 3) determination of economic efficiency of use of labor, material and financial resources;
- 4) control over the implementation of commercial accounting requirements;
- 5) search and evaluation of internal opportunities, identification of trends and ratios of production development;
- 6) generalization of best practices, verification of the optimality of management decisions.

The above tasks indicate that production situations are multifaceted and multivariate, and that changes are possible. Practice shows that models of market economy analysis can set new tasks for science, because economic and social processes are rapidly growing and changing.

Extensive use of economic-mathematical methods and models improves the direction of economic analysis, increases the effectiveness of economic analysis, creating opportunities for the relationship between different processes, the quantification of their changes and the identification of trends. As a result, while the analysis time is reduced, it is necessary to fully cover the factors affecting economic

and commercial activities, and to distinguish the most important ones, replace the previous approximate calculations with exact ones, create and solve multidimensional problems, complex manual calculations. - There will be an opportunity to implement books on computers [10-14].

The use of economic-mathematical methods in the analysis of the activities of enterprises requires a systematic approach to the study of enterprise economics, taking into account all the existing interrelationships between its various activities.

The analysis of such conditions itself requires a systematic approach from the point of view of cybernetics: the creation of a set of economic-mathematical models that represent the quantitative characteristics of the problem and economic processes to be solved using economic analysis; improving the system of economic information about the activities of the enterprise; availability of technical means for collecting, processing, storage and delivery of targeted economic data for economic analysis; requires the formation of special analytical groups consisting of economists-practitioners, mathematicians-accountants in economic-mathematical modeling, operators-programmers [15]. Mathematical problems created for the purpose of economic analysis can be solved by one of the economic-mathematical methods presented in the following scheme.

Elementary mathematical methods are used in justifying the need for various resources, in calculating production costs, in developing plans, in balance sheet calculations.

The classical methods of higher mathematics are not only used in the context of other methods (e.g., mathematical statistics and mathematical programming), but also in their own right. This is due to the fact that the methods of differentiation and integration are widely used in the factor analysis of many economic indicators

DISCUSSION

The formation of a market economy in Uzbekistan requires the replacement of economic accounting with trade. The responsibility of economic entities for the operation of a market economy and the existence of competition determine the need to compare results and costs, to analyze the events and indicators of total economic processes. It is therefore important to study and apply new analysis methods [16-20].

The widespread use of mathematical methods is an important aspect of improving economic analysis, which increases the efficiency of the analysis of the firm, enterprise and its divisions. This allows you to reduce the analysis time, take into account all the factors, make error-free calculations. In addition, these methods allow to find optimal solutions (solutions) on several criteria.

In particular, the manufacturer's behavior model is based on maximizing profits. Such a criterion is not universal. Maximizing current profits is related to determining the prospects of the enterprise. In the current complex period, the main task is to keep the enterprise as a production unit, so the criterion of maximizing profits does not work, but the criterion of minimizing costs is acceptable.

In a market economy, an enterprise (firm) intends to make a profit or maximize the amount of output.

We consider and apply the model of optimization of production activity of the tourist enterprise:

- a) limited production capacity;
- b) profit maximization criterion and Kun-Takker method.

Assume that a manufacturing firm produces several different products of the same or permanent structure. In it, the firm's brand product is assumed to be X .

To produce a product, the firm uses live labor L (number of annual workers or number of man-hours) means K (fixed production assets) and packaged labor and labor items M (annual fuel used, raw materials, equipment, etc.).

The resource resources (guest, funds, and materials) that unite the Convention are divided into several boundaries (any category of guest, different equipment). We define resource savings with a vector-column $x = (x_1, x_2, \dots, x_n)$ It describes the firm's technology with production functions that represent the consumption of resources and the availability of product quantities:

$$X = F(x) \quad (1)$$

$F(x)$ is assumed to be a continuous, neoclassical function whose double differential can be found, and its second derivative matrix is negative.

If the product price is p and j , the unit price of the resource is $w = \overline{1, n}$, the cost vector is written as follows and the profit is obtained:

$$\Pi(x) = pF(x) - wx \quad (2)$$

where: $w = (w_1, w_2, \dots, w_n)$ - resource value vector series.

The cost of resources has a natural and definite meaning if x_j is the average annual number of workers of a certain qualification and w_j is the annual salary per

person; if x_j is the purchased material (fuel energy, etc.), then w_j is the purchase price of that material.

a) If -production funds, then w_j - the amount of annual rent of funds or the cost of repairing the funds.

b) where $R = pX = p(Fx)$ is the firm's annual output or annual income $C = wx$ is the annual cost of production or resources.

Unless other factors affect the amount of resources involved, profit maximization is written as follows:

$$\max_{\{x \geq 0\}} [pF(x) - wx] \quad (3)$$

This is a nonlinear programming problem, and the Kun-Takker condition is used to solve the $x \geq 0$ problem:

$$\begin{aligned} \frac{\partial n}{\partial x} &= p \frac{\partial F}{\partial x} - w \leq 0 \\ \frac{\partial n}{\partial x} x &= \left(p \frac{\partial F}{\partial x} - w \right) \cdot x = 0 \end{aligned} \quad (4)$$

If resources are used in the optimal solution $x^* > 0$, then condition (4) is written as follows:

$$\begin{aligned} p \frac{\partial F(x^*)}{\partial x} &= w \quad (5) \\ \text{ëки} \quad p \frac{\partial F(x^*)}{\partial x_j} &= w_j, \quad j = 1, 2, \dots, n \end{aligned}$$

at the optimal point, the final product corresponding to the resource unit is equal to the price.

c) maximizing the quantity of products without changing production costs is written as follows:

$$\begin{aligned} \max F(x) \\ wx \leq C, \quad x \geq 0 \end{aligned} \quad (6)$$

This problem is a problem of variables that have a linear limit of linear programming. Following the theory, we construct the Lagrange function:

$$L(x, \lambda) = F(x) + \lambda(C - wx)$$

Then we find the maximum value without the variables being negative. To do this, we fulfill the Kun-Takker condition.

$$\frac{\partial F}{\partial x} - \lambda w \leq 0$$

$$\begin{cases} \frac{\partial F}{\partial x} - \lambda w \\ x = 0 \end{cases} \quad (7)$$

$$x \geq 0$$

Apparently (7) corresponds to condition (4). Agar

$$\lambda = 1/p$$

Based on the Cobb-Douglas function, we consider the problem of maximizing the profit of a firm producing the same product using the following example.

For example. If the firm allocates 150 thousand soums for rent and wages, maximize the amount of production (rent of the fund unit $w_K = 50000$, salary $w_L = 100000$).

$$X = F(K, L) = 3 \cdot K^{2/3} \cdot L^{1/3}$$

If so, find the limit of the final exchange of stock and labor at the optimal point?

Solve. It is known that $F(0, L) = F(K, 0)$ means $K^* > 0$, $L^* > 0$ in the optimal solution. Therefore, condition (7) is as follows:

$$\begin{cases} \frac{\partial F}{\partial K} = \lambda w_K \\ \frac{\partial F}{\partial L} = \lambda w_L \end{cases} \quad (8)$$

or in our example

$$\frac{2}{3} \cdot \frac{F(K^*, L^*)}{K^*} = \lambda w_K$$

$$\frac{1}{3} \cdot \frac{F(K^*, L^*)}{L^*} = \lambda w_L$$

Dividing the first equation by the second, we find:

$$\frac{2L^*}{K^*} = \frac{w_K}{w_L}$$

Putting it under the following condition, we find $w_K K^* + w_L L^* = 150$:

$$K^* = \frac{2}{3} \cdot \frac{150}{w_K} = 20, \quad L^* = 5$$

The solution can be expressed geometrically. In Figure 1, the isocosta line (constant cost line for $S = 50, 100, 150$ s) and isoquants (constant $X = 25.2; 37.8$ gross product line).




Figure 1 (Author's development).

Isocosts are written by the following equation:

$$5K + 10L = C = const$$

Isoquants are explained by the following equations:

$$3K^{2/3} L^{1/3} = X = const$$

At the optimal point $K^* = 20$, $L^* = 5$ isoquant $X^* = 37,8$ and isocosta $C = 150$, their gradients are $\left(\frac{\partial F}{\partial K}, \frac{\partial F}{\partial L}\right)$, (w_K, w_L) collinear.

Optimal point stock and labor exchange:

$$S_K = \frac{\frac{\partial F}{\partial L}}{\frac{\partial F}{\partial K}} = \frac{1 - L \cdot K^*}{\alpha \cdot L^*} = \frac{1}{2} \cdot \frac{20}{5} = 2$$

This means that one worker can be replaced by two unit funds. Solving the problem of maximizing the firm's profit, we find the resource demand $x^* > 0$. The corresponding cost is $C^* = wx^*$. Now we find the production of the product without changing the cost. The optimal solution in the above neoclassical production function is the $x^* > 0$ single solution.

So, on the one hand:

$$\frac{\partial F(x^*)}{\partial x} = \frac{1}{p} w, \quad wx^* = C^*, \quad n(x^*) \geq n(\bar{x}^*)$$

on the other hand:

$$\frac{\partial F(\bar{x}^*)}{\partial x} = \lambda w, \quad w\bar{x}^* = C^*, \quad F(\bar{x}^*) \geq F(x^*)$$

Because

$$n(x^*) = pF(x^*) - wx^* \geq pF(\bar{x}^*) - w\tilde{x}^* = n(\bar{x}^*) \text{ and } wx^* = w\tilde{x}^* = C^*, F(x^*) \geq F(\tilde{x}^*) \\ F(\tilde{x}^*) \geq F(x^*), \text{ therefore } F(\tilde{x}^*) = F(x^*)$$

the solution to the problem is unique, $\tilde{x}^* = x^*$.

If the problem of the maximum of profit has a unique solution, then the problem of maximizing the quantity of the product in the case of $x^* > 0$ and accordingly the given costs $C^* = wx^*$ is true.

CONCLUSION

Economic-mathematical methods do not negate traditional methods. It helps to develop them further and to analyze the performance indicators in terms of other indicators in an objectively changing environment. The importance and advantages of mathematical methods and models are: they use material, labor and monetary resources rationally; serves as a leading tool in the development of economic and natural sciences; it will be possible to make some corrections during the compilation of predictions and their implementation; economic processes are not only analyzed in depth, but also their new unexplored laws and trends can be revealed; Facilitates the mechanization and automation of computational work, mental labor.

REFERENCES

1. Shodiyev, K. (2021). Contribution of ict to the tourism sector development in Uzbekistan. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 457-461.
2. Shodiev, T., Turayey, B., & Shodiyev, K. (2021). ICT and Economic Growth Nexus: Case of Central Asian Countries. *Procedia of Social Sciences and Humanities*, 1.
3. Шодиев, К. (2021). ТУРИСТИК СОҲАДА КЛАСТЕР ВА ДАВЛАТ ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИ АСОСИДА ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Scientific progress*, 1(6), 857-864.
4. Shodiyev, K. (2021). FEATURES OF STATE REGULATION OF DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 492-497.
5. Sirojiddinov, U. S., & Shodiyev, K. (2021). ALKALINEACTIVATED OIL-WELL CEMENTS AND SOLUTIONS ON THE BATE OF LOCAL ACTIVE MINERAL SUBSTANCES AND WASTES OF PRODUCTION. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 486-491.
6. Sirojiddinov, U. S. (2021). STUDY OF THE COMPOSITION OF ALKALI CEMENTS AND CONCRETES BASED ON VOLLASTONITE OF KOYTOSH DEPOSIT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 498-503.
7. Qizi, Y. Z. S. (2021). Determination of pressure in the plunger during the operation of oil wells by submersible pumps. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 159-163.
8. Shodiev, K. (2021). THE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT ON THE BASIS OF GOVERNMENT–PRIVATE PARTNERSHIP AND CLUSTERING IN

THE TOURISTIC SPHERE. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(04), 177-183.

9. Shodiyev, K. (2021). OPTIMIZATION OF PRODUCTION ACTIVITY OF THE TOURIST ENTERPRISE. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 6, 106-114.

10. Sirojiddinov, U. S., & Shodiyev, K. (2021). Investigation of Alkali Cements and Concrete Based on Local Raw Materials. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 1-16.

11. Юлдашова, З. С. К. (2020). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДАВЛЕНИЯ НА ПЛУНЖЕР ПРИ ЭКСПЛУАТАЦИИ НЕФТЯНЫХ СКВАЖИН. *Science and Education*, 1(6).

12. Shamsiddin o'g'li, K. S. (2020). THE EFFECT OF STIMULATORS ON THE LOCATION OF THE FIRST POD OF SOYBEAN VARIETIES. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY"*, 1(2), 7-9.

13. Uktam Samaridinovich Sirojiddinov, Kamoliddin Shodiyev. THE EFFECT OF STIMULATORS ON THE LOCATION OF THE FIRST POD OF SOYBEAN VARIETIES. *Academic Journal of Digital Economics and Stability* Volume 9,2021, 30-37.

14. Jamshedovich, M. Z. (2021). RULES FOR INSPECTION OF THE TECHNICAL CONDITION OF THE BUILDING DURING RECONSTRUCTION.

15. Melikov Zarshed Jamshedovich. RULES FOR INSPECTION OF THE TECHNICAL CONDITION OF THE BUILDING DURING RECONSTRUCTION. *Euro. Sch. J.* **2021**, 2, 118-121.

16. Melikov Zarshed Jamshedovich. (2021). RULES FOR INSPECTION OF THE TECHNICAL CONDITION OF THE BUILDING DURING RECONSTRUCTION. *European Scholar Journal*, 2(5), 118-121.

<https://doi.org/10.17605/OSF.IO/J7WMV>

17. Melikov Zarshed Jamshedovich, & Abdurakhmon Akhunjanov. (2021). SAFETY RULES WHEN CHECKING THE TECHNICAL CONDITION OF A BUILDING DURING RECONSTRUCTION. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(6), 56-59. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7V35B>

18. Melikov Zarshed Jamshedovich; Abdurakhmon Akhunjanov. SAFETY RULES WHEN CHECKING THE TECHNICAL CONDITION OF A BUILDING DURING RECONSTRUCTION. *Euro. J. Hum. Edu. Adv.* **2021**, 2, 56-59

19. Tulakov Elmurad Salomovich, Matyokubov Bobur Pulatovich. Thermal Insulation Of The Foundation Walls Of Buildings And Calculation Of Its Thickness.

THE AMERICAN JOURNAL OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY (TAJET)
SJIF-5.705 DOI-10.37547/tajet Volume 3 Issue 04, 2021 ISSN 2689-0984 The USA
Journals, USA www.usajournalshub.com/index.php/tajet -C.70-78

20. Goyibov Oybek Inatillayevich, Matyokubov Bobur Pulatovich. Analysis of
Underground Projects of Energy Efficient Low-Rise Residential Buildings Built on
Highly Flooded Soils <https://doi.org/10.31149/ijie.v4i9.2156>

DORILAR HAQIDA TUSHUNCHA, FARMAKALOGIK XOSSALARI, SAQLASH UCHUN SHAROIT YARATISH USULLARI

Qodirov Nizom Daminovich

Samarqand tibbiyot instituti farmasevtik texnologiya kafedراسi mudiri

Qo‘yliyeva Maxbuba Uzoqova

Samarqand tibbiyot instituti farmasevtik texnologiya kafedراسi assistenti.

Boymurodov Eson Suyunovich

Samarqand tibbiyot instituti farmasevtik texnologiya kafedراسi assistenti.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dorilarning xususiyatlarini aniqlash, bazi dori turlari haqida qisqacha ma‘lumot berib o‘tish va uni saqlanish sharoiti va dorivor o‘simlik xomashyosi - dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo‘lgan o‘simliklar yoki ularning qismlari haqida mulohazalar ilgari surilgan.

***Kalit so‘z:** substansiya, tibbiy buyumlar, farmasevtik faoliyati, muqobillik sertifikat, infeksiyon eritma.*

АННОТАЦИЯ

В статье описаны свойства лекарственных средств, дан краткий обзор некоторых видов лекарственных средств и условий их хранения, а также лекарственного растительного сырья - растений, содержащих биологически активные вещества, используемые при производстве и изготовлении лекарственных средств, или комментарии к их частям.

***Ключевые слова:** субстанция, изделия медицинского назначения, фармацевтическая деятельность, сертификат альтернативы, инфекционный раствор.*

ABSTRACT

This article describes the properties of drugs, gives a brief overview of some types of drugs and their storage conditions, and medicinal plant raw materials - plants containing biologically active substances used in the manufacture and preparation of medicines or comments on their parts.

***Keywords:** substance, medical devices, pharmaceutical activity, certificate of alternative, infectious solution.*

KIRISH

Dori vositalari - kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo‘yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o‘zgartirish uchun

tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori moddalari (substansiyalar) - farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar;

dori preparatlari - dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanish uchun tayyor dori vositalari;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum - yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

tibbiy buyumlar - kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

farmatsevtika faoliyati - dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari - intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum - tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum;

muvofiqlik sertifikat - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

dori vositalari kesishgan kontaminatsiyasi - xomashyo, oraliq mahsulot yoki tayyor mahsulotning boshqa xomashyo yoki tayyor mahsulot bilan texnologik jarayon vaqtida, tashish yoki saqlashda ifloslanishi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dori - kasalliklarni davolash yoki oldini olish uchun ishlatiladigan modda. Har qanday dorini odamlarga qo'llashdan oldin hayvonlarda sinab ko'riladi va klinikalarda kuzatiladi. Dorilar kimyo-farmatsevtika zavodlarida sintetik moddalardan, o'simlik, hayvon yoki mikrobiologik mahsulotlardan, tez buziladigan ayrim dorilar esa dorixonalarda tayyorlanadi. Dorilar turli xilda, mas, suyuq (qaynatma, tindirma, eritma, suspenziya va boshqalar), yumshoq (surtma, liniment,

krem, pasta va boshqalar), qattiq (sochma, tabletka, draje, granula va boshqalar) hamda alohida in'yeksiya maqsadlari uchun ampula holida chiqariladi.



Ta'siriga ko'ra, yurak dorilari, surgilari, siydik haydaydigan, og'riq qoldiradigan, issiq tushiradigan, narkotik, uyqu keltiradigan va boshqa dorilar bo'ladi. Bevosita kasallikning qo'zg'atuvchisiga ta'sir qiladigan dorilar alohida guruhni tashkil etadi, bularga bezgak, zaxm, silga qarshi va boshqa dorilar kiradi. Ular kimyoviy terapevtik vositalar deb ataladi. Dorilarning shifobaxsh ta'siri bemorning yoshi, ahvoli va dozaga bog'liq. Katta doza organizmni zaharlashi, kam doza esa kasallik qo'zg'atuvchisini o'sha doriga chidamli qilib qo'yishi mumkin. Shuning uchun dorini faqat vrach buyurgan dozada qabul qilish kerak. Dorilar sirtga ishlatiladi, ichiriladi, nafas yo'li orqali yuboriladi va in'yeksiya qilinadi. Ularning kuchi, ta'siri organizmga qay yo'l bilan va qanchalik tez kiritilishiga bog'liq. Ba'zi dorilar takror yuborilganda organizmda to'planib ta'sir etadi. Dorini ko'rko'rona qabul qilish yaramaydi, chunki ko'p kasalliklar belgisi bir-biriga o'xshaydi, uning uchun keraksiz dorilarni qabul qilish sog'liqqa zarar yetkazadi. Organizmga kirgan dorilar qisman parchalanadi va o'zgaradi, keyin buyrak, hazm va nafas yo'llari, ter va boshqa orqali chiqib ketadi. dorilar uyda bolalarning bo'yi yetmaydigan joyda saqlanishi kerak. Har bir dorini yaroqlilik muddati yorlig'ida qayd qilinadi, belgilangan muddatdan uzoq saqpanganda ta'sirini yo'qotadi. Keyingi yillarda xorijdan keltirilgan dorilar xili bir qadar ortdi, shu bois uni faqat vrach maslahati bilan qabul qilish zarur.

Dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalarining tarkibi, yaroqlilik muddati, saqlash sharoitlari va sterilizatsiya rejimlari

Inyeksion va infuzion eritmalar					
					1-jadval
/r	Tayyorlanadigan dori Tan dori voistasining nomi	Tarkibi	Yaroqlilik muddati (kunlik) 25°S dan yuqori bo'lmagan	Saqlash sharoitlari	Sterilizatsiya a rejimlari (vaqti va harorati)

			haroratda		
	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>
.	Analginning 25%, 50% li eritmalari	Analgin 250 g, 500 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30	Yorug'lik tushmaydigan joyda	120°S 8 daq.
.	Atropin sulfatning 1%, 2,5%, 5% li eritmalari	Atropin sulfat 0,1 g, 0,25 g, 0,5 g 0,1 m xlorid kislotasi eritmasi — 0,1 ml Inyeksiya uchun suv 10 ml gacha	30	Yorug'lik tushmaydigan joyda	120°S 8 daq.
.	“Atsesol” eritmasi	Natriy atsetat 2 g Natriy xlorid 5 g Kaliy xlorid 1 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
.	Inyeksiya uchun suv		30		120°S 8 daq.
.	Glitserinning 10% li eritmasi	Glitserin (suvsiz) 100 g Natriy xlorid 9 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
.	Glyukozaning 5%, 10%, 20%, 25% li eritmalari	Glyukoza 50 g, 100 g, 200 g, 250 g 0,1 m xlorid kislotasining eritmasi rN 3,0-4,1 gacha Natriy xlorid 0,26 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
	Dibazolning	Dibazol 5 g, 10 g	60		120°S 8 daq.

.	0,5%, 1% li eritmalari	0,1 m xlorid kislotasi 10 ml Inyeksiya uchun suv 1 l gacha			
.	Dimedrolning 1%, 2% li eritmalari	Dimedrol 10 g, 20 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30	Yorug'lik tushmaydigan joyda	120°S 8 daq.
.	“Disol” eritmasi	Natriy xlorid 6 g Natriy atsetat 2 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
0.	Qon o‘rmini bosuvchi Petrov suyuqligi	Natriy xlorid 15 g Kaliy xlorid 0,2 g Kalsiy xlorid 1 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
1.	Kaliy xloridning 0,5%, 1%, 3%, 5%, 7,5%, 10% li eritmalari	Kaliy xlorid 5 g, 10 g, 30 g, 50 g, 75 g, 100 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
2.	Kalsiy xloridning 0,25%, 0,5%, 1%, 5%, 10% li eritmalari	Kalsiy xlorid 2,5 g, 5 g, 10 g, 50 g, 100 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	30		120°S 8 daq.
3.	Kalsiya glyukonatning 10% li eritmalari	Kalsiy glyukonat 100 g Inyeksiya uchun suv 1 l gacha	7		120°S 8 daq.
4.	“Kvartasol” eritmasi	Natriy gidrokarbonat 1 g Natriy atsetat 2,6 g Natriy xlorid 4,75 g	30		120°S 8 daq.

		Kaliy xlorid 1,5 g. Inyeksiya uchun suv 1 l gacha			
--	--	---	--	--	--

Omborxonada barcha dori vositalari va tibbiy buyumlar stellajlarda va tagliklarda joylashtirilishi kerak. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni polda tagliklarsiz joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tagliklar polda bir qatorda yoki stellajlarning balandligi hisobga olingan holda stellajlarda bir necha qavatda joylashtiriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash xonalari va ulardagi asbob-uskunalar, jihozlar toza holatda saqlanishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalari va tibbiy buyumlarning buzilishi (to‘kilishi, sochilishi, sinishi), mikroorganizmlar tomonidan shikast yetkazilishi va dori vositalari kesishgan kontaminatsiyasining oldini olish uchun tegishli choralarni ko‘rishi kerak.

Omborxonada hasharotlar, kemiruvchi va boshqa turdagi hayvonlardan saqlanadigan sharoitlarni yaratish va ularga qarshi qo‘llaniladigan vositalar bilan ta‘minlanish talab etiladi. Bunda kuchli ta‘sir etuvchi vositalar ishlatilishi taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash quyidagicha tizimlashtirilgan tarzda bo‘lishi mumkin:

farmakologik guruhlar bo‘yicha;

qo‘llanish usullari bo‘yicha.

Barcha dori vositalarini va tibbiy buyumlarni o‘ramlarda tamg‘alanishi tashqi tomonga qaratilgan holda taxlanishi va joylashtirilishi kerak.

Ishlab chiqaruvchilar va ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarda dori vositalarining hisobi yaroqlilik muddatlari bo‘yicha elektron yoki qog‘oz shaklida yuritiladi. Dori vositalari omborxonalarda fizik-kimyoviy xususiyatiga qarab alohida, ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilangan sharoitlarda harorat, namlik va yorug‘lik rejimlariga rioya qilgan holda saqlanishi kerak.

Omborxonada harorat va namlik har kuni maxsus elektron dasturda yoki sahifalari raqamlangan, tikilgan va muhrlangan (tadbirkorlik subyektlaridan muhr bilan tasdiqlash talab qilinmaydi) jurnalda qayd etilishi lozim. Yorug‘likdan himoya qilishni talab qiladigan dori vositalari qorong‘i xonada yoki qora rangga bo‘yalgan, eshiklari zich yopiladigan shkaflarda yoxud qopqog‘i zich yopilgan yashiklarda saqlanishi kerak. Termolobil dori vositalarini saqlashda ular tamg‘alanishi yoki qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomada ko‘rsatilgan harorat rejimiga rioya etilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dorivor o‘simlik xomashyolari (avvaldan quritilgan) havo yaxshi aylanadigan, quruq xonalarda, yopiq (shisha, metall, yog‘och) idishlarda saqlanishi kerak. Bog‘lovchi materiallardan iborat tibbiy buyumlarni saqlashga quyidagi talablar qo‘yiladi:

bog‘lovchi materiallar quruq, havo yaxshi aylanadigan, chang va kemiruvchilardan himoyalangan xonalarda saqlanadi. Sterillanmagan materiallarni isitilmaydigan xonalarda saqlashga ruxsat etiladi. Steril materiallarni harorat o‘zgarishida o‘ram sifatiga ta‘sir qilmasligi uchun ularni harorat darajasi tez o‘zgarmaydigan xonada saqlashga yo‘l qo‘yiladi;

sterillangan bog‘lov materiallarini omborxonada saqlashda ularni ishlab chiqarish muddatlari bo‘yicha taxlash zarur.

Rezina buyumlardan iborat tibbiy buyumlarni saqlashga bo‘lgan talablar:

xona quyosh nuridan himoya qilingan bo‘lishi kerak. Yorug‘lik faqat sun‘iy, elektr orqali bo‘lishi lozim;

buyumlar solingan qutilar va shkaflar markaziy isitish batareyasidan 1 metr dan kam bo‘lmagan, shuningdek pechlardan 5 metr dan kam bo‘lmagan uzoqlikda joylashtirilishi kerak.

REFERENCES

1. «Dori vositalari sifat standartlarining asosiy qoidalari» Tst-42-01-2002
2. Davlat farmakopeyasining amaldagi nashrlari
3. Me‘yoriy hujjatlar nusxalari
4. O‘zR «Standartlash to‘g‘risidagi qonuni» 1993 yil 28 dekabr
5. O‘zR «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyati haqidagi qonun» 1997 yil 25 aprel
6. O‘zR farmatsevtika faoliyati 2003, 2001 yy, I-III t.
7. Kasakin I.Vnedrenie standartov GMP i ISO.Remedium.2003g. YAnvar-Fevral. 82-83s.

DORI VOSITALARINING ZAMONAVIY TAXLIL USULLARI

Imomova Yulduz

Farmakologiya kafedrası assistenti

Marxabo Usmonova Balxievna

Farmakologiya kafedrası assistenti

Yo'ldoshev Sohibjon

Samarqand tibbiyot instituti

Farmatsevtika fakulteti talabasi

Ahmadov Javohir

Samarqand tibbiyot instituti

Farmatsevtika fakulteti talabasi +998915363005

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada dorilarning xususiyatlarini aniqlash, bazi dori turlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish va uni saqlanish sharoiti va dorilarning taxlil usullari, yangi texnologiya yaratish istiqbollarini ishlab chiqish yo'llari haqida mulohazalar ilgari surilgan.

***Kalit so'zlar:** me'yoriy texnik hujjatlar, farmakopeya, dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, standart namunalalar.*

ABSTRACT

This article provides an overview of the characteristics of drugs, a brief overview of some types of drugs and their storage conditions and methods of drug analysis, ways to develop prospects for the development of new technologies.

***Keywords:** normative technical documents, pharmacopoeia, drug registration, standard samples.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлен обзор характеристик лекарственных средств, краткий обзор некоторых видов лекарственных средств и условий их хранения и методов анализа лекарственных средств, пути разработки перспектив развития новых технологий.

***Ключевые слова:** нормативно-технические документы, фармакопея, регистрация лекарственных средств, стандартные образцы.*

KIRISH

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra "Sog'liqni saqlash" ta'lim sohalarida o'qitiladigan "Dori vositalarini zamonaviy tahlil usullari" dasturi farmasevtika amaliyotida zarur bo'ladigan: zamonaviy asbob-uskunalar, YuSSX,

xromatografiya, mass-spektrometriya tahlil usullari va shu kabi boshlang'ich tushunchalarini o'z ichiga olgan bo'limlaridan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining belgilab bergan vazifalari asosida mazkur soha yuzasidan xorijiy oliy o'quv yurtlarining dasturlari o'rganildi va tahlil etildi. Tahlil natijalari asosida ishchi dasturga o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur ishchi o'quv dasturi OO'MTV ning 2013 yil 2 avgustdagi 278 – sonli “Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining davlat ta'lim standartlari asosida fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi” togrisdagi buyrug'ida keltirilgan talablari va 2011 yilda tasdiqlangan namunaviy dastur hamda xorijiy adabiyotlar asosida qayta ishlab chiqildi. Jumladan, Dori vositalarini standartlash. MX larni tayyorlash asoslari, tuzilishi va ularga qo'yilgan talablar. Xalqaro talablar. Dori vositalari sifat standartlarini ekspertiza qilish va ro'yxatdan o'tkazish. Davlat farmakopeyalarining rivojlanish konsepsiyalari. Dori vositalarining samaradorligi, bezararligi va sifatini ta'minlash davlat tizimining faoliyati. O'zbekiston farmatsevtika sanoatida GMP qo'llanilish holati va istiqbollari. Sifat nazorati bo'limini attestatsiyaga tayyorlash. (Undergraduate Instrumental Analysis, Seventh Edition, James W. Robinson, 2014).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng dori vositalarini ro'yxatga olish, me'yoriy texnik hujjatlarni tasdiqlash va ekspertizasini amalga oshirish, dori vositalari va tibbiyot texnikasining sifatini nazorat qilishni xal etishda o'z soxasini mukammal egallagan farmatsevt mutaxassislarga bo'lgan talab ortdi.

Ular O'zbekiston respublikasi farmatevtika faoliyati xaqidagi qonunlar, dori vositalari sifat standartlarining mazmuni va sifat ko'rsatkichlarini aniqlashning zamonaviy usullari yuzasidan mustahkam bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

«Dori vositalarining sifat standartlari, MTXlar, ularning tuzilishi, dori vositalarini ro'yxatga olish shartlari» mavzusini o'rganish davomida talaba qayd etilgan jarayon bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dori vositalarini standartlash

Standartlash u yoki bu mahsulotning me'yoriy talablarga mos kelishi xaqidagi tushuncha bo'lib, ilmiy texnik progressning o'sib borishi, turli tizimlar orasida iktisodiy hamkorlikni rivojlanishi, Davlatlar, milliy tashkilotlar va firmalar bo'yicha savdo sotik xajmining yuksalishi, raqobatbardosh sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni takazo etadi.

Mahsulotning sifatliigi esa barcha me'yoriy hujjatlar talablarini qay darajada qondira olishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Standartlash to'g'risidagi qonun»i 1993 yil 28 dekabrda qabo'l qilingan bo'lib, bu qonunga ko'ra standartlashdan ko'zlagan maqsadlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mahsulotning sifati, xizmat jarayonlarining axolining xayoti, sogligi, mol mo'jki, atrof muxit, tabiiy manbalarni tejash xavfsizligi borasida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilish.
2. Mahsulotlarni bir-biri bilan mosligi, almashinuvchanligini ta'minlash.
3. Ilm – fan va texnikaning rivojlanishi hamda axoli va xalk xujaligining ixtiyojlarini usishini inobatga olgan xolda mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirish.
4. Barcha turdagi resurslarni tejash, ishlab chiqarishning texnik iktisodiy ko'rsatikichlarini yaxshilash.
5. Sotsial – iktisodiy, ilmiy – texnik dasturlar va loyxalarni amalga oshirish.
6. Tabiiy va texnologik falokatlar va boshqa favkulotda xodisalar sodir bo'lishini e'tiborga olib. Turli ob'ektlar havfsizligini ta'minlash.
7. Iste'molchilarni mahsulot turi va sifati haqida aniq va ishonchli ma'lumot bilan ta'minlash.
8. Mudofaa kobiliyatini yaxshilash va safarbarlikka tayyorliqni ta'minlash. Ulchovlarning yagonaligini ta'minlash.
9. Savdo-sotiq, iqtisodiy va ilmiy—texnikaviy hamkorlikdagi to'siqlarni bartaraf etish.

Standartlashning asosiy prinsiplari:

-Sotsial, iqtisodiy, texnik zarurligini va mosligini hisobga olgan xolda MX larni ishlab chiqishni maqsadga mufofiqligi;

-MX larning ilm va texnikaning zamonaviy yutuklariga, ilgor tajiba va qonuniy aktlarga mos kelishini ta'minlash;

-Sertifikatsiyalash maqsadlarida MX larning yaroqliligini aniqlash.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida standartlash ishlarining umumiy, tashkiliy-texnik qoidalarini ishlab chikuvchi standartlashning Davlat tizimi faoliyat ko'rsatmokda.

Respublikada standartlash ishlarini tashkil etish va mufofiqlashtirish quyidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi:

-Ho‘jalik soxasida – Vazirlar maxkamasi qoshidagi standartlash, metrologiya va sertifikatlash bo‘yicha davlat markazi (O‘zDavStandart).

-Tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muxitni ifloslanishi va boshqa zararli ta’sirlardan muxofaza qilish soxasida – Dav.kom.tabiat.

-Tibbiyot mahsulotlari, tibbiyot buyumlari, dori vositalari hamda Respublika sanoatida ishlab chiqarilgan va import qilingan dori vositasi tarkibidagi inson salomatligi uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalari bo‘yicha – UzRSSV qoshidagi dori vositalari va tibbiyot texnikasi sifatini nazorat qilishi Bosh boshqarmasi.

DVTTSNQ Bosh boshqarmasi O‘uR Vazirlar maxkamasining 1995 yilning 5 maydagi 181-sonli karori asosida tashkil etilgan bo‘lib, uning zimmasiga dori va tashxis quyish vositalari, tibbiyot texnikasi, tibbiyot buyumlari ustidan davlat nazoratini olib borish, tibbiyot texnikasi va dori vositalarini ekspertiza qilishi, standartlash, ro‘yxatga olish va sertifikatlash bilan shugillanuvchi tashkilotlar ishini boshqarish va mufofiqlashtirish ishlari yuklatilgan.

Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasi qoshida 4ta qo‘mita (farmakopeya qo‘mitasi, farmakologiya qo‘mitasi, narkotik moddalarni nazorat qilish qo‘mitasi, yangi tibbiyot texnikasi qo‘mitasi) va 2 ta bo‘lim (farm nazorat bo‘limi, sertifikatlash va ro‘yxatga olish bo‘limi) faoliyat yuritadi.

Davlat boshqarmalari uz soxalari bo‘yicha standart va texnik shart – sharoitlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, ro‘yxatdan o‘tkazish va nashr etish bilan shug‘ullanadilar.

O‘zbekiston Respublikasidagi farmatsevtik faoliyatning qonuniy asoslari:

-«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyat haqidagi qonun»

-«Axoli sogligini himoya qilish haqidagi qonun»

-«Mahsulot va xizmat ko‘rsatishni sertifikatlash haqidagi qonun»

-«Farmatsevtika va tibbiyot faoliyatini litsenziyalash haqidagi ko‘rsatmalarni tasdiqlash haqida» (O‘zR VM ning qarori)

O‘zbekiston Respublikasida 1997 yil 25 aprelda qabo‘l qilingan «Dori vositalari va farmatsevtik faoliyat haqidagi qonun»da (1999 yil 15 aprelda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan) asosiy tushunchalar belgilab berilgan va ular quyidagilardan iborat:

Dori vositalari – kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan bir yoki bir necha dori moddalari (substansiyalar) hamda yordamchi moddalar asosida xosil qilingan, kasallikni oldini olish, tashxis quyish va davolash uchun qo'llashga ruxsat etilgan vositalar; Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashxis quyish vositalari kiradi

Dori moddalari (substansiyalar) – kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan dori preparatlarni qo'llashga ruxsat etilgan toza biologik faol moddalar;

Farmakologik vositalar – belgilangan farmakologik faollikka ega bo'lib, klinik sinov ob'ektlari hisoblanadigan muayyan dorivor shaklidagi moddalar yoki moddalar aralashmasi;

Dori preparatlari – dozalangan, idishga joylashtirilgan va uralgan qo'llashga tayyor dori vositalari;

Generik dori vositalari (generiklar)- patent berilgandan kolishmaydigan, lekin boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan dori preparatlari. ¹

Gomeopatik vositalar- gomeopatiya qoidalariga binoan qo'llaniladigan va davlat

reestrining maxsus bo'limiga kiritilgan dorilar . 1 – Undergraduate Instrumental Analysis, Seventh edition, James W.Robinson, 2014.

Farmakopeya qo'mitasi – dori vositalari va tibbiyot buyumlari sifatiga qo'yilgan talablarni belgilovchi me'yoriy texnik hujjatlarni tasdiqlovchi rasmiy ekspert muassasasi.

Dori vositalarini standartlashdagi me'yoriy hujjatlar

Me'yoriy hujjatlar dori vositalarini tayyorlash sifatini nazorat qilish, ishlatilishi va saqlanishining shart-sharoitlari belgilangan va qonun makomiga ega bo'lgan hujjatlar bo'lib, ular dori vositasining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida, ilm-fan yutuklari, ishlab chiqarish korxonalarining ilgor texnologiyalarini e'tiborga olgan xolda vakti-vakti bilan kayta ko'rib, eskirgan sifat ko'rsatgichlari va tahlil usullari yangilab boriladi.

Dori vositalarining sifatini nazorat qilish va standartlashdagi me'yoriy hujjatlarning quyidagi turlari mavjud:

- Vaktinchalik farmakopeya maqolasi – VFM (VFS).
- Farmakopeya maqolasi – FM (FS).
- Davlat farmakopeyasi – DF (GF).
- Umumiy farmakopeya maqolasi – UFM (OFS).
- Tarmoq standarti – TSt (OSt)
- Korxonalar standarti – KSt (StP)

- Rahbarli me'yoriy hujjat (yulnoma, uslubiy ko'rsatma).

Farmakopeya – dori vositalarining sifatli tayyorlanishini, sifat va miqdoriy nazoratni belgilovchi, nomlanishi va saqlash sharoiti ko'rsatilgan davlat standartlari yigindisidir. Davlat farmakopeyasi farmakopeya maqolalari, umumiy fizikaviy – kimyoviy, kimyoviy va biologik tahlil usullari, qo'llaniladigan reaktivlar, titrlangan eritmalar, indikatorlar va dori vositalariga bo'lgan umumiy talablar va me'yoriy hujjatlar haqidagi ma'lumotlar tuplami bo'lib, qonuniy makomga ega bo'lgan hujjatdir.

1765 y Sankt-Peterburgda lotin tilida Davlat tibbiyot kollegiyasi tomonidan tasdiqlangan «Polevaya Farmakopeya» birinchi marta nashr etilgan edi. Keyinchalik Rossiyada harbiy farmakopeya (1779, 1782 va 1797 yy), Dengiz farmakopeyasi (1783), Kambag'allar uchun farmakopeya (1807, 1829, 1845 va 1860 yy) va «Pridvornaya farmakopeya» (1825, 1872, 1874 yy) lar nashr etildi. 1778 y birinchi «Edinaya Grajdanskaya Russkaya Farmakopeya» nashr etilib, uning tarkibiga 770 ta dorivor o'simlik kiritilgan edi. Bu farmakopeya 3 marta kayta nashr etildi (2 marta Kopengagenda va 1 marta Leypsigda), uning tarkibiga dori preparatlari uchun 570 ta maqola kiritilgan bo'lib, ulardan 254 tasi tabiiy, 193 tasi murakkab dorilar aralashmasi, 106 tasi kimyoviy va mineral tuzilishga ega bo'lgan, 17 tasi esa xayvonlardan olingan preparatlarga to'g'ri keladi. Birinchi Rossiya farmakopeyasi rus tilida 1866 yilda nashr etila boshlandi va keyinchalik u SSSR DF deb nomlandi. (2- RF -1871, 3- 1880, 4- 1891, 5-1902, 6- 1910y). 7- DF SSSR – 1925 (30 ta umumiy FM), 8- 1939 (birinchi marta ingliz tiliga ugirildi), 9- 1961 (antibiotiklar, vitaminlar va gormon preparatlari kiritildi), 10- 1968 (738 ta xususiy maqola, ulardan 219 tasi yangi FM, spektrometriya, IQ. fluorimetriya, polyarografiya, YUKX va b. usullar yangi kiritildi).

Umumiy farmakopeya maqolasi – Dori vositasiga qo'yilgan asosiy talablarni uz ichiga olgan yoki nazoratning standart usullari tasvirlangan davlat sifat standarti.

Farmakopeya maqolasi (FM) – UzR SSVning dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasining farmakopeya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan, keng miqyosda ishlab chiqariladigan dori vositalari uchun davlat sifat standarti. FMning amal qilish muddati 5 yil bo'lib, bu muddat o'tgach FM kayta ko'rib, amal qilish muddati keyingi muddatga uzaytirib beriladi.

Vaktinchalik farmakopeya maqolasi (VFM) – keng miqyosda ishlab chiqarishga mo'ljallangan yangi dori vositalari va dorivor o'simlik xom ashyosining dastlabki turkumi uchun tuzilgan O'zbekiston Respublika Sog'liqni Saqlash Vazirligi Dori vositalari va tibbiy texnikasi sifatini nazorat qilish Bosh boshqarmasining

farmakopeya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan Davlat sifat standartidir. VFMning amal qilish muddati 3 yil bo‘lib, bu muddatdan so‘ng VFM kayta ko‘rib chiqiladi va FM tarzida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Korxonada farmakopeya maqolasi (KFM) (FSP) – ayrim korxonada texnologiyasi va dori vositasining aniq tarkibi hisobga olingan xolda dori vositasining sifatini nazorat qilish usullari va ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lgan, farmakopeya qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan sifat standartidir.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarning Davlat reestri – tibbiyot amaliyotida ishlatish uchun ruxsat etilgan dori vositalari va tibbiyot buyumlari ro‘yxatidan iborat rasmiy hujjat.

Tarmoq standartlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar – ishlab chiqarishni loyixalashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish sohasida ilmiy texnik atamalar, umum texnik hujjatlar va texnik me‘yorlar ishlab chiqarishning umumiy qoidalari, xavfsizlik texnikasi me‘yori va talablari asosida ishlab chiqiladi.

Davlat standart namunasi (GSO)– tegishli tartibda tasdiqlangan, sifat o‘lchamlari FMda keltirilgan standart namuna.

Ishchi standart namunasi (RSO)– dori vositasining tegishli sifat standartidir (VFM, FM, TS, KFM) talablariga javob beradigan substansiya namunasi.

Guvox moddaning standart namunasi (SOVS) – dori vositalarini identifikatsiya qilishda, tozaligini tekshirishda qo‘llaniladigan namuna.

Me‘yoriy hujjatlarning tuzilishi, ishlab chiqish va ko‘rib chiqish

Barcha turdagi farmakopeya maqolalarini ishlab chiqish quyidagilarga asoslanadi:

- dori vositalarini sifat ko‘rsatkichlari va nazorat usullarining zamonaviy darajasini ta‘minlash maqsadida tibbiy fanlar, biologiya, kimyo, fizika va boshqa fundamental fanlarning yutuqlariga;
- Davlat farmakopeyasi, xorijiy davlatlar farmakopeyalari, sanoatda ishlab chiqariladigan dori vositalarining sifatiga qo‘yilgan talablarga;
- Dori vositalari sifatini nazorat qilish, qadoqlash va belgilash ko‘rsatkichlarga, Davlat va tarmoq MXlari talablariga;
- Laboratoriya va ishlab chiqarish korxonalarida aniqlangan dori vositalarining sifati va dinamikasi haqidagi ma‘lumotlarga;

VFM muallif – tashkilot tomonidan dori vositasini tayyorlash texnologiyasi bilan birga ishlab chiqilib, uning yaroqlilik muddati 2 yildan kam bo‘lmasligi kerak. FM esa ishlab chiqarish korxonasi tomonidan tegishli VFMning amal qilish muddati o‘tgach ishlab chiqiladi.

Dori vositasi bir necha korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan taqdirda farmakopeya maqolasi hamkorlar ishtirokida Bosh korxonadan tomonidan ishlab chiqiladi.

Dori vositasi sifatini nazorat qilishda DSN-sidan foydalanish lozim bo'lgan holda, bir vaktning uzida DSNga ham farmakopeya maqolasi yoki vaktinchalik farmakopeya maqolasi tuzilib, tasdiqlanishi lozim. FMning amal qilish muddati tugamasidan ishlab chiqarish korxonasi tomonidan kayta ko'rib chiqiladi.

Farmakopeya maqolasining loyixasi quyidagi shaxslar tomonidan imzolanadi:

- dori vositasi yoki dorivor o'simlik xom ashyosiga MXni ishlab chiqqan korxonadan rahbari tomonidan;
- MX loyixasini ishlab chiqqan shaxs tomonidan;
- Dori vositasi yoki dorivor o'simlik xom ashyosini ishlab chiqaruvchi korxonadan rahbari tomonidan;
- Farmakopeya qo'mitasining ilmiy kotibi tomonidan.

FM yoki VFM ekspertizadan o'tkazilib, loyixaning ilmiy-texnik saviyasi va MXning dori vositalarining me'yoriy hujjatlariga qo'yilgan zamonaviy talablarga mos ekanligi tekshirilib, quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- dori vositasi sifat ko'rsatkichlari va qadoqlanishining farmakopeya va xalkaro farmakopeyalar talablari va standartlariga mos kelishi;
- barcha ko'rsatkichlar, sifat me'yorlari va yaroqlilik muddatining asoslanganligi;
- dori vositasi sifatini nazorat qilishning metrologik ta'minlanganlik darajasi va o'lchash vositalarining tug'ri tanlanganligi;
Bu ish yerdan foydalanish shakllarini o'zgartiruvchi urbanizatsiya ta'sirini baholashni osonlashtirish uchun MZ, GAT, metrik tahlil va fazoviy tahlilni integratsiyalashtirib, yer qoplamini tasniflash tizimini taqdim etadi. Masofadan zondlash yer qoplami jarayonini kuzatishga va shahar atrofi holatini baholashga yordam berdi. Vaqtinchalik o'zgarishlar urbanizatsiya tezlashishi bilan bog'liq aholi punktlari tarqalishidan yer resurslari va atrof-muhitga ta'sirini o'rganish va tavsiflashni osonlashtiradi. Ushbu tadqiqotda Landsat ma'lumotlari vaqt seriyasidan foydalanilgan. O'tkazilgan masofadan zondlash ma'lumotlarini o'zgartirish uchun yerdan foydalanish/yer qoplamining tasnifi natijalari shahar atrofi va qishloq xo'jaligi yerlari, ochiq yerlar va suv xaritasini tuzish uchun taklif qilingan va baholangan. Nazorat qilinadigan tasnif qishloq xo'jaligining o'zgaruvchan maydonlarini bitta hisob bilan o'rganishga muvaffaq bo'ldi va shahar sinflari deb nomlandi. Tasniflash indeksleri qishloq xo'jaligi va ochiq yerni bir-biridan aniq farqlay olmadi, chunki bu yerlarning har ikkalasi ham Landsat 5 TM+, Landsat8 OLI guruhlarida o'xshash spektral javoblarni ko'rsatadi, shuning uchun tasniflashda biz qishloq xo'jaligi va ochiq yerlar uchun qo'shma sinf o'tkazdik. Shahar infratuzilmasini (yo'llarini) qurish uchun biz shahar yerlari sifatida birlashgan sinfga ega bo'ldik.

Xaritalar natijalari barcha yillar davomida tuzilgan bo'lib, o'rganilayotgan hududga bo'linadigan yerlarni tasniflash dinamikasi ko'lni o'zgartirishning haqiqiy maydoni shahar va qishloq xo'jaligi (ochiq yerlar) bilan bandligini ko'rsatdi. Haqiqiylik aniqlanar ekan, yuqorida aytib o'tilgan bosqichma-bosqich usullar Toshkent shahar atrofi shahar va qishloq xo'jaligining (ochiq yerlar) yillik o'rtacha ko'rsatkichini aniqlash uchun yetarli edi. Landsat sun'iy yo'ldosh kuzatuvlarini tahlil qilib, yer qoplamining tasnifi o'zgarib turadigan xaritalar metropolitenda sezilarli o'zgarishlarni, so'ngra yangi binolar va infratuzilmalar qurilishini ko'rsatadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining umumiy maydoni 12000 ga dan ortiq bo'lib, 1990 yilda 38,46% yerni egallagan, bu esa 2019 yildagi 2661 ga (6,32%) ga kamaydi va qishloq xo'jaligi (ochiq yerlar) bu davrda tez o'zgarishlarga guvoh bo'lgan (Rasm-4).



Rasm 4. Yer qoplarning tasnifi - Toshkent shahar atrofi (1994, 2021).

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 1994 yildan 2021 yilgacha aholi punktlari 38% ga oshgan va 26% ga oshgani qishloqlarda turli maqsadlarda erdan foydalanishni ko'rsatadi (Rasm-5). Bu rejalashtiruvchilarga Toshkentdagi shaharlarning kengayishi, muammolarni yaxshiroq tushunish, yaxshiroq rejani tuzatish va ishlab chiqish uchun mavjud variantlar haqida tasavvur beradi.



Rasm 5. Yer qoplarning o'zgarishi - Toshkent shahar atrofi.

Qishloq xo'jaligining boshqa sinflardan aniqlash va tasniflash uchun kelgusi tahlilda qishloq xo'jaligining keng ko'lamliligi va bir xil bo'lmagan ichki tuzilmalarini sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari yordamida yuqori geometrik Toshkent shahrining

aniqlikdagi raqamli tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Agar shahar yerlarining katta maydonini hisoblash kerak bo'lsa, bu texnikani qo'llash samaraliroq va aniqroq bo'ladi. Biroq, suvning kichik maydonlarini baholash vizual usul bilan o'rtacha aniqlikda amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda shahar atrofidagi qishloq xo'jaligi (ochiq) maydonlarini ajratish uchun ikkita yangi avtomatik va tezkor spektrli belgilarni tahlil qilish vositalari ishlab chiqildi. Tahlil yer qoplamasi sinflari bilan taqqoslaganda aniqlik nuqtai nazaridan yuqori natija beradi. Tadqiqot ishlari shuni ham xulosaga keltiradiki, masofadan zondlash ma'lumotlarini shahar qoplamasi indekslarini modellashtirishda samarali foydalanish mumkin. Yer qoplaminin tuzilishi va xarakteristikasi to'g'risida yaxshiroq ma'lumot berish uchun ushbu texnikani yuqori darajadagi talqin qilish va spektral identifikatsiya sinflari kerak. Raqamli tasvirni qayta ishlash va xarita texnikasini yaratish shaharlarni kuzatishda katta yutuqlarga olib kelishi mumkin. Bu fazoviy jihatdan ajratilgan shahar atrofi asosiy omil sifatida qanday aniqlanishi mumkinligi ko'rsatildi.

REFERENCES

1. I. Aslanov, S. Khasanov, Y. Khudaybergenov, M. Groll, Ch. Opp, F. Li, E. R. Del-Valle, In E3S Web Conference, 227, 02005 (2021)
2. I. Aslanov, Sh. Kholdorov, Sh. Ochilov, A. Jumanov, Z. Jabbarov, I. Jumaniyazov, N. Namozov, In E3S Web of Conferences, 258, 03012 (2021)
3. I. Aslanov, U. Mukhtorov, R. Mahsudov, U. Makhmudova, S. Alimova, L. Djurayeva, O. Ibragimov, In E3S Web of Conferences, 258, 04012 (2021)
4. Sh. Narbaev, S. Abdurahmanov, O. Allanazarov, A. Talgatovna, I. Aslanov, In E3S Web of Conferences, 263, 04055 (2021)
5. G. Kuc, J. Chormański, Remote Sens. Spat. Inf. Sci. - ISPRS Arch., 42, 43-47 (2019)
6. J. Xue, B. Su, J. Sensors, 2017, 17 (2017)
7. P. Addabbo, M. Focareta, S. Marcuccio, C. Votto, S. L. Ullo, Acta IMEKO., 5, 44-54 (2016)
8. D. Frantz, Remote Sens. Environ, 252, 2-9 (2020)
9. A. Lefebvre, C. Sannier, T. Corpetti, Remote Sens, 8, 112128 (2016)
10. M. Kopecká, D. Szatmári, K. Rosina, Remote Sensing of Environment, 6, 2-9 (2017)
11. R. Oymatov, S. Safayev, In E3S Web of Conferences, 258, 03020 (2021)

12. M. M. Maroneze, L. Q. Zepka, J. G. Vieira, M. I. Queiroz, E. Jacob-Lopes, *Rev. Ambient. e Agua*, 9, 445-458 (2014)
13. K. Rosina and M. Kopecká, 6th Int. Conf. Cartogr. GIS, 308 (2016)
14. S. Lang, E. Schöpfer, D. Hölbling, T. Blaschke, M. Moeller, T. Jekel, E. Kloyber, *Use Landsc. Sci. Assess. Environ. Secur.*, 93-105 (2007)
15. M. V. Wojtaszek, L. Ronczyk, Z. Mamatkulov, M. Reimov, In *E3S Web of Conferences*, 227, 01001 (2021)
16. A. A. Kozlova, A. V. Khyzhniak, I. A. Piestova, A. A. Andreiev, 17th Int. Conf. Geoinformatics - Theor. Appl. Asp., 14-19 (2018)
17. A. L. Uren, C. Laukamp, A. D. George, S. A. Occhipinti, A. R. A. Aitken, *Remote Sens. Environ.*, 252, 1-8 (2020)
18. S. Durkhodjaev, S. Islamov, T. Kenjaeva, A. Tojiboyev, In *E3S Web of Conferences*, 258, 04024 (2021)
19. S. Gadai, W. Ouerghemmi, R. Barlatier, and G. Mozgeris, *GISTAM 2019 - Proc. 5th Int. Conf. Geogr. Inf. Syst. Theory, Appl. Manag.*, 97-104 (2019)
20. B. Sulaymonov, F. Yakubov, A. Anorbaev, In *E3S Web of Conferences*, 244, 02045 (2021)
21. J. Deng, Y. Huang, B. Chen, Ch. Tong, P. Liu, H. Wang, Y. Hong, *Remote Sens.*, vol. 11, 1230 (2019)
22. T. T. Van, N. D. H. Tran, H. D. X. Bao, D. T. T. Phuong, P. K. Hoa, T. T. N. Han, *Proceedings*, 2, 12-23 (2017)
23. S. Isaev, T. Rajabov, G. Goziev, A. Khojasov, In *E3S Web of Conferences*, 258, 03015 (2021)
24. R. Kulmatov, S. Khasanov, S. Odilov, F. Li, *Water, Air, and Soil Pollution*, 232(5), 216 (2021)
25. R. Kulmatov, J. Mirzaev, A. Taylakov, J. Abuduwaili, B. Karimov, *Environmental Earth Sciences*, 80(3), 122 (2021)
26. Y. Liu, P. Wang, H. Ruan, T. Wang, J. Yu, Y. Cheng, R. Kulmatov, *Water (Switzerland)*, 12(8), 2101 (2020)
27. R. Kulmatov, J. Mirzaev, J. Abuduwaili, B. Karimov, *Journal of Arid Land*, 12(1), 90-103 (2020)
28. M. Groll, R. Kulmatov, N. Mullabaev, C. Opp, D. Kulmatova, *Environmental Earth Sciences*, 75(10), 921 (2016)
29. B. Alikhanov, M. Juliev, S. Alikhanova, I. Mondal, *Groundwater for Sustainable Development*, 12, 100548 (2021)

-
30. M. Batty, M. Dodge, B. Jiang, and A. Smith, *Environ. Syst. Res.*, 8, 26154 (1998)
 31. M. Vittek, A. Brink, F. Donnay, D. Simonetti, and B. Desclée, *Remote Sens.*, 6, 26981(2014)
 32. M. Pedersen Zari, *Int. J. Sustain. Built Environ.*, 4, 1248 (2014)
 33. T. Fung, *Geocarto Int.*, 7, 569-579 (1992)
 34. S. Narbaev, A. Chertovitskiy, K. Rakhmanov, V. Akhmadaliev, *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 11(7), 861–864 (2019)

**MAKTAB LABORATORIYA XONASI - EKSPERIMENTAL BILIMLAR
MANBAI**

K.H.Malikov

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

malikovkomiljon1995@gmail.com

SH.P. Begzatova

Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fizik hodisalarni tushuna olish va tasavvur qila olish, muhim fizik tushunchalarni va qonunlarni o'rganish, to'g'ri fikr yurita olishda laboratoriyaning o'rni va ahamiyati ochib berilgan.

***Kalit so'zlar:** Fizik tajribalar, kuzatish, hodisa, o'quv eksperimenti, sinab ko'rish, ko'nikma, malaka.*

**SCHOOL LABORATORY ROOM - SOURCE OF EXPERIMENTAL
KNOWLEDGE**

K.H. Malikov

Teacher of Chirchik State Pedagogical Institute

malikovkomiljon1995@gmail.com

SH.P. Begzatova

Teacher of Chirchik State Pedagogical Institute

ABSTRACT

This article explains the role and importance of the laboratory in understanding and imagining physical phenomena, studying important physical concepts and laws, and being able to think correctly.

***Keywords:** Physical experiments, observation, event, learning experiment, trial, skill, qualification.*

**ШКОЛЬНАЯ ЛАБОРАТОРИЯ - ИСТОЧНИК
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ**

К.Х. Маликов

Преподаватель Чирчикского государственного педагогического института

malikovkomiljon1995@gmail.com

Ш.П. Бегзатова

Преподаватель Чирчикского государственного педагогического института

АННОТАЦИЯ

В этой статье объясняется роль и важность лаборатории в понимании и представлении физических явлений, изучении важных физических понятий и законов и способности правильно мыслить.

***Ключевые слова:** физические эксперименты, наблюдение, событие, обучающий эксперимент, испытание, навык, квалификация.*

KIRISH

Fizika tabiat haqidagi fandır. U ob'ektiv borliq tuzilishini, hodisa va jarayonlarni va ularni tavsiflovchi kattaliklarni, ular orasidagi bog'lanishlarni, tabiiy qonun va qoidalarni o'rganadi. Fizik tajribalarni tadqiqiy va o'quv tajribasiga ajratish mumkin. O'quv maqsadiga yo'naltirilgan tajribalar o'quv tajribalari deyiladi. Fizikaviy qonunlar, qoidalar va nazariyalar tajribada isbotlangach qabul etiladilar. Shu bois o'quv eksperimenti bir vaqtning o'zida bilimlar manbai, o'qitish metodi va ko'rgazmalilik turi bo'lib hisoblanadi. O'quv tajribasi (O'T yoki O'E) sub'ektiv yangilik bo'lgan hodisalarni, qonunlarni kashf etish uchun xizmat qiladi.

Fizika faning eksperimental xarakterining ifodalanishi maktab kursida fundamental fizik nazariyalarni, xususan, faktlardan, fizik kattaliklar, tushunchalar, idealashtirilgan ob'ektlar, umumiy va xususiy qonunlardan tashkil topgan bilimlarni asosiy tashkil etuvchilarini o'rganishda turli ko'rinishdagi eksperimentdan-namoyish tajribasi (NT), frontal laboratoriya ishlari, fizikadan praktikum ishlari, eksperimental masalalar, sinfdan tashqari va uyda bajariladigan tajribalardan keng foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu fizikadan o'quv tajribasi fizika kursining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODOLOGIYASI

Eksperimental o'qituv tajriba asosida o'qitishdir.

Eksperiment so'zi lotincha "exrerimentum"-sinash so'zidan olingan bo'lib hozirgi zamon adabiyotlarida "sinab ko'rish" yoki "tajriba o'tkazish" va sodda qilib aytganda "tajriba" ma'nosini anglatuvchi so'z sifatida qabul etilgan. Eksperiment (tajriba)—fizik hodisaning borishini kuzatishga imkon beradigan, tekshiriladigan hodisani kuzatish tahlil qilish xamda uni istagan paytda belgilangan sharoitda qaytadan takrorlash demakdir.

O'quv eksperimentining frontal va oddiy laboratoriya ishlarini hamda praktikum ishlarini bajarish jarayonida o'quvchilar ilmiy izlanish usullarini, foydalanilgan vositalar tuzilishi, ishlash prinsipi va ular bilan muomala qilish, ular yordamida o'lchash ishlari olib borib natijalar olishni ularni tahlil etib xulosalar chiqarishni

o'rganadilar. O'quvchilarning ushbu faoliyati unda tajribaga asoslangan malakani shakllantiradi va rivojlantirib boradi. Fizika o'qituvchisining kasbiy shakllanishida ushbu malakaning o'rni alohidadir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiatda yuz beradigan hodisalarni, sodir bo'ladigan jarayonlarni tahlil qilib va fizika qonunlari asosida ularni tushuntirishga intilishni o'rganish kerak. Laboratoriya darslarida talabalar fizika kursi bilan amaliy tanishadilar.

Fizika fanini o'qitishda o'quv tajribasining o'rni va ahamiyati kattadir. Fizika o'qitishda o'quvchilar tabiat hodisalarini bevosita kuzatadilar, ularni o'z ko'zlari bilan ko'radilar yoki ko'z oldilariga yaqqol keltiradilar, fizika o'qitishda namoyish tajribasi tayyorlash va uni ko'rsatish malakasini xosil qiladi. Amaliy ko'nikma va malaka xosil qilishda laboratoriya va praktikum ishlarining o'rni va ahamiyati alohidadir. Fizika tajribalari ishlab chiqarish bilan aloqadorligi tufayli o'quvchilarning bilish faoliyatlarida onglilik, ko'rgazmalilik tamoyilini va politexnik ta'limni amalga oshirishga yordam beradi. Fizika kursida fizika tajribasining ahamiyati beqiyosdir:

- o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malaka xosil qiladi .
- o'quvchilar tabiatdagi fizik hodisalarni kuzatish o'lchash va uning natijalarni hisoblash , xulosa chiqarishga o'rganadilar
- turli asboblardan foydalanishni o'rgatish va mustaqil tajriba o'tkazishga tayyorlaydi.
- o'quvchilar o'rgangan materialni xotiralarida yaqqol tiklaydi, fizik hodisalar mohiyatini chuqurroq o'zlashtiradilar[1].

Kuzatiladigan fizik hodisani vositalar yordamida belgilangan sharoitda asosiy bo'lgan bog'lanishlarni hisobga olgan holda ro'y berishi yoki qayta sodir etkazish fizikaviy laboratoriya tajribasi deyiladi. Laboratoriya tajribasi o'tkazish texnikasi jixatidan uch turga ajratiladi: yalpi (frontal) laboratoriya tajribasi, oddiy laboratoriya tajribasi va praktikum (amaliyot) ko'rinishidagi laboratoriya tajribasiga ajratiladi. Yalpi va oddiy laboratoriya tajribasi biror mavzu va bo'lim tugagach dars jadvali va kalendar reja asosida uyushtiriladi. Laboratoriya ishi qurilma va uskunalari darsgacha xozirlab qo'yiladi. Yalpi laboratoriya ishida barcha sinf o'quvchilari bir xil tajribani uyushtiradilar . Oddiy laboratoriya ishida esa dastlab o'qituvchi o'quvchilarga tajribani namoyish etadi, so'ng o'quvchilar zvenolarga bo'linib tajribani mustaqil o'tkazadilar. Amaliyot tajribasida turli zvenolar tomonidan turli laboratoriya tajribasi uyushtiriladi. Yalpi va oddiy laboratoriya tajribasi o'rta maktab, kollej va litseylarda

quyi sinf va kurslarda uyushtiriladi. Amaliyot tajribasi oliy maktablarda, maktab, kollej va litsey yuqori kurslarida uyushtiriladi[2].

Laboratoriya metodi ta'lim jarayonida o'quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va taraqqiy etish qonunlari haqida yangidan-yangi bilimlar berish va mustahkamlash hamda ularning tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishlarida muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar tomonidan fizika xonasida narsa va hodisalarni maxsus jihozlar vositasida (o'lchov asboblari, tajriba jihozlari va tajriba uchun kerak bo'lgan asbob va anjomlar kabilar yordamida) bevosita o'rganishga laboratoriya ishlari deb aytiladi. Laboratoriya metodi VI-IX sinflarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejarining I,II, va III kurslarida fizika, ximiya, biologiya va tabiiy geografiya fanlarini o'qitishda qo'llaniladi. Laboratoriya mashg'ulotlari maxsus jihozlangan laboratoriya xonasi hamda tegishli apparat, asbob-uskunalar, mikroskop, lupa, kolba, menzurka, o'lchov asboblari bilan ta'minlangan oddiy sinf xonalarda, maktabning tajriba uchastkalarida olib boriladi. Odatda laboratoriya mashg'ulotlari o'qituvchi tomonidan ilgari og'zaki bayon qilish-tushuntirish, hikoya qilish, maktab ma'ruzasi va suhbat metodi bilan o'tilgan ma'lumotlarni aniqlash, isbot qilish va mustahkamlash maqsadida olib boriladi. Ba'zan bunday mashg'ulotlar yuqori sinflarda ham yangi bilim berish maqsadida qo'llaniladi. Ko'pincha laboratoriya darsi mashg'ulotning tavsifiga qarab uch turda: kuzatish; tajriba yoki eksperiment o'tkazish; tegishli asbob uskunalar vositasida muayyan biror narsani o'lchab yoki tekshirib ko'rishda qo'llaniladi. Bitta laboratoriya mashg'ulotida ikki yoki uch xil metod qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ish boshlashlaridan oldin tajribaning muvaffaqiyatli chiqishiga erishish uchun ularga tegishlicha yo'l-yo'riq berishi mumkin[3].

Fanni o'qitilishi jarayonida o'quvchilarga oddiy tajribalarni ko'rsatish, lozim bo'lsa uyda o'zlari mustaqil yoki ota-onalari ko'magida bajara olish mumkin bo'lgan tajribalarni topshiriq qilib berilishi mumkin. Masalan, boshlang'ich davrlarda avtomobil, velosiped, soatning harakatini, bolalar o'yin maydonchasidagi atraksionlarni harakatlanishini kuzatish, umuman kuzatishga oid topshiriqlar berilishi, so'ngra esa albatta bu topshiriqning bajarilganligi, bu jarayonlarning har biri yuzasidan o'quvchining fikri tinglanishi lozim. Keyingi bosqichlarda esa sekinlik bilan oddiy tajribalarni qanday bajarilishi tushuntirilgandan so'ng, mustaqil bajarish va xulosa chiqarish topshiriqlari beriladi.

Masalan:

- diffuziya hodisasiga oid tajribalar: suv va yog'ning aralashuvi temperature yuqori bo'lganda tezroq sodir bo'lishini (ovqat pishirish jarayonida), yog'ning suv

betida aralashmasdan yoyilib qolishi sabablarini (zichligining kichikligi uchun), isiriq hidining xonaning bir burchagidan narigi burchagiga yetib borgunicha ma'lum vaqt o'tishining sabablarini (Broun harakati tufayli) topishga doir tajribalar;

- elektr hodisalari bo'limiga oid tajribalar: shishirilgan sharni krandan oqib chiqayotgan suvga yaqinlashtirganimizda suvning shar sirtiga tomon tortilishini kuzatish, sochni temir taroq bilan taralganda soch tolalarining bir-biridan itarilishini (zaryadlanib qolganligi sababli), to'qilgan kiyimlarni yechilayotganida ishqalanish tufayli zaryadlanib qolishi natijasida chirsillagan ovoz chiqishi va uchqun ham hosil bo'lishini kuzatish;

- bitta yorug'lik manbasi bilan yoritilgan xonada soyaning, ikki va undan ortiq manbalar bilan yoritilgan xonada esa yarim soya va soyaning hosil bo'lishini kuzatish; suvga qo'limizni solganimizda barmoqlarimizning ko'rinishi o'zgarganligi sababi; hovuz va ko'llar yuzasi yaltirab ko'rinishi sabablarini kuzatishlar orqali topishga doir topshiriqlar; shamni o'chirib, uning tutuniga yonayotgan gugurt cho'pini tutganimizda tutun orqali yana shamni yoqish mumkinligini ko'rish;

Albatta allomalarimizning o'tmishda foydalangan mexanizmlari, yaratgan asboblari haqida ma'lumotlar berib borilishi o'quvchi qalbida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadi. Bobolarimizning ibratli so'zlarini mavzularga mos holatda darsning shiori qilib belgilash, fizik qonunning turmushdagi tatbiqlarini tushuntirish katta amaliy ahamiyatga egadir.

XULOSA

1. Fanni o'qitishda faqatgina nazariy bilimlarga tayanib qolmasdan, tabiat hodisalari, turmush tarzi bilan bog'lay olishning va mana shu hodisalarni to'g'ri tahlil qilib formula va qoidalarni keltirib chiqarishga yo'l olinishi darkor.

2. Fizikadan nazariy va eksperimental bilimlarni optimal uyg'unligi asosida tashkil etilgan barcha eksperimental mashg'ulotlar orqali o'quvchilar tomonidan erishilgan bilimlar, eksperimental ko'nikmalar va malakalarning shakllanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Adduboqiyev O'.A., Laboratoriya eksperimentini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma. Andijon: ADU, 2009.
2. Suyarov K.T., Shermatova S.T., Fizikadan eksperimental mashg'ulotlarni bajarishda o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik jihatlari. ARES, Toshkent, 2021.

3. Abdullaeva Sh., Xolmamatova L.A. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.:TAQI, 2005.
4. Рустамов, У. Р., Бегзатова, Ш. П., Маликов, К. Х. (2021). Нанозарраларни ҳосил қилиш ва уларнинг магнит хоссалари. Scientific progress, 1(4).
5. Рустамов, У. Р., Маликов, К. Х. (2021). Магнит нанозарраларнинг баъзи хоссалари. Academic Research in Educational Sciences, 2(3).
6. Суяров, К. Т., Маликов, К. Х. (2021). Применение современных учебных приборов - залог эффективности в обучении физике. Экономика i sotsium 4(83).
7. Akhmedov, B. A. (2021). Dynamic identification of the reliability of corporate computing cluster systems. Academic Research in Educational Sciences, 2 (3), 495-499.
8. Akhmedov, B. A. (2021). Problems of ensuring the reliability of cluster systems in a continuous educational environment. Eurasian Education Science and Innovation Journal, 1 (22), 15-19.
9. Akhmedov B.A., Shayxislamov N., Madalimov T., Maxmudov Q. (2021). Smart texnologiyasi va undan ta'limda tizimida klasterli foydalanish imkoniyatlari. Scientific Progress. № 1(3). P. 102-112.
10. Akhmedov B. A. (2021). Zadachi obespecheniya nadejnosti klasternix sistem v nepreryvnoy obrazovatelnoy srede. Eurasian education science and innovation journal. № 1 (22). P. 15-19.
11. Akhmedov, B. A. (2020). On the development of skills of interactive online courses in the distance conditions of modern society (model program for teachers of educational institutions). Universum: Engineering Sciences, 12-1 (81).
12. Akhmedov, B. A. (2020). Mathematical models for evaluating the characteristics of the quality and reliability of software. Eurasian Education Science And Innovation Journal, 3 (10), 97-100.
13. Якубов, М. С., Ахмедов, Б. А., Дуйсенов, Н. Э., Абдураимов, Ж.Г. (2021). Анализ и новые тенденции использования нейросетей и искусственного интеллекта в современной системе высшего образования. Экономика i sotsium, 5(84), 1148-1162.
14. Якубов, М. С., Ахмедов, Б. А. (2021). Применение цифровых технологий в формировании структуры системы образований. Экономика i sotsium, 5(84), 1163-1177.
15. Rakhimov, S. M., Djamirzaev, A. A., Akhmedov, B. A. (2021). Methods of teaching Informatics in Higher Education Problems and Observations. Экономика i sotsium, 9(88).

-
16. Rakhimov, S. M., Ahmedov, B. A. (2021). O'rta ta'lim maktabida informatikani o'rgatish metodikasi. *Ekonomika i sotsium*, 9(88).
17. Ахмедов, Б. А., Султанов, Б. (2021). Анализ и новые тенденции использования кластерных систем и искусственного интеллекта в современной системе высшего образования. *Ekonomika i sotsium*, 8(87), 344-358.

O‘ZBEK TILIDA DARSLARIDA TALABALAR NUTQINI TAKOMILLASHTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

**Qo‘ziboyeva Maxfuza Mirzayevna,
Raxmatova Sevaraxon Alisherovna**
Andijon davlat tibbiyot instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada rusiy zabon guruhlarda «O‘zbek tili» mashg‘ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida qiziqarli va mazmunli tashkil qilish haqida so‘z yuritiladi.

Mualliflar o‘zlari qo‘llagan innovatsion texnologiyalar asosida talabalarning og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish borasidagi tajribalarini tavsiya etganlar.

***Kalit so‘zlar:** mantiqiy va ijodiy fikrlash, grammatik ma‘no, leksik tahlil, badiiy tafakkur.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается интересная и содержательная организация уроков «узбекского языка» в группах русского языка на основе педагогических технологий.

Авторы рекомендовали студентам опыт развития устной и письменной речи на основе используемых ими инновационных технологий.

***Ключевые слова:** логико-творческое мышление, грамматическое значение, лексический анализ, художественное мышление.*

ANNOTATION

The article is about an interesting organization on teaching of “Uzbek language” in a Russian groups on the base of new pedagogical technologies .

The authors recommend their own experience of work in a way of development of oral and written speech of students.

***Key words:** Grammatical meaning, lexical analyze, artistic and logically thinking.*

KIRISH

Bugungi kunda o‘zbek tilinichuqur o‘zlashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbek tilini o‘qitishning dolzarb vazifalaridan biri- erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy- siyosiy hayotga ongli ravishda va faol ishtirok etuvchi shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Bunday shaxslarning yetishuvi esa mamlakatning ijtimoiy –siyosiy hayotiga demokratiya asoslarini joriy etishni

hamda fukorolik jamiyatining burch va vazifalarini to'la anglab yetish hamda huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi.

Har bir sohada o'qitish, o'rgatish, ta'lim – tarbiya berishni yo'lga qo'yish va isloh qilish talab etilmoqda. Buning uchun esa ta'lim berishda yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsiyalardan foydalanish, tadbiiq etish zaruriyati tug'ilmoqda. Tadbiiq etish asosida yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limdagi innovatsiyalarni to'plash, ular ichidan faoliyatimizga tegishli o'ta dolzarb va zarur bo'lgan hamda eng ko'p samara beradiganlarini tanlash, ta'lim berish jarayonida o'qituvchi talabani faollashtiradigan, ozi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, metod va uslublarni, o'qitish shakllarini, vositalarini yaratadi, takomillashtiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida talaba olgan bilimlarni mustahkamlash, nutqini o'stirish, mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalar va usullardan tavsiya etamiz.

“Bilimdonlar” texnologiyasi. Bu texnologiyaning maqsadi – mavzularni mustahkamlash.

Texnologiyani o'tkazish tartibi:

Talabalar 3 ta kichik guruhga bo'linadilar. Guruhlar o'zlariga nom va shior tanlaydilar. So'ngra guruhning har bir a'zosi o'tilgan mavzuga oid ma'lumotni 3 soniya ichida qisqa ta'rif bilan tushuntirishi kerak bo'ladi.

Birinchi aytilgan fikrni guruhning qolgan a'zolari takrorlamasligi kerak. Agar takrorlasa guruhga jarima bali beriladi. Ushbu musobaqa tezlik bilan uchala guruh vakillari o'rtasida tez va mazmunli holda tashkil qilinadi. Har bir guruhda necta ma'lumot aytilgan bo'lsa, shuncha ball qo'lga kiritiladi. Takror yoki noto'g'ri fikr aytilgan bo'lsa, guruhlarga jarima bali belgilanadi. Eng ko'p ball to'plagan guruh bu bosqichning g'olibi sifatida rag'batlantiriladi.

Texnologiyaning afzalliklari :

- takrorlash orqali o'tilgan mavzular talabalar bilimiga asoslanib mustahkamlanadi;
- har bir o'tilgan mavzu chetda qolmaydi, har bir o'tilgan mavzuni yodda tutishga harakat qiladi. Bu esa xotirani mustahkamlashga olib keladi;
- bir talaba aytgan fikrni keyingi talaba aytib qo'ymasligi uchun talaba diqqatini jamlaydi. Bu esa diqqatning barqaror bo'lishini ta'minlaydi;
- talabalarda ko'tarinki kayfiyat paydo bo'lib, faolligi ortadi;

- bir dars davomida bir necha mavzular yodga olinadi, talabalarning barchasi baholanadi.

“Taqqoslash” texnologiyasi.

Bu texnologiyada o'qituvchi o'z talabalarini ijodiy fikrlashlarini takomillashtirishga undaydi.

Texnologiyani o'tkazish tartibi:

Talabalar kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh o'ziga xos jo'shqin nom va shior tanlaydi. Nima uchun shunday nom va shior tanlaganliklarini guruh a'zolari chiroyli ifodalarda bayon etadilar. Har bir guruh o'z nomi va shiorining tavsifini aytganidan so'ng qarsaklar bilan rag'batlantiriladi.

Keyin asosiy faoliyat boshlanadi. A3 formatdagi qog'ozda quyidagi jadval beriladi:

GAP	HUJAYRA
Gap nutq birligi.	Hujayra – organizmning tuzilish birligi.
Gap bir butun sistema.	Hujayra ham bir butun sistema
Gap bo'laklardan iborat: ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.	Hujayra membrana, sitoplazma, yadro dan iborat.
Gapning mazmuniy markazi – kesim.	Hujayraning markazi – yadro.
Nutq keyingi nutq uchun zamin bo'ladi.	Hujayra ham ikkinchi hujayrani yuzaga keltiradi.

Belgilangan muddat tugagach har bir guruh o'zlariga berilgan jadval asosida ijodkorlik nuqtai nazaridan kashf qilingan chizmalarning taqdimotini o'tkazadilar.

Bu yerda atamalarning fanlararo bog'liqliklari grammatik va leksik jihatdan tahlil qilinadi. Masalan: *Tabiatda bir-biriga o'xshash narsa va hodisalar ko'p. Ularning bir-biriga o'xshashlik jihatlari bo'lak, qismlardan iborat bir butunlik ekanligida. Gap ham nutq tovushi, so'z, so'z birikmasidan iborat bir butun sistema.*

Texnologiyaning afzalliklari:

- fanlararo atamalarni qiyoslash orqali har bir grammatik hodisaning kirib borishiga erishiladi;

- leksik ma'nolarni tahlil qilish orqali nutq boyligi ortadi;

- mantiqiy fikrlashga va ijodiy ishlashga o'rgatiladi;

- talabalar har bir hodisani qiyoslab, mushohada etishga, mantiqan yondashishga va obyektiv xulosa chiqarishga o'rganadi.

“Zanjir” texnologiyasi

Texnologining maqsadi: talabalar jamoa bo'lib hamkorlikda ishlash va bir qarorga kelish jarayonida mantiqiy va ijodiy fikrlashni o'rganadilar.

O'tkazilish taribi:

Talabalar kichik guruhlariga bo'linadilar. Alohida kichik qog'ozlarga yozilgan so'zlar teskari tomon bilan qoyiladi. So'zlar turli ma'noga xos bo'lib, bir-biriga bog'lanmagan so'zlardan iborat bo'ladi.

Har bir guruh a'zolari birgalikda tanlab olingan so'zlarni mantiqan bir-biriga bog'lagan holda 2-3 ta mazmunli gaplar tuzadilar. Shartga ko'ra, uchala so'z bir gapda qatnashishi kerak.

Tuzilgan gaplar mantiqan to'g'ri ekanligiga va badiiy – estetik jihatga ko'ra baholanadi. Masalan:

Diagnoz, ob-havo, buyrak kasalligi.

Ob-havo noqulayligida buyrak kasalligi diagnozi bilan og'riqan bemorlar soni ortadi.

Tuzilgan gaplar yuzasidah guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Gapda qo'llanilgan badiiy unsurlarga e'tibor qaratiladi, tahlil qilinadi. Mantiqan to'g'ri va badiiy jihatdan mukammal, ko'p gap tuza olgan guruh g'olib deb topiladi.

Keyingi bosqichda talabalarning og'zaki nutqlarini yanada boyitish maqsadida shu soz va gaplar ishtirokida mazmunli kichik matnlar tizishlari ham mumkin.

Texnologiyaning afzalliklari:

- talabalarni mantiqiy fikrlashga undaydi;
- ijodiy va badiiy tafakkurini boyitadi;
- badiiy jihatdan mukammal gaplar tuzish ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- so'zlarni o'z ornida qo'llay olish malakasi shakllantiriladi;
- talabalarning so'z boyluklari ortadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi rus guruhlarda tahsil olayotgan talabalarning o'zbek tiliga bo'lgan munosabatini yuqoridagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qiziqishlarini ta'minlash bilan birga har bir darsni ijod mahsuli sifatida taqdim etishi kerak. Ana shuhda talaba har bir mashg'ulotning faol va zukko ishtirokchisiga aylanadi. Har bir darsni mazmunli va qiziqarli tashkil qilish bilan birga o'qituvchi talaba-yoshlarni barkamol bo'lishiga, o'zbek tiliga bo'lgan samimiy muhabbatini ham tarbiyalaydi. Zero, o'zbek tiliga bo'lgan muhabbat mana shu xalqqa, Vatanga bo'lgan muhabbatdir.

REFERENCES

1. Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. T.:O'qituvchi, 2007.
2. Shodmonov E., Rafiyev A. O'zbek tili. Darslik. T.: O'zbekiston, 1995.
3. Yusufkhonov, Z. Y. U., Ahmedov, D. T. U., Khusanov, L. E., & Masodiqov, S. U. (2021). TOPICAL ISSUES OF IMPROVING THE QUALITY OF ROAD TRANSPORT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 108-117.

INGLIZ VA O'ZBEK OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING ISTE'MOLDAGI O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Latipova Umida Usmanovna

(O'zJTU tayanch doktoranti)

ANNOTATSIYA

Fan texnika rivojlanishi natijasida jamiyatda va kishilar yashash tarzida kun sayin sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu rivojlanish va o'zgarishlarni dunyo xalqlarining jumladan ingliz va o'zbek xalqlarining ovqatlanish tarzida ham uchratish mumkin. Ushbu maqolada kunning turli qismlarida iste'mol qilinadigan ingliz va o'zbek oziq-ovqat mahsulotlarining bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *axborot almashinuv jarayoni, mehmondo'st, nonushta, tushlik, kechki ovqat, ozuqaviy, sog'liq, oziq-ovqat mahsulotlari, iste'molchi, mehnat qobiliyati.*

АННОТАЦИЯ

В результате развития науки и технологий ежедневно происходят значительные изменения в обществе и образе жизни людей. Эти события и изменения можно увидеть в питании народов мира, в том числе британцев и узбеков. В этой статье освещаются сходства и различия между английской и узбекской едой, потребляемой в разное время дня.

Ключевые слова: *процесс обмена информацией, гостеприимство, завтрак, обед, ужин, питание, здоровье, еда, потребитель, трудоспособность.*

ABSTRACT

As a result of the development of science and technology, significant changes are taking place in society and in the way people live every day. These developments and changes can be seen in the diet of the peoples of the world, including the British and Uzbeks. This article highlights the similarities and differences between English and Uzbek food consumed at different times of the day.

Keywords: *information exchange process, hospitality, breakfast, lunch, dinner, nutrition, health, food, consumer, ability to work.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumining o'zgarishi, 21 asrda barcha xalqlar qatori ingliz va o'zbek oziq-ovqat mahsulotlari iste'molchilari talablarining ham o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, ikki xalqning oziq-ovqat mahsulotlariga oid leksik birliklarni funktsional-semantik jihatdan yoritib berish kabi vazifani oldimizga

qo'yadi. Iste'molda keng qo'llaniladigan bir komponentli va ko'p komponentli terminlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga, yoki aksincha o'zbek tilidan ingliz tiliga berilishdagi o'rnini belgilab, tarjimashunoslik aspektida pragmatik tahlil qilinishi ingliz va o'zbek oziq-ovqat mahsulotlarining bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib beradi.

Darhaqiqat, har bir sohada zamon bilan hamnafas faoliyat yuritilishi hozirgi davr talabidir. Axborot almashinuv jarayoni jadallashgan bizning zamonimizda ingliz va o'zbek oziq-ovqat mahsulotlari va ularning iste'molidagi o'xshash va farqli jihatlarini xorijiy tilda muloqot asnosida muayyan leksik birlik anglatuvchi ma'noni aniq tushunib, o'zaro muloqotni to'g'ri tashkil etish zarur. Bunda oziq-ovqat mahsulotlari nomlari, turlari, kunning qaysi qismida is'temol qilinishi, ya'ni nonushta, tushlik, kechki ovqat yoki yengil tamaddi sifatida, mavsumiylik jihatlarini, talab darajasi kabilarning farqli va o'xshash tomonlari muammosini ijobiy hal etish maqsadida leksik birliklar tarjimasi funktsional-semantikasining nozik qirralarini ilg'ash amaliyot doirasi kengayishiga xizmat qiladi. Inson organizmi deyarli barcha kerakli moddalarni oziq-ovqat va suv orqali oladi. Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibi va ularning xususiyatlari salomatlik, jismoniy rivojlanganlik, mehnat qobiliyati, hissiy holat va umuman, umr ko'rish davomiyligi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Inson organizmiga shu qadar ta'sir qilishga qodir bo'lgan yana boshqa bir omilni topish qiyin. Ovqatlanish borasida ko'plab nazariyalar mavjud va deyarli har kuni yangi ma'lumotlar paydo bo'lib, ularning ba'zilarini go'shtni cheklash kerak desa, boshqa birlari faqat ma'lum bir mahsulotlardan iborat taomnoma har qanday kasalliklardan qarshi ta'sir ko'rsata oladi deyishadi. Aslida inson tanasi juda murakkab tizimdir, uning normal ishlashi uchun u ham go'sht, ham sabzavotli taomlarni talab qiladi. Shu sababli to'g'ri ovqatlanish qoidalarini bilish juda muhim sanaladi. Bu borada shubhali tavsiyalarga amal qilish salomatlikda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Sog'lom kishi kuniga 4-5 marta, ovqatlanish oralig'ini 5 soat dan oshirmagan holda taomlanishi eng optimal sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kunni qanday boshlash, qaysi mahsulotlar bilan taomlanish va tanlangan taom kun davomida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sog'lom, foydali nonushta inson organizmiga energiya, kuch va qoniqish his qilishiga yordam beradi. Albatta, yaxshi nonushta uchun tanlangan taomlar ko'p jihatdan insonlarning tug'ilib o'sgan joyiga bog'liq bo'ladi. Ingliz oziq-ovqat mahsulotlari oqsilga boyligi muhim o'rin egallaydi. Nonushta uchun tanlangan mahsulotda oqsil ko'p bo'lganda, organizmdan energiya sekin chiqadi, bu esa tushlikka qadar to'yingan bo'lishni ta'minlaydi.

An'anaviy ingliz nonushta taomlari ozining xilma-xilligi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Nonushta, ya'ni kunning birinchi taomlari alohida ahamiyatga ega. Odatda ingliz nonushtasi tuxum, kolbasa, qovurilgan non, qo'ziqorin va pishirilgan loviyadan iborat deb o'ylashadi. Ammo, bugungi kunda ingliz nonushtasi bir payola don mahsuloti, bir bo'lak tost, apelsin sharbati va bir finjon qahva bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Ko'p odamlar, ayniqsa bolalar, Angliyada makkajo'xori, bug'doy, jo'xori kabi turli xil donlardan tayyorlangan mahsulotlarni sevib iste'mol qilishadi. Qish mavsumida esa ko'p odamlar bo'tqalar yoki qaynatilgan jo'xori yeyishadi. Eng avvalo, tostdagi magmit ingliz nonushtasining o'ziga xosligi yorqin namunasidir. Mazali va oson nonushtani tostsiz tasavvur qilish qiyin. Tost ko'p tushuntirish talab qilmasada, mahsus uskuna, ya'ni tosterda qizartirib, isitib olingan non bo'lagi, magmit haqida biroz fikr bildiradigan bo'lsak, bu xamirturush ekstraktidan tayyorlanadi, bu magmitga aniq sho'r ta'm beradi. Magmitni ta'mi kuchli, buni inkor etib bo'lmaydi, ba'zi iste'molchilar tostdagi magmitni sevib iste'mol qilsalar, boshqalari esa bunaqa ta'mga umuman dosh bera olmaydilar.

Tabiat saxovatli va boy. Mehmondo'st o'zbek dasturxonini bunga yaqqol dalildir. Mazali meva va sabzavotlar, og'izda eriydigan pishiriqlari, betakror ta'mga ega tandirda yopilgan issiq nonlar, sut-qatiq mahsulotlari va shu kabi boshqalar o'zbek oziq-ovqat mahsulotlarining naqadar boyligidan dalolatdir. Azal-azaldan onajonlarimiz erta tongda dasturxonga issiq yopilgan non va qaymoq tortishgan. Erta nasibadan qolma, kechki nasibaga borma kabi o'zbek xalq maqollarida aytilgani kabi ertalab nonushtada tuyimli mahsulotlarni tanavul qilish maqsadga muvofiqdir. Toza tayyorlangan qaymoq bilan tandirdan endi uzilgan non, asal yoki qane bilan issiq choy, mevalar yoki quritilgan mevalar – har qanday o'zbek oilasidagi nonushtani asosidir. Eng muhimi, xamirturush bilan ko'pchitilgan xamirdan pishirilgan non issiqlikda va o'z bug'ida pishadi, pishgan nonda juda ko'p mayda g'ovaklar hosil bo'ladi. Nonning g'ovakdor bo'lishi uning organizmda hazm bo'lishini osonlashtiradi. Bug'doy unidan tayyorlanadigan nonning kimyoviy tarkibida, asosan, 30—35% oqsil, 60—70% uglevodlar, kletchatka, vitaminlar V, RR, mineral tuzlar, shuningdek, temir, kalsiy, fosfor va boshqa moddalar bor. Qaymoq sutdan ajratib olinadigan quyuc yog'li maqsulot. Sutga o'zbekchasi ishlov berishning birinchi bosqichi — uni qaynatish va qaymog'ini olishdan iborat. Issiqqina non va pishirilgan sutdan olingan qaymoq nonushtaga takrorlanmas ta'mga ega bo'ladigan tanlovdir.

Tushlik – an'anaga ko'ra va ba'zi odamlarning xohishiga ko'ra har xil bo'ladi. An'anaviy ovqatlanishni xush ko'ruvchilar tushlikda yengil tamaddi qilishsa, ba'zilar kechki ovqat vaqtida iste'mol qilinadigan asosiy taomlarni tushlik vaqtida yeyishni

afzal ko'rishadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, yakshanba kuni kunning asosiy taomlari ko'pincha kechqurun emas, balki peshin vaqtida iste'mol qilinadi. Bu taom odatda, qovurilgan go'sht, yorshir pudingi va ikki yoki uch turdagi sabzavotlardan iborat qovurilgan ovqatdir. Maktablardagi ko'plab o'quvchilar va ishdagi kattalar yaxshigina kaloriyalik mahsulotlardan iborat bo'lgan to'yimli tushliklarini plastik idishlarda saqlashadi. Bunday tushlik odatda sendvich, bir bo'lak qizartirib pishirilgan go'sht, meva va ichimliklardan iborat.

Tushlik uchun iste'mol qilinadigan taomlarni shunchaki "ovqat" deb atay olmaymiz, chunki o'zbek taomlari Markaziy Osiyodagi eng rang-barang ovqatlardan biridir va tushlik taomlarini "oshpazlik san'ati namunalari" deb atasak arziydi. Mintaqada istiqomat qiluvchi o'troq va ko'chmanchi millatlarning bir necha asrlar davomida to'plangan oshpazlik an'analari bugungi kunda yagona va hammamizga tushunarli bo'lgan o'zbek oshxonasining mazali taomlari majmuasida mujassamlashgan. Masalan, bir-biridan mazali va betakror qo'y, mol va parranda go'shtlaridan tayyorlangan suyuq taomlardan - sho'rva, quyuq taomlardan esa palovni aytib o'tadigan bo'lsak, ular har bir viloyatning bir-biridan maza-ta'mi, mahsulotlari, tayyorlanish uslubi, shu bilan birga dasturxonga tortish jarayonlaridan farq qiladi. Nafaqat, palov balki, somsalar xam xilma-xil, somsa – O'zbekiston an'alarining ajralmas qismidir. Uni shunchaki go'sht yoki sabzavot bilan to'ldirilgan un mahsuloti deb aytish mumkin emas, bu avlodan-avlodga o'tib kelgan an'anadir. Somsani hamma xush ko'radi va hamma yerda tayyorlashadi. Bozorda turli xil somsalarining keng tanlovi mavjud: har xil shaklli, turli xil masallikli va turlicha usullarda tayyorlangan.

XULOSA

Jizzax somsasi o'ziga xos ta'mga ega. O'zbek six-kabobining so'z bilan tushuntirib bo'lmas darajadagi betakror ta'mi va xushbo'y hidiga hech bir ta'rif mos emas, kabobni tatib ko'ribgina his etish mumkin xolos.

Shuni aytib o'tish joizki, nonushta yoki tushlikda qanday taom iste'mol qilmaylik u albatta eng avvalo odam organism va sog'liq uchun yetarli darajada foydali, kuch va energiya bera olishi lozim. Oziq-ovqat mahsulotlarining xilma-xilligi odam organizmi sarflaydigan kuchning o'rnini bosa olganligi sababli, har doim o'zimiz va boshqalarga tavsiya qiladigan mahsulotlarga e'tiborli bo'lishni talab qiladi.

REFERENCES

1. Karim Maxmudov, O'zbek taomlari. 336 bet, Toshkent 1977
2. Pol Breg, To'g'ri ovqatlanish. 334 bet, Toshkent 2014
3. Hosiyatxon Suvonqulova, O'zbek xalq maqollari. 193 bet, Toshkent 2014

PEDAGOGIKANING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Abduxalikova Dilfuza Abdumajidovna

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Jahon tillari va adabiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Pedagogika - tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko'zda tutadi. Anglaganingizdek, ushbu maqolada pedagogika xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika; tadqiqot metodlari; maktabshunoslik, siyosatshunoslik; demografiya; paydogogos, didaktika.

АННОТАЦИЯ

Педагогика - это совокупность дисциплин, изучающих теоретические и практические аспекты воспитания, обучения и преподавания. В педагогических институтах и некоторых других учебных заведениях предмет, изучаемый по программе специализации, также называется педагогикой. Современная педагогика предполагает образовательное, культурное и духовно-просветительское воспитание как взрослых, так и детей. Как видите, эта статья о педагогике.

Ключевые слова: педагогика; методы исследования; школьное обучение, политология; демография; пайдогого, дидактика.

ABSTRACT

Pedagogy is a set of disciplines that study the theoretical and practical aspects of upbringing, education and information. In pedagogical institutes and some other educational institutions, the subject studied on the basis of the specialization program is also called pedagogy. Modern pedagogy involves the educational, cultural, and spiritual-educational upbringing of children as well as adults. As you can see, this article is about pedagogy.

Keywords: pedagogy; research methods; school studies, political science; demography; paydogogos, didactics.

KIRISH

Ma'lumki, pedagogika atamasi qadimiy bo'lib, „bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiruvchi grekcha „paydogogos“ so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o'rgatgan tarbiyachini „pedagog“ deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi. Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya

nazariyasi va amaliyoti tarmog‘i o‘z ichiga oladi. Ayrim o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlari va usullarini o‘rgatuvchi metodika fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o‘qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o‘rganish metodikasi, chet el adabiyotini o‘rganish metodikasi, xalq og‘zaki ijodini o‘rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlari o‘sha o‘quv predmetini o‘qitish tajribasidagi o‘ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o‘ziga xoslikda o‘qitishning universal jihatlarni namoyon etadi.

XX asr boshlaridan qiyosiy pedagogika fani pedagogikaning alohida tarmog‘i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta’lim-tarbiya tizimi qiyosiy-genetik yo‘sinda bir-biriga solishtirilgan holda o‘rganildi. Pedagogikaning bu tarmog‘i ta’lim-tarbiya borasidagi eng ilgor usul va yondashuvlarni solishtirish, maqsadga muvofiqlarini muayyan milliy pedagogik fan va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda hozircha qiyosiy pedagogika alohida fan sifatida shakllanmagan bo‘lsada, bu borada jiddiy izlanishlar amalga oshirilgan. Odamzodning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarzi xilma-xillashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo‘la boshlashi bilan pedagogika ham inson faoliyatining alohida sohasiga aylandi. Ta’lim va tarbiyaga doir qarashlar tizimi shakllandi. Lekin bular darhol pedagogik nazariy tizimlar sifatida emas, balki milliy fikr tarbiyaga daxldor qarashlar, aqidalar, hikmatlar tarzida namoyon bo‘ldi. Yozuv paydo bo‘lishi bilan pedagogik qarashlar yozuvga ko‘chiriladigan bo‘ldi. Antik davrdagi mutafakkirlarning ta’lim-tarbiya borasidagi fikrlari markazida yetuk insonni shakllantirishga intilish istagi turardi. Shumer, Misr, Xitoy, Hindiston va O‘rta Osiyodagi turli madaniy-ma’rifiy obidalar moddiy madaniyat namunalarigina bo‘lib qolmay, o‘z davridagi buyuk pedagogik meros hamdir. Qadim zamonlarda paydo bo‘lgan pedagogik qarashlar ko‘proq amaliy xususiyatga ega bo‘lsada, keyinchalik pedagogikaning alohida fan sifatida shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Pedagogika insoniyatning axloq-odobi va ma’naviyatigagina emas, balki aqliy rivojiga ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatgani sababli uning taraqqiyot darajasi jamiyatning ravnaqiga muvofiq tarzda ro‘y berdi. Bir qancha mamlakatlarning rivojiga ham, boshqalarining esa qoloqligiga ham

ko'pincha o'sha mamlakatdagi pedagogikaning holati sabab bo'lgan. Xususan, Sharq xalqlari o'z vaqtida eng qadimiy va ilg'or pedagogik qarashlar tizimini yaratgan bo'lishlariga qaramay, shu tizimni zamona talablariga muvofiq tarzda takomillashtirib bormaganliklari uchun keyinchalik ilm-fan taraqqiyoti jihatidan qoloq holga tushib qoldilar.

O'zbek pedagogikasi juda qadimiy tarixga ega bo'lib, uning dastlabki ildizlari Avesto,, Urxun-Yenisey bitiklariga, Selung'ur madaniyatiga borib taqaladi. Avestodagi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal haqidagi, kishilarga ko'ngil ma'rifati berish borasidagi qarashlar yozma milliy pedagogik qarashlarning dastlabki namunasi bo'lib, yetuk insonni shakllantirishga yo'naltirilgan. Milliy pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvuf ta'limoti hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limotining markazida axloq, komil inson ma'naviyatini shakllantirish turardi. Komil inson ta'lim-tarbiya yordamida, ya'ni pedagogika vositasida tarkib toptirilishi mumkin edi. Forobiyning fozil odamlari, Beruniy, Ibn Sino falsafiy qarashlaridan o'rin olgan yetuk shaxslar, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson odamlar, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab orzulagan komil inson o'zbek pedagogikasining markazida turardi. XVII asrdan boshlab, milliy pedagogikada ta'lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e'tibor kuchaydi, turmush talablarini hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo'ldi. Natijada, jamiyat taraqqiyoti susaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi. Pedagogikadagi biqizlik, biryozlamalik kishilar ruhiyatiga ko'chdi, undan ijtimoiy tartibotlar va siyosiy qurilmalarga o'tdi. Butun bir davlat xonliklarga bo'linib ketdi. Xonliklarning har birining ichida bir-biri bilan kelishmovchilik hamda o'zaro janjallar avj oldi. Negaki, jamiyat va unda yashaydigan insonlarning ma'naviy o'rnaklari puxta tayin etilmagan edi.

XULOSA

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida milliy ong mafkuraviy qolipdan qutuldi. Bu hol pedagogikaning sog'lom aql, milliy ruhiyat va an'analarga mone tarzda yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi. Bolalar, yoshlar pedagogik jarayonning obyektigina emas, balki subyekti, ya'ni ijrochisi ham

ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda, barcha pedagogik tadbirlar ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil fikrlashlarini ta'minlash, ularda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Bugungi o'zbek pedagogikasi uchun muayyan bilimlar yig'indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadriyatga aylangan. Shuning uchun ham milliy pedagogikada faqat bilimli o'quvchilar tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga asosiy e'tibor berilmoqda.

REFERENCES

1. O'. M. Asqarova, M. Hayitboyev, M. S. Nishonov. Pedagogika. Toshkent. 2008.
2. R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2010.
3. J. Hasanboyev, X. A. To'raqulov, I. Sh. Asqarov. Pedagogika. Toshkent. 2016.
4. R. Mavlonova, K. Matnazarova. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent. 2013.

O‘QUVCHI-QIZLAR TARBIYASIDA SHARQONA TARBIYANING O‘RNI

Ergasheva Obod Norqulovna
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek oilalaridagi qiz bolalarga nisbatan alohida e‘tibor, ularni milliy qadriyatlar asosida iboli-xayoli, or-nomusli, tejamkor, oqila qilib tarbiya berish hamda oilalarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bayon etilgan. Shuningdek, oilada onaning o‘rni va jamiyatning rivojlanish taraqqiyotiga mosligi yoritib berilgan.

***Tayanch so‘zlar:** oila tarbiyasi, oila muhiti, ibo-xayo, or-nomus, tejamkorlik, oqila qiz, ibrat-na‘muna, ayolga e‘tibor.*

РОЛЬ ВОСТОЧНОГО ВОСПИТАНИЯ В ОБУЧЕНИИ ДЕВОЧЕК

Эргашева Обод Норкуловна
Научный сотрудник Термезского государственного университета

АННОТАЦИЯ

В статье содержится информация о воспитании роли девушки в узбекской семье, взяты в основе национальных ценностей нравственности и морали, гордости, скромности, мудрости, семейно-ориентированной. А также место матери и ее роли в обществе являются неотъемлемой частью развития.

***Ключевые слова:** семейное воспитание, семейное окружение, скромность, честь, бережливость, умная девушка, образец для подражания, внимание к женщине.*

THE ROLE OF EASTERN EDUCATION IN THE EDUCATION OF SCHOOL-GIRLS

Ergasheva Obod Norqulovna
Researcher of Termez State University

ABSTRACT

It contains information on how to create a family-oriented, family-oriented, balanced and intellectual way of thinking about a girl in Uzbek families and how to manage her family. The role of the mother and her role in the development of the team are an integral part of success.

Key words and concepts: family upbringing, family environment, modesty, honor, thrift, smart girl, role model, attention to woman.

KIRISH

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham har bir ma'ruzalarida xotin-qizlar roliga alohida e'tibor berib, ularning jamiyatdagi faoliyatlarini rivojlantirib, iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratishni aniq belgilab berdilar. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasining roli yanada oshirildi.

Ayniqsa, ayollarimizning jamiyatdagi o'rnini takomillashtirish maqsadida, so'nggi ikki yilda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitalari va uning hududiy bo'linmalarining faoliyati tubdan o'zgartirilib, aniq vazifalari belgilab olindi. Qabul qilingan farmon doirasida Xotin-qizlar qo'mitasi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qaror, 4 farmoyish va 12 ta chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohalarda teng huquqli mehnat qilishi borasida huquqiy asoslar yaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. O'quvchi-qizlarni tarbiyalashda Sharqona tarbiya an'alaridan foydalanish, ularda ayollarga xos sifatlarni shakllantirish mazmunini o'rganish. Shuningdek, Sharqona tarbiyaning tarixiy ildizlarini va uning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etish hozirgi kunda alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot usullari. Kuzatish, adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ish natijalarini pedagogik-psixologik tahlil qilish, taqqoslash, anketa, so'rovnoma.

Asosiy qism. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilib, ayollar masalasi ko'tarilgan. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish", ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitiruvchi qizlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada

mustahkamlash vazifasi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida” 2019 yil 3 maydagi PK-4307-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019 yil 31 dekabrda Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi¹⁵⁰ qabul qilindi: Konsepsiyada “Qiz bolalarda ona Vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat, mehnatsevarlik, jonkuyarlik, oilaparvarlik, ibo, xayo, nafosat, did-farosat, qanoat, vafodorlik, mehribonlik, raxmdillik, kamtarlik, ziyraklik, mehmondo‘stlik, bolajonlik, murosalilik, orastalik, saranjomlik, xushmuomalalik, pazandalik kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish” vazifalari belgilangan.

2019-yil 24-yanvar O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qizlarni oliy ta’limga jalb qilish masalasiga alohida e’tiborni qaratish zarurligi aytib o‘tildi. O‘quvchi-qizlarni yoshligidanoq hayotda o‘z o‘rnini topish uchun fan sirlarini yaxshi o‘rganish zarurligini ular ongiga singdirish, qizlarning o‘qimishli, ziyoli bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish har bir ota ona va o‘qituvchilarning vazifasidir.

Bugun biz o‘zbeklar ulug‘ bir millat bo‘lib tiklanish, vatanimiz qudratini oshirib, buyuk kelajak yaratish imkoniga ega bo‘ldik. Bu shu vatanda yashayotgan har bir inson zimmasiga tarixiy burch va mas’uliyat yuklaydi. Avvalo, biz har birimiz shu mas’uliyatni anglamog‘imiz va uning qudratini his etmog‘imiz kerak. Bu ulug‘ vazifaning zamirida tarbiya yotadi. Ayol esa tarbiyachidir. U nafaqat bolalarning balki erkaklarning ham tarbiyachisidir. Donishmandlar “Har qanday buyuk shaxs ortida ayol turadi”, deb aytgan hikmat bejiz emas. Bu borada Payg‘ambarimiz hadislarida ham “Har bir erkak xotining dinidadur”, – deb ta’kidlanadi. Xalqimizda “Yaxshi xotin o‘zdiradi, yomon xotin to‘zdiradi”, “Erni er qiladigan ham xotin, qaro er qiladigan ham xotin” degan maqollar bejiz aytilmagan. Bu hikmatli so‘zlar zamiridagi haqiqatni dastlab ayollarning o‘zlari mag‘zini chaqib, bu ulkan mas’uliyatni anglab yetishlari kerak. Erkaklar oilani boqish va boshqarishni yana o‘z yelkalariga olib oilada bolalarga ayol, mehri-muhabbatidan qoniqib yashashlari uchun imkon yaratib berishlari lozim. Hukumat va jamiyat esa ayollarga millatning tarbiyachilari, deb qarab ularni ham moddiy, ham ma’naviy tomondan ijtimoiy himoya eta olsagina, biz zimmamizdagi ulug‘ vazifani ko‘ngildagidek ado etgan bo‘lamiz.

¹⁵⁰ Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi 2019 yil 3 maydagi PK-4307-son karori ijrosini ta’minlash maqsadida 2019 yil 31 dekabr. 4 b.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, odob-axloq, tarbiya xotin-qizlar, ona va ayol haqidagi g'oyalar eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida shakllanganligi haqidagi ma'lumotlar bor. Eng qadimgi yozma manbalarda odob-axloq g'oyalari zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi "Avesto"da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Muqaddas Qur'oni-Karim va Hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni shakllantirishda ayol va xotin-qizlarga bag'ishlangan qimmatli fikrlari bayon qilingan. Hadislarda "qizlarni turmushga chiqarish to'g'risida onalar bilan maslahatlashing" deb ta'kidlangan¹⁵¹.

Insoniyat paydo bo'libdiki, farzand tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Har qanday jamiyat, tuzumda kelajak avlod tarbiyasi, istiqboli birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Zero, Vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlar kamoli bilan chambarchas bog'liq.

Turli xil davrlarda farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tibor turli darajada bo'lgan. Qaysi jamiyat o'z naslining istiqbolini o'ylamas ekan ana o'sha jamiyat inqirozga uchrashi, parokandalikka yuz tutishiga tarix sahifalari ko'p bor guvohlik bergan.

Bugun O'zbekiston aholisining ko'pchiligini yoshlar tashkil etadi. Ular manfaatini himoya qilish, barkamol bo'lib voyaga yetishlari va qulay shart-sharoitlarda o'qishlari, mehnat qilishlari va imkoniyatlarning yaratilishi yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Yoshlarning dunyoqarashi, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mo'ljallari, o'zlarini qanday tuta bilishlari mamlakatimizning kelajak taqdiri bilan juda uyg'un.

O'zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraladi. O'zbekchilikda qizlarning yurish-turishi, gap-so'zi, o'zini tutishiyu, epchil-chaqqonligi u ko'zga ko'ringan paytdan boshlab odamlarning og'ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko'ra uning husni xulqi, epchil, chaqqon, pazandayu chevarligiga ko'proq ahamiyat beriladi.

Shuning uchun hamki qizning tug'ilganidan boshlab, unga muomala madaniyati, kiyinish madaniyati, ozodalik va tozalik, oilada odob-axloq qoidalarini qat'iy o'rgatib boriladi. Har bir qiz – ana shu oilaning yuzi deb baho beriladi.

Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk, komila etib tarbiyalashga va sog'lom bo'lib voyaga yetishiga jiddiy e'tibor qaratamiz. Dunyo go'zallari qaddu-qomati, tiniq yuziyu va hokazo shunga o'xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlari ikkinchi darajali xisoblanadi. Albatta, birinchi o'rinda yuqorida aytib

¹⁵¹ Xudoyqulov X.J. O'zbek qizining g'ururi - uning or-nomusi va odobidadir. - T.: "Dizayn-Press", 2011. – 5 b.

o‘tilganidek qiz bolaning odob-axloqi, o‘zida ibo-hayo va ozodaligi kabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe‘l-atvori bilan to‘kis husnga ega hisoblangan. O‘tmish avlodlarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘z oldimizga Oybarchin, To‘maris, Qutlug‘nigorxonim, Gavharshodbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira – yana yuzlab nomlarini keltirish mumkin – bo‘lgan ayollarimiz borki, ular shiddatkorligi, oqilaligi, sabr-toqatliligi bilan birga ibo, hayosi bilan ham o‘rnak bo‘lishgan.

O‘zbek ayoli hamisha ham niyatini ochiq aytavermaydi. Dilidagisini pardalab gapirishga urinadi. Buni bosh milliy dostonimiz «Alpomish»dagi bir qator tasvirlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Chunonchi, qalmoqlarning to‘qson alpi zug‘umida qolgan Oybarchinning Alpomishga yozgan xatida bu holat yorqin ko‘zga tashlanadi. Qizning bitgan xati sof o‘zbekcha: «Oltoychalik yo‘lga keldim, to‘qson alpga toytalashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa javobimni bersin»¹⁵². Kichikkina bu maktubda ham xavotir, ham noz, ham iddao, ham istig‘no, ham g‘urur, ham umid, ham ko‘ngil mayli aks etgan. O‘zbekning qizi haqiqiy maishiy vaziyat bilan emas, ko‘ngli holati bilan yashaydi. Birovga atashtirilgan qiz javobini olmasa, qaerda va qancha bo‘lsa ham, o‘zini boshi bog‘liq sanaydi, egali deb biladi. Chunki unga egalisan, deyilgan! Chun-ki u Yaratganni o‘rtaga qo‘yib so‘z bergan! O‘zbekning qizi uchun so‘z shunday qudratli kuch hisoblanadi. U «Ha, endi, vaziyat shunday bo‘lib qoldi, boshqaning etagini tutishimga to‘g‘ri keldi», demaydi. Deyolmaydi. U o‘zini o‘qilgan fotiha, atashtirilgan odam oldida mas‘ul sezadi. Ming yilcha oldin yaratilgan dostonda o‘zbek ayolining ma‘naviyati, ibosi yorqin ko‘rinib turibdi.

Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog‘atga yetgach, o‘g‘il bo‘lsa uylantirib, qiz bo‘lsa uzatib, o‘z burchini ado etishi kerak, deb ko‘rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e‘tibor berish, unga g‘amxo‘rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: “Agar qizing bo‘lsa, uni mastura doyalarga topshirg‘il, toki yaxshi parvarish qilg‘aylar va kattaroq bo‘lg‘andin so‘ng muallimga topshirg‘il ... Balog‘atga yetgandan so‘ng harakat qilib erga berg‘il, unga shafqat va marhamat ko‘rguzg‘il, nedinkim qiz otaning asiri bo‘lur»¹⁵³.

Bizda ayol tavozezi, ayol itoatkorligi oliy fazilat hisoblanadi. O‘zbek ayoli deganda eri qarshisida bosh egib turgan go‘zal siymo tasavvur etiladi va qizlar juda yoshligidanoq umr yo‘ldoshini hurmat qilishga o‘rgatiladi. Itoatkorlikning juda muhim tomonlari borki, uni nazardan qochirsak katta hato qilgan bo‘lamiz. Itoatkor ayollar ikki toifaga bo‘linadi, birinchi toifa erining zulmidan, jabr-jafosidan qo‘rqib,

¹⁵² Xudoyqulov X.J. Odob-axloq durdonalari. –T.: TTYMI, 2010. – 2 b.

¹⁵³ Kaykovus. “Qobusnoma”. Yangi avlod, 2018. - 86-bet

uning har qanday istagi, amr va farmonlarini soʻzsiz bajaradi; ikkinchisi esa oʻzini tanigan oʻz haq-huquqlarini anglagan, oʻzini qadrlagan holda eriga oʻzaro hurmat va muhabbat bilan itoat etadi. Bu esa momolarimizdan qolgan katta maʼnaviy merosdir.

Biz tariximizga nazar solar ekanmiz yurtimiz juda koʻp marta istelochilar qoʻlidan-qoʻliga oʻtib kelganini koʻramiz, buning sababi, avvalo, tabiatimizning boyligi boʻlsa, keyingisi esa maʼlum tarixiy davrlarda notoʻgʻri siyosat oqibatida xalqimizning xaddan tashqari itoatkorlikka moyil boʻlib qolganidir. Bugun biz mustaqilligimizni mustahkamlash, abadiy oʻzimizniki qilib saqlashimiz, uchun xurlikka, ozodlikka intilib yashaydigan farzandlarni dunyoga keltirishimiz va tarbiyalashimiz shart. Demak bunda jamiyatimizda yashayotgan har bir ayol oʻzini tanishi, qadr-qimmatini, burchi va haq-huquqlarini anglab yetishi lozim. Erkaklar va ayollar Olloh taolo tomonidan ularga omonat qilib berilganini, omonatni ehtiyotlab asrash farz ekanini, zulmkorlik, zoʻravonlikni olloh qattiq laʼnatlaganini va uning oqibati yomon boʻlishini his etib yashasa, qolaversa, ular oʻz farzandlari va millat taqdiri uchun ayollarni barkamol qilish yoʻlida qaygʻursa, biz koʻzlagan maqsadlarimizga erisha olamiz.

Xoʻsh, ayol bolalarning, erlarning, hattoki millatning tarbiyachisi ekan, uning oʻzini kim tarbiyalaydi? Bu savol taʼbir joiz boʻlsa, jamiyatning maqsadini ifoda etadi. Axir bizning maqsadimiz yaxshi, baxtli kelajak qurish emasmi? Shu bois bugun oʻzini ziyoliman, deb hisoblovchi, oʻz taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bogʻlay oluvchi har bir fuqaro bu ulugʻ ishga bosh qoʻshmogʻi shart. Chunki, erkakni tarbiyalash – bir odamni tarbiyalash, ayolni tarbiyalash esa millatni tarbiyalash, demakdir. Buni hech qachon unutmaslik kerak. Faylasuflardan biri “Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar boʻlib yetishamiz”, deya taʼkidlaganda haq edi.

Ayni vaqtda, maʼnaviy poklanishimiz, milliy tiklanishimiz va kuch-qudratimizni oshirish uchun yaxshi odamlar kerak. Demak, yaxshi onalar kerak. Illo, yaxshi onalar millatimizning kelajagidir. Kelajak esa yonimizda eʼtiborga, mehr-muhabbatga intizor boʻlib turibdi. Ertangi farovon kunimiz hurmati, ayolga shavkatli va muruvvatli boʻlaylik! Zero insoniyatning baxti ham baxtsizligi ham ayolda mujassam boʻlgan. Adabiyot namoyondalaridan biri, Charlʼ Bodler “Ayol – baxtga taklifnomadur”¹⁵⁴, deb dilbar soʻzlar bilan ayolni ulugʻlagan edi. Bu koʻhna dunyoning qiyomatga qadar barhaq turadigan ilohiy kalomlaridan biridir. Prezidentimiz “Qiz bolalarni hayotga tayyorlash, ularni zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga oʻrgatish, ilm-fan, madaniyat va sanʼat, sport sohalariga keng jalb etish orqali ularning qobiliyati va salohiyatini roʻyobga chiqarish muhim ahamiyatga ega

¹⁵⁴ Xudoyqulov X.J. Oʻzbek qizining gʻururi - uning or-nomusi va odobidadir. - T.: “Dizayn-Press”, 2011. – 56 b.

ekanini, o‘ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz”¹⁵⁵ deganlarida bugunning gapini aytgan edilar.

Hozirgi kunda bir qator ayollar qizlarning hayotga tayyorligini o‘larning seplari bilan belgilamoqda. Sep, qalin va boshqa sarf-xarajatlarni haddan oshirib, oilalarning tezda buzilib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ayrim joylarda hali ham qalin deb ko‘p mol-mulk olish xurofotidan qutila olmagan kelin olish uchun ko‘p miqdordagi pul, o‘nlab mol-qo‘y, kiyim-kechak va jihozlar berishga, kelin kelgach, undan narsalarni undirib olishga o‘rgangan oilalar haligacha bor, bunday olish-berishlar qizlarimizning haq-huquqini kamsitish, ularni oldi-sotdi qilish emasmi. Hozirgi kunda qizlarning seplarida turli hashamdor ro‘zg‘or anjomlari o‘rin olmoqda, agar bu qizlarimizning hayotda o‘z o‘rnini topishga xizmat qilsa nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi. Biroq, bu narsalar qizlar baxtini kafolatlay oladimi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-avgustdagi ijodkor ziyoliylar bilan uchrashuvda to‘ylarni tartibga solish masalasi ko‘rib chiqildi. Prezidentimiz dabdabali to‘ylarni “dard”¹⁵⁶ deb atagan edi. To‘ylarga sarflanadigan nozu-ne‘matlar bir tomon bo‘lsa, ikkinchi dard ularning seplari, ota-onani toliqtirib qo‘yayotgani ham rast gap. Onalarimiz qizlariga ro‘zg‘or tutish axloq-odob qoidalarini o‘rgatish o‘rniga, sep to‘plash uchun tinmay mehnat qilmoqda. Bu esa qizlarimiz ma‘naviyatining pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qizlarimizning seplarida ularning ma‘naviyatini ko‘tarishga xizmat qiladigan turli mavzulardagi kitoblar, ma‘naviy manbalar (onalar tomonidan tikilgan kashtalar, buvilari tomonidan qoldirilgan taqinchoqlar) bo‘lsa juda yaxshi bo‘lar edi. Shu sababli o‘zbek oilalarida qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga e‘tiborni qaratmoq lozim deb topdik:

- qizlarimizga yoshligidanoq o‘zbek urf-odatlarini va udumlarini singdirib borish;
- avvalo ona, qolaversa, ota qiziga har tomonlama o‘rnak, namuna bo‘lishi lozim;
- oilada ayollar o‘rnini, vazifasini, burchini, huquqini tushuntirib borish;
- oilada ayollar zimmasidagi yumushlarini puxta o‘rgatib borish;
- qizlarning savollariga, tushunmagan narsalari bo‘yicha so‘rovlariga shoshilmay, mukammal javob berish;
- qarindosh -urug‘, mahalla-kuydagi obru-e‘tiborli oilalarning ayollarini, qizlarini namuna qilib ko‘rsatib borish;

¹⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni, 2018 yil 02.03.

¹⁵⁶ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining navbatdagi sessiyasidagi ma‘ruzasi. 2019 yil.07.03

- ortiqcha erkalatmaslik, ranjitmaslik, ayniqsa, yomon soʻzlar bilan haqoratlamaslik kerak;
- qiz bolaga ota-ona, aka-ukalar tomonidan zulm oʻtkazmaslik;
- notoʻgʻri ish, hatti-harakatini tushuntirib, yengil koyish bilan birga yaxshi ishlarni ragʻbatlantirib borish;
- yoshi ulgʻaya borgan sari qiz bolaga turmush, oila, turmush oʻrtogʻi, unga munosabat haqidagi tushunchalarni shakillantirish;
- qiz bolaning adabiyotga, sanʼatga sheʼriyatga havasini orttirib borish;
- odob-axloq, sharm-hayo, ibo, muloyimlik, yurish-turish va kiyinish madaniyati, tejamkorlik, sabr-toqatli boʻlish masalalarida tushuncha berib borish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatdagi har bir qiz millatning ertasi hisoblanada. Chunki, uning faoliyati, hech boʻlmaganda, bitta oilani qamrab oladi. Oiladagi muhitning taʼsiri jamiyatning ildiziga borib tutashadi. Kelajak egalari sanaluvchi yoshlarni tarbiyalar ekan har bir qiz fan tomondan ham, din tomondan ham atroflicha, chuqur bilimga ega boʻlishi shart. Qolaversa, qizlarning ushbu jihatlarda ham savodxonligi ahamiyatlidir:

- meditsinaga oid boshlangʻich tushunchalar;
- matematik savodxonlik;
- ona tilini yaxshi bilishi;
- odob-axloq normalariga oid bilimlar;
- urf-odat, milliy qadriyatlar, anʼanalarga hurmat;
- oʻzini shaxs sifatida tanish.

Asrlar oshib, oʻzbekning tarjimai holiga aylangan mintalitetimiz qoidalari texnologiya asrida ham qizlarimizga ziynat boʻlib xizmat qilishi xalqning muddaosidir. Ayol xilqatining haqiqiy qiyofasini belgilovchi bu kabi hislatlar esa qizlarning sharqona tarbiya olib, hayotda oʻz oʻrnini topishiga, qolavesa, ijtimoiylashuviga yordam beradi.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5325-son Farmoni, 2018 yil 02.03.
2. Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasi 2019 yil 3 maydagi PK-4307-son karori ijrosini taʼminlash maqsadida 2019 yil 31 dekabr.
3. Oʻzbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24-yanvar 2019-yil

-
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining navbatdagi sesiyasidagi ma’ruzasi. 2019 yil.07.03
 5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008
 6. Kaykovus. “Qobusnoma”. Yangi avlod, 2018. - 86-bet
 7. Xudoyqulov X.J. Odob-axloq durdonalari. –T.: TTYMI, 2010. – 124 b.
 8. Xudoyqulov X.J. O‘zbek qizining g‘ururi - uning or-nomusi va odobidadir. - T.: “Dizayn-Press”, 2011. – 142 b.

JAMIYAT MA'NAVIY TARAQQIYOTIDA DINIY BAG'RIKENLIK OMILI

Akilova O'g'ilxon Mirzapayasovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mashinalarini mexanizatsiyalash
instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatda mamlakat tinchligi va taraqqiyotining asosiy omili millatlararo va dinlararo bag'rikenglikdir. Diniy bag'rikenglikning amal qilishi mamlakatning demokratlik darajasi hamda ma'naviy qiyofasini belgilab beradi. Masalaning yana bir jihati diniy bag'rikenglik din niqobi ostidagi yot mafkuralarning yoyilishiga befarqlikni anglatmaydi. Muqaddas diniy ta'limotlarning asosida ma'naviy barkamollik yotadi. Shunday ekan, diniy bag'rikenglik jamiyat ma'naviy taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Maqolada shu masalalar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: *din, tolerantlik, diniy bag'rikenglik, konfessiya, ma'naviyat, ma'naviy taraqqiyot, etnosiyosat, dunyoviy davlat, terrorizm, fundamentalizm.*

АННОТАЦИЯ

В полиэтническом и многоконфессиональном обществе ключевым фактором мира и развития страны является межэтническая и межрелигиозная терпимость. Практика религиозной толерантности определяет уровень демократии и духовный имидж страны. Другой аспект проблемы заключается в том, что религиозная терпимость не означает безразличие к распространению чужих идеологий под прикрытием религии. Духовное совершенство лежит в основе священных религиозных учений. Следовательно, религиозная толерантность - один из важнейших факторов духовного развития общества. В статье эти вопросы рассматриваются подробно.

Ключевые слова: *религия, толерантность, религиозная толерантность, конфессия, духовность, духовное развитие, этнополитика, светское государство, терроризм, фундаментализм.*

ABSTRACT

In a multi-ethnic and multi-confessional society, interethnic and inter-religious tolerance is a key factor in the peace and development of the country. The practice of religious tolerance determines the level of democracy and the spiritual image of the country. Another aspect of the problem is that religious tolerance does not mean

indifference to the spread of foreign ideologies under the guise of religion. Spiritual excellence is at the core of sacred religious teachings. Consequently, religious tolerance is one of the most important factors in the spiritual development of society. The article discusses these issues in detail.

Key words: religion, tolerance, religious tolerance, confession, spirituality, spiritual development, ethnopolitics, secular state, terrorism, fundamentalism.

KIRISH

O‘zbekiston o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida qadim-qadimdan ko‘pmillatli va ko‘pkonfessiyali aholisiga ega bo‘lgan mamlakat sifatida o‘zaro hamkorlikda tinch-totuvlikda yashab kelgan. Istiqlol yillarida ushbu hamjihatlik yanada mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topdi.”(1).

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizga ma’lumki, ko‘pmillatli demokratik jamiyatda ko‘pincha millatlararo munosabatlar davlat siyosatining asosiy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlashga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Insonparvar, adolatli, huquqiy jamiyat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan mamlakatimiz aholisi ongida har bir millatning o‘z milliy madaniyati borligini, har bir etnos, etnik guruh dunyoda yagona ekanini, ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish, zinhor birini boshqasidan ustun qo‘yish mumkin emasligini nazardan qochirmaslik nihoyatda muhim hisoblanadi. BMTning YuNESKO tashkiloti tomonidan 1995 yili qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”da bag‘rikenglik tushunchasiga qo‘yidagicha ta’riflar berilgan va uning mohiyati yoritilgan: Bag‘rikenglik - bizning dunyodagi turli madaniyatlarning, o‘zini ifodalash va alohidaligini namoyon qilishning xilma xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish hamda to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Bag‘rikenglik bilim, samimiyat, ochiq muloqot, hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik turli-tumanlikdagi birlikdadir. U burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik – tinchlikka erishishni ta’minlovchi va urush madaniyatsizligidan

tinchlik madaniyatiga eltuvchi kuchdir. Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga befarq yoki ijtimoiy adolatsizlikka sabr-toqatli munosabatda bo'lish, iymon-e'tiqodidan voz kechib boshqalarning e'tiqodiga yon bosish emas. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini tan olmog'i lozim. U shuni anglatadiki, odamlar tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanadi, ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, ir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas (2).

Diniy bag'rikenglikning millatlararo munosabatlarga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, din va diniy qadriyatlar etnosiyosiy paradigмага qarshi chiqmaydi, balki rivojlanishini ta'minlashga o'z vosita va usullari bilan yordam beradi. Etnosiyosiy paradigmaning strategik maqsadi jamiyatning barcha a'zolari, shu jumladan dirga e'tiqod qiluvchilar, konfessiyalar, diniy tashkilot a'zolariga ham daxldordir.

Ikkinchidan, O'zbekiston dunyoviy demokratik, huquqiy davlat, unda din davlatdan ajratilgan, din davlat ishlariga aralashmaganidek, davlat ham diniy idoralar, tashkilotlar ichki ishlariga aralashmaydi. Biroq bu din va diniy idoralar, e'tiqod qiluvchilar istagan ishini qilishi, davlat va jamiyat hayotiga indiferent munosabatda bo'lishi mumkin, degan fikrga olib kelmasligi zarur. Dindorlar qanday ijtimoiy-axloqiy va siyosiy-huquqiy qadriyatlarga tayanishiga davlat, jamiyat befarq qaray olmaydi.

Uchinchidan, xalqlar, millatlar inoq yashaganida, strategik maqsadni o'zining hayotiy maqsadi sifatida qabul qilganida ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash mumkin.

To'rtinchidan, polietnik davlatlarda etnomadaniy plyuralizm va politeizm tabiiy hol hisoblanadi. Etnomadaniy plyuralizm bilan politeizmni murosada ushlab turish, ularni ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlash etnosiyosiy paradigma zimmasidagi murakkab vazifalardan biridir.

Beshinchidan, diniy bag'rikenglik destruktiv guruhlariga, fundamentalizm va terrorizmga xushomad, yon bosish emas, u mudom xatti-harakatlar va g'oyaviy qarashlarni ijobiy yoki salbiy xarakterga ega ekanini ajrata oladigan voqelikdir. Insonning "ijtimoiy mavjudot" ekanligi uning xatti-harakatlari va g'oyaviy qarashlariga ma'lum bir talablar, xatto cheklanishlar qo'yadi. Bu ijtimoiy talablar va cheklanishlar huquqiy normalar hamda ma'naviy-axloqiy imperativlar orqali belgilanadi.

Oltinchidan, millatlararo munosabatlarda dinga, diniy qadriyatlarga tayanish vijdon erkinligi orqali ta'minlanadi. Qaysi dinga e'tiqod qilish, qanday diniy qadriyatlarni e'zozlash, targ'ib etish va qo'llab-quvvatlash shaxsning konstitusion huquqidir. Ammo din va diniy tashkilotlarning millatlararo munosabatlarga bevosita aralashishi, ularni u yoki bu shaklda uyushtirish, bir millatni ikkinchisiga qarshi qo'yishi mumkin emas. Milliy-etnik din yoki diniy tashkilot bo'lishi davlatning polietnik va politeistik xususiyatiga ziddir. Dinga e'tiqod millat, etnik belgi tanlamaydi, u har bir insonning ixtiyoridagi ishdir.

Yettinchidan, millatlararo munosabatlarda din va diniy tashkilotlar to'plagan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-axloqiy tajribalardan foydalanish har ikki tomon, ayniqsa ijtimoiy taraqqiyot uchun, konstruktiv ahamiyatga ega. Lekin etnosiyosiy paradigma dinda konservativ va dogmatik unsurlar ham borligini, ulardan destruktiv kuchlar foydalanishga intilayotganini unutishi

mumkin emas. Diniy fundamentalizm va terrorizm keng tarqalayotgani bois, davlatlararo, millatlararo munosabatlarda bir-biriga shubha bilan qarash, to'la ishonmaslik real voqelikka aylangan.

O'zbekistonda politeizm qaror topgan, aholining 90 foizdan ortig'i islom diniga, qolganlari boshqa dinlarga e'tiqod qiladi. "Bizning mamlakatimiz azal-azaldan qadimiy dinlar rivoj topgan makon sifatida dunyo sivilizatsiyasi tarixida alohida mavqega ega. Bu muborak zaminda bizning ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan qaraganlar, mana shu yurt ozodligi yo'lida ular bilan birga kurash olib borgani, yelkadosh bo'lib mehnat qilganini hech kim inkor eta olmaydi" (3). Haqiqatan ham, mintaqamizda g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va turli xalqlarning tinch-totuv yashashini ta'minlagan markaz bo'lib kelgan. Diniy bag'rikenglik etnik nizolar, fuqarolar urushi va mutaassiblikdan, achchiq tarixiy tajribadan kelib chiqqan g'oyadir. Diniy bag'rikenglik o'z e'tiqodi va dinidan voz kechish kerak, degan ma'noni bildirmaydi, balki, u insonlarning qadr-qimmatini, vijdon erkinligi va mustaqil fikr yuritishini hurmat qilishni anglatadi. Respublikamizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari o'rtasida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligiga asoslangan teng huquqlilikning mavjudligi va konfessiyalararo hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilganligi mamlakatimizda ijtimoiy barqarorlikka, jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga zamin yaratmoqda. Davlatimizning dinga "inson e'tiqodsiz yashay olmaydi", degan tamoyil asosida munosabatda bo'lishi ham konfessiyalararo munosabatlarni sog'lomlashtirishga hizmat qiladi. Konstitutsiyamizning 31-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki qaysi dinga e'tiqod qilmaslik

huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”(4), deb belgilab qo‘yilgan. Unda dunyoviy davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillari o‘z ifodasini topgan. Unga muvofiq: birinchidan, davlat asosiy qonuni orqali dinga qarshi siyosat yurgizmaslikni o‘z zimmasiga oladi; ikkinchidan, e‘tiqod qilish yoki qilmaslik har bir insonning ajralmas huquqi ekanligi e‘tirof etiladi; uchinchidan, yuqoridagi ikki asosiy tamoyillardan kelib chiqqan holda va jamiyatda e‘tiqodiy munosabatlarni tartibga solish va uni ta‘minlash uchun davlat diniy qarashlarning majburan singdirilishiga yo‘l qo‘ymaslikni kafolatlaydi. Respublikamizda 16 diniy konfessiya va 2200 dan ortiq ta diniy tashkilot faoliyat olib boradi. Mazkur tashkilotlardan 1875 tasi islom diniga, 33 tasi rus pravoslav cherkoviga, 24 tasi Yevangel, xristian-baptistlar Ittifoqiga, 22 tasi Yevangel Pol xristian cherkoviga, 4 tasi Yevangel - lyuteran cherkoviga, 11 tasi yettinchi kun advintistlar cherkoviga, 5 tasi Rim - katolik cherkoviga, 1 tasi Arman - apostol cherkoviga, 7 tasi Baxay-ishonch uyushmasiga, 2 tasi Krishna jamiyatiga, 2 tasi iegovlarga, 8 tasi iudeya jamoasiga, 60 tasi protestantlar cherkoviga, 1 tasi O‘zbekiston Bibliya jamiyatiga, 1 tasi Golos Boji jamoasiga va yana 1 tasi Budda ibodatxonasiga tegishlidir (5) O‘zbekistonda millat va elatlar vakillarining diniy qiziqishlari hurmat qilinadi.

XULOSA

Odamlarning ongi, qalbi va ruhiyatiga, ma‘naviyatiga ta‘sir o‘tkaza oladigan dinning jamiyat hayotidagi rolga to‘g‘ri baho bera olmaslik diniy qadriyatlarni taraqqiyot va dunyoviylik bilan uyg‘unlashtirmaslik salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. O‘zbekistondagi diniy bag‘rikenglik sharqona kadriyatlarga, sharqona sivilizatsiyaning hayotbaxsh kuchiga, ulardagi pozitiv tajribalarga asoslanmoqda. Bizning ko‘pgina qadriyatlarimiz tarixan islom va undagi gumanistik an‘analar bilan bog‘liqdir. Shu sababli ham, islomdagi yangi etnosiyosiy paradigmani va mamlakatimizdagi totuvlik, birodarlik va bag‘rikenglikni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradigan qadriyatlarni, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni yanada keng o‘rganish, targ‘ib etish lozim. Polietnik va politeistik davlatlarda konfessiyalararo munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Konfessiyalararo munosabatlarning bag‘rikenglik asoslariga qurilishi jamiyatdagi umumiy ma‘naviy muhitga, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ta‘sir ko‘rsatadi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Ovozi gazetasi. 26.01.2017.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas‘ulmiz. T. 9. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001. – 222 b.

3. YuNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. Konvesiyalar, bitimlar, protokollar, tavsiyanomalar, deklaratsiyalar. (To'plam) "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi".- Toshkent: "Adolat", 2004. - 91-92 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – 8 b.
5. <http://uza.uz/oz/society/konfessiyalararo-mulo-ot-va-diniy-ba-rikenglik-zhamiyat-bar--16-11-2017>

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA MUNOZARALI USULLARDAN FOYDALANISH

**Qo‘ziboyeva Maxfuza Mirzaevna,
Raxmatova Sevaraxon Alisherovna**
Andijon davlat tibbiyot instituti

ANNOTATSIYA

Zamonaviy yoshlarning mustaqil fikrlashlarini takomillashtirishda interfaol usullardan biri – munozarali usulning amaliy ahamiyati katta. Talabalarni mustaqil fikrlashga tayyorlashda pedagogik qonuniyatlarni ta’minlagan holda, uni texnologik boshqarishga ilmiy asosda yondashish- bugungi kun ta’limining asosiy vazifalardan biridir.

***Kalit so‘zlar:** ilg‘or pedagogik texnologiyalar, bahs-munozara, muammolar yechimi, mustaqil fikr.*

АННОТАЦИЯ

В совершенствовании навыков самостоятельного мышления современной молодёжи большое значение имеет применение метода дебатов. Основная задача образования – это подготовка молодёжи к самостоятельному мышлению с применением педагогических закономерностей на основе научности и технологизации процесса.

***Ключевые слова:** передовые педагогические технологии, диспут, решение проблемы, самостоятельное мышление.*

ANNOTATION

The importance of a discussion method of the interactive methods in developing independent thinking of modern youth is really big.

In training the students for independent thinking, scientific approach of discussion in managing it technologically, by providing with pedagogic laws, is considered as one of the main tasks of nowadays education.

***Key words:** advanced pedagogic technologies, discussion, solution of problem, free thinking.*

KIRISH

Hozirgi zamon o‘qituvchisining kasbiy faoliyati murakkabligi va ko‘p qirraligi ish jarayonida turli pedagogik izlanishlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Talabalarni har tomonlama mukammal rivojlanishi uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni va natijasini ta’minlashni davr talab etmoqda. Bu jarayon o‘qituvchidan katta mahorat va chukur bilimni talab etadi.

Oliygoch talabalarining mustaqil fikrlashlarini yanada takomillashtirish maksadida olib borilayotgan noan'anaviy usullar asosidagi mashg'ulotlar ijobiy samaralar bermoqda. Talabalarining mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish uchun munozarali usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Munozarali uslubning *maqsadi* quyidagilardan iborat:

- talabalarining muammoli masalalar yechimini topishdagi faolligini to'g'ri baholashga erishish;
- talabalarining muammoli masalalar yechimini topishning har qanday vaziyatlarida ma'lum uslub va tamoyillarga asoslanishini tushuna olishlariga munosabatini asoslash;
- talabalarining favqulodda vaziyat va sharoitlarda tezkorlik bilan yechimni topish borasidagi fikr yuritish darajasini aniqlash.

Uslubning mohiyati va tarkibiy qismlarining mazmunini quyidagicha izohlash mumkin:

Mohiyati – talabalarining o'z turmush tajribalariga nazar tashlash orqali qo'yilgan muammolar yechimini izlashdan iborat bo'lib, uning yechimini topish uchun bo'lgan turlicha nuqtai nazarlar, fikrlar, qarashlar to'qnashuvini vujudga keltirishdan iborat. Bunda talabalar o'zaro fikr va tajribalar almashadilar, o'zlarining, shuningdek boshqalarning qarashlarini tekshirib ko'radilar.

Tarkibiy qismlari:

- talabalar o'ylaydilar, tahlil qiladilar, munozarada ishtirok etadilar;
- ular o'z hayotiy tajribalaridan foydalanadilar;
- bitta yechim yuzasidan bahslashadilar;
- boshka nuqtai nazarlarni qiyoslaydilar.

Munozarada o'qituvchining yetakchiligi asosiy faoliyat bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi avvalo talabalarga o'z fikrlarini aytish uchun imkoniyat berishi va ularning o'z fikrlash darajasidan kelib chiqib aytayotgan fikrlarini tinglashi kerak. Ana shundagina talaba guruhdoshlarining fikr-mulohazalarini jiddiy qabul qilayotganini his qiladi. Muhokama qilishning ta'sir kuchi talabalar tomonidan shaxsiy tajribalaridan misollar keltirilganda yanada oshadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchi talabalarining mustaqil fikrlashlarini ta'minlash uchun faoliyat yuritishi lozim. Bunda har bir kishining maqsadi, mavzu muhokamasiga qo'shgan hissasining muhimligi asosiy qoidadir. Bahsning maqsadi faqatgina to'g'ri yechimni topish emas (shuni unutmaslik kerakki, har bir talabada o'z fikrining to'g'riligiga

ishonch mavjud bo'ldi), muhimi talabalarni muammolar yechimi bo'yicha o'z fikrlarini aytishga yo'naltira olishdir.

Mustaqil fikrlash jarayonida muammo yechimini topish muhokamasini tugatishda turli fikrlarni umumlashtirish juda muhimdir. Chunki, yakunlash munozara katnashchilariga bahs jarayonida o'ziga xos tuzilish va mantiq mavjudligini tushunishga ko'maklashadi.

Munozaraning samarali bo'lishi uni tashkil qilishning qay tarzda bo'lishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ilg'or pedagoglar tajribasiga ko'ra guruh bo'lib ishlash talabalarni faol bahsga tortish va jo'shqinligini oshirishning eng maqbul usuli hisoblanadi.

Guruh bo'lib ishlash o'qituvchidan ham, talabalardan ham muayyan ko'nikmalarni talab qiladi. Shunga ko'ra uni davra stoli atrofida; alohida guruhchalarga bo'linib bahslashish; tengma-teng bahslashish ko'rinishida tashkil qilish mumkin. Guruh bo'lib ishlash gapirishga qiynaladigan eng tortinchoq va uyatchan talabalarni ham «ochilib» ketishiga yordam beradi.

Munozara motivatsiyasining moxiyati va mezonlariga ko'ra mavjud talabalarning mumkin qadar barchasi qatnashsa, guruh bo'lib ishlashda samaradorlikka erishiladi. Buning uchun guruhning 4-5 kishidan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Guruhlarda mustaqil ishlash va erkin fikr tanqid va yanchib tashlashdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Shu ma'noda o'qituvchi talabalarning munozaraga qo'shayotgan ijobiy hissalarini ta'kidlab, yo'naltirib borishning ahamiyati katta.

XULOSA

Bahsning muvaffaqiyati talabalarning hayotiy tajribalari va fikrlaridan asos sifatida foydalanish, talabalar mustaqilligini rag'batlantirishga bog'liq. Bunday rag'batlantirish mezoni – pedagogik uslub va tamoyillar – shaxsiy tajriba – shaxsiy xulosa ketma-ketligiga asoslanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni mustaqil fikrlashga tayyorlashda pedagogik qonuniyatlarni ta'minlagan holda, uni texnologik boshqarishga ilmiy asosda yondashishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. O'.Q.Tolipov. Pedagogik texnologiya taraqqiyoti va ta'lim nazariyasi muammolari. T., 2009 y.
2. Pedagogika / Nopedagogik OTM uchun darslik. U.I.Inoyatov va b. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI – JAMIYAT MA’NAVIY TARAQQIYOTINING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

Muhayyo Nurmetova,

O‘zDJTU magistri,

“O‘zbekiston” NMIU ijtimoiy-siyosiy bo‘lim muharriri,

Tel.: + 998 90 353 61 00

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola ommaviy axborot vositalarining jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim elementi sifatidagi rolini tadqiq etishga qaratilgan.

***Kalit so‘zlar:** axborot, OAV, jamiyat, O‘zbekiston, internet, jurnalistika, jurnalist, xususiy, til, muammo, sheva, ma’naviy.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье основное внимание уделяется роли СМИ как важного элемента духовного развития общества.

***Ключевые слова:** информация, СМИ, общество, Узбекистан, интернет, журналистика, журналист, частный, язык, проблема, диалект, духовный.*

ABSTRACT

This article focuses on the role of the media as an important element in the spiritual development of a society.

***Key words:** information, Mass media, society, Uzbekistan, Internet, journalism, journalist, private, language, problem, dialect, spiritual.*

KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, uning hayotida axborotlar qanday turda va mazmunda bo‘lishidan qat’iy nazar birlamchi ahamiyat kasb etgan va aynan shu xususiyati jihatidan axborotga bo‘lgan talab bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Davrlar o‘zgarishi va taraqqiyot axborot uzatuvchi vositalarning turinigina o‘zgartirdi, xolos. Davriylik, dolzarblik va tezkorlik esa jurnalistikaning taraqqiyoti bilan tengma-teng odimlab boraverdi. Avvallari og‘zaki ko‘rinishdagi axborotlar ko‘proq tarqatilgan bo‘lsa, keyinroq, bu yozma shakllarga ko‘chdi. Bora-bora kitob, gazeta, radio, televidenie va internet kabi tadrijiy ko‘rinishdagi rivojlanishni boshidan kechirdi. Futurologlar yangi asrga “Axborot asri” degan nisbatni berganliklari bejiz emas. Chunki endilikda katta-katta armiyalar yoki kuchli qurollar ham bajarishi mushkul bo‘lgan ishni birgina yo‘naltirilgan axborot orqali amalga oshirish osonroq va qulayroq bo‘lib qoldi. Shu bois bugungi kurashlar “mafkuraviy poligonlar”da shiddatli kechmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugun deyarli barcha mutaxassislar “Kim axborotga egalik qilsa, o‘sha dunyoni boshqaradi”, degan fikrni har so‘zida takrorlaydigan bo‘lishdi. Hatto bu gap “moda” tusiga kirgani ham ayni haqiqat. Vaholanki, XV asrdayoq buyuk mutafakkir, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy hazratlari o‘zining “Agar ogoh sen...” deya boshlanuvchi shohbaytlarida ushbu jarayonni boshdan oyoq ustalik bilan tushuntirib bergan edi. Yirik-yirik markazlashgan kuchlarga “shohlik” maqomini taqdim qilishda esa OAV asosiy QAHRAMON hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan karaganda har kanday turdagi ommaviy axborot vositasi jamiyat a‘zolarining ongu shuuri, dunyokarashi, fikrlashi, umumiy qilib aytganda, ma‘naviy olamini shakllantiradi, rivojlantiradi. Bugun har tomondan bizni egallab olayotgan axborotlar oqimidan o‘zimiz uchun zarur bo‘lgan xolis axborotni tanlab olish esa teran fikrlash va chuqur tafakkurni talab qiladi. Jamiyat ma‘naviy taraqqiyotining muhim elementi bo‘lgan OAV xodimlari esa bugun har qachongidan ziyrak, xolis va tezkor bo‘lmog‘i kerak. Zero, ijtimoiy munosabatlar jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo, ommaviy axborot vositalari rivojiga chambarchas bog‘lik. Ayniqsa, bugunning eng ommalashgan axborot tarqatish vositasi bo‘lgan onlayn olamni olaylik. Shiddatli axborot makonida internet tarmog‘idan foydalanish ko‘rsatkichi tobora o‘sib borayotgan bir sharoitda oddiy o‘quvchi uchun tv, gazeta yoki radiodan ko‘ra internet tarmog‘idan axborot olish qulayroq bo‘lib qoldi. Shu bois internet jurnalistikasi OAV ichida o‘ziga xos o‘rin va nufuzga ega bo‘lgan eng yangi va eng qulay axborot tarqatish vositasiga aylandi. Internetdan qo‘l telefoni orkali istalgan vaqtda, istalgan joyda va sharoitda foydalanish imkoniyatining mavjudligi undan foydalanish ko‘rsatkichini keskin oshirdi. Ayniqsa, bugun aholining yosh qatlami o‘z hayotini internet tarmog‘isiz tasavvur qila olmaydigan bir pallaga yetib keldik. Bu esa undan foydalanuvchi auditoriyaning dunyoqarashi aynan tarmoq jurnalistlarining salohiyati, madaniyati, bilim darajasiga bog‘liq ravishda shakllana boradi degani. Jamiyatning ma‘naviy rivoji OAV ga bog‘liq ekan, bugunning jurnalisti o‘zbekona kadriyatlarimiz negizida, xalqimizga xos xususiyatlarni saqlab qolgan holatda axborotni yetkazib berish mahoratini puxta egallamog‘i shart va zarurdir.

Ommaviy axborot vositalarini jamiyat dunyoqarashiga bevosita ta‘sir qiluvchi kuch dedik. Biroq dunyoning yetakchi davlatlari ham, hatto uzoq vaktlar mobaynida ularning ichida eng ommalashgani – internet imkoniyatlarini yuqori baholamadi. Ammo u endilikda nafaqat eng tezkor ommaviy axborot ulashish maydoni, balki eng qulay va eng auditoriyasi yuqori aloqa vositasiga aylanib ulgurdi. “Oxirgi yillarda mamlakatimizda katta auditoriyaga ega bo‘lgan qariyb 290 ta xususiy va idoraviy

Internet nashrlari tashkil etildi. Ular boshqa materiallar qatorida eng muhim rasmiy axborotlar, normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida tarqatmoqda.”¹⁵⁷

Darvoqe, internet tarmog‘i turli shaharlardagi odamlarni o‘zaro bog‘lovchi vosita, davlatlarning yagona eng tezkor axborot tarqatuvchisi va muloqot maydoni darajasiga ko‘tarildi. Bu haqidagi faktlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, kundalik auditoriyani hisoblaganda, internet allaqachonlar eng ommabop OAV hisoblangan TV ni yo‘lda qoldirganligini ko‘ramiz. Shu ma’noda, ayniqsa, odamlar eng ko‘p murojaat qiladigan OAV tizimi sifatida internet tarmog‘i hamda tv jurnalistlaridan nihoyatda hushyorlik talab etiladi.

Har qanday OAV turida e‘lon qilinayotgan axborotlar xolis bo‘lmog‘i shart, albatta. Shu ma’noda O‘zbekiston OAV da ham axborotlarni olish, qayta ishlash va tarqatish borasida cheklovlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Biroq o‘zbek mentaliteti o‘z millati ruhiyatini yovuzliklardan, axborot xurujlari-yu zo‘ravonliklardan asrab-avaylash, jamiyat a‘zolarini faqat ezgu g‘oyalar ko‘magida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu boisdan ham O‘zbekistondagi istalgan OAV turi milliy mentalitetga xos belgilarni inobatga olgan holda o‘z faoliyatini olib boradi. Ammo onlayn-nashrlarda bosma OAV ga nisbatan erkinlikning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Buning sababi esa internetdagi ma‘lumotlarning cheksizligi, o‘quvchida bir vaqtning o‘zida axborotlarni boshqa manbalar bilan solishtirish imkoniyatining mavjudligidir.

Globalashuv sharoitida milliy axborot makonini to‘laqonli shakllantirish, fuqarolarimizda axborot immuniteti va yot g‘oyalarga qarshi mexanizmlar yaratish orqali qarshi fikr uyg‘ota olish nafaqat O‘zbekiston, balki jahondagi har qanday davlatning strategik manfaatlari bilan hamohang bo‘lgan muhim masalalar sirasiga kiradi. Jumladan, “Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari” kitobida shunday deyiladi: “Yangilik nafaqat bir davlat va jamiyat taraqqiyotiga, balki xalqaro hamjamiyat taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Dunyoda globalashuv jarayoni borayotgan paytda yangilik xalqaro ahamiyat kasb etadi. Deylik, ilm-fandagi yangiliklardan dunyo xalqlarining xabardor bo‘lishlari taraqqiyotni tezlashtiradi, ya’ni insonlar kashfiyotu ixtirolar natijasida dunyoni, o‘zlikni anglashga harakat qila boshlaydilar. Iqtisodiy-siyosiy yangiliklardan voqif bo‘lish davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir qiladi, aloqador davlatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari xalqaro voqealardan xabardor bo‘lib turish

¹⁵⁷ Шавкат Мирзиёевнинг матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига табриги. 26.06.2020.

davlatning, jamiyatning xavfsizligini ham ta'minlashga yordam beradi. ”¹⁵⁸ Qolaversa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ja'dal suratlar bilan rivojlanishi O'zbekistonning dunyo bilan tengma-teng odimlab, voqealarga teng huquqli a'zo sifatida munosabat bildira boshlaganining asosiy omilidir. Bu esa axborot almashinuvi sohasida cheksiz imkoniyatlar bermoqda.

Keyingi yillarda shiddatli rivojlanish va yangilanish bosqichlarini boshdan kechirayotgan OAV sohasida bugun, ayniqsa, “to'rtinchi hokimiyat” ramziy maqomiga to'laqonli munosib chiqishlar kuzatilmoqda. Buni jamiyatimizda bot-bot ko'zga tashlanayotgan birtalay muammolarga yechim aynan OAV orqali topilayotganida ko'rishimiz mumkin.

“OAV hamisha jamoatchilik fikriga kuchli ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan faol qurol bo'lib kelganini unutmashimiz kerak.”¹⁵⁹ Sobiq davlat rahbarining ushbu ta'kidi axborot asrida yashayotgan har bir fuqaro uchun ahamiyatlidir. Haqiqatan ham OAV ning har bir so'zi auditoriyaga yetib boradi, ularni yaxshilikka safarbar etadi, vatanni sevishga, millatni ulug'lashga o'rgatadi. Ammo agar OAV o'z faoliyati mezonlarini yovuz g'oyalarning targ'iboti asosiga yo'naltirsa, u holda hech qanday kuch ularni to'xtata olmaydi.

Kuzatuvlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek jurnalistlari mahoratini oshirish va professional darajaga chiqish borasida alohida tajriba to'plangan. Zero, ular “butun jamiyatga ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar beruvchi, jamiyat ruhiga tashxis qo'yuvchi, uni yaxshiliklarga rag'batlantiruvchi”¹⁶⁰ kasb – jurnalistikaning bir qismi sifatida o'z faoliyatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga intilmoqdalar.

Modomiki, OAV jamiyat ma'naviy rivojining eng muhim elementi sifatida e'tirof etilar ekan, jurnalist ijodkorlar mahorati va bilimlarini oshirish, dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirish, milliy jurnalistikamiz uchun munosib o'rinbosarlar tayyorlash kabi muhim vazifalarni ham qayd etib o'tish lozim. Tan olib aytish kerak, Prezidentimizning ushbu masalalarga bo'lgan doimiy e'tibori tufayli yaratilgan keng imkoniyatlar mavjudligiga va yana qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish tashabbuslariga qaramay, milliy OAV sifati va ta'sirchanligini rivojlangan davlatlar erishgan yuqori darajaga ko'tarishda hali talaygina ishlarni amalga oshirish kerak. Yuqorida tilga olingan vazifalar milliy OAV oldida turgan va qisqa fursatlarda yechimini kutayotgan yumushlarning muayyan bir qismi, xolos.

¹⁵⁸Босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. Нашрга тайёрловчи Н.Тошпўлатова. 5-ж. –Т.: “Ўзбекистон”, 2019. 20-бет.

¹⁵⁹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-ж. – Т.: “Ўзбекистон”, 1999. 391-бет.

¹⁶⁰Ворошилов В.В. Журналистика. Санк-Петербург. 2001. –С.159.

Dunyo taraqqiyoti bilan teppa-teng odimlayotgan O‘zbekiston ham bugun mazkur jarayonlardan chetda emas. Garchi jamiyatning katta yoshlilari ongida totalitar tuzum davri sarqitlari saqlanib qolgan bo‘lsa-da, jamiyatning ilg‘or qatlami yoshlar hozirda butunlay yangicha hayot tarzi va yangicha fikrlar, voqealarga erkin munosabat bildira olishi bilan yangi hayotga poydevor qurib ulgurdilar. Endilikda, dunyo hamjamiyatida kuzatilayotgan tendensiyalar bizning ham ongu shuurimizni egallaganligi shubhasizdir. Bugun deyarli butun insoniyat demokratiya tamoyillariga asosan hayot kechiradi va har bir inson, avvalo, yashash, shaxsiy daxlsizlik, so‘z erkinligi huquqiga ega.

OAV millatning nafaqat ma‘naviy dunyoqarashi va urf-odatlarini tizimiga, balki kiyinish madaniyatidan tortib milliy so‘zlashuv tili taraqqiyotigacha ta‘sir qiladi. “Radio va televidenie tili butun mamlakat fuqarolari tilining rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Radio efirda yoki televideniya da yangragan yangi so‘zlar va iboralar tez kunda hammaga tarqalib, modaga aylanib ketadi. Bu esa teleradio jurnalistlar tiliga alohida mas‘uliyat yuklaydi. Ular til madaniyatini asrashi, jonli, shirali, adabiy tilda gapirishi zarur.”¹⁶¹ Biroq, afsuski, bugungi kunda shevalarga murojaat qilish xususiy radiokanallardan tortib, ko‘zga ko‘ringan telekanallar dasturlarida ham juda ko‘p kuzatiladi va hal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Ayniqsa, xususiy telekanallar faoliyatida shevaga oid so‘zlar juda ko‘plab ishlatiladi. Xususan, Toshkent shahar shevasidan respublika miqiyosidagi xususiy telekanallarda keng foydalaniladi. Bu esa bora-bora adabiy tilning unutilishi, ayniqsa, millat yoshlari orasida shevaga xos so‘zlarning ommalashishi, yanada kengroq tarqalishi, o‘tib kelayotgan yoshlar auditoriyasi shevaga oid so‘zlarni adabiy til bilan aralashtirib yuborishi, yozma nutqda ham shu tarzda ifodalashga intilishiga olib keladi. Xususan:

- “Mening yurtim”
- “Sevimli”
- “Milliy TV”

xususiy telekanallaridagi boshlovchi va jurnalistlar tilida, ayniqsa, shevalarga murojaatlarni kamaytirish o‘rinlidir. Zero, bu millat tili ravnaqining ertasiga ta‘sir qiluvchi omildir. Xususiy bosma OAV faoliyati kuzatilganida ham shevaga oid o‘rinlar va juda ko‘plab imloviy, mazmuniy xatoliklar bilan maqolalarning chop etilishi ko‘zga tashlanadi.

Qolaversa, tildagi har qanday o‘zgarishga munosib baho berish har bir jurnalist uchun dolzarb vazifadir. U tildagi o‘zgarishlarni birinchilardan bo‘lib o‘zlashtirishdan manfaatdordir. Gazeta va jurnalda maqola e‘lon qiluvchilar, radio va

¹⁶¹Фихтелиус Э. Журналистиканинг 10 қоидаси, Т.: “Шарқ”НМАК, 2002 йил 121-бет.

TV da nutq irod etuvchi jurnalist uning asosiy mehnat quroli bo'lmish ona tiliga diqqat-e'tiborli, uning sofligi va me'yorligi uchun kuyunchak o'z kasbining fidoyisi bo'lishi shart. Jurnalist uchun yuqori darajadagi savodxonlik, madaniyatlilik belgisi va uning OAV miqiyosidagi nutqi namunaviy bo'lib qolishi davr talabidir.

Bugungi OAV iste'molchi talablariga tobora moslashib borayotgan bir sharoitda, faqat ularning xohishini muhayyo qilish emas, balki daqiqa sayin murakkablikdan soddalikka tomon intilayotgan jurnalistikaning saviyasini ushlab qolish, oltin muvozanat asosida faoliyat yuritish va bu qoidaga auditoriyani ustalik bilan bo'ysundirish ham O'zbekiston OAV oldidagi dolzarb vazifadir. Zero, ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni yo'naltirish va boshqarish, ularga yo'nalish berish, ezgu maqsadlar sari safarbar etish, ma'naviyatini yuksak darajaga olib chiqish ham soha oldida turgan muammolar sirasiga kiradi.

Darhaqiqat, sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Bu kabi muammolarni yechish borasidagi sa'y-harakatlardan kutilajak eng muhim natija shuki, butun "bo'y-basti", katta-kichikligi, murakkabligi, ustuvorligi va ko'lami bilan ro'y-rost ko'rinib turgan masalalar yechimining topilishi pirovard natijada nafaqat o'zbek ommaviy axborot vositalarini, balki jamiyatimizni ham oliy maqsadlar sari eltguvchi ulkan odimlarga aylanadi.

Ommaviy axborot vositalariga jamiyat ma'naviy rivojining eng muhim elementi sifatida qaralar ekan, mamlakatimizda mavjud bo'lgan davlat va xususiy OAV faoliyatida quyidagi mezonlarni inobatga olish shart deb hisoblaymiz:

- OAV ning barcha turlarida axborot xilma-xilligini ta'minlash;
- jurnalistlarda kasb etikasiga oid mezonlarni tobora kengroq isloh etish;
- har bir axborot uzatish vositasidagi o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda axborot uzatishdagi eng maqbul usullardan foydalana olish mahoratini egallash;
- jurnalistlarning auditoriyaga har borada ko'rsatayotgan namunalarning jamiyat mezonlariga mos talablar darajasida bo'lishiga erishish;
- shevalar va ulardan chekinish masalalari (ayniqsa, xususiy OAV faoliyatidagi shu bilan bog'liq muammolar);
- jurnalistlarning chuqur bilim va salohiyatga ega kadrlar bo'lib shakllanishga doir muammolar va h.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, axborotning insoniyat hayotidagi o'zni va ahamiyati mutlaqo o'zgacha tus olayotgan bir sharoitda OAV ning millat va davlat manfaatlariga xizmat qilish va fuqarolar ongini shakllantirishdagi to'laqonli

faoliyatiga doir taklif va xulosalar ishlab chiqish bugun fan oldida o‘z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, ommaviy axborotning kishilar ongi va tafakkuriga ta’siri kengayibgina qolmay, shu qadar noziklashib bormoqdaki, bu hol ommaviy axborot sohasidagi hech bir masala yoki muammoni e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas, degani. Zero, axborot birinchi navbatda bilim manbai ekanligi bilan bir vaqtda, u – ma’naviyat, ma’rifat, axloq-odob va albatta, siyosiy qarashlar manbai hamdir. Shunday ekan, jamiyatimiz, fuqarolarimizning ma’naviy olami taraqqiyotiga ta’sir etuvchi kuch bo‘lmish OAV bugun har qachongidan ham sayqalga muhtoj, tadqiq etishga munosibdir.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. 26.06.2020.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-j. – T.: “O‘zbekiston”, 1999. 391-bet.
3. Allamberganova P. Telejurnalistika janrlari, –T.: “Yangi asr avlodi”, 2014.
4. Jurnalistika: Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari. Nashrga tayyorlovchi N.Toshpo‘latova. 5-j. –T.: “O‘zbekiston”, 2019. 20-bet.
5. Ворошилов В.В. Журналистика. Санк-Петербург. 2001. –С.159.
6. Фихтелиус Э. Журналистиканинг 10 қоидаси, –Т.: “Шарқ” НМАК, 2002 йил 121-бет.

XITOIY SHINJON LAHJALARIDA “-MA” YUKLAMASINING XUSUSIYATLARI

Shorasul Shamansurov Shavkatovich.

Ph.D in Linguistics and Applied Linguistics at the Institute of Linguistics, Zhejiang
University (ZJU)

E-mail.dashishuoguo@mail.ru Tell: +8613083982313

ANNOTATSIYA

Xitoy Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasi, turkiy tillar singari, eng ko‘p ishlatiladigan morfemalardan biri hisoblanadi. Ko‘pgina turkiy olimlar bu borada tadqiqot va munozaralar olib borishgan va “-ma” modal yuklamasini gap oxirida ishlatiladi deb hisoblaydilar. Yoki jumlaning ma‘lum bir qismidan keyin u turli xil vazifali so‘zlarni ifodalaydi. Tadqiqot natijasida shu ma‘lum boldiki “-ma” yuklamasi borasida batafsilroq muhokama qilinmagan.

Kalit so‘zlar: *Shinjon lahjasi, so‘roq yuklamasi, noodatiy so‘roq gaplarning uchrashi, oltoy tillari.*

АННОТАЦИЯ

Китайский - самый высокий погрузчик в Синьцзяне, таких как тюркские языки, является одним из наиболее широко используемых морфемов. Многие тюркские ученые обсуждают исследования и обсуждения в этом отношении и считают, что «сделанная модальная нагрузка используется в конце. Или после определенной части предложения он представляет собой множество слов задач. Подробнее не обсуждалось о загрузке «Сделано».

Ключевые слова: *Xinjiang Zooms, загрузка на допрос, необычное собеседование происходит, алтайские языки.*

ABSTRACT

In Chinese Xinjiang, the suffix “-ma” is one of the most widely used morphemes, as in Turkic languages. Many Turkish scholars have done research and debate on the subject, and believe that the modal preposition “-ma” is used at the end of a sentence. Or, after a certain part of a sentence, it represents a variety of functional words.

Keywords: *Xinjiang dialect, interrogative load, encounter of unusual interrogative pronouns, Altaic languages.*

KIRISH

1. Oltoy tillari oilasida “-ma” yuklamasining sintaktik taqsimoti

Biz Xitoy Shinjon lahjasidagi ko‘plab turkiy tillarda uchraydigan “-ma” yuklamasining o‘xshashliklarini topdik. Shinjon mahalliy qozoq, turk, salar va

boshqa oltoy lahjalarini o'z ichiga oladi. Xitoy Shinjon lahjasidagi “-ma” modal yordamchi so'zi gap oxirida va gap o'rtasida uchrasa turli ma'nolarni ifodalashi mumkin:

Turk tili: Ali yemak yapt-i ma/mi?

Shinjon lahjasida: Bugun top musabakasi bar ma/mu?

Salar lahjasida: U Ali ira mo/mu/mi?

Qozoq lahjasida: avtomabil ajdaj alasen ba/ma?

yuqoridagi to'rt lahjadagi “-ma” yuklamasining xususiyatlarini quyida umumlashtiramiz: 1

	So'roq gaplarda(ga p ohirida)	So'roq gaplarda(ga p o'rtasida)	Darak gaplarda(ga p ohirida)	Darak gaplarda(ga p o'rtasida)
Turk tili(ma/mi?)	+ [so'roq]	+ [so'roq]	-	+ [takidl amoq]
Shinjon lahjasida(ma/mu?)	+ [so'roq]	+ [so'roq]	-	+ [takidl amoq]
Salar lahjasida(mo/mu/mi?)	+ [so'roq]	+ [so'roq]	-	-
Qozoq lahjasida(ba/ma?)	+ [so'roq]	-	-	-

Shinjon lahjasidagi “-ma” yordamchi so'zi har xil so'zlardan keyin qo'shilishi mumkin bo'lsa -da, u har doim ham so'roq gap yasay olmaydi. Shu asosda, ushbu maqolada asosan ikkita masala muhokama qilinadi: 1. agar bir gapda ikki “-ma” yordamchi so'zi uchrasa ularni qanday farqlanadi?

2. agar ularni turi har xil bo'lsa Sintaktik farqi qanday?

Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasi jumlaning oxirida yoki o'rtasida uchrashi mumkin. Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasi hech qanday mustaqil leksik ma'noga ega emas va morfologik o'zgarishlarga ega emas. Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasini quyidagi toifalarga bo'lish mumkin:

(1) a. Ali kitabi Fatmaga verdima?

b. Ali dun yemak yaptima?

Lekin ba'zi jumalarda savolni ifodalovchi “-ma” yuklamasi jumla oxirida qo'llanmasligi mumkin. quyidagicha:

(2) a.U yemak yegan ma yok?

a.U yemak yegan ma yok?

“-ma” yuklamasi gapdagi ma’lum bir so’zga qo’shiladi va bu o’rinda “-ma” yuklamasi xitoy tilidagi “ye” ya’ni “ham” ma’nosini beradi. bu turdagi “-ma” yuklamasini bog’lovchi deb atashimiz mumkin:

(3) a.ökimak ma oram almak ma muhim.

b.Ali cok calismasina ma ragmen sinavda basarisiz oldu.

“-ma” yuklamasi ravishdan keyin qo’llanilganda bog’lovchi vazifasini bajarmaydi, faqatgina takidlash ma’nosini berishi mumkin.

(4) a.bu jay ajayip ma guzel idi.

b.Ali ajayip ma cay damladi.

bu turdagi “-ma” yuklamasi ajablanish ohangni bildiradi. Ba’zida “-ma” dan keyin “nima” so’roq olmoshi kelishi mumkin, bu ajablanish ohangni ifodalash uchun ishlatiladi.

(5) a.Ali afandi bugun darsingiz yomkma-nima?

b.sen joningdan toydingma-nima?

Madaniyat, urf-odatlar nuqtai nazaridan Xitoy Shinjon shevalarida ko’p farq bor, bu farqlar ikki xil gap tuzilishini tashkil qiladi. Gapirovchining ohangini ifodalash uchun ikki xil turdagi tillarda qo’llaniladigan usullarda ko’p umumiylik va farqlar mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1.1 Shinjon lahjasida “-ma” ning sintaktik ifodasi

Shinjon lahjalaridagi so’roq gaplarni o’rganish davomida, quyidagi misollardan ko’rish mumkin, “-ma” nafaqat gapning oxirgi bo’lagida uchraydi, balki gapning o’ziga xos qismiga ham e’tibor qaratadi. U gapning o’rtasida ham paydo bo’lishi mumkin.

(6) a.Ali kitabi Fatimaye verdi ma?

b.Ali kitabi Fatimaye ma verdi?

c.Ali kitabi ma Fatimya verdi?

d.Ali ma kitabi Fatimaye vedi?

e.Ali kitabi ma Fatimaye vedi ma?

Tadqiqot shuni korsatadiki, Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasi boshqa turkiy tillarga qaraganda erkinroqdir. Shinjon lahjasidagi“-ma” jumlaning alohida qismlarini

ajratib ko'rsatish uchun jumlaning turli bo'laklarida uchraydi. Darhaqiqat, "-ma"so'zini nafaqat so'roq gaplar, balki darak gaplarda ham ishlatish mumkin. Darak gaplardan keyin qo'llansa ohangni tasdiqlash yoki ma'noni kuchaytirishda uchrashi mumkin. Masalan:

(7) a. yemak yeyabsan-ma.

b.sen ilac icyosan-ma.

"yemak yeyabsan-ma" bu turda so'rovchi so'raluvchini ish harakatini ko'rib tursada tasdiqlovchi ohangni kuchaytirish uchun jumlaning oxiriga "-ma" qo'shib ohangni kuchaytirish uchun qo'llashi mumkin. "-ma" qo'shilishi tasdiqlash ohangini kuchaytiradi va ish harakatini takidlaydi, chunki so'rovchi sizdan ovqat yeyotganingizni emas, balki "Ovqatlanishda davom etishga" urg'u berishning ifodasidir. solishtiring:

(8) a.Bu Ali.

a.Bu Ali ma.

b.sen bilmish.

b.sen bilmish ma.

c.Ali yotmish.

c.Ali yotmish ma

Chap ustun umumiy bayonot ohangi, o'ng ustun esa tasdiqlash ohangini kuchaytirish uchun "-ma" yuklamasidan dan foydalanadi. "-ma" yuklamasi eslatma ohangini ko'rsatish uchun jumlaning oxirida ishlatilishi mumkin. Taqqoslash:

(9) a.Su ayyakabilari giy!

a. Su ayyakabilari giyanma!

b. Mana tuz ver!

b. Mana tuz verasanma!

Chap ustun bu sof buruq ohangini ifodalaydi, o'ng ustunda eslatma ohangini oshirish uchun "-ma" yuklamasi uchrashi mumkin.

(10) a. sen oquysanma hong long men.

b.manga bakarmisanma.

Misoldagi(10a, b)"-ma" yuklamasi takidlashni anglatadi; ikki misol jumlaridagi "-ma"shakli jihatidan bir xil, lekin so'roq vazifasini bajaradi. Ko'rinib turibdiki, "-ma" har xil ma'noga ega so'zlarga birikib, o'z shaklini o'zgartirmay qoladi. Tekshiruvimiz shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi tuzilishga qo'shimcha ravishda, Shinjon lahjasida "-ma" ham ikki yoki undan ortiq komponentlar orasida uchrashi mumkin.

(11) a.Sirkette evde ma yoksa iste ma okursunuz?

b.Pilav yer misin ma kahve ma içersin?

c. Ali ma pilav yemeyi sever ma?

Shinjon lahjalarida siz tez -tez shunga o'xshash misol jumalarni uchratishingiz mumkin. Shinjon dialektlarida, hatto ikkita komponent har xil bo'lsa ham, bunday birlashish allaqachon grammatik qoidalarga mos keladi. Lekin (11c) gap tuzilishi yuqoridagi gap tuzilishdan farq qiladi. Agar Shinjon lahjasida jumlada ikki “-ma” uchraydigan bo'lsa, unda birinchi “-ma” takidlash ma'nosini bildirishi mumkin. Ikkinchi “-ma” ni gap oxirida qo'llanishi so'roq ma'nosini berishi mumkin. Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasi ma'nosini to'rt turga bo'lish mumkin, Buni quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin: 2

Turi	O'рни	Ma'nosi
-ma₁	gap oxirida	so'roq
-ma₂	gap o'rtasida, gap oxirida	takidlash
-ma₃	gap boshida	ajablanish ma'nosida
-ma₄	bog'lovchi vazifasida	bog'lovchi(va, balki)

Tadqiqot davomida yuqoridagi “-ma” yuklamasining turli ma'nolari to'rtta mustaqil qo'shimcha sifatida ko'rib chiqiladi. Ular orasida faqat [ma₁] va [ma₂] bu maqolada alohida muhokama qilinadi. Akademik doiralar Göksel va Kersleyk (2005) Aygen (2007) “-ma” ning turli ma'nolari va funksiyalari keng muhokama qilishgan. Biroq, “-ma” sintaksisidagi har xil farqlar, ayniqsa uning grammatik funksiyasi va morfologik o'zgarishlari haqida hech qanday bahs yo'q. Shinjon lahjasidagi “-ma” yuklamasi va vazifasi jihatidan ikki xil ma'noga ega. Biz uni “-ma₁ va -ma₂” turiga bo'lishimiz mumkin.

1.2 Sintaktik farqlari

Shinjon lahjasida “-ma₂” ning o'рни tartibi aniq belgilanmagan. U har qanday gap tuzilishida boshida yoki gap o'rtasida uchrashi mumkin. “-ma₂” ning aniq o'рни yo'q, shuning uchun juda ko'p bahslarga sabab bo'ladi. U bilan so'roq gap yasash mumkin. Quyida “-ma₂” ning so'z tartibi xususiyatlari ikki jihatdan tahlil qilinadi: gap boshi va gap o'rtasida.

(12) a. Ali dun yemakma yapti. (takidlash)

b. Alima dun yemak yapti. (takidlash)

“-ma₂” yuklamasi ko'pincha voqeani takidlash uchun gap boshida uchrashi mumkin, lekin uning ahamiyati kamayadi. Shu bilan birga, ko'plar “-ma₂” yuklamasi

o'tgan zamoni ham bildirishi mumkin. misol jumla (12a) Ammo bu izohlanmagan va tasdig'ini topmagan.

Shinjon lahjasida, “-ma₂” otdan keyin, ravishdan keyin uchraydi. Xitoy tilida “-ma₂” yuklamasi odatda ritorik savol yasashda va so'roq gap yasashda gapning ohirida qo'llaniladi. (13a) - (13b) Shinjon lahjasidagi “-ma₁” so'roq gap yasash to'g'ridan-to'g'ri jumla oxirida qollaniladi:

(13) a.organcilar yazgi tatila ketisdima?

b.Ali bugun jamiga bardima?

(13a) misolda “-ma₁”so'roq yuklamasi “organcilar yozgi tatilga ketisdi” darak gapga qo'shib, jumлага so'roq kayfiyatini qo'shadi; masalan (13b), “-ma₁” ham darak gapga so'roq kayfiyatini qo'shadi. Shinjon lahjasida “-ma₁” so'roq yuklamasining ikki hil turi bor, biri so'roq kayfiyatini bildirish uchun darak gapning oxirida, ikkinchisi so'roqni ifodalash uchun inkor gap bilan birlashib keladi. “-ma₁”so'roq yuklamasi gap oxirida so'roq kayfiyatini ifodalasa, predikatli fe'lning shakli + “ma₁” so'roq yuklamasini ritorik shaklini hosil qilishi mumkin, masalan:

(14) a.tunugun siz galmadingizma?

Yuqoridagi mazmunga hulosa:3

Turi	So'roq gaplarda	Darak gaplarda
ma₁	+	
ma₂	+	+

1.2.1 Sintaktik umumiylik

Shinjon dialektida “-ma” yuklamasini jumla oxirida va jumlaning boshqa pozitsiyalarida ko'rish mumkin, lekin uchrash o'rinlarida farq bor. Oldingi tadqiqotlar natijalari va ko'plab misollar bo'yicha shaxsiy analizlarni birlashtirib, Shinjon dialektlari o'rtasidagi “-ma₁” va “-ma₂” sintaktik farqlari, ya'ni ularning har xil taqsimlanish pozitsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Shinjon lahjasida “-ma₂” yuklamasining jumlaning boshida ko'rinishi o'tgan zamon shaklini bildirishi mumkin. Masalan:

(15) a.Ali ma kitab okuyor.

b.Ali kitabima okuyor.

Shinjon lahjasidagi “-ma₂” jumlaning boshida uchraydi va ba'zan ot yoki to'ldiruvchi bilan bog'lanishi mumkin. Shinjon lahjasidagi “-ma₂” odatda o'ziga xos kuchli birikma sifatida qaraladi. Shinjon lahjasidagi “-ma₂” so'roq gaplarning

boshida bir vaqtning o'zida “-ma₁” bilan, tasdiqlovchi ohangni ifodalab kelishi mumkin.

(16) a. Ali okula ma git-di ma?

Shinjon lahjasidagi so'roq yuklamasi “-ma₁” jumlasida - bu oltoy tillar oilasida so'roq gap yasashda eng ko'p qo'llaniladi. Quyidagi ikkita misolning jumla tuzilishi bir xil: S+O+objective case+(ma₁)+VP. Bu turdagi gaplarning muntazam tuzilishi quyidagicha bo'lishi kerak: S+O+objective case+VP (ma₁).

Shinjon lahjalaridagi “-ma₁” va “-ma₂” lar o'rtasida farqlar taqsimoti yetarli darajada sezilmaydi. “-ma₁” va “-ma₂” yordamchi so'zlarining joylashuvini quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin: 4

O 'rni	So'roq gaplarda(gap ohirida)	So'roq gaplarda(gap o'rtasida)	Darak gaplarda(gap ohirida)	Darak gaplarda(gap o'rtasida)
[-ma ₁]	+	+	-	-
[-ma ₂]	-	+	+	+

XULOSA

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Shinjon lahjasidagi “-ma₂” gapning turli o'rinlarida uchrashi mumkin va u juda kam cheklovga ega. Shinjon lahjasidagi “-ma₁” so'roq gap yasashda faqat gap oxirida uchrashi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, Shinjon shevalari juda boy va o'ziga xosdir. Shinjon shevalari va boshqa shevalar manbalarini o'rganib chiqib, Shinjon dialektlari o'ziga xos xitoy lahjalari tizimini shakllantirgani, shuningdek, Shinjon xitoy lahjalariga xos xususiyatlarni shakllantirganligi aniqlandi. “-ma” so'roq yuklamasini tahlil qilish orqali, Shinjon xitoy lahjalarida “A+ma A+ma” va “Alima jamiye gidema?” Eng keng tarqalgan va tez-tez ishlatiladigan jumlar namunalari ekanligi o'rganildi. Muallif tadqiqot jarayonida shuni aniqladiki, bunday maxsus so'roq jumalari asosan shimoli -g'arbda ko'p uchraydi, Shinjon lahjasidagi “-ma” ning tarqalgan va bu turdagi ko'rinishi zamonaviy xitoy tilida nisbatan kam uchraydi.

REFERENCES

[1]Chomsky, N.. Lectures on Government and Binding [M].Foris Publications-Dordrecht, 1981.

[2]Chomsky, N.. Barriers. [M]. Cambridge, Mass: MITPress, 1986.

[3]Huang, C. -T.James. A Note on the Binding Theory [J].Linguistic Inquiry, 2002, 14: 554-561.

[4]Huang, C. -T.James. Hanyu zhengfan wenju de mozuyufa 【A Modular Grammar of Chinese A-not-A Questions】 [J].Zhongguo Yuwen, 1988, 3: 247-264.

[5]Huang, C.-T. James.. Modularity and Chinese A-not-AQuestions. In Interdisciplinary Approaches to Language [M].Dordrecht: Carol Georgopolous and Robert Ishihara, 1991.305-322.

[6]Aygen-Tosun, Gulşat. (1999). Specificity and Subject/Object Positions in Turkish. Talk given at I. Linguistics Conference on Turkic Languages . University of Manchester. April 6-7 1999. Manchester.

[7]Besler, Dilek. (1999). The question particle and movement in Turkish. MA thesis, Bogazici University, Istanbul

GLOBALLASHUV DAVRIDA MIGRATSION INQIROZ

Jalilov Baxtiyor Norqulovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

katta o'qituvchi

ANNOTATSIYA

Bugungi globallashuv jarayonida migratsiya masalasi tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. migratsiya jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ma'lum hudud, mamlakat, mintaqa ijtimoiy hayotiga o'zining ijobiy, salbiy, kerak bo'lsa, siyosiy ta'sirini o'tkazadi. Shu boisdan ham migratsiya jarayonini huquqiy tartibga solish, uni boshqarish masalalari alohida e'tibor talab qiladi.

Kalit so'zlar: *globallashuv jarayoni, migratsiya masalasi, fuqarolarning huquqlari, manfaatlari, globalizatsiya va integrasion jarayonlar, fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar*

АННОТАЦИЯ

В условиях сегодняшней глобализации проблема миграции становится все более актуальной. процесс миграции имеет тенденцию к спаду в определенные периоды и оказывает свое положительное, отрицательное, а при необходимости политическое влияние на социальную жизнь определенного региона, страны, региона. Поэтому правовое регулирование миграционного процесса и управление им требует особого внимания.

Ключевые слова: *процесс глобализации, проблема миграции, права, интересы граждан, процессы глобализации и интеграции, наука, технологии, современные коммуникации.*

ABSTRACT

In today's globalisation, the issue of migration is becoming increasingly relevant. the process of migration has a tendency to decline at certain times and has its own positive, negative, if necessary political impact on the social life of a certain region, country, region. Therefore, the legal regulation of the migration process and its management require special attention.

Keywords: *the process of globalization, the issue of migration, the rights, interests of citizens, globalization and integration processes, science, technology, modern communications.*

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshida olimlar tilida globallashuv degan jumla paydo bo'ldi.

Globallashuv insoniyat aql-zakovati, iqtidori va tinmay amalga oshirilgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar tizimida harakatga kelayotgan jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda, ana shu omillarning ne'mati hamdir.

Chunki insoniyat ham o'z taraqqiyoti tarixida erisha olmagan yutuqlarni bugun uning imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda qo'lga kiritmoqda. Lekin shunisi aniqki, yuqorida qayd etilgan yutuqlar bugungi taraqqiyotga qanchalik ijobiy ta'sir o'tkazayotgan bo'lmasin, uning "ommaviy ma'naviyat"ni shakllantirishi va uni taraqqiyot yo'lga kirib borayotgan millatlar milliy ma'naviyatiga singdirishga o'tkazayotgan ta'siri bilan solishtirsa, inqirozning toshi og'irlashib borayotganligi kuzatiladi. Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo'q emas.

Chunonchi, ko'pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salohiyati yuksalishiga yordam bermoqda.

Shuningdek, bugungi kunda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya saldosini o'smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan o'z qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoning turli mamlakatlarida o'rtacha 232 million nafar migrant yashaydi. Ularning aksariyati sayyoramizning shimoliy mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi. Yevropa mehnat muhojirlari orasida eng jozibador manzil hisoblanadi. 2019 yil holatida mintaqada 82 million muhojirni qabul qilgan bo'lib, undan keyingi o'rinlarni Shimoliy Amerika (59 million), Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo mamlakatlari (49 million) egallagan.

Oxirgi o'n yilliklarda globalizatsiya va integrasion jarayonlarining jadal rivojlanishi xalqaro mehnat almashinuvida ham o'z aksini topdi. Birlashgan millatlar tashkiloti va Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, 2015-2019 yillar oralig'ida

xalqaro mehnat muhojirlari soni 11,4%ga ko'paygan. 2019 yilda muhojirlar soni jahon aholisining 3,5 foizini tashkil qilgan va ushbu ko'rsatkich 2000 yilga nisbatan 25%ga oshgan.

Muhojirlarning aksariyati (60%) o'z mintaqasidagi qo'shni mamlakatlarga ko'chib o'tgan. Xususan, 2015 yilda 59 millionga yaqin osiyolik o'z yurtidan mintaqadagi boshqa mamlakatga ko'chib o'tgan bo'lsa, 40 million yevropalik Yevropaning boshqa davlatlarida qo'nim topgan.

Umuman olganda, Yevropa mehnat muhojirlari orasida eng jozibador manzil hisoblanadi. 2019 yil holatida mintaqa 82 million muhojirni qabul qilgan bo'lib, undan keyingi o'rinlarni Shimoliy Amerika (59 million), Shimoliy Afrika va G'arbiy Osiyo mamlakatlari (49 million) egallagan.

Pandemiyaning xalqaro mehnat migratsiyasiga ta'siri aksariyat mehnat muhojirlari iqtisodiyotning norasmiy sektorida vaqtincha va huquqlari himoyalangan ishlarida faoliyat yuritishadi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu toifadagi insonlar o'sha davlatdagi milliy mehnat qonunchiligiga amal qilmaganligi sababli, pandemiya kabi favqulodda vaziyatlarda ularning ijtimoiy va iqtisodiy himoya choralaridan foydalana olmaslik xavfi yuqori. Xususan, KOVID-19 bilan bog'liq inqiroz sharoitida ba'zi mamlakatlarda mehnat muhojirlariga nisbatan diskriminatsiya, ishdan bo'shatish, mehnat sharoitining yomonlashishi va boshqa shu kabi salbiy holatlarning oshishi kuzatilmoqda.

Aksariyat muhojirlarning turli sabablarga ko'ra sog'liqni saqlash tizimidan foydalana olmasligi, virusning yanada keng va jadal sur'atlarda tarqalishiga olib kelmoqda. Aksincha, tibbiy xizmatlardan foydalangan taqdirda, bu ularning moliyaviy ahvolini yanada yomonlashtirib, kambag'allik qopqoniga tushish ehtimolini ko'paytiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, iqtisodiy inqirozdan oldingi davrda dunyo bo'ylab yiliga 100 million nafar aholi sog'liqni saqlash uchun sarflangan xarajatlar tufayli kambag'allik darajasiga tushib qolar edi.

Shuningdek, qattiq karantin choralarining joriy qilinganligi va davlatlararo transport qatnovlarining cheklanganligi tufayli muhojirlar mehnat bozoridagi ish o'rinlarining keskin kamayishi va ish xaqi miqdorining tushishi kabi qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2020 yilning ikkinchi choragida ish o'rinlarining qisqarishi dunyo bo'ylab 10,5 %ga teng bo'ldi. Boshqacha aytganda, joriy yilning 2-choragida dunyo bo'ylab ishsizlar soni 195 million nafarga ko'paydi. Mintaqalar kesimida, Amerika (-12,4%), Yevropa va Markaziy Osiyo (-11,8%) hududlarida

raqamlar o'rtacha ko'rsatkichlardan ham salbiyroq tus oldi. Undan tashqari muhojirlarning aksariyati faoliyat olib boradigan iqtisodiyotning norasmiy tarmoqlaridagi o'rtacha ish haqi -60%ga qisqargan bo'lib, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida mazkur qisqarish -70%ga teng[1].

Ma'lumki, bugungi kunda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish har bir mamlakat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Migratsiya masalalari, ayniqsa, oxirgi o'n yillikda jahon hamjamiyatini jiddiy tashvishga solayotgan mintaqaviy va mahalliy nizolar, ishsizlik, qashshoqlik kabi muammolar zamirida yanada ahamiyatli bo'lib bormoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda dunyoda 250 milliondan ortiq shaxs migrasion jarayonlarning ishtirokchisi hisoblanadi.

Mamlakatimizda migrantlar huquqlarini kafolatlash yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish maqsadida 10 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Xususan, 2020 yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, chet elda ishlashni istagan shaxslarni o'qitish, chet elda bo'lish paytida fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ish bilan ta'minlash, shuningdek qaytib kelgan mehnat muhojirlari, ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarori qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi doirasida jamiyat, davlat va inson manfaatlariga daxldor migratsiya masalalarini hal etish, sohadagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlash, migrantlar huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish nazarda tutuvchi "Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi[2].

Demak, migratsiyaga nafaqat tashkiliy, balki qonuniy nuqtai nazardan ham uning strategiyasini inobatga olgan holda choralar ko'rilmogda. Aytish joizki, migratsiya masalalari o'z ichiga faol, o'rta yosh va yosh aholini qamrab oladi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan tashqi migratsiyaga moyil bo'lgan aholining rasmiy statistikasi yuritiladi va xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini yuritayotgan aholining monitoringi olib boriladi, chunki bu birinchi galda mamlakatning imidjini belgilab beradi. Norasmiy migratsiya bilan qamrab olingan aholining monitoringini olib borish qiyin. Chunki bu yo'nalishda Ichki ishlar vazirligi, mahallalarga ham topshiriqlar berilgan bo'lsada, bunday statistikasi yuritish qiyin. Chunki viloyatdan poytaxtga mehnat qilish uchun ketayapman deb, boshqa

viloyatlar yoki qo'shni respublikalarga chiqib ketayotgan yurtdoshlarimiz ham yo'q emas. Albatta muhojirlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish va davlatlararo ma'lumot almashinish masalasi muhim[3].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globallashuvni to'siq qo'yib, chegara tortib ushlab bo'lmaydi. Hindistonlik mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining qo'yidagi so'zlarida: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman". Shuning uchun ham, milliy istiqloq g'oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda. "dovullar"dan saqlash omili ekanligini anglashimiz zarur.

REFERENCES

1. Inqiroz ichidagi inqiroz: COVID-19 va xalqaro migratsiya.
2. <https://review.uz/oz/post/inqiroz-ichidagi-inqiroz-covid-19-va-xalqaro-migratsiya>
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Rossiya Federatsiyasidagi huquqlari: mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari" mavzusidagi O'zbekiston - Rossiya forumi tafsilotlari
4. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).
5. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 204-206).
6. Nargis Qosimova. "O'zligimdan voz kechdim" yoki mehnat muhojirining armoni.
7. <https://nargis.uz>
8. <https://meningfikrim.uz/uz/news/view/253>
9. http://www.ecoross.ru/files/books2019/Katalog_UzGO_2019.pdf
10. http://chinoz.uz/uz/pages/news_uzbekistan/

ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING “JAHON IQTISODIY-IJTIMOYIY GEOGRAFIYASI” FANINI O’QITISHDAGI AHAMIYATI

Artikova Gulnoza Eshmuhammadovna

Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti tabiiy va gumanitar fanlar fakulteti, tabiiy fanlar kafedrası kabinet mudiri

ANNOTATSIYA

Bizga ma’lumki, har bitta sohani o’qitishda turli xil o’qitish usullari, zamonaviy, interfaol yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar mavjud. Ushbu maqola asosan, "Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi" fanini o’qitishda eng ilg’or va samarali o’qitish texnologiyalari haqida ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Xususan, ta’lim sohasida o’quvchilarga va talabalarga geografiya fanining ahamiyati va uni yangicha metodlar bilan o’rgatish tamoyillarini misollar orqali namoyon qiladi.

Kalit so’zlar: *Innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, ilmiy-uslubiy asoslar, zamonaviy tizim, o’qitishning pedagogik shartlari.*

ABSTRACT

We know that there are different teaching methods, modern, interactive approaches and innovative technologies in teaching each field. This article mainly provides information on the most advanced and effective teaching technologies in teaching the subject of “World Economic and Social Geography”. In particular, it demonstrates the importance of geography to students in the field of education and the principles of teaching it in new ways through examples.

Keywords: *Innovative technologies, pedagogical process, scientific and methodological bases, modern system, pedagogical conditions of teaching.*

АННОТАЦИЯ

Мы знаем, что в преподавании каждой области используются разные методы обучения, современные интерактивные подходы и инновационные технологии. В данной статье в основном представлена информация о самых передовых и эффективных технологиях преподавания предмета «Мировая экономическая и социальная география». В частности, он демонстрирует важность географии для учащихся в сфере образования и принципы преподавания ее по-новому на примерах.

Ключевые слова: *инновационные технологии, педагогический процесс, научно-методические основы, современная система, педагогические условия обучения.*

KIRISH

Bugungi kunda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanining mazmunini takomillashtirish va ta'lim sifatini ta'minlash uchun ilmiy-uslubiy ishlanmalarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dunyodagi eng muhim vazifalardan biridir. Ilg'or pedagogik texnologiyalar va usullarni qo'llashni o'quv-uslubiy ta'minlashni takomillashtirish, shuningdek, pedagogik-psixologik, o'quv-uslubiy sohalarida ilmiy-uslubiy faoliyatni optimallashtirish kabi sohalaridagi tadqiqotlarga ustuvorlik beriladi.

Mamlakatimizda, ayniqsa, so'nggi yillarda umumiy o'rta ta'limda geografiya ta'limini modernizatsiya qilish, iqtisodiyotning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar, fundamental va amaliy fanlarning tuzilishi va undagi kontseptual o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik jarayonni yoshlarni vatanparvarlik va milliy istiqloq ruhida tarbiyalashga, shuningdek boy ilmiy, madaniy va ma'naviy boylıklarimiz asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik shakl va uslublar asosida takomillashtirish zarur [1-4].

Shu munosabat bilan, geografiya ta'limida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish, jumladan, "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" o'quv jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, baholashga qaratilgan innovatsion topshiriqlarning zamonaviy tizimini ishlab chiqish zarur va bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish maqsadga muvofiqdir [5-7].

O'qituvchilar malakasini oshirish tizimida yangiliklar va g'oyalarni qo'llash - bu fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish deb ataladi. Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Vengriya, Finlyandiyada geografiya o'qitiladi. Asosan, ta'lim berish jarayonida aqliy qobiliyatlar katta rol o'ynaydi va talaba psixikasini, kognitiv faolligini o'rganishga katta e'tibor qaratiladi. Psixologlarning ishtirokisiz fanni o'rgatish bo'yicha tadqiqot olib borish deyarli mumkin emas. O'qitish jarayonida turli matnlar, o'yinlar, taqlidlar keng qo'llaniladi. Masalan, talaba kompaniya prezidenti sifatida o'ylaydi, harakat qiladi, muammoni hal qiladi, o'zi xulosa chiqaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni kelajakka, ya'ni tadbirkorlik va tadbirkorlikka tayyorlashdir. Xorijiy mamlakatlarda, xususan Buyuk Britaniya va Fransiyada geografiya darsliklari va qo'llanmalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, bu mamlakatlarda bitta kursni o'qitish uchun bir nechta darsliklar tayyorlanadi va nashr etiladi. Ko'pgina darsliklar ma'lumotga boy, qiziqarli va interfaol mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan bo'ladi. Bunday qo'llanmalardagi matndagi ma'lumot 20-40 foiz, tasvir 20 foiz, statistika 20 foiz, savol va topshiriqlar 20 foiz.

Mamlakatimizda bizda "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini yangi ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish uchun katta imkoniyat bor, lekin bu texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy -uslubiy ishlar boshqa fanlarga qaraganda sekinroq. "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanidan chet mamlakatlardagidek bizning mamlakatimizda ham ushbu quyidagi asosiy usullardan foydalanilmoqda:

o'quvchilarni sinfda faollashtirish va muammoli va tadqiqot xarakteridagi yangi g'oyalarni rag'batlantirish;

ular uchun faoliyat tizimini yoki yo'nalishini o'zgartirish uchun aniq maqsadlar qo'yish;

ta'lim jarayonining sifatini ta'minlaydigan innovatsion usullarni yaratish, noan'anaviy yondashuvlar g'ayritabiiy tashabbuslar orqali ijodkorlikni rag'batlantirish, rag'batlantirish harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lishini ta'minlash; o'quv vazifalari, nostandart testlardan iborat darsliklar va qo'llanmalar yaratish; o'qituvchi yangilikning mohiyatini to'liq anglab, o'z ishiga yangiliklarni izchil qo'llay olishi kerak.

Shu sababli, o'quvchilarni o'quv faoliyatining to'liq sub'ekti qilish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish uchun geografiya o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'iladi.

"Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishni takomillashtirishning ilmiy -uslubiy asoslari quyidagilar:

- Noyob dalillar
- Geografik ob'ektlarni tahlil qilish
- Maqsad
- Ta'lim funktsiyasi
- Tashkiliy funktsiya
- Bashoratli funktsiya

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'qitishni takomillashtirish talabalarga tabiat va jamiyatga xos bo'lgan hodisalarni to'liq tasavvur qilish imkonini beradi.

Fanni o'qitish asosida talabalarda iroda, qat'iyatlilik, burch va mas'uliyat hissi, estetik ideallar ijtimoiy va shaxsiy hayotga nisbatan rivojlanadi. Ilmiy dunyoqarash - shaxsning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlaydigan birinchi omil. Bu tabiat va jamiyatga xos bo'lgan bilim va qonunlarga asoslangan ilmiy-amaliy tafakkurida ma'lum yo'nalishlar paydo bo'ladi

"Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitishning pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

- Didaktik shartlar
- Tarbiyaviy shartlar
- Chuqur ilmiy asoslash
- Mantiqan ishontirish qobiliyati
- Shaxsiy qarashlarni shakllantirish
- Ishonchli tarkibni yaratish
- Didaktik vaziyat
- Motivatsiyani yaratish
- Rivojlantiruvchi funktsiya

Ushbu yuqorida berilgan shartlar fanni o'qitishda fikrlash faolligini ta'minlaydi, o'quvchilarni ijodkorlikka, moyillikka, voqea va harakatlarning o'zaro ta'siriga undaydi.

Ta'limda talabalar o'qituvchining ma'ruzasi va hikoyasiga asoslangan darsdan zerikishadi. Intensiv axborot davrida darsning ilmiy va amaliy jihatlarini oshirish maqsadida, tadqiqot jarayoni "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" ning ba'zi mavzularini o'qitishda innovatsion usullardan foydalanishga asoslangan yaxshi natijalarga erishishga qaratilgan.

Dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'qitishda ishlab chiqilgan amaliy innovatsion usullarni shunga mos ravishda tanlash mumkinligi ko'rsatildi. Natijada protsessual komponentga 9-sinf o'quvchilarining geografik qobiliyatini baholash bo'yicha tavsiyalar, jumladan, og'zaki taqdimot, internet simulyatorlari, onlayn testlar, treninglar, innovatsion usullar va ilg'or pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish kiradi. Ishlab chiqilgan usullar yordamida talabalar mustaqil ravishda o'z geografik bilim va ko'nikmalarini namoyish qiladilar.

Shu maqsadda bir nechta ("Gollar cho'qqisi", "Yulduzli galaktika", "Xavfli daryo", "UMOM", "Yomg'ir", "Sirli shahar", "Yulduz", "Besh +1", "Javobni toping. savol ", " 10x10 ", " Doppi "texnologiyalari va boshqalar ishlab chiqilgan. "Yomg'ir" texnologiyasi "Jahon qishloq xo'jaligi" misolida tavsiya etiladi.

Bu texnologiyani qo'llashda berilgan shakllar, xususan: qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nomini bulut shaklida yozish; tomchi shaklida qishloq xo'jalik ekinlaridan tayyorlangan mahsulotlarning nomini yozing; qoraqarag'ay shaklida yuqoridan pastgacha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi mamlakatlarning nomlari ketma-ket yoziladi (1-2-3 o'rinlargacha). Talabalarga berilishi va ular tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ishlar namunalari keltirilgan.

XULOSA

"Yomg'ir" texnologiyasidan foydalanish natijasida talabalar qishloq xo'jaligi ekinlari va ularning mahsulotlari nomlari, qishloq xo'jaligi sektori yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar bilan tanishadilar [8]. O'qituvchi mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda samarali natijalarga erishadi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va darsdagi faolligi oshadi, o'z qobiliyatlarini namoyon etish orqali ular mavzuni bilish, uni mustaqil o'zlashtirish quvonchiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, o'quvchilarning mavzu bo'yicha geografik qobiliyatini aniqlashga qaratilgan innovatsion usullarni ishlab chiqishning tanlangan tamoyillari, asosan, o'quvchilarni ta'lim va bilim faoliyatini baholash tizimiga yo'naltiradi.

REFERENCES

1. Qo'ldasheva M. Dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fanini o'qitishning innovatsion usullari. Uslubiy qo'llanma. Namangan. 2018. -227 bet.
2. Qo'ldasheva M. Geografiya o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammolari va yechimlari / "Namangan VXTXQTUMOI" mahorat maktabi "samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar" ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015 yil. - B. 92-94.
3. Mahmudova M., Qo'ldasheva M., Umarova G. B. Dunyo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi darslarida dizayn uslubidan foydalangan holda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish // Maktab va hayot ilmiy-uslubiy jurnali, Toshkent, 2018. - №4 - S.20-22 (13.00.00. № 4).
4. Buribayevna, D. B., Mirmagdiyevna, A. X., Ne'matovna, A. D., & Valiyevna, T. Z. (2020). O'ZBEKISTON MAKTAB TA'LIM TIZIMIDA GEOGRAFIYA FANINING O'QITILISHIDA AKT NING O'RNI VA AHAMIYATI. *Интернаука*, 1(130 часть 3), 72.
5. Жумаханов, Ш. З. (2020). ХАЛҚАРО МИҚЁСДА ТОПОНИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК, ЛИНГВИСТИК ВА ТАРИХИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, 1(2).
6. Kayumova, M. (2021). GEORAFIYA DARSLARIGA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETISH. *Журнал естественных наук*, 1(2).
7. Isadjanov, A., & Piyos, G. (2020). TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: CURRENT TRENDS AND NATIONAL PRIORITIES. *The Light of Islam*, 2020(1), 192-202.

8. Наджибулла, К. (2021). IQTISODIY RIVOJLANISHDA TURIZMNING O'RNI VA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI. Журнал Инновации в Экономике, 4(7).
9. Qodirov, T. U. U., Yusufxonov, Z. Y. O. G. L., & Sharapova, S. R. Q. (2021). O 'ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA KLASTERLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 305-312.
10. Кодиров, Т. У., Юсуфхонов, З. Ю. У., & Ахмедов, Д. Т. У. (2021). АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РЕЙТИНГ ИНДЕКСА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛОГИСТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 245-252.

XORIJIY TIL LEKSIK BIRLIKLARNI TANLASH MEZONLARI

Vaziraxon Rustamovna Ochilova

Tayanch doktorant

O‘zDJTU

e-mail: vazira.ochilova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy til leksik birliklarini tanlash mezonlari, olimlarning taklif, muloxazalari, so‘z boyligini yanada samarali o‘rganish uchun didaktik (onglilik, ravshanlilik, shaxslararo muvofiqlashtirish), lingvistik (tilni minimallashtirish, kontsentrizm), psixologik (leksik ko‘nikmalar va qobiliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish) va uslubiy (ona tilini hisobga olish) , so‘z boyligini va nutq faoliyati turlarini o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rgatish, so‘z birikmalarini egallash maqsadiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuv, kasbiy yo‘nalish) bir-biri bilan uzluksiz aloqada ishlash tamoyillari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: leksik birlik, didaktik, lingvistik, psixologik, uslubiy.

КРИТЕРИИ ВЫБОРА ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Вазирахон Рустамовна Очилова

Базовый докторант

УзГУМЯ

электронная почта: vazira.ochilova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье приведены критерии выбора лексических единиц иностранного языка, предложения, комментарии ученых, дидактические (сознание, ясность, межличностная координация), лингвистические (минимизация языка, концентризм), психологические (постепенное формирование лексических навыков и умений) и методический (с учетом родного языка), взаимозависимое обучение лексике и видам речевой деятельности, стратифицированный подход к цели овладения лексикой, профессиональная направленность) и принципы непрерывного общения друг с другом.

Ключевые слова: лексическая единица, дидактический, лингвистический, психологический, методологический.

CRITERIA FOR CHOOSING LEXICAL UNITS IN FOREIGN LANGUAGES

Vazirakhon Rustamovna Ochilova

Basic doctoral student

UzSUWL

email: vazira.ochilova@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the criteria for selecting lexical units of a foreign language, suggestions, comments of scholars, didactic (consciousness, clarity, interpersonal coordination), linguistic (language minimization, concentrism), psychological (gradual formation of lexical skills and abilities) and methodological (taking into account the native language), interdependent teaching of vocabulary and types of speech activities, a stratified approach to the purpose of mastering vocabulary, professional orientation) and the principles of continuous communication with each other.

Keywords: *lexical unit, didactic, linguistic, psychological, methodological.*

KIRISH

Ma'lumki, til muayyan tuzilishga ega bo'lgan ijtimoiy aloqa vositasi, uning asosini esa leksik birlik tashkil etadi. Ko'pgina tadqiqotchilar leksik birlikni bilish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni muhokama qilganlar Gu¹⁶², Laufer¹⁶³, Neshin¹⁶⁴, Shmitt¹⁶⁵. Odatda leksik birlikni bilish turli xil elementlarni o'z ichiga oladi degan xulosaga kelishgan. Leksik birlikni bilish uning barcha xususiyatlari bilan bilishni anglatadi.

Shuningdek, rus olimlari leksik birliklarni o'rganishning har xil tipologiyalarini aniqlashgan (P.K. Babinskaya¹⁶⁶, I.L. Bim¹⁶⁷, V.A. Buxbinder¹⁶⁸, N.D. Galskova va

¹⁶² Gu, Y. (2005). *Vocabulary learning strategies in the Chinese EFL context*. Singapore: Marshall Cavendish Academic.

¹⁶³ Laufer, B. (2000). Task effect on instructed vocabulary learning: The hypothesis of 'involvement.' In AILA '99 Tokyo Organizing Committee (Ed.), *Selected papers from AILA '99 Tokyo* (pp. 47–62). Tokyo, Japan: Waseda University Press.

¹⁶⁴ Nation, I. S. P. (2008). *Teaching vocabulary: Strategies and techniques*. Boston, MA: Heinle and Heinle.

¹⁶⁵ Schmitt, N. (2010b). *Researching vocabulary: A vocabulary research manual*. Basingstoke, England: Palgrave Macmillan.

¹⁶⁶ Бабинская П.К., Т.П. Леонтьева, И.М. Андреасян, А.Ф. Будько, И.В. Чепик. Практический курс методики преподавания иностранных языков: Учебное пособие. – 3-е издание, дополненное и переработанное. – Мн.: ТетраСистемс, 2005. – 288с.

¹⁶⁷ Бим И.Л. *Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе/ И.Л. Бим.- М.: Просвещение, 1988.*
- 163с

N.I. Gez¹⁶⁹, G.V. Rogova va F.M. Rabinovich¹⁷⁰, A.N. Shamov¹⁷¹, N.V. Nikolayeva¹⁷²). Nikolayevaning tipologiyasi keng e'tirof etildi. U ikkita mezonga asoslanadi: 1) mumkin bo'lgan aralashuvni hisobga olgan holda ona tili va chet tillaridagi so'zlarning tarkibi va shakli nisbati; 2) so'zning o'zi o'rganiladigan tilidagi tabiati.

N.V.Nikolayeva so'zlarning sakkiz turini taklif qildi. Ular quyidagilar: 1. Ikki tilda bir xil ma'noga ega bo'lgan xalqaro so'zlari. 2. Qo'shma so'zlar, shuningdek tarkibiy qismlari o'quvchilarga tanish bo'lgan so'zlarning birikmasi. 3. Hajmi ona tilidagi so'zlarning semantik hajmiga zid bo'lmagan so'zlar. 4. Tarjima qilinadigan til uchun tarkibiga xos so'zlar. 5. Ildizning ona tili bilan umumiy bo'lgan, ammo mazmuni jihatidan farq qiluvchi so'zlar, 6. Alohida tarkibiy qismlari, o'quvchilarga ma'lum bo'lsa-da, idiomatik, ammo ma'no jihatidan mahalliy ma'noga yaqin so'zlarga o'xshash bo'lmagan birikmalar va qo'shma so'zlar. 7. Lug'aviy yagona ma'no doirasi mos keladigan ona tilining ma'no doirasidan kengroq so'zlar. 8. Leksik birliklar, ularning hajmi ona tilidagi tegishli so'zlarining hajmiga teng so'zlar.

Shamovning ta'kidlashicha lug'at - bu so'zlar to'plami va ularning ma'lum bir tizimni tashkil etuvchi assotsiatsiyalarning boshlang'ich funksiyalari¹⁷³.

Leksika – lug'at va leksik birliklardan iborat. Maktabda o'rganiladigan leksik birliklarning soni har xil turdagi maktablar uchun chet tili dasturi bilan belgilanadi. Ushbu hajm 450 leksik birlikdan 1200 leksik birlikgacha bo'lishi mumkin¹⁷⁴.

Leksik birlik va so'z bir xil narsa emas. Har bir so'z leksik birlikdir. Biroq, har bir leksik birlik so'z emas. Leksik birliklar butun yoki alohida bo'lishi mumkin. Butun leksik birliklar so'zlar deyiladi¹⁷⁵.

¹⁶⁸ Бухбиндер В.А. Основы обучения лексике в средней школе (на материале немецкого языка)/ В.А. Бухбиндер.- Киев, 1971. – 558с.

¹⁶⁹ Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводиактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с.

¹⁷⁰ Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с.

¹⁷¹ Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. -Н. Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005.-299 с.

¹⁷² Николаева Н.В. Образовательные квест-проекты как метод и средство развития навыков информационной деятельности у учащихся // Вопросы Интернетобразования. – 2002. – № 7.

¹⁷³ Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. -Н. Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005.-299 с.

¹⁷⁴ Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводиактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с.

¹⁷⁵ Филатов М.В. Методика обучения иностранным языкам в основной общеобразовательной школе: Учебное пособие для студентов педагогических колледжей/ Серия «Среднее профессиональное образование». – Ростов н/Д: «Феникс», 2004. – 416с.

Leksik birlikni bilish, ehtimol yozma yoki og‘zaki shaklni tanib olishni va uning ma’nosini bilishni o‘z ichiga oladi. Ammo leksik birliklar ancha murakkab bo‘lishi mumkin, shuningdek, leksik birlikni qachon va qanday qilib to‘g‘ri ishlatilishini bilishni ham o‘z ichiga oladi.


Richard, Malvern, Milton, Daller¹⁷⁶ va boshqa olimlar leksik bilimlarini ajratib olish va ushbu bilimlar uch o‘lchov bilan tavsiflanishi mumkinligini ta’kidlashgan. Ularning fikricha leksik bilimlarini qo‘yidagicha tasniflagan: *kenglik, chuqurlik va ravonlik*. “Ravonlik talabaning o‘zi biladigan leksik birliklarni tanlash va ulardan foydalanish qulayligi va tezligini, shunchaki leksik birliklarni tanib olish va ulardan qanday foydalanish haqida bilishidan ajratib turadi”. Miltonning¹⁷⁷ fikricha [b.150]. Tilni yaxshi bilish - bu avvalgi til bilimlariga asoslanib, hech qanday ko‘rsatmalardan foydalanmasdan, erkin foydalanish haqida so‘zlashish qobiliyatidir, bu esa leksik birliklarni bilishning ko‘p jihatlaridan, ehtimol ongsiz ravishda xabardor bo‘lishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bu suhbat yoki yozish vazifasidagi leksik birliklarning tezligi va maqsadga muvofiqligini anglatadi.

Neshinning¹⁷⁸ taklifi biror bir leksik birlikni bilish qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi.

¹⁷⁶ Richards, B., Daller, M., Malvern, D., Meara, P., Milton, J., & Treffers-Daller, J. (Eds.). (2009). *Vocabulary studies in first and second language acquisition: The interface between theory and application*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.

¹⁷⁷ Milton, J. (2009). Measuring second language vocabulary acquisition, *Vol. 54, Bristol: Multilingual Matters*.

¹⁷⁸ Nation, I. S. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Ernst Klett Sprachen



Xorijiy tillardagi yangi leksik birliklarni o'rganishni osonlashtiradigan bir nechta umumiy tamoyillar ham mavjud bo'lib buni olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida sanab o'tishgan.

1. Dars mavzusi doirasida yangi so'zlarni o'rgatish va talabalardan yangi so'zdan foydalanishni talab qilish Ellis va Farmer¹⁷⁹ [1996-2000].
2. Yangi leksik birliklarning to'g'ri talaffuzini eshitish va uni baland ovoz bilan mashq qildirish. Fay va Kulter¹⁸⁰ [1977].
3. Talabalarga tez-tez uchrab turadigan leksik birliklarning qismlarini o'rgatish - ildiz so'zlari, asosiy so'zlar, prefikslar va qo'shimchalar Jones¹⁸¹ [1999].
4. Talabalarga so'zlarning o'zaro bog'liqligini tushuntirish va tushunishlariga yordam berish uchun turli xil klasterlardagi so'zlarni o'rgatish Marinak¹⁸² va boshqa olimlar [1997].
5. Yangi leksik birliklarning ma'nosi bilan bog'liq misollarni / ishlatilish va ishlatilmaydiganlarni aniqlash Ellis va Farmer¹⁸³ [1996-2000].

¹⁷⁹ Ellis, E. S., & Farmer, T. (1996-2000). *The clarifying routine: Elaborating vocabulary instruction*. [On-line]. Available: http://www.ldonline.org/ld_indepth/teaching_techniques/ellis_clarifying.html.

¹⁸⁰ Fay, D., & Culter, A. (1977). Malapropisms and the structure of the mental lexicon. *Linguist Inquiry*, 8(III), 505-520.

¹⁸¹ Jones, S. (1999). *Multisensory vocabulary – guidelines and activities*. [On-line]. Available: <http://www.resourceroom.net/myarticles/vocabulary.htm>.

¹⁸² Marinak, B. A., Moore, J. C., Henk, W. A., & Keepers, M. (1997). *Reading instructional handbook*. [On-line]. Available: <http://langue.hyper.chubu.ac.jp/jalt/pub/tlt/98/jan/hunt.html>.

¹⁸³ Ellis, E. S., & Farmer, T. (1996-2000). *The clarifying routine: Elaborating vocabulary instruction*. [On-line]. Available: http://www.ldonline.org/ld_indepth/teaching_techniques/ellis_clarifying.html.

6. Talabalarga yangi leksik birliklarni o'zlariga tanish bo'lgan narsalar bilan bog'lashda yordam berish Ellis va Farmer¹⁸⁴[1996-2000].

7. Talabalarga yangi leksik birliklar bilan bog'liq bo'lgan asosiy g'oyani aniqlab olishlari va uning yanada kengroq, umumiyroq asosiy g'oyasini aniqlaydigan ba'zi ma'lumotlarni tanib olishlari uchun yangi atama ta'rifini qayta tuzish imkoniyatlarini taqdim etish Ellis va Farmer¹⁸⁵ [1996-2000].

8. Talabalarga o'quv jarayoniga faol jalb etiladigan turli xil o'qitish metodlari va usullari yordamida yangi so'z boyliklarini oshirish imkoniyatini berish (Yellis & Farmer, 1996-2000)(Ellis & Farmer).

1986 yilda ukrainalik metodistlar "Chet tillarni o'qitish metodikasi asoslari"¹⁸⁶ni nashr qildirgan va u kitobda leksik birliklarni o'qitishning etti tamoyilini taklif qilishgan:

1. So'z boyligining minimal miqdorini oqilona cheklash;
2. Ta'lim jarayonida leksik birliklarning yo'naltirilgan taqdimoti;
3. Lug'aviy birliklarning lingvistik xususiyatlarini hisobga olish;
4. O'qitishning didaktik va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
5. Asosiy didaktik va uslubiy muammolarni kompleks hal etish;
6. Leksik qoidalarga tayanish;
7. Lug'at va nutq faoliyatini o'rgatish birligi.

A.A. Mirolyubov¹⁸⁷ ushbu tamoyillarni tahlil qilib, ularni shakllantirish muvaffaqiyatsiz deb tan olgan. U ikkinchi va uchinchi tamoyillarni ham so'z boyligi, ham grammatika bilan bog'lash mumkin deb hisoblagan, to'rtinchi va beshinchi tamoyillar boshqa o'quv fanlari uchun xarakterlidir deb ta'kidlaydi. Ammo, shunga qaramay, taklif qilingan tasnif leksik birliklarni o'qitish uslublarini rivojlantirishda muhim qadam bo'lgan.

Neshin¹⁸⁸ so'z boyligini o'rganishning to'rtta tamoyilini belgilab berdi:

1. Tilning minimallashtirish tamoyili;
2. leksik birliklarni o'zlashtirish maqsadiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuv tamoyili;
3. leksik birliklar, so'z birikmalari va nutq faoliyati turlarini o'zaro bog'liq holda o'rganish tamoyili;

¹⁸⁴ Ellis, E. S., & Farmer, T. (1996-2000). *The clarifying routine: Elaborating vocabulary instruction*. [On-line]. Available: http://www.ldonline.org/ld_indepth/teaching_techniques/ellis_clarifying.html.

¹⁸⁵ Ellis, E. S., & Farmer, T. (1996-2000). *The clarifying routine: Elaborating vocabulary instruction*. [On-line]. Available: http://www.ldonline.org/ld_indepth/teaching_techniques/ellis_clarifying.html.

¹⁸⁶ Основы методики преподавания иностранных языков. Киев, 1986. С. 173.

¹⁸⁷ Миролюбов А.А. История отечественной методики обучения иностранным языкам. М., 2002. С. 41.

¹⁸⁸ Nation I.S.P. Vocabulary // Practical English Language Teaching / D. Nunan ed. N.Y., 2003. P. 12

4. tafakkurni o‘z ichiga olgan onglilik tamoyili;

Umuman olganda, V.B.Vepreva Neshinning tamoyilini inobatga olgan holda, o‘zining bir nechta muhim tamoyillarni qo‘shgan:

1. Ko‘rinishlilik tamoyili;
2. Ona tilini hisobga olish tamoyili;
3. Konsentrizm tamoyili; (Leksik grammatik materialni til bilan taqsimlash tamoyili va tizimi, unda o‘quv materialni o‘qishning turli bosqichlarida turli darajadagi tarkibda bir necha marta takrorlanadi)
4. Leksik ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda bosqichma-bosqichlik tamoyili;
5. Shaxslararo muvofiqlashtirish tamoyili;
6. Ta‘limning kasb-hunar yo‘nalishidagi tamoyili¹⁸⁹.

Chet tili nutqining leksik tomonini o‘rgatishning mazmuni leksik bilimlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin - bu asosiy tushunchalar (ildiz, prefiks, qo‘shimchalar), so‘z shakllanish turlari (so‘z shakllanishi, so‘z ishlab chiqarish, konversiya) haqida bilim, lug‘at turlari va boshqalar.

Rogova o‘z ilmiy ishlarida ta‘kidlaganidek chet tili lug‘atining leksik tomonlarini o‘qitish tarkibidagi psixologik tarkibiy qism quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

a) talabalarning qiziqishlarini hisobga olish, nutqning ushbu tomonini o‘zlashtirish motivlarini yaratish;

b) maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish, masalan, lingvistik taxminlar (so‘zlarning ma‘nosini ona tili so‘zlari bilan taqqoslash asosida kontekst bo‘yicha, so‘z yasash elementlari bo‘yicha aniqlash);

v) leksik ko‘nikmalarning ikki turini shakllantirish - ekspresiv va retseptiv, tillar va nutq, so‘z ishlatish va so‘z yaratish;

d) leksik ko‘nikmalarning boshqalar bilan o‘zaro ta‘sirining tabiati (grammatik, fonetik)¹⁹⁰.

Shunday qilib, so‘z boyligini yanada samarali o‘rganish uchun didaktik (onglilik, ravshanlilik, shaxslararo muvofiqlashtirish), lingvistik (tilni minimallashtirish, kontsentrizm), psixologik (leksik ko‘nikmalar va qobiliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish) va uslubiy (ona tilini hisobga olish), so‘z boyligini va nutq faoliyati turlarini o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rgatish, so‘z birikmalarini

¹⁸⁹ Вепрева Татьяна Борисовна. Лексика В Обучении Иностранному Языку. УДК [37.012+811.111+81’373](045)

¹⁹⁰ Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранному языку в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с.

egallash maqsadiga qarab tabaqalashtirilgan yondashuv, kasbiy yoʻnalish) bir-biri bilan uzluksiz aloqada ishlaydigan tamoyillar.

Bim taʼkidlaganidek ogʻzaki nutqning leksik tomonini oʻqitishdan maqsad ogʻzaki nutqni amalga oshirish uchun qurilish materialini, yaʼni umuman tushunchalarni, fikrlarni etkazishning bevosita vositalarini oʻzlashtirishdir¹⁹¹.

Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni taʼkidlash kerakki, soʻz boyligi tilning nihoyatda muhim jihati boʻlib, chet tilida muloqot qilish qobiliyati leksik koʻnikma va malakalarning shakllanish darajasiga bogʻliq. Lugʻatni oʻrganish juda katta va koʻp vaqt talab qiladigan vazifa boʻlib, uni oʻqitish tamoyillarini toʻgʻri qoʻllash ijobiy natijani kafolatlaydi.

A. Joʻrayev taʼkidlaganidek nutq faoliyatini amalga oshirish uchun qiyinchilik tugʻdiradigan metodik muammolardan biri talabalarning soʻzlarni notoʻgʻri tanlab ishlatishlaridir. Chet tilda nutq hosil qilish jarayonida soʻzni oʻsha tilda gapiruvchilar kabi toʻgʻri ishlata olish tilni yaxshi darajada egallashning koʻrsatkichlaridan biridir¹⁹².

Jamol Jalolov “Hozirgi zamon hind -evropa tillarida leksika yarim milliongacha soʻzdan tashkil topadi. Tilda 400 - 500 ta soʻz yordamida muloqot yaratish mumkin. Maʼlumotli odam ogʻzaki va yozma fikr bayon etish uchun 3000 - 5000 ta soʻz ishlatadi¹⁹³.

J.Jalolov oʻzining “Chet til oʻqitish metodikasi”dan maʼlumki, eng kup qoʻllanadigan birinchi minglikdagi leksik birliklar oʻrtacha qiyinchilikdagi matnning 80 foizi mazmunini tushunib olish imkonini beradi, ikkinchi minglik 8-10 foiz, uchinchi 4 foiz va toʻrtinchi va beshinchi minglik bu imkoniyatni atigi 2 foizga oshiradi. Asosiy ikki mingta leksik birlik matndan 85-90 foizgacha axborot olish uchun kifoya. Biroq, yuqorida taʼkidlanganidek, bu yerda gap mavjud ilmiy mezonlarga binoan maxsus tanlanadigan leksika haqida boryapti¹⁹⁴.

Tanlash mezonlari deganda, leksikaning qiymatini aniqlashda qoʻllanadigan oʻlchov va koʻrsatkichlar tushuniladi. Uch toifa mezonlar bir-biri bilan bogʻlangan holda kullanadi:

1. hisob-kitob mezonlari
2. metodik mezonlar

¹⁹¹ Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе/ И.Л. Бим.- М.: Просвещение, 1988. - 163с.

¹⁹² А.Х.Жўраев. Испан Тилида Талабалар Коммуникатив Малакаларини Такомиллаштириш. Автореф. дис. ...докт. пед. наук. – Т.,2019.

¹⁹³ Ж.Жалолов. “Чет тил ўқитиш методикаси”. “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012

¹⁹⁴ Ж.Жалолов. “Чет тил ўқитиш методикаси”. “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012

3. tilshunoslik mezonlari.

Hisob-kitob mezonlari soʻzlarning qoʻllanishiga oid odilona koʻrsatkichlarga erishish vositasi boʻlib, ular tarkibiga koʻp qoʻllanish va keng tarqalganlik mezonlari kiradi. Koʻp qoʻllanish atamasining maʼnosi olingan manbada soʻzlarning jami ishlatilish miqdorini bildiradi. Bu mezon birinchi bor M. Uest tomonidan ishlatilgan, elliginchi yillarda uni fransuz metodistlari R. Mishea va J. Gugeneym audiovizual metodda yanada ijodiy takomillashtirishgan). Uning asl mohiyati gapiruvchi ongida naqd (ixtiyorida) turadigan soʻzlarni tanlash mezoni demakdir.

Metodik mezon esa oʻqitish maqsadi va nutq mavzularini moʻljallab qoʻllaniladigan mezonlardir. Ular orasida mavzularni hisobga olishdan tashqari tushunchalarni tasvirlash va semantik ahamiyatdagi mezonlarni uchratish mumkin.

Tilshunoslik mezonlari soʻzlarning birikishi, soʻz yasash imkoniyati, koʻp maʼnolilik, uslub jihatidan chegaralanmaganlik, sinonimlarni chegaralash (yakkalash) va gap tuzishdagi ishtiroki. Birikish mezoniga koʻpa tanlangan soʻz boshqalari bilan iloji boricha koʻprok birikmaga kira oladigan boʻlishi talab qilinadi. Soʻz yasash mezoniga binoan ulardan xosila birliklar miqdori koʻp sonli boʻlishi kerak. Koʻp maʼnoli soʻzlarni tanlashga xam alohida eʼtibor beriladi. Uslubda chegaralanmaganlik degani, tor doirada qoʻllanadigan emas, balki nutq faoliyati turlarining barchasida va turli mavzularda ishlatiladigan soʻzlarni tanlash mezoni tushuniladi. Sinonim soʻzlardan ayrimlarigina yoki sinonimik qatorning bir aʼzosigina tanlanadi. Chet til jumllarining tuzilishi uchun zaruriy hisoblanadigan yordamchi soʻzlarni tanlash ham tavsiya etiladi¹⁹⁵[b. 150]

A.N.Shamov oʻz ilmiy ishlarida taʼkidlaganidek, talaba oʻrganayotgan leksik minimum oʻz mazmuni boʻyicha bir hil emas. U aktiv leksik minimum, passiv leksik minimum va potensial soʻz boyligidan iborat.

Aktiv (samarali) lugʻat - bu talabalar ogʻzaki nutqda fikrlarini ifoda etish uchun foydalanishi kerak boʻlgan leksik birliklar. Passiv (retseptiv) lugʻat - bu chet tilidagi nutqni oʻqish va tinglash paytida talabalar tushunishi kerak boʻlgan leksik birliklar. Potensial lugʻat - bu leksik birlik boʻlib, uning mazmuni talabalar oʻzlarining ona tili bilan oʻxshashligi, soʻz yasash elementlari boʻyicha kontekst asosida taxmin qilishlari mumkin boʻlgan leksik birliklardir¹⁹⁶[299 b.].

Oʻzbek metodist olimlaridan biri J.Jalolovning taʼkidlashicha aktiv lugʻatni tanlashda hisob-kitob mezonlari va metodik guruxdagi mezonlar va tilshunoslik

¹⁹⁵ Ж.Жалолов. "Чет тил ўқитиш методикаси". "Ўқитувчи" нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012

¹⁹⁶ Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. -Н. Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005.-299 с.

mezonidagi sinonimlarni chegaralash, soʻzlarning birikishi, coʻz yasash imkoniyati va koʻp maʼnolilik mezonlari asos buladi¹⁹⁷ [b. 150].

I.V. Raxmanovning taʼkidlashicha aktiv lugʻat maʼlum prinsiplar asosida tanlanadi: chastota; tarqalishi; soʻzlarning dasturlarda belgilangan mavzularga tegishliligi; soʻzlarning birlashtirilishi; soʻz hosil qilish qiymati; soʻzning noaniqligi; uslubiy cheksizlik; soʻzning harakat qobiliyati (I.V. Raxmanov).

Passiv lugʻatni tanlash chogʻida esa hisob-kitob mezonlari va semantik qiymatga egalik va coʻz yasash imkoniyati, koʻp maʼnolilik xamda mavzuiy aloqadorlik mezonlaridan foydalaniladi. Lugʻat minimumni shakllantirish jarayonida koʻpsatilgan mezonlar oʻzapo bogʻliq boʻlishi shart¹⁹⁸ [b. 150].

Metodik tadqiqotlardan maʼlumki, chet til leksikasi tushunish qiyinchiliklarini hisobga olgan holda uchta guruhga boʻlinadi: 1) oson soʻzlar; 2) deyarli qiyin soʻzlar; 3) qiyin soʻzlar. Nutq mashqlarini tanlashda shu tamoyillariga ham tayandik.

A.X.Joʻraevning fikricha bir leksik birlikni oʻzlashtirish bir necha turga boʻlinadi:

- a) eshitganda leksik birlikni tushunish va uni talaffuz eta olish;
- b) leksik birlikning yozuv shaklini bilish va uni yoza olish;
- v) leksik birlikning morfologiyasini toʻgʻri ifodalay bilish;
- g) leksik birlikning bir necha maʼnolarini bilish va kontekstga moslab toʻgʻri ishlata olish;
- d) leksik birlikning grammatik kategoriyasini bilish;
- ye) leksik birlikning soʻz birikmasi va gap tuza olishini bilish;
- j) leksik birlikni maʼno (sinonimlar, omonimlar) jihatdan ishlata olish;
- z) leksik birliklarni birikmalarda ishlata olish;
- i) leksik birlikning tez-tez ishlatilish sohasini bilish;
- k) leksikbirlikning qanday madaniy axborotni yetkaza olayotganligini bilish;
- l) leksik birlikning boshqa tillardagi ekvivalentlarini bilish¹⁹⁹.

V. A. Buxbinder esa oʻz ilmiy ishlarida leksik birliklarni oʻrganishni quyidagicha tasniflaydi: a) leksik birlik semantikasiga oid bilimlar; b) soʻz maʼnosining tuzilishini bilish; v) soʻz shakllarini shakllantirish va ushbu soʻz shakllarini oʻzgartirish qoidalarini bilish; d) leksik birliklarni bir-biri bilan birlashtirish

¹⁹⁷ Ж.Жалолов. "Чет тил ўқитиш методикаси". "Ўқитувчи" нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012

¹⁹⁸ Ж.Жалолов. "Чет тил ўқитиш методикаси". "Ўқитувчи" нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012

¹⁹⁹ А.Х.Жўраев. Испан Тилида Талабалар Коммуникатив Малакаларини Такомиллаштириш. Автореф. дис....докт. пед. наук. – Т.,2019.

qoidalarini bilish (leksik va grammatik valentlik); e) ro'yxatdan o'tish qoidalarini (uslubiy farqlash), ya'ni leksik birliklarning ta'riflari / ko'lami; f) chet tilidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib beradigan tillararo leksik qoidalar; g) leksik tushunchalarni bilish²⁰⁰.

2009 yil MA leksik birliklarni o'rganish strategiyasini tasniflashda muqobil jarayonga yo'naltirilgan yondashuvni taklif qilingan. U leksik birliklarni o'zlashtirish bosqichlarini quyidagicha umumlashtirdi:

1. Yangi leksik birlik turli xil kontekstlar orqali uchraydi;
2. Leksik birliklarning ma'nosi aniqlanadi;
3. Leksik birliklarning ma'nosi va shaklining turli jihatlari o'rganiladi;
4. Leksik birlik haqidagi ma'lumotlar yozib olinadi yoki tartibga solinadi;
5. Leksik birlik ba'zi bir strategiyalar yordamida yodlanadi;
6. Leksik birlik xotirada saqlanib qolishini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqiladi;
7. Leksik birlik yana uchrashganda, u yana takrorlanadi;
8. Leksik birlikni xotirada mustahkamlash uchun ishlatiladi²⁰¹. (164-bet)

Tadqiqotimizda Jamol Jalolov ta'kidlagan leksikani tanlash (tanlash manbai) tushunchasiga amal qildik.

2004 yil Fol o'z ilmiy ishida Martinning(1984) shunday so'zlarini ta'kidlaydi, har qanday tilda so'zlashuvchilar o'zlarining so'z boyliklarini tinglash va o'qish orqali kontekstdan oladi, chunki ular "vaqt o'tishi bilan turli xil mazmunli sharoitlarda so'zlarga ta'sir qilishning hashamati"ga ega²⁰² (73-bet).

Leksik birlik bo'yicha ma'lumot va o'qishni tushunish bir-biri bilan chambarchas bog'liq: so'z boyligi bo'yicha chuqur ma'lumotga ega bo'lgan talabalar matnlarni yaxshiroq tushunishadi va shu bilan birga o'qish so'z boyligini oshirish manbalaridan biridir. Muvaffaqiyatli talaba bo'lish uchun talaba o'qishda uchraydigan noma'lum so'zlar bilan shug'ullanishi kerak. Kontekstdan so'zlarni o'rganishi talabalarga o'qishdan yangi so'zlarni tushunishga va tez o'zlashtirishiga yordam beradi.

Leksik birlik yordamida nutqning mazmun tomoni uzatiladi va idrok qilinadi. Leksik birlik bizning nutqimizning asosiy qurilish materialidir, shuning uchun xorijiy

²⁰⁰ Основы методики преподавания иностранных языков/Под ред. В. А. Бухбиндера, В. Штрауса. - Киев: Вища школа, 1986. - 335 с.

²⁰¹ Ma, Q. (2009). *Second language vocabulary acquisition*. Bern: Peter Lang AG, International Academic Publishers.

²⁰² Folse, K. (2004). *Vocabulary myths: Applying second language research to classroom teaching*. Ann Arbor: University of Michigan Press.(pp 73)

tilni o'zlashtirish uchun leksik birlikning o'zni fonetika va grammatika kabi muhim ahamiyatga ega.

Talabalar leksik birliklarning ma'nosi va shakllarini o'rganishlari va ulardan og'zaki va yozma nutqning turli vaziyatlarida foydalana olishlari kerak, ya'ni, gapirish va yozish paytida hosil bo'lgan matnni leksik ravishda tuzish ko'nikmalarini o'zlashtirish; leksik birliklarni o'qish paytida tushunishni o'rganishlari lozim.

Ivanovning ta'kidlashicha yetarlicha leksik birlikni o'rgangan talaba nutq va yozishni amalga oshirishda quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

- a) samarali ko'nikmalar;
- b) qabul qilish qobiliyatlari (tinglash, o'qish);
- v) so'z boyligi sohasidagi ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalar;
- d) lug'at sohasidagi lingvistik bilimlar²⁰³.

Rogova G. V. leksik birliklarni o'qitish tartibining uchta tarkibiy qismini ajratib ko'rsatdi.

1. Lingvistik komponent;
2. Psixologik komponent;
3. Metodik komponent²⁰⁴;

Belyaevning ta'kidlashicha, leksik bilimlar nutq faoliyatining barcha turlari asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishni ta'minlaydi. Leksik bilim nafaqat chet tili so'zi haqida lingvistik ma'lumotlar to'plami, balki so'z bilan harakat dasturlarini bilishdir. Og'zaki nutqni (tinglash va gapirish) va o'qishni o'zlashtirish "nutq qobiliyatisiz mumkin emas". Ushbu jarayonda leksik ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega. Mashqlar natijasida avtomatizmga olib kelingan lingvistik hodisaga ega bo'lgan mahorat-harakat. Leksik komponentning etakchi roli umuman chet tilini o'qitish mazmuni tarkibida belgilanadi²⁰⁵.

Nutq faoliyatining har xil turlari leksik ko'nikmalarini tahlil qilish ularning ma'lum bir ierarxik tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tarkibiy tuzilmalarda leksik ko'nikmalarga asos bo'lgan umumiy, har xil va o'ziga xos operatsiyalarni

²⁰³ Иванова Т.В., Киреева З. Р., Сухова И.А. Технологии и методики обучения иностранным языкам: учебное пособие для студентов направления «Филологическое образование». Часть 1 [Текст]. – Уфа:Издательство БГПУ, 2009. – 196с.

Колесникова И.Л., Долгина О.А. Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков. Спб.: Изд-во «Русско-балтийский информационный центр «БЛИЦ»», «Cambridge University Press», 2001. – 224с.

²⁰⁴ Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с.

²⁰⁵ Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам/ Б.В. Беляев. - М.: Просвещение, 1965. - 227с

ajratish mumkin. Bunday operatsiyalar majmui leksik ko'nikmalar turiga, nutq faoliyati turiga bog'liq bo'lib, ular semantik tarkibiy qism sifatida ishlaydi.

Shamov ta'kidlaganidek, leksik ko'nikmalar kuchli va barqarordir, qachonki ular ustida o'zaro bog'liqlikda va tizimda ishlansagina²⁰⁶. Leksik ko'nikmalarning mustahkamligi va barqarorligiga nafaqat ko'nikmalarning bir-biri bilan o'zaro ta'siri, balki leksik ko'nikmalarning boshqalar bilan o'zaro ta'siri (fonetik va grammatik) ham ta'sir qiladi.

Talabalarning intellektual rivojlanish darajasining oshishi bilan nutq qobiliyatlari, shu jumladan leksik ko'nikmalarini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Shatilovning fikricha talabalar leksik ko'nikmalarni rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o'tadi: a) orientatsiya-tayyorgarlik; b) stereotip-situatsion; c) o'zgaruvchan-vaziyatli²⁰⁷.

R.K. Minyar-Beloruhevning ta'kidlaganidek, leksik ko'nikmalarni shakllantirish 3 bosqichdan o'tadi: 1) tanishtirish 2) o'qitish va 3) nutq amaliyoti.

Birinchi bosqich, kirish, yangi leksik birliklarning kiritilishi. Leksik ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar yangi leksik birliklarning allaqachon o'rnatilgan aloqalarini mustahkamlash, shuningdek ularni kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi²⁰⁸.

E.I. Passov leksik ko'nikmalarni shakllantirishning oltita bosqichini ajratib ko'rsatgan. U yangi leksik birlikni o'rganishning oltita bosqichini ko'rib chiqadi²⁰⁹:

1. so'zni talaffus qilganda, uning ishlash jarayonida so'zni idrok etish;
2. so'z ma'nosidan xabardor bo'lish;
3. so'zni alohida yoki gap tarkibida taqlid qilish
4. so'z bilan belgilanadigan ob'ektlarni belgilash, o'z nomini berish
5. kombinatsiya (so'z yangi birikmalarga kiradi);
6. so'zning turli xil sharoitlarda ishlatilishi²¹⁰.

Ishlab chiqaruvchi va qabul qiluvchi xarakterdagi leksik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni bilan bir qatorda talabalarda leksik kompetensiya shakllanmoqda - talabalar so'zning kontekstual ma'nosini aniqlash, uning hajmini

²⁰⁶ Шамо́в А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. -Н. Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005.-299 с.

²⁰⁷ Шатилов С.Ф. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. - М.: Просвещение, 1986. – 223с.

²⁰⁸ Миньяр-Белоручев Р. К. Методика обучения французскому языку. –М.: Просвещение, 1990. – 11 с.

²⁰⁹ Пассов Е.И.Сорок лет спустя или сто и одна методическая идея. – М.: Глосса-Пресс, 2006. – 240 с.

²¹⁰ Азимов Э. Г., Шукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.

ikki tilda taqqoslash va unda o'ziga xos milliy, xarakterli xususiyatlarni aniqlash qobiliyati shakllanadi va ushbu tilda so'zlashadigan odamlar madaniyatini yaxshiroq o'rganishga imkon beradi.

Sifatli shakllangan leksik ko'nikmalar chet tilida muvaffaqiyatli muloqot qilishning kalitidir, chunki ular chet tilini o'qitish mazmunining zarur elementidir.

Leksik ko'nikmalar nutqning leksik tomonini ifodalaydi, ular nutq ko'nikmalarining ajralmas qismi bo'lib, tilning aloqa vositasi sifatida foydalanilishini ta'minlash uchun zamin yaratadi.

XULOSA

Shunday qilib, so'z boyligi tilning nihoyatda muhim jihati bo'lib, chet tilida muloqot qilish qobiliyati leksik ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasiga bog'liq. Lug'atni o'rganish juda katta va ko'p vaqt talab qiladigan vazifa bo'lib, uni o'qitish tamoyillarini to'g'ri qo'llash ijobiy natijani kafolatlaydi. So'z boyligini yanada samarali o'qitish uchun didaktik (ong, ravshanlik, mavzulararo muvofiqlashtirish), lingvistik (tilni minimallashtirish, konsentrizm), psixologik (leksik ko'nikmalar va qobiliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish) va uslubiy (ona tilini hisobga olish) zarur, so'z birikmasi va nutq faoliyati turlarini o'zaro bog'liq ravishda o'rgatish kerak.

Shuningdek, tanlash mezonlari, leksikaning taqsimoti va leksikaning tasnifini hisobga olinib, ishchi dastur hamda fan dasturlarida 1-2 kurslarning kommunikativ leksika darslarining mavzulariga mos ravishda leksik birliklarini tanladik va shu leksik birliklar asosida mashqlar tizimini ishlab chiqdik. Chet tilni o'qitishda markaziy o'rinni mashqlar egallaydi. Mashqlarni to'g'ri tanlash va ishlatishdan chet tilni amaliy egallashning samaradorligi kelib chiqadi.

REFERENCES

1. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.
2. Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. -Н. Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005.-299 с.
3. Шатилов С.Ф. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. - М.: Просвещение, 1986. – 223с.
4. Миньяр-Белоручев Р. К. Методика обучения французскому языку. –М.: Просвещение, 1990. – 11 с.

5. Пассов Е.И. Сорок лет спустя или сто и одна методическая идея. – М.: Глосса-Пресс, 2006. – 240 с.
6. Иванова Т.В., Киреева З. Р., Сухова И.А. Технологии и методики обучения иностранным языкам: учебное пособие для студентов направления «Филологическое образование». Часть 1 [Текст]. – Уфа: Издательство БГПУ, 2009. – 196с.
7. Колесникова И.Л., Долгина О.А. Англо-русский терминологический справочник по методике преподавания иностранных языков. Спб.: Изд-во «Русско-балтийский информационный центр «БЛИЦ»», «Cambridge University Press», 2001. – 224с.
8. Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с.
9. Беляев Б.В. Очерки по психологии обучения иностранным языкам/ Б.В. Беляев. - М.: Просвещение, 1965. - 227с
10. Folse, K. (2004). *Vocabulary myths: Applying second language research to classroom teaching*. Ann Arbor: University of Michigan Press.(pp 73)
11. А.Х.Жўраев. Испан Тилида Талабалар Коммуникатив Малакаларини Такомиллаштириш. Автореф. дис....докт. пед. наук. – Т.,2019.
12. Основы методики преподавания иностранных языков/Под ред. В. А. Бухбиндера, В. Штрауса. - Киев: Вища школа, 1986. - 335 с.
13. Ma, Q. (2009). *Second language vocabulary acquisition*. Bern: Peter Lang AG, International Academic Publishers.
14. Ж.Жалолов. “Чет тил ўқитиш методикаси”.”Ўқитувчи”нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012
15. Ж.Жалолов. “Чет тил ўқитиш методикаси”.”Ўқитувчи”нашриёт-матбаа ижодий уйи Тошкент 2012
16. Jones, S. (1999). *Multisensory vocabulary – guidelines and activities*. [On-line]. Available: <http://www.resourceroom.net/myarticles/vocabulary.htm>.
17. ¹Marinak, V. A., Moore, J. C., Henk, W. A., & Keepers, M. (1997). *Reading instructional handbook*. [On-line]. Available: <http://langue.hyper.chubu.ac.jp/jalt/pub/tlt/98/jan/hunt.html>.
18. Gu, Y. (2005). *Vocabulary learning strategies in the Chinese EFL context*. Singapore: Marshall Cavendish Academic.
19. Laufer, B. (2000). Task effect on instructed vocabulary learning: The hypothesis of ‘involvement.’ In AILA ’99 Tokyo Organizing Committee (Ed.),

Selected papers from AILA '99 Tokyo (pp. 47–62). Tokyo, Japan: Waseda University Press.

20. Nation, I. S. P. (2008). *Teaching vocabulary: Strategies and techniques*. Boston, MA: Heinle and Heinle.

21. Schmitt, N. (2010b). *Researching vocabulary: A vocabulary research manual*. Basingstoke, England: Palgrave Macmillan.

22. Бабинская П.К., Т.П. Леонтьева, И.М. Андреасян, А.Ф. Будько, И.В. Чепик. Практический курс методики преподавания иностранных языков: Учебное пособие. – 3-е издание, дополненное и переработанное. – Мн.: ТетраСистемс, 2005. – 288с.

23. Бим И.Л. *Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе/ И.Л. Бим.- М.: Просвещение, 1988. - 163с*

24. Бухбиндер В.А. Основы обучения лексике в средней школе (на материале немецкого языка)/ В.А. Бухбиндер.- Киев, 1971. – 558с.

25. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводиалектика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с.

26. Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с.

27. Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. -Н. Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005.-299 с.

28. Николаева Н.В. Образовательные квест-проекты как метод и средство развития навыков информационной деятельности у учащихся // Вопросы Интернетобразования. – 2002. – № 7.

MILLATLARARO MUNOSABATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI

Ravshanova Gulhayo Abdikaxarovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mashinalarini mexanizatsiyalash
instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Millatlararo munosabatlar masalasi har qanday demokratik davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bugungi globallashuv, o'zaro bog'liqlik millatlararo bog'rikenglik masalasini yanada nozik masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Millatlararo munosabatlarga noto'g'ri, bir tomonlama yondoshuv ko'plab salbiy oqibatlar, xattoki katta urushlarni ham keltirib chiqarganiga tarixdan ham, bugungi kundan ham ko'plab misollarni keltirish mumkin. Buning oldini olish uchun davlat siyosati tolerantlikka asoslanishi lozim. Mazkur maqolada tolerantlikka asoslangan davlat siyosatini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli, asosiy vazifalari o'rganilgan. Tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

***Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, millatlararo munosabatlar, tolerantlik, etnosiyosat, teng huquqlilik, o'zini o'zi boshqarish.*

АННОТАЦИЯ

Вопрос межнациональных отношений - одно из главных направлений любой демократической государственной политики. Сегодняшняя глобализация, взаимозависимость поднимают вопрос межэтнической терпимости как более чувствительный вопрос. В истории и сегодня есть много примеров того, что неправильный, односторонний подход к межнациональным отношениям привел к множеству негативных последствий, вплоть до крупных войн. Чтобы предотвратить это, государственная политика должна основываться на толерантности. В статье исследуются роль и основные задачи институтов гражданского общества в реализации государственной политики, основанной на толерантности. Разработаны соответствующие предложения и рекомендации.

***Ключевые слова:** гражданское общество, институты гражданского общества, межэтнические отношения, толерантность, этнополитика, равенство, самоуправление.*

ABSTRACT

The issue of interethnic relations is one of the main directions of any democratic state policy. Today's globalization, interdependence, raises the issue of interethnic

tolerance as a more sensitive issue. There are many examples from history and today that the wrong, one-sided approach to interethnic relations has led to many negative consequences, even major wars. To prevent this, public policy must be based on tolerance. This article examines the role and main tasks of civil society institutions in the implementation of public policy based on tolerance. Relevant suggestions and recommendations have been developed.

Keywords: *civil society, civil society institutions, interethnic relations, tolerance, ethnopolitics, equality, self-government.*

KIRISH

Fuqarolik jamiyatida har bir shaxs hamma vaqt ham davlat bilan bevosita munosabatlarga kirishavermaydi. Fuqarolarning turli tuman uyushmalari, jamoalari mavjud bo‘ladi, ular orqali fuqarolar o‘z manfaatlarini, huquq va erkinliklarini muhofaza qiladilar, buzilgan huquqlarini tiklashda davlat idoralari bilan munosabatga kirishadilar. Ularning asoslari Konstitutsiyada, “Fuqarolik kodeksi”, “Mehnat kodeksi”, “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”, “Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”, “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”, “Davlat idoralarining fuqarolar huquqlarini kamsituvchi g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish tartibi to‘g‘risida” kabi qonunlarda belgilab berilgan.

Fuqarolik jamiyatida davlat hokimiyati bilan fuqaro (fuqaroviy uyushmalar, guruhlar hamda jamoat birlashmalari) o‘zaro teng, huquqiy (shuningdek, siyosiy-iqtisodiy) munosabatlarning erkin ishtirokchilari hisoblanadi. Bunday jamiyatning siyosiy asosini huquqiy davlat va unga bog‘liq demokratik siyosiy tuzum, iqtisodiy zaminini esa xususiy mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyoti tashkil qiladi. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismlari va institutlari bo‘lmish oila, maktab, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (mahalla), diniy muassasalar, jamg‘armalar, uyushma va ittifoqlar va boshqalarning huquqiy maqomi asoslari mustahkamlab qo‘yilgan.(1) Jamoatchilik g‘oyalari, xalq, elatlar manfaatlarini mahalla yaxshi biladi. Shu bois, jamiyatda barqarorlikni, totuvlikni, ijtimoiy adolatni ro‘yobga chiqarishda mahallaning o‘rni beqiyosdir. Mahalla hozir millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning eng ta’sirchan instituti bo‘lib bormoqda.(2) Bugun respublikamizda aholining barcha qatlamlarini birlashtirgan 62 ta jamiyat, 4 ta qo‘mita, 32 assotsiatsiya, 21 ta tarmoq kasaba uyushmalari, 38 ta jamg‘arma, 15 uyushma, 32 ta federatsiya, 1500 ta mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoat

birlashmalari, 70 ta xorijiy mamlakatlarning jamoat va nohukumat tashkilotlari va ularning vakolatxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliy-etnik jarayonlar jamiyatda kechayotgan islohotlardan, ijtimoiy munosabatlar va demokratik o'zgarishlardan alohida ro'y bermaydi, millatlararo munosabatlar umumijtimoiy voqelikning tarkibiy qismi sifatida ular bilan birga transformatsiyaga uchraydi, yangi shakl va mohiyat kasb etadi. Fuqarolik institutlari jamiyat rivojlanishining yo'nalishlarini belgilab berganidek, ularning o'zi ham ijtimoiy, shuningdek, millatlararo munosabatlarning mahsulidir. Ijtimoiy jarayonlar bilan milliy-etnik munosabatlar o'rtasidagi mazkur dialektik bog'liqlik hech qachon tekis, hamma etnoslarda aynan o'xshash kechmagan. Milliy-etnik jarayonlarni bunday sxematik, sodda tushunish murakkab milliy munosabatlar va ularning ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liqligidagi o'ziga xoslikni, betakrorlikni chuqur anglashga, tadqiq etishga xohish yo'qligi yoki ilmiy metodologiyaning reallik oldidagi zaifligidir. Biroq etnopluralizm milliy-etnik jarayonlarni rasional tashkil etuvchi va boshqaruvchi sub'ektlar, markaz va yadrolar bo'lishi shartligini inkor qilmaydi. Etnopluralizm shunday sub'ektlarning e'tiboridan chekkada qolgan zahoti jamiyatda boshboshdoqlik, xaos, oxir natijada nizolar tug'iladi.(3) Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatida amal qiladigan sub'ektlar – siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari huquqiy talablarga qat'iy rioya etishi shart. Aynan shu tarzda ular demokratik, huquqiy qadriyatlarni hayot tarziga aylantirishga hissa qo'shadilar (4). Bu borada juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Ularning deyarli barchasida siyosiy-ijtimoiy institutlarning yetakchilik roli tan olinadi. Qonunlarga yangicha ruh bag'ishlash, me'yoriy hujjatlarni davr talabi asosida ko'rib chiqish, inson huquqlarini ta'minlash Oliy Majlis - milliy Parlament faoliyatida asosiy o'rin egallab kelmoqda. Qonunlarni ishlab chiqishda u asosiy e'tiborini inson huquqlariga qaratadi. Chunki qonun hamma uchun majburiy bo'lmog'i, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va barcha fuqarolar qonunga asosan ish ko'rishlari talab etiladi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Respublika hududida qonunlar bir xil qo'llanilishini, barcha fuqarolar qonun oldida tengligini kafolatlaydi. Bu haqda Konstitutsiyaning 18-moddasida shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir". (5)

Fuqarolik jamiyatida amal qiladigan qonunlar uni, ya'ni fuqarolik jamiyatini huquqiy demokratik davlat bilan strategik maqsadi hamda funksional xususiyatlariga muvofiq yaqinlashtiradi. X.T.Odilqoriev va Sh.U.Yakubov yozganidek: "huquqiy davlat fuqarolik jamiyatiga qarama-qarshi qo'yilmaydi. Ular bir-birining rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar hisoblanadi". (7) Millatlararo munosabatlardagi o'zgarishlar ushbu "shart-sharoitlar" asosida yuz beradi va ularga internasional, gumanistik mohiyat baxsh etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda respublikamizda qo'lga kiritilgan millatlararo totuvlikni ta'minlashda imkoniyat yaratgan chora-tadbirlar milliy o'zlikni qayta tiklash jarayonlari barqarorlikni ta'minlashda asosiy zamin bo'lgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy mexanizmlar haqida tahlillar fikr yuritish imkonini beradi. Aytish mumkinki, mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaro o'z milliy ravnaqi uchun intilishlari haq-huquqlari, ehtiyojlarini qondirish uchun millatlararo munosabatlarning huquqiy asosi yaratildi. Bu fuqarolarning tengligini va erkinligini ta'minlaydi, shuningdek, fuqarolarga teng saylov huquqini berilishi barcha fuqarolarni irqi, millati, dini va boshqa belgilaridan qat'iy nazar, qonun oldida teng deb e'lon qilinishi tufayli ularni davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun keng yo'l ochadi. Mavjud qonunchiligimizdagi mazkur qoidalar xalqaro huquq normalariga to'la mos kelib, O'zbekiston qonunlarini demokratik ruhdaligini jahon amaliyotidagi ilg'or yutuqlarni o'ziga mujassam etganidan darak beradi.

REFERENCES

1. Jumayev R.Z. Davlat va jamiyat: demokratlashtirish yo'lida. –“Sharq”, 1998.
2. Odilqoriev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: “Sharq”, 2002.
3. Абдулатипов Р.Г. Этнополитология.-СПб.: “Питер”, 2004.
4. Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий кадриятлар. – Т.: Ўзбекистон ИИВ Академияси, 2010.
5. Холмўминов Қ.Ўзбекистонда қонунийликнинг мустақамланиши.//Ҳаёт ва қонун, 1995, 6-сон.
6. Ўзбекистон РеспубликасинингКонституцияси.-Т.: “Ўзбекистон”, 2019.
7. Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий кадриятлар. – Т.: Ўзбекистон ИИВ Академияси, 2010.

NOSIRUDDIN TUSIYNING HAYOT YO'LI VA MA'NAVIY MEROSI

Umarov Muhammadjon Lazzatbek o'g'li

Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani 42-IDUM o'qituvchisi

E-mail: muhammadjonumarov344@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada arab-musulmon ijtimoiy tafakkurining mashhur vakili Nosiruddin Tusiyning hayot yo'li va ma'naviy merosi haqida ma'lumot berilgan. Abu Ja'far Muhammad Nosiruddin Tusi islom falsafasi va axloqshunosligida judakatta ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni yozgan. Mutafakkirning axloqiy qarashlari mashshoyiyuna yo'nalishi g'oyalarining an'analarini davom ettirgan.

Tayanch tushunchalar: Nosiruddin Tusi, Marog'a, astronomiya, matematika va falsafa, Baxmanyor (Kamoliddin Muso ibn Yunus), "al-Muhokamat beyn al - muxakamatayn" ("Ikki mulohaza haqida o'ylar"), Marog'a rasadxonasi, "Ziji Elxoniy", "Axloqi Nosiriy".

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о жизни и духовном наследии Насируддина Туси, видного деятеля арабо-мусульманской общественной мысли. Абу Джафар Мухаммад Насируддин Туси написал труды, имеющие большое значение в исламской философии и этике. Этические воззрения мыслителя продолжили традицию идей машхайд.

Ключевые понятия: Насируддин Туси, Марога, астрономия, математика и философия, Бахманьяр (Камолитдин Муса ибн Юнус), «аль-Мухокамат бейн аль-мухакаматайн» («Мысли о двух мыслях»), Марога обсерватория, «Зиджи Эльханый», «Ахлоки». Носири ».

ABSTRACT

The article provides information on the life and spiritual heritage of Nasiruddin Tusi, a prominent figure in Arab-Muslim social thought. Abu Jafar Muhammad Nasiruddin Tusi wrote works of great importance in Islamic philosophy and ethics. The thinker's ethical views continued the tradition of Mashhaya ideas.

Keywords: Nasiruddin Tusi, Maroga, astronomy, mathematics and philosophy, Bahmanyar (Kamoliddin Musa ibn Yunus), al-Muhokamat bein al-muhakamatayn (Thoughts on two thoughts), Maroga observatory, Zidji Elhaniy, Ahloki ". Nosiri ".

KIRISH

Mazkur maqolada arab-musulmon ijtimoiy tafakkurining mashhur mutafakkiri Abu Ja'far Muhammad Nosiruddin Tusiyning (1201-1274) hayoti, faoliyati hamda

ma'naviy merosi haqida mulohaza yuritiladi. Mutafakkirning falsafa, astronomiya, axloqshunoslik, geometriya va boshqa fanlarga doir asarlari haqida ma'lumotlar tahlil qilingan. Abu Ja'far Muhammad Nosiruddin Tusiy XIII asrda mo'g'o'l bosqini sharoitida arab-musulmon madaniyati yutuqlarini saqlab qolgan mutafakkir sifatida tarixda qoldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent Muhammadjon Qodirovning "Nasriddin Tusiyning «Axloqi Nosiriy» asari va uning tahlili" asari metodologik manba sifatida foyladanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida mutafakkirning hayoti va faoliyati hamda asarlari haqidagi ma'lumotlar obyektiv ochib berildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Abu Ja'far Muhammad Nosiruddin Tusiy Xurosonning Tus(Eron) shahrida 1201 yilning 18 fevralida tavallud topdi. Yoshligidan ilmga chanqoq bo'lgan Tusiy aniq fanlar bilan ham, axloqiy masalalar bilan ham mufassal shug'ullandi. Tusda, Bog'dodda, Ko'histon so'ngra Marog'ada (1259 yil) yashagan.

O'rta osiyolik astronom va matematik olim Tusiy Eron Ko'histonning ismoiliylar hokimi Nasriddin Muhtasham saroyida xizmat qilgan. Tusiy 1256-yilda Eronga bostirib kirgan mo'g'ul istilochilari boshlig'i Huloku saroyiga xizmatga olindi.

Tusiy o'zining mavqeidan foydalanib, Yaqin Sharq va O'rta Sharq madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bizgacha uning astronomiya, matematika va falsafaga doir asarlari etib kelgan. Uning falsafiy qarashlari Ibn Sinoning shogirdi bo'lgan Baxmanyor(Kamoliddin Muso ibn Yunus) ta'sirida shakllandi. U o'zining mashhur asari "Sharx al - ishorot" da Ibn Sinoning falsafiy qarashlarini sharhlash bilan uni musulmon ilohiyotchisi Faxriddin Roziy hamlalaridan himoya qildi. U axloq va jamiyatshunoslikka doir ko'p asarlar muallifidir.

Tusiy "al-Muhokamat beyn al - muxakamatayn" ("Ikki mulohaza haqida o'ylar") asarida musulmon mutafakkiri Abu Homid al – G'azzoliy bilan mashoiyun oqimidagi arab faylasufi Ibn Rushd o'rtasidagi bahsni tahlil qilib chiqdi. Uning taklifi bilan Ozarboyjonning qadimgi shahri Marog'ada astronomik rasadxona (1258-1259-yillar) tashkil etdi, unga mashxur olimlarni taklif etdi, boy kutubxona yaratdi va o'zi unda rahbarlik qildi.

Bu rasadxonada o'sha davrning mukammal astronomik jadvallaridan biri "Ziji Elxoniy" tuzilgan. Nasriddin butun umri davomida turli mineralogiya, tibbiyot, fizika, mantiq(logika), falsafa va boshqa sohalarga oid bir qancha asarlar yaratdi. U ko'pgina yunon olimlari asarlarini arab tiliga tarjima qilgan.

«To'liq to'rt tomonlik haqida»("Shaklul qita"), «Taxta va tuproq yordamida arifmetikadan to'plam», «Yorug'likning akslanishi va sinishi haqida risola», «Tusiyning algebra val-muqobaladagi foydalari», «Elxoniy jadvallari»("Ziji Elxoniy"), «Qimmatbaho toshlar haqida kitob», «Meditina qonunlari», mamlakatni idora qilish siyosati haqidagi fikrlarni o'z ichiga olgan. «Nasir odobi» nomli asar ham yaratgan.

Tusiyning «To'liq to'rt tomonlik haqida» (Shaklul qita) asari olti bobdan iborat:

1-bobda tuzma nisbat shunday ta'riflanadi: faraz qilaylik A,B,C miqdorlari berilgan bo'lsin. U vaqtda A ning B ga nisbati, A ning C ga nisbati, A ning B ga nisbati va B ning C ga nisbatlaridan tuzilgan. Ya'ni bunda shunday tuzma nisbatlar tuzilgan: bu ikki tuzma nisbatlaridan tashqari xuddi shunga o'xshash, yana boshqa tuzma nisbatlar tuzish mumkin.

Nasriddin Tusiy o'z nazariyasini nisbatlarni ko'paytirishdan boshlaydi. U tuzma nisbatni, shunday nisbat deb ta'riflaydiki, uning miqdori, ikki boshqa nisbat miqdorlarning ko'paytmasiga teng bo'ladi; nisbatning miqdori esa shunday qiymatni aniqlaydiki, uning biror birlikka nisbati shu nisbatning o'ziga teng bo'ladi²¹¹.

2-bob asosan tekis to'liq to'rt tomonlik shakl va uning vositasida kelib chiqadigan tuzma nisbatlar to'g'risidagi teoremlar va ularning isbotiga bag'ishlangan²¹².

3-bob tekislikda doiradagi trigonometrik munosabatlarga bag'ishlangan. 4-bob sferik to'rt tomonlik nazariyasiga bag'ishlangan. 5- va 6-boblar sferik uchburchaklar, ularning burchaklari va tomonlari orasidagi munosabatlarga va bunday uchburchaklarni yechishga bag'ishlanadi.

Bunda u yoy kosinusi, tangensi, kotangensi, sekansi va kosekansi tushunchalarini kiritadi. Uchburchaklarni yechish uchun sinuslar va tangenslar teoremlarini isbotlaydi va ulardan foydalanadi.

Nasriddin Tusiy bu asarida o'zigacha bo'lgan trigonometriya sohasidagi ishlarga yakun yasadi va trigonometriyani astronomiya fanidan ajratib, alohida fan sifatida asoslab berdi.

²¹¹ Nasriddin Tusiy "Shaklul qita" Tehron., Tehron universiteti nashri. 1986. (fors tilida). – B.112.

²¹² O'sha asar – B.115.

Nasriddin Tusiyning «Taxta va tuproq yordamida arifmetikadan to'plam» («Jomiul-hisob bit-taxti vat-turob») nomli asari katta ahamiyatga ega bo'lib. 1265-yili yozilgan. Bu asar uch bo'limdan iborat bo'lib, bular «Butun sonlar arifmetikasi», «Kasr sonlar arifmetikasi» va «Astronomiyaga tegishli hisoblar»dir.

Bu asarda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari, bu amallarni o'nlik pozitsion sanoq sistemasida bajarish qoidalari berilgan. Shuningdek, asarda sonlarni darajaga kotarish va sonlardan ildiz chiqarish amallari, ko'rsatgichi istalgan natural sondan iborat bo'lgan binom formulasini va binominal koeffitsiyentlarni aniqlash usuli va xossalari ham bayon etilgan²¹³.

Nasriddin Tusiyning astronomiyaga oid «Ziji Ilxoniy» yulduzlar jadvali Sharqda va G'arbiy Evropada mashhur edi. Nasriddin o'z ijodi bilan Yaqin va O'rta Sharqda tabiatshunoslik va axloqqa oid ta'limoti bilan muhim o'rin tutdi. U 1274 yilning 25 iyunida vafot etdi. Uning Sharqda keng tarqalgan asari «Axloqi Nosiriy» edi.

Tusiyning butun hayoti davomida 150 dan ortiq risola va maktublar yozgan. Ushbu asarlarning 25 tasi fors tilida, qolganlari arab tilida yozilgan.

Nasriddin Tusiyning kitobning yozilish sababi haqida asar debochasida shuni ta'kidlab o'tadiki, Ko'histon (arabchasi Qahastan Eron sharqida) hokimi Nosiriddin Abdurahim ibn Abi Mansur huzurida xizmatda bo'lgan davrda bir kuni shohona majlisda suhbat komil hakim va fozil ustoz Abu Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Yoqub ibn Miskavayh Xozin Roziyning (X-XI asrlarda yashagan) «Kitobul tahorat» («Poklik va pokizalik kitobi») haqida bordi. Kitob arab tilida yozilganligi sababli o'tirish qatnashchilarining ko'pchiligi uning g'oyalarini kengroq yoyish maqsadida fors tiliga tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'lishi haqida fikr bildirdilar. Hukmdor Nosiriddin Abdurahim ibn Abi Mansur bu xayrli ish bajarilishiga amr etdi. Shuning uchun kitob uning irodasini hisobga olgan holda «Axloqi Nosiriy» deb ataldi²¹⁴.

Agarchi ushbu kitob amaliy hikmat (axloq) nuqtai nazaridan oliy darajada mukammal yozilgan bo'lsa ham, ammo unda ikki qismning joyi xoli qolgan edi, ya'ni madaniy hikmat (ijtimoiy falsafa) va manziliy hikmat (uy-ro'zg'or yuritish, oilaviy iqtisod)²¹⁵.

Abu Ali Miskavayhning «Kitobul tahorat» asarining barcha mazmunini saqlagan holda, keyingi o'tgan barcha hukamolarning qarashlarini hisobga olgan holda

²¹³ Nasriddin Tusiyning «Jomiul-hisob bit-taxti vat-turob» Tehron., Tehron universiteti nashri. Hijriy 1372/1983. (fors tilida) – B. 32.

²¹⁴ Qodirov M. Nasriddin Tusiyning «Axloqi Nosiriy» asari va uning tahlili. I qism. – T.: «TEZKOR PRINT.» - 2013. – B.48.

²¹⁵ Axloqi Nosiriy. Qo'lyozma Lahordagi Naval Qushor Matbaasining sohibi Munshiy Pirog Naroin amri bilan 1906 yilning yanvarida tosh bosmaga bosildi. (fors tilida). – B. 10.

“Axloqi Nosiriy” asari vujudga keldi. Kitob boshida Sharqdagi an’analarga muvofiq dunyoni tushunish, fanlarning vazifalari va turlari haqida qisqacha to‘xtab o‘tiladi²¹⁶.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ma’lumki, biz Nasriddin Tusiyning ensiklopedik olim sifatida e’tirof etsak bo’ladi. Chunki, Nasriddin Tusiy falsafa bilan shug’ullanish barobarida astronomiya, tibbiyot, mantiq, mineralogiya hamda axloqiy masalalari bilan shug’ullangan. Bunga isbot sifatida biz uning asarlaridagi qarashlarini keltirishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Qodirov M. Nasriddin Tusiyning «Axloqi Nosiriy» asari va uning tahlili. I qism.– T.: «JAHON PRINT.» 2013.
2. Qodirov M.M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O’rta Sharqning falsafiy tafakkuri (o’rta asrlar). –T.: Tosh DSHI nashriyoti, 2010. –212 b.
3. Диноршоев М.Д. Философия Насириддина Туси. Душанбе, «Дониш». 1968.
4. Закуев А. К. Психологические взгляды Насириддина Туси. Тр. Ин-та ист. и фил. АН Азербайджана. Т. 6.-Баку, 1955
5. Идибеков Н. Этика Насириддина Туси в свете его теории свободы воли. Душане. «Дониш». 1987.
6. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//*Academic Research in Educational Sciences*, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
7. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
8. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.
9. Sulaymonov, J. Karimov, N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE)* ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.

²¹⁶ Osha asar – B.10

10. Сулаймонов, Ж.Б. Взгляды Абдуррахмана ибн Халдуна о развития общества и цивилизации// Международный научно-практический журнал “Экономика и социум”. 12 (79)2020 г. //https://iupr.ru//a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdfb.
11. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
12. O’G’Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.

YANGI O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV XODIMLARINING TUTGAN O'RNI

Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Toshkent filiali

Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va audit kafedrası assistenti

ANNOTATSIYA

Bugun "Yangi O'zbekiston", "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi" degan nomlar orqali xalqaro maydonda munosabatlarimiz silsilasida g'oyat muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yangi O'zbekistonni bu jamiyatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o'zgartirgan, yangi, demokratik qiyofaga mamlakat sifatida ko'rish uchun ham barcha soha tarmoq qatori qishloq xo'jaligini ham jahon talablariga moslash ya'ni rivojlantirish kerak. Bu vaqtda har bir soha va tarmoqlar qatorida qishloq xo'jaligi sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohaning rivojlanishi uchun mamlakatimizda yetarlicha ekologik va agrar imkoniyatlarga ega. Ushbu maqolada, Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishda boshqaruv xodimlarining tutgan o'rni haqida batafsil fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, rivojlanish, boshqaruv xodimlari, iqtisodiyot, agrar soha.*

АННОТАЦИЯ

Сегодня под названиями «Новый Узбекистан», «Новый этап развития Узбекистана» он играет важную роль в цепи наших отношений на международной арене. Чтобы увидеть новый Узбекистан как страну с новым, демократическим имиджем, полностью изменившим политические, социальные и экономические отношения в жизни нашего общества, необходимо адаптировать сельское хозяйство к миру. При этом, наряду с каждым сектором, особое внимание уделяется сельскому хозяйству. Наша страна обладает достаточным экологическим и сельскохозяйственным потенциалом для развития этой отрасли. В данной статье подробно рассматривается роль менеджмента в развитии сельского хозяйства Нового Узбекистана.

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, сельское хозяйство, развитие, менеджмент, экономика, аграрный сектор.*

ABSTRACT

Today, under the names "New Uzbekistan", "New stage of development of Uzbekistan", it plays an important role in the chain of our relations in the

international arena. In order to see the new Uzbekistan as a country with a new, democratic image, which has completely changed the political, social and economic relations in the life of our society, it is necessary to adapt agriculture to the world. At the same time, along with each sector, special attention is paid to agriculture. Our country has sufficient ecological and agricultural potential for the development of this industry. This article discusses in detail the role of management in the development of agriculture in New Uzbekistan.

Keywords: *New Uzbekistan, agriculture, development, management, economy, agrarian sector.*

KIRISH

Qishloq xo'jaligi barcha davrda eng muhim tarmoqlardan biri bo'lgan. Boisi, inson yashar ekan, oziq ovqat mahsulotlariga hamisha talab kuchli bo'ladi. Dunyo olimlarining fikriga ko'ra, 2050 yilga qadar yer yuzi aholisi 8 milliarddan ortadi. Bu esa oziq ovqatga bo'lgan talabning bir necha barobar ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa ko'pchilik ekspertlarni xavptirga solmoqda. Ayni bu vaqtda Yaponiya va Janubiy Koreya texnologiyasi barcha mamlakatlar uchun andoza, shuningdek, tajriba bo'lmoqda bemalol ayta olamiz. Intensiv tarzda mahsulotlar yetishtirish, yiliga 4-5 balkim undan ko'proq marta hosil olish imkonini o'rganish mumkin. Yerdan unumli foydalanish, intensiv usuldagi issiqxonalarini ko'paytirish aslida davr talabi hamdir. O'zbekiston bugun 34 millionlik aholiga ega bo'lgan, o'tgan davrda ko'plab muammolar to'planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to'g'ri yo'l tanlash – kuchli bilim, tajriba va azmu shijoatni talab etadi. Ya'ni O'zbekiston aholisining ko'payishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida alohida tashabbusga muhtoj ekanligi kundek ravshan edi.

Yangi O'zbekiston aynan yuqoridagi sabablarni inobatga olgan holatda qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor qaratilishi davr talabi ham edi. Bu borada esa qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun belgilangan yangi tartiblar va g'oyalarni amalga oshirishda, albatta, boshqaruvchilar xodimlar muhim rolga ega. Ya'ni ular ishning boshida turib, belgilangan vazifalarni aniq va vaqtida, eng muhimi esa ishning sifatli bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishlari kerak. Ya'ni rahbar xodimlar o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o'z ishchilaridan talab qila olishi kerak. Boshqaruvchi xodimlarda liderlik, boshqaruvchilik, o'ziga ishonch, mas'uliyat va yangilikka intilish ya'ni sohaga yangi tashabbus hamda g'oyalar bera olishi kerak.

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlanishida boshqaruv xodimlarining asosiy vazifalaridan biri xalqaro standartlarga mos mahsulot bilan jahon bozoriga chiqishdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarimizning eksportda oqsayotgani shu jihat

bilan ham bog'liq. Shu bois endilikda Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va arab mamlakatlari standartlari asosida mahsulotlarni sertifikatlash tizimini joriy etish choralari ko'riladi. Eksport salohiyatini oshirishda tomorqa xo'jaliklari boy manba hisoblanadi. Boisi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 70 foizi tomorqalarda yetishtiriladi. Hozir O'zbekistonda 4,5 million aholining tomorqa yer maydonlari mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi hmam salmoqli o'rin egallaydi. Bu borada qishloq xo'jaligi boshqaruv xodimlariga qo'shimcha imtiyozlar va yo'nalishlar belgilab berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi."²¹⁷ Shuningdek, Qishloq xo'jaligi qo'shimcha imkoniyatlarga boy soha. Shu sababli, keyingi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumaladan, davlat xarid narxlarining qariyb 3 barobar oshirilishi paxtachilik va g'allachilikni daromad keltiradigan tarmoqqa aylantirdi. Qolaversa, paxtachilikda mutlaqo yangicha ish tutumiga, ya'ni klaster tizimiga o'tilgani mehnatga munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ishni samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyati yuzaga keldi. Shuningdek, paxta maydonlarida sug'orishning tejamkor usullari tatbiq etildi. Shu yilning o'zida 25 ming gektar paxta maydonida suv tejoychi yangi sug'orish tizimi joriy qilinishi natijasida o'tgan yildagiga nisbatan uch barobar ko'p hosil olish kutilayotgani, foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming gektar yer maydoni qayta foydalanishga qaytariladi.

Bu borada quyidagi vazifalar belgilangan va ularning ijorisini boshqaruv xodimlari nazorat qilishlari kerak. Ular:

- qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish;
- suvdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish;

²¹⁷ O'zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<https://lex.uz/docs/-4714632>

- qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish;

- qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;

- qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda qishloq xo'jaligi statistikasini to'liq raqamlashtirish orqali ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlash;

- kadrlar masalasini hal etish, ilm-fanni rivojlantirish kerak bo'ladi.

"Davlat rolini davlat buyurtmasini berish, ekinlarni joylashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni nazorat qilish tizimidan fermer va dehqon xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash va sifatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish va xususiy sektor tomonidan ko'rsatilmaydigan boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan davlat xizmatlarini ko'rsatishga yo'naltirish"²¹⁸ aynan qishloq xo'jaligi sohasining erkinlashuviga va xususiylashib yanada rivojlanishiga muhim sabablardan bo'ldi.

Boshqaruv xodimlarining qishloq xo'jaligini rivojlantirishda asosiy maqsad qishloq ahlining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta'minlashdir. Ya'ni qishloq xo'jaligida shu vaqtgacha amal qilib kelgan eskicha uslubni o'zgartirib, xom ashyo yetishtirish manbaiga aylanib qolgan sohani tubdan isloh qilish lozimdir. Shu boisdan ham yangicha ishlash vaqti keldi. Joriy yil 6-sentyabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda 2020-2030-yillar davomida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish, suvdan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitini shakllantirish, qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda tarmoq statistikasini to'liq raqamlashtirish orqali ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlash, kadrlar masalasini hal etish, ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yettita ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali eksport salohiyatini yuksaltirish ya'ni iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi ulushini orttirish aslida rahbar hodimlar zimmasidadir. Bu borada statistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sohada hali boshqaruv xodimlarida ko'p mehnat talab etiladi. "Bugungi kunda qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 30 foizini tashkil etsa-da, lekin qilayotgan

²¹⁸ O'sha manba.

ishlarimiz yetarli emasligi, oldimizda katta potensial borligi namoyon bo'lmoqda. Kelgusi o'n yillikda qishloq xo'jaligini iqtisodiyotning haqiqiy "drayveri"ga aylantirish uchun tubdan ko'p islohotlarni amalga oshirishimiz kerak. Chunki 30 yilda qishloq xo'jaligiga deyarli teginilmagan, desak, xato bo'lmaydi. Mahsulotlarimiz, umuman, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalarimiz boshqa davlatlar bilan haqiqiy raqobatdosh bo'lishi uchun islohotlarni bugundan amalga oshirishimiz kerak,²¹⁹ - deb aytdi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri Jamshid Xo'jayev.

Yerdan foydalanuvchi uni haqiqiy o'ziniki, deb hisoblaydimi yoki yo'q? Strategiyada shu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish belgilangan. Vaholonki, tahlillarda bitta fermer yerdan bir, bir yarim yil foydalangan holatlari ham kuzatilgan. Bu nimadan dalolat? Agar yerdan foydalanuvchi uni o'ziniki, deb bilmasa, qandaydir "qo'rquv" bo'lsa, munosabat ham xuddi shunday bo'ladi. Yerga nafaqat qarash, balki mablag'larni ham sarflash kerak. Bugun O'zbekistonda mavjud yer maydonlaridan, suvdan samarali foydalanish masalasi Prezidentimiz tomonidan soha xodimlari, olimlari oldiga qo'yilayotgan eng dolzarb vazifa etib belgilandi. Sababi yer cheklangan. Ana shu cheklangan yerdan faqatgina mehnat unumdorligini, hosildorlikni oshirish orqali ko'proq daromad olish lozim. Agar rivojlangan mamlakatlar bilan solishtiradigan bo'lsak, yerdan, suv resurslaridan foydalanish darajasi bo'yicha qator tizimli muammolar borligi ko'rinadi. Shuning uchun strategiyada qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini yuksaltirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llashga alohida urg'u berilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi faol qo'llab-quvvatlanadigan davlatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun boshqaruv xodimlariga hma keng imkoniyatlar berilmoqda. O'z navbatida rahbat xodimlar zimmasida mas'uliyat va vazifalar ham mavjud. Agrar sohasiga davlat tomonidan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 2-3 barobar ko'p mablag' ajratilmoqda. Shuning uchun ham 2025-yilga borib, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi faqat bozor mexanizmlari asosida tartibga solinadi. Tan olish kerak, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish borasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p. Birinchidan, bozorni o'rganish va bozor topish borasida muammolar bor. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga

²¹⁹ "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-qishloq-khozhaligini-rivozhlantirish-strategiyasi-iqtisodiyotimiz-drajveri-khalqimiz-turmush-farovonligini-taminlovchi-yangi-bosqichdir>

mo'ljallangan strategiyasida eng katta e'tibor bozor mexanizmlariga qaratilgan. Buning zamirida dehqon, fermer ishlagandan keyin yerdan daromad topsin, degan maqsad yotibdi. Shu bilan birga, unda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ham nazarda tutilgan. Chunki aholi har yili ko'payib bormoqda. Bu bozorda ehtiyoj ham ortib boryapti, degani. Shunday ekan, paydo bo'layotgan ehtiyojni qondirishning eng asosiy yo'llari bu unumdorlik va hosildorlikni oshirishdir. Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi boshqaruv xodimlaridan o'z ishiga kuchli mas'uliyat va tashabbuskorlik talab etiladi.

REFERENCES

8. O'zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"<https://lex.uz/docs/-4714632>
9. <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyot-solnomasi>
10. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-qishloq-khozhligini-rivozhlantirish-strategiyasi-iqtisodiyotimiz-drajveri-khalqimiz-turmush-farovonligini-taminlovchi-yangi-bosqichdir>
11. https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogiston-sanoat-va-qishloq-xo'jaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda
12. President.uz "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda." <https://president.uz/oz/lists/view/4547>

JAHON ILM FANI VA SIVILIZATSIYASI RIVOJIDA MUSULMON SHARQI MUTAFAKKIRLARI FANLAR KLASSIFIKATSIYASINING O'RNI

Umarov Muhammadjon Lazzatbek o'g'li

Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani 42-IDUM o'qituvchisi

E-mail: muhammadjonumarov344@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy va Forobiy kabi Sharqning buyuk allomalari jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojiga o'zlarining fanlar klassifikatsiyasi orqali qo'shgan xissalari arab, fors, nemis va ingliz tillaridagi manbalar asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar. *Klassifikatsiya, "Al-jabr", nilometr, "pnevmatika", "harakatdagi kuch"*

АННОТАЦИЯ

В этой статье великие ученые Востока, такие как Аль-Хорезми, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сино, Ахмад аль-Фергани и Фароби, внесли свой вклад в развитие мировой науки и цивилизации путем классификации наук на арабском языке, Персидский, немецкий и проанализированы на основе источников на английском языке

Ключевые слова. *Классификация, «Аль-Джабр», нилометр, «пневматика», «сила в движении»*

ABSTRACT

In this article, the great scholars of the East, such as Al-Khwarizmi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad al-Farghani and Farobi, contributed to the development of world science and civilization through their classification of sciences into Arabic, Persian, German and analyzed on the basis of sources in English

Key words. *Classification, Al-jabr", nilometr, "Pneumatics", "driving force"*

KIRISH

O'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan madaniyat, ilm – fan va ma'naviy ma'rifiy yutuqlar ham qadimiy hususiyatga ega bo'lib, bu hududda ham ilgari surilgan g'oyalar, yaratilgan asarlar va ilgari surilgan ta'limotlar ham jahon fani va madaniyatida o'z o'rni va mavqeiga egadir.

Ayniqsa, o'rta asrlarda Yaqin Sharq, xususan, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ilmu – fan va madaniyat rivoji yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "...Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po'rtanadek otilib chiqqan ikki

qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan” .

Darhaqiqat, bu davrda yuz bergan ma'naviy-madaniy yuksalish natijasida jahon ilmi – fanini yanada rivojlantirgan bir qator mutafakkir olimlar, qomusiy bilim egalari, jumladan, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy singari ko'plab olimlarni tilga olib o'tish mumkin. Buyuk mutafakkirlar orasida o'zining tengsiz yutuqlari va qimmatli g'oyalari bilan ajralib turuvchi Muhammad ibn Muso Xorazmiy ham o'z davri fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari "algoritm" va "algebra" kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi”

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Musulmon Sharqida ilmlar tasnifi mohiyatining ayrim muammolari turli soha olimlari tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, tanlangan mavzu ilmiy-falsafiy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan.

Jamiyatimizning hozirgi bosqichida yosh avlodni ma'naviy yetuk, madaniyatli va yuksak ma'rifatli qilib tarbiyalash muammosi olimlar va tadqiqotchilar etiborini jalb qilmoqda. O'zbekiston hamda Rossiya olimlari tomonidan bir necha yirik asarlarni tarjima qilish va chop etish ishlari dastlab, XX asrning o'rtalari va oxirlarida amalga oshirilgan. Bunday olim yoki faylasuflar jumlasiga, Rossiyada S.N.Grigoryan , Ye.A.Frolova , M.T.Stepanyans , Ozarbayjonda A.K.Zakuev larning ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Sobiq Ittifoq davrida olib borilgan mazkur tadqiqotlarda jahon, ayniqsa, Sharq va G'arbda shu sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida, umumiy tarzda bo'lsa-da, ma'lumot berishga harakat qilingan.

O'zbek faylasuflari M.Xayrullaev, N.Boltaev va boshqa bir qator tadqiqotchilar mazkur faylasuflarning qadimgi yunon falsafasidan ilhomlangan holda o'z ta'limotlarini yaratganliklari, falsafa taraqqiyoti tarixiga munosib hissa qo'shganliklarini asosli yoritib berganlar. Sharqshunoslar – A.M.Guashon, A.L.Kaziberdiev, S.Serebryakov, Azkul Karim, Alber Nasriy ushbu faylasuflarning risolalarini tarjima etish va ulardagi atamalarning ma'nolari, har bir tushunchaga alohida sharh berish ustida jiddiy ilmiy ishlar olib borib, ular asarlarining tarjima lug'atini ham tuzganlar. Sharq faylasuflarining asarlari, ularning O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan risolalari

ro'yxati, ular to'g'risidagi ma'lumotlar, bularning mazmunini yorituvchi S.Mirzaev, A.Irisov, A.Kaziberdiev tadqiqotlari o'zbek olimlarining Forobiy va Ibn Sino singari mutaffakkirlarning boy ilmiy merosini o'rganish borasida qilingan jiddiy tadqiqotlar qatoridan o'rin oldi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari tabiiy-imliy qarashlarining kashf qilinmagan qirralarini yoritib beruvchi tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bunda A.Fayzullaev, R.Nosirov, A.Sharipov, R.M.Bahodirov kabi tajribali faylasuflarining bir qancha maqola va ilmiy ishlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ular Markaziy Osiyo faylasuflarining ilmiy-falsafiy dunyoqarashlari to'g'risida muhim xulosa va ma'lumotlarni berganlar. Ammo mazkur tadqiqotlarda ham tabiatshunoslik falsafasi hanuzgacha yetarli darjada o'rganilmagan, xususan tabiiy-falsafiy ilmlar uyg'unligi masalasining muhim tomonlari o'z yechimini topmagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir. Allomaning dunyo ilm-fani rivojidadagi xizmatlari umume'tirof etilgan bo'lib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari «algoritm» va «algebra» kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.

Hozirgi davr zamonaviy texnologiyalari va umuman insoniyat yaratgan texnosfera algoritm asosida ishlamoqda. Algoritm qadimgi Bobil, Yunoniston davlatlarining fani bilan chambarchas bog'liq. Biroq, uni yanada takomillashtirgan holda, "Algoritm algebraik masalalarni yechish usuli sifatida bundan o'n ikki asr oldin Al-Xorazmiy tomonidan qo'llanilgan".

XII asrda "Al-jabr" kitobi lotin tiliga "Algebra", muallifining ismi esa "Algorizm" deb atalishiga olib keldi.

Algoritm usuli orqali odatda algebraik amallarni ketma – ketlikda bajarilishi bugungi kunga kelib, murakkab qurilmaga ega bo'lgan texnologiyalarni boshqarishni asosini ham tashkil etmoqda. Transformasiyalanish natijasida algoritm matematika, kibernetika va boshqa shu kabi fanlarning o'rganish sohasidan kengroq doiraga ko'tarildi. Natijada jamiyatning deyarli barcha sohalarida algoritm metodi keng miqyosda qo'llanila boshlandi.

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog'liq holda «algoritm» tushunchasi va uning mazmuni kengaymoqda, rivojlanmoqda, umumiy algoritmni yaratish muammosi yuzaga kelmoqda. Algoritm nazariyasi asrimizning ulkan yutug'i

hisoblanadi. Keng ma'noda, algoritim – eng avvalo, masalani yechishning to'g'ri tanlangan usulidir. Algoritmlarni avtomatik qurilmalar (telefonlar, kassa apparatlari)ning ishlash prinsiplari sifatida ham tasavvur etish mumkin. Sayyohlik yo'nalishlari, ma'lumotnomalar, eshik qulflarini ochish qoidalari, dorilarni tayyorlash yo'l-yo'riqlari, pazandalik reseptlari – bularning barchasi algoritmlardir.

Hozirgi kunda dunyodagi barcha mashina, mexanizm va avtomatlar, transport, aviasiya, kosmonavtika va aloqa vositalari algoritim yordamida ishlasa-da, algoritim atamasi Xorazmiy nomidan olinganligini bu sohalarida ishlovchi barcha mutaxassislar ham bilishmaydi. Bu borada chuqur tadqiqotlar olib borgan O.F. Fayzullaevning ijodini alohida qayd etish lozim. U algoritim metodini falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratgan. Olimning ishlarida algoritim metodining universal xususiyati, uni jamiyatning deyarli barcha sohalarida uchratish mumkinligi qayd etilgani holda, umumilmiy metod darajasiga kotarilayotgani izohlangan.

Hozirgi kunda biz foydalanayotgan o'nlik pozision hisoblash tizimini, nol' belgisi va qutblar koordinatalarini yaratilishi, algebra faniga asos solinishi shuningdek, astronomiya, geografiya va boshqa fanlarda ilgari surilgan ilmiy g'oyalar bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xorazmiyning tengsiz g'oyalari uning bir qator asarlarida, jumladan, "Astronomiyaga oid risolalar", "Matematikaga oid risolalar", "Al-Jabr val-Muqobila", "Hind hisobi bo'yicha kitob", "Astronomik zij", "Er surati haqida kitob" kabi ko'plab asarlarida o'z ifodasini topgan.

Xorazmiy o'z davrida qo'lga kiritgan ilmu – fan sohasidagi yutuqlarini yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining qo'lyozmalari Yevropa va Osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko'plab mamlakatlaridagi kutubxonalarning "oltin fond"ini tashkil etadi. Bu faktlar nimadan dalolat beradi? Bu, eng avvalo, o'rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu – bebaho boylik, yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo'lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib materialdir".

1983 yili YUNESKOning qarori bilan Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi o'tkazildi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashagan va keyinchalik butun musulmon olamining o'sha davrdagi eng yirik madaniy va ilmiy markazlaridan bo'lmish "Bayt

ul – hikma”da ishlagan buyuk olimlardan Shaxamiyiddin Ahmad ibn Kasir al-Farg’oniydir.

Farg’oniy tushuntiradi: «Quyosh va Oyning sharq va g’arbdagi miqdorlari osmonning o’rtasidagi miqdoridan katta ko’rinadi, biz Quyoshni botayotganida, ya’ni jismning boshi ufqqa yaqinlashib oz-ozdan ko’rinmay qolayotganida ko’ra olamiz. U ufqni jismning oxirgi qismi botguncha kesib o’tadi. Oy ham shunday: ufqning sharqi va g’arbida meridiandagidan kattaroq ko’rinadi. Chunki unda Oy meridiandagidan bizga yaqinroq ko’rinadi. Lekin dengiz sathi doimo matematik ufqdan baland turadi, shuning uchun bizning ko’zimiz turgan sath bilan matematik ufq orasida farq bor. Ularni sovuq kunlari yoki yomg’ir tufayli, bahor havosida, namlik katta bo’lganda, qish kunlarida kattaroq ko’ramiz. Shunday kunlarda Quyosh va Oy chiqish va botish oldidan juda katta bo’lib ko’rinadi. Xuddi shu singari odam toza suvning qa’rida biror narsani ko’rsa, u narsaning haqiqiy shaklidan katta ko’radi. Sof suvdagi narsalar chuqurroqda ko’rinadi. Yoritgichlarning ufq yaqinida katta bo’lib ko’rinishining sababi ham xuddi shunday».

Farg’oniy izohlagan bu hodisa ilmi keyinchalik geometrik optika, undan keyin fizik optika va hozir optalmologiya fanlarining tarixiy zamini bo’lib qoldi.

Ahmad Farg’oniy tomonidan IX asrda yaratilgan “Astronomiya asoslari” fundamental asarida olamning tuzilishi, Yerning o’lchovi haqidagi dastlabki ma’lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko’rinishga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo’lib, mazkur kitob XVIII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo’yicha asosiy darslik sifatida o’qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo’lib xizmat qilgan. Ahmad Farg’oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o’rta asrlardagi asosiy astronomik asbob – usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida “nilomer” degan, ko’p asrlar davomida suv sathini o’lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo’ldi.

Jahon fani ravnaqiga benazir hissa qo’shgan Uyg’onish davri daholari orasida buyuk yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiy (873-950) siymosi yorug’ yulduzdek fan osmonida charaqlab turadi. O’zining qomusiy bilimlari, ayniqsa, falsafa sohasidagi ulkan xizmatlari bilan u «Al-Muallim as-soniy» - «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» nomi bilan mashhurdir.

Ulug’ qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning ilmiy dahosi bilan yaratilgan mislsiz kashfiyotlarga to’liq baho berishning o’zi qiyin. Beruniyning 150 dan ziyod ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelganiga qaramasdan, alloma

qo'lyozmalarining qo'limizdagi ana shu to'liq bo'lmagan namunalari ham uning naqadar serqirra meros qoldirganidan dalolat beradi .

Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo'lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o'ziga xos yangi g'oyalarni taklif etdi, Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya'ni bo'shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit'a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi, minerallar tasnifi va ularning paydo bo'lish nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi. Shuning uchun ham XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan "Beruniy asri" deb atalishi bejiz emas.

Uning qalamiga mansub yuzlab noyob asarlar ichida bizning dav-rimizgacha saqlanib, o'z bebaho ahamiyatini yo'qotmay, bugungi avlod kishilari uchun o'rganish manbayi bo'lib kelayotganlari ham talaygina. Bular jumlasiga «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Xorazmning mashhur kishilari», «Hindiston», «Mas'ud qonuni», «Mineralogiya», «Saydona», «Astrologiyaga kirish», «Astronomiya kaliti», «Jonni davoiovchi quyosh kitobi», «Foydali savollar va to'g'ri javoblar», «Ibn Sino bilan yozishmalar» singari tarixiy kitoblarni kiritish mumkin. Beruniy asarlari ko'p asrlardan buyon Sharq-u G'arbda keng tarqagan bo'lib, ular yuksak qadr topgan. Alloma merosi uning bugungi mustaqil yurtida, minnatdor avlodlari nigohida, doimiy e'tibori va e'zozidadir.

"Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri" degan unvonga sazovor bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati avlodlarda alohida g'urur va ehtirom tuyg'ularini uyg'otadi. Ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan bu ulug' zot o'z umri davomida 450 dan ortiq asar yaratdi. Ularning aksariyati avvalo tibbiyot va falsafa, shuningdek, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag'ishlangan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodi uning asarlarini o'qib, hayratga tushganlar.

Biz doim g'urur va iftixor bilan e'tirof etamizki, tibbiyot tarixida eng mashhur bo'lgan, "Tib qonunlari" deb atalgan o'zining bebaho fundamental asari bilan Ibn Sino keyingi bir necha yuz yillar uchun tibbiyot fanlari taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini oldindan belgilab berdi, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan amaliy tibbiyot va farmakologiya sohalarining eng muhim usullariga asos soldi. Bejiz emaski, bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan dastlabki kitoblardan biri bo'lgan va Yevropaning yetakchi universitetlarida qariyb 500-yil davomida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o'qitib kelingan.

Ibn Sino va Beruniyning bizgacha yetib kelgan Aristotelning “Koinot haqida kitob” asariga taalluqli yozishmalari buyuk allomalarimizning ilmiy muloqot olib borish, antik davr falsafiy qarashlarini chuqur anglash va ularni rivojlantirish borasida naqadar yuksak darajaga ko’tarilganining mumtoz namunasi.

X-XI asrlarda Xorazm zaminida ijod qilgan Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk alloma va mutafakkirlarimizning xizmatlari ularning ilmiy ishlari va asarlari doirasi bilangina chegaralanib qolmaydi, balki insoniyatning intellektual tarixida chuqur iz qoldirgan ilmiy maktab – Xorazm Ma'mun akademiyasini shakllantirishdek muhim masalani ham qamrab oladi.

X asrning qomusiy allomasi Abu Nasr Forobiyning zamondoshlari, universal bilimlarga ega bo’lgani bois, “Sharq Aristoteli” deb ataganlar. U ko’plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari “Mohiyat xususida so’z”, “Fanlarning paydo bo’lishi haqida kitob”, “Tafakkur mohiyati” va boshqa asarlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko’plab Yevropa va sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo’lib kelmoqda.

Forobiyning Aristotel (Arastu) asarlarini, xususan, «Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» singari shoh asarlarini chuqur ilmiy sharhlash, mazmun-mundarijasini teran yoritib berishdagi xizmatlari benazirdir.

Forobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Falsafaga izohlar», «Fozil odamlar shahri» singari asarlari alloma qiziqish doirasi va ma’naviy olamining nechog’lik kengligi, teranligidan darak beradi.

VIII-IX asrlarda Bag’dod va xalifalik hududidagi boshqa ilmiy markazlarda matematikaga oid asarlar bilan bir qatorda Arastu, Arximed, Geron asarlari, Ptolemeyning “Almagest” i tarjima qilinib, ularga sharhlar yozildi. Masalan, Arximedning tarjimoni IX asr yirik matematik va astronomi Sobit ibn Qurra edi. Uning tarjimalarida Arximedning ba’zi asarlari bizgacha yetib kelgan. Tadqiqotimizda ma’lum bo’lishicha, Kusta ibn Lukaning arabcha tarjimasida Geronning “Mexanika”si saqlanib qolgan, Filonning faqatgina arabcha tarjimadagi “Pnevmatika”si mashhur bo’lgan. O’rta asrlar Sharqining fizika-matematika bilimlari taraqqiyoti, ayniqsa uning dastlabki bosqichida, qadimgi davr ilmlari rivojining asosiy yo’nalishlari mohiyatida edi. Islom falsafasida fanlar tasnifining metodologik va ijtimoiy asoslariga doir yangicha yondashuvlarni islomning ba’zi madaniy hududlarida muntazam, texnika taraqqiyoti darajasining taxminan bir xil xarakteri bilan belgilashimiz to’g’ri bo’ladi. Fizikaning umumfalsafiy masalalariga (birinchi

galda harakatning mohiyati muammosiga) bag'ishlangan ishlarning butun boshli majmuasini Arastu asarlarini tarjima qilinishi va sharhlanishi bilan ham izohlasak bo'ladi.

Ko'p sharqshunos olimlarning ta'kidlashicha, islomning ilm olamidagi bunday yondashuvi va sharhlashi keyinchalik o'rta asr Yevropasidagi impetus nazariyasiga asos bo'lgan. Bu nazariyaning ibtidosi (jismga ma'lum, harakatning manbaiga dahlsiz "harakatdagi kuch" haqidagi tasavvur ko'rinishida) VI asrda aleksandriyalik olim Ioann Filiponda ham bor edi. "Harakatdagi kuch" nazariyasining ta'siri o'rta asr islom olimlari (Ibn Sino, al-Bag'dodiy, al-Bitruji va boshqalar) ning fizikaning turli bo'limlariga, jumladan mexanikaga bag'ishlangan ko'psonli asarlarida ham qayd etilganini ko'rishimiz mumkin. Xorijlik sharqshunos olimlar Arastuni sharhlovchilari jumlasiga Beruniy va Ibn Sino kabi yirik olimlarni, eng so'nggi sharhlovchilardan ispan-arab olimi Ibn Rushdni o'z asarlarida tilga oladilar.

Fizikaning umumfalsafiy masalalariga (birinchi galda harakatning mohiyati muammosiga) bag'ishlangan ishlarning butun boshli sikli Aristotelni tarjima qilish va sharhlashdan boshlanadi. Bu muammolarga bu yoki u darajada fizika(mexanika)ning xususiy masalalariga bag'ishlangan risolalarda ham tegib o'tilgan.

Bu sharhlash katta darajada, keyinchalik o'rta asr Yevropasidagi impetus nazariyasiga asos bo'lib paydo bo'lgandi. Bu nazariyaning ibtidosi (jismga ma'lum, harakatning manbaiga dahlsiz "harakatdagi kuch" haqida tasavvur ko'rinishida) VI asrda aleksandriyalik olim Ioann Filiponda ham bor edi. "Harakatdagi kuch" nazariyasining ta'siri O'rta asr Sharqi olimlari (Ibn Sino, al-Bag'dodiy, al-Bitruji va boshqalar)ning fizikaning turli bo'limlariga, jumladan mexanikaga bag'ishlangan ko'psonli asarlarida gapirilgan. Aristotelni sharhlovchilari jumlasiga Beruniy va Ibn Sino kabi yirik olimlar, eng so'nggi sharhlovchilardan Ibn Sino an'alarini davom ettirgan ispan-arab olimi Ibn Rushd mashhurdir.

Biz o'rta asr fizika bilimlari haqida gapirsak, ko'pincha olimlarning G'arbda Piriney yarim orolidan, sharqda Shimoliy Hindistongacha cho'zilgan ulkan ma'daniy mintaqaning ilmiy tilida – arab tilida yozilgan asarlarini nazarda tutamiz. G.Zuter tomonidan tuzilgan va G.P. Matveevskaya tomonidan to'ldirilgan ro'yxatga kirgan ko'pchilik olimlarni asosan o'z vatanlari hududida ijod qilgan (Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, al-Xaziniy, at-Tusiy, al-Koshiy, Ulug'bek va boshqalar) xurosonlik va movarounnahrliklar tashkil qilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayni xurosonliklar va movarounnahrliklarning qarashlari hamda erishgan yutuqlari (al- Xorazmiy, Forobiy, Yaxyo ibn Mansur, Said

ibn Ali, Yuhanna ibn Yusuf va b.) Bag'dod maktabining (IX-X asr) ilmiy o'zagini tashkil qilgan. Bu maktab faoliyati bir necha asrlarga o'rta asrlar Yaqin va O'rta Sharqdagi fizika-matematika ilmlari majmui taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini belgilagan edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimizdan yetishib chiqqan Xorazmiy, Farg'oniy, Farobiy, ibn Sino, Beruniy va boshqa buyuk alloma, qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan. Mustaqillik yillariga kelib ushbu buyuk zotlar faoliyati va ilmiy merosi har tomonlama chuqur o'rganilishi boshlanganligini o'zi bir katta yutuqdir.

Bugun, oradan deyarli ming yil o'tganidan keyin ham biz o'rta asrlarda yashab ijod qilgan, jahon sivilizatsiyasi rivojiga bebaho hissa qo'shgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining dahosi, ilm-fanning turli yo'nalishlaridagi izlanishlari va qomusiy bilimlari oldida hayratga tushamiz. Afsuski, insoniyat boshidan kechirgan har xil fojialar, urushlar, tabiiy ofatlar natijasida ular qoldirgan buyuk merosning, aytish mumkinki, mingdan bir qismigina bizgacha yetib kelgan, xolos. Tarixning zulmat va jaholat hukmronlik qilgan muayyan davrlarida olimlarning quvg'in va ta'qibga uchrab, ko'pchiligining hayoti fojiali yakun topganini hozirgi kunda tasavvur qilishning o'zi qiyin.

Biroq, barcha qiyinchilik va ayovsiz sinovlarga qaramasdan, alloma va mutafakkirlar o'zlarining ilmu fan rivoji yo'lidagi burchiga, gumanizm va ma'rifat g'oyalariga sodiq qoldilar.

Bu ulug' zotlarning ilm-fan sohasiga baxshida etgan hayoti, ular erishgan va bugungi kunda butun ma'rifatli insoniyatni hayratga solib kelayotgan yutuqlari – bu, hech shubhasiz, haqiqiy ma'naviy jasorat namunasi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor va biz bunday jasorat oldida bosh egib ta'zim qilamiz.

REFERENCES

1. Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривождаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи. 2014- йил 15-май.
2. Григорян. С. Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: изд-во АН СССР, 1960. – С. 330.
3. Фролова. Е. А. Проблема веры и знания в арабской философии. – М.: Наука, 1983. – С. 169.

4. Степанянц М. Т. Философские аспекты суфизма. Инст. философи. – М.: Наука, 1987. – С. 190.
5. Закуев А. К. Философия «Братьев чистоты». – Баку: изд-во АН АзССР, 1961. – С. 122.
6. Файзуллаев А. Ф. Возникновение и развитие понятия «алгоритм» // Классическая наука Средней Азии и современная мировая цивилизация / Под ред. П. К. Хабибуллаева и А. Ф. Файзуллаева. — Ташкент: Фан, 2000. — С. 56—60.
7. Кобулов В. К. Ал-Хорезми, алгоритм и алгоритмизация / В.К. Кобулов, А.Ф. Файзуллаев, Ш.А. Назиров. — Ташкент: Фан, 2006. — Б. 46
8. Mamasaliev, M. M. (2020). MAIN DIRECTIONS OF THE INFLUENCE OF MODERN CIVILIZATION ON THE SPIRITUAL IMAGE OF THE INDIVIDUAL. Вестник науки, 3(11), 5-8.
9. Allanazarov, M. K., & Mamasaliev, M. M. (2020). ANALYSIS OF COMPREHENSION METHODS IN THE GNOSEOLOGY OF ALLAME TABATABAI. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 106-109).
10. Mamasaliev, M. M. (2020). INCREASING THE EDUCATIONAL OPPORTUNITIES OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT. In ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ: ПОТЕНЦИАЛ НАУКИ И СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 204-206).
11. Сулаймонов, Ж.Б. Взгляды Абдуррахмана ибн Халдуна о развития общества и цивилизации// Международный научно-практический журнал “Экономика и социум”. 12 (79)2020 г. //https://iupr.ru//a78cf8ac-3ef5-4670-8fcd-a900ec94fdb.
12. Saidov, S. A. O. G. L. (2021). IBN AL-MUQAFFANING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(7), 8-14.
13. O’G’Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.
14. Saidov, S. (2021). IBN AL-MUQAFFANING ISLOM TARJIMA SAN’ATIGA QO ‘SHGAN HISSASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).

15. Qodirov, T. U. U., Yusufxonov, Z. Y. O. G. L., & Sharapova, S. R. Q. (2021). O ‘ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA KLASTERLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 305-312.
16. Кодиров, Т. У., Юсуфхонов, З. Ю. У., & Ахмедов, Д. Т. У. (2021). АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РЕЙТИНГ ИНДЕКСА ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛОГИСТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 245-252.
17. Suter N. Diomatematik und astronomer, der Araber und inre wark, Fbhediurgen dir gehichte der Mathem, issensehatten. Mol. 45. hebtx. Leipziq, 1890.
18. Матвиевская Г.П., Розенфелд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (XIII-XVIIвв.) В 3 т. — М.: 1983. — С. 479.

XORAZM DOSTONLARINING TADQIQOTCHISI

Olimova Gulfiza Muradullayevna

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 148-maktab o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Folklor asarlarni yig'ish, tasniflash, nashr etish, o'zbek xalq og'zaki ijodini o'qitish borasida katta bilim va tajribaga ega olimning hayoti va faoliyatini o'rganish kelgusi avlod uchun dasturulamal vazifasini o'taydi. Shu sababdan ushbu maqolada folklorshunos olim Omonilla Madayevning "Xorazm dostonlarining o'ziga xos xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi mufassal o'rganildi. Maqolada syujet unsurlari: tugun, kulminatsiya, konfliktning Xorazm dostonchilik an'anasida tutgan o'rni, qanday shaklda, dostonning qaysi qismida ifodalanishi, realizmning o'rni, ijobiy qahramon tahlili va obraz yaratish usullari, badiiy uslub, badiiy tasvir vositalari, dostonlarda asosiy rol egallovchi she'riy parchalardagi vazn va qofiya haqida alohida to'xtalib, ular misollar orqali bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Xorazm dostonchiligi, Samarqand dostonchiligi, konflikt, tugun, sayyor syujet, kulminatsiya, badiiy tasvir vositalari, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash, metafora, sa'j, jonlantirish, tajnis, vazn, qofiya.*

ABSTRACT

Studying the life and work of a scientist with extensive knowledge and experience in collecting, classifying, publishing folklore works, teaching Uzbek folklore will be a programmatic task for the next generation. For this reason, in this article, the dissertation of folklorist Omonilla Madayev on the topic "Peculiarities of Khorezm epics" was studied in detail. The plot elements of the article: knot, culmination, the role of conflict in the Khorezm epic tradition, in what form, in what part of the epic, the role of realism, positive hero analysis and image creation methods, artistic style, artistic means, the main role in epics with special emphasis on the weight and rhyme in the possessive poetic passages, which are explained by examples.

Keywords: *Khorezm epic, Samarkand epic, conflict, knot, planetary plot, culmination, artistic means of imagery, simile, exaggeration, adjective, metaphor, sa'j, animation, tajnis, weight, rhyme.*

АННОТАЦИЯ

Изучение жизни и деятельности ученого, обладающего обширными знаниями и опытом в области сбора, классификации, публикации фольклорных произведений, преподавания узбекского фольклора, будет программной задачей

для следующего поколения. По этой причине в данной статье подробно исследована диссертация фольклориста Омониллы Мадаева на тему «Особенности хорезмского эпоса». Сюжетные элементы статьи: узел, кульминация, роль конфликта в хорезмской эпической традиции, в какой форме, в какой части эпоса, роль реализма, позитивный анализ героя и методы создания образа, художественный стиль, художественные средства, главные роли в былинах с особым акцентом на вес и рифму в занимаемых поэтических отрывках, они поясняются примерами.

Ключевые слова: хорезмский эпос, самаркандский эпос, конфликт, узел, планетарный сюжет, кульминация, художественные средства изображения, сравнение, преувеличение, прилагательное, метафора, садж, анимация, тайнис, вес, рифма.

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi har bir xalqning tarixini, ma’naviy kamolotini, mafkurasini, dunyoqarashini o‘zida aks ettiruvchi meros hisoblanadi. Og‘zaki ijod namunalarining ko‘pligi, xilma-xilligi shu xalq vakillarining naqadar bilimdon, hozirjavob, so‘z boyligi darajasi yuqori ekanligidan dalolatdir.

Folklor namunalari turlicha bo‘ladi. Olimlar ularni uchta: epik, lirik va dramatik turga hamda bir qancha janrlarga bo‘lib tadqiq qilishgan. Har bir tur, uning tarkibiga kiruvchi har bir janr o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi ma’lum. Qaysidir janr qisqa va lo‘ndaligi bilan ajralib tursa, yana biri sirliligi bilan farq qiladi; dramatik turda xatti-harakatlar muhim bo‘lsa, lirikada his-tuyg‘u, ko‘ngil kechinmalari o‘z ifodasini topadi. Og‘zaki ijodning ana shunday o‘ziga xos janrlaridan biri doston janri hisoblanadi.

Doston so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma’nolarini ifodalaydi. Dostonlar xalq og‘zaki ijodining dunyo miqyosida mashhur bo‘lishiga, olimlar tomonidan nisbatan eng ko‘p o‘rganilishga asos bo‘lgan janrdir. Og‘zaki ijod namunalari orasida bu janr o‘zining mukammalligi, sinkretikligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga dostonlar faqat baxshilar tomonidan kuylangani uchun o‘ziga xos ijro etish usullari, yo‘nalishlari hamda Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Narpay kabi dostonchilik maktablari; Samarqand, Xorazm, Namangan singari dostonchilik an‘analari mavjud. Samarqand dostonchilik maktabida do‘mbira chertib, yakka holda bo‘g‘iq ovoz bilan ijro etilgan bo‘lsa, Farg‘ona vodiysida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan. Ikki yo‘nalishdan farqli o‘laroq Xorazm doston kuylash an‘anasida tor, dutor, g‘ijjak, garmon, doira jo‘rligida ba’zi hollarda juft holda, ba’zan esa yakka holda ochiq ovozda ijro etilgan.

Bu uch yoʻnalish ichida Xorazm doston kuylash anʼanasi oʻziga xosligi, betakrorligi bilan ajralib turadi. Xorazm dostonlari koʻplab folklorshunoslar, xususan, Muhammadnodir Saidov, Ahmad Ishayev, V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifovlar tomonidan qisman darajada tadqiq qilingan. Biz quyida Xorazm dostonchiligini atroflicha chuqur oʻrgangan folklorshunos olim Omonilla Madayevning “Xorazm dostonlarining oʻziga xos xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini oʻrganib chiqamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1970-yillargacha boʻlgan davrda Xorazm dostonlari haqida V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifov hammuallifligida yaratilgan “Oʻzbek xalq qahramonlik eposi” kitobida, M. Saidovning “Oʻzbek dostonchiligida badiiy mahorat” asarida, shuningdek, nashrga tayyorlovchi olimlar, xususan, J. Qobulniyozovning “Sayyod va Hamro”, “Bozirgon”, “Avazxon”, “Oshiq Mahmud” hamda M. Murodov va N. Soburovlarning “Gulruhpari” dostonlariga yozgan soʻzboshilarida uchratishimiz mumkin. Yuqoridagi manbalarda Xorazm dostonlarining asosiy xususiyatlari, shakllanishi haqidagi fikrlar, variantlilikning yoʻq boʻlish sabablari, dostonlarning yozib olinishi, nashr qilinishiga doir maʼlumotlar berilgan. Biz oʻrganib chiqqan ushbu dissertatsiyada Xorazm dostonlarining gʻoyaviy, badiiy qimmati, ularning janr xususiyatlari, mavzusi, obraz yaratish usulidagi oʻziga xos tomonlari oʻrganilgan.

Dissertatsiya qiyoslash usulida yozilgan, yaʼni Xorazm dostonlari Samarqand dostonchilik anʼanasi bilan taqqoslangan.

Maʼlumki, adabiyotda sayyor syujet tushunchasi, yaʼni barcha xalqlar adabiyoti uchun asos boʻluvchi mushtarak nuqtalar mavjud. Bu hodisa folklorshunoslik sohasiga ham tegishli boʻlib, “tush motivi”, “farzandsizlik motivi”, “safar motivi” va boshqalar shular jumlasidandir. Xorazm dostonlarida ham bu kabi motivlar uchrasada, ammo ular oʻzining badiiy ifoda uslubi, mazmuni, ijro anʼanasi va usullariga koʻra boshqa xalq dostonlaridan tamomila farq qiladi. Biz tadqiq etayotgan ushbu dissertatsiyaning “Xorazm xalq dostonlarida syujet va kompozitsiya masalalari” deb nomlanuvchi boʻlimida ham yuqoridagi kabi muammolar chuqur tahlil etilgan.

Omonilla Madayevning fikricha, juda koʻp oʻxshash tomonlari mavjud boʻlgan ikki asar ikki xalq ijodida har bir xalqning yashash sharoiti, milliy rasm-rusumlarining ifodalanishidan boshqa-boshqa koʻrinishga ega boʻladi. Va bu fikrni ilmiy asoslash uchun filolog olim Ahmad Ishaevning “Ошиқ Ғариб ва Шоҳсанам” достонининг Закавказье ва Ўрта Осиё вариантлари” haqida quyidagi fikrlarini keltiradi: “Shu narsa diqqatga sazovorki, Xorazmdagi oʻzbek, turkman, qoraqalpoq baxshilari tomonidan kuylanadigan bu doston qulchilik, savdo-sotiq, bogʻdorchilik va

dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi ijtimoiy hayotning ko'pgina sohalarini qamrab olganligi, obrazlarning nihoyat darajada mukammal ishlanganligi, umuman mazmuni va badiiy xususiyatlari jihatdan Yaqin Sharqdagi "Oshiq G'arib" dostonidan keskin farq qiladi"²²⁰.

Darhaqiqat, har bir xalq o'ziga xos yashash sharoitiga, urf-odat, an'alariga ega bo'lgani bois og'zaki ijod yodgorliklari ham bir-biridan farq qilishi, tabiiy. Hattoki bir hudud ichida farq qilish holatlari ham mavjud. Ushbu dissertatsiyada Xorazm dostonlari bilan Samarqand dostonlarining qiyosiy o'rganilishi ham fikrimiz dalilidir.

Ma'lumki, asar yaratilishida syujet, kompozitsiya, shakl, mazmun muhim o'rin egallaydi. Asarda ularni bir-biridan ayro qo'llab bo'lmaydi. Ularning har biri o'zining vazifasiga ega.

Xalq dostonlarida ularning o'rni qay darajada bo'lishi, qanday vazifani bajarishi ham alohida tadqiq etiladigan mavzudir. Ushbu dissertatsiyada syujet unsurlari: tugun, kulminatsiya, konfliktning Xorazm dostonchilik an'anasida tutgan o'rni, qanday shaklda, dostonning qaysi qismida ifodalanishi misollar asosida berilgan.

Muallif fikriga ko'ra bu dostonlarning aksariyat qismida ham boshqa dostonchilik an'analari kabi safarga chiqish holatlari asosiy o'rinni ifodalaydi. Chunki dostondagi asosiy voqealar hamisha ana shu safar voqealaridan keyin boshlanishi ma'lum. Agar e'tibor beradigan bo'lsak, "Alpomish" dostonida Boybo'rining qalmoq eliga ko'chishi, Kuntug'mishning Zangar yurtiga Xolbekani izlab borishi, Ravshanning Zulxumor ishqida Shirvonga yo'l olishi yoki "Rustamxon" dostonidagi Sultonxonning 14 yilga Qurudim mamlakatiga safarga ketish epizodlari mavjud. Va ayni shu holat dostonning asosiy voqealari boshlanishiga turtki bo'ladi. Ammo bu epizodlarni asar tuguni sifatida baholab bo'lmaydi. Shu sababdan ham V. V. Kojinov "Syujetning asl harakatga keltiruvchi kuchi mutlaqo tugun emas"²²¹, deb ta'kidlaydi. Tugun asarning qaysi qismida: boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishi ijodkorga bog'liqdir. Shu o'rinda tugun atamasiga izoh berib o'tishni lozim deb bildik. Tugun – epik va dramatik asarlardagi voqeaband syujetning muhim unsuri, voqealarning boshlanishiga turtki bo'lgan voqea, asar konflikti qo'yilgan joy²²². Ta'rifga e'tibor bersak, asarda asosiy harakatlar tizimi boshlanishi uchun tugun muhim nuqtadir. Shu bilan birga u asar konfliktiga ham bog'liq holda izohlanyapti. Ammo bu holat xalq dostonlariga biroz to'g'ri kelmaydi.

²²⁰ А. Ишаев. Шоҳсанамнинг ватани қаер? "Фан ва турмуш", 1971 йил, 2 сон, Б – 26.

²²¹ В.В.Кожинов. Сюжет, фабула, композиция, в кн. Теория литературн, М., 1964, стр. 463.

²²² Д. Куронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akadernashr. 2010. Б – 335

Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq dostonlarida voqealar rivoji asosan safar motividan boshlanadi.

Omonilla Madayev fikricha, Xorazm dostonlari syujeti hamda mazmunining ixchamligi bilan Samarqand dostonchilik an'anasidan farq qiladi. Samarqand an'anasida bitta dostonda bir vaqtning o'zida bir nechta masala o'z aksini topadi hamda bunda konfliktlarning hal qilish jarayoni ham o'zgacha bo'ladi. Xorazm dostonlarida esa asosan bitta masala qo'yiladi. Konflikt (lotincha conflictus - to'qnashuv) – personajlarning asar syujetida badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar²²³) ham murakkab bo'lmaydi. Baxshining e'tibori ham aksariyat hollarda dostonda aks etgan ishqiy mavzudagi masalani yechishga qaratiladi. Xalq dostonlaridagi konfliktlar ko'p hollarda oshiq ma'shuqani olib ketish uchun kelganda raqiblari (Alpomish va qalmoqlarning orasidagi ziddiyat), qizning otasi qarshiligiga uchrash (Ravshan dostonida Qoraxon podshoning norozi bo'lishi) holatlarida yuz beradi. Ammo ushbu dissertatsiyada olim xalq dostonlarida deyarli uchramaydigan, mantiqiy jihatdan asoslanmagan konfliktni keltirib o'tadi: "Ayrim hollarda mantiqiy jihatdan asoslanmagan konfliktlar ham uchrab turadi. Biz bu o'rinda "Sayyod va Hamro" dostonini nazarda tutamiz. Ma'lumki, aksari safar bilan bog'liq bo'lgan sevgi dostonlarida oshiq o'z ma'shuqasini olib kelish uchun yo'lga otlar ekan, asarning konflikti sifatida oshiq ma'shuqani unga berishni istamagan otasi yoki raqib o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. "Sayyod va Hamro" dostonida esa Hamro ma'shuqa dargohida unga nisbatan bevafoqlik belgilarini ko'rsatadi va asosiy konflikt oshiq va ma'shuqaning o'zaro ishonch hosil qilish yo'lidagi tortishuvdan iborat bo'lib qoladi. Beqaror Hamroning asar oxirida ikki yorga, ya'ni Sayyodxonga va yoshlikdan birga o'sgan Salbiniyozga yetishishi xalq og'zaki ijodida deyarli uchramaydigan holdir. Shuning uchun ham mazkur asarni o'rganishga alohida ehtiyotlik bilan yondashish lozimdir"²²⁴. Darhaqiqat, xalq dostonlarining hech birida bosh qahramon xiyonat qilishdek salbiy holatga yo'l qo'ymaydi. To'g'ri, qahramonlar xarakteri may ichish (Alpomishning Qalmoq elida Surxayil kampir tuzog'iga tushishi), irodasizlik (Kuntug'mishning Xolbeka va farzandlaridan ajralib qolgach tushgan holati), manmanlik ("Ravshan" dostonida Avazxonning Hasanxonni o'ziga teng ko'rmasdan qizini bermagan holati), o'zboshimchalik (Go'ro'g'lining Soqibulbulning gaplariga kirmasdan safarga ketib

²²³ Д. Куронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr. 2010. Б – 143

²²⁴ Мадаев О. "Хоразм дostonлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари". Тошкент – 1973. Б – 23.

qolishi) kabi ayrim nuqsonlardan holi emas. Ammo ularning hech birida bergan va'dasiga vafo qilmasdan yorga xiyonat qilish aks etmagan. Shu sababdan ushbu doston qahramoni tinglovchida ham, kitobxonda ham biroz salbiy taassurot qoldirishi, tabiiy. Biroq shunga qaramasdan dostonda konfliktning bu tarzda namoyon bo'lishini izohlab muallif "Xalq oshiq Hamro obrazini yaratish orqali tinglovchilarni unga o'xshamaslikka chaqiradi"²²⁵, deya o'z sharhini bayon etgan. Hamda yana ushbu obraz haqidagi izohlarni davom ettirgan holda ayrim olimlar fikri ham keltiriladi²²⁶.

Xorazm dostonlarida ham kulminatsion nuqta voqealar rivojidan keyingi qismlarda keladi. Kulminatsion nuqtaning so'nggi qismlarda kelishi xalq dostonlari uchun tabiiy holat hisoblanadi. "Alpomish" dostonining kulminatsion nuqtasi Alpomishning Qalmoqdan qaytib Ultontoz bilan to'qnashuvi bo'lsa, "Rustamxon" dostonida Rustamning ovdan qaytib otasi bilan uchrashgan vaqti, "Kuntug'mish" dostonida esa Kuntug'mishning o'z o'g'illarini dorga osishga buyurgan payt dostonning kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. E'tibor berib qaralsa, voqealar rivojining cho'qqiga chiqish nuqtasi dostonning so'nggi qismlaridagi o'rinlariga to'g'ri keladi. Xuddi shu holat Xorazm dostonlarida ham o'z ifodasini topgan. "Shohsanam qator sarguzashtlarga uchragandan so'ng doston oxirida u majburan podshohga turmushga chiqayotgan paytdagina G'arib yetib keladi. Shoh bilan yuzma-yuz to'qnashadi. Bu o'rin "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonining kulminatsion nuqtasi bo'lib hisoblanadi"²²⁷. Doston boshlanishida, voqealar rivoji davomida ushbu nuqta yo'qdek bo'lishi mumkin. Ammo yakuniy qismga yaqinlashgach, tinglovchi dostonning kulminatsion nuqta va yechim bilan yakunlanishiga amin bo'ladi.

Dissertatsiya davomida Xorazm dostonlarida ayollar o'rnini haqida ham asosli fikrlar keltirib o'tiladi. Ma'lumki, dostonchiligimizda ayollar go'zal, oqila, mehribon, kamtar, vafoli, sadoqatli, shu bilan birga jasorat bobida yigitlardan qolishmaydigan mard, bir so'zli, va'daga vafo qilish xislatlarini o'zida jamlagan holda aks ettiriladi. Barchinoyning alpligi, Alpomishga sadoqati, Xolbekaning Kuntug'mishga vafosi, Huroyimning matonati-yu, sabr-toqati, kechirimliligi shular jumlasidandir. Ayni shu holatlar Xorazm dostonchiligida ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Ishqiy-romanik dostonlarda, xususan, "Sayyod va Hamro" dostonidagi Sayyodxon obrazi betakror tarzda tasvirlanadi. "Tinglovchi Sayyodxonning xatti-harakati orqali uni Hamrodan har tomonlama afzal ekanligini tushunib oladi. Sayyodning bir so'zliligi, dushman

²²⁵ Ўша диссертация. Б – 23

²²⁶ 1. М. Қобулниёзов. Сўзбоши (Сайёд ва Ҳамро достони), Тошкент, 1964, Б – 13. 2. Ҳ. Т. Зарифов. Улкан халқ санъаткори, Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни китобида. Тошкент, 1971 йил, Б – 8.

²²⁷ Мадаев О. "Хоразм дostonлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари". Тошкент – 1973. Б – 29

duch kelganda uning mardligi Hamrodagi ikkilanishga yolgʻonchilikka qarama-qarshi qoʻyiladi”²²⁸. Shu sababdan tinglovchi yoki kitobxonda Sayyodga nisbatan ijobiy fikr paydo boʻladi.

Asar kompozitsiyasi ham asar yaratilishida syujet singari muhim vazifa bajaradi. Xorazm dostonlari kompozitsion qurilish jihatdan ham Samarqand dostonlaridan farq qiladi. Bu hudud dostonchiligida ijro etiladigan dostonlar matniga Samarqand ijro anʼanalaridan farqli oʻlaroq qoʻshimcha qoʻshib yoki ayrim boʻlaklarni tushirib qoldirib boʻlmaydi.

Ushbu dostonlarning kompozitsion qurilishi haqida shunday deyiladi. “Xorazm dostonlarining hajm jihatdan torligi baxshining zimmasiga bir necha masʼuliyatlarni yuklaydi. Jumladan, baxshi oʻz ixtiyori bilan dostonlarga yangi epizodlar qoʻsha olmaydi. Dostonni hajm jihatdan keng yoki tor qilish baxshining ixtiyorida boʻlmaydi. Demak, Xorazm dostonlarining ijrosi xalq ijodidagi improvizatsiyadan holi. Xorazm baxshisi dostonning qaysi qismini qanday kuyda ijro etilishiga koʻproq eʼtibor beradi. Baxshi dostonning har bir sheʼriy parchasini alohida kuy bilan aytadi. Natijada bir dostonning ijro etilishi maʼlum jihatdan bir necha oʻnlab qoʻshiqlarni bir syujet asosiga birlashtirgan konsert programmasini eslatadi. Xorazm dostonlaridan hajm jihatdan eng kichigini ijro etish uchun kamida oʻttiz-qirq kuyni ijro eta bilish kerak”²²⁹.

Bizga maʼlumki, xalq dostonlarining janr xususiyatlaridan biri ularda sheʼr va nasrning aralash kelishidir. Ertaklar, afsona va rivoyatlar asosan nasriy usulda berilsa, qoʻshiqlar sheʼriy usulda ifoda etiladi. Xalq dostonlarida esa har ikkalasi ham, yaʼni proza ham, poeziya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning bir-birisiz dostonni mukammal holda tasavvur qilish mutlaqo mumkin emas. Ammo shu muhim nuqtaning dostonlarda tutgan oʻrni anʼanalarga koʻra ham farq qilishi mazkur tadqiqot ishida oʻz asosini topgan. Muallif Samarqand dostonlarida poeziya va prozaning teng ahamiyat kasb etishini taʼkidlagan holda, Xorazm dostonlarida prozaik qismlar faqatgina sheʼriy parchalarni oʻzaro birlashtirish vazifasini bajarishi haqida aytib oʻtadi hamda shu masala yuzasidan maʼlum izlanishlar olib borgan V.M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarning: “Dostonning asosini sheʼr tashkil qiladi, proza esa qisqa bogʻlovchi qoʻshimchadir”, – degan fikrlarini keltirib oʻtadi. Xorazm dostonlarida prozaik boʻlaklar qisqa boʻlganidek, sheʼriy parchalar Samarqand dostonchiligidagidek uzundan-uzun misralarda emas, aksincha, qisqa-qisqa koʻrinishlarda ifodalanadi. Bundan tashqari aynan dostondagi lirik parchalar ham

²²⁸ Ўша диссертация. Б –27

²²⁹ Ўша диссертация. Б –35.

turli vazifalarni ifodalaydi: “Xorazm dostonlarida she’riy parchalar asosan lirik xarakterga ega bo‘lib, ularda qahramonlarning asar voqealari munosabati bilan paydo bo‘lgan ichki kechinmalari, ularning psixologik holatlari yoxud portretlari tasvirlanadi”²³⁰. “Samarqand dostonlarida she’riy parchalarning asosiy qismi dostonda ifodalanayotgan voqea rivojini aks ettirish protsessida belgilanadi. Ular asosan epik xarakterga ega bo‘lib, ularda asar syujetining dramatik o‘rinlari, shuningdek, qahramon olib borayotgan jang kartinalari kabi aktiv harakat ko‘rinishlari ifodalanadi”²³¹.

O‘tmishdan ma’lumki, insoniyat hayoti hamisha bosqichma-bosqich tarzda taraqqiy etib kelgan. Bu jarayon insonlarning turmush tarziga, ongiga, fikrlashiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, bir so‘z bilan aytganda ham moddiy, ham ma’naviy hayotga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shu sababdan xalq dostonchiligida, xususan, Xorazm dostonchiligida ham ma’lum o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Bu haqida filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov o‘z tadqiqot ishida shunday deydi: “Xorazmda, ayniqsa, XIX asrda madaniyatning rivojlanishi xalq og‘zaki ijodida ham ma’lum o‘zgarishlarning vujudga kelishiga olib keldi. Hofizlikning, musiqa san’atining rivojlanishi Xorazm dostonlarining ijro etish usuliga, umuman dostonlarning syujet va kompozitsiyasiga, shu jumladan, she’riy parchalarning xarakteriga ta’sir ko‘rsatgan”²³².

Har bir ijodkor, har bir xalq o‘ziga xos ijodiy prinsipga ega bo‘ladi. Folklorshunoslik sohasiga oid asarlar turli davrlarda, turli ijtimoiy jarayonlarda, turli holatlar va davralarda vujudga kelgan. Shu sababdan ularni o‘rganishda bitta yo‘nalish yoki usuldan foydalanish mantiqan to‘g‘ri emas. Asarlar yaratilgan jamiyat, tuzum, boshqaruv ularda hayotga yondashishning turlicha ko‘rinishda bo‘lganligini ifodalaydi. “Shubhasiz Mitra haqidagi mifdan tortib, Gagarin haqidagi qo‘shiqlarning yaratilishigacha xalq og‘zaki ijodi juda ko‘p taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Ana shu taraqqiyot bosqichlarining har birida yaratilgan xalq durdonalarida hayotga bo‘lgan munosabat, voqelikni tasvirlash usullari turlicha bo‘lgan”²³³. Xalq og‘zaki ijodi namunalari yillar o‘tishi bilan og‘izdan-og‘izga o‘tib, ba’zan qo‘shimchalar qo‘shilishi, ba’zan esa ayrim qismlarning olib tashlanishi kabi o‘zgarishlar bilan yetib kelgan. Shu tarzda jamiyatda, insoniyat ongida bo‘layotgan o‘zgarishlar asarga singdirib yuborilgan. Natijada asarlarda hayotiylik ancha chuqur o‘rin egallagan.

²³⁰ Ўша диссертация. Б –37

²³¹ Ўша диссертация. Б –39

²³² Ўша диссертация. Б – 47

²³³ Ўша диссертация. Б – 55

Umuman olganda hayotiylik (realizm) barcha asarlarga, jumladan, xalq ogʻzaki ijodi mahsuli boʻlgan dostonlarga ham xosdir. Faqtagina asarda qay darajada oʻrin egallagan yoki egallamaganligi bilan farqlanib turadi.

Xalq dostonlarida ham realizmning oʻrni turlicha boʻladi. Masalan, Samarqand dostonchilik anʼanasida hayotiylikdan koʻra koʻproq mubolagʻali holatlar mavjud. Boychiborning qanotli ot ekanligi, Barchin yelkalarining har biri oʻn besh qarich ekanligi, Alpomishning oʻtda yonmasligi-yu, tigʻ oʻtmasligi yoki “Ravshan” dostonidagi aka-uka kallarning holatlari, “Rustamxon” dostonida Rustamning naʼrasidan ajdarning qulogʻi bitib yiqilishi hamda Rustamdan yengilishi, shu kabilar mubolagʻali vaziyatlar hisoblanadi va ular Samarqand dostonchiligi uchun odatiy holdir. Ammo Xorazm dostonchiligida bu kabi mubolagʻalardan holi oʻlaroq hayotiylik kuchli oʻrin egallagan. “Maʼlumki, Samarqand dostonlarida Goʻroʻgʻli, Hasanxon, Avazxonlar haqida gap borar ekan ularning nihoyatda katta gavda tuzilishlari tinglovchining ham, kuylovchining ham koʻz oldida hamisha namoyon boʻladi. Xorazm dostonlarida esa Goʻroʻgʻli, Bozirgon, Avazxonlar faqat oʻrni kelgandagina Samarqand dostonlaridagidek tasvirlansalarda, asosan ular haqida tasavvur oddiy insondan yuqori boʻlmaydi. Chunonchi, “Bozirgon” dostonidagi Bozirgonning portreti, Goʻroʻgʻlining oʻttiz qoʻy terisidan qilingan poʻstinni kiyib jangga oʻtlanishlari, bir oʻzining juda koʻp sonli askarlarga qarshi kurashishlari (Qirq ming) fikrimizning dalilidir. Ammo Goʻroʻgʻlida Samarqand dostonlaridagi kabi “favqulodda” kuchni uchratmaymiz. Yuqoridagi mubolagʻalar shartli xarakterga ega boʻlib, aksari voqea rivojida esga olinmaydi. Aksincha, jang epizodlarida ham Goʻroʻgʻli jismoniy jihatdan baquvvat, oddiy odamni eslatadi. Aksari Goʻroʻgʻlining ichki psixologik holatini tasvirlashga oʻrin beriladi”²³⁴. Shu sababdan ham Xorazm dostonchiligida psixologizm kuchliroq. Goʻroʻgʻlining boshqalardan farq qilmaydigan oddiy inson qilib tasvirlanishi, qilayotgan xatti-harakatlari uni ijobiy qahramon sifatidagi qirralarini ochib berishda yordam beradi.

Badiiy asarlarda, shu bilan birga xalq dostonlarida ham ijobiy qahramonlar aksari bosh rollarda ifodalanadi. Ularning ijobiy qahramon sifatidagi jihatlari adolatlilik, mardlik, oqkoʻngillik, rostgoʻylik, rahmdillik, matonatlik, kamtarlik kabi xislatlar orqali ochib beriladi. Ular hamisha insonlarga yaxshilik ulashib, ezgulikni tarannum etib, uni himoya qilishga oshiqadilar. Bu yoʻlda turli sinovlar-u mashaqqatlarga duch kelsa-da matonat va sabr-bardosh bilan barchasini yengib oʻtishga qodir boʻladi. Ammo doston mavzu yoʻnalishiga koʻra obrazlar ham turli

²³⁴ Ўша диссертация. Б – 67

xilda bo‘ladi. Shu sababdan dissertatsiyaning ikkinchi bob, ikkinchi faslida Xorazm dostonlarida ijobiy qahramon tahlili va obraz yaratish usullari haqida fikr yuritilgan.

Qahramonlik dostonlarida doston voqealari xalq kuylayotgan qahramon atrofida yuz bersa, romanik dostonlarda oshiq va ma’shuqa atrofida ro‘y beradi. Qahramonlik dostonlarida ijobiy qahramonlar yurtparvarlik, bag‘rikenglik, rahmdillik, adolatparvarlik xislatlari bilan bezansa, sevgi-muhabbat to‘g‘risidagi dostonlarda asosiy belgi vafodorlik hisoblanadi. Millat vakillari o‘zlarining orzularini, maqsadlarini hamisha ijobiy qahramonlar bilan bog‘laydi. “Xorazm dostonlarining ko‘pchiligida asosiy qahramon sifatiga ega Go‘ro‘g‘li obrazida yuqoridagi fikrimizning to‘liq ifodasini uchratishimiz mumkin. Go‘ro‘g‘li Xorazm dostonlarida eng ko‘p uchraydigan ijobiy qahramonlardan biri. Boshqa xalq dostonlaridagi kabi qahramonlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik undagi asosiy fazilat hisoblanadi”²³⁵. Ana shu ijobiy qahramonlar orqali xalq o‘zi istagan ozod jamiyatni ko‘ra oladi, erkin va farovon hayot kelishiga umid qilib yashaydi. Ammo hech bir inson nuqsonlardan holi emas. Mukammallikka intilgan har qanday inson tabiatida ham xatoga yo‘l qo‘yish holatlari bo‘ladi. Bu inson zotiga xosdir. Shu sababdan: “Xorazm dostonlarida Go‘ro‘g‘li obrazidagi bir xususiyatni ham qayd qilish kerak. Gap shundaki, xalq Go‘ro‘g‘lini ijobiy qahramon sifatida yaratar ekan, uni hech qanday xato qilmaydigan qahramon sifatida ko‘rishni istamadi. Xalq tasavvurida inson, shu jumladan xalq yaratgan ijobiy qahramon ham benuqson bo‘lmaydi”²³⁶, - deb ifodalaydi. Dostonda bu holning yuzaga kelishi Go‘ro‘g‘lini salbiy qahramonga aylantirish uchun o‘ylab topilmagan. Bu holatni dostonga singdirishning sababi, bizning fikrimizcha, xalq Go‘ro‘g‘lini pokdomon, taqvodor, o‘z xatolaridan afsuslanib, ulardan xulosa chiqaradigan ijobiy, yanada sevimli qahramon inson sifatida ko‘rsatish, yuksaltirishdir. Chunki inson biror gunoh ish qilsa-yu bundan afsus-nadomat chekib, o‘z aybiga iqror bo‘lsa, kamchilig-u nuqsonlarini anglab, ularni tuzatishga urinsa, shubhasiz, bu inson yomonliklardan yiroq bo‘ladi. Shu sababdan Go‘ro‘g‘li ham qilgan xatolaridan pushaymon bo‘ladi. Ayni shu pushaymonlik holati uni oddiy xalq bilan yanada yaqinlashtiradi. Go‘ro‘g‘li kabi yaxshilikka intiluvchi, ezgulik ulashuvchi insonlar esa o‘z-o‘zidan xalq qalbidan joy olib boraveradi. Dostonlarda aks etgan bu hayotiylik ko‘proq Xorazm dostonchiligiga xosdir.

O‘quvchi yoki tinglovchi asardagi obrazlarni yaqqol tasavvur qilishi, ularni ko‘z oldiga keltirishi uchun yozuvchi tomonidan qahramonlarning portreti yaratiladi. Portret qahramonlarning ijobiy yoki salbiy obraz ekaniga qarab tasvirlanadi. Agar

²³⁵ Ўша диссертация. Б –74

²³⁶ Ўша диссертация. Б – 75

xalq idealidagi qahramon tasviri berilsa, uning kelishgan tashqi ko‘rinishi, shu bilan birga jismoniy imkoniyatlari, baquvvatligi, aqliy salohiyati barcha-barcha yaxshi xislatlari qo‘shib ta’riflanadi. Agar salbiy obrazning portreti yaratilsa, uning badbashara ekanligi, barcha yomonliklarga bosh bo‘lishi, qilgan yovuzliklari, umuman, tinglovchi yoki kitobxon uchun yoqimsiz taassurot qoldiruvchi jami qusurlar bilan tasvirlanadi. Ana shu ta’rif va tavsiflar orqali o‘quvchi qahramonlarni kashf etib boraveradi. Shuningdek, qahramonlar portreti butun asar davomida bosqichma-bosqich, mukammal yoritib boriladi. Asarning bir qismida qahramonning tashqi qiyofasi, yana bir o‘rnida uning xatti-harakatlari, yana bir o‘rnida uning ijobiy xislatlari yoki salbiy illatlari va hokazo tarzda keltirib boriladi. “Xalq eposidagi qahramon portretining mukammal ifodasini asarning butun teksti davomidagina ko‘z oldimizga keltirishimiz mumkin. Qahramonning portreti haqida tasavvur qilish uchun dostonning bir o‘rindagi tasvir hech qachon qoniqarli bo‘lmaydi. Asarda qahramonlarning portretlari haqida aksari bir o‘rinda ko‘proq to‘xtab o‘tiladi va tinglovchida qahramon haqida tasavvur hosil qilishga uriniladi. Qolgan parchalarda esa qahramon portretidagi detallar alohida-alohida olingan holda to‘ldiriladi, bo‘yoqlar quyushtiriladi”²³⁷. Qahramonlarning portretini yanada yaqqolroq tasvirlash uchun xalq dostonlarida qahramonlar ruhiyati, ulardagi ichki psixologizm va nutqiy xarakteristika ham muhim rol o‘ynaydi. Xalq dostonlarining barchasida qahramonning psixologik holati doimo she’riy usulda ifodalanadi. Psixologik holat ziddiyatlarning kuchayib borishi bilan rivojlanib boraveradi. Qahramon o‘z boshidan qancha ko‘p qiyinchiliklarni o‘tkazsa, uning ruhiyatidagi o‘zgarish ham shunchalik kuchayib boradi. Shu bilan birga, qahramonlarning nutqiy xarakteri ham obrazni mukammal tasvirlashda asosiy vazifani bajaradi. Asar bosh qahramonlari nutqida o‘ziga ishonch, qat’iyat aks etadi. Bu asosan qahramonlik dostonlariga tegishli holatdir. Qahramonlarning nutqi ham she’riy parchalar orqali dialog yoki monolog ko‘rinishida beriladi.

Ma’lumki, har qanday asar, u xoh nazmda, xoh nasrda yozilgan bo‘lsin, xoh yozma adabiyotga, xoh og‘zaki adabiyotga mansub bo‘lsin, barcha-barchasida o‘ziga xos badiiy uslub, badiiy tasvir vositalari mavjud bo‘ladi. Shu sababdan dissertatsiyaning uchinchi bobi, birinchi faslida Xorazm dostonlarining badiiy uslub, badiiy tasvir vositalari, xususan, o‘xshatish, mubolag‘a, sifatlash, metafora, sa’j, jonlantirish, tajnis, tajohil orifona kabi vositalar, ularning dostonidagi vazifasi va o‘rni haqida so‘z yuritilgan.

²³⁷ Ўша диссертация. Б – 81.

Badiiy tasvir vositalari asarning asar sifatida shakllanishida chuqur ahamiyat kasb etadi. Tasvir vositalari asarda bo‘layotgan voqealar, jarayonlar, undagi qahramonlar haqida o‘quvchi yoki tinglovchida kengroq tasavvur hosil qilishiga imkon beradi. Asar qahramonlari hamisha ijobiy yoki salbiyligiga qarab hayotdagi turli predmetlar bilan taqqoslanadi. Yigitlar mardligi haqida gapirilganda yo‘lbarsdek shijoatli, sheryurak, devqomat deb ta’riflansa, qizlar asosan o‘n to‘rt kunlik oy, tishlari dur, sochi sumbul, bo‘ylari sarvqomat, yonoqlari ol, lablari la’ldek, ko‘zlari ohuning ko‘zlaridek qilib tasvirlanadi. Agar salbiy obraz haqida so‘z borsa, uni tinglovchi yoki kitobxon tasavvurida yoqimsiz taassurot qoldiradigan tarzda qiyoslaydi. “Zero, bu o‘xshatishlar asarning badiiy qimmatini oshirish bilan birga asar qahramonlarini xarakter darajasiga ko‘tarilishida ham muhim ahamiyatga ega”²³⁸.

Ammo bu o‘xshatishlar ham Samarqand va Xorazm dostonchiligi an’anasida o‘ziga xos tafovutga ega. Ushbu faslni yoritishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shu ikki dostonchilik an’anasi o‘rtasidagi tasvir vositalarini qiyoslash, ularning farqini yaqqol aks ettirishdir. Dissertatsiyadan keltirilgan quyidagi parchada ana shu tafovut o‘z aksini topgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz: “Samarqand dostonlarida “Go‘ro‘g‘lining achchig‘i chillali qishday murtiga cheta qaytdi”, “Zo‘r dev edi, o‘tday tutashib ketdi” kabilarni uchramiz. Xorazm dostonlarida, shuningdek, qahramonlik dostonlarida ham qahramonning jangdan oldingi holatini belgilovchi bunday o‘xshatishlar deyarli uchramaydi. Qahramon Samarqand dostonlaridagidek arslonga, sherga, lochinga o‘xshatilgani holda bu o‘xshatishlar “sherdayin qaysar!”, “misli ajdar” darajasiga ko‘tarilmaydi. Qahramonning botirligi nisbatan portretini chizishdagi mubolag‘ali o‘xshatishlar bilan cheklab qo‘yiladi. Shuningdek, yengilgan dushmanning “itday” o‘limlarini tasvirlovchi misralar ham deyarli uchramaydi. Aksincha, qahramonlik dostonlarida ham, lirik romanik dostonlarda ham qahramon holatini oyga, gulga, bulbulga o‘xshatish momentlari ko‘p. Bizningcha, bu hol Xorazm dostonlaridagi lirik tasvirga moyillik bilan izohlanadi”²³⁹.

Badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lgan mubolag‘a xalq dostonlarida eng keng qo‘llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi. Qahramon haqida chuqurroq ma’lumot berish, uning boshqalardan yaqqol ajralib turishini ifodalash uchun ham mubolag‘adan foydalaniladi. Qahramonlik dostonlarida bosh qahramonning mardona xatti-harakatlari, romanik dostonlarda esa oshiq va ma’shuqaning jamoli, ishq yo‘lida duch keladigan sinovlari bo‘rttirib ko‘rsatiladi. “Xorazm dostonlarida mubolag‘ali tasvir vositasining bu turi asarning badiiy jihatdan pishiq chiqishida yaxshi

²³⁸ Ўша диссертация. Б – 110.

²³⁹ Ўша диссертация. Б – 110.

imkoniyatga ega. Ishlatilgan mubolag‘alar asar g‘oyasini, temasini ochishga yordam beradi”²⁴⁰. Keltiriladigan mubolag‘ali tasvirlar, portretlar she‘riy usuldan tashqari nasrdagi qofiya, ya‘ni sa‘jdan foydalangan holda ham ifodalanadi. Dissertatsiyada sa‘jning dostonchilikdagi o‘rni va vazifasi haqida ham fikr yuritilib, Samarqand dostonlarida bu tasvir vositasining mukammal ko‘rinishlari borligini ta‘kidlab, Xorazm dostonlarida bu holatning juda keng uchramasligini, bu hududdagi dostonlarda she‘riy o‘rinlar prozaga nisbatan yaxshiroq o‘rin egallaganligi aytib o‘tilgan.

Dostonlarda uchraydigan badiiy tasvir vositalaridan yana biri jonlantirish hisoblanadi. She‘riy san‘atlar orasida ham mavjud bo‘lgan ushbu tur intoq san‘ati deb yuritiladi. Bu tasvir vositasi orqali jonsiz narsalar, so‘zlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan jonzotlar tilga kiradi. G‘aribning shamolga o‘z holini bayon qilib, dil tug‘yonlarini ayishi, doston yakunida ro‘molga murojaat qilib alamli firoqning yana qaytarilmasligini so‘rab iltijo qilishi, “Sayyod va Hamro” dostonida Hamroning otasi Ahmadning turnalarga o‘zini tutqunlikdan xalos bo‘lishi uchun yordam berishini so‘rashi orqali jonlantirish vositasi yuzaga kelgan. “Umuman Xorazm dostonlarida qo‘llanilgan jonlantirish priyomi ichki psixologik o‘rinlarning chuqurroq ifoda etishida qulay bo‘lib hisoblanadi va lirik kechinmalarni to‘la aks ettirishda yordam beradi”²⁴¹.

So‘z san‘atlari orasida shunday bir turi borki, u o‘zining biroz mukammalligi, muallifdan chuqurroq so‘z boyligiga ega bo‘lishini talab qilishi, satrlar ichida so‘z o‘yinini keltirib chiqarishi bilan ajralib turadi. Mumtoz adabiyotda tuyuq janriga asos bo‘lgan va keng qo‘llangan ushbu tasvir vositasining xalq og‘zaki ijodi, xususan, dostonchiligida tutgan o‘rni qanday? Omonilla Madayev Xorazm dostonlarini tadqiq etish, o‘rganish jarayonida bu san‘at turining dostonchilikda tutgan o‘rniga ham e‘tibor qaratgan hamda bir qator asosli fikrlarni keltirib o‘tgan: “Xalq og‘zaki badiiy ijodida tajnis ko‘p qo‘llanilmasa ham ayrim hollarda uchrab turadi. Bu hol Samarqand dostonlariga ham, Xorazm dostonlariga ham mansub bo‘lib hisoblanadi”²⁴². Mana shunday o‘rganishlar davomida dostonlarda uchraydigan tajnisga oid namunalardan misollar ham keltirib o‘tilgan:

“Men sevmisham parilarning birisin,
Biri “lom”dir, biri “jim”dir, bir “sin”,
Biri ovdur, biri ovchi, biri “sin”

²⁴⁰ Ўша диссертация. Б –121.

²⁴¹ Ўша диссертация. Б –135.

²⁴² Ўша диссертация. Б – 135.

Bir ov qonli kerak yor olmasina.

Qofiyalanib kelgan “birisin” soʻzi birinchi misrada birini, yaʼni “bittasini”, ikkinchi misrada arab alifbosidagi “sin” harfini, uchinchi misrada esa tuzoq maʼnosini ifodalamoqda”²⁴³. Misralardagi tajnisa oid boʻlgan soʻzlar maʼnosini anglash uchun ijodkor ham, oʻquvchi ham chuqur bilim, yuqori darajadagi soʻz boyligiga ega boʻlishi lozim. Ana shunda bu sanʼat turi oʻzining bir-birdan goʻzal boʻlgan maʼnolar olamini ochadi.

Umuman olganda, tajnisning yuqoridagi kabi namunalari boshqa tasvir vositalari singari dostonning mukammalligini, badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi.

Maʼlumki, sheʼriy misralarni shakllantirishda qofiya, vazn, turoqning oʻrni va vazifasi oʻta muhim hisoblanadi. Shu sababdan tadqiqot jarayonida olim Xorazm dostonlarida vazn va qofiya masalasida toʻxtaladi.

Biz ushbu faslning boshlanish qismida dostonlar xususida soʻz yuritib, ularda sheʼr va nasrning aralash holda kelishini dostonning janr xususiyatlaridan biri sifatida aytib oʻtgan edik. Samarqand dostonlarida sheʼr va nasrning oʻrni teng boʻlgani holda, Xorazm dostonchilik anʼanasida poeziyaning oʻrni kengroq ekani ham taʼkidlab oʻtilgan edi. Shu sababdan ham dissertatsiyada dostonlarda asosiy rol egallovchi sheʼriy parchalardagi vazn va qofiya haqida alohida toʻxtalib oʻtilgan.

Xorazm dostonlarida sheʼriy parchalar qisqa-qisqa holda kelishi, har birining alohida kuy bilan ijro etilishi, sheʼrlarning aksar qismi aruz vazniga mos holatda yozilishi odatiy holat. Shunday boʻlsa-da, dostonda uchraydigan sheʼrlar, asosan, 8 va 11 boʻgʻinli shaklda uchrashi va ular aksar hollarda murabbaʼ koʻrinishida kelishi taʼkidlangan. Samarqand dostonlarida esa sheʼriy misralarning qofiyalanishi turlicha boʻlib, aynan bir qoidaga mos kelmagani, baʼzan murabbaʼ, baʼzan muxammas, yana bir oʻrinda musaddas shakliga ega boʻlishi aytib oʻtiladi. Shuningdek, qofiyalanishda ham Xorazm dostonlaridagi sheʼriy parchalar Samarqand dostonlaridan farq qiladi. “Samarqand dostonlarida sheʼriy parchalarning qofiyalanishi turlicha boʻlib, (aa, ба, га, да); (aa, ба, ава); (aaa, ббб, ввв) va h.k.”²⁴⁴.

XULOSA

Endi Xorazm dostonlaridagi qofiyalanish tizimiga eʼtibor qaratamiz. Xorazm dostonlarida qofiyalanish tizimi “абаб”, “ВВВб”, “ГГГб” tarzida maʼlum tartib asosida

²⁴³ Ўша диссертация. Б – 136.

²⁴⁴ Ўша диссертация. Б –142-143.

bo'radi. Ushbu dostonchilikni mukammal o'rgangan olim "Bunday qofiyalanishni Xorazm dostonlaridagi yetakchi forma deyish mumkin"²⁴⁵, - deya izohlaydi.

O'zbek folklorshunosligida Xorazm dostonchilik an'anasi qisman o'rganilib ma'lum bir izlanishlargina olib borilganini maqolamizning boshlang'ich sahifalarida ta'kidlab o'tgan edik. Omonilla Madayev ana shu tadqiqotni mukammal darajada davom ettirdi. Ustozning izlanishlari natijasi sifatida Xorazm dostonchilik an'anasi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida yozilgan tadqiqot ishi folklorshunosligimiz uchun muhim manba vazifasini o'taydi.

REFERENCES

1. А. Ишаев. Шоҳсанамнинг ватани қаер? "Фан ва турмуш", 1971 йил, 2 сон.
2. В.В.Кожинев. Сюжет, фабула, композиция, в кн. Теория литературн, М., 1964.
3. Д. Қуронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Akademnashr. 2010.
4. Мадаев О. "Хоразм дostonлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари". Тошкент – 1973.
5. М. Қобулнийёзов. Сўзбоши (Сайёд ва Ҳамро дostonи), Тошкент, 1964.
6. Ҳ. Т. Зарифов. Улкан халқ санъаткори, Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни китобида. Тошкент, 1971 йил.

²⁴⁵ Ўша диссертация. Б –143.

TALABALAR IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING O‘RNI

Omanov Po‘lat Xabitovich
O‘zDJTU (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada autentik materiallar orqali talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni va shakllarini rivojlantirish masalasi muhokama qilinadi. Tilda so‘zlashuvchilarning ijtimoiy va nutq odob-axloqi, ularning urf-odatlari, o‘zini tutish qoidalari, ijtimoiy stereotiplar, tarix va madaniyatning milliy va madaniy xususiyatlaridan xabardor bo‘lish jarayoni va ushbu bilimlardan muloqotda foydalanish ikki tomonlama faoliyatdir.

Kalit so‘zlar: *autenik materiallar, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, madaniyatlararo chorraha, autentik videomateriallar, masofaviy o‘qitish.*

ABSTRACT

In this article, the issue of the development of the content and forms of the development of socio-cultural competences of students through authentic materials will be discussed. The process of being aware of the social and speech morals of language speakers, their customs, rules of conduct, social stereotypes, national and cultural characteristics of history and culture, and the use of this knowledge in communication is a bilateral activity.

Key words: *authentic materials, socio-cultural competence, intercultural crossroads, authentic video materials, distance learning.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается вопрос развития содержания и форм развития социокультурных компетенций студентов на аутентичных материалах. Социальный и вербальный этикет носителей языка, их обычаи, правила поведения, социальные стереотипы, процесс осознания национальных и культурных особенностей истории и культуры, а также использование этих знаний в общении являются двусторонними действиями.

Ключевые слова: *аутентичные материалы, социокультурная компетентность, межкультурный перекресток, аутентичные видеоматериалы, дистанционное обучение.*

KIRISH

Umumjahon miqyosida axborot tizimining globallasib borayotgani, xalqarolashuv jarayoni kengayib borayotgani chet tillarini o'qitishni yanada optimallashtirishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy-madaniy strategiyalar samaradorligini oshirishda chet tili mutaxassislarining kasbiy va ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning didaktik va psixologik omillarini o'rganish, distant ta'lim, raqamli iqtisodiyot va boshqa ijtimoiy fikr almashinuv jarayonlarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish bugungi kunda barcha sohalarda dolzarb bo'lib qolmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarga oid matnlarni tanlash, mavzularga moslashtirish hamda talabalarni mazkur mavzu leksikasiga o'rgatuvchi mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Tadqiqotimiz ob'ekti sifatida autentik videomateriallar tanlangani uchun biz tavsiya qilgan mashqlar tipologiyasini bevosita videomateriallarni namoyish qilish jarayoni bosqichlari bilan bog'lagan holda mashq va topshiriqlar bilan ishlashni uchta asosiy: namoyishdan oldingi, namoyish jarayonidagi, namoyishdan keyingi bosqichlarda tashkil etishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik. Autentik videomateriallar namoyishi jarayonida talabalar epizodlar orasida joy olgan muayyan mashq va topshiriqlarni bajaradilar. Bu talabalarning videolavhalar mazmunini teran his qilib, tushunib olishlariga xizmat qiladi.

Ushbu bosqichlarda qo'llanadigan mashq va topshiriqlar turlarini ishlab chiqishda asos sifatida V.A.Buxbinder va Ye.A.Lagay tomonidan yaratilgan kommunikativ mashqlardan foydalanildi. V.A.Buxbinder o'z tadqiqotlarida informasion, operasion va motivasion mashqlar turlarini ajratgan. Ularni bilim, ko'nikma va malaka berish mashqlari deb atash ham mumkin. Ye.A.Lagayning tadqiqot ishida esa mashqlar 3 turga ajratiladi: reseptiv mashqlar (tayyorlov, analitik va imitativ), reproduktiv mashqlar (sintetik, yarimkonstruktiv), produktiv mashqlar (konstruktiv va transformasion) turlariga bo'lib o'rganilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda autentik videomateriallarni namoyish etishning uch bosqichli takomillashtirilgan quyidagi tizimini taklif qildik (1- jadvalga qarang):

1- jadval

Autentik videomateriallarni namoyish qilishning uch bosqichli tizimida mashq va topshiriqlar turlari

<p><u>Birinchi bosqich</u></p> <p>Namoyishdan oldingi jarayon</p>	<p>1. Autentik materialning ijtimoiy-madaniy konteksti bilan tanishish</p> <p>2. Yangi soʻzlar va iboralar nutqning qaysi registriga (rasmiy, norasmiy) tegishli ekanligini aniqlash;</p> <p>3. Soʻzlarni va soʻz birikmalarini tematik asosda guruhlariga birlashtirish; (mind mapping)</p> <p>4. Soʻzlashuv yoki boshqa uslubga xos boʻlgan turgʻun iboralar, klishe birikmalar tahlili (turli ijtimoiy madaniy kontekstlarga toifalash)</p>
<p>Reseptiv mashqlar</p>	
<p><u>Ikkinchi bosqich</u></p> <p>Namoyish jarayoni</p> <p>Reproduktiv mashqlar va metodlar</p>	<p>1. Sotsiolingvistik kuzatish jarayoni</p> <p>2. Ijtimoiy-madaniy tahlil jarayoni</p>
<p><u>Uchinchi bosqich</u></p> <p>Namoyishdan keyingi bosqich</p> <p>(Kommunikativ holatni yaratish bosqichi)</p>	<p>1. Muhokama jarayoni bahs-munozara, savol-javob.</p> <p>2. Hamkorlikda ishlash: “<i>Illyustrativ aqliy hujum</i>” (“<i>Image Brainstorm</i>”), “<i>Birgalikda harakat qilish</i>” (“<i>Share and Care</i>”), “<i>Soxta vikipediya</i>” (“<i>Fake Wikipedia</i>”) metodi, “<i>Mamlakat faxri</i>” (“<i>Pride of the Country</i>”), “<i>Qiyinchilik gʻaltagi</i>” (“<i>Reel of Difficulty</i>”) metodlari.</p> <p>3. Simulyatsion oʻyinlar orqali real kommunikativ vaziyatni yaratish (ijtimoiy-madaniy kommunikativ holat orqali til koʻnikmalari va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani namoyish qilib berish)</p>
<p>Produktiv mashqlar va metodlar</p>	<p>4. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlangan holatini aniqlash</p>

Ushbu mashq va topshiriqlar oʻqituvchi tomonidan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan autentik materiallarni talabalar tomonidan tushunib, anglab qabul qilishga yoʻnaltirish koʻzda tutiladi. Talabalar avvaldan shu

yo‘nalishga tayyorlangandan so‘ng, autentik materialni ko‘rsa, eshita ularning har bir qirrasini, unsuri diqqat bilan kuzatiladi.

II. Namoyish jarayonida talabalarga autentik videomateriallarni ko‘rish jarayonida 2 xil kuzatuvni amalga oshirishi topshiriladi.

1. Sotsiolingvistik kuzatuv:

- suhbatdoshlarning xususiyatlari (yoshi, jinsi, kelib chiqishi, ijtimoiy iqtisodiy holati, kasbiy faoliyat sohasi va boshqalar)ni kuzatish, nutq birliklarini va ekstralingvistik vositalarini tanlanishini hamda ularning nutqiy jarayonga ta‘sirini tahlil qilish;

- suhbatdoshlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga muvofiq ravishda ularning aksenti, nutq tezligi xususiyatlarini tahlil qilish (AQSh, Buyuk Britaniya shevalari, so‘zlovchilarning ona tili misolida)

2. Ijtimoiy-madaniy kuzatuv:

1) ijtimoiy-madaniy xarakterga ega so‘zlarni belgilab olish, ijtimoiy madaniy xarakterga ega so‘zlarning qaysi ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda ishlatilishi aniqlash.

Chia urug'lari - zarari va kontrendikatsiyasi

Chia urug'ida juda ko'p vitaminlar, mikroelementlar va makronutrientlar bo'lgani uchun bu mahsulotning xavfliligi haqida gapirishga hojat yo'q [5]. Esda tutish kerak bo'lgan asosiy narsa bu urug'larni har kuni iste'mol qilishdir, chunki ularning haddan tashqari ishlatilishi oshqozon -ichak trakti ishida asoratlarga olib kelishi mumkin. Ushbu mahsulot tanaga aniq ta'sir qiladi, shuning uchun ba'zi odamlar uni ishlata olmaydi. Chia urug'lari quyidagi holatlardan tashqari zarar etkazmaydi:

Ba'zi hollarda, chia urug'lari iste'mol qilinganda, mahsulot tarkibida ko'p miqdordagi xun tolasi borligi sababli gaz hosil bo'lishi kuchayishi mumkin;

- bu urug'larni aspirin va boshqa antikoagulyantlar bilan birgalikda ishlatish qat'iyan man etiladi;
- allergik reaksiya, teri toshmasi, nafas olish asoratlari,
 - diareya;
 - oziq-ovqat zaharlanishi;
 - shamollash va ob-havoga qarshi kurashish;
 - prostata saratoni;
 - chia urug'ining har qanday tarkibiy qismiga individual intolerans;
 - Homiladorlik;
 - ko'krak suti bilan oziqlantirish;
 - hipoglisemik preparatlarni parallel qabul qilish;

Chia urug'ini iste'mol qilishning to'g'ri usuli qanday?

Ushbu mahsulot tarkibidagi ozuqa moddalarining bir qismi tananing kundalik ehtiyojidan oshib ketishini hisobga olsak yuqori kaloriya tarkibi, bu urug'lardan foydalanishni cheklash haqida eslash kerak. Kattalar uchun kunlik norma - 1-2 osh qoshiq, bola uchun - 1-2 choy qoshiq. Bunday mahsulot tanani foydali moddalar bilan to'yintirish uchun etarli. Urug'larni namlangan holatda ishlatish maqsadga muvofiqdir, chunki bu holda mahsulot kerakli miqdordagi namlikni oladi va tanadagi suyuqlikni o'zlashtirmaydi.

XULOSA

Shunisi e'tiborga loyiqki, urug'lar ishlatishdan oldin hech qanday ishlov berishni talab qilmaydi va neytral ta'mi tufayli yong'oqni biroz eslatadi, bu mahsulot urug'larining maydaligi sababli har qanday ko'rinishdagi idishlarga muammosiz saqlash imkonini beradi.

Xulosa sifatida shuni aytishim joizki bu o'simlik inson organizimi uchun kerakli bo'lgan juda ko'p miqdorda vitamin va minerallarni o'z ichiga oladi. Me'yorida istemol qilingan chia urug'lari inson salomatligi uchun beqiyos foyda mabaaidir.

REFERENCES

1. <https://www.diyetz.com/uz/chia-tohumu-besin-degeri/>
2. <https://uz.alietc.com/amazing-health-benefits-of-chia-seeds/>
3. М. Абдурахманова, А.К. Сафаров, К.С. Сафаров// ЧИА ЎСИМЛИГИНИНГ (ИСПАН МАВРАГИ – *SALVIA HISPANICA L.*) БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИГА ЎСТИРИШ ШАРОИТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ-
4. Абдурахманова М., Сафаров К.С.-ИСПАН МАВРАГИ - ЧИЯ (*SALVIA HISPANICA L.*) – ИСТИҚБОЛЛИ ШИФОБАХШ ЎСИМЛИКНИНГ ИНТРОДУКЦИЯСИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР// Аграр соҳани барқарор ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси, Тошкент-2020-йил
5. Байкова Е.В. Закономерности морфологической эволюции шалфеев (*Salvia*, *Lamiaceae*) //Автореф. дисс. док. биол. наук.- Москва, 2005. -36 с.

BAZALT TOLASINI ISHLAB CHIQRISHDA XOM-ASHYONING YAROQLILIK DARAJASINI MOS FORMULALAR BILAN ANIQLASH

Alisher Xudoyqulov

Islom Karimov nomidagi TDTU “Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya”
fakulteti GMP kafedrası assistenti.

E-mail: alisherhudoyqulov91@gmail.com

Islom Shoqosimov

“MEGA INVEST INDUSTRIAL» MChJ laboratoriya va texnik nazorat bulimi
boshlig‘i.

Shaxruz Amirkulov

Islom Karimov nomidagi TDTU stajyor tatqiqotchi izlanuvchisi.

Bobur Xudoyqulov

Islom Karimov nomidagi TDTU magistr talabasi.

Rufadjon Boymonov

Islom Karimov nomidagi TDTU ”Neft va gaz” fakulteti “Neft-gaz sanoati
mashina va jixozlari” kafedrası katta o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bazalt xom-ashyosining turlari ishlatilishdagi foydaliligi shuningdek, har xil turdagi tola ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan bir komponentli tog‘ jinslarining me‘yoriy tarkibi, ximiyaviy tarkibining sanoatdagi talablari, ularning o‘lchamlari va qo‘llanilishi keltirilgan. Bundan tashqari bazalt xom-ashyosidan olingan tolalarning sifati va yaroqliligiga katta ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar (qovushqoqligi, kislotalik moduli, gil-tuproqlilik darajasi)ning me‘yorlari va ularni mos formulalari orqali hisoblash yo‘llari keltirilgan. Shuningdek, maqolada “MEGA INVEST INDUSTRIAL» MChJ laboratoriyasi taqdim qilgan “Osmonsoy”, “Qorabuloq”, Ukrainaning “Podgorniyanskiy” Gruzianing “Marneulsk” istiqbolli maydonlaridan olingan namunalari, “Berkuttau”, “Madaniyat”, “Aktash”, uchastkalaridan olingan namunalarning kimyoviy tarkibi, qovushqoqligi, kislotalik moduli va gil-tuproqlilik darajasi o‘zaro solishtirildi va ishlab chiqarishga yaroqliligi jahondagi yetakchi bazaltni qayta ishlovchi korxonalarining talablari bilan taqqoslandi.

***Kalit so‘zlar:** Bazalt, qovushqoqlik, kislotalik moduli, gil-tuproqlilik darajasi, xom-ashyo, tola, mineral, molyar massa.*

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРИГОДНОСТИ СЫРЬЯ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА БАЗАЛЬТОВОГО ВОЛОКНА С СООТВЕТСТВУЮЩИМИ ФОРМУЛАМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены полезность использования различных видов базальтового сырья, а также нормативный состав однокомпонентных пород, используемых для производства различных типов волокон, промышленные требования к их химическому составу, их размерам и применению. Кроме того, соблюдаются нормы факторов (вязкость, модуль кислотности, содержание глинистого грунта), которые оказывают значительное влияние на качество и пригодность данных для базальтового сырья и их залежей. В статью также включены образцы из лаборатории ООО «MEGA INVEST INDUSTRIAL» «Осмонсой», «Карабулак», Украина «Подгорнянский», Грузия «Марнеульск», перспективные месторождения «Беркуттау», «Маданият», «Акташ» химический состав, вязкость, содержание глинистого грунта сравнение его жизнеспособности с требованиями ведущих мировых предприятий по переработке базальта.

Ключевые слова: *Базальт, вязкость, модуль кислотности, уровень глинистой почвы, сырье, волокно, минерал, молярная масса.*

DETERMINATION OF THE SUITABILITY OF RAW MATERIALS IN THE PRODUCTION OF BASALT FIBER WITH APPROPRIATE FORMULAS

ABSTRACT

This paper presents the usefulness of the use of different types of basalt raw materials, as well as the normative composition of single-component rocks used for the production of various types of fiber, the industrial requirements of their chemical composition, their size and application. In addition, the criteria of factors that have a significant impact on the quality and suitability of fibers obtained from basalt raw materials (viscosity, acidity modulus, clay-soil level) and ways to calculate them using appropriate formulas are presented. The article also includes samples from the laboratory of "MEGA INVEST INDUSTRIAL" LLC "Osmonsoy" "Karabulak" Ukraine "Podgornyansky" Georgia "Marneulsk" promising fields "Berkuttau" "Madaniyat" "Aktash" chemical composition, viscosity and clay-soil level was compared and its viability was compared with the requirements of the world's leading basalt processing enterprises.

Keywords: *Basalt, viscosity, acidity modulus, clay-soil level, raw material, fiber, mineral, molar mass.*

KIRISH

Hozirgi vaqtda metallni tejash uchun uni bir qator sohalarda tanqis bo‘lmagan va chidamli materiallarga almashtirish masalalariga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Metallni tejash, uning o‘rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni keng joriy etishni o‘z ichiga oladi. Uning o‘rnini bosadiganlardan biri tosh kuyishdir, ulardan 800 dan ortiq turdagi bardoshli va kislotalarga chidamli sanoat mahsulotlari tayyorlanadi.

Bundan tashqari, tosh buyumlar deyarli barcha kislotalar, ishqorlar va tuzlarning ta’siriga bardosh beradi va temir, qo‘rg‘oshin, boshqa rangli metallar va ularning qotishmalari kabi himoya materiallarini o‘rnini bosa oladi.

So‘ngi paytlarda UBT (uzluksiz bazalt tolasi) ga talab keskin ko‘tarildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bazalt tolalari noyob texnologik xususiyatlarga ega, ulardan qurilish sohasida foydalanish katta iqtisodiy samara beradi. Bazaltli-plastmassa quvurlarning xizmat qilish muddati bir asrga yaqinlashmoqda. 1 kg bazalt plastik mustahkamlashdan foydalanish 9 kg po‘latni tejashga imkon beradi. Kelgusida barcha sanoat va qurilishlarda bazalt tolasini asbest o‘rnini bosuvchi vositadan foydalanish rejalashtirilgan.

Har xil turdagi tola ishlab chiqarish uchun qo‘llaniladigan bir komponentli tog‘ jinslarining me‘yoriy tarkibi

Komponentlar nomi %	Massa ulushi			
	Dag‘al tola	Uzluksiz tola	Ingichka tola	Super nozik
SiO ₂	48,0-53,0	47,5-55,0	43,0-51,0	46,0-52,0
Al ₂ O ₃	13,0-18,0	14,0-20,0	10,0-17,0	13,0-18,0
FeO+Fe ₂ O ₃	8,0-15,0	7,0-13,5	10,0-18,0	8,0-15,0
TiO ₂	0,5-2,0	0,2-2,0	0,2-3,0	0,5-2,5
CaO	6,5-11,0	7,0-11,0	8,0-13,0	6,05-11,0
MgO	3,0-10,0	3,0-8,5	4,0-15,0	3,5-10,0
Na ₂ O+K ₂ O	2,0-7,5	2,5-7,5	2,0-5,0	2,0-7,5
Mn ₂ O ₃	≥0,5	≥0,25	≥0,4	≥0,5
SO ₃	≥1,0	≥0,2	≥1,0	≥0,5
Qizdirilgandagi	≥5,0	≥5,0	≥5,0	≥5,0

massa yo‘qotish				
Qovushvovlik moduli	1,9-2,5	2,2-3,0	1,7-2,0	1,8-2,4

- *Dag‘al tola*-diametri 15 dan 25 mikrongacha va uzunligi 5 dan 1500 mm gacha bo‘lgan tolalar;

- *Uzluksiz tola*- issiqlik izolyatsiyasi uchun izolyatsiya materiallari, issiqlik uskunalari, quvurlar, aloqa, tog‘- metallurgiya zavodlarida chiqindi gazlarni changdan tzalash uchun filtrlar, oqova suvlarni tzalash uchun filtrlar.

Hozirgi vaqtda bazalt jinslaridan uzluksiz tolalarga katta qiziqish mavjud. Bu qiziqish birqancha omillarga bog‘liq:

- bazalt tolalari ko‘p jixatdan shisha tolalaridan yuqori xususiyatlarga ega;
- bazalt tolalarini ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasi amalda cheksiz;
- so‘nggi yillarda texnologik yutuqlar UBT ishlab chiqarish tannarxini shisha tolasini ishlab chiqarish darajasigacha sezilarli darajada pasaytirish imkonini berdi;

- *Ingichka tola*-diametri 9 dan 15 mikrongacha va uzunligi 3 dan 1500 mm gacha bo‘lgan tasodifiy joylashtirilgan tolalar qatlami;

- *Super nozik*-diametri 0.5 dan 3 mikrongacha va uzunligi 10 dan 50 mm gacha bo‘lgan tasodifiy joylashtirilgan tolalar qatlami;

tikilgan issiqlik va ovoz o‘tkazmaydigan matlar va ovoz o‘tkazmaydigan (BZM, ATM) buyumlar, karton (TK-1, TK-4), ko‘p qatlamli to‘quv bo‘lmagan materiallar, issiqlik izolyatsiyalovchi trikotaj va tikuv materiallari, uzun issiqlik o‘tkazmaydigan chiziqlar va to‘plamlar (BTSh-8, BTSh-20, BTSh-30), yumshoq issiqlik o‘tkazmaydigan gidrofob plastinkalar, filtrlar va boshqalar.

Bazalt Xom ashyosi ximiyaviy tarkibining sanoatdagi talablari.

Komponentlar nomi %	“Mega invest industrial” MChJ	RST USSR 5020-80 xom ashyodan shtapel tolalar ishlab chiqarish uchun	TU 21 USSR 410-86 xom ashyodan supernozik tola ishlab chiqarish uchun	TU 21 GSSR 137-84 xom ashyodan uzluksiz tola ishlab chiqarish uchun	SATBIC (KHD) xom ashyodan uzluksi tola ishlab chiqarish uchun
SiO ₂	47,5-53,0	43,0-51,0	46,0-52,0	47,5-52,5	52,0-54,5
Al ₂ O ₃	14,0-20,0	11,0-17,0	13,0-18,0	14,0-18,0	14,0-16,3

FeO	6,0-13,5	10,0-18,0	8,0-15,0	7,0-13,5	4,5-5,5
Fe ₂ O ₃					3,5-4,5
CaO	7,0-11,0	8,0-13,0	6,5-11,0	8,0-11,0	8,0-9,0
MgO	1,0-8,5	4,0-12,0	3,5-10,0	3,5-8,5	6,5-7,5
K ₂ O		2,0-5,0	2,0-6,0	2,5-6,0	0,7-1,6
Na ₂ O	1,5-7,5				3,0-3,5
TiO ₂	0,2-2,0	0,2-1,6	0,5-2,5	0,2-2,0	1,3-1,6
MnO	0,25	≥0,40	≥0,50	≥0,2	
SO ₃	0,2	≥1,0	≥0,50	≥0,2	
p.p.p.	-	≥3,0	≥5,0	≥4,0	

90-yillarda sobiq davlat ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonga 200 tonnagacha bazalt tolasi import qilingan, qo'shimcha ravishda 450-500 ming.m³ mineral jun iste'mol qilingan.

Bazalt tolasiga bo'lgan talabning ortib borishini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining va shu sohani rivojlartira olgan bir necha mamlakatlarning turli istiqbolli maydonlaridan olingan namunalarning kimyoviy tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ob'ekt, №№ prob	Kimyoviy tarkibi (v %)										
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Fe ₂ O ₃	Mn ₂ O ₃	CaO	MgO	TiO ₂	Na ₂ O	K ₂ O	SO ₃	p.p.p
Berkuttau	53,1	14,6	8,5	0,15	6,7	3,9	0,7	3,9	1,7	0,22	4,32
Madaniyat	46,0	11,21	15,35	0,23	8,93	5,92	2,95	0,86	0,4	0,15	5,21
Aktash	55,6	16,4	11,2	0,14	12,1	7,5	1,15	2,21	1,50	0,17	2,4
Osmonsoy	44,7 5	14,20	9,5	0,17	13,2 5	3,08	1,94	3,05	1,29	0,24	8,1
Qorabuloq	47,1 7	17,36	10,76	0,37	9,24	2,15	0,71	3,49	1,95	0,12	5,1
Podgornyanskiy	53,6 8	17,57	10,86	0,22	7,26	3,22	1,17	2,24	1,65	0,12	2,3
Marneulsk	49,0 3	16,60	9,90	0,32	9,5	4,50	2,85	2,30	0,70	-	1,84

Ukraina laboratoriyasining ma'lumotlariga ko'ra, 1990 yilda tola ishlab chiqarish uchun bazalt xom ashyosiga bo'lgan sano'at talablari quyidagicha:

- xom ashyo tuzilmaviy-teksturaviy jihatdan birlashtiruvchi, bir hil bo'lishi kerak;

- material tarkibida barqaror;

- deyarli tarkibida kremniyli minerallar, temir va magniyli minerallar, shuningdek fosfor va oltingugurtga boy minerallar mavjud emas.

Sinab ko'rilgan xom ashyo sifatining tahlili shuni ko'rsatdiki:

- eng yaxshilari - asosiy plagioklazli qadimiy zaif kristallangan bazaltlar (albitizatsiya olib tashlanmaydi);

- gidrotermik jihatdan o'zgartirilgan tog' jinslari mos emas, chunki xom ashyoda kvars, karbonatlar ruxsat yetilmaydi, chunki bo'sh kvarsning mavjudligi eritish jarayonini sekinlashtiradi va ikkilamchi xlorit singari karbonatlar, epidot tolalarni ishlab chiqarish jarayonida kuchli gaz evolyusiyasini keltirib chiqaradi;

- MgO tarkibi 7,5% dan oshmasligi kerak, chunki uning ortishi yuqori kristallanish chegarasining ortishi sababli eritmaning kristallanish xususiyatlariga ta'sir qiladi;

- Yuqori yo'qotishlar, ya'ni, tog' jinsi nisbatan yangi bo'lishi kerak, bu uning erish tezligiga ta'sir qiladi.


Bularga qushimcha ravishda O'zbekistonda yagona bulgan bazaltdan tola oladigan "Mega Invest Industrial" MChJ ma'lumotlariga ko'ra

- Al₂O₃ miqdori 14-20% oralig'ida bo'lishi lozim. Sababi Al₂O₃ tog' jinsining qovushqoqlik darajasiga ijobiy tasir ko'rsatadi.


Agar Al₂O₃ miqdori past darajada bo'lsa bazalt mineral toshi erishi jarayonida pech ichida kristallanish kuzatilishi kayd etiladi.

-Agar titan miqdori 2% dan oshib ketadigan bo'lsa tola tarkibi mikroskopik tekshirilganda elementar tolani kristallanishini kuzatish aniqlandi.

- Ta'kidlash joizki, bazalt tolasining yaroqliligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri fizik -kimyoviy, mineralogik, geokimyoviy, petrografik va boshqa xususiyatlar bilan bir qatorda kislotalilik moduli hisoblanadi:



$$M_k = \frac{XCaO + XMgO}{XSiO_2 + XAl_2O_3}$$



Bu yerda: XRMOn-tarkibidagi oksidlarning massa ulushi.

Bundan tashqari, kislotalilik moduli qanchalik yuqori bo'lsa, tola suv va namlikka shunchalik chidamli bo'ladi va shuning uchun ham bardoshli bo'ladi. Shu bilan birga, SiO₂ + Al₂O₃ ning oshishi hisobiga kislotalilik modulining oshishi erish nuqtasining oshishiga, eritmaning yopishqoqligining oshishiga va yakuniy


mahsulotni eritish mahsuldorligining pasayishiga olib keladi. Kislotalilik moduli kamida 1,5-1,8 bo‘lishi kerakligi, bir komponentli bazalt aralashmalari uchun 4,0 gacha, ba’zan esa 5,5-7,0 gacha ko‘tarilishi tajriba yo‘li bilan aniqlangan.

“Mega Invest Industrial” MChJ ma’lumotlariga ko‘ra hozirgi vaqtda O‘zbekiston, Ukraina va Gruziyadagi uzluksiz bazalt tolasi ishlab chiqarishga istiqbolli maydonlaridan olingan namunalar asosida Kislotalik moduli 4-jadvalda keltirilgan.


Ob’ekt, №№ prob	(SiO ₂ + Al ₂ O ₃) / (CaO+ MgO)
Berkutau (Sultanuvays)	6,4
Madaniyat (Jizzax)	3,85
Aktash (Samarkand)	3,67
Osmonsoy(Jizzax)	3,61
Qorabuloq(Namangan)	5,66
Podgornyanskiy(Ukraina)	6,8
Marneulsk(Gruzya)	4,69

Bazalt xomashyosidan tola olish jarayonida qovushqoqlik darajasining texnik me’yolarini (2.2-3.0) ko‘rib chiqish lozim.

Qovushqoqlik moduli:



$$M_q = \frac{MSiO_2 + 2MAl_2O_3}{2MFe_2O_3 + MFeO + MCaO + MMgO + MK_2O + Na_2O}$$



Bu yerda: MRmOn-Tarkibida oksidlarning miqdoriy ulushi

Elementlar	Mol.mass	Minerallar		Mol.mass
O	16	SiO ₂	28+(2*16)	60
Si	28	Al ₂ O ₃	(27*2)+(3*16)	102
Al	27	Fe ₂ O ₃	(56*2)+(3*16)	160
Fe	56	FeO	56+16	72
Ca	40	CaO	40+16	56
Mg	24	MgO	24+16	40
K	39	K ₂ O	(39*2)+16	94

Na	23	Na ₂ O	(23*2)+16	62
Ti	48	-	-	-
Mn	55	-	-	-
S	32	-	-	-

O‘zbekiston, Ukraina va Gruziyadagi uzluksiz bazalt tolasi ishlab chiqarishga istiqbolli maydonlaridan olingan namunalar asosida Kislotalik moduli 4-jadvalda keltirilgan

Ob’ekt, №№ prob	M _q
Berkutau (Sultanuvays)	1,69
Madaniyat (Jizzax)	3,8
Aktash (Samarkand)	1,4
Osmonsoy(Jizzax)	2,05
Qorabuloq(Namangan)	2,6
Podgornyanskiy(Ukraina)	3,1
Marneulsk(Gruzya)	2,6

Gil-tuproqlilik darajasi uzluksiz bazalt tolasi olishda qovushqoqligiga katta tasir ko‘rsatadi va quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$al^I = \frac{Al_2O_3}{Fe_2O_3 + FeO + MgO}$$

Shunday qilib, hamma namunalarning bazaltoidlari yuqori va gil-tuproqlilik darajasi $al^I > 1$ bo‘lishi lozim. Quyidagi jadvalda istiqbolli maydonlardan olingan namunalarning gil-tuproqlilik darajasi keltirilgan.

Ob’ekt, №№ prob	al ^I
Berkuttau (Sultanuvays)	1,18
Madaniyat (Jizzax)	0,53
Aktash (Samarkand)	0,88
Osmonsoy(Jizzax)	1,13
Qorabuloq(Namangan)	1,2
Podgornyanskiy(Ukraina)	1,25
Marneulsk(Gruzya)	1,15

Xulosa qilib shuni ta’kidlash keragki, bazalt xom-ashyosidan tola olish jarayonida eritmani tashkil etadigan barcha oksidlar uning kristallanishiga turlicha

ta'sir ko'rsatadi, shu sababdan geologik izlanishlar vaqtida geologik uchastkadan olingan namunalarning kimyoviy tarkibi xom-ashyoning yaroqlilik darajasini belgilovchi eng asosiy omil xisoblanadi. Misol sifatida qaraydigan bulsak dunyodagi eng yetakchi, zamonaviy zavod va fabrika("Mega invest industrial" MChJ, "TU 21 USSR 410-86", "TU 21 GSSR 137-84", "SATBIC"(KHD))larning bazalt tolasini ishlab chiqarishda ishlatilayotgan xom-ashyolarning kimyoviy tarkiblarining oksidlari aniq intervalda cheklanganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari bazalt eritmasidan tola ishlab chiqarishda oksidlarning har xil nisbatda taqsimlanishi ularning qovushqoqligi, kislotalik moduli va gil-tuproqlilik darajasini belgilab beradi. Bazalt eritmasining qovushqoqligi ishlab chiqarilayotgan tolaning diametriga katta tasir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasidan olingan namunalarning qovushqoqligi Madaniyat, Osmonsoy va Qorabuloq uchastkalaridan olingan namunalarda me'yorda(2,2-3,0) ekanligini ko'rsatdi.

XULOSA

Ishlab chiqarilgan bazalt tolalarining mustahkamligi suv va namlikka chidamliligi, kislotalardoshliligi, kislotalik modulini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

Kislotalilik moduli qanchalik yuqori bo'lsa, tola suv va namlikka shunchalik chidamli bo'ladi. Shu bilan birga, $\text{SiO}_2 + \text{Al}_2\text{O}_3$ ning oshishi hisobiga kislotalilik modulining oshishi erish nuqtasining oshishiga, eritmaning yopishqoqligining oshishiga va yakuniy mahsulotni eritish mahsuldorligining pasayishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasidan olingan barcha namunalarda kislotalik moduli me'yorida ekanligini ko'rsatdi.

REFERENCES

1. www.basalt.uz
2. Попович А.А., Семечкина Е.И., Матласевич Б.Е. Отчёт о результатах поисково-оценочных работ на основные магматические горные породы для производства каменного литья и минеральной ваты на территории УзССР за 1960-1962гг, 1964г.
3. Баранов В.В., Конеев Р.И. и др. Обобщение материалов по геологии и рудоносности Султануиздагского региона за 1988-1992гг., 1992
4. Логвин С.И., Корниенко Ю.Н. и др. Геологическое доизучение масштаба 1:50 000 с общими поисками и среднемасштабное глубинное геологическое картирование домезазойского фундамента в пределах листов К-41-61-Б, Г в западной части гор Султануиздаг. Отчёт Султануиздагской партии о

результатах геолого-съёмочных работ за 1990-1998гг. в 4-х книгах, пос. Эшонгузар, 2000г

5. Артыков Т.К., Дементеев Л.И. и др. Геологическое строение и полезные ископаемые восточной части гор Султанувайс. Отчёт на проведение ГС, ГДП масштаба 1:50 000 и среднемасштабного ГГК домезозойского фундамента в пределах листов К-41-62-В, Г; 74-А, Б гор Султанувайс за 1998-2003 гг. Пос. Эшонгузар, 2003 г.

6. Отчёт «Поисковые работы на базальтовые породы в северной части гор Султанувайс» за 2019-2020гг.

7. ГОСТ Р 53237-2008 Стекловолокно. Общие требования безопасности при производстве.

8. Унифицированные методы анализа силикатных горных пород с применением комплекснометрии. Инструкция 163-Х.М.: ВИМС.1979.-33 с.

9. Ускоренные химические методы определения порообразующих элементов. Инструкция 138-Х.-М.:ВИМС.1976.-с.31-33.

10. Потеря при прокаливании. Инструкция 118-Х.-:ВИМС.1973.-с.10.

11. Спирин Ю.Л. и др. Справочник по производству теплозвукоизоляционных материалов.-М.: Стройиздат.1975.-383 с.

12. Махова М.Ф., Бачило Т.М., Томилко Г.Ф.// Методика определения температурного интервала плавления горных пород / В сб.: Промышленность полимерных мягких кровельных и теплоизоляционных строительных материалов. –Вып.6.-М., ВНИЭСМ.-1975.

13. Махова М.Ф., Горбачев Г.Ф. и др./ Некоторые особенности горных пород и их расплавов, пригодных для получения волокон/ В сб. : Строительные материалы, изделия и санитарная техника, Вып.5 –Киев,1982.

14. Павлушкин Н.М, Сентюрин Г.Г. и др.-Практикум по технологии стекла и ситаллов / М.,1970.

15. Методика определения температурного интервала выработки непрерывного волокна из горных пород /НИЛБВ ИПМ АН Украины.-К.1990.

16. Основы производства базальтовых волокон и изделий. Каменный век 2002г.

FOLKLOR VA MUMTOZ ASARLARDA XIZR OBRAZINING TALQINI

Tilakova Nafosat Kamol qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Adabiyotshunoslik kafedrasii kurs magistranti

Qarshi. O'zbekiston Respublikasi

+998997179693 nafosattilakova280 gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.d. professor **Shodmonov Nafas Nomozovich**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Xizr alayhissalom haqidagi mifologik tasavvurlar, va mumtoz adabiyotlardagi Xizr obrazi tahlil etilgan. Bundan tashqari Xizr alayhissalom haqidagi ulamolarning fikrlari keltirilgan. Farididdun Attor va Alisher Navoiy asarlarida Xizr obrazi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Xizr alayhissalom, obi hayot, xirqayi axsar, homiy, najotkor.

ABSTRACT

This article analyzes the mythological notions about Hizr, and the image of Hizr in the classical literature. In addition, the opinions of the scholars about Hizr are given. The image of Hizr is analyzed in the works of Farididdin Attar and Alisher Navoi.

Keywords: *Hizr, water life, hirkai aksar, rescuer.*

АННОТАЦИЯ

В статье представлены мифологические представления о Хизре анализируется образ Хизра в классической литературе. Кроме того, приводятся мнения ученых о Хизре. Образ Хизра анализируется в произведениях Фаридиддина Аттара и Алишера Навои.

Ключевые слова: *Хизр, водная жизнь, спонсор, спаситель, хиркаи ахсар.*

KIRISH

Qadim zamonlardan buyon odamlar ularni ilohiy bir kuch boshqarishiga e'tiqod qilib kelishadi. Yer kurrasida qancha din bo'lsa hamki, zamirida ehtiyoj va taslimiyat, madad, umid, najot tuyg'ulari bilan sug'orilgandir. Muqaddas Islom diniga e'tiqod qiluvchilar Allohning birligiga va payg'ambarlar Allohning elchilari ekanligiga e'tiqod qiladilar. Har bir payg'ambar alohida muhabbatga sazovor. Payg'ambarlarning sayyidi Muhammad mustafo sollollohi alayhi vassallamdurlar. Payg'ambarlar va avliyo zotlar, Allohning valiylari hayotlari haqidagi rivoyatlar og'izdan og'izga o'tarkan, boyib, kamayib, asliyatidan bir qadar yiroqlashgan.

Masalan. xalq orasida katta-yu kichik biladigan Xizr alayhissalom obrazidan mumtoz adabiyotda va xalq og'zaki ijodida keng qo'llaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xizr, Hazrati Xizr, Xizr buva — islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizr Qur'onda tilga olinmagan, lekin ulamolar Qur'onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizr deb talqin qiladilar. Xalq orasida Xizrga odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni qo'llab turish uchun Iso, Ilyos va Idris singari abadiy hayot ato etilgan, u hayot bulog'idan "obi hayot" ichgan va umri boqiy bo'lgan, o'ng qo'lining bosh barmog'i suyaksiz bo'lishi, nogahonda yo'liqib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'lishi kabi ogizdan ogizga o'tib kelgan gaplar bor. Xizr orollarda yashaydi, osmonda uchadi, dunyo bo'ylab kezib yuradi, har yili haj qiladi, juma kunlari Makka, Madina va Quddus sh.laridagi masjidlarda namoz o'qiydi. Dengizda suzuvchilarga homiylik qiladi, maxsus duolar bilan chaqirilsa, yordamga keladi: suvga cho'kayotganlarni qutqaradi, yong'inni o'chiradi, o'g'rilar xurujidan, jinlarning xiylalaridan, ilon chaqishidan asraydi. Chol, suvori yoki yo'lovchi ko'rinishida paydo bo'ladi, dehqon dalasiga yoki xirmonga nazar tashlasa, hosil barakali bo'ladi naznunidagi rivoyatlar bor. So'fiylar Xizrni avliyolar piri sifatida e'zozlaydi. Xizrning tirik ekanligi haqida aniq ma'lumot yo'q.

Qur'oni karimning **“Kahf surasi”**da Xizr haqida gap boradi. Unda keltirilishicha, Muso a.s. Allohga murojaat qilib, o'zidan ham ilmi ziyoda kishi bor yoki yo'qligini so'raydi. Olloh taolo Xizr undan ilmiroq ekanligini aytadi. Muso Xizr bilan uchrashadi. Unga hamroh bo'lishga ruxsat so'raydi. Xizr u nima ish qilsa ham o'zi aytmaguncha so'ramasligini uqtiradi. Yo'lda Xizr tomonidan kemaning teshilishi, bir bolani o'ldirishi, yiqilay deb turgan devorni tuzatishi Musoni hayratga soladi. Sabr qilolmay, har birining sababini so'raydi. Xizr hamrohlik shu yerda tugashini aytadi va voqealar sababini izohlaydi¹. Bu voqealardan Xizrga xos muhim bir sifat - yetuk ilm egasi ekanliklari oydinlashadi.

“Bas, bandalarimizdan bir bandani topdilarki, Biz unga O'z dargohimizdan rahmat ato etgan va O'z huzurimizdan ilm bergan edik”.¹

Ko'p sahih hadislar dalolat qilishicha, oyatdagi solih bandadan murod Xizr alayhissalomdir. Ba'zi ulamolar uni payg'ambar, deb bilishsa, boshqalar Xizrni Alloh tarafidan ilmi laduniy berilgan solih bandalardan biridir, deyishgan.

Ayrim ulamolar shunday deyishgan: “Bu oyatda, garchi martabalari farq qilsa ham, ilm oluvchi olimga itoat qilishiga dalolat qilinmoqda. Musoning Xizrdan ta'lim

¹ Qur'oni karim. 204-205-betlar.

olishi Xizrning Musodan afzal ekanini ko'rsatmaydi. Zero, fozil fazilatda o'zidan pastroq darajadagi odamdan ham tahsil olishi mumkin. Demak, Alloh u ikkisidan birini boshqalar bilmaydigan ilm bilan siyladi. Muso alayhissalom ilmi shariat ahkomlari, zohiriy hukmlar bilan bog'liq edi. Xizr alayhissalom ilmi esa ba'zi g'ayb narsalar va botiniy ma'rifat bilan bog'liq edi”.

Abu Hurayra roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi:

“U “Xizr” deb nomlanganiga sabab shuki, agar oq (quruq) yerda o'tirsa, ko'k rangga aylanardi (o'sha yerda o'simlik o'sardi, deyilmoqchi)” (Buxoriy rivoyati).

Yana bir tomoni, u kishining yashillik bilan aloqadorliklari. “Qisasi Rabg'uziy” da shunday deyiladi:

“Xizr ma'nisi yashil bo'lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o'ltursa ul tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr ataldi. Aymishlar: Qayu yerda o'ltursa ul yer ko'karur erdi”¹.

XVIII asr Xorazm shoiri Muhammad Niyoz Nishotiy o'zining “Qushlar munozarasi” asarida to'ti tilidan shunday fikrlarni bildiradi:

*Muttasil Hinddur manga manzil,
Xizrdek kiyganim erur yashil².*

Muhaqqiq ulamolar, jumladan, Imom Buxoriy, Ibn Qayyum va boshqalar fikricha, Xizr o'zga insonlar kabi vafot etgan. Boshqalar Xizr tirik ekani, oxiri zamonda vafot etishini aytishgan.

Ibn Qayyum aytadi: *“Xizrning tirik ekani aytilgan hadislarning barchasi yolg'ondir. Bu borada bironta ham sahih hadis yo'q. Bu masalani hadis ulamolari to'liq bayon qilishgan. Agar istasang, ularning qavllariga murojaat qil ”.*

Xizrga xos muhim sifatlardan yana biri uning homiyligi, qiynalgan, adashgan kishilarga yo'l ko'rsatishi, yordam berishidir. U yo'lda, dashtda, o'rmonda tunda ham, kunduzi ham kezib yuradi. Xizr go'yoki uyqudagi inson bilan ham muloqotga kirish xususiyatiga ega. U musulmon xalqlari tushunchalarida, asosan, nuroniy chol sifatida, Xizr bobo, Xo'ja Xizr, Hazrati Xizr nomlariga ega holda tasavvur etiladi. O'rta Osiyo xalqlari nazarida, Xizr nuroniy chol qiyofasida ko'rinadi, unga kim yo'liqsa, kim uni ko'rsa, baxtli bo'ladi. Ko'pgina musulmon mamlakatlarida Xizr kishilarni o't va suv balosidan, ilon va chayon chaqishidan himoya qiluvchi obraz sanaladi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida Xizr asar qahramonlarining piri, suyanchi, himoyachisi sifatida

¹ Qisasi Rabg'uziy. II kitob. 68-bet.

² Nishotiy. Qushlar munozarasi // Muborak maktublar. T., 1987. 293-bet.

namoyon bo`ladi. “Go`ro`g`lining tug`ilishi” dostonida tasvirlanishicha, Xizr Go`ro`g`lining homiysi:

*Bek bo`lganning bo`lmas ekan havosi,
Topilgay-da endi dardning davosi.
Go`ro`g`li shunday tashlanab qolganda,
Bolam, deb keldi er Xizr bobosi².*

Xalq qo`shiqlarida ham Xizrning insonlarni qo`llash, suyash, ularga pirlik qilishiga ishora qilinuvchi misralar uchraydi:

*Birda-ikkida to`yda aytganim yo`q, yor-yor,
Qo`l bergan xo`jayin Xizr o`zing qo`lla, yor-yor,
O`lan aytib to`ylarni gul qilasiz, yor-yor,
Bu Xizrni o`zingizga pir qilasiz, yor-yor³.*

Ozərbayjon olimi M.Saidov Xizrni turkiy tilli xalqlarga taalluqli timsol deydi. Xizrni iliqlik, o`t, olov bilan bog`laydi. Uningcha, Xizr yo`lda qolgan, adashganlarga yordam beradi¹.

Farididdun Attorning «Ilohiynoma» asarida «Ibrohim Adham va Xizr alayhissalom hikoyati» keltirilgan. Hikoyatda Ibrohim Adham ismli ulug` podsho a`yonlari bilan o`ltirganda, bir tuyachi chol qiyofasida Xizr kirib keladi. Ijzatsiz kirgan cholni ko`rib Ibrohim Adhamni jahli chiqadi. Shunda Xizr unga taklifsiz kirganinig sababini izohlab shunday javob beradi:

*Xizr dediki, bu karvonsaroydir,
Yo`lovchi bir qo`nib o`tmoqqa joydir.*

Ibrohim bu muazzam saroy qanday qilib rabot bo`lishi mumkin deb jaxllanganda Xizr bu go`zal saroylarda necha kishilar shoxlik davrini surishgan, kun kelib joningni Allohga topshirganingda sendan ham qoladi. Shu boisdan bu yer rabotdan o`zgasi emas deb javob beradi. Bu gaplardan so`ng Ibrohimning qalbi yonib shoxlikdan voz kechib Xizrga ergashadi. Taqvo yo`liga kiradi.

*Xizr ergashib, bo`ldi ravon ul,
Ki mardlar ichra mardi paxlavon ul.*

Hikoyatda dunyo doimiy joy emasligini eslatish bilan birga nasihat agar aniq nishonga tegsa qanday kuchga egaligi ta`kidlanmoqda. Xizr alayhissalom Ibrohim Adhamga shunday so`z o`yini qilib qalbiga ta`sir qiladigan nasihat qildi. Natijada Ibrohim Adham nasihatdan foyda topdi. Agar kimdir olimlarning nasihat va

² Go`ro`g`lining tug`ilishi. Dostonlar. T., 1967, 72-bet.

³ Oq olma, qizil olma. T., 1972.160-bet.

¹ Oq olma, qizil olma. T., 1972. 128-bet.

eslatmalaridan foyda topmayotgan bo'lsa, buni ikki sababi bor. Biri qalbni qotib ketganidan bo'lsa, ikkinchi sabab nasihat qiluvchining iqtidori kamligidan bo'ladi. Ilm shunday narsaki uni egallash ko'plarga nasib qilish mumkin. Lekin bu ilm bilan boshqalarni tarbiya qilish alohida fasohat talab qiladi. Fasohat hamma olimlarga emas balki ilmiga amal qiluvchilargagina nasib qiluvchi ilohiy ne'matdir. Agar qaysi yurtda olimlar ko'p bo'lsa ham natija ijobiy bo'lmayotgan bo'lsa, demak ilmiga amal qiluvchilar kamligidandir. Hikoyatning umumiy ma'nosiga kelsak, bu dunyo hammamiz uchun ham rabot ya'ni, mehmonxondadir. Kimki dunyoni shunday ko'rmas ekan najot topishi mumkin emasdur. Dunyoga mehr bermay oxiratni tanlaganlarga shunday rohat va xotirjamlik beriladiki, ahli dunyolar bu rohatni tushuna olmaydilar. Shuning uchun ulug' mashoyiqlarimizni so'zlari ta'sirli edi. Chunki ular bu rohatni avval o'z qalblarida vujudlarida his qiladilar. Ularni shu ma'noda aytgan so'zlariga e'tibor qilaylik:

Agar dunyo podshohlari biz topgan rohatni bilib qolganlarida, bizdan bu ne'matni tortib olish uchun ustimizga qo'shin tortib kelgan bo'lar edilar...

Mumtoz adabiyotimizda bo'lganidek, "Xamsa"da ham ko'p bor nomi tilga olingan ulug' zotlardan biri Xizrdir. Xizr, u kishiga xos sifatlar, bu obrazning yozma adabiyotdagi o'rni, poetik vazifalari, xalq og'zaki ijodi asarlari va mumtoz adabiyotda uchraydigan Xizr xususida ko'pgina tadqiqotlar yaratilgan. Yuqorida qayd etganimizdek, Xizr yashillik bilan aloqador. "Farhod va Shirin" dostonidan olingan mana bu baytda Xizr kiyimining yashilligi nazarda tutilgan:

Bo'yig`a nazm solg`on hulla axzar,

Dema to`ti, degil Xizri payambar.

("Farhod va Shirin". 28-bet)

Navoiy dostonning oltinchi bobida "Qalam vasfida" gapiradi. Nizomiy, Xusrav Dehlaviylarni ulug'laydi. Xusrav Dehlaviyni madh etib, uni "gucharrez", "hinduyizodi shakarrez" ("hinduyizod-hindistonlik Xusrav Dehlaviy"), "Shirin maqol", "bulbul" deya nisbatlaydi. Uni Xizr payg`ambar deb biladi. "Hulla axzar" – yashil to`n degani. Ana shu birikma Xizr kiyimiga ishora qilmoqda. "Sab'ai sayyor"da ham shu mazmundagi bayt bor:

Xizr monand sabzadin rangi

Sabzasi suyi ko`zgusi rangi.

("Sab'ai sayyor". 178-bet)

Dostonning yigirma beshinchi bobi uchinchi iqlim yo`lidan kelgan musofir hikoyati haqida. Unda Misr mamlakatilik Sa'd afsonasi keltiriladi. Sa'd o'z uyida turli kishilarni, musofirlarni ziyofat qilib, qiziq sarguzashtlarni tinglardi. Bir kuni ikki

g`arib keladi. Ular boshdan oyoq yashil kiyimda edi. Musofirlar Shahrisabzdan ekanliklarini, yashillikka burkangan yurtliklarini aytishadi. Yuqoridagi bayt ham Shahrisabz ta`rifida. Shaharning yashilligini Xizrmonand, ya`ni sabz rang deya uqtirishmoqda. Mana bu misralarda ham Xizr sifatleri bayon qilingan:

Xirqasi axzaru aso axzar,

Go`yi ul erdi Xizr payg`ambar.

(“Sab`ai sayyor”. 188-bet)

Ushbu bayt ham dostonning shu bobidan olingan. Sa`d ko`rgan tushining ma`nosini topish uchun g`orda necha yildan buyon maqom tutgan bir pir bilan uchrashadi. Pir boshidan o`tgan voqealarni gapirib beradi. Donishmand bu zot tush ko`rib, ta`birini topolmay qiynalgani, jonidan umid uzganida bir pir duch kelgani, uning **“xirqasi axzar”** – kiyimi yashil, **“aso axzar”** – hassasi yashil bo`lib, xuddi Xizrga o`xshashini aytadi. Bu yerda ham kiyim va aso rangi Xizr ko`rinishiga o`xshatilgan. Dostonning bir o`rnida **“Xizr yanglig` libosi rayhoniy”** deyilgan. Bu ham yashillikka ishora.

“Saddi Iskandariy”da Iskandarning Hindistonga safari haqida gapiriladi. Hindistonning go`zalligi madh etiladi. Dehli yaqinidagi Nigor o`rmoni ta`riflanar ekan, Navoiy shunday baytni keltiradi:

Qo`nub qay shajar uzra axzar qilib,

Ne axzarki, Xizri payambar qilib.

(“Saddi Iskandariy”. 311-bet)

O`rmon, daraxtlar, undagi qushlar haqida gapirilib, har bir daraxtning yashilligi Xizrga qiyoslanmoqda. “Xamsa”da Xizr, u kishi ega bo`lgan tiriklik suvi kiritilgan baytlar ham anchagina. Ko`pgina manbalarda Xizr payg`ambar, ba`zi o`rinlarda avliyo, ba`zan esa mifik obraz tarzida talqin etiladi. Bizningcha, Xizr ega bo`lgan “obi hayot”, “tiriklik bulog`i” tushunchalari mifologik tasavvurlar bilan bog`liq. Hayot suvi, “obi hayot”, uning zulmat olamida ekanligi, bu suvni Xizr, Ilyos va Iskandar izlagani haqidagi tafsilotlar boshqa o`rinlarda keltiriladi. “Xamsa” da Xizr bilan bog`liq voqealar bisyor.

Xizr ega bo`lgan sifatlardan yana biri hamrohlik, odamlarga to`g`ri yo`l ko`rsatish, og`ir damlarda suyanch bo`lish. “Xamsa” da ana shu mazmundagi misralar ham uchraydi. Bu narsa Xizr so`zi mohiyati bilan ham aloqador. Tilshunos olim N.Husanovning qayd etishicha, “Xizr matnlarda “hamkorlik qiluvchi, hamroh, avliyo, yo`l ko`rsatuvchi, yashil, daraxt, ma`shuqa labidagi tuk, mangu tirik, ustoz” kabi ma`nolarni ifodalaydi”.

“Saddi Iskandariy” dostonidan olingan mana bu baytda Xizrning kishilarga hamrohlik qilishi aniq tasvirlangan:

*Safar qilmag`ong`a ne ogohliq,
Ki elga qilur Xizr hamrohliq.*

(“Saddi Iskandariy”. 255-bet)

XULOSA

Yozma adabiyotning negizida xalq ogzaki ijodining boy merosi yotadi. Aksariyat obrazlarning etimologiyasiga nazar tashlasak, ular xalqning badiiy ijod mahsulidir. Shular jumlasida mumtoz adabiyotda juda keng qo`llanadigan Xizr obrazi ham mifologik qahramonlardan biriga aylangan. Xulosa o`rnida aytish mumkinki, Qur`onda Xizr alayhissalomning abadiy tirik ekanliklarini isbotlovchi oyat yo`q. Xizr alayhissalom Allohning solih bandasi va u hamma qatori vafot etgan. Obi hayot haqidagi fikrlar esa mifologiya bilan bog`liq. Ta`riflarda Xizrning bir qancha sifatlari bor ekanligi qayd etiladi. Jumladan, uning boqiy hayot ekanligi, hamrohlik qiluvchi avliyo, og`ir damlarda yordamga keladigan najotkor.

REFERENCES

1. Shayx Farididdun Attor. Ilohiynoma. T. :Musiqqa,2007. 270-bet
2. Husanov N. XV asr o`zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari //Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2000. 30-bet.
3. Oq olma, qizil olma. T.: 1972. 128-bet. 160-bet.
4. Qur`oni karim. 204-205-betlar.
5. 5.Qisasi Rabg`uziy. II kitob. 68-bet.
6. Nishotiy. Qushlar munozarasi // Muborak maktublar. T.: 1987. 293-bet.
7. Go`ro`g`lining tug`ilishi. Dostonlar. T. : 1967, 72-bet.
8. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. MAT.20 tomlik.11-tom. T.:1993. 311-bet.
9. Alisher Navoiy. Sab`ai sayyor”.T.: 1991 188-bet, 178-bet,
10. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin” .MAT.20 tomlik.T.:1991. 28-bet

IBN MISKAVAYH AXLOQIY QARASHLARIDA INSON KAMOLOTI MASALASINING QO‘YILISHI

Sulaymonova Shahnoza Nodirovna

Toshkent shahar yuridik texnikumi

shahnozanodirovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ibn Miskavayh qarashlarida insonning komillik sari intilishi va uni muntazam rivojlantirish orqali baxt-saodatga erishish yo‘llari bayon etilgan hamda germenevtik tahlil qilingan. Mavzuni yoritishda uning fors va arab tillarida yozilgan asarlari birinchi manba asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Ibn Miskavayh, “Tahzibul-axloq”, “Kitab at-Tahora”, “Tathirul-A’roq”, amaliy axloq, go‘zal xulq, axloqiy komilik, baxt-saodat, johiliyat, aql va e’tiqod, adolat.*

ABSTRACT

In this article, Ibn Miskawayh discusses and hermeneutically analyzes the ways in which a person strives for perfection and achieves happiness through its constant development. In covering the subject, his works written in Persian and Arabic have been studied on the basis of the first source.

Keywords: *Ibn Miskawayh, “Tahzibul-akhlaq”, “Kitab at-Tahara”, “Tathirul-Araq”, practical morality, good manners, moral perfection, happiness, ignorance, reason and faith, justice.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье Ибн Мискавайх обсуждает и герменевтически анализирует способы, которыми человек стремится к совершенству и достигает счастья через его непрерывное развитие. При освещении этой темы его произведения, написанные на персидском и арабском языках, были изучены на основе первого источника.

Ключевые слова: *Ибн Мискавайх, “Тахзибул-ахлак”, “Китаб ат-Тахара”, “Татхирул-Арак”, практическая мораль, хорошие манеры, нравственное совершенство, счастье, невежество, разум и вера, справедливость.*

KIRISH

Ilm dunyosidagi har qanday ilmning tarixisiz nazariyasi bo‘lmaydi, degan hikmat, ayniqsa axloqshunoslikka taalluqlidir. Zero, axloqshunoslik tarixi axloqiy tafakkurning vujudga kelishi hamda uning taraqqiyoti qonuniyatlarni o‘rganadi, ma’naviy merosning ulkan qismi bo‘lishi axloqiy ta’limotlar, hikmatlar, pand-

o'g'itlarni zamonaviy jamiyat hayotiga tadbiq etish targ'ib qilish yo'llarini tahlil etadi. Garchand har bir axloqiy konsepsiya ma'lum bir mutafakkir mulohazalari va faoliyatining mevasi bo'lsada, u mohiyatan, muayyan tarixiy davr talabidan kelib chiqadi. Ayni paytda, turli odob va axloqiy qonun-qoidalarini o'z ichiga oladigan axloqiy targ'ibot muammolari, axloqiy pand-o'g'itlar va me'yoriy talablarni bajarish, axloqiy boshqarish sohasiga kiradi hamda axloqshunoslikning odatda "amaliy axloq" deb ataladigan qismini tashkil etadi.

Amaliy axloqning dastlabki namunalari bundan 3 yarim ming yil avval paydo bo'ldi.

Falsafiy-axloqiy oqimlar borasida gap ketganda, musulmon Sharqida ikki yo'nalish alohida o'rin tutadi. Bular mashshoyyunlik va tasavvuf axloqshunosligi. O'rta asr musulmon Sharqida mashshoyyunlik yoki, boshqacha qilib aytganda, arastuchilik oqimining vakillari buyuk mutafakkirlar al-Forobiy, at-Turkiy, Abu Ali ibn Miskavayh, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abul Barakat al – Bag'dodiy, Umar Xayyomlar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida Ibn Miskavayhning "Tahzib ul-axloq va Tatxir ul-a'roq", "at-Tahara", "Jovidon xirad" va "Kitab adab ad-dinya vad-din" kabi asarlaridan foydalanildi. Shuningdek, Abdul Aziz Izzatning "Ibn Miskavayhning axloq falsafasi va uning manbalari" asariga murojaat etildi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Arastu izidan borib Miskavayh ham falsafani nazariy va amaliy falsafaga bo'ladi hamda axloqshunoslikni amaliy falsafa tarkibiga kiritadi. Axloqiy muammolar uning "Tahzib ul-axloq va Tatxir ul-a'roq", "at-Tahara", "Jovidon xirad" va "Kitab adab ad-dinya vad-din" singari asarlarida ko'tarilgan.

Mutafakkirning "Tahzib ul-axloq va Tathir ul-a'roq" ("Axloq takomili va Ildizlar pokligi") asari uning ilmu axloq va hikmatga doir asarlari ichida asosiy o'rin egallaydi. Islom falsafasining ko'zga ko'ringan tarixchilaridan biri Majid Faxrining ta'kidlashicha, Ibn Miskavayhning etikaga qo'shgan hissasi uning sistematik etikaga oid arab tilida yozilgan ushbu risolasidir. Bu asar yunon falsafiy-axloqiy an'alariga bog'liqdir. Asarda muruvvatlilik, baxt, adolat, muhabbat va do'stlik muammolari ko'rib chiqiladi. Masalan, adolat haqida Miskavayh shunday yozadi: "Adolat maqsad

va imkoniyatning o‘rtasidagi narsadir, yaxshiliklar ichida eng afzali hamjihatlikka eng yaqinidir”.²⁵⁰

Faylasuf huquqshunos, so‘fiy zamondoshi va do‘sti Abu Hayyan at-Tavhidiyning “Nohaqlik to‘g‘risida”gi xati bevosita “Risola fi-mihayyatil-adl”ning yozilishiga sabab bo‘ldi. At-Tavhidiyning “al-Hamavil” kitobiga javob tarzida yozilgan falsafa, tilshunoslik va huquqqa oid 175 savol-javobni o‘z ichiga oluvchi “ash –Shamovil” kitobida (yo‘qolgan) Miskavayh adolatning tabiati, uning namoyon bo‘lishi va ko‘rinishlari tasvirlanishining qay tarzda sharh qilish yo‘llarini aniqlaydi. U adolatni haqiqiy, shartli, erkin harakatga asoslangan va ilohiy adolatga bo‘ladi. Shu bilan birgalikda adolat konsepsiyasi, uning fizik, ijtimoiy hamda falsafiy munosabatida ko‘rib chiqiladi. Mazkur risolaning asosiy manbalari Platonning “Davlat”, Arastuning “Kategoriyalar”, “Nikomax etikasi” kitoblari bo‘lgan.

Miskavayh “Axloq takomili” asari muqaddimasida kitobining mavzusi va bayon usuli haqida bunday deydi:

“Bu kitobda qo‘ygan maqsadimiz shuki, o‘z ruhimizga shunday sifatlarni berdikki, uning yordamida qiyinchiliklarsiz yengil va go‘zal harakatlar qilsak. Bunday sifatlarni egallash o‘zlashtirilgan mahorat layoqat, tartib-qoida asosida vujudga keladi.

Bizning yo‘limiz-bu ruhimizning borliq tizimidagi mohiyati, sifatlari va paydo bo‘lish sabablarini bilishga intilishidan iborat. Ya’ni ushbu paydo bo‘lishning maqsadini bilish va bizga berilgan quvvat va qobiliyatlar javharini anglash. Zero, biz ana shu quvvat va qobiliyatdan kerakli o‘rinda foydalansak, yuksalamiz.

Va bu maqsad yo‘lida bizga halaqit beradigan narsalarni bilish ham vazifamizga kiradi. Shuningdek, iymon saodatini egallashga yordam beradigan sabablarni aniqlash bilan ruhimizni oziqlantiradiganlarni ham bilib olishni xohlaymiz”.²⁵¹

Miskavayhning axloq asoslari to‘g‘risida aytgan fikrlari - bu axloqiy-falsafiy tahlil, demak, qo‘lga kiradigan natijani ham falsafiy natija deyish mumkin. Va shu yerning o‘zida u o‘z yo‘lini axloq masalasida jon kuydiruvchi tasavvuf va irfon ahli hamda Qur‘on va sunnatga amal qiladigan, ammo shariatni zohiriy anglaydigan kishilar yo‘lidan ajratib ko‘rsatadi.

Miskavayhning axloqi bu dunyoviy axloq, bunda u Aflotun bilan Arastu fikrlaridan keng foydalanadi. Ammo unga Arastu eng ko‘p ta’sir o‘tkazgan. Aytish mumkinki, kitobning butun mazmuni bo‘lmasa ham, har holda ko‘p narsalarni Arastudan o‘zlashtirgan.

²⁵⁰ Majid Fakhry. History of Islamic Philosophy, N.Y. 1970 y

²⁵¹ Abdul Aziz Izzat. Ibn Miskavayhning axloq falsafasi va uning manbalari. Qohira, 1946 y. –B.317

Miskavayhning ideal baxt-saodati-bu oqilona baxt –saodatdir. Harakat esa, garchi u ham muhim va asosiy narsa bo‘lsada, ammo u shunchaki bir vosita bo‘lib, agar odamni oxirgi maqsadiga olib kelmasa, u nomunosibdir. Aql haqida gapirar ekan, faylasuf yangi aflotunchilar talqinidan o‘tib islomga kirib kelgan yunonchilar aqliy merosini nazarda tutadi.

Komillashuvning birinchi bosqichi, uningcha bu – ilm yordamida erishiladigan imkoniyatdir. Komillikka intiluvchi inson barcha ilmlarning yakuni va oxiri bosqich bo‘lgan parvardigorni bilish darajasiga yetish uchun zina va bosqichlar bo‘lib, sabr toqat bilan mukammallashish lozim.

Inson harakat quvvatiga bog‘liq bo‘lgan komillashuvning ikkinchi bosqichi - bu axloqiy takomillashuv bo‘lib, insoniy “faoliyat imkoniyati” bilan bog‘liq harakatlarida kuchni taqsimlashdan boshlanadi.

Nazariy takomillashuv bamisoli shakl (surat) bo‘lsa, amaliy komillashuv-materiya (modda)dir va bularning birortasi ham ikkinchisiz qiyomiga (yakuniga) borib yetmaydi, ilm-bu boshlanish, harakat (yoki ish, faoliyati) esa, bu – oxirgi yakun.²⁵²

Inson o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘lida hamma maxluqot va uning xossalari haqida bilimga ega bo‘lgan taqdirdagina (narsalar, ularning mohiyati, belgilovchi chegaralari haqidagi bilimni egallash), u “olami sag‘ir”- kichik olam deb atalishiga munosibdir. Albatta, inson mavjud narsalarni kulldan bilsa, u ju‘zlarni ham (chunki ju‘zlar kull ichidadir) bilib olishi muqarrardir. Shunday qilib, agar inson komillikning ana shu darajasiga (ilmiy darajasiga) yetib borsa, keyin o‘z quvvatlarini takomillashtirish harakatida qo‘llaydi va o‘zining ichki quvvat hamda qobiliyatini bor bilimiga muvofiqlashtirib, o‘zi bir olamga aylanadi. Zero narsalarning surati uning mohiyatining bir qismi bo‘lib qoladi. Bunday vaqtda qandaydir holatda, u olam(undagi jami narsalar bilan birga) bilan birlashib, yagona yaxlitlikni tashkil etadi.

